Kokand University

SHAXS MA'NAVIYATINING SHAKLLANISHIDA TIL VA ADABIYOTNING ROLI

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami

[DATE]

[COMPANY NAME]

[Company address]

QO‘QON UNIVERSITETI

SHAXS MA’NAVIYATINING SHAKLLANISHIDA

TIL VA ADABIYOTNING ROLI

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami

Qo‘qon – 2025

UO‘K:316.42:811.512.133
KBK 60.56+81.2O'zb

Shaxs ma’naviyatining shakllanishida til va adabiyotning roli

Qo‘qon universiteti direktori
G.E.Zaxidov tahriri ostida

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmoni, “Ma’naviyat va ma’rifat tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6100-sonli qarori hamda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini hayotga tatbiq etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5127-sonli qarorida belgilab berilgan adabiy merosni keng o‘rganish, targ‘ib qilish, mumtoz adiblar asarlarini nashr qilish va o‘rgatish, yozuvchilar, olimlar va ijodkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash kabi asosiy masalalar ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkazilgan anjuman materiallaridan tashkil topgan.

Tahrir kengashi:

Shuhrat Sirojiddinov - Akademik, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Boqijon To‘xliyev - Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jabbor Eshonqulov - Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nurboy Jabborov – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Maqsud Asadov – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Zeboxon Qobilova – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Olimjon Davlatov- Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ruxsora Davlatzoda- Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Svetlana Bezgodova - Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yelena Glubokova - Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Jamoliddin Qambarov -Iqdisod fanlari doktori (DSc), dotsent
Boburmirzo Xursanaliyev -Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha faslafa doktori

Konferensiya materiallarini nashrga tayyorlaganlar:
Sh.Jumanova, G‘.Rahmonov, M.Imomaliyeva, N.Tursunova, G.Ashurova, H.Raimova, G‘. Abdupattoyev, N.Javharova, S.Ergasheva

SO‘Z BOSHI

Assalomu alaykum, hurmatli konferensiya ishtirokchilari, qadrli ilm ahli, ustozlar va mehmonlar!

Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotidir”, degan edilar. Darhaqiqat, har bir avlod o‘tgan bobokalonlarining tili va adabiyotini asrlardan asrlarga sof holda olib o‘tishni o‘zlariga sharafli burch deb bilishlari kerak.

Qo‘qon universitetida tashkil etilgan “Shaxs ma’naviyatining shakllanishida til va adabiyotning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘z oldiga ulkan maqsadlar qo‘ygan. Bugun anjumanda ko‘tariladigan va yechimlari taklif etiladigan masalalar nafaqat ilmiy jihatdan, balki jamiyatimizning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojlanishi uchun ham nihoyatda muhimdir.

Til — bu nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning tarixini, madaniyatini va urf-odatlarini saqlovchi kuchdir. Adabiyot esa tilni go‘zallik va nafosat bilan to‘ldirib, inson his-tuyg‘ularini ifoda etishda beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun til va adabiyot insonning ichki dunyosini, uning ma’naviyatini boyitish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Adabiyot orqali biz nafaqat boshqa insonlarning ko‘ngil tug‘yonlarini his qila olamiz, balki o‘zimizni anglashga, ruhiy kechinmalarimizni tushunishga ham erishamiz. Hozirgi kunda adabiyotning ta’siri yanada ortib bormoqda: u yosh avlodni tarbiyalashda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Men anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman!

G.E.Zaxidov,

Qo‘qon universiteti direktori

1-SHO‘BA: TIL VA ADABIYOT – MILLIY G‘URUR, MADANIY MEROS VA MILLIY QADRYATLAR POYDEVORI

NORMUROD NORQOBILOV ASARLARIDA INSON VA TABIAT TASVIRI

Yo‘ldosh Solijonov,
filologiya fanlari doktori, professor,
Farg‘ona davlat universiteti
Mo‘minova Moxitabon Bahodir qizi,
Farg‘ona davlat universiteti,
1-kurs tayanch doktoranti
mominovamohitabon@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Normurod Norqobilovning asarlarida inson va tabiat munosabatining badiiy talqini tahlil qilinadi. Yozuvchi “Tog‘ odami” qissasi orqali insonning tabiatga nisbatan ichki kechinmalari, ekologik ong darajasi va ma’naviy uyg‘unlik holatlarini yoritadi. Adib asarlarida hayvon obrazlari insoniy fazilatlar bilan uyg‘unlashtirilib, tabiat va inson birligi g‘oyasi ilgari suriladi. Maqolada Jondosh obrazining tahlili orqali inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar badiiy, ruhiy va axloqiy jihatdan chuqur ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: tabiat tasviri, inson obrazi, ekologik ong, badiiylik, ramziy obrazlar, hayvon timsollari, ramz.

Аннотация

В статье рассматривается художественная интерпретация взаимоотношений человека и природы в произведениях Нормурода Норкубулова. Особое внимание уделено повестям «Человек гор» в которых через образ Джондоша раскрывается внутренний мир человека, его духовное единение с природой, а также экологическое сознание. Использование образов животных как символов человеческих качеств позволяет писателю акцентировать идею гармонии между человеком и окружающей средой. Работа анализирует философские и нравственные аспекты таких отношений.

Ключевые слова: образ природы, образ человека, экологическое сознание, художественность, символические образы, животные символы, символ.

Abstract

This article analyzes the literary depiction of the relationship between humans and nature in the works of Normurod Norqobilov. Special focus is given to the stories “Mountain Man” where the character Jondosh embodies ecological

consciousness and emotional harmony with nature. Through animal symbols reflecting human traits, the author promotes the idea of unity between man and environment. The paper explores the aesthetic, psychological, and moral layers of these interactions, highlighting Norqobilov's unique ecological narrative style.

Keywords: image of nature, image of man, ecological awareness, artistry, symbolic images, animal symbols, symbol.

Normurod Norqobilov 1953-yilda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumanidagi Qishliq qishlog‘ida tavallud topadi.Yozuvchi bo‘lmoq uchun hayotni o‘rganmoq kerak, degan shiorga amal qilib, zavod va fabrikalarda slesar, temiryo‘l depolarida vagon tuzatuvchisi, stantsiyalarda yuk tushiruvchi bo‘lib ishlaydi va turli toifadagi kishilar bilan muloqotda bo‘lib, ularning xarakter xususiyatlarini, dunyoqarashlarini o‘rganadi.

Yozuvchi o‘zining tarjimayi holida tabiat va hayvonot dunyosi uni qanday o‘ziga ohangrabodek tortgani haqida quyidagicha eslaydi:

“Tabiat hodisalari va fasllar almashuvidan o‘zimcha ma’no qidiradigan bo‘ldim. Uy burchagidagi javonda o‘qigan kitoblarimning soni ortgani sayin nafaqat tafakkurimda, balki fe’limda ham o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlagandi. Kitoblar ta’sirida qishloqqa sig‘may qoldim. Dala-dashtu, qir-adirlarga intila boshladim. Qishloqdan narisi qir-adirlik, so‘ng chek-chegarasiz tog‘lar boshlanardi. Sukunat bag‘riga cho‘mib, istaganingcha xayol sur, xalal beruvchi biror kimsa yo‘q, jonivorlar esa g‘ij-g‘ij edi. Bu paytda jonivorlarga ozor berishdan tiyilgandim. Chunki bu dunyoda barcha narsa tabiiy uyg‘unlik asosiga qurilgani va tabiatga ozor beruvchi yolg‘iz jon odam bolasi ekanligini favqulodda anglab etgandim. Oqibat, yovvoyi tabiat va jonivorlar do‘stimga aylandi [1, 37].

Ilk hikoyasini 1982-yilda e’lon qilgan yozuvchi Normurod Norqobilovning bugungi o‘zbek hikoyachiligida voqelikka munosabati va obraz yaratish, uslubi kompozitsion o‘ziga xosligi nimada ko‘rinadi? Avvalo, aytish kerak-ki, adib insonni tabiat bilan bir butunlikda tasvirlaydi. Inson va tabiat masalasi uning ijodiga xos asosiy belgi. Yozuvchi yaratgan hikoyalarining qahramonlari insondan tortib hayvonot va nabotot dunyosini ham qamrab oladi. [2, 536].

Normurod Norqobilov asarlaridagi roviy tabiat qonunlarini obdon o‘zlashtirgan, hayvonot dunyosi bilan yaqindan tanishgan. Hayvonlarning xatti-harakatlari xuddi ekran tasvirlarida ko‘ringanidek, o‘quvchi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Kitobxon ham tasvirga olingan jondorlar bilan birga o‘ngirlarda, toshsupa labida, kavaklarda g‘animlardan pana joylarda yurgandek bo‘ladi. Tabiatning hech qayerda yozilmagan qahrli qonunlaridan xabar topadi, unga o‘zi ham bo‘ysungandek bo‘ladi. Paxmoq, Yoldor, Qoravoylar bilan birga Egridara,

Toshloqsoy, Qoradara, Bujurqoya, Chuqurkamar, Murodqoya, Qo‘ng‘ir, Yalangqoya, Qing‘ir tizmalari, Ichakdara, Ko‘kbuloq qishlog‘i, Qiziljar, Ilondara, Qizilbet, Oqsuv, Do‘lanazor, Uchdara, Qoratepa, Bo‘rijar, Qilso‘qmoq kabi tabiatning o‘zi sifatini keltirib qo‘ygan tog‘ makonlarida kezinib, yashash uchun kurashib yurgandek bo‘ladi. Yozuvchining tasvirlash uslubi, o‘ziga xosligi shundaki, tog‘ so‘qmoqlarini, qoyalar va irmoqlarni erinmay tasvirlaydi. U erda yurgan, hayot kechirayotgan jondorlarni ham hadik bilan, atrofida olazarak qarab yurishlari, hayot tarzi ijodkor nigohidan chetda qolmaydi [3,66].

Shuningdek, adib qissalarida inson tabiatidagi murakkablik bilan tabiat hodisalarini bir butunlikda ko‘rsatadi hamda insonning ko‘ngil mayli bilan ma’naviy olami, odamiylik va insoniy qismat, taqdir yuzma-yuz kelishi tasvirlangan [4, 228].

Ichki kechinmalar, tuyg‘ular, hislar in’ikosi orqali inson qiyofasining to‘la namoyon bo‘lishi badiiylikning muhim mezoni. Bu hol, o‘z navbatida, istiqlol adabiyotining o‘ziga xosligini belgilaydi. Normurod Norqobilovning “Qoyalar ham yig‘laydi”, “Tog‘ odami” qissalari buning yorqin misolidir [5, 208].

Normurod Norqobilov “Tog‘ odami” qissasida tog‘ni o‘ziga vatan tutgan Jondosh obrazi orqali butun hayvonot dunyosini tasvirlashga harakat qiladi. Asar voqealari tog‘ va uning atrofida ro‘y beradi. Jondosh obrazi asarda tabiat va atrof-muhit himoyasiga otlangan obraz sifatida gavdalanadi. U asarda goh tabiat ramzi bo‘lib gavdalansa, goh esa ana shu tabiatni borligicha saqlanishiga ko‘ngilli yollangan tabiat qo‘riqchisi sifatida paydo bo‘ladi. Yozuvchi bu qissasida tabiat va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yirik planlarda ko‘rsatishga va ekologiya bilan bog‘liq muammolarni kengroq yoritishga harakat qiladi.

Qissada tobora o‘z nafsi ortidan quvib tabiat ne’matlarini isrofgarchilik bilan sarflayotgan, hayvonot dunyosiga esa zarar etkazib undan qorin to‘ydirish yoki moddiy manfaat yuzasidan foydalanayotgan insonlarga qarshi kurashayotgan Jondosh obrazini yaratadi. Bu obraz hayoti davomida juda ko‘p aldangan, yaqinlariga bo‘lgan ishonchni yo‘qotgan obraz sifatida tasvirlanadi. Keyinchalik odamlardan bezadi va o‘zi uchun tog‘ni makon qilib shu erda yashay boshlaydi. Bu qiziqish o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi.

“Dastlab so‘qmoq bo‘yida cho‘zilib yotgan tog‘terak yonidan bemalol o‘tib ketadigan odam so‘ng-so‘ng, uning yiqilish sababi bilan qiziqsinadigan, keyin esa beixtiyor achinadigan odat chiqardi… Buloqboshi hududini o‘zlashtira borgani sayin, archalar o‘z-o‘zidan unmasligini, tog‘-teraklarsiz soybo‘yi g‘arib tus olishini, belga uradigan o‘t-o‘lanlar g‘oyat nozik kelishini idrok eta bordi”.

Jondoshning qo‘rg‘oni tasviri bizga tabiatdagi hayvonlar uchun yaratilgan qo‘riqxonani yodga soladi. Bu qo‘rg‘onda uy hayvonlaridan tortib to yovvoyi

hayvonlarga qadar uchratish mumkin edi. Bu hayvonlarning boshqalardan farqi – ularning barchasi yaralangan yoki mayib bo‘lgan jonivorlar edi. Ularning orasida bo‘rining yo‘qligi uni insonga bo‘ysunmasligi, erkni xush ko‘rishi bilan izohlanadi. Jondosh bu hayvonlarni barchasini davolab, yana qo‘yib yuboradi. Ana shu holatda u mehribon tabiat timsolida namoyon bo‘ladi. Jondosh –ona tabiat, u g‘amxo‘rlik qilayotgan hayvonlar esa turli qiyofa, turli xarakterga ega insonlar ramzidir. Jondosh mayib bo‘lgan hayvonlar tuzalgach, bir narsani intiq kutadi: davolagan hayvonlari ketadimi yoki u bilan qoladimi? Aksar hayvonot olami vakillari tuzalganlaridan so‘ng ortlariga qaramay ketishadi. Bu hayvonlar – tabiatdan o‘z bilganlaricha yoki o‘zlariga kerak paytda foydalanib, keyinchalik u haqida umuman g‘amxo‘rlik qilmaydigan insonlarning qissadagi tasvirlaridir. Qissada barcha hayvonlar qatorida uch hayvon alohida tasvirlanadi va ular uch toifadagi insonlar xarakterini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Birinchisi Jondoshning iti – Bo‘ynoq. Bilamizki, itlar sadoqat ramzi. Shu sababdan ham insonlar o‘zlari bilan uni doimo hamroh sifatida birga olib yurishgan. Qissada Bo‘ynoq tabiatga qayg‘uradigan, o‘zini tabiat farzandi hisoblagan, ma’suliyat tuyg‘usi bo‘lgan insonlarni gavdalantirishga xizmat qiladi.

Jondoshning bu so‘zlari orqali shu narsa oydinlashadiki, agar insonlar bir hayvon uchun achinish tuyg‘usini his qilishsa, tabiat o‘z bag‘riga olgan barcha narsa uchun– xoh u jonli, xoh jonsiz bo‘lsin –qayg‘urishi aks etadi. Shuning uchun ham Jondosh o‘ziga zarar etishini emas, aksincha qo‘rg‘on yakson etilishidan havotirda yuradi. Chunki, qo‘rg‘on ona tabiat ramzi edi, u yakson etilsa, hamma narsa o‘z muvozanatini yo‘qotar edi. Tabiatda hamma narsa o‘simlikdan tortib hayvonot dunyosiga qadar bir-biriga bog‘liqligi talaba yigit tomonidan aytilgan va Jondosh tomonidan takrorlangan quyidagi jumlada ham o‘z tasdig‘ini topadi.

“Uzoq yili qo‘rg‘onga bir ustudent bola keluvdi…Shu yigit aytdiki, dunyoda hamma narsa bir-biriga bog‘liq ekan. Agar biror narsa, masalan, jondor yo‘qotilib yuborilsa, odamzod ham o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘p ketarkan. Yana dediki, tovdagi mana bu archalar kesib yuborilsa, kasofati albatta odamlarga urarkan”[6,87].

Ikkinchisi – Oqtush ismli kiyik bolasi. Uni Jondosh onasidan etim qolganida topib oladi va qo‘y suti bilan katta qiladi. U insonlardan qochmaydigan, hatto ularning qo‘lidan oziqlanadigan bo‘lib ulg‘ayadi. Shuning uchun ham ovchilar uni otmoqchi bo‘lishganda ham qochishni o‘ylamaydi. Jondoshga yaqin bo‘lgan kiyik Oqtush obrazida xuddi “Oq kema”dagi ona bug‘u va insonlar o‘rtasidagi kabi yaqinlikni sezishimiz mumkin. Dastlab, “Oq kema” da ham bug‘u va insonlar yonma yon, tinch hayot kechiradilar. Keyinchalik, “Oq kema” qissasida bug‘uning shoxlari uchun, “Tog‘ odami” qissasida esa uning go‘shti uchun odamlar ularni

ovlashni boshlashadi. Oqtush –asarda har qanday sharoitga ko‘nikadigan va hammaga ishonadigan insonlar obrazini ifodalashga xizmat qiladi.

Uchinchisi esa Chipor laqabli qoplon. Bu obraz sharoitga qarab ish tutadigan, vaziyatdan o‘z manfaati yo‘lida foydalanadigan insonlar obrazidir. Unga Chipor laqabi bejizga berilmagan, u tanasining rangiga o‘xshab goh u, goh bu holatda o‘zgaradi. Shu orqali o‘zining o‘zgaruvchan xarakterini namoyon qiladi.

Jondoshning tabiatni asrash yo‘lidagi harakatlari ko‘p qarshiliklarga uchraydi. U asarda shu sabab hayvonlarni otish yoki ulardan davo o‘rnida foydalanmoqchi bo‘lgan kishilar bilan konfliktda tasvirlanadi. Qissada Jondoshning asirga olingandagi holati bo‘rining kuliklangan holatiga qiyoslanadi.

“Yigitning bu holati kuliklangan bo‘rini eslatardi. Qachonki bo‘rilar noiloj qolsagina mana shu sozda miq etmay yotadi. Hatto irillamoqni o‘ziga ep ko‘rmaydi. Ammo, indamay yotsa-da, ichida quyun yashaydi, bo‘ron quturadi. Ichdagi bu tug‘yon loqaydlashgan nigohda dam-badam aks etishini demasa, qolgan payt uni sezish qiyin, go‘yo tosh. Biroq mana shu “tosh” ichidagi bo‘ronda umid yashaydi, qutulmoqqa ilinj yashaydi...”[7, 132].

Yozuvchi bu tasvirlar orqali Jondoshning ruhiy holatini ochishda bo‘ri obrazidan foydalanadi. Bizga ma’lumki, qadimda bo‘ri totem hayvon bo‘lgan va undagi qo‘rqmaslik, dushmanga itoat etmaslik xususiyatlari sabab insonlar unga katta e’tiqod qo‘yishgan. Uning qo‘rqmaslik, dushmanga itoat etmaslik xususiyatlari asarda Jondosh obraziga ko‘chadi va o‘z erki uchun jarlikdan sakraydi. Uning baland tepalikdan sakrashiga undagan yana bir omil bu –osmonda parvoz qilayotgan burgut edi. Ayni shu kichik obraz asar bosh qahramonini harakatlarini tezlashishiga sabab bo‘ladi. Burgut erk ramzi bo‘lganligi uchun ham Jondosh undan kuch oladi, u kabi erkinlikni xohlaydi. Tabiat o‘zining qo‘riqchisini osonlikcha vafot etishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Jondosh jarlikka uchgandan beri uni allaqanday qo‘l tutgandek, g‘ayrishuuriy bir kuch madad berayotgandek bo‘ladi. Bu o‘rinda jamodot, nabotot va insonning ahilligi, birligi Jondoshni o‘limdan saqlab qoladi [8,135-138].

Uning erkka intilish ishtiyoqida qilgan harakatlarini biz yana E.S.Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” asaridagi erkka intilib halok bo‘lgan yovvoyi yo‘rg‘a misolida ham kuzatamiz. Biri joni omon qolib ozodlikka erishsa, ikkinchisi o‘zini halok qilib bo‘lsa-da erkka erishadi.

Asardagi quyidagi jumlalar orqali butun insoniyatga tegishli xulosa anglashiladi va barchaning tabiat oldida javobgar ekanligi uqtiriladi.

“Yerning siynasini qanchalik tajovuzkorona toptamaylik, oxir-oqibat, halovatni uning pinjidagina topamiz”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norqobilov N. Adabiyot mangu yoniq qalb nuridir.// Yoshlik, –2010, –№4.
2. Xayrullayev A. Normurod Norqobilov hikoyalarida an’ana va individuallik.// Multidisciplinary Scientific Journal. Volume1|Issue 9| December, 2022.
3. Solijonov Y. Joziba sehri. // Yoshlik. –2009, – № 9.
4. Mashrabxonova M. Normurod Norqobilov qissalarida inson va tabiat munosabati // Tafakkur manzili. – 2022, – № 2.
5. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент : Янги нашр, 2010.
6. Норқобилов Н. Овул оралаган бўри. – Тошкент : Шарқ , 2005.
7. Норқобилов Н. Овул оралаган бўри. – Тошкент : Шарқ , 2005.
8. Расулов А., Бадиийлик безавол янгилик. – Тошкент : Шарқ , 2007.

SHAXS MA’NAVIYATINING SHAKLLANISHIDA ADABIY MANBALARNING O‘RNI

Boqijon To‘xliyev ,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Maqolada inson ma’naviyatini shakllantirishda badiiy adabiyotning o‘rni va ahamiyati muammolariga e’tibor qaratilgan. Bunda asosiy urg‘u badiiy adabiyotning shakli va mazmuni, ularning jamiyat ijtimoiy-ma’naviy hayotiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’siri muammolariga qaratilgan. Misollar sifatida adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va folklor materiallari tanlab olingan.

Inson ma’naviyatini shakllantirishda mumtoz adiblarning fikr-mulolhazalariga, ayniqsa, ularning yuksak badiiyat libosidagi kashfiyotlariga tayanishning afzalliklari, ularning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati borasida mulohazalar bildirilgan.

Tayanch so‘zlar: shaxs, ma’naviyat, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, adabiy manba, ta’lim, tarbiya.

Badiiy adabiyot – inson ma’naviyatini shakllantirishdagi eng qadimiy va tayanch omillardan biridir. Bu haqiqat insoniyatning o‘zi tomonidan qadimiyatning ko‘z ilg‘amas sarhadlari bag‘ridayoq anglab etilgan. Shuning uchun ham ayni mana shu mavzuning o‘zidayoq ko‘plab hikmatli so‘zlar, maqollar, afsona va rivoyatlar, boshqa janrlardagi turli asarlar yaratilgan.

Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ot it-turk” asarida ko‘plab badiiy parsadlarni misollar sifatida keltirgani yaxshi ma’lum. Ular orasida xalq maqollari ham alohida o‘rin tutadi. Mana shu maqollar orasida “Ardam bashi – til” degan maqol ham mavjud. Bu erda qo‘llangan “til” “so‘z”, “nutq” degan ma’nolarni anglatadi. Tabiiyki, bu erda nutqning badiiy jihatlari ham nazarda tutilgan. Muhimi, unda nutqning boshqalarga qaratilgani, bunda har qanday insoniy fazilatning dastlab so‘z vositasida ifodalanishi nazarda tutilgan. Demak, adabiyot turkiy xalqlar hayotining ajralmas bo‘lagi sifatida juda qadim zamonlardan beri ta’lim va tarbiya jarayonlarining uzviy bo‘lagi bo‘lgan.

“Adabiyot” so‘zining o‘zagini “adab” so‘zi tashkil etadi. U arab tilidan o‘zlashgan. So‘zning ma’nosi ancha rang-barang. “O‘zbekiston milliy qomusi”da bu haqda shunday yozilgan:

“ADAB (arab.) — 1) yaxshi xulq, tarbiya, xushmuomalalik, hayotni to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri yashashni o‘rgatish ma’nosida. O‘zbek tilidagi «odob» A. so‘zining ko‘plik shaklidir. Adabiyot so‘zi o‘zagi ham Adabdir. 12-asrda «ilmi adab» yoki «ilmi bade’» atamasi vujudga keldi. Bu so‘z san’atidagi badiiy vositalar, usullar va turlarni o‘rgatishga bag‘ishlangan. O‘sha davrda adabiyot so‘zi keng ma’noda umuman kitoblar, risolalar, maqolalar, ya’ni ko‘pchilikning o‘qishi uchun yozilgan asarlarni bildirgan. Tor ma’noda esa yozma badiiy adabiyotni anglatgan. Hozir A. arab mamlakatlarida badiiy adabiyot ma’nosida ishlatiladi; 2) tasavvufda www.ziyouz.com kutubxonasi 172 tariqatdan saboq beruvchi pir yoki shayx va saboq oluvchi murid yoki solihning rioya qilishi zarur bo‘lgan qonun-qoidalar nazarda tutiladi. Shayxlar va solihlar adabi xususida ko‘plab asarlar yozilgan”.[1]

“Adab”ning ma’nolari esa quyidagicha tasvsiflanadi:

1. Yaxshi va maqbul bo‘lgan xulq; yoqimli xulq.
2. Uyat, sharm, hayo; inson tabiatidagi pokizalik.
3. ilm, bilim; hunar
4. ta’lim; tarbiya; adab o‘rganmoq – ta’lim olmoq, tarbmiyalanmoq va h.z.

Badiiy adabiyotning imkonlari cheku chegara bilmaydi. U odam va olam haqidagi har qanday soha, mavzu va muammolar borasida bahs yurita oladi Muhimi, badiiy adabiyotda tilga olingan masala va muammolar insoniyat uchun hech qachon befarq bo‘lmaydi.

G‘aroyib us-sig‘ar

Debochasida mana bunday misralar mavjud:

Ham demagida yo‘q e’tibore kishiga,

Ham qilmog‘ida yo‘q ixtiyore kishiga.

Taqdir aro chun yo‘q iqtidore kishiga,

Ne qilg‘anig‘a ne erk bore kishiga.

She’r inson taqdiri haqida. Aniqrog‘i insonning taqdir oldidagi nochorligi haqida. Bu she’r insonning o‘z taqdiriga rozi bo‘lib yashashi kerakligini alohida uqtirishi bilan e’tiborli.

“Yana ro‘zgor havodisidin ul fikrlar barcha ko‘nglumdin bordi va ishqi ojizkush zulmu bedodi ul xayollarni xotirimdin chiqardi, olimg‘a oncha dushvorlig‘lar yuzlandiyu tegramga oncha sa’b giriftorlig‘lar aylandi va sipehr boshimg‘a oncha balo toshi ottiyu ishq sipohining lagadko‘bi zaif paykarim bila so‘ngaklarimni oncha oyoq ostida ushattikim, ne so‘zumdin xabarimu ne o‘zlugimdin asarim qoldi. Ishqim oshubi tug‘yonida har suubatkim yuzlanur erdi, chun bir hamdard rafiqim yo‘q erdikim, dardimdin shammae izhor qilg‘aymen, biror bayt birla ul hol mazmunin nazm qilib ko‘nglumni xoliy qilur erdim va jununum shiddati g‘alayonida har oshubkim, ollimg‘a kelur erdi, chun hamzabon mushfiqim yo‘q erdiki, maxfiy o‘tumni oshkoro etgaymen, biror matla’ bila ul ma’noni ado qilib, qattig‘ holimni sharh etar erdim. Bu vosita bila ko‘nglum o‘tig‘a orome va ishqim bedodi nohamvorlig‘ig‘a andome hosil bo‘lur erdi” [G‘aroyib us-sig‘ar].

Ushbu parchada bir insonning hayotiy sarguzashtlaridan alohida lavhalar qalamga olingan. Agar manga shu alohida shaxsning Alisher Navoiy ekanligi ma’lum bo‘lsa, parchaning ijtimoiy ahamiyati birdaniga bir necha barobar ortib ketadi. Nima uchun?

Jamiyat har doim muayyan ideallarga intiladi. Ularning hayot tarziga qiziqadi. Ayni paytda ularning shaxsiy hayotidagi alohida detal va voqealardan o‘zlari uchun ham munosib o‘rnak va saboq olishga intiladi.

Natijada mazkur parchaning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyati birlashgan holda ko‘plab o‘quvchilarning diqqat markaziga ko‘chadi.

Agar Alisher Navoiy singari buyuk insonlar hayotida shunchalik qiyinchilik va mashaqqatlar sodir bo‘lgan bo‘lsa, boshqalarning holini qanday tasavvur qilish mumkin?

Bu erda bir qator mulohazalarni o‘rtaga qo‘yish mumkin:

1. Amir Alisher Navoiy har doim buyuk bo‘lgan. Hatto o‘z taqdiridagi qiyin va mashaqqatli damlarini qalamga olganida ham uning haqparast va rostgo‘yligi ochiq ko‘rinib turadi.

2. Ushbu parcha Alisher Navoiyning umr bo‘yi yakka-yu yolg‘iz yashaganining o‘ziga xos bir tasdig‘i bo‘la oladi.
3. Unda buyuk adibning natijasiz ishq dardiga mubtaloligi ochiq e’tirof etilgan.
4. Parchada adabiyot nazariyasi uchun ham muhim bo‘lgan bir ishora turibdi: adib asarlarining mavzusi osmondan olinmagan. Ularning o‘zagini bevosita shaxsiy hayot tajribalari va ichki kechinmalar vulqoni boshqarib turgan. Demakki, adib asarlaridagi avtobiografik ohanglarning ustuvorligi bejiz emas.
5. Ijodkor odam o‘zining sog‘lig‘i nihoyatda yomon ahvolda bo‘lishiga qaramasdan, agar chin dildan xohlasa, o‘sha vaziyatning ham aniq tasvirini bera oladi.
6. Shunga qaramay, shunday holatlar bo‘ladiki, inson o‘z shaxsiy kechinma-sirlarini aytishga, bo‘lishishga, dardlashishga muhtojlik sezadi, lekin ayni mana shu holatni to‘la ishonib aytilishi mumkin bo‘lgan ko‘ngildoshni topa olmaydi. Ayni mana shu holatning ifodasi uchun intilishlar haqidagi qaydlar ham e’tiborga molik.

Mana bu ko‘chirma ham bir necha xislatlariga ko‘ra alohida qiziqish uyg‘otadi:

“Va ul hazrat inoyat ko‘zi bila ul ra’nolarni ko‘rub va iltifot nazarin har biriga etkurub, qaysi birining hariru xullasida qusure ko‘runsa yo ul hullavu harirni murassa’ qilg‘an javohirda adami munosabat sababidin future zohir bo‘lsa, ul liboslarni chiqarib, xizonayi xosdin munosib ranglig‘ xazu debo liboslar barcha qiymatiy gavharlar bila tarsi’ qilg‘on kelturub ul sho‘xlarg‘a kiydurur erdi va har qaysini o‘z munosabatig‘a ko‘ra tartib bila o‘z oliy majlisida o‘lturtur erdi, ya’ni aytilg‘an abyot barcha latoyifosor va sabt bo‘lg‘an ash’or barcha zaroyifshiorkim, ellik, oltmish yo yuz g‘azalg‘a yaqin yig‘ilsa erdi, hazrati Sultoni sohibqironning firdavsoso suhbatidavu sipehrfarso hazratida hozir qilib arzg‘a etkurur erdim va ul hazrat alarg‘a shafqat yuzidin boqib, qaysi ma’no sho‘xiningkim tarkibi xil’atida va alfozi kisvatida betakallufluq ko‘rsa, o‘z ganjinayi zamiri xizonasidin munosib alfoz bila ul liboslarg‘a tag‘yir berib va ul alfoz kisvatida sanoyi’ javohiridin nomunosiblig‘ ma’lum qilsa, o‘z xizonayi xotiri ganjxonasidin yoqutu la’li rangin va gavharu durri samin bila ul zebu ziynatqa tabdil etkurub, har g‘azalni tartib yuzidin o‘z o‘rnig‘a raqam qilur erdi”.

Bularni shunday ko‘rsatish mumkin:

1. Matndagi “ul hazrat” – Husayn Boyqarodir. Adib Husayn Boyqaroning o‘z shaxsiy hayotidagi o‘rni va mavqeini juda aniq, izchil, haqqoniy va muhimi, ta’sirchan tarzda ifodalagan.
2. Matndagi “ra’no” – ra’no guliga o‘xshagan parivashni anglatadi. Ayni paytda bu adib yozgan asarlarning, yanada aniqrog‘i she’riy asarlarning adabiyot istiloh bilan atalayotgan nomidir.
3. Matnda Husayn Boqaroning adabiy g‘azallariga o‘zgacha mehr, iltifot va hurmat bilan qaragani qayd etilgan. Mana shu maqsadni amalga oshirish uchun “inoyat ko‘zi”, ”iltifot nazari” istioralari qo‘llangan.

1. Har bir misra, bayt yoki yaxlit asarning o‘ziga xos ifoda shakli mavjud. Adib ularni o‘sha “parivashlar” kiygan kiyim “hariru hulla”, ya’ni ipak va shohi matolardan tikilgan ko‘ylak” (“ko‘ylak-ishton”, yangi kiyim)da ko‘rsatadi va ularning mana shu kiyimlarida, ya’niki ifoda shakllarida sezilar-sezilmas noqislik yoki notugalliklarni tahrir qilinishini mana shu kiyimlarga qadalgan duru javohirlar (ya’niki tasvir vositalari)da “futur” (sustlik, bo‘sh yoki zaiflik; xastalik, charchash; behollik; buzilish, o‘zgarish) zohir bo‘lsa, ul liboslarni (ifoda shakllarini) chiqarib, ya’niki o‘zgartirib, yangilab borganini qayd etadi.
2. Husayn Boyqaroning ichki olamidagi til imkoniyatlarini, ijodga oid boy zahiralarini “xizonayi xos” deb ataydi.
3. Tahrir jarayoni ayni paytning o‘zida, ya’niki ijodkorlar yig‘ilgan davrada amalga oshirilgani ham e’tiborga loyiqdir. Adib uni “har qaysini o‘z munosabatig‘a ko‘ra tartib bila o‘z oliy majlisida o‘lturur erdi”.
4. “G‘aroyib us-sig‘ar” (umuman, “Xazoyin ul-maoniy ”) tuzilayotgan paytda adib juda sermahsul bo‘lgan. Ish jarayoni deyarli har kuni, izchil va muttasil, albatta, serbaraka bo‘lgan: “ellik, oltmish yo yuz g‘azalg‘a yaqin yig‘ilsa erdi, hazrati Sultoni sohibqironning firdavsoso suhbatidavu sipehrfarso hazratida hozir qilib arzg‘a etkurur erdim”
5. Husayn Boyqaro ham boshqa ishlar qatorida ayni tahrir jarayoniga juda jiddiy qaragan. Bu ishni hech qachon paysalga solgan emas.
6. Bulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning shaxsiy ijodiga davlat maqomi darajasida e’tibor bergan.

Ayni paytda mumtoz adablarning hayoti va ijodini o‘rganishda,ularni targ‘ib va tashviq etishda har bir so‘z, har bir asarni ularning janriy o‘ziga xosligi, ijtimoiy-ma’naviy mansubiyati, aytilgan o‘rni va zamonini e’tiborga olgan holida izohlash zaruriyati ham bor. Muhimi, ularning ma’rifiy va tarbiyaviy jihatlarga

urg‘u berish, bunda auditoriya imkonlarini ham nazarda tutish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Fikrimizni Yusuf Xos Hojib fikrlari bilan davom ettiraylik:

Adibning:

Төрү сув-тэг-ул күч көр от-тэг йудуғ,

Сүзүг сув арыттың одытты отуғ.

Ma’nosi:

Adolatli siyosat suvdek, zulm esa o‘tdek ofatdir,

Zilol suv oqizding, (u) o‘tni o‘chirdi.

Bu erda matnning mazmuni bilan birga uning ifoda tarzi ham e’tiborga molikdir. Adolat va zulmning bu tarzdagi tavsifi o‘zinng sodda va aniqligi, ayni paytda kuchli ta’sirchanligi bilan e’tborga molik. Har holda adolatning suvga, Zulmning olovga o‘xshatilishi oddiy odam uchun ham tushunarli va huzurbaxshligi aniq.

Овут-ул тыдығлы қамуғ тэңсизиг,
Овутсузлуқ эркә эди тэңсиз иг

Ma’nosi:

Sharm-hayo hamma yaramas (ishlar)dan tiyadi,
Uyatsizlik kishi uchun juda yaramas illatdir. (1633)

Bu erda ham inson tabiatidagi bir qusur juda ta’sirchan tarzda ifodalanishidan tashqari, undagi so‘z o‘yinning o‘zi ham Yusuf Xos Hojibning turkiy til imkonlarini ko‘rsatishdagi mahoratini ochiq namoyon etgan. Bu erda “тэңсизиг” so‘zining ikkiga ajratilishi natijasida mutlaqo boshqa ma’noni anglatuvchi yangi so‘zning paydo bo‘lishi tinglovchi (o‘quvchi) e’tiboridan chetda qolmaydi.

Adabiyotlar

1. Муҳсин Қодиров. Адаб. – // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд.

TIL, IJTIMOIY EKOLOGIYA VA SHAXS MA’NAVIYATI

Siddiqjon MUMINOV,
FarDU professori, filologiya fanlari doktori
siddiqjon.mominov@bk.ru
Dilshoda XOLMATOVA,
FarDU tadqiqotchisi.

dilshodaxonxolmatova1@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada dunyoning avvali va oxiri bo‘lgan so‘z, til uning ijtimoiy ekologiyaga, shaxs ma’naviyati va salomatligiga ta’siri masalasi tahlilga tortilgan. Buning uchun avvalo mavzuning dolzarbligi, inson va uning jamiyatda tutgan o‘rni, ekologiya va uning turlari, so‘z ta’rif-tavsifiga, bu mavzuda yaratigan asarlarga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

So‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiydan tortib zamonaviy o‘zbek, rus va ingliz olimlari, ijodkorlarining mavzuga oid asarlariga e’tibor qaratilgan. Hozirgi davrda ong shakllanishining ekologiyalashtirish tendensiyasi kuchayib, iqtisodiy ekologiya, eko-etika, eko-estetika, ekologiya va ruh munosabatlari, ekologik huquq, ekologik siyosat va hokazo yo‘nalishlar vujudga kelganligi bayon etilgan.

Jamiyat va inson o‘zaro munosabatining ijtimoiy-ekologik asoslari, muloqot ekologiyasi, muloqot ekologiyasining lingvopragmatik tasnifi, jumladan, tinglash, sukut va muloqot ekologiyasi, ifoda vositalari, nutqning hasrat tipi va muloqot ekologiyasi mavzulari ham maqola mavzusi ko‘lami doirasiga kiradi.

Oila axloqi va muloqot ekologiyasi, oila boshliqlari o‘rtasidagi muomala meyorlari, ota-ona va farzandlar, turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi muomala meyorlari tushunchalari ham borki, bu meyorlarning buzilishi inson salomatligiga, ma’naviy olamiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada aynan mana shu dolzarb masalalar bo‘yicha tahlil va mulohazalar beriladi. Zero, dunyo tibbiyotiga oid ilmiy manbalarda davolashning uch yo‘li: 1- giyoh bilan, 2- tig‘ bilan va 3-si – so‘z bilan davolash yo‘llari borligi qayd etiladi. Ushbu maqola uchinchi, aslida birinchi va eng qulay, eng sodda, samarali usul – SO‘Z orqali ta’sir etish masalasiga qaratilganligi bilan dolzarblik kasb etadi.

Kalit so‘zlar: til, jamiyat, ijtimoiy ekologiya, ta’sir, shaxs, salomatlik, ma’naviyat.

Аннотация

В статье анализируется слово, язык, являющийся началом и концом мира, его влияние на социальную экологию, духовность и здоровье личности. Для этого, прежде всего, кратко рассмотрены актуальность темы, человек и его роль в обществе, экология и ее виды, определение и описание слов, а также работы, созданные на эту тему.

Султан слова Мир Алишер Навои и современные узбекские, русские и английские ученые и писатели обращают внимание на произведения,

связанные с этой темой. В настоящее время усиливается тенденция экологизации формирования сознания, возникают такие направления, как экономическая экология, экоэтика, экоэстетика, экология и отношения духа, экологическое право, экологическая политика и т.д.

Социально-экологические основы взаимодействия общества и человека, экология общения, лингвопрагматическая классификация экологии общения, включая экологию слушания, молчания и общения, средства выражения, тип горечи речи и экологию общения, также входят в круг темы статьи.

Существуют также понятия семейной этики и экологии общения, норм поведения между главами семей, норм поведения между родителями и детьми, различными социальными группами, нарушение которых негативно влияет на здоровье и духовный мир человека. В статье представлен анализ и размышления именно по этим актуальным вопросам. Ведь в научных источниках по мировой медицине отмечается, что существует три способа лечения: 1-растение, 2-лезвие и 3-словесное лечение. Данная статья актуальна тем, что сосредоточена на третьем, по сути, первом и наиболее удобном, самом простом, эффективном методе - воздействии через СЛОВО.

Ключевые слова: язык, общество, социальная экология, влияние, личность, здоровье, духовность.

Abstract

The article analyzes the influence of the word, language, which is the beginning and end of the world, on the social ecology, the spirituality and health of the individual. For this, first of all, the relevance of the topic, man and his place in society, ecology and its types, the definition of the word, and the works created on this topic were briefly touched upon.

Attention is paid to the thematic works of contemporary Uzbek, Russian, and English scholars and creators, starting with Mir Alisher Navoi, the sultan of the realm of words. It is stated that in the current period, the trend of ecologization of the formation of consciousness is intensifying, and such directions as economic ecology, eco-ethics, eco-aesthetics, the relationship between ecology and spirit, environmental law, environmental policy, etc., have emerged.

The socio-ecological foundations of the relationship between society and man, the ecology of communication, the linguopragmatic classification of the ecology of communication, including the ecology of listening, silence and communication, means of expression, the type of speech and the ecology of communication are also included in the scope of the article.

There are also concepts of family ethics and the ecology of communication, norms of behavior between heads of families, norms of behavior between parents

and children, different social groups, violation of which has a negative impact on human health and the spiritual world. The article provides analysis and reflections on these very pressing issues. Indeed, scientific sources on world medicine note that there are three ways of treatment: 1 - with herbs, 2 - with a blade, and 3 - with words. This article is relevant because it focuses on the third, actually the first and most convenient, simplest, and most effective method - influencing through WORD.

Keywords: language, society, social ecology, influence, personality, health, spirituality.

Inson o‘zining ongli hayot kechirish davrida doimo turli-tuman muammolarning tagiga etishga, jumboqli savollarga javob topishga harakat qilib kelgan. Ana shunday savollarning eng muhimlaridan biri: “Hayotning o‘zi nima va insonning hayot kechirishdan maqsadi hamda vazifalari nimalardan iborat?” qabilidagi savollardir. Bu kabi savollarning yuzaga kelishi ham, ularga qaytariladigan javoblar ham bevosita olamning eng ulug‘ ne’matlari cho‘qqisida turuvchi SO‘Z (til)ga borib taqaladi.

Bizgacha bu mavzuda juda ko‘p izlanishlar olib borilgan. Ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiyning so‘z haqidagi falsafiy qarashlaridan tortib, so‘z, nutq madaniyati bo‘yicha amalga oshirilgan barcha izlanishlar bu mavzuni chetlab o‘tmagan. Ayniqsa, rus, evropa olimlaridan M.S.Kagan, Y. Kamichek, A.V. D. Karnegi; o‘zbek olimlaridan akademik A. Rustamov; O‘zbekiston xalq shoiri E. Vohidov; professorlar N. Mahmudov, M. Umarxo‘jayev, S. Mo‘minov; dotsentlar T. Sodiqova, M. Rahmonov, Y. Isomiddinov, Y. Shodimetov va boshqalar tomonidan so‘z (til) va uning inson hayotida tutgan o‘rni haqida, qimmatli fikrlar bildirilgan.

Ilmiy-amaliy anjuman mavazusidan kelib chiqib yozayotgan ushbu maqolamizda biz ham ko‘pchilikni qiziqtirib kelayotgan hayotiy savollarga javob topishga, til, so‘z va uning ijtimoiy ekologiya, shaxs ma’naviyatida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritishga, mavhumiyatdan ma’lumiyatga qarab borishda qilingan va qilinayotgan ishlarga baholi qudrat hissa qo‘shishga harakat qilamiz.

“Axborot asri” deya nom olgan bugungi kunda insoniyat oldida zamonaviy, muhim va dolzarb muammolardan biri bo‘lib turgan ekologiya va uning muammolari haqida dunyo olimlari astoydil bosh qotirmoqdalar. Bu haqda ko‘plab mamlakatlarda seminar va anjumanlar o‘tkazilmoqda, turli tillarda ilmiy maqola, risola va kitoblar chop etilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham o‘z rahbarlik faoliyatida, maqola va kitoblarida bu masalaga qayta-qayta murojaat qilmoqda. Xususan, yurtboshimiz taklifiga binoan 2025-yil “Atrof-muhitni asrash

va yashil iqtisodiyot yili” deb nomlanishining o‘zi ham fikrimizning yorqin dalilidir.

Asli yunoncha oikos – uy-joy, vatan + logos – fan, ta’limot so‘zlaridan olingan va birgalikda yashaydigan tirik organizmlarning o‘zaro hamda tevarak-atrofidagi muhit bilan bo‘lgan munosabatlarini, shuningdek, olam va biosfera o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalalarini o‘rganuvchi fan bo‘lgan ekologiya bugungi kunda eng dolzarb masalaga aylanganligi bois uning tarmoq va sohalari kundan-kunga ortib bormoqda.

Ekologiya dastlab botanika va zoologiya fanlarining bir yo‘nalishi sifatida vujudga kelgan. Bu atamani fanga 1866-yili nemis biologi Ernst Gekkel (1834-1919) kiritgan.

O‘tgan XX asr oxirlarida insoniyatning tabiiy muhitga xo‘jasizlarcha va tajovuzkorona ta’sir etishi sababli olimlar tomonidan tabiatni asrab-avaylash va undan oqilona foydalanishning ekologik ilmiy asoslari ishlab chiqildi. Natijada o‘tgan asrning etmishinchi yillaridan boshlab, jamiyat bilan atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qonunlarini, shuningdek, atrof-muhitni amaliy muxofaza qilish masalalarini o‘rganuvchi inson ekologiyasi yoki sotsial ekologiya shakllandi va u sotsiologiya fanining ajralmas bir qismi sifatida o‘rganila boshlandi. U turli falsafiy, ijtimoiy, iqtisodiy, geografik va boshqa yo‘nalishlarni, masalan, shahar ekologiyasi, texnik ekologiya, ekologik etika va hokazolarni ham o‘z ichiga oladi. Bu yangi fan sohasi tabiat va kishilik jamiyatining o‘zaro munosabat qonuniyatlari va tabiatni asrash muammolarini hal qilishning amaliy chora-tadbirlari masalasi bilan faol shug‘ullana boshladi. Keyinchalik olimlar zamonaviy ilm-fanni ham ekologiyalashtirish haqida o‘ylay boshladilar. Natijada asta-sekin ekologiyaning ko‘p yo‘nalishlari: umumiy ekologiya, biologik ekologiya, zoologik ekologiya, geologik ekologiya, tibbiy ekologiya, muhandislik ekologiyasi, inson ekologiyasi, turar-joy ekologiyasi, ovqatlanish ekologiyasi, fikrlash ekologiyasi... kabi tarmoqlari yuzaga keldi.

Tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilishning nazariy, amaliy va metodologik jihatlarini jahon sivilizatsiyasi manfaatlari asosida o‘rganuvchi falsafiy fan sifatida yuzaga kelgan sotsiologik (ijtimoiy) ekologiya kundan-kunga rivojlanib bormoqda va o‘zining yuksalish bosqichiga kirish arafasida turibdi. Bugungi kunda nafaqat insonni qamrab turgan tabiatni muhofaza qilish, balki ijtimoiy muhitni ham muhofaza qilish nazariyalari ishlab chiqilmoqda.

Odamzod paydo bo‘lgandan buyon ikki xil ehtiyoj bilan yashab keladi: biri moddiy talab bo‘lsa, ikkinchisi ma’naviy chanqoqlikdir. Bularning har ikkalasi odamlarning turmush tarzini belgilaydi. Agar avval moddiy talablar ustunlik qilib, insonning yashashi va hayoti uchun birinchi darajali zaruriyat hisoblangan bo‘lsa,

jamiyat taraqqiyotining ma’lum davrlariga kelib, ma’naviy ehtiyojlar ruhiy va va moddiy olamni belgilovchi asosiy kuchga aylandi va bu jarayon tobora kuchayib bormoqda. Shu tariqa insonda emoq, ichmoq, kiyinmoqdan ko‘ra quvonmoq, zavq olmoq, musiqa yoki so‘zdan lazzatlanmoq, sevmoq kabi tuyg‘ular ustunlik qila boshlaydi.

Agar moddiy ehtiyojlar o‘zining chegara va meyoriga ega bo‘lsa, ma’naviy ehtiyojlar cheksiz va uzluksiz ruhiy olamga aylanadi. Chanqash, charchash, ochiqish kabi hayotiy talablarni qondirish chegarasi mavjud. Ammo sevgi, orzu-havas, iroda, ilm, bilim, kashfiyot, go‘zallikka intilish singari ma’naviy ehtiyojlarning chegarasi yo‘q. Insoniyat ma’naviy yuksalishning eng yuqori nuqtalariga uning tabiat va odamzod hayotidagi o‘zaro uyg‘unlik va mutanosiblikning mavjudligini bilishi, his etishi, tabiat, inson va dunyoning tartibli yaratilishi haqidagi tushunchasi kiradi.

Ayrim kishilar o‘zining fikriy tafakkurini yaxshi boshqara olmaydi. O‘z fikrlarini jamlay oladigan insonlar fazoni koinot taraqqiyoti uchun asqotadigan sof, yorqin fikrlar bilan to‘ldiradilar. Zaif, mujmal, xira fikrlarni esa bezarar deb bo‘lmaydi.

Odam ezgulik va yovuzlikni vujudga keltiruvchi o‘ziga xos “korxona”dir. Yomon niyatli, qabih odamlarning tashqi ko‘rinishi ham sovuq, yoqimsiz bo‘ladi. Inson ongining salbiy jihatdan keskinlashuvi zulm, jaholat, johillikdan boshqa narsani vujudga keltirmaydi. Aksincha, yaxshi niyatli, qalbi toza kishilarning yuzlari doim kulib, nur sochib turadi. “Chiroyi bordan cho‘chima” maqolidan anglashiladigan ma’no ham shunga ishora qiladi.

Shuning uchun ham birovlarning xato-kamchiligini ko‘rishdan ko‘ra, eng avvalo o‘zidagi illatlardan qutilishga harakat qilgan ma’qul. Inson o‘zining fikrlash qobiliyatini tartibga solib, rivojlantirishi ancha qiyin kechadigan jarayon bo‘lsa-da, hamisha yaxshi, pokiza niyatlar qilib yurish har bir insonning qo‘lidan keladi. Shuningdek, yillar, asrlar mobaynida o‘zligimiz, insoniyat va koinot haqidagi sayoz bilimlarimizdan kelib chiqqan zaif, nobop, salbiy xayollardan qutulishga intilmoq lozim. Ongi yuksak, olam haqida tasavvuri va dunyoqarashi keng inson hech qachon salbiy fikr yuritmaydi. Shunday odam bo‘lish uchun hamma vaqt o‘zini-o‘zi anglagan inson bir kun butun olamni – koinotni anglaydi. Ruhiyati yuksak odam kimnidir falokatdan qutqarishi, aksincha, ruhiyati past, tushkun kimsa esa kimningdir halokatiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun ham biron bir ishga kirishishdan oldin maqsadni yaxshilab aniqlab olib, so‘ngra uni quvonch va ko‘tarinki kayfiyat bilan boshlash kerak. O‘z-o‘zini yoki birovni majburlash, zo‘rlash salbiy tuyg‘ularni vujudga keltiradi.

Shunday ekan, obdon o‘ylab tanlab olgan yo‘limizdan shod-hurramlik ila borishimiz lozim.

Inson bu dunyoga faqat mashaqqat va aziyatlar chekish uchungina kelgan emas. Salbiy, g‘arazli, nobop fikrlarni yaxshi niyat bilan almashtirish kerak. Doimo biron bir ezgu, go‘zal narsalar haqida fikrlash kerakki, bundan ruhimiz ko‘tarilsin. Har bir narsaning yaxshi tomonlarini ko‘rishga, payqashga intilish darkor. Har bir narsadan, har bir insondan illat emas, balki fazilat qidirishga o‘rganish ijobiy xususiyatdir.

Fikrning tiniqligi va qat’iyligi kishiga kuch, ilhom bag‘ishlaydi, irodani toblaydi, maqsadga etkazadi. Aksincha, kuchsiz fikrlar kishini jur’atsiz, sust qilib qo‘yadi. Ko‘p kasalliklarni buzg‘unchi – yomon fikrlar keltirib chiqaradi. Siz taratayotgan biror yomon fikrni sizdan juda olisda bo‘lsa ham biror kimsa qabul qilib olib, uni amalga oshirishi, masalan, aytaylik, qotillik qilishi mumkin. To‘planib, dimlanib, burqsiqib qolgan “iflos”, tuban fikrlar fazoni faqat bulg‘abgina qolmay, balki ular insoniyatga olis-olislardan kelayotgan hayotbaxsh oqimlar, ijobiy quvvatlar, samoviy nurlar kelishining maromini buzishi va olis olamlarga ezgu fikrlarning taralishiga halal berishi mumkin.

Dunyo meditsinasining asoschisi, mashhur tabib Abu Ali ibn Sino o‘z davridayoq inson ruhini davolamay turib uning tanasini davolash mumkin emasligi haqidagi xulosani bayon etgan edi. Shundan keyin yuzlab mutaxassislar buyuk tabibning bu fikrini har jihatdan tajribadan o‘tkazdilar. Jumladan, akademik K.M.Bikov katta miya yarim sharlari po‘stlog‘i inson ichki organizmining fiziologik va potologik holatlarini boshqarib turishligini tajriba asosida ilmiy jihatdan asosladi.

Asab, qand, yurak, qon bosimi, oshqazon-ichak xastaliklari haddan tashqari ko‘paygan bugungi kunda jahon meditsina xodimlari bu kasalliklar asosida ijtimoiy munosabatlar chog‘ida fikrni aniq bayon eta olmaslik yoki nutq madaniyatini qo‘pol ravishda buzishlik natijasida sodir bo‘ladigan ruhiy zarba (stress)lar tufayli yuzaga kelayotganligini e’tirof etmoqdalar.

Vrach va yozuvchi Zoriy Balayan bu haqda tashvishlanib shunday yozadi: “Hozirgi zamon vrachlari o‘rtasida “infarkt epidemiyasi” degan jumla paydo bo‘lgan. Bir qarashda infarkt yuqumli kasallik hisoblanmaydi. Ammo mulohaza qilib qaralsa, infarkt insondan insonga achchiq so‘z, qo‘pol xatti-harakat va munosabatlar orqali yuqishligi ma’lum bo‘ladi. Ma’lumotlarga qaraganda, ruhiy zarbalarning aksariyati hasad, ig‘vo, fitna va shu kabi yaramas illatlar hukmron bo‘lgan nosog‘lom muhit – ishxona va ba’zi oilalarda pishib etiladi. [2.32]”

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida so‘z o‘likni tiriltirishi va aksincha tirikni o‘ldirishi mumkinligi haqida quyidagidek baytlar bitilgan:

So‘zdan o‘lukning tanida ruhi pok,
Ruh dog‘i tan aro so‘zdin halok.

Ko‘rinadiki, so‘z (nutq) inson fiziologiyasiga juda kuchli ta’sir etishi mumkin. Chunki insonlarda hayvonlardan farqli o‘laroq ichki signal sistemasi mavjud bo‘lib, birinchisi hamma jonzodlarniki kabi ichki va tashqi muhit ta’siridan tashkil topadigan signal sistemasi bo‘lsa, ikkinchisi asosan so‘zdan tashkil topadigan signal sistemasidir. Yuqorida keltirilgan baytdan ma’lum bo‘lganidek, so‘z inson fiziologiyasiga ikki xil – ijobiy va salbiy ta’sir etishi mumkin. Avvalo ijobiy ta’sir haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Mutaxassislarning fikriga qaraganda, erkalovchi so‘z inson fiziologiyasiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Erkalanayotgan paytda qon aylanishi yaxshilanadi. Qondagi kislorod miqdori 10-15 foizga oshib, qon bosimi mo‘tadillashadi, nafas olish engillashadi. Ayniqsa, kichkintoy yaqinlarining erkalatishlarini his etsa, ularning jilmayishlarini ko‘rsa, muloyim ovozlarini, bir-birlariga va unga xayrixohlik munosabatlarini sezsa, u ijobiy emotsional hislarni boshidan kechiradi. Nafaqat bolalar, balki kattalarga ham rag‘batlantirish va maqtash ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, qadimdan yoshlarni erkalab, kattalarni maqtab kuchiga-kuch, quvvatiga-quvvat qo‘shib kelingan. “Erkalatsang, er bo‘ladi, yo‘qsa qaro er bo‘ladi” qabilidagi maqollar shu bois yuzaga kelgan bo‘lsa ajab emas.

Ohangning, yoqimli ovozning chaqaloq miyasiga ijobiy ta’siri haqida vrach va yozuvchi Jumanazar Beknazarov “Oila va jamiyat” haftanomasida o‘zi bevosita guvohi bo‘lgan qiziq hayotiy dalil keltiradi: “Sankt-Peterburg bolalar shifoxonalaridan biriga amriqolik shifokorlar tajriba almashish uchun kelganlarida og‘irligi 750 gramm keladigan chala chaqaloq tug‘ildi. Onasi voz kechgan. Bizning shifokorlarimiz umid yo‘q, deyishdi. Biroq amriqoliklar chaqaloq parvarishini o‘z zimmalariga oldilar. O‘ris tilini biladigan hamshira ajratishdi. Men hayron bo‘ldim: axir shu bir parcha go‘sht chaqaloqqa tilning nima ahamiyati bor?! Hamshira esa chaqaloq atrofida shunchalik parvona bo‘lardiki, asti qo‘yavering. U shunday muloyim va yoqimtoy sirli ovoz bilan chaqaloqni nafis erkalar ediki... Hamshira she’r ayta turib, asta-sekinlik bilan ashula boshlardi. Ashula ohangi gohida mungliroq bo‘lsa, ba’zida sho‘h bo‘lar, mana shu o‘zgarishlarda ham qonuniy bir davriylik sezgandim o‘shanda. Yana shunisi ahamiyatliki, amriqolik shifokorlar talabi bilan chaqaloqning onasi qidirib topilib, bir necha o‘n dollar evaziga uning ovozi magnit lentasiga yozib olindi. Bolasini erkalovchi shirin so‘zlar vaqti-vaqti bilan chala chaqaloqqa eshittirib turildi. Oddiy, lekin chuqur ma’noga ega parvarish oqibatida bolaning hayoti saqlanib qoldi”.

O‘zbeklar nutqida “Hayt degan tuyaga madad” maqoli qo‘llanadi. Bu maqolning to‘g‘ri ma’nosi shuki, tuyakash tuyaning yukini ko‘tarib, unga yordam berolmasa ham, vaqti-vaqti bilan uning “hayt”, “hayt!” deb turgani tuyaga kuch bag‘ishlaydi, rag‘batlantiradi, mador bo‘ladi. Mazkur maqol bilan majozan: “Birovning biror mushkulini osonlashtirish qo‘lingdan kelmasa ham, maslahatingni yohud uning ko‘nglini ko‘taruvchi shirin so‘zingni ayama. Shuning o‘zi ham unga mador va madad bo‘la oladi”, deb odamiylikka undaydilar. Xuddi shunday mazmundagi “Horma!” degan – qo‘shchiga mador”; “Horma!” degan – holga quvvat” maqollari ham bor.

Soha mutaxassislarining fikriga qaraganda, “muxlis”, “ishqiboz”, “tarafdor” deganlarining barisi ham polvonning ruhini ko‘taradi, kuchiga-kuch, quvvatiga-quvvat qo‘shadi. Andijonning chinobodilik Ummat polvon har hafta 250 chaqirim piyoda yo‘l bosib Qo‘qondagi sayilga borarkan. Uncha-munchasini sanoqqa qo‘shmaydigan polvon bir kuchli raqib bilan ikki kun kurashib yiqitolmagandan keyin qishlog‘iga borib, yaqin birodarini boshlab kelibdi. Uchinchi kungi kurashda raqibi endi uni ko‘tarayotganda oshnasining “Ha, Ummat!” degan ovozi yangrabdi. Polvon shu zahoti o‘zini o‘nglab, raqibini ko‘tarib erga uribdi. Keyin maydondan chiqib o‘rtog‘ini bag‘riga bosibdi-da: “Menga “Ha, Ummat!” etishmayotgandi” debdi.

Nutqning inson fiziologiyasiga salbiy ta’siri haqida ham ko‘plab misollar keltirish mumkin. Luqmoni Hakim haqidagi rivoyatlardan birida aytilishicha, o‘zidan oldinda qon tuflab ketayotgan qizchani ko‘rgan hakim qizning orqasidan orqama-orqa boraberibdi. Qiz uyiga kirib ketgach, darvozani taqillatibdi.

Bir mo‘ysafid chiqib, hakimni tanibdi va uni uyga taklif etibdi. Gap orasida Luqmoni Hakim: “Qizingiz bedavo dardga uchrabdi, afsuski, muolajaning iloji yo‘q”, – debdi. Uning bu so‘zlarini haligi qiz eshik orqasidan eshitib turgan ekan. Birdan yuragi duk-duk urib, qaltirab yiqilibdi va hushidan ketibdi. Xullas, shu bir og‘iz so‘z oqibatida qiz ruhiy dardga giriftor bo‘lib, olamdan o‘tibdi.

...Kunlarning birida qizning otasi Luqmoni Hakimni
uchratib qolibdi. Shunda ota:

– Taqsir, qizim dardga chalinganini qanday bilib edingiz? – deb so‘rabdi. Luqmoni Hakim debdi:

– Qizingiz ko‘chada kela turib, bot-bot qon tuflaganini ko‘rgan edim.

Bu javobni eshitgan chol shart etib, o‘z peshonasiga uribdi. Keyin sal o‘ziga kelgach:

– E, attang, qizim o‘sha kuni shotut eb edi, siz ko‘rgan tufuk shotut sharbati-ku. Ey, attang! ..” – debdi.

Shunda Luqmoni Hakim chol oldida tiz cho‘kib, uzr so‘rabdi:

– Siz menga va so‘nggi avlodlarga unutilmas saboq berdingiz. Bir so‘z bilan soppa-sog‘ odamni o‘ldirish yoki bemorni oyoqqa turg‘izib yuborish mumkin ekan.

Bundan ko‘rinadiki, “har bir inson mutaxassisligidan qat’i nazar, eng avvalo, psixolog bo‘lishi, kishilar bilan muloqotda bo‘lganda, ayniqsa, vrachlar bemorlar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida juda hushyor bo‘lishlari lozim. Bu haqda K. M. Platonov: “Xotirjam bo‘ling, siz bu sog‘ligingiz bilan hali uzoq yashaysiz!” deyish qayerda-yu, “Siz o‘ttiz yildan keyin o‘lasiz!” deyish qayerda”, – deb yozadi va vrachning kasbiy xususiyatlaridan biri jim turishni bilishlik ekanligini ta’kidlab, rimliklar meditsinani bekorga “indamaslik san’ati” (ars muta) deb atamaganliklarini uqtiradi”.

Bunday odatlarning tilga tatbiq qilinishi lingvistik tabuni yuzaga keltirgan. Bunga, ayniqsa, meditsina sohasida qattiq amal qilingan. YA’ni, vrachlardan bemorlarga kasallik, ayniqsa, yomon (yuqumli) kasalliklar ha-qida batafsil ma’lumot bermaslik, jumladan, kasallik nomini aytmaslik talab etilgan. Taqiqlangan so‘zlar o‘rniga boshqa so‘z va iboralarni o‘ylab topish esa evfemizm (grekcha eurhemso “yaxshi”, “mayin gapiraman”)ni yuzaga keltirgan. Masalan, qizamiq o‘rnida oymoma (Samarqand viloyatining ayrim rayonlarida); chechak o‘rnida gul; sil (tuberkulyoz) o‘rnida uzun og‘riq, pes o‘rnida oq so‘zlarini qo‘llash kabi.

O‘zbek muloqot xulqiga ko‘ra faqat bemorlargina emas, balki boshqa kishilar ham noxush, xunuk so‘z (xabar)dan ehtiyot qilib kelinadi. Masalan, O‘zbekistonning juda ko‘p hududlarida, jumladan, Xorazmda biror kishining o‘limi haqida “o‘ldi” deb xabar qilinmaydi. Bu so‘zga nisbatan tabu saqlanadi.

“O‘ldi” so‘zi sinonimlarining o‘z qo‘llanma o‘rinlari bor. Agar vafot etgan shaxs keksa bo‘lsa, amanatini topshirdi, fojiali o‘lim topsa, kutardi deyiladi. Vafot etgan shaxs o‘rta yashar bo‘lsa, qaytish bo‘ldi, mabodo chaqaloq yoki go‘dak bo‘lsa, sichradi deb xabar qilinadi.

Vrach so‘zining bemor ruhiyati va boshqa fiziologik holatiga ta’siri haqida M. V. Yanovskiy meditsinaning yirik namoyandalaridan biri S. P. Botkin faoliyatidan juda ko‘plab misollar keltirgan. Ularning birida aytilishicha, S. P. Botkin qabuliga kelgan bir bemor o‘zida o‘pka bilan bog‘liq kasallik borligini, bu haqda bir necha vrachlarga shikoyat qilganligini, biroq ularning hammasi “siz kasal emassiz, faqat vasvosga tushib qolibsiz” deganligini, ammo ularning gapiga ishonmayotganini aytgan. Shikoyatchini so‘roqqa tutib, uning gaplariga diqqat bilan quloq solib turgan Botkin: “Ha, sizda chindan ham oz-moz kasallik bor ekan. Ammo u shu darajada ozki, siz mana shu dorilardan ichib tursangiz, tez kunda tuzalib ketasiz” – degan. Shikoyatchi chiqib ketganidan keyin S.P. Botkin bu voqeaning shohidi

bo‘lib turgan talabalarga: “Chindan ham u jismonan soppa-sog‘. Biroq unda oz-moz shubhalanish bor. Agar men ham unga boshqa vrachlar kabi munosabatda bo‘lganimda, uning shubhalanishi davom etaverar edi. Endi esa u kasalini biladigan vrachni topganligiga ishonch hosil qildi va har qanday dori unga shifo bo‘ladi”, – deb izoh bergan.

So‘z (nutq)ning adresat fiziologiyasiga ta’siri haqida turli kasb egalari hayotidan istagancha misol keltirish mumkin. Ammo bularning hammasidan kelib chiqadigan xulosa bitta – dunyoda dilozorlikdan yomoni yo‘q. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning quyidagi she’rini yuqorida aytilgan fikrlarimizga xulosa sifatida keltiramiz:

Sino aytgan ekan:
Chang bo‘lmasa gar,
Mingga kirardi, deb,
Inson bolasi.

Doriga o‘rgangan
Qovunday qaysar
Changga ham o‘rganib
Qoldik chamasi.

Hakim bo‘lmasam ham
Men aytay sizga
Uzoq yashamoqqa
Bor bitta yorliq:

Mingga kirmasak ham
Kirardik yuzga,
Dunyoda bo‘lmasa
Gar dilozorlik.

Xullas, til, so‘z ijtimoiy ekologiyaga, shaxs ma’naviyati, salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan eng quchli, qudratli va sirli vosita ekanligi hech qachon yodimizdan chiqmasligi lozim.

Adabiyotlar

1. Каган М. С. Мир общения. – М.: Политиздат, 1988.
2. Камычек Я. Вежливость на каждий день. – М.: Знание, 1988.
3. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: EXTREMUM PRESS, 2010.
4. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: O ‘zbekston, 2014.

5. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.
6. Умархўжаев М. Сўз дунёси – тил дунёси, тил дунёси – сўз дунёси. – Андижон, 2023.
7. Мўминов С., Холматова Д. Ижтимоий экология муаммолари. – Фарғона: “Фарғона”, 2014.
8. Сиддиқ Мўмин. Тиллашиш ва диллашиш – Фарғона: “Фарғона”, 2022.
9. Содиқова Т. Сўз сеҳри. – Тошкент.: DAVR PRESS, 2009.
10. Раҳмонов М. Сўзлар оламига саёҳат. – Тошкент: Фан, 2012.
11. Раҳмонов М. Сўз ва саломатлик. – Фарғона: “Фарғона”, 2022.
12. Шодиметов Ю. Ижтимоий экологияга кириш. Олий ўқув юртлари учун дарслик.– Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

ABDULLA ORIPOVNING ADABIY O‘YLARI VA SUHBATLARI HAQIDA

Shoira Axmedova,
Osiyo xalqaro universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya.

Adabiyotshunoslik ilmining bugungi taraqqiyoti, estetik tafakkur kamolotini adiblarning suhbatlari, adabiy o‘ylari, esselarisiz tasavvur qilish qiyin. Adabiy esse asosan ijodkorning hayot hodisalariga oid kuzatishlari mag‘zini chaqishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Yozuvchi yoki shoirning adabiy o‘ylari san’atkor ijodiy laboratoriyasiga yo‘l ko‘rsatishi, adabiy jarayon, adabiyot haqidagi umumlashma kuzatishlari, ulardan ilmiy-nazariy xulosa chiqarishi jihatidan adabiy tanqid rivojida katta ahamiyatga ega. Bunday asarlarda o‘ylar, adabiy-tanqidiy qarash va adabiy kuzatishlar qorishiq holda keladi. Shuning uchun ko‘pchilik ijodkorlar shu siradagi asarlarini adabiy o‘ylar shaklida kitobxonlarga taqdim etganlari ko‘rinadi. Shu jihatdan qaraganda O‘zbekiston xalq shoiri A.Oripov asarlari adabiyot rivojida qanchalik katta o‘rin tutsa, ularning adabiy-tanqidiy maqola, adabiy o‘ylari, suhbatlari, qaydlari ham adabiyotshunoslik kamolida shunchalik muhim o‘rin tutadi. Bu esa uning adabiy jarayonga befarq emasligini, shoir qalbining doimo uyg‘oqligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston xalq shoiri A.Oripovning tanqidchi, olim, jurnalist va muxbirlar bilan olib borgan suhbatlari turli mavzularda bo‘lsa-da, ularni Adabiyot bir maydonga birlashtirishi jihatidan ilmiy- ma’rifiy ahamiyatga egaligi yaqqol

ko‘rinadi.Shu bois ushbu maqolada shoirning adabiy o‘ylari va adabiy suhbatlari o‘rganilib, ularning adabiy jarayon rivoji uchun muhim jihatlariga e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: adabiy suhbat, tanqid, shoir, adabiyot, ijod, she’riyat, kitobxon, suhbatdosh.

Annotation.

It is difficult to imagine the current development of literary criticism, the development of aesthetic thinking without the conversations, literary thoughts, and essays of writers. A literary essay is mainly aimed at provoking the creative person's observations about life events. The literary thoughts of a writer or poet are of great importance in the development of literary criticism in that they guide the artist's creative laboratory, observe the literary process, generalize about literature, and draw scientific and theoretical conclusions from them. In such works, thoughts, literary-critical views, and literary observations are mixed. Therefore, it is evident that many creative people present their works of this kind to readers in the form of literary thoughts. From this point of view, the greater the place that the works of the People's Poet of Uzbekistan A. Aripov occupy in the development of literature, the more important their literary-critical articles, literary thoughts, conversations, and notes occupy in the development of literary criticism. This shows that he is not indifferent to the literary process, and that the poet's heart is always awake.

Although the conversations of the people's poet of Uzbekistan A. Aripov with critics, scientists, journalists and correspondents are on various topics, they are clearly of scientific and educational significance in terms of combining them into one field of Literature. Therefore, this article studies the poet's literary thoughts and literary conversations, paying attention to their important aspects for the development of the literary process.

Keywords: literary conversation, criticism, poet, literature, creativity, poetry, book reader, interlocutor.

Аннотация

Трудно представить себе современное развитие литературной критики и совершенствование эстетической мысли без бесед, литературных размышлений и эссе писателей. Литературное эссе в первую очередь направлено на отражение сути наблюдений автора о событиях жизни. Литературные размышления писателя или поэта имеют большое значение в развитии литературной критики, поскольку направляют творческую лабораторию художника, дают общие наблюдения о литературном процессе и литературе, делают из них научно-теоретические выводы. Подобные произведения содержат смесь размышлений, литературной критики и

литературных наблюдений. Поэтому, по-видимому, многие творцы представляют свои произведения в этом ключе читателям в форме литературных размышлений. С этой точки зрения, чем большую роль играет творчество народного поэта Узбекистана А. Орипова в развитии литературы, тем большее значение имеют его литературно-критические статьи, литературные размышления, беседы, заметки в развитии литературоведения. Это показывает, что он неравнодушен к литературному процессу, и что душа поэта всегда бодрствует.

Хотя беседы народного поэта Узбекистана А. Орипова с критиками, учеными, журналистами и репортерами были на разные темы, их научное и просветительское значение с точки зрения объединения их в единое направление – литературу – очевидно. Поэтому в данной статье исследуются литературные мысли и литературные беседы поэта, особое внимание уделяется их важным аспектам для развития литературного процесса.

Ключевые слова: литературная беседа, критика, поэт, литература, творчество, поэзия, читатель, собеседник.

Ijodkorlar adabiy-tanqidiy xarakterdagi ushbu yo‘nalishdagi asarlarda tanqidchi va tadqiqotchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan, ayniqsa, Mirtemir, P.Qodirov, A.Muxtor, Sh.Xolmirzaev, A.Oripov, E.Vohidov, O‘.Hoshimov kabi yozuvchilarning adabiy o‘ylari, esse va suhbatlarini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

A.Oripovning “Yozuvchi va davr” rukni ostida chop etilgan “Ehtiyoj farzandi” asarida adabiyotshunoslik, estetika, falsafa masalalari adabiyot va san’at, madaniyat rivojlanishining asosiy tamoyillari, ustoz ijodkorlarning betakror saboqlari erkin tahlil va talqin qilinadi.Eng muhimi, Adabiyotga mehr va ulkan hurmat ijodkorning har bir satrida yorqin namoyon bo‘lib turadi.”Adabiyot har qachon jamiyatni qayta qurishga tayyorlagan, jamoatchilik fikrini uyg‘otgan. Insonni, uning ruhini, e’tiqodini mustahkamlash g‘oyatda zarur”[15,42]. Asarda ijod etuvchi san’atkorning adabiy o‘ylari adabiylik va emotsionallik bilan chatishib ketgan fikr-mulohazalarning ko‘rkam sintezini tashkil etadi. Shuning uchun essega xos xususiyatni ko‘pincha yozuvchilar to‘g‘ri belgilab berganlar. Asqad Muxtor esseni “erkinlik” janri deb atagan. Sh.Xolmirzaev “Bu janr hikoya, ocherk janridan juda yosh bo‘lishiga qaramay, yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi, ya’ni esse yozguvchi adib tasvirlayotgan yoxud bayon etayotgan voqea–hodisaga–yana o‘sha gap: inson qismatining ma’lum davri bo‘lagiga nisbatan o‘z munosabatini (ocherkdagi kabi) ochiq-oshkora bildirib turishi barobarida (bu yo‘rug‘da) o‘z ko‘nglida tug‘ilgan qandaydir his-hayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini

ham bemalol yozish imkoniga egadir. Demak, aytish mumkinki, esse janri ocherk bilan hikoya o‘rtasidan o‘sib chiqqan janr-tasvir usulidirki, u maqola- maqola ilmiy bo‘ladimi, badiiyroq bo‘ladimi, baribir,- maqolaga xos unsurlardan ham foydalanadi, to‘g‘rirog‘i, ularni-da, o‘ziniki qilib oladi”, -deb yozgan edi [17]. Haqiqatan ham yozuvchi essesida, eng avvalo, uning “men”i aks etadi. Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, A.Oripov ijtimoiy, adabiy jarayon haqida fikr yuritadimi, yoki ijod, she’r tabiati borasida so‘zlaydimi yoxud yosh qalamkashlar izlanishlarida chaqnagan umid uchqunlari haqida gapiradimi, ularda shoirning yoniq qalbi, xolis munosabati yaqqol aks etadi. Zotan, esse janrining asosiy xususiyatlaridan biri - muallif hissiy tafakkurining teran namoyon bo‘lishidir.

A.Oripovning ustozlari haqida katta hurmat va muhabbat yozganlari bugungi kun o‘quvchisi uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qila oladi. Shoir Oybek, M.Shayxzoda, A.Qahhor, G‘afur G‘ulom, Mirtemir kabi buyuk ustozlariga nisbatan qalbida cheksiz mehr tuyadi va uni kitobxon bilan o‘rtoqlashadi. Oybek haqida: ”Muhtaram zotlar haqida gapirish hamma zamonlarda ham faxr hisoblangan...

Ustozimizga bo‘lgan cheksiz mehrni adabiyotimizning har bir avlodida payqashimiz mumkin”[15,69] yoki Mirtemirning ustoz Oybek eshigi yonidan o‘tayotganda qo‘llari ko‘ksida, haydovchidan xuddi joyda tezlikni susaytirishini iltimos qilishi haqidagi xotiralar – bular barcha bugunimiz va kelajagimiz uchun ibratdir. A.Oripov “Ustoz Oybekning nomi xalqimiz badiiy tafakkuri osmonida abadiy harakat qiluvchi yoritqichlar safiga” kirishidan faxrlanadi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi A.Qahhor haqida: “Ustoz Abdulla Qahhor bizning xotiramizda adabiyotning pokligi va butunligi uchun kurashgan, o‘z talabiga o‘zi ham qat’iy amal qilgan siymo sifatida qoldi.

Oilada, mahalla-kuyda ayrim mo‘tabar odamlarning o‘rni bo‘lakcha bo‘lgani singari Abdulla Qahhorning jozibasi ham biz yoshlar uchun o‘shandoq – bo‘lakcha edi”,- deb yozadi[15,73].

“Mirtemir domla...

Bu nomni eshitganda beixtiyor qalbimizga bir iliqlik yuguradi. Bu iliqlik, eng avvalo, kamtar va jozibali bir insonga hurmatimizdandir. Bu iliqlik xalqimizni qirq besh yildan buyon xushnud etib kelayotgan kattakon bir shoirga muhabbatimizdandir.Ha, domla Mirtemir haqiqatan ham ulkan inson va katta san’atkor...” [15,76].

Ko‘ramizki, shoir o‘zi ko‘rgan, saboqlarini olgan ustozlari haqida samimiy va ulkan bir muhabbat bilan so‘z yuritadi. Bundan tashqari qardosh xalqlar adabiyoti vakillari haqida gapirganda ham doimo adabiyotning vazifasi, hayotdagi o‘rnidan kelib chiqib, ular ijodiga baho beradi. Dante, Pushkin, M.Sholoxov,

To‘qay, Q.Quliev kabi ijodkorlar haqidagi maqolalari ham teranligi, samimiyligi, ijodkorga bo‘lgan hurmatidan insho etilganini ko‘ramiz.

Yaxshi hikoyanavis, chuqur mushohada yurituvchi faylasuf, chin yurakdan dardlashadigan suhbatdosh, axloq o‘qituvchisi bo‘lishi, umuman, shart emas va ayni zamonda bu qobiliyatlarning barchasi uning uchun etarli emas. Tafakkur kuchi bilan u faylasuf, tasavvurining yorqinligi bilan rassom va yozuvchiga, iqrorining ochiqligi bilan iqrornoma va kundalik muallifiga o‘xshab ketadi. Esseist uchun, eng muhimi, bu qobiliyatlar barchasining tabiiy aloqasi, o‘z shaxsiy tajribasida bilimning turli qirralarini markazlashtirishdir[18,46]. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, A.Oripov hayotga faylasuf ko‘zi bilan qarab baho beradi, rassomlardek tabiatni, fasllarning rasmini chizadi (bahor toshqinlari, saratonning zerikarli, jimjit kunlari, kuzning izg‘irinli oqshomlari, qishning olis kechlari, qop-qora osmonda charaqlagan sonsiz yulduzlar... xotiralar dunyosida turib, ustozlari qiyofasiga chizgilar yaratadi, ba’zan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar dunyosida turib, hayotni publitsist ko‘zi bilan kuzatadi, ba’zan esa davrning o‘tkinchi g‘oyalari ta’siridan chiqib ketolmaganini ham ko‘ramiz.

Adabiy-tanqidiy xarakterdagi suhbatlar yozuvchi bilan tanqidchi, tanqidchi bilan shoir, tanqidchi bilan olim o‘rtasida adabiyotning yuksakligi, rivoji, adabiy asar, adabiy jarayondagi muhim, dolzarb muammolarga bag‘ishlangani bilan ajralib turadi. Adabiy-tanqidiy suhbat adabiy tanqidchilikning alohida bir janri bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga, tabiatga ega [1,78]. Suhbatlarni o‘qir ekansiz, suhbatdoshlarning adabiyot haqidagi qarashlari, fikrlashlari, badiiy va ilmiy tafakkur tarzi, adabiy jarayonga, badiiy asarga, adabiy muammolarga munosabati yorqin namoyon bo‘lib turishini ko‘ramiz. O‘zbekiston xalq shoiri A.Oripovning tanqidchi, olim, jurnalist va muxbirlar bilan olib borgan suhbatlari turli mavzularda bo‘lsa-da, ularni Adabiyot bir maydonga birlashtirishi jihatidan ilmiy- ma’rifiy ahamiyatga egaligi yaqqol ko‘rinadi.

Adabiy suhbatlar mavzusi, maqsadi, qaerda va qanday shaklga (shoirning jurnalist bilan, tanqidchi yoki muxbir bilan suhbati, davra suhbati v.h.) ega bo‘lishidan qat’i nazar, yuksak adabiyot uchun kurashadi. Masalan, “O‘tgan daholarning nomin etib yod” (Mazkur suhbat har yili Ravenna shahrida o‘tkaziladigan, 2008 yilda “Dante O‘zbekistonda” shiori ostida o‘tgan an’anaviy “Dantexonlik” marosimi munosabati bilan o‘tkazilgan bo‘lib, buyuk italyan shoiri ijodi bilan bog‘liq, italyanlarning kitobxonlikka munosabati masalalari yoritiladi.

“Ona bo‘la qolgin, bizga tabiat” –ona tabiat muhofazasiga bag‘ishlangan maxsus gazeta muxbiri bilan suhbatda tabiatni asrash, ekologiya muammolari haqida so‘z yuritiladi.

A.Oripovning suhbatlarni o‘qir ekansiz, har bir suhbat qaysidir jihati bilan sizni Adabiyot, ijod atalmish sehrli dunyoga olib kirishga ko‘mak beradi. Shoirning suhbatlarda adabiyot, she’riyatga bergan bahosida, munosabatida buni yaqqol ko‘rish mumkin.

“Bir ne’matki, jondan-da totli” – bu qisqa suhbatda mustaqillikning hayotimizdagi o‘rni haqida so‘z borsa-da, shoir ayni shu jarayonlarda “Adabiyotning birinchi vazifasi – millatni o‘ziga o‘zini tanitish va ezgu murod-maqsadlarning hayotiyligini xalqqa tushuntirib berishdan iborat” deb hisoblaydi [17,198] .

Suhbatlarning sarlavhasidan ham shu ayon bo‘ladiki, ular ko‘pincha shoir asarlari, ularning yaratilishi bilan bog‘liq holda tashkil etilgan. Masalan, “Birinchi muhabbatim” necha yoshda” (suhbatdosh L.Najmullo) yoki “Sen bahorni sog‘inmadingmi?” –(suhbatdosh Minhojiddin Mirzo).

Shunisi e’tiborliki, barcha suhbatlarda shoirning adabiyot uchun fidoyiligi, she’riyatga yuksak muhabbat bilan qarashi diqqatni tortadi. “Pushkin saboqlari” deb nomlangan suhbatda (G‘.Hotamov uyushtirgan) shoir Pushkin she’riyatining yashovchanligining sabablari haqida fikr yuritar ekan, Pushkin she’riyati “xalqlar uchun faqatgina abadiy yodgorlik emas, balki yuragi doimo urib turgan tirik bir xilqatdir” - deydi. Uning buyuk rus shoiri, ijodi haqidagi mulohazalari kitobxonni yanada Pushkinga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

“Yuksak fikr jasoratdan tug‘iladi” deb nomlangan suhbatda suhbatdoshning “...o‘zingizning boshqa ijodkorlarnikiga o‘xshamaydigan, betakror adabiy-badiiy, sehrli, sirli, jozibali, ayni choqda murakkab dunyo yaratdim, deb hisoblaysizmi” degan savoliga shoir: men bosib o‘tgan va o‘tayotgan yo‘lim o‘zimgagina xosdir.

O‘zgalardan olmadim tuyg‘u,
O‘zgaga ham bermam ovozim

deb bir paytlar yozgan she’ridan parcha keltirarkan, shoir badiiy ijodni, ayniqsa, she’riyatni sehr va joziba hamda yuksak fikrlarning go‘zal bir omixtasi sifatida ko‘rsatadi. Inson qalbini tushunmaydigan yoki tushunishni xohlamaydiganlarni shoir “she’riyatga yot kimsalar” deb ataydi [16,193].

“Men nechun sevaman O‘zbekistonni?...” - bu suhbatda (2008) yoshlar she’riyati haqida fikr yuritar ekan, shoir yosh ijodkorlarning “o‘ta savodli. Ilg‘or adabiyot labaratoriyasidan xabardorligidan” quvonadi, shu bilan birga ularning ijodida milliylik ko‘proq bo‘lishi, milliy ruhda o‘lmas asarlar yozishini chin dildan istashini bildiradi.

Mustaqillik yillarida mavzu sohasida ham, talqin qilish borasida ham chegara yo‘qolganligi, ayniqsa, ruhiy tahlilga keng yo‘l ochilganligini mustaqillikning beqiyos tuhfasi deb biladi shoir.

“Istiqlol – yangi davr adabiyotiga qadam” deb nomlangan suhbatda suhbatdosh Umid Alining “Birinchi muhabbatim” she’ri ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘lganidan kelib chiqib bergan savoliga shoir ijodkorning har baytidan qandaydir “izm”larni axtarish bu sho‘ro davridan qolgan usul ekanligini qoralaydi, she’rni ko‘ngildan his qilganingiz ma’qul deb javob qaytaradi.

“Men she’riyatga suyanganman va hanuz suyanaman” (2009, suhbatdosh N. Usanboeva) deb nomlangan suhbatda shoir Bedilning “Olamda bu dunyo va u dunyo bor. Lekin uchinchi dunyo ham borki, bu –she’riyat dunyosi. U sehrli va o‘ziga xos dunyo” degan so‘zlarini keltirar ekan, bu olamning ichiga kirish va shu sehrli she’riyatning vakili bo‘la bilish har kimga nasib qilavermaydi” [340-bet] deya shoirning yuragini olamdagi bir ko‘prikka o‘xshatadi.

“Qayg‘usini quvonchga aylantirgan edi...”. Bu suhbat Hamid Olimjon ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, A.Oripovning bu hassos shoirga simpatiyasi, hurmati har bir mulohazasida yaqqol namoyon bo‘lb turadi. “Hamid Olimjon maktabi unutiladigan maktab emas. U – mahorat maktabi. U –she’riyat maktabi. U-san’at maktabi” –der ekan shoir yoshlarni Hamid Olimjoonning she’riy san’atini o‘rganishga, “ona tilimizning naqadar go‘zal tovlanib turishini his“ etishga chorlaydiki, bu chorlov sho‘ro davrida yashab ijod etgan, yuksak san’at namunalari yaratib ketgan har bir ijodkorga xosligi bilan ahamiyatlidir.

A.Oripov suhbatlarini o‘qir ekanmiz, ularda ham shoirning maqola, esse, adabiy o‘ylarida aks etgan adabiy-estetik qarashlari mujassam ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Shu bilan birga adabiyot, she’riyatni rivojlantirish, badiiy asarning yuksakligi uchun kurashishda, adabiy jarayon takomilida bu suhbatlarning ahamiyati, shoirning ichki olami, shaxsiyati, hayotga, insonlarga munosabati ham yaqqol ko‘rinadi. Suhbatdoshlarning fikrlash tarzi, adabiyotga, so‘zga munosabati kitobxonning estetik darajasini o‘stirishga, adabiyotga, she’riyatga ixlos qo‘ya olishiga ham xizmat qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy hayotga, jarayonga faol aralashishni o‘zining ma’naviy ehtiyoji deb bilgan A.Oripovning nafaqat badiiy ijodi, balki adabiy-tanqidiy qarashlari, portretga chizgilari, publitsistik chiqishlari, xotiralari, suhbatlari jam bo‘lgan adabiy o‘ylari – esselari ham kitobxonda Adabiyotga muhabbat uyg‘otishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Axmedova Sh. O‘zbek adabiy tanqidchiligi janrlari. Toshkent. “Fan”. 1998.
2. Axmedova Sh., Davronova Sh. O‘zbek adabiy tanqidi janrlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.2023.
3. Axmedova Sh.Ma’rifatparvar jadid tanqidchilari. Germaniya. Glebe Edit. 2023.

4. Nematovna, Akhmedova Shoira. "Genre of literary portrait in the works of Alisher navai." *scientific reports of bukhara state university/Nauchnыy vestnik” BuxGU*: 127

5. Axmedova, Shoira Nematovna. "O‘ZBEK VA FRANSUZ ADABIYoTShUNOSLIGIDA PORTRETNAVISLIK TARAQQIYoTI." *MEJDUNARODNЫY JURNAL ISKUSSTVO SLOVA* 3.6 (2020).

6. Axmedova, Shoira Nematova. "PROGRESS PORTRETOPISANIYa V PERIOD GLOBALIZATSII V LITERATUROVEDENII." *Rossiya-Uzbekistan. Mejdunarodnыe obrazovatelnыe i sotsialno-kulturnыe texnologii: vektorы razvitiya* (2019): 12-14.

7. Axmedova, Shoira Nematovna, Loseeva-Tanem Baxtiyari, and Nasima Saidburxanovna Kadirova. "O Tvorcheskoy cpesifike Literaturnoy Kritiki." *Miasto Przyszłości* 42 (2023): 326-329.

8. Axmedova Sh. N. Xurshid Davronning adabiy–estetik qarashlari: //Obrazovanie i innovatsionnыe issledovaniya mejdunarodnыy nauchno-metodicheskiy jurnal. – 2022. – №. 6.2. Maxsus son. – S. 20-28.

9. Akhmedova Sh.N. Correspondence and literary criticism. Germany. Glebe Edit.2020.

10. Axmedova Sh., Nazarova D. Adabiy portret janrining nazariy jihatlari xususida \\ “So‘z san’ati” xalqaro ilmiy jurnali. 4-jild . 3-son . 2021-yil.40-50-bet.

11. Baranov V.I.,Bacharov A.G.,Surovsev Yu.I.Literaturno-xudojestvennaya kritika. Uchebnoe posobie.M.: Vыsshaya shkola,1982.;

12. Asqad Muxtor.Yosh do‘stlarimga. Toshkent.1987.

13. Jamolova Z. O‘zbek tanqidchiligida adabiy obzor: tabiati va taraqqiyoti. F.f.b.f.doktori (PhD)....diss.Buxoro 2023.

14. Nazarov B, Rasulov A., Axmedova Sh.,Qahramonov Q. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. Darslik. 2012. 378 b.

15. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. Toshkent. “Yosh gvardiya”, 1989. 42-bet

16. Oripov A. Tanlangan asarlar. 6-jild. Toshkent. 2010. “Sharq” NMAK. – B.198.

17. Xolmirzaev Sh. Esse-erkin janr // O‘zAS, 2003, 18.04. - № 16.

18. Epshteyn M. Zakonы svobodnogo janra // Voprosы literaturы. 1987, - № 1. – S.29-139.

NAIM KARIMOV HIKOYALARIDA QATAG‘ON DAVRI VOQELIGI TALQINI

Sabirdinov Akbar Gofurovich,

filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Taniqli shoir, yozuvchilarning ajoyib voqealar, unutilmas uchrashuvlarga boy hayotining betakror talqini asosida asar yaratish ijodkordan yuksak mahorat talab etadi. Qator ma’rifiy-biografik romanlar muallifi Naim Karimovning “Bu ajib dunyo” kitobidan o‘rin olgan voqeiy hikoyalar, kinoqissa, musiqiy drama va komediyalarda sobiq sho‘ro davrida qatag‘onga uchragan o‘zbek ziyolilarining og‘ir taqdiri haqida muhim ma’lumotlar o‘rin olganligi bilan qimmatlidir. Ularda Fitrat, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Usmon Nosir kabi hassos ijodkorlarning dolg‘ali faoliyati bilan bog‘liq voqealar ta’sirchan va maroqli hikoya qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: voqeiy hikoya, qatag‘on davr, badiiy mahorat, o‘zbek adabiyoti, hassos ijodkor, erk, ozodlik.

Аннотация

Создание произведения, основанного на уникальной интерпретации жизни известных поэтов и писателей, полной замечательных событий и незабываемых встреч, требует от творца высокого мастерства. Реальные истории, музыка из фильмов, музыкальные драмы и комедии из книги “Этот прекрасный мир” Наима Каримова, автора ряда познавательных и биографических романов, ценны тем, что содержат важную информацию о нелегкой судьбе узбекской интеллигенции, репрессированной в советское время. Они рассказывают трогательные и захватывающие истории о насыщенном творчестве таких чувствительных художников, как Фитрат, Чулпон, Ойбек, Гафур Гулом, Максуд Шайхзода и Усман Насир.

Ключевые слова и фразы: подлинная история, период репрессий, художественное мастерство, узбекская литература, чуткий творец, воля, свобода.

Annotation

Sozdaniye proizvedeniya, osnovannogo na unikal'noy interpretatsii zhizni izvestnykh poetov i pisateley, polnoy zamechatel'nykh sobytiy i nezabyvayemykh vstrech, trebuyet ot tvortsa vysokogo masterstva. Real'nyye istorii, muzyka iz fil'mov, muzykal'nyye dramy i komedii iz knigi “Etot prekrasnyy mir” Naima Karimova, avtora ryada poznavatel'nykh i biograficheskikh romanov, tsenny tem, chto soderzhat vazhnuyu informatsiyu o nelegkoy sud'be uzbekskoy intelligentsii, repressirovannoy v sovetskoye vremya. Oni rasskazyvayut trogatel'nyye i

zakhvatyvayushchiye istorii o nasyshchennom tvorchestve takikh chuvstvitel'nykh khudozhnikov, kak Fitrat, Chulpon, Oybek, Gafur Gulom, Maksud Shaykhzoda i Usman Nasir.

Keywords: podlinnaya istoriya, period repressiy, khudozhestvennoye masterstvo, uzbekskaya literatura, chutkiy tvorets, volya, svoboda.

Qatag‘onga asoslangan sho‘ro davrining ko‘plab taniqli adabiyotimiz namoyandalari boshiga solgan kulfatlarini arxiv hujjatlari asosida chuqur o‘rgangan, qator maqola va kitoblari bilan keng kitobxonlar ommasiga tanilgan taniыli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Naim Karimovning navbatdagi kitobi “Bu ajib dunyo” (– Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016) deb nomlangan. Ushbu kitobdan joy olgan voqeiy qissa va hikoyalar, sahna asarlari XX asr o‘zbek adabiyoti atoqli namoyandalari hayotida ro‘y bergan ajoyib voqealar, unutilmas uchrashuvlar hamda ko‘pchilikka noma’lum bo‘lgan kechmishi sahifalari qiziqarli tarzda talqin topgani bilan qimmatlidir. Qator ma’rifiy-biografik romanlari bilan tanilgan muallifning bu yangi to‘plamidan o‘rin olgan Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, Maqsud Shayxzoda, G‘afur G‘ulom kabi hassos ijodkorlar hayoti bilan bog‘liq ajabtovur hikoya, kinossenariy va pesalar bizni qatag‘onga asoslangan sho‘ro davri – XX asr voqeligiga olib kiradi. Muallif o‘zbek ziyolilarining fojeali taqdirini goh chuqur iztirob singgan satrlarda ifodalasa, goh ular bilan ro‘y bergan ajib voqealarni engil yumor bilan tasvirlaydi. Masalan, “G‘afurona safar” hikoyasi o‘quvchini 1940-yilning 5-15 iyun kunlari Moskvada bo‘lib o‘tgan belorus san’ati o‘nkunligi tantanalari bilan bog‘liq voqelikka olib kiradi. Ushbu tantanada ishtirok etish uchun Moskvaga Hamid Olimjon bilan birga borgan G‘afur G‘ulomning bir necha kundan keyin Tibilisida o‘tkazilishi rejalashtirilgan gruzin adabiyotining mumtoz namoyandasi Akakiy Seritelining yuz yillik yubileyi tadbiriga yo‘l olgandagi sarguzashtlari – bir stansiyada poezddan qolib ketib, qanday “g‘afurona” topqirlik bilan hamrohlariga etib olgani bayon qilinadi. 17-iyun kuni (1940-yil nazarda tutilmoqda – S.A.) Ittifoq Yozuvchilar uyushmasining ko‘p millatli delegatsiyasi tarkibida Kiev vokzalidan poezdga o‘tirgan G‘afur G‘ulom “Toza havo olaman” deb stansiyalarning birida perronga tushib do‘konchalardan “safarbop matoh” qidira boshlaydi. “... o‘sha atrofdagi bir-ikki do‘konchaga kirsa, limonad bilan kremsodadan bo‘lak safarbop matoh yo‘q ekan. Shundan keyin u to‘ppa-to‘g‘ri vokzal restoraniga kirib xizmatchilar bilan salom-alik qiladi, so‘ngra bir-ikki shishani qo‘ltig‘iga qistirganicha perron tomon otilib chiqadi. Biroq ne ko‘z bilan ko‘rsinki, hozirgina jomadonini qo‘yib, kupesidan chiqib kelgan poezdi uni kutib

o‘tirmay, “pu-pub” deganicha ketib qolibdi”[1,7]. Shunda ham kulgili, ham asabiy vaziyatdagi shoiri davronga kimdir samolyotga o‘tirib Xarkov yoki Rastovga uchishni maslahat beradi.

Hikoya ushbu tasvir bilan yakunlanadi: “Ko‘p o‘tmay tanish poezd ko‘rinadi. U to‘xtashi bilan G‘afur G‘ulom, go‘yo hech narsa bo‘lmagandek, vagonga chiqib bomaylaxotir kupega kirib boradi. Kupedagi hamrohlar G‘afur G‘ulomni ko‘rib, hang-mang bo‘lib qoldilar. Shoir esa huddi qo‘shni vagondan chiqqan kishidek, “Yaxshi kelyapsizlarmi?” deb, hamrohlari bilan samimiy ko‘rishadi...” [1,17]

XX asr boshlari o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos iste’dodi bilan tanilgan hassos ijodkor Amin Umariyning baxtiqaro hayotiga bag‘ishlangan “Amin va Amina” hikoyasi yuksak muhabbat va u orqali yuzaga kelgan o‘rinsiz rashkning fojeali oqibatlari to‘g‘risida hikoya qiladi. Qo‘qonda tug‘ilgan, asl ismi Muhammadamin bo‘lgan bu shoirni qalamkash do‘stlari Amin deb chaqirishar edi. Amin Umariy taxallusida elga tanilgan ushbu shoir Edil bo‘ylaridan bo‘lgan Amina bilan Samarqandda tanishib qoladilar. Hikoyada bayon etilishicha ular sevgisining barg yozb, orombaxsh gullarining barq urishiga Usmon Nosir sababchi bo‘lgan. Asarda sevishganlarning baxtli damlari “1937 yilda turmush qurganlarida Amin va Amina bir olmaning ikki pallasidek, bir-birlari bilan uzoq va baxtli-saodatli umrga qovushgandek bo‘ldilar”[1,9]. Shu tariqa Tibbiyot institutiga o‘qishga kirgan Aminaning izidan Toshkentga kelgan Amin unga uylanib, ijarama-ijara yurib bo‘lsa-da, baxtli kunlarini kechira boshladi. Qizlari Alfiya ham shu erda tug‘iladi. Hikoyada Bekobod metallurgiya zavodiga ishga yuborilib, u erdagi quruvchilar orasida terlama kasalni yuqtirib olgan Amin ming mashaqqatlar bilan nihoyat kasalxonaga yotqiziladi.

Hikoyada Aminaning Qo‘qondan mehmonga kelgan Amin qarindoshlariga nopisandligi, ro‘yxush bermasligi er-xotin munosabatlarida bo‘shliqni yuzaga keltirganligi, oxir-oqibat Amin kasalxonada yotarkan ko‘ngil bo‘shlig‘ini to‘ldirish uchun Katyani ko‘rishni ixtiyor etgani bayon etiladi. Yozuvchilar uyushmasining hisob-kitob bo‘limida xizmat qiluvchi Katerina bilan Amin o‘rtasida muhabbat paydo bo‘lgan, Amina ko‘nglida ham o‘z navbatida shubha-gumon uyg‘ongandi. Ularning pinhona uchrashuvlari guvohi bo‘lgan Amina palatada janjal-to‘polon ko‘taradi. “Jaholat hatto o‘lim qarshisida yotgan xastani ham ayab o‘tirmadi. Amina hamma narsani unutib, rosa tomosha ko‘rsatdi. Amin uni kuchi etganicha yupatishga, hech gap bo‘lmaganini va bo‘lishi ham mumkin emasligini tushuntirishga urindi. Azbaroyi qiynalganidan qora terga botdi. Issig‘i haddan ziyod ko‘tarilib voqeaning nima bilan tugashini bilmadi. Shu-shu o‘ziga kelmadi... 1942 yilning 13 noyabridan 14 noyabrga o‘tar kechasi 30-yillarning go‘zal

shoirlaridan bo‘lgan Amin Umariy olamdan ko‘z yumdi. 29 yashar shoirning qalb tori avj pardada uzildi” [1,16].

Hikoyada tasvirlanishicha, Hamid Olimjon bundan bir necha kun avval kasalxonaga qo‘ng‘iroq qilganida Amin Umariyning ahvoli durustlashib borayotganini aytishgandi. Shu bois, shoirning tusatdan vafot etishi, uning ko‘nglida shubha uyg‘otadi, Amina rashk oqibatida qotillikka qo‘l urmaganmikan, degan fikrni tug‘diradi. Asarda jafokash shoirning dafn marosimi “Biror soatlik vidolashuvdan so‘ng motamsaro kishilar tobutni ko‘tarib, Minor qabristoni sari yo‘l oldilar. Qabriston kuz og‘ushida edi. Dov-daraxtlarning shox-shabbalarida marhumning jonsiz yuzidek qovjiragan barglar omonat xilvirab turardi. Oxundiy motam yig‘inini ochib, shoir to‘g‘risida so‘z aytganda ham, boshqa notiqlar marhum sha’niga vido so‘zlarini aytganda ham shu tuproq rangiga kirgan barglar qora kipriklarida oqib tushayotgan ko‘z yoshlaridek tinimsiz to‘kilib turdi. Bir-ikki qovjiroq yaproq tobut ustiga, marhumning ko‘kragida qovushgan qo‘llariga kelib qo‘ndi. Tirik chog‘ida bu qo‘llar Aminaga, endi yashirishni nima hojati bor, Katya – Katyushaga ham gul eltishni sevar edi. Endi bu mehribon qo‘llar ham, bu kuzgi yaproqlar ham jonsiz” [1,19] tarzda ifodalangan.

Asarda shoir qabri ustida ma’sum yulduzlar Katya bilan birga tongga qadar yosh to‘kishlari ta’sirchan tasvirlangan: “Ertasi, tong otishi bilan Qo‘qondan Amin Umariyning og‘a-inilari etib kelishdi. Ular qabristonga kirib kelishlari bilanoq “Voy, akam!”, “Voy, ukam!”, “Voy, jigarim!” degan fig‘onu nolalar tevarak-atrofni to‘ldirib yubordi. Shu payt qabr usti astagina, sezilar-sezilmas silkinib, do‘ngdan bir-ikki chiqim tuproq pastga sochilib tushdi. So‘ng allaqaerdan harir tolalardan iborat oqish bir dud paydo bo‘lib, faryod ko‘targan kishilar atrofida goh kichrayib, goh odam bo‘yi cho‘zilib, suzib parvona bo‘lib turdi. Musibat o‘tida o‘rtangan marhumning jigarlari bu sirli holni sezib–fahmlab ulgurdilarmi-yo‘qmi, ammo, chamasi, kindik qoni to‘kilgan tuproqni, ota-onasi va qarindosh urug‘larini, shu aziz kishilarning hatto yig‘lagan ovozlarini ham sog‘ingan shoir ruhi ular bilan uchrashib, vidolashmoqda edi...” [1,20]

“Taraddud” hikoyasida tasvirlangan voqealar esa XX asr 40-yillari oxirida ro‘y beradi. Hikoya qahramonlari Said Ahmad, Shuhrat, Shukrullo, Ramz Bobojon, Mirmuhsin va Turob To‘la kabi ijodkorlar Toshkentga respublika yosh yozuvchilar seminariga kelgan Adham Hamdamni Farg‘onaga darhol qaytishiga yo‘l bermay “ziyofat”ga olib qoladilar. Erta tongdan ikki qadrdonlar – Said Ahmad va Adham Hamdam Mirmuhsin xonadoniga etib boradilar. Ijodkorlarning bir-birlariga qilgan hazillari, so‘ng esa o‘zaro extiyot bo‘lish zarurligi haqidagi tanbehlaridan qo‘rquv saltanati hukmron bo‘lgan muhit haqida o‘quvchida tasavvur hosil etadi.

Adham Hamdamning o‘n yilga hukm qilingan Ashurali Zohiriy qamoq muddatini o‘tab oilasi bag‘riga qaytganligi xabari barchani sevintirib yuboradi. Ular Usmon Nosirning ham qamoqdan tez kunlarda ozod bo‘lib kelishiga qattiq ishonganlari holda o‘zlaricha uni munosib kutib olishga taraddud ko‘ra boshlaydilar. Ushbu “taraddud” she’riy mushoiraga aylanib ketadi. Shoirning “Naxshon” dostonidan Shukrullo, Ne’mat Toshpo‘lat, Turob To‘la birin-ketin yoddan o‘qiy boshladilar. Kimdir “Demon”dan qilgan tarjimasini yod aytadi. Hikoyada nekbin tuyg‘ular og‘ushidagi she’riyat vakxanaliyasi shunday tasvirlanadi: “She’riyat sharobidan mast bo‘lgan davrada kimning tinglovchi, kimning she’r o‘quvchi ekanini bilish qiyin edi. Hamma ayni paytda ham o‘quvchi, ham tinglovchi edi. To‘g‘rirog‘i, tinglovchi yo‘q edi. Badoxatan boshlangan mushoiraga Shuhrat ham, Ramz Bobojon ham, Mirmuhsin ham qo‘shildilar. Qo‘shilmagan odam qolmadi. Davra ko‘tarinki kayfiyat qushlari qanotida osmonga talpingandek bo‘ldi” [1,26]. Ana shu tariqa davraga yig‘ilganlar hassos shoir Usmon Nosirning o‘n yillik jazo muddatini o‘tab ona yurtiga sog‘-omon qaytishini tarixiy kun sifatida nishonlash rejasini tuzadilar. Lekin baxtiqaro shoirning qaysi lagerda ekani noma’lum. Hikoya chuqur falsafiy fikrga uyg‘un quyidagi tabiat tasviri bilan yakunlanadi: “... Bog‘ni kesib o‘tgan, ikki qirg‘og‘ida gulsafsaru rayhonlar o‘sgan ariqdan oqib kelayotgan olmalar ham to‘xtadi. Bu olmalar o‘rniga botayotgan quyoshning so‘nggi oltin nurlari o‘ynay boshladi” [1,27].

“Dostonga arziydigan qo‘shiq” hikoyasi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Oltin vodiydan shabadalar” romanidagi Sobir va Anorxon to‘yi tasvirini yozish jarayoni bayoni bilan boshlanadi. Yozuvchi Kislovodskda romanni yozar ekan xayolidan to‘rt yil avvalgi bo‘lib o‘tgan voqealar jonlanadi. O‘shanda Toshkentning Beshyog‘och dahasida professor Rahmatulla Mallin va uning rafiqasi Bibi Sattorova xonadonida Til va adabiyot institutining bir guruh xodimlari mehmon bo‘lishgandi. Folklorshunos olim Hodi Zarif Muzayyana Alaviyadan xalq qo‘shiqlaridan birini xirgoyi qilib berishini so‘raydi. Muzayyana Alaviya yoqimli ovoz bilan turli “yor-yor”larni kuylab beradi. Ayniqsa, u Aleksandr Konstantinovich Boravkov yaxshi ko‘radigan “Sayra bulbul” kuyida aytiladigan “yor-yor”ni kuylaganida Oybek “Bir dostonga arziydigan qo‘shiq” deya yuqori baholaydi. U Muzayyana Alaviyaning kumush sochlarini silab, otalarcha elkasidan quchib xalq qo‘shiqlarini to‘plashdagi fidoyiligini olqishlaydi. Ulug‘ yozuvchi yig‘ilish so‘ngida “Azizlar! Olim va olimalar! Hozirgina Muzayyanaxonim kuylagan qo‘shiq so‘zlarini manaman degan shoirlar ham yoza olmaydilar. Bunday badiiy barkamol asarlarni xalqdek ulug‘ egasigina yaratishi mumkin. Bunday durdona asarlarni bashariyat madaniyati xazinasiga katta hissa qo‘shgan xalqgina yarata oladi...” [1,32]

Hikoyaning keyingi qismida yana adibning romanni yozish jarayoni, asardagi Sobir va Anorxonning to‘yi tasviri manzaralari aks etadi. Asar shunday xulosalanadi: “... Adib romanni tugatib, Toshkentga qaytgach, qo‘lyozmani ko‘chirishni rafiqasi Zarifa opaga buyurdi. “Yor-yor” matnini esa Muzayyana Alaviyadan olib qo‘shishni tayinlab, qalamkash birodarlar bilan birga Pokistonga uchdi” [1,34].

Xullas, shartli to‘rt qismdan iborat ushbu hikoya Oybekning “Oltin vodiydan shabadalar” romanining yaratilishiga asos bo‘lgan real voqealar haqida ma’lumotlar berishi bilan qimmatlidir.

“Muborak imzo” hikoyasidagi voqea To‘xtasin Jalolovning “O‘zbek shoirlari” kitobiga Oybekdan taqriz olish uchun u yashaydigan “Ishchilar shaharchasi”dagi xonadoniga yuz istihola bilan yo‘l olish tasviri bilan boshlanadi. Chunki u Oybekning og‘ir hasta ekanligini eshitgan, uni ostonada kutib olgan Zarifaxonim ham buni tasdiqlagan edi. To‘xtasin Jalolov “Domlaning toblari yo‘qligini bilanman... Ammo u kishining yiliga bittadan kitob yozayotganlaridan ham xabardorman. Binobarin, kitob o‘qishlari ham mumkindir, degan umid bilan keluvdim” deya javob qiladi. Zarifaxonim besh yuz sahifalik qo‘lyozmani olarkan, undan bir haftadan keyin xabar olishini so‘raydi. To‘xtasin Jalolov ushbu xonadonga xasta adibni qiynab qo‘ymaslik uchun atayin kechroq – ikki haftalar o‘tgandan keyin keladi. Oybek uni ochiq chehra bilan kutib olarkan kitobda Zebiniso zo‘r yozilganini, Uvaysiy muxtasar roman ekanini ta’kidlaydi. Nodira haqida roman yozishga undaydi. Chunki To‘xtasin Jalolov ham 40-yillar oxiri – 50-yillar boshlarida qatag‘on tegirmoniga tushgan, ajal vodiysidan omon chiqqan edi. Uning qismatida qaysidir ma’noda Nodira taqdiri bilan mushtarak tomonlar yo‘q emasdi. Oybek shu bilan birga To‘xtasin Jalolovdan o‘zi haqida ham roman yozishni so‘raydi. Lekin To‘xtasin Jalolov o‘zi haqida roman yoza olmas, “Mehnat-tuzatuv lageri” deb atalgan azobgohdan ozod etilganida, u erda ko‘rgan-bilganlari, boshdan kechirgan voqealar to‘g‘risida og‘iz ochmaslik haqida tilxat bergandi.

Oradan bir necha kun o‘tgach, nashriyot xodimlaridan biri To‘xtasin Jalolovga zudlik bilan idoraga etib borishi kerakligi xabarini beradi. Sobiq mahbus ming xil xayolga boradi. Har ehtimolga qarshi bir sidra kiyim-bosh, qotgan non olib xaltaga joylaydi. Nashriyot direktori Nasrullo Oxundiy u bilan iliq so‘rasharkan, oldiga bir varoq qog‘oz qo‘yadi. Bu Oybekning taqrizi edi. Taqrizda Oybek kitobning qimmatli ekanini, o‘zbek adabiyotida o‘zbek shoiralari to‘g‘risida hali hech narsa yaratilmaganinit ta’kidlagan edi. To‘xtasin Jalolovning qamalib chiqqani bois uning kitobiga taqriz berishdan barcha o‘zini olib qochayotgan paytda Oybekning bu bag‘rikengligi, jasorati yozuvchini to‘lqinlantirib yuboradi.

Hikoya shunday yakunlanadi: “Nasrullo Oxundiy To‘xtasin Jalolovning qo‘lidan hali tushmagan xaltaga tikilganicha: “Yuvadigan bo‘ldingiz, oqsoqol!” dedi. Biroq bu so‘zlar uning qulog‘iga kirmadi. U ulug‘ inson va mehridaryo adibning muborak imzosini o‘pib, uni sevinch yoshlari bilan yuvayotgan edi...” [1,42]

“Unutilmas kun” hikoyasi Maqsud Shayxzodaning qamoqdan chiqqandan keyingi hayoti haqida. U 1951 yil 21 sentyabrda ikkinchi bor hibsga olinib, 25 yilga hukm etilgan, Iosif Stalin o‘limidan so‘ng 1954 yil iyunida qamoqdan muddatida oldin ozod etilgandi. Lekin Maqsud Shayxzoda 1957 yilga qadar na Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga tiklandi, na yozilgan she’rlari gazetada bosildi. Shoirning Markazkomga yozgan arizalari ham javobsiz qolgan: uning qo‘liga temir bilarguzuk taqqan kishilar esa hamon ot minib javlon urayotgan edilar. O‘sha yillarda “Toshkent haqiqati” gazetasining bosh muharriri Maqsud Qoriev bo‘lib, Maqsud Shayxzoda uning huzuriga she’rlarini gazetada bosishga yordam berishini so‘rab boradi. Maqsud Qoriev o‘zbeklarda “Musulmonchilik asta-asta” degan gap borligini, birdan she’rdan boshmasdan avval havaskor shoirlar she’rlariga maqola yozib berishni iltimos qiladi. Bu taklifni Shayxzoda mamnuniyat bilan qabul qiladi va sakkiz-to‘qqiz sahifalik maqola yozib beradi. Maqsud Qorievning jasorati uning Ismoil Sulaymonovga “Kimdir jur’at etishi kerak, Ismoil! Kimdir boshlab berishi kerak. Qachongacha Shayx akadek zabardast shoir xor bo‘lib yuradi. Kel olsa ola qolsin redaktorligini! Maqolaning tepasiga “Maqsud Shayxzoda” deb muallifini yozib qo‘y” [1,48] degan so‘zlarida ifodalanadi.

Asarda adolatsizlik orqasidan nomard kishilarning tuhmati bilan qamalgan shoir yana nomardlik, haqsizlik va razillik ummonida yashayotgan Maqsud Shayxzodaning 1957 yilning 20 marti tongida “Toshkent haqiqati” gazetasida bosilgan “Turmush va tovushlar” maqolasini ko‘rgandan keyingi kechinmalari shunday tasvirlanadi: “Maqola tepasidagi “Maqsud Shayxzoda” degan ism-sharif tilla suvi bilan yozilgandek tuyuldi. Shayxzodaning yuragi “gup-gup” urib ketdi. Qamoqxonaning yakka kamerasida ham, Sibir o‘rmonlarida ham to‘kilmagan ko‘z yoshlari quyulib keldi... Shu kuni shoirning Maqsud Qoriev jur’ati bilan bosilagan oddiygina bir maqolasi uning qarshisiga tuzim tomonidan qo‘yilgan temir to‘siqlarni parcha-parcha qilib tashladi” [1,48].

“Sham va Chaqmoq” hikoyasi retrospektiv syujet asosida qurilgan. Asar voqealari ardoqli adib Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek vafot etgan 1968 yil 1 iyul kuni tasviri bilan boshlanadi. Abdurahmon adibni hayot paytida ziyorat etmaganidan afsuslanganicha Oybek xonadoniga vidolashgani otlanadi. Xotirasidan yigirma besh yillik qamoq jazosiga hukm etilgan Qarag‘andadagi “Qarlag” lageridagi jahannamning qora kunlari qayta jonlanadi. Ular urushda asir tushib qolganliklari uchun “xalq dushmani” sifatida qamalganlar. Nazoratchilar

hayvon qatorida ko‘ruvchi, kaltaklash va tahqirlardan jisman va ruhan ezilgan ushbu baxtiqaro kimsalarga tungi xira chiroq yorug‘ida o‘qilgan “Navoiy” romanidagi voqealar, ulug‘ shoir hikmatlari darmon bo‘ladi. Romanda tasvirlangan hazrat Navoiyning yorqin siymosi, purma’no so‘zlari kelajakka umid uyg‘otadi.

Hikoyaning so‘ngi satrlari shunday yakunlanadi: “Abdurahmon ko‘cha va xiyobonlar, ko‘prik va maydonlardan o‘tib, Ishchilar shaharchasidagi o‘sha qutlug‘ xonadonga etib kelganida adib hovlisi va darvoza oldi motamsaro odamlar bilan to‘la edi. Hademay, huddi kelishib olganlaridek, omon qolgan sobiq mahbuslar ham etib keldilar. Necha yillik azob va mutolaa – romanxonlik yillarda ulardan biri Zayniddin, ikkinchisi Sultonmurod, uchinchisi Arslonqul... nomlarini olgan edi” [1,61].

“Ikkinchi uchrashuv” hikoyasida tasvirlangan voqealar ham retrospektiv syujet asosida qurilgan. Muzayyana Alaviyaning turmush o‘rtog‘i Lutfulloxonning uzoq yillik qamoqdan 1947 yilda uyga qaytishi tasviri asar asosini tashkil etadi. Leningraddagi Sharq institutida ikki yil o‘qib, kasallikka chalingani uchun yurtiga qaytishga majbur bo‘lgan, komissarlikda bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlayotgan Lutfilloxon dastlar Obid Saidovning zaharlanishi bilan bog‘liq jinoyat ishida qatnashgan kishi sifatida, so‘ng esa komissarlikdagi go‘yo shoir Botu(Mahmud Hodiev) rahbarlik qilgan aksilinqilobiy millatchilik tashkilotiga a’zo bo‘lganlikda ayblanadi. Abdulla Alaviyning jiyani bo‘lgan Muzayyanaxonim bilan Lutfilloxonning “qizil to‘y”i 1930 yil bahor oylarida bo‘lib o‘tadi. Lutfilla Alaviy Muzayyanaxonga ona tomonida qarindosh edi. Oradan ikki-uch oy o‘tmay Lutfillaxon o‘n yilga qamaladi. Qamoqdan qaytgan Lutfillaxon Muzayyanaxon allaqachon boshqa turmush qurgan deb o‘ylaydi. Lekin uning bir vaqtlar yozgan xatini tumor qilib saqlayotganini ko‘rgach esa turmush o‘rtog‘ining sadoqatiga tasannolar o‘qiydi. Sobiq mahbusning xatni olgandagi holati shunday ifodalanadi: “Lutfillaxon rangi o‘chgan, uchburchakmi yo to‘rtburchakmi ekanligi ham noma’lum bo‘lgan narsani qo‘lga olib u yo-bu yog‘ini ko‘rayotgan edi, chirigan iplar o‘z-o‘zidan to‘kilib, ichidan bir necha bor buklangan qog‘oz chiqdi. U titroq qo‘llari bilan qog‘ozni ochdi. Va undan rangi o‘chgan yozuvni o‘qidi: “Iffatli go‘zal qarindoshim!...” Lutfillaxonni qattiq hayajan bosdi. Muzayyanaxonga sevgi izhor qilib yozgan xatining shu kungacha ko‘z qorachig‘idek saqlanib kelayotgani uning vafodorligining belgisi edi. U xatni duv-duv yoshlar to‘kilib borayotgan ko‘zlariga surtdi...” [1,68-69]

“Xamoyil” hikoyasi hassos iste’dod sohibi Abdulhamid Cho‘lponning qatag‘on etilishi arafasidagi hayotiga bag‘ishlangan. Asar voqeasi Cho‘lponning asabiy holatda Toshkent–Andijon poezdiga chiqib Andijonga kelishi tasviri bilan

boshlanadi. So‘ng Qatorterak mahallasiga etib borishi va Cho‘lpon degan yozuvi bor barcha qog‘ozlarni yig‘ib chemadonga solishi, so‘ng O‘shga borib bolalikdagi do‘sti Sharafiddin Salohiddin o‘g‘lining uyidan bir vaqtlar o‘zi sovg‘a qilgan kitoblari va Moskvadan yo‘llagan xatlarini olib, singillarining aqalli bir kun – yarim kun qolishini so‘rab yolborishlariga qaramay Toshkentga qaytishi, “Epoxa” paperosini yondirib, kul qilgandek barchasini yoqib yuborgani tasvirlanadi: “Bu, shu qog‘ozlarga bitilgan tuyg‘ular, fikrlar, orzularning so‘nggi faryodi edi. Cho‘lpon bu olovli faryodni tomosha qilar ekan, ko‘zlaridan dona-dona yoshlar to‘kildi... Nihoyat, shoir ruhiy, ijodiy va ijtimoiy hayotning ko‘zgusi bo‘lgan asarlarining hammasi yonib kul bo‘ldi. Cho‘lpon kulni to‘plab oldindan tayyorlab qo‘yilgan xaltachaga soldi. Shuncha kitob va qo‘lyozma asarlarning kuli kichik bir xaltachaga jo bo‘lgan va xaltacha o‘lik sichqon bolasidan ham engil edi...” [1,80]

Cho‘lponning uyiga mehmon bo‘lib kelgan Vadud Mahmud bilan bo‘lgan suhbatida ham chor Rossiyasi, so‘ng bolsheviklarning Turkistonning bosib olishi hamda istaganlaricha talab, shovinistik siyosat yuritishlari to‘g‘risida boradi. Cho‘lponning sho‘ro siyosatiga bo‘lgan munosabati hikoyadagi “Bolshevik degani insoniy qiyofasini yo‘qotgan, rahm-shafqatning rangi ro‘yini ko‘rmagan, zarur bo‘lsa-bo‘lmasa qon daryosini oqizadigan jallodning o‘zi ekan!.. Urug‘i ko‘p ekan bolshevikning! Biri o‘lsa, o‘ntasi tirilib turibdi! O‘ntasi o‘lsa, mingtasi qilich ko‘tarib chiqmoqda birodar” [1,77]. 1937 yil yozida sho‘ro davlatida yashayotgan barcha ziyolilar qatori Cho‘lponning ham o‘z taqdiridan havotirlanishiga asos bor edi.

Hikoyaning nomlanishi bilan bog‘liq ushbu tasvir, ayniqsa, xarakterlidir: “Tashqarida kechgi shabada esa boshlagani uchun Katya derazani ochib, xona havosini yangilamoqchi bo‘ldi. Deraza ochilishi bilan tashqaridan kirgan shabada deraza romiga osilgan hamoyilni xiyla tebratib yubordi. Odatda onalar o‘n to‘rt kunlik oydek kelinlariga, baxtli-saodatli turmush kechirayotgan farzandlariga ko‘z tegmasin, deb eshik yoki deraza romiga duo so‘zlar yozilgan tumorlarni ilib qo‘yishardi. Vadud Mahmudning ko‘zi hamoyilga tushib, uning nima ekanligini Cho‘lpondan so‘radi:

– Do‘stim, derazaga nimadir osib qo‘yibsizmi? Birinchi ko‘rishim. Singillaringiz “Akamizning boshi toshdan bo‘lsin”, deb duoyi karomat yozib berishibdimi yoki?

Hamoyil... ” [1,83]

Asarda hind xalqi ozodligi uchun kurashchi Javaharla’l hamda uning sevimli turmush o‘rtog‘i Kamola bilan bog‘liq ikkinchi syujet chizig‘i bor. Inglizlarga qarshi hind xalqi ozodligi yo‘lida qamoqqa tushgan Javaharla’lni turmadan ozod etisharkan unga Kamolaning ahvoli og‘irlashganligi haqidagi xabar yozilgan bir

Bizga ma’lumki, “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da signifikat shunday ta’riflanadi: “Til birligi ifodalaydigan tushuncha signifikat deyiladi” [7,87]. Ana shunga asoslangan holda, A.Sobirov assotsiativ talqinlar xususida so‘z yuritar ekan, uni bevosita signifikat tushunchasiga bog‘laydi. Uning ko‘rsatishicha: “Leksema bilan tushuncha o‘rtasidagi aloqaga signifikativ aloqa deb ataladi. Shu aloqa natijasida yuzaga chiqadigan ma’no концептual ma’no yoki designat deb yuritiladi. Inson ongi moddiy olamni idrok qilar ekan, miyada birdaniga narsa va hodisalarning tugal obrazi paydo bo‘lmaydi. Sezgi a’zolari yordamida tashqaridan olingan signallar tasavvurni uyg‘otadi, u tushunchaga, tushuncha esa fikrga turtki berib, insonning ongida bilim, malaka tarzida yashirinib yotgan so‘zlarni turtib chiqaradi. Masalan, *dala, poliz, bog‘* so‘zlarini olaylik. *Dala* deyilishi bilan tasavvurimizda *paxta, bug‘doy, makkajo‘xori, beda* kabi ekinlar ekiladigan katta keng maydon – yer gavdalanadi. U *dehqon, chopmoq, egat, pushta, ekmoq, g‘o‘za,*

tup, paxta, sug‘ormoq, hosil, termoq, traktor kabi yuzlab leksemalarni o‘zida jamlovchi, umumlashtiruvchi leksema (giperonim) sifatida ongimizda gavdalanadi” [8.15].

Professor D.Lutfullayevaning “Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi” nomli monografiyasi bu yo‘nalishdagi yaxlit tarzda yaratilgan dastlabki izlanish hisoblanadi. O‘zbek tilidagi assotsiativ munosabatlar yuzasidan olib borilgan mazkur tadqiqotda “tilning sir-u sinoatlari bilan qiziqqan kitobxonlarni o‘zbek tilshunosligiga endigina kirib kelayotgan assotsiativ tilshunoslikning tayanch tushunchalari bilan tanishtirish, assotsiativ tahlil usullarining tilni o‘rganishdagi ustuvorligini ilmiy asoslash, tilshunoslikda assotsiativ munosabat masalasining o‘rganilishi, o‘zbek tilida verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi, assotsiativ birliklarning xususiyatlari, tasnifi, assotsiativ tajriba metodining mohiyati, assotsiativ lug‘atlarning tuzilishi haqida” batafsil fikr yuritiladi[4.4]. N.Xoshimovaning falsafa doktori dissertatsiyasi esa o‘zbek tilidagi “san’at” arxisemali leksemalar misolida assotsiativ munosabatlar tadqiqiga bag‘ishlangan [5].

D.Lutfullayevaning fikriga ko‘ra, tashqi olamning verbal ifodasi va bunda voqelik-ong-til uchligi munosabatida eng muhim jihatlarga to‘xtalar ekan, shunday yozadi: “Tashqi olamdagi voqeliklar inson ongida ular bilan bevosita aloqador bo‘lgan makon, zamon, sabab, maqsad kabi omillardan ajralgan holda aks etmaydi. Muayyan voqelikning obyektiv mavjud bo‘lish sharti sifatida yonma-yon yuruvchi bunday omillar inson ongida voqelik obrazining hamrohlari sifatida birga gavdalanib, u bilan assotsiativ bog‘langan “zanjir”ni hosil qiladi” [4.21].

Bizga ma’lumki, paradigmatik qatordagi so‘zlarni bir umumiy ma’no asosida birlashtirib turgan so‘z assotsiativ bog‘lanish hosil qiladi. Qolgan so‘zlar ana shu bir umumiy ma’no asosida birlashsa ham, har biri o‘ziga xos ma’no nozikligi bilan farqlanadi. Chunki birlashtiruvchi sema har bir a’zoni ma’lum mazmuniy uyaga birlashishini, farqlovchi sema esa uya tarkibidagi har bir a’zoning o‘ziga xosligini, alohidaligini ko‘rsatib turadi.

Haqiqatan ham, assotsiativ aloqalar ma’lum jihatlari bilan paradigmatik qatorlarga ham tutashadi. Masalan, bir-biriga yondosh bo‘lgan paradigmatik qatordagi ayrim leksemalar ikkinchisini xayolan gavdalantirishi mumkin: *chaqaloq* leksemasi kishi ongida birinchi bo‘lib *ona* siymosini ko‘z oldimizga keltiradi, ayni paytda, bu ikki leksemani “shaxs”, “oila” semalari asosida bitta mazmuniy uyaga birlashtirish ham mumkin.

Keyingi yillarda yaratilgan ayrim manbalarda sintagmatik va assotsiativ munosabatlarning o‘ziga xos jihatlariga alohida ahamiyat berilmoqda. So‘z sintagmatik munosabatga kirishishi bilan birga, nutq jarayonidan tashqarida boshqa

so‘zlar bilan umumiylik belgisiga ko‘ra so‘zlovchi til xotirasida assotsiatsiyalashadi va assotsiatsiyalashgan birliklar xotirada muayyan guruh hosil qiladi. Generonimlar ham boshqa leksik birliklar kabi umumiy mazmuniy belgi asosida assotsiatsiyalashadi va bunday assotsiativ bog‘lanish bir paradigmatik qatorni tashkil etadi. Masalan:

Xudo seni berganda quvonib, otamning ismini qo‘ymoqchi bo‘luvdim... Onang tug‘ruqxonadan chiqqanida qulog‘ingga azon ayttirmoqchi bo‘luvdim, dadang ayttirmadi (T.Malik, Shaytanat).

Ushbu matnda “yaralish” semasiga aloqador bo‘lgan *xudo bergan, ism qo‘yish, tug‘ruqxona, azon aytish* singari birliklar qatnashgan. Shu bilan birga, o‘zbek xalqi urf-odatlariga bog‘liq holda otasining ismini qo‘yishga ishora qiluvchi “naslni davom ettirish” semasi ham berilgan. Bu yerda ma’lum jamiyat a’zolari ongida shakllanadigan umumiy holatlar bilan, ijtimoiylik asosida farqlanuvchi individual jihatlarni farqlash muhim.

Assotsiatsiya tushunchasi zamirida til egasining xotirasidagi predmet tasavvuri tushuniladi [10].

U.Yigitaliyev ham “odam” va “jins” konseptining verballashuviga bag‘ishlangan izlanishida assotsiativ munosabat, assotsiativ maydon borasida alohida fikr yuritadi. U.Yigitaliyevning izlanishi bevosita o‘zbek tilida “odam” va “jins” konseptining namoyon bo‘lishi va unga assotsiativ bog‘langan lisoniy birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu tadqiqot nazariy-falsafiy tilshunoslikning qiziqarli va murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan assotsiativ talqinga qaratilgan [9].

Assotsiativ munosabatlar tizimida ularning leksik-semantik, grammatik, intonatsion-akustik, derivatsion, pragmatik xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiylik, milliy-madaniylik, gender belgilarini ham alohida hisobga olish zarur.

O‘zbek tilidagi generonimlar paradigmasiga mansub bo‘lgan “yaralish” semali harakat, shaxs, predmet, belgi ma’nosini anglatuvchi leksemalar asosida assotsiativ tajriba o‘tkazilganda, bu birliklar bilan “zanjirli” aloqaga kirgan turlicha leksemalar namoyon bo‘ldi.

Tajribalar asosan 20-25 yoshdagi ayol jinsiga mansub respondentlarda o‘tkazildi. Stimul so‘z sifatida “harakat” semali *yaralish, tug‘moq, tug‘ilmoq, ko‘paymoq,* “shaxs” semali *chaqaloq, go‘dak, ona, bola,* “predmet” semali *sut, yo‘rgak,* “jarayon” semali *hayot, o‘lim* leksemalari olindi.

Tajriba natijalaridan quyidagi holat kuzatildi:

Tug‘moq, tug‘ilmoq leksemalari bilan “zanjirli” aloqaga kirishgan *chaqaloq, ona, dard, to‘lg‘oq* leksemalari eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi. Shuningdek, *yangi hayot, ilk qadam, baxt, og‘riq* singari birliklar ham uchradi.

Chaqaloq so‘zi bilan assotsiativ aloqa sifatida *mo‘‘jiza, baxt, begunoh murg‘ak* tarzidagi so‘z va birikmalar ko‘p miqdorni ko‘rsatgan bo‘lsa, *kasha(bo‘tqa), alla, so‘rg‘ich, beshik, ona baxti, individ, farishta, beg‘uborlik, yig‘i* kabilar ham berildi.

Poetik matnda, ayniqsa, she’riy asarlarda ularning rang-barang qiyofasini kuzatish mumkin. Masalan:

Qadim Oltin beshik avlodi maskanisan,
Alisherlar,Ulug‘beklar vatanisan (M.Yusuf, Inshaalloh).

Keltirilgan parchada *beshik* leksemasi ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan, bu yerda leksema tarkibidagi “boshlanish”, “milliy”, “joy” semalari konnotativ ma’no uchun asos bo‘lgan.

Alla aytsang ayvoningda uxlar quyosh,
Senga mudom iymon yo‘ldosh, islom yo‘ldosh (M.Yusuf, Inshaalloh).

Bu o‘rinda qo‘llanilgan *alla* leksemasi ham shoirning subyektiv maqsadidan kelib chiqib, misralarga allaning ijobiy ta’siri xususidagi mazmun yuklatilgan.

Ona leksemasi bilan o‘tkazilgan tajribalarda *mehribon, mushtipar, buyuk zot* ifodalari yuqori darajani tashkil etgan bo‘lsa, *Vatan, uy, shirin so‘z, buyuk mehr egasi, yaratish, qahramon* singari birliklar kamroq uchradi.

Sut leksemasi bilan *ichimlik*, *sigir* leksemalarining aloqasi eng ko‘p miqdorni tashkil etgan bo‘lsa, *ozuqa, totli ne’mat, suyuqlik, oqlik, kofe (qahva), bola* tarzidagi vositalar kamroq miqdorda ko‘zga tashlandi .

Tajribalar davomida *ona suti* birikmasining tahliliga ham e’tibor qaratdik. Natijada *sut* va *ona suti* ifodalarining assotsiativligi o‘rtasida keskin farqlar kuzatildi.

Bizga ma’lumki, *ona suti* birikmasi orqali *sut* leksemasi “yaralish” semali paradigmaga mansub bo‘ladi. Masalan:

Ayiqchalar odamlardan hayiqishmadi, ular tamshanib, o‘lik onalarining sut to‘la ko‘kragini cho‘zib-cho‘zib emishar edi (Sh.Xolmirzayev, Jarga uchgan odam).

Berilgan gapda *sut* leksemasi ona suti, aynan ona ayiq bilan bog‘liq holda qo‘llanilgan bo‘lib, bu yerda *sut* leksemasi biz tahlil qilayotgan “yaralish” semali guruhga tegishli.

Umumiy tarzda *sut* leksemasi bilan “yaralish” semali birliklar bilan bir qatorda, *suyuqlik*, *qahva* singarilarning aloqasi kuzatilgan bo‘lsa, *ona suti* tarzidagi konkret ma’no aksariyat holda *chaqaloq, bola, go‘dak* singari “yaralish” semali birliklarga tutashishi kuzatildi. Shu bilan birga, poklik, halollik, mas’uliyat ma’nolari bilan bog‘lanuvchi *ona sutidek oq, oq qilmoq, rozilik, burch* tushunchalari ham namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Masalan:

Bolalik, men seni bir umr qalbda
Ona suti kabi saqlay muqaddas (E.Vohidov, Bolalik).

Bir Onaning ko‘kragidan oq sut emib,
Bir Otaning etagidan taralgansan (M.Yusuf, Turkiston madhiyasi).

Hayot leksemasi bilan aniqlangan holat quyidagicha kuzatildi: eng ko‘p aloqa *yashash, oila, imkoniyat, baxt, sinov* singarilar bilan, kam hollarda *tug‘ilmoq, tabiat, borliq, maydon, qaynash, savob va gunoh* tarzidagi so‘z va birikmalar bilan ko‘zga tashlandi.

Ayrim hollarda she’riy matnda shoir ifoda etilayotgan vaziyatni yorqinroq, ta’sirliroq ko‘rsatish maqsadida bir necha o‘zaro bog‘liq tushunchani bildiruvchi so‘zlarni birgalikda qo‘llaydi. Masalan:

Mana, qanday ekan otalik baxti,
Turibman gullarim bilan panada
Bir mahalla bo‘lg‘usi faylasuflar,
Olimlar chinqirar tug‘ruqxonada (M.Yusuf, Tug‘ruqxonada).

Bu o‘rinda qo‘llanilgan *otalik, baxt, chinqirmoq, tug‘ruqxona* so‘zlari ma’nolari tarkibidagi “yaralish”, “tug‘ilish”, “ko‘payish”, “farzand” semalari matndagi o‘zaro birikishni ta’minlovchi, ularning mantiqiy aloqasini ko‘rsatuvchi vositalar sanaladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, generonimlarning assotsiativ bog‘lanishi faqatgina bir umumiy ma’no asosidagina ro‘y bermay, o‘zaro zidlanish asosida ham yuzaga chiqadi. “Tug‘ilish” semali leksemalar o‘z o‘rnida o‘lim, ya’ni “yo‘q bo‘lish” semali leksemalar bilan ham assotsiativ bog‘lanish hosil qiladi. Shuningdek, har bir leksik birlik o‘zaro alohida assotsiativ bog‘lanish hosil qiladiki, ular boshqa juftlik bilan almashtirilganda, uslubiy yoki mantiqiy nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi: *tug‘ilmoq-o‘lmoq, dunyoga kelmoq-qazo qilmoq, ko‘karmoq-qurimoq*.

Demak, bunday assotsiativ bog‘lanishni e’tiborga olmay turib, generonimlar paradigmasidagi so‘zlarni semantik jihatdan atroflicha tadqiq etib bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 244 б.

2. Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанл. д-ри.... дисс. автореф. Тошкент, 2001. – 49 б.

3. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилида бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фанл. д-ри.... дисс. автореф. Тошкент, 2015. – 82 б.

4. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: MERIYUS, 2017. – 140 б.

5. Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фанл. бўй. фалс. доктори.... дисс. автореф. Фарғона, 2018. – 45 б.

6. Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. 3 жилдлик. Ш жилд. Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 96-107. – 376 б.

7. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – 206 б.

8. Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 50б.

9. Йигиталиев У.С. Ўзбек тилида “одам” ва “жинс” концептлари билан боғлиқ ассоциатив-вербал бирликлар: Филол. фанл. бўй. фалс. доктори.... дисс.автореф. Тошкент, 2020. – 52 б.

https://docplayer.ru/27467248-Russkiy-associativnyy-slovar.html

TIL VA ADABIYOT – MA’NAVIY KAMOLOT MEZONI

Maqsud ASADOV,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
direktor o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor
e-mail: alpbek2010@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada til va adabiyotning inson kamoloti, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni xususida bahs yuritilgan. So‘z va uning yorqin tabiati, obraz mohiyati, badiiy ifoda imkoniyatlarining o‘ziga xosligi, qolaversa, mumtoz adabiyotda komil inson nazariyasi borasida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, adabiyot, axloq, Navoiy, so‘z, til

Ma’naviyat – shaxs axloqi, dunyoqarashi va uning atrofdagilarga bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi ko‘zgu. Aytish mumkinki, agar jamiyat bir qush bo‘lsa, ma’naviyat uning qanoti, vujud bo‘lsa – ma’naviyat uning urib turgan yuragi – jonidir. “Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevor” sanaladi. “Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz

hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining ahamiyati katta” [3, 249]. Ana shu nuqtayi nazardan el-yurt manfaatlarini o‘z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yadigan, irodasi mustahkam, e’tiqodi butun – chinakam kamolot egalarini tarbiyalashda til va adabiyot fanlarining o‘rni takrorlanmas. Ma’nan barkamol, mulohazakor, kreativ fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas, uyg‘oq tabiatli yoshlar esa kelajak bunyodkorlari, ertangi kunimiz me’morlaridir.

I

Til – millatning borligi, borlig‘i, o‘zligini namoyon etuvchi bosh mezon. Til – milliy g‘urur, oriyat va hamiyat timsoli. Jadid adabiyotining etuk vakili, olim va pedagog Abdulla Avloniy til va adabiyotga “har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti” deb tavsif beradi. Til millatning nafaqat “dunyoda borligi”, balki uning yashovchanligi, davomiyligi asosi hamdir. Chunki “odam bolasi dunyoni o‘z tiliga uyg‘un tarzda ko‘radi, o‘z tilining qat’iy ohanglari o‘zanlaridan chiqib ketmagan holda eshitadi, o‘z tilining azaliy va muntazam intizomiga muvofiq idrok qiladi. Shuning uchun ham til bemisl tilsimdir” [4, 34]. To‘g‘ri, tafakkur xazinasini boyitib, tasavvur olamini yanada kengaytirishga xizmat qiladigan san’at turlari juda ko‘p. Deylik, rassomchilik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kino..... Ularning har biri o‘ziga xos, ammo so‘z san’atining sehru jozibasi, ta’sir quvvati, ifoda imkoniyatlari baribir cheksiz, chegarasiz. Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy ham so‘z qudratiga baho berib, bunday deydi:

So‘zdurki, nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki, berur jong‘a xabar jonondin,
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.

Sharq adabiyotida komil inson nazariyasining asoschisi Aziziddin Nasafiyning yozishicha, «Bilgilki, komil inson quyidagi to‘rt narsaga mukammal shaklda ega bo‘lgan insondir. Ularning birinchisi, yaxshi so‘z, ikkinchisi, ezgu faoliyat, uchinchisi, go‘zal axloq, to‘rtinchisi, ilm». Mumtoz adabiyotda so‘zning ulug‘lanishi, ta’rifu tavsif etilishiga bir sabab shunda. Ulug‘ insonlar hayoti, ibratli faoliyati ko‘pincha xalqning orzu-umidlari, o‘y-qarashlari bilan o‘zaro uyg‘unlashib, afsonayu rivoyatlarga qorishib ketgani bor gap. Jumladan, Alisher Navoiy haqidagi xalq rivoyatlari ham fikrimizning bir isbotidir. Aga shunday rivoyatlardan birida aytilishicha, shoh Husayn Boyqaro kunlarning birida mulozimlari bilan bog‘da sayr qilib yursa, bog‘ etagida gullarni parvarishlab, tabiat go‘zalliklaridan zavqlanib turgan shoir Navoiyga ko‘zi tushibdi. Hukmdor anchadan buyon o‘zini o‘ylantirib kelayotgan savolga javob topish maqsadida shoirga ishora qilib boshini ko‘rsatibdi. Navoiy ham uzoq mulohazaga bormasdan tiliga ishora qilibdi. Bu imo-ishoralar siriga tushunmagan mulozimlar birozdan

so‘ng Navoiydan izoh so‘rashibdi. Shoir: shoh boshga balo nimadan keladi deb so‘radi, men tildan deb javob berdim, degan ekan. Darhaqiqat, Sharq mutafakkirlari azaldan til odobi, axloq go‘zalligi, so‘z nafosatiga alohida e’tibor qaratishgan.

Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq” asarida tilni arslonga qiyoslaydi: agar ehtiyotkor bo‘lmasa, u so‘zlovchining boshini eydi: “Til arslon turur, ko‘r eshikda yotur Ayo evlug arsiq boshingni eyur”. Shubhasiz, so‘z mas’uliyati, unga nisbatan talabchanlik, har bir so‘zni o‘rinli, maromi va me’yorida ifoda etishga undash adabiyotning muhim jihatlaridan biridir. Shu ma’noda, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy so‘zchi, ya’ni so‘zlovchiga emas, u aytayotgan so‘zning ma’nosi, mohiyatiga diqqat qilishga rag‘batlantiradi: “So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini, Ko‘rma kim der oni, ko‘rg‘ilkim, ne der”. So‘z – o‘zlik tarjimoni, ya’ni kishining bilimi, saviyai, ma’naviy-axloqiy qarashlari u orqali yuzaga chiqadi. Ochig‘i, ko‘pincha til kishilar o‘rtasidagi o‘zaro fikr almashish vositasi o‘laroq talqin qilinadi. Biroq til ruhiyat ifodasi, idrok tamali, asl “men”lik chirog‘idir. Shaxs ma’naviyatining muhim belgisi bu – muomala. Ulug‘ shoir Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da hilm, ya’ni xushmuomalalik xususida alohida to‘xtalgani bejiz emas: “hilm inson vujudining favoqihlig‘ (mevali. – M.A.) bog‘idur, odamiylig‘ olamining javohirlig‘ tog‘i”. Ko‘rinadiki, barcha go‘zal insoniy fazilatlarning dilbar ifodasi tilda, so‘zda, uning nafosatida va, albatta, so‘z sohibining odobu axloqida namoyon bo‘ladi. Xo‘sh, unda so‘zga joziba ulushuvchi asl tamoyillarning negizi qaerda?

Jo‘mardlik, olijanoblik, saxiylik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar inson ongu shuuriga, eng avvalo, ona allasi, ota-bobolar o‘giti bilan singadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining mohiyati, sir-sinoatini to‘la anglamasdan so‘zning qudratiga baho berish mushkul. Alla... murg‘ak yurakka marg‘ub so‘zning totli ohangi. Alla ona – Hayot va bola – Tiriklik davomchisi o‘rtasidagi ruhiy ko‘prikdir. So‘zga oshuftalik ham, so‘z mas’uliyati ham, millatga muhabbatu vatanga sadoqat hissi ham insoniyatning ibtido qo‘shig‘i – alla bilan ko‘ngillarga singadi. Maqolu topishmoqlar, ertagu rivoyatlar, xalq qo‘shiqlari va dostonlari shaxs tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy boyliklarimizdir. Ularda aks etgan matonatu g‘ayrat, o‘z-o‘ziga ishonch va hayotsevarlik kechinmalari yosh avlodga fikrni to‘g‘ri va teran etkazishda ham yordam berishi shubhasiz. Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Kuntug‘mish, Ravshan kabi yovuzlikka qarshi, ezgulikka oshno xalq qahramonlarining sarguzashtlarini tinglab ulg‘aygan avlodga vatanning ertangi taqdirni yuksak ishonch bilan topshirish mumkin bo‘ladi. Chunki dostonlardagi sarguzashtlar shunchaki sayohat emas, qahramonlarning ma’naviy manzillarga, ma’rifat bo‘stonlariga, chin insoniylik olamiga yuzlanishi, o‘zlikka

evrilishdir. Shu sababli bugun oshiqlaru jirovlar san’ati qadrlanib, yil osha yurtimizda baxshichilik festivallari o‘tkazib kelinmoqda.

Darhaqiqat, til – chinakam ma’naviy qudrat, ruhiy matonat ramzi. Unda millatning nekbin kayfiyati, o‘lmas tarixi, ertangi yorug‘ kunlarga bo‘lgan cheksiz ishonchi mujassam. Alisher Navoiy ham o‘z hikmatlaridan birida tilga e’tiborni elga, yurtga e’tibor bilan tenglashtiradi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida esa “so‘z durrining tafovuti mundin dog‘i beg‘oyatdur va martabasi mundin ham benihoyatroqdurur, andoqki, sharifidin o‘lgan badang‘a ruhi pok etar” deb yozadi. Ulkan shoir Rauf Parfining quyidagi misralari ham ulug‘ salafining fikrlariga uyg‘un:

Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abutturk nafasi, Oltoy chechagi.
Xun davridan omon keldi G‘iroting,
Qutlug‘ Enasoyning ezgu ertagi...

Til taqdiriga daxldorlik va ona tilimizga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi yoshlarimizda asarlar davomida yashab kelayotgan ma’naviy qadriyatlarimizga hurmat va iftixor bilan birga, vatanga fidoyilik kayfiyatini uyg‘otib, ma’nan etuklik cho‘qqilarini egallashlarida mislsiz ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasizdir.

II

Adabiyot – ko‘ngil mehvariga sidqu e’tiqod bilan yuzlanish demak. Adabiyot qalb oynasini o‘tkinchi g‘uboru xiraliklardan poklab, olamga soflik, to‘g‘rilik, adolat nazari ila boqish qanoatidir. Adabiyot – Haqdan botilni, yaxshidan yomonni, sadoqatdan xiyonatni, adolatdan razolatni ajratishni o‘rgatuvchi, chin odamlik maqomida sobitlik maslagini anglatuvchi, hayot mohiyati, tiriklik mazmunini teran tushuntiruvchi buyuk ustoz. Unda millat kayfiyati, xalq ruhiyati ifoda topadi. Muayyan xalqning o‘tmishi, buguni, o‘ziga xos qadriyatlari, orzu-armonlari, dunyo tarixida tutgan o‘rnini bilish uchun uning adabiyotini o‘rganmoq kerak. Ulkan jadid ijodkori Abdulhamid Cho‘lpon «Adabiyot yashasa, millat yashaydi» deganida nechog‘li haq edi. O‘zbek adabiyoti buyuk bir tarix va beqiyos merosga ega. Xalq donishmandligi namunalari, «Avesto», O‘rxun-Enasoy bitiklaridan oziqlangan so‘z sa’nati durdonalari Alisher Navoiy ijodiyoti bilan o‘z taraqqiyotining bemisl bosqichiga qadar yuksaldi, ham shakl, ham ma’no jihatidan boyib, jahon adabiyotining eng so‘nggi yutuqlari ta’sirida bugungacha qimmatu e’tiborini zarracha susaytirmadi. Fikrlar xilma-xilligi, obrazlar dunyosining kengligi, badiiy mahorat mezonlariga turlicha yondashuvlar ijodkorlar va asarlardagi o‘ziga xoslikni yuzaga chiqaruvchi omil deb qaralishi mumkin, ammo adabiyotning bosh maslagi hamisha bitta: Komil shaxs tarbiyasi.

Shubhasiz, adabiyot obrazlar tilida so‘zlaydi. O‘z istak-xohishlari, maqsad-muddaolarini timsollar orqali bayon etadi, tasvirlaydi. Obraz esa adabiyotning jonli nafasidir. Masalan, Er obrazini olaylik. Tiynati toza, fikrati teran, adolat yo‘lida mardona turgan, xalqni ezgulikka boshlagan benuqson siymolar qadimda Er deb ulug‘langan. Bu kalima bugungi kunda ma’nosi anchayin toraytirilgan jins tushunchasini bildiruvchi so‘zdan anchayin farqlanib, chinakam nekbin, saxovatu himmatda, oriyatu hamiyatda, mehnatsevarlik va qat’iyatda boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan kamolot egalariga nisbatan ishlatilgan. Shunga ko‘ra, «Har kishi ermen debon ermu bo‘lur, Kelmas ishni ilkidin dermu bo‘lur» deb yozadi Alisher Navoiy. Ulug‘ shoirning nazdida hamma ham er nomiga loyiq bo‘lavermaydi. Va’dasiga vafoli, ahdida sobit, dunyoqarashi keng, xalq manfaatlari yo‘lida borini ayamaydigan asl zotlar chin erlardir. Turkiy xalqlar orasida Erali, Erpo‘lat, Ertug‘rul kabi ismlarning uchrashi shundan. Azaldan el-yurt yuki, zahmatu mashaqqati chin erlarning zimmasida bo‘lgan, ko‘ksida yolqini, nigohida chaqini porlagan alp yigitlar, yoriga sadoqatli, ezgu maqsadlar yo‘lida unga kamarbastalik qilgan dilbar qizlar adabiyotda e’tirofu tavsif etilgan. Shoir Shavkat Rahmonning

Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,
bormi gul bag‘ringda jo‘mard nolalar,
bormi bul tufroqda o‘zligin izlab,
osmonu falakka etgan bolalar…

misralari ana shunday: oila mustahkamligi, yurt farovonligi, ko‘ngil xotirjamligi, vatan taraqqiyoti uchun sidqidildan xizmat qilishga shay «jo‘mard»lar haqida iztirob bilan bitilgan. «Farhod va Shirin» dostonidagi Shirin tilidan aytilgan quyidagi misralar ham shu jihatdan ahamiyatli:

Menga ne yoru ne oshiq havasdur,
Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur…

Odamlik, odamiylik – ulug‘ maqom. Insonni ma’naviy tanazzulga etaklovchi riyokorlik, munofiqlik, mahdudlik, yolg‘onchilik, tanballik, dag‘allik, kibru manmanlik kabi nojoiz sifatlar «odam»lik mohiyatiga ham begonadir. Aslida insoniyat otasi, chin odamlik sarvari, tavbat ul-anbiyo – Odam alayhissalom mumtoz adabiyotda ma’naviy kamolot yo‘lboshchisi, yuksak axloq sohibi sifatida ham talqin qilinadi. Qolaversa, Odam nomi dastlab u zotga nisbat berilgan. Mumtoz adabiyotda ko‘ksida iymon nuri porlagan, nafs iskanjasidan ruhini xalos aylab, fano holiga yuzlangan beg‘ubor ko‘ngillar odamiylik timsollaridir. «Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur…» misrasida ham «odam» ikki ma’noga ishora qiladi: 1. Odam alayhissalom 2. Odamlik sharafi. «Yoru» «oshiq»larning o‘tkinchi «havas»lari, nafsoniy istaklaridan havolanmagan, foniy dunyoning maqtovlariyu soxtaliklariga sira aldanmagan, ma’rifati yuksak, idroki baland «er»sifatli «Odam»

- Shirinning iqrori bu! Ulug‘ shoir Shirin timsolida o‘z davrining jamiyat taqdiriga befarq bo‘lmagan, qolaversa, ko‘ngil haqiqatlarini insoniylik matlabi bilan uyg‘unlashtirgan ulug‘vor ayollar qiyofasini umumlashtiradi. Yoshlarga, jumladan, xotin-qizlarga ham, umid nazari bilan boqadi, ularning millat ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rniga yuksak baho beradi.

O‘zbek adabiyoti o‘z tarixi mobaynida bir necha taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Turli davrlarda zamon va makon qarashlaridan, mafkura talablaridan kelib chiqib, shakliy va mazmuniy evrilishlarni ham bir qadar boshdan kechirdi. Biroq o‘z e’tiqodi, nekbin g‘oyalaridan hech qachon voz kechgan emas. Ana shunisi bilan ham o‘zbek adabiyoti umrboqiylikka, mangulikka daxldor. Jumladan, qo‘lida adolat mayog‘ini tutgan, millat muhabbati, xalq irodasi uchun zabardast kuch bo‘lib tarix sahnasiga chiqqan jadid ijodkorlari ham alohida e’tirofga sazovor. Qodiriy, Fitrat, Avloniy, Cho‘lpon singari so‘z san’atkorlari qoldirgan ulug‘ meros bugun xalqimiz o‘z oldiga qo‘ygan ulug‘ maqsadlar bilan hamohang. Ayniqsa, Otabek, Anvar, Kumush, Ra’no kabi o‘lmas obrazlar yoshlarimiz ma’naviyatini boyitishga, ular uchun yo‘lchi yulduz bo‘lishga, tom ma’noda, xizmat qilishi muqarrar.

Umuman olganda, til va adabiyot yuksak kamolot egalarini tarbiyalashda, ularni chin insoniylik fazilatlariga oshno etishda, dunyoga millatni milat, xalqni xalq o‘laroq tanitishda muhim ahamiyatga ega. Til va adabiyot zo‘z o‘quvchilarini olam, borliq, tiriklik mohiyati haqida atroflicha fikr yuritish, jamiyat munosabatlarining tartib-qoidalari xususida mulohaza qilishga undaydi. Yangicha g‘oyalar bilan yangi marralar sari dadil intilayotgan ona Vatanimizda ma’nan yuksak, jismonan baquvvat, ruhan uyg‘oq yoshlarning kamol topishida betakror mavqe egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom NMIU, 2011. – 782 b.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom NMIU, 2011. – 786 b.
3. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 454 b.
4. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 152 b.
5. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 488 b.

MATN VA NASHR MUAMMOLARI
(NODIRA “DEVON”I MISOLIDA

Rajabova Ma’rifat Baqoyevna
Buxoro davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori.
marifar.bakaeva@mail.ru
mailto:jamilova68@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada Mohlaroyim – Nodiraning A. Qayumov tomonidan 1958-yilda amalga oshirilgan “Nodira. She’rlar”, Mahbuba Qodirova tomonidan 1963-yilda nashrga tayyorlangan “Devon”i, 1979-yilda “Sharq klassik merosidan” rukni ostida “Nodira she’riyatidan” hamda 2001-yilda Nodira-Komila “Devon” nomi ostida nashr qilingan devonidagi lirik she’rlari matni qiyosiy o‘rganilgan. Ushbu nashrlardagi matniy tafovutlarning badiiy matnga ta’siri tahlilar orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Nodira, devon, an’ana, g‘azal, nashr, matn, matnshunoslik, so‘z, harf, ma’no.

Annotation

This article compares the texts of Mohlaroyim – Nodira's *Devon*, which was published in 1958 by A. Qayumov under the title "Nodira. Poems," Mahbuba Qodirova's version of the *Devon* prepared for publication in 1963, the 1979 edition titled *From the Eastern Classical Heritage* under the section "Nodira's Poetry," and the 2001 edition of the *Devon* published under the name "Nodira-Komila." The article examines how the textual variations in these publications affect the artistic text through analysis.

Keywords: Nodira, devon, tradition, ghazal, publication, text, textual studies, word, letter, meaning.

Аннотатсия: В Статье Мохлароим – Надира А. Каюмовым в 1958 году была выполнена книга “Нодира. Стихи“, подготовленный Махбубой Кадыровой к изданию в 1963 году,”Девон“, в 1979 году под рубрикой” из классического наследия Востока“, а также текст лирических стихотворений на девонском языке, изданных в 2001 году под названием” Девон “Нодира-Комила. Влияние текстовых различий в этих публикatsiях на художественный текст было продемонстрировано с помощью анализа.

Ключевые слова: Надира, Девон, традиция, Газель, публикatsiя, текст, текстология, слово, буква, значение.

Nodira – Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishida muhim rol o‘ynagan shaxslardan biri. Shoiradan bizga boy ma’naviy meros qoldi. Mutaxassislarning etiroficha, bugungi kunda biz Nodiraning o‘zbek va fors-tojik tillarida yaratgan 10 ming misraga yaqin lirik merosiga egamiz.

Shoira lirik merosiga oid turli yo‘nalishda tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Nodira devonlarining nashrlari Istiqlolga qadar va undan keyin oid amalga oshirildi. 1958-yilda A. Qayumov tomonidan “Nodira. She’rlar”, Mahbuba Qodirova tomonidan 1963-yilda “Nodira. Asarlar” devonining I va II jildlari, 1979-yilda “Nodira-Komila” devoni, 1979-yilda “Sharq klassik merosidan” rukni ostida “Nodira she’riyatidan”, 2001-yilda “Nodira-Komila” kabi o‘nlab nashrlari amalga oshirildi. Albatta, bu nashrlarning dunyo yuzini ko‘rishi katta mehnatning natijasi bo‘lib, matnshunos olimlarlardan fidoyilikni talab qiladi.

Ta’kidlash kerakki, mumtoz adabiyotmiz namoyandalarining asarlari qayta-qayta nashr qilinishi quvonarli hol. Biroq, bu nashrlarning barchasidan ko‘nglimiz to‘lishi qiyin. Bizning Nodira devonlari ustidagi kuzatuvlarimiz shunday xulosaga kelishimizga asos bo‘ldi. Albatta, biz matnshunoslarning bu boradagi mehnatlarini e’tirof etgan holda, nashrlardagi ba’zi tafovutli o‘rinlarni tahlilga tortmoqchimiz. Bu tafovutli o‘zgarishlar harf va so‘z almashini kabi ko‘rinishlarda ko‘zga tashlandiki, ular matn mazmuniga ma’lum ma’noda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. “Matn haqiqatini tiklashda, mumtoz adabiyotimiz namunalarini nashr etishda har bir belgi, harf, so‘z mutaxassisning ziyrak nazaridan o‘tsagina ”ulkan ish”ning muvaffaqiyatini ta’minlash imkoni tug‘iladi.”[5]

Nodira devonining 1958, 1963 va 1979, 2001 – yillardagi nashrlaridagi matniy tafovvutlarni ba’zilarini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz:

1963-yildagi nashrda 21 – raqam ostida berilgan “**Gulg‘a desam yo‘q kafi poyingga tob**” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azal shoira devonining 1979- yildagi nashri bilan qiyoslaganda ular o‘rtasidagi matniy tafovut so‘z alashini tarzda sodir bo‘lgani ko‘rinadi.

1963-yildagi nashrda g‘azalning to‘rtinchi bayti:

Turfa savole labidin so‘rdi **yor,**
Jon berayin bo‘lmasa shirin javob.

1979- yildagi nashrda:

Turfa savole labidin so‘rdi **yod,**
Jon berayin bo‘lmasa shirin javob – tarzida berilgan.

Baytda lirik qahramon (oshiq) turfa savollariga javob bermagan yorning shirin labiga “jon berishi” badiiy talqin qilingan. Ko‘rinib turibdiki, bayt mazmuni “**yod”** so‘zini qabul qila olmaydi.

Mazkur g‘azalning ettinchi bayti shoira devoning 1958- yilda nashr qilingan “Nodira. She’rlar” to‘plamida:

Moyili zulm etma ko‘zing **tarkini,**
Yo‘qsa qilur mardum uyini xarob.

Mazkur bayt 1979-yildagi nashrda “turkini” tarzida berilgan.

Moyili zulm etma ko‘zing **turkini,**
Yo‘qsa qilur mardum uyini xarob.

“Tark” so‘zi Navoyi asarlari lug‘atida “tashlash, voz kechish, bahridan o‘tish” [3.624] ma’nolarida qo‘llanilgan. **“Turk“** so‘zi esa “sho‘x, go‘zal” [10.784] ma’nolaridagi so‘z.

Baytning nasriy bayoni: “Go‘zal va sho‘x ko‘zingni zulmga moyil qilma, yo‘qsa mardum uyini xarob etadi” .

Mumtoz g‘azaliyotda ma’shuqa ko‘zi turli tashbehlar bilan tasvirlanadi. Oshiq ma’shuqa ko‘zlarining zulmkorligidan zorlanadi, undan muruvvat kutadi. Bu a’anaviy tasvirdan foydalanmagan ijodkorlar bo‘lmasa kerak. Demak, yuqoridagi baytda ma’shuqa ko‘zini “sho‘x va go‘zal” sifati bilan vasf qilgan Nodira uning zulmdan yiroq bo‘lishini so‘raydi. Baytda “mardum” so‘zi “odamlar, kishilar” hamda “ko‘z qorachig‘i” ma’nosidagi so‘z. Baytning mazmuni har ikkala ma’noni ham qabul qiladi. Bu esa iyhom san’atini hosil qiladi.

“Sayd etti meni ul ikki qullob” deya boshlanuvchi g‘azalining to‘rtinchi bayti 1958- yilgi nashrida:

Tirdoba erur ko‘zimning yoshi,
Oshiqni halok etar bu girdob.

Birinchi misradagi **“tirdoba”** so‘zi 1979-yilgi nashrida:

Girdob erur ko‘zimning yoshi,

Oshiqni halok etar bu girdob - **“girdob”** shaklida uchraydi. **“Girdob”** so‘zi “suvdagi chuqurlik, quyun” [4.135] degan ma’noni anglatadi. “Tirdoba” so‘zining izohi esa lug‘atlarda kuzatilmaydi. “Girdob” so‘zi baytda ikki o‘rinda qo‘llangan bo‘lib, takrorga asoslangan radd- ul-sadr ilal –ajuz (sadrning ajuzda takrorlanishi) hosil qilgan.

Baytning nasriy bayoni: “Ko‘zimning yoshi girdobdir, bu girdob oshiqni halok etadi”. So‘z tarkibidagi bir harfning almashishi so‘zni “ma’nosiz” shaklga solib qo‘ygan.

Nodira she’rlari matni o‘rtasidagi bunday tafovutni **“Ey, xusho, shisha aro”** mirasi bilan boshlanuvchi g‘azalda ham kuzatishimiz mumkin.

G‘azalning birinchi bayti 1958-yilgi nashrda shunday berilgan:

Ey, xusho shisha aro obi hayoti hukamo,
Kim aning har kishi **aytsa bo‘lur** Xizrnamo.

Mazkur bayt 1979-yilgi nashrda **“aytsa bo‘lur”** jumlasi o‘rnida **“no‘sh etmoq”** tarzida berilgan**.**

Ey, xusho shisha aro obi hayoti hukamo,
Kim aning har kishi **no‘sh etsa** bo‘lur Xizrnamo.

“No‘sh etmoq” so‘zining ma’nosi “ichmoq” dir [2. 644]. Baytning nasriy bayoni: “Ey xush (yaxshi) insonlar, shisha qadahda hakimlarning obi hayoti (hikmat) bor, kim uni ichsa (no‘sh etsa) Xizr kabi bo‘ladi”.

Baytda Xizr (a.s) hamda “obi hayot” bilan bog‘liq voqealarga ishora qilingan. Xizr rivoyatlarga ko‘ra, “obi hayvon”- tiriklik suvini izlab topgan va undan ichib doimiy tirik yuradigan payg‘ambarning ismi. Demak, mazmunidan anglashiladiki, bayt “aytmoq” jumlasini emas balki, “no‘sh etmoq” birikmasining ma’nosini “hazm qiladi”. Shunday qilinganda g‘azal vaznida ham saktalik bo‘lmaydi.

Nodiraning **“Yor la’lin yod etarmen”** deya boshlanuvchi g‘azali nashrida ham tavvofutli o‘rinlar kuzatiladi. G‘azalning to‘rtinchi bayti 1958- yilgi nashrda:

Sovrulurman hajr vodiysi aro, Majnun **kibi,**
Xizr qilg‘ondek vatan sarchashmai hayvon ko‘rub.

Mazkur bayt 1963-yilgi nashrda:

Sovrulurman hajr vodiysi aro, Majnun **meni,**
Xizr qilg‘ondek vatan sarchashmai hayvon ko‘rub, - tarzida berilgan. Ushbu baytning nasriy bayoniga e’tibor qaratsak: “Xizr o‘ziga tiriklikni abadiy vatan qilgani kabi men ham ayriliq vodiysida Majnundek sovrulaman”. Nashrda “kabi” o‘xshatish vositasi “meni” so‘zi bilan almashgan, bu esa bayt ma’nosiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Mumtoz matnlardagi nafaqat so‘z, hatto bir harfning alashinishi ham uni ma’nodan uzoqlashtiradi, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrdan kitobxonni chalg‘itadi. Bunday “juz’iy” nuqsonlar Nodira devonlari nashrida anchagina. Jumladan, shoiraning **“Bahor keldi”** deya boshlanuvchi g‘azalning ettinchi bayti 1958- yilgi nashrda:

Yuzing nazzorasi **o‘shshoq**larni firdavsi,
Harimi dargahing ahboba jannat-ul-ma’vo,-tarzida berilgan. Mazkur bayt 1963- yilgi nashrda quyidagicha berilgan:

Yuzing nazzorasi **ushshoq**larni firdavsi,
Harimi dargahing ahboba jannat-ul-ma’vo.

“Ushshoq” - oshiqlar, “o‘shshoq”ning esa lug‘atlardagi izohi mavjud emas.

Shoiraning **“Beray jon visol ichra”** degan misralar bilan boshlanuvchi g‘azalida ham so‘z tarkibidagi harfning **(x-j)** almashinini sodir bo‘lgan.

Mazkur g‘azal 1958 - yildagi nashrda:

Qading misrai sho‘xu **barxastadur,**

Bo‘lib xusi devonidin muntaxab,- tarzda berilgan bo‘lsa, 1963 yilgi nashrda 24-tartib raqamida berilgan bo‘lib, g‘azalning to‘rtinchi bayti quyidagi shaklda berilgan:

Qading misrai sho‘xu **barjastadur,**

Bo‘lib xusn devonidin muntaxab.

Baytdagi **“barjasta”** so‘ziga Porso Shamsiev tomonidan tuzilgan lug‘atda “bo‘rtib turgan , ko‘zga ko‘rinarli” deb izoh berilgan. Baytda mashuqa qaddi shoir devonida “ko‘zga ko‘ringan va ajratib olingan” misraga o‘xshatilyapti. Bu o‘rinda “barjasta” ma’nosini ifodalovchi so‘zni bergan ma’qul.

“May ichsang, ey ko‘ngul, eldin nihon ich” misrasi bilan boshlanuvchi g‘zalda ham shunday nuqson ko‘zga tashlanadi.

1963-yilgi nashrda:

Budur mazmuni mavji bodai nob

Ki sahbo piyrni aylar **juvon**, ich

1979 -yilgi nashrda:

Budur mazmuni mavji bodai nob

Ki sahbo piyrni aylar **javon**, ich.

Ushbu baytlarni matniy tadqiq etadigan bo‘lsak, ikkala nashrdagi “**juvon” va “javon”** so‘zlarini ma’nosiga e’tibor qaratamiz. “Javon” so‘zi” “yosh, yangi, zo‘r” ma’nolarini anglatadi. ”**Juvon**”- “yosh yigit” ma’nosini anglatadi [1.552]. Bir qaraganda har ikkala so‘zning lug‘aviy ma’nosi bayt ma’nosiga uyg‘unday tuyuladi. Biroq ular o‘rtasida farq borligi izohdan ham ayonlashyapti.

Nasriy bayon: “Toza tiniq mayni ichishning zavqi shundaki, u qari kishini **yosh yigitga** aylantiradi”. Ko‘rinib turibdiki, nashrda ”juvon”- “yosh yigit” ma’nosini ifodalovchi so‘zni bergan ma’qul.

Nodiraning mashhur “**Nigori gulbadanimni tushumda ko‘rsam edim”** misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining oltinchi bayti 1963- yilgi nashrda:

Jafoi hajr bila ko‘ksumi **nigor** qilay,

Nigohi sehr fanima tushumda ko‘rsam edim.

1979- yilgi nashrda:

Jafoi hajr bila ko‘ksumi **figor** qilay,

Nigohi sehr fanima tushumda ko‘rsam edim.

“Figor”- “jarohatli, yarali”, “nigor” so‘zi esa “ ma’shuqa” ma’nosini ifodalaydi [10.638]. Birinchi misrada lirik qahramon – oshiqning ko‘ksi jafoiy hajr bilan jarohatli ekanligi tasvirlangan. Ko‘rinadiki, “nigor” so‘zi shoir muddaosi uchun bo‘ysunmaydi.

Nodirabegimning **“Gar ahli vafo istasa koshona salomat”** deb boshlanuvchi g‘azalining ikkinchi bayti 1958- yilgi nashrda:

Ul husn **shifoiyda** ko‘ngul kuysa ajabmas,
Qolg‘aymu charog‘ o‘tida parvona salomat.

1963 - yilgi nashrda:

Ul husn **shuoiyda** ko‘ngul kuysa ajabmas,
Qolg‘aymu charog‘ o‘tida parvona salomat.

Mazkur baytlardagi **“shuoiy va shifoiy”** so‘zlarining o‘zaro nashrlarda farqlanganligini ko‘rishimiz mumkin. “Shifoiy” so‘zi “shifo topmoq, tuzalmoq” ma’nosini bildirsa, “shuoiy” [3.528] so‘zi esa “shu’la, nurlar” ma’nosini ifoda etadi.

Baytning nasriy bayoni: “Ul husn shu’lasida ko‘ngul kuysa ajabmas, axir parvona chirog‘ o‘tidan sog‘ qoladimi? Ko‘rinib turibdiki, “**shifoiy**” so‘zida hayot mantig‘i buzilgan.

Mohlaroyimning **“Hajrdan mahmurmen”** deb boshlanuvchi g‘azalining matlasi 1958-yilgi nashrda:

Hajrdin mahmurmen soqiy labo-lab jom tut,
Men kabi har kimki bo‘lsa rindi **durd** oshom tut

1963-yilgi nashrda:

Hajrdin mahmurmen soqiy labo-lab jom tut,
Men kabi har kimki bo‘lsa rindi **dard** oshom tut.

Mazkur baytlardagi **“dard va durd”** so‘zlari o‘zaro farqlangan. “Dard” so‘zi “kasallik, xastalik, og‘riq”ni bildirsa “durd” so‘zi esa “suyuq narsa, biror narsaning quyqasi, mayning qoldig‘i” degan ma’noni bildiradi.

Baytning nasriy bayoni: “Soqiy, hajridan mast bo‘lganman, menga qadah tut, men kabi mayparastlarga maydan ichirgin”. Bu erda “dard” so‘zini qo‘llash bayt mazmuniga putur etkazishi tabiiy hol.

“Ey jamoling” deya boshlanuvchi g‘azalida ham tahlilga tortiluvchi o‘rinlar mavjud. 1958-yilgi nashrning ikkinchi bayti:

Bo‘lma mag‘rur muddai so‘zina,
Ani qavli **saximdu**r, na sahih.

1963-yilgi nashrda esa:

Bo‘lma mag‘rur muddai so‘zina,
Ani qavli **saqimdur**, na sahih

Lug‘atlarda **“saqim”** so‘zi “xasta, bemor” ma’nosini anglatsa, **“saxim”** so‘zi “saxm” tarzida berilgan bo‘lib, “kamon o‘qi yoki vahimali” degan ma’nolarni ifoda etadi.

Baytning nasriy bayoni: “Raqibingni so‘ziga ishonma, uning so‘zi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, xasta yoki sog‘ ekanligini bilmaysanku”. Ko‘rinib turibdiki, bayt mazmuni “saqim” so‘zini qabul qilolmaydi.

Nodira devoni 2001- yilda ham nashr qilindi. Mazkur nashr ham Mahbuba Qodirova tomonidan tayyorlagan matn asosida amalga oshirildi. Mazkur nashrda Nodiraning o‘zbekcha va tojikcha she’rlar kiritilgan. Bu nashrda ham ma’lum matniy tafovvutlarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, shoiraning “**Chaman riyozida gulgashti margzor qilib”** misrali g‘azalining to‘rtinchi bayti 2001-yilgi nashrda:

Qilurman ishqu junun karvonig‘a imdod,
Sirishk **nofalarin** ashki shashqator qilib, - tarzida berilgan.

Baytdagi, **“nofa”** so‘zi “mushk, mushkdon” ma’nosini ifoda etadi. Mazkur bayt 1968- yildagi nashrda esa quyidagicha berilgan:

Qilurman ishqu junun karvonig‘a imdod,
Sirishk **noqalarin** ashki shashqator qilib.

Noqa – tuya. Ramziy ma’noda ishq karvonidagi tuyalar. Shoir ishq va telbalik karvoniga ko‘maklashgan oshiq ko‘z yoshlarini noqaga qiyos qilgan. Noqalarni (ishq karvonidagi tuyalarni) bir-biriga bog‘laydi. Bu ramziy ma’noda shunday anglanadi: oshiqning ko‘z yoshlari ishq karvonini birlashtiradi, ruhiy safardagi barcha oshiqlar ko‘z yosh bilan bir-biriga bog‘lanishadi. Bundan tashqari baytdagi **“karvon”** so‘zi matnda **“noqa”** so‘zining qo‘llanishini talab qiladi. Shunday qilinsa, shoir qo‘llagan badiiy tasviriy vosita “ozor” topmaydi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, mumtoz ijodkorlarning asarlari nashridagi birgina so‘zning tushib qolishi yoki almashishi ma’noga salbiy ta’sir qilishi bilan birga, muallifning asl maqsadidan o‘quvchini yiroqlashishiga sabab bo‘ladi. Albatta, Nodira devonlarining keyingi nashrlarida bunday nuqsonlarning oldini olish matnshunosligimiz oldidagi muhim muammolardan biridir. Mohlaroyimning ijodini keng miqyosda o‘rganish, undan bizga meros bo‘lib qolgan devonlarini tadqiq qilish adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi.

ADABIYATLAR

1. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, I tom. – T.: Fan, 1983.
2. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, II tom. – T.: Fan, 1983.
3. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, III tom. – T.: Fan, 1983.
4. Botirbek Hasanov. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. – T.: Fan, 1993.
5. Rahmonov V. Matn haqiqati. https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2010-sp-1384366982/
6. Nodira. She’rlar. – T.: O‘z.SSR davlat badiiy nashriyoti, 1958.
7. Nodira. Devon. (O‘zbek va fors-tojik tillaridagi she’rlar). – T.: O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti.1963.

8. Nodira she’riyatidan. – T.: O‘zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti. 1979.
9. Nodira- Komila. Devon.Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – T.: 2001.
10. Shamsiev Porso. Navoiy asarlar lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti

LUQMON BO‘RIXON IJODIDA UMRBOQIY AN’ANALAR VA ISTE’DOD JILOSI

Mirzayeva Salimaxon Rayimjanovna,
Filologiya fanlari doktori, professsor
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi.
Ne’matullayeva Soxibaxon Sultonbek qizi,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti.
Mail: sohibaorinova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanida ifodalangan ma’naviy qadriyatlar, ularning badiiy talqini va tarixiy kontekstdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda IX–X asr islom olamining etuk mutakallimi Abu Mansur Moturidiy siymosi orqali din, ilm, e’tiqod va insoniylik masalalariga chuqur yondashuv aks ettirilgan. Muallif tarixiy voqealarni zamonaviy estetik tafakkur bilan uyg‘unlashtirgan holda, o‘quvchini o‘tmish saboqlari orqali bugungi qadriyatlarga yo‘naltiradi. Ayniqsa, ilmga bo‘lgan hurmat, diniy bag‘rikenglik, sabr, ayollarning jamiyatdagi roli kabi qadriyatlar badiiy obrazlar orqali yorqin tasvirlangan. Roman Moturidiyning diniy-falsafiy merosini yosh avlodga etkazishda badiiy-adabiy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqola asarda aks etgan qadriyatlarni tahlil qilish bilan birga, o‘zbek adabiyotida tarixiy obrazlar orqali ma’naviyatni yoritishning dolzarbligini ham ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Imomi Moturidiy, ma’naviy qadriyatlar, e’tiqod, sabr, adolat, ilm, tarixiy roman, diniy tafakkur

Аннотация

В данной статье рассматриваются духовные ценности, отражённые в романе Лукмона Бурхана «Имам Мотуриди», их художественная интерпретация и значение в историческом контексте. Через образ великого исламского теолога IX–X веков Абу Мансура Матуриди автор глубоко анализирует вопросы религии, науки, веры и человечности. Исторические события органично переплетаются с современным эстетическим восприятием, создавая прочный мост между прошлым и настоящим. Особое

внимание уделяется таким ценностям, как уважение к знаниям, религиозная терпимость, роль женщин в обществе. Роман представляет собой литературно-художественный инструмент передачи философского наследия Матуриди молодому поколению.

Ключевые слова: Имоми Мотуридий, духовные ценности, вера, терпение, справедливость, знание, исторический роман, религиозное мышление

Annotation

This article explores the spiritual values reflected in Luqmon Bo‘rixon's novel Imam Maturidi, analyzing their artistic expression and historical significance. Through the depiction of Abu Mansur Maturidi - a prominent Islamic theologian of the 9th–10th centuries - the author provides a profound perspective on religion, knowledge, faith, and humanity. Historical events are harmoniously intertwined with modern literary aesthetics, guiding the reader to re-evaluate contemporary values through lessons from the past. Particular emphasis is placed on values such as reverence for knowledge, religious tolerance, patience, and the societal role of women. The novel serves as a literary bridge to transmit Maturidi’s theological and philosophical legacy to future generations. The article also highlights how Uzbek literature uses historical figures to reflect and promote national spiritual ideals in a culturally meaningful way.

Keywords: Imomi Moturidiy, spiritual values, faith, patience, justice, knowledge, historical novel, religious thought.

Har bir ijodkorning buyukligi o‘zining milliy qadriyalari va urf-odatlarini ifodalovchi folklorni puxta bilishi, uning barhayot an’analarini ijodiy o‘zlashtirishi orqali o‘lmas asarlar yaratishdagi mahorati bilan belgilanadi. Shu o‘rinda qadriyat so‘zining asl mazmuniga to‘xtalar ekanmiz O‘zbek tilining izohli lug‘atida mazkur so‘zga quyidagicha ta’rif beriladi: “Qadriyat-qiymat, ahamiyat;qimmatbaho buyumlar;xalq boyligi. Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy -axloqiy, madaniy, ma’rifiy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiytali bo‘lgan barcha narsalarmoddiy va ma’naviy boyliklar va b. qadriyat hisoblanadi”.[1.16] Manashu jihatdan qaralsa turkiy xalqlar orasida tarqalgan folklor xazinasini teran anglagan Luqmon Bo‘rixon butun ijodi davomida folklor an’analaridan bahramandlik nafasi bilan qalam tebratdi. Biroq uning xalq ijodidan ijodiy foydalanishi boshqa ijodkorlardan ko‘p jihatlari bilan farqlaning turadi.ayrim ijodkorlar o‘z asarlarida folklorni sintezlash tamoyiliga murojaat etsa yana biri, folklor asarlaridagi shakl va obrazlar, mubolag‘ali tasvirlash usullarini saqlashga intiladi. L.Bo‘rixon o‘z

asarlarida folklor an’analarini o‘z ijodiy labaratoriyasida qayta ishlab ularni mazmuni g‘oyaviy talqini optimistik ruhini saqlab qoladi.

Adabiyot har doim jamiyatning ma’naviy hayotini aks ettiruvchi kuchli vositalardan biri bo‘lib kelgan. Har bir davr o‘zining ruhiy-ma’naviy izlanishlarini badiiy asarlarda ifoda etgan. Shu ma'noda, Luqmon Bo‘rixonning "Imomi Motrudiy" romani milliy ma’naviyatni teran ifoda etgan asar sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur maqolada ushbu roman orqali ifodalanayotgan ma'naviy qadriyatlarning talqini yuzasidan tahlillar amalga oshiramiz.

Istiqlol davri adabiyotiga nazar solar ekanmiz, berilayotgan voqealarini to‘g‘ri anglash va to‘g‘ri yoritish, tarixiy shaxslarni esa davr siyosati, mafkurasi nuqtayi nazaridan emas, hayotiy haqiqat hamda tarixiy jihatdan haqqoniy tahlil etish imkonini beradi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida tarixga murojaat qilish, tarixiy obrazlar yaratish, tarixiy shaxslar faoliyatiga asoslangan tarixiy asarlar yaratish tamoyili kuchaydi. Bunga sabab esa tarixda qora bo‘yoqlarda berilgan tarixiy shaxslar obrazini haqqoniy chizgilar asosida qayta yaratish, tarixga murojaat etish orqali o‘z davri muammolarini yoritish, kitobxonda milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish edi.

Adabiyotshunos P.Shermuhamedov qayd qilganidek:“Tarixiy voqea-hodisalarni zamondoshlar tomonidan qabul qilish psixologizmi siyosatdan ajralgan narsa emas, zero, xalq – tarix ijodkori, ham uning sub’ekti, ham ob’yektidir. Binobarin, bizningcha, siyosatda psixologiya tarixni g‘oyaviy-badiiy gavdalantirish jarayonining asosi, sintezidir. Darvoqe, badiiy haqiqat zamonning ob’yektiv haqiqati bilan uzviy bog‘liq... Haqiqiy tarixiylik, xuddi asl psixologizm kabi, muallifning ma’naviy ehtiyojiga aylangan ijtimoiy va axloqiy konsepsiyasiz avvaldan belgilab qo‘yilmagan, balki syujet, fabula, obrazlar silsilasi ruhidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan konsepsiyasiz amalga kira olmaydi”[2.4].

Darhaqiqat, ijodkor konsepsiyasi badiiy-tarixiy voqealar silsilasida yanada teranlashish jarayonini namoyon etdi. Buning zamirini tarixga, tarixiy voqelikka bo‘lgan badiiy yondashuv o‘z ifodasini topishi bilan dialektik birlikda, ijodkorning tarix oldidagi o‘z mas’uliyatini chuqur va asosli anglashi tashkil etadi. Shu jihatdan qaralganda, iste’dodli adib Luqmon Bo‘rixon ijodida tarixiy mavzu va tarixni aks ettirish juda katta mahoratni talab etgan, chunki qator zamonaviy romanlar muallifining bu jarayonda qalam tebratishi, o‘tmishni idrok etishni, idrok etganda ham tarixiy muhit va sharoit, davr ziddiyatlarini, tarixiy shaxs botinidagi murakkab kechinmalarni his eta olishini talab etgan.

Ma’naviy qadriyat tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u xalqning urf-odatlari, diniy e'tiqodi, ma'rifiy qarashlari, axloqiy tamoyillari, o‘zlikni anglash kabi asosiy

omillarni o‘z ichiga oladi. Luqmon Bo‘rixon o‘z asarida milliy ma'naviyatning muhim jihatlarini teran yoritadi va ularni badiiy obrazlar vositasida jonlantiradi.

Roman qahramonlarining ichki dunyosi, ularning qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va ma’naviy tanlovi asar voqealarida chuqur ochib berilgan. Masalan, asosiy qahramon Motrudiy o‘zining hayotiy kurashlari davomida ma'naviy qadriyatlarga tayanib, jamiyatdagi adolatsizliklarga, diniy ikkiga bo‘linish va aqidaparastlikka qarshi turadi. Uning ilmga bo‘lgan ishtiyoqi, haqiqatga intilishi va adolatni tiklash yo‘lidagi faoliyati orqali milliy o‘zlik va qadriyatlarning ahamiyati yuksak darajada tasvirlangan.

6. Elbek. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-manbaa konserni bosh tahririyati, 1999. – B. 30.
7. Cho‘lpon A. Asarlar. IV jildlik. II jild / Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi: D.Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 352 b.
8. Ҳусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.220.

IBRATDAN INGAN MA’RIFAT

Nazmiya Muxitdinova,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori, f.f.d.
muxitdinovanazmiya@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Is’hoqxon To‘ra Ibrat adabiy-estetik qarashlarining til va adabiyot, milliy g‘urur, madaniy meros, milliy qadriyatlar poydevorini mustahkamlashdagi ahamiyati asarlari asosida dalillab berilgan. Ibrat she’rlari, «Lug‘ati sittati alsina», «Jome’ ul-xutut», «Tarixi Farg‘ona», «Mezon uz-zamon» kabi asarlaridagi ilmiy va ma’rifiy manbalar talqini g‘oyaviy-badiiy tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: til va adabiyot, ta’lim, ma’rifat, jamiyat, qadriyat

Аннотация. В статье доказывается важность литературно-эстетических взглядов Исхоккона Тура Ибрата в укреплении фундамента языка и литературы, национальной гордости, культурного наследия и национальных ценностей на основе его произведений. Интерпретация научно-познавательных источников в поэмах Ибрата, таких произведениях, как

«Лугати ситтати алсина», «Жоме' ул-хутут», «Тарихи Фергона», «Мезон уз-замон» подвергается идейно-художественному анализу.

Ключевые слова: язык и литература, образование, просвещение, общество, ценности

Abstract. This article proves the importance of the literary and aesthetic views of Ishokhon Tura Ibrat in strengthening the foundation of language and literature, national pride, cultural heritage and national values based on his works. The interpretation of scientific and educational sources in Ibrat's poems, works such as "Lughati sittati alsina", "Jome' ul-khutut", "Tarixi Ferghona", "Mezon uz-zamon" is subjected to ideological and artistic analysis.

Keywords: language and literature, education, enlightenment, society, values

Is’hoqxon To‘ra Ibrat shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va islohotchi sifatida butun umrini Vatan va millat manfaatiga bag‘ishladi. Shoir hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini varaqlar ekanmiz, uning har bir sahifasida hikmat va ibrat maktabidan ingan ma’rifatning guvohi bo‘lamiz.

Bu o‘rinda uning “Lug‘ati sittati alsina”, “Jome’ ul-xutut”, “Tarixi Farg‘ona”, “Mezon uz-zamon” kabi ilmiy, pedagogik hamda badiiy asarlaridagi ma’lumotlar, Ibratni yaqindan bilgan zamondoshlarining xotiralari va o‘sha davr vaqtli matbuotida e’lon qilingan Is’hoqxon Ibrat haqidagi maqolalar muhim o‘rin tutadi. Ma’rifatparvar shoir, maorifchi Ibrohim Davronning quyidagi so‘zlari buning dalili: “Is’hoqxon to‘ra din, ilm-fan va adabiyotda ustozi komilligi bilan butun Farg‘ona va O‘rta Osiyoda inkor etib bo‘lmas darajada bir mavqei mumtoza tutmushdur. ....Is’hoqxon to‘ra olim va fozil bir zoti oliy bo‘lub, bu turfa fazoili insoniyaga molik... Ba’zi ixtiroti ham bordur”[1.56]. Darhaqiqat, Is’hoqxon to‘ra Ibrat shoir, tarixnavis, tilshunos va islomshunos sifatida o‘zidan boy meros qoldirgan. Xatning o‘n etti turida qalam yurgizgan mohir xattot, o‘z nomida “Matbaai Is’hoqiya”ni tashkil etgan birinchi o‘zbek noshirlaridan edi. Keyinchalik, “Is’hoqiya kutubxonasi”ning tashkil etilishi, bularning natijasida o‘nlab kitob do‘konlarining ochilishi Ibratning o‘z davrining etuk ma’rifatparvarlaridan ekanligini asoslaydi.

Ibrat teran tafakkur sohibi sifatida juda ko‘p xorijiy mamlakatlarda bo‘ladi. U onasi orzu qilgan haj safariga musharraf bo‘ladi va muborak ziyoratda vafot etgan volidasini Jidda shahrida dafn etib, Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohatini davom ettirdi. Shu bilan birga, Yevropaning Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi markaziy shaharlarida bo‘ldi. Ancha vaqt Afg‘onistonning Kobul, Arabistonning Jidda shaharlarida istiqomat qildi. Makka shahridan hind diyoriga keldi. 1892-1896-yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombey va Kalkuttada

yashadi. Bu erda ko‘p ishlatiladigan arba’ lisonni, ya’ni to‘rt tilni — arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. Chet ellarda u Sharq va G‘arb xalqlari hayoti, madaniyati va san’atini muqoyasa etish imkoniga ega bo‘ldi. Yevropaning ilg‘or ilm-fanini yaqindan o‘rgandi, ilmiy asarlari uchun qimmatli materiallar to‘pladi. Sharq xalqlari tillari bilan bir qatorda G‘arb tillarini ham bilish zarur, deb hisobladi va fransuz, ingliz tillarini, qadimiy finikiya, suriya, yunon yozuvlarini o‘rgandi.

Ibrat ma’rifatparvar hamda mutafakkir shaxs sifatida ma’naviy-ma’rifiy kashfiyotlarni nuktadonlik bilan qabul qilgan. Yangi maktablarning jamiyat taraqqiyotiga kirib kelishi o‘zbek o‘quvchilariga qiyinchilik tug‘dirdi. Buni inobatga olgan poliglot olim arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sartcha (o‘zbekcha) va ruscha so‘zlarni o‘z ichiga olgan “Lug‘ati sittati al-sina”[2.54], ya’ni olti tilli lug‘atni yaratadi.

Milliy uyg‘onish davri jadidiya ta’limi o‘sha davrdanoq xorijiy tillarni bilmoqlikka taraqqiyot omili sifatida alohida e’tibor qaratgan. Jadidlar maktabida aynan shu kitob asosiy darsliklardan biri sifatida foydalanilgan. “Tarixi Farg‘ona”[2] asarida haqqoniy davr tarixini yozdi hamda tarix saboqlariga o‘z munosabati va xulosasini tarixiy, islomiy manbalar bilan asoslab berdi. Buning barobarida taraqqiyot va sinovlar oldida turgan jamiyat uchun “Mezon uz-zamon”[2] asarini yaratdi. Uning serqirra ilmiy-ijodiy va tashkilotchilik faoliyati o‘z davridayoq keng miqyosda e’tirof etilgan.

Ushbu asarda kishilik jamiyatini ilm-fanga, taraqqiyotga undaydigan, yashamoqlik aslida dunyoga, nafsga mubtalolik emas, balki inson zotiga mulk qilib berilgan ilmu ma’rifatni kashf qilmoq, barcha mezonlar inson baxti va qadri uchun xizmat qilishi xususida fikr yuritiladi. Asarda zamon va jamiyat xususidagi mushohadalar 9 ta mezonda asoslangan. Birinchi mezon ilm, ahli ummatga inkor eshiklarini emas, saodat eshiklarini ochishi xususida. Zero, jadid ma’rifatparvarlarining asosiy g‘oyalaridan biri faqat og‘ir mehnat emas, balki ilm orqali baxtli hayot sari intilmoqdir. Alloh tomonidan inson qadr-qimmati uchun yaratilgan imkoniyatlar eshigini kashf qilmoqqa urg‘u beriladi.

Ikkinchi va uchinchi mezonda halollik, rostgo‘ylik, ahillik, insonparvarlik, ilmu ma’rifatning manbasi bo‘lgan Qur’on va hadisga amal qilmoqlik kabi masalalar tilga olingan. Qayd etish joizki, Ibrat o‘z davrida bugungi kunda taraqqiyotimiz strategiyalaridan biri bo‘lgan ijtimoiy siyosatning nechog‘liq ahamiyatli ekanini ta’kidlab o‘tgan. To‘rtinchi mezonda ilm, tafakkur, avlod tarbiyasi va usuli savtiya maktablarining millat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan. Bu o‘rinda aslida insonlar tabaqalashuvi emas, balki bilim va tajriba asosida baxtli istiqbol uchun tadorikli bo‘lishi lozim ekanini ta’kidlaydi. “Asrimiz

ilmu hunar, harakat asridur, turmoq asri emas, — deb yozadi beshinchi mezonda Is’hoqxon to‘ra. — G‘ofil tursa, g‘aflat uyqusidin turguncha, bozori olam o‘tub ketadur. O‘rganmoq darkor. E’tibor qilinglar, ey oqillar”. Oltinchi mezon bid’at va ortiqcha sarf-xarajatlarga ruju qo‘yish, fikrsizlik illatlarining muolajasi xususida. Demak, bu illatlarning o‘zagi aslida o‘qib turib uqmaslikka taqaladi, butun bir xalqqa suratan hashamdorlik aslida illatu qarz balosidan ortiq naf keltirmasligi ta’kidlanadi.

Yettinchi va sakkizinchi mezonlar libos borasidagi munozaralar, odamga emas, libosga ixlos qo‘yish, dunyoparastlikning yomon oqibatlari haqidadir. “Turkiston saxovati, muruvvati ko‘b firqani gado qiladur. Libosga ishonadurlar. Agarda libosda dinga xabar bo‘lsa edi**, al iymanu iqrorun bil-lison va tasdiqun bil-qalb** ya’ni islom manbalarida keltirilganidek iymon til bilan iqror bo‘lib, qalb bilan tasdiqlashdir demay, al-iymanu qalansuvatu-l-arabi va jubbatuhu-t-tijoriya ya’ni iymon arabcha kiyimu ko‘rinishda der edilar”-deya, aslida mukammal iymon tilda ham, qalbda ham Olloh roziligi uchun savob ishlarga qo‘l urmoq va sunnatga amal qilmoqlikda ekanini kuyunchaklik bilan uqtiradi. Bu mavzu bugungi kunda ham o‘z globalligini yo‘qotgani yo‘q. Zero, mutafakkir ta’kidlaganidek, millatning ma’naviy yuksakligi kitob va ilm saodati nuktadonligi bilan ushbu muammolarga barham berishi mumkin.

To‘qqizinchi mezonda esa o‘tmish va zamon voqealari muqoyasa qilinadi. Muhim xulosalar chiqariladi. Ibrat o‘z davrining donishmandi sifatida millat va yoshlar tarbiyasi xususida ko‘p o‘ylanadi. Yoshlarni vaqtlarini uvolu gunohlar bilan tahditomuz fikrlar bilan zoe’ ketkazmasdan, ming yillik ilmu ijoddan ma’rifatlanishga chaqiradi. Ibrat ilk bor “«Matbaai Is’hoqiya» matbaasida nur taratayotgan quyosh tasviri ichida ilm so‘zini o‘yib yozgan, go‘yo ilm nur taratayotgan quyoshga o‘xshatilgan. Bu ramziy tasvir matbaasida nashr etilgan barcha kitoblarga tushirilgan, hamda bugunga qadar ham bu ramziy timsol ma’rifat bulog‘i bo‘lgan ko‘pgina kitoblarda saqlanib turibdi.

Ibrat she’rlarida doimo bashariyatni ilm-fan mulkiga ega chiqmoqlikka undaydi ya’ni:

Har zamon ahlig‘a bir fan rusumi o‘lg‘ay rivoj,
Ul zamon ahlig‘a kirdor etmasa dono emas.
Qaydin o‘lg‘ayman zamon odamu asru atiq,
Ibrat ol, ilm asridur, kimsai volo emas.[3]

Xullas, Ibrat asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham echimi topilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardir. Biz bugungi kunda milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari qadam qo‘yar ekanmiz, ana shu millat

fidoyilarining kasbini kamol toptirgan umuminsoniy qadriyatlarimizni millatimiz ongu shuurida uzoq tarixga ega tafakkur singari yangidan tiklashimiz lozim.

Adabiyotlar

1. Туркистон вилоятининг газети», 1908, 56-сон.
2. Ибрат. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчилар: Б.Қосимов, С.Аҳмедов, У.Долимов. Т:. “Маънавият”, 1999.
3. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. Нашрга тайёрловчилар: У.Долимов, Н.Жабборов. Т:. “Маънавият”, 2005.
4. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Мезон уз-замон. Нашрга тайёрловчилар: У.Долимов, Н.Жабборов. Т:. “Маънавият”, 2005.
5. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Танланган асарлар. . Нашрга тайёрловчилар: У.Долимов, Н.Жабборов. Т:. “Маънавият”, 2005.

HIKOYAT VA RIVOYATLARNING INSONNING MA’NAVIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Shafoat Hasanova,
filologiya fanlari doktori,
O’zRFA Davlat adabiyot muzeyi
e mail: shafoat80@mail.ru telegram: +998909018798

Annotatsiya. Adabiyot tarixining ajoyib obidalari yangi zamon kishisini tarbiyalashda ulkan ahamiyatga ega. Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Sharq xalqlarining qissalari, dostonlari va boshqa folklor asarlari shu xildagi yangidan yangi doston, qissa va hikoyalarning vujudga kelishida manba vazifasini o‘tab kelgan. Hikoya va rivoyatlarning aksariyati insonning ma’naviy kamoloti va axloqiy barkamolligiga qaratilgan bo‘lib, ularda insonga bo‘lgan muhabbat, e’tiqodning sofligi, kishilarning bir-birlariga do‘stona munosabatlari, qabih va yaramas ishlardan nafsni jilovlash kabi axloqiy masalalar ko‘tarilgan.

Kalit so‘zlar: Adabiyot, ma’naviyat, hikoya va rivoyatlar, asar, To’tinoma, an’ana, hind qissalari, Xiromiy, Sharq xalqlari.

Аннотация. Великолепные памятники истории литературы имеют огромное значение в воспитании современного человека. Укрепление и развитие духовного духа народа является важнейшей задачей государства и общества Узбекистана. Сказки, былины и другие фольклорные произведения народов Востока послужили источником для создания новых эпосов, сказок и рассказов подобного рода. Большинство рассказов и повествований

посвящены духовной зрелости и нравственному совершенству человека, поднимают такие моральные вопросы, как любовь к человеку, чистота веры, дружеские отношения между людьми, удержание души от зла и нечестивых поступков.

Ключевые слова: Литература, духовность, рассказы и легенды, произведение, Тутинаме, традиция, индейские сказания, Хироми, народы Востока.

Abstract. Magnificent monuments of literary history are of great importance in the education of modern man. Strengthening and developing the spiritual spirit of the people is the most important task of the state and society of Uzbekistan. Fairy tales, epics and other folklore works of the peoples of the East served as a source for the creation of new epics, fairy tales and stories of this kind. Most of the stories and narratives are devoted to the spiritual maturity and moral perfection of man, raise such moral issues as love for man, purity of faith, friendly relations between people, restraining the soul from evil and wicked deeds.

Key words: Literature, spirituality, stories and legends, work, Tutiname, tradition, Indian legends, Hiromi, peoples of the East.

Sharq xalqlarining madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida dunyo xalqlari uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq, ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida boy o‘tmish merosimizni izchil ilmiy jihatdan xolis o‘rganish jonlandi. Buyuk alloma va shoirlarimizning, ilgari o‘rganilmay kelingan, diniy-axloqiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan nodir asarlari ham jiddiy o‘rganila boshlandi. Chunki mumtoz adabiyotimizning asl maqsadi ham insonlarda umumbashariy fazilatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-axloqiy, adabiy-estetik tarbiya berish, ajdodlarimiz badiiy dahosining durdonalari bilan xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni to‘la bahramand etishdan iboratdir.

Shu bois, mustaqillik yillari mobaynida, mumtoz adabiyotimizning ko‘zga ko‘ringan, lekin ularning asarlari o‘rganilmay kelingan namoyondalarning asarlari bilan bir qatorda adabiyotimiz tarixida nomlari o‘chib ketgan buyuk ijodkorlarimizning bebaho va nodir asarlarini diqqat bilan o‘rganish ko‘lami ham ancha kengaydi. Xususan, ilgari reaktsion adabiyot vakillari hisoblanib kelingan Imom G‘azzoliy, Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyor, Xo‘ja Ahror Valiy va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari jiddiy o‘rganilib, xalqqa taqdim etildi. Shuningdek,

Alisher Navoiydek buyuk mutafakkir shoirlarimizning butun bir ijodiy merosini o‘ziga xos ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarining to‘laligicha qardosh xalqlar ijodiyotidagi falsafiy qarashlari bilan aloqasi, o‘zaro ta’siri doirasida keng tadqiq etila boshlanganligi hozir o‘rganilishi dolzarb bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi. Bu jihatdan fors-tojik va turkiy xalqlar adabiy aloqalari keng miqyosli tadqiqotlar uchun boy manba vazifasini o‘tay oladi.

O‘zbek va fors mumtoz adabiyotida o‘zaro adabiy aloqalarning ta’siri va ijodkorlarning hamkorligi asosida qator asarlar bunyod etilganki, ularning genetik asosi, tipologik va o‘zaro aloqadorlik xususiyatlari, mavzuni o‘zlashtirish darajasi kabi masalalarni ilmiy asosda diqqat bilan o‘rganishni taqozo qiladi. Bunday asarlarni qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish ijodkorlardagi umumiylik va o‘ziga xoslikni aniqlashga imkon beradi. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimizni har tomonlama o‘rganishga e’tibor kuchayayotgan hozirgi kunda badiiy adabiyotda an’ana va ijodiylik nuqtai nazaridan manbalarni o‘rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot tarixi xalq tarixining uzviy bo‘lagi sifatida alohida ajralib turadi. Adabiyot tarixi madaniy aloqalar, adabiy munosabatlar, bir xalqning ikkinchi xalqdan o‘rganishi, o‘zaro adabiy ta’sir va adabiy tajribalar maktabi tarixi hamdir.

O‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida adabiy ta’sir va adabiy aloqalar muhim o‘rinni ishg‘ol etadi. Bir-biriga uyg‘un og‘zaki va yozma yodgorliklar, an’anaviy mushtarak syujetlarning mavjudligi qadimdanoq Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotiga xos bo‘lgan hodisadir. Hikoya va qissachilik adabiy an’anasi shu adabiy hodisa bilan aloqador holda, uning ajralmas qismi sifatida maydonga keldi.

Ma’lumki, bizgacha yetib kelgan qadim kitoblarda boy ma’naviyatimiz tarixi qator manbalardagi rivoyatlar asosida ajoyib va mo‘’jizakor hodisalar va hikoyalar bilan bog‘langan holda qiziqarli qilib bayon etilgan. Hikoya va rivoyatlarning aksariyati insonning ma’naviy kamoloti va axloqiy barkamolligiga qaratilgan bo‘lib, ularda insonga bo‘lgan muhabbat, e’tiqodning sofligi, kishilarning bir-birlariga do‘stona munosabatlari, qabih va yaramas ishlardan nafsni jilovlash kabi axloqiy masalalar ko‘tarilgan. Ayrim o‘rinlarda yomon xulqli insonlar haqida qiziq-qiziq bahslar va rivoyatlar keltirilgan. Bu rivoyatlar o‘quvchini ajdodlarimizning kundalik hayotlarida yuz bergan qiziqarli voqealar tafsiloti bilan yaqindan tanishtiradi va ularning inson tarbiyasiga ne chog‘lik ahamiyat berganliklarini ko‘z oldidan o‘tkazadi.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, arab ertaklar to‘plami “Ming bir kecha”, qadimgi hind qissalari “Shukasaptati”, “Panchatantra”, “Vetalapanchavinshati”, “Xitopadesha” va eron xalq afsonasi “Bahromgo‘r” va

turkiy xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish” dostonlari va boshqa folьklor asarlari shu xildagi yangidan yangi doston, qissa va hikoyalarning vujudga kelishida manba vazifasini o‘tab kelgan. Bu obidalar asos e’tibori bilan folьklor chashmalaridan keng oziqlanib, uning an’analari, durdonalari bilan yo‘g‘rilgan. Bunday asarlarni yaratgan ijodkorlar xalq og‘zaki ijodining g‘oyaviy-estetik mohiyati va poetikasidan bahramand bo‘lib, hikoyalarni yaratishda undan unumli foydalanganlar.

Ijodkorlar asarlari asosiga kiritilgan syujetlar Sharq xalqlari og‘zaki ijodida ko‘p uchrovchi ertak va qissalar mazmuniga singdirilganligi bilan ancha mashhurdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bir ijodkorning asari turli ko‘rinishlarda talay xalqlar og‘zaki ijodiyotida mavjuddir. Turli ellarda, turli tillarda, har xil variantlarda jahon kezgan bu ertaklar aksar bir-birini ba’zi o‘zgarishlar bilan takrorlaydi.

Shunday tarixiy-afsonaviy syujet zaminiga ega bo‘lgan asarlardan biri «To‘tinoma»dir. Hind ertak va eposlari asosiga qurilgan, bu dostonning syujeti uzoq zamonlar osha o‘quvchilarga yaqindan tanish bo‘lib u dunyo xalqlari orasida keng tarqalib kelgan.

Shunday qilib, bir paytlar qadimgi sanskrit adabiy an’anasi zaminida vujudga kelgan bu adabiy hodisa keyinchalik fors va turkiy xalqlar adabiyotida alohida yo‘nalishni vujudga keltirib, “To‘tinoma”navislik an’anasiga aylandi. Bu mavzuga qo‘l urgan har bir ijodkor o‘z asarini eng avvalo o‘zi yashagan davr ijtimoiy hayot tarzi va odati, rasm-rusmlariga moslashtirdi. Sanskrit tilidagi «Shukasaptati”, ya’ni “To‘tining yetmish hikoyasi” deb atalib kelingan hikoyalar to‘plami, asrlar o‘tishi bilan “To‘tinoma” nomi bilan shuhrat topgan va uni birinchi bor qayta ishlab, o‘ziga xos asar yaratgan ijodkor Ziyovuddin Naxshabiy bo‘lgan. Undan keyin bunga qo‘l urgan ijodkorlar soni juda ko‘p. Ular ichida Muhammad Qodiriy, Latifiy, Xaydarbaxsh, Asiriy, Xiromiy va Mirzabobo asarlarini alohida qayd etib o‘tish joizdir. Bu dostonlarni solishtirib o‘rganish ko‘p asrlik fors-tojik va o‘zbek adabiyoti tarixini hamda ikki o‘rtadagi adabiy ta’sir masalalarining ba’zi qirralarini yoritishga imkon beradi.

Avvalo «To‘tinoma” haqidagi hikoyalar Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari adabiy munosabatlarining ko‘rkam mahsuli sifatida e’tiborga loyiqdir.
Xiromiy “To‘tinoma” dostonida qoliplovchi hikoyadan keyin to asar nihoyasigacha 51 ta hikoya keltirilgan. Xiromiy asarida ikkinchi kecha aytilgan hikoya Tabariston shohi va uning hayoti evaziga o‘z o‘g‘li hayotini baxshida etishga tayyor bo‘lgan sarboz haqidagi ertakdan iborat:

Tabariston shohi kunlardan bir kuni xalqqa to‘yu tamosholar qilayotgan vaqtda bir sarboz kirib kelib, uni xizmatga olishini iltijo qiladi. Sarboz o‘zini shu

darajada ishiga mohir qilib ta’rif beribdiki, uni shoh saroy tomiga xizmatga olibdi, lekin uning balandparvoz gaplariga shubha bilan qarabdi. Bir kuni shoh yarim kechada haram tomiga nogoh ko‘z tashlagan ekan, u yerda bir qora sharpani ko‘ribdi. Sharpa yoniga kelsa o‘sha sarboz, bir oyoqda to‘rt yildan beri haramni qo‘riqlab turgan ekan. Shu vaqt shoh qulog‘iga: “Men ketayapman, meni biror kishi qaytara olurmi?”,-degan ovoz eshitilibdi. Shoh hayron bo‘lib sarbozdan so‘rasa u:-Bu nidoni anchadan beri eshitayapman, lekin borib aniqlamoqqa xizmatim yo‘l qo‘ymaydi,-debdi. Shoh uni voqeadan xabar olishga yuboribdi. Sarboz pastga tushib xabar olgan ekan bir kampir: “Men shoh davlatiman, uning hayoti suratiman, shoh umri bitti, shuning uchun men ketayapman”,-debdi. Sarboz undan: “Izingga qaytishing mumkinmi?”,-deb so‘rasa: “Mumkin, o‘g‘lingni qurbon qilsang”,-deb javob beribdi. Sarboz o‘g‘lini qurbon qilishga qaror qilibdi. Sarbozning o‘g‘li ham: “Bunday odil shoh uchun boshimni fido qilishga tayyorman”,-deb qurbonlikka tayyorligini bildiribdi. Sarboz o‘g‘lini endi qurbon qilmoqchi bo‘lib pichoq tortmoqchi bo‘lgan ekan, kampir: “To‘xta, uni o‘ldirma! Olloh ta’olo mardligingni va ixlosingni ko‘rib, senga rahm qildi. Bu imtihon edi xolos. Shohingning umrini Tangri bardavom qildi”,-debdi. Bu bo‘lgan voqealarni shoh eshitib turgan ekan. Ma’lum fursatdan keyin sarboz uning yoniga kelgach, shoh: “Bu qanday ovoz ekan”,-deb so‘rabdi. Sarboz: “Bir zaifa erining ozoridan yig‘lab yotgan ekan, men ularni yarashtirib qo‘ydim”,-deb javob beribdi. Shoh sarbozning dono va sodiqligiga qoyil qolib shunday debdi: “Men izingdan borib bor gapni eshitib turgan edim. Endi men senga iltifotimni namoyon qilaman, qolgan umrimni senga baxshida etayin”,-deb unga vazirlik taxtini va molu dunyosining yarmini in’om qilibdi.

Mazkur hikoya mazmunidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Naxshabiy va Latifiylarning “To‘tinoma”larida bu afsona voqealari tasvirida lirik chekinishlarga keng o‘rin berilgan. Xiromiy qator lavhalarni qisqartirgan. Unda qahramonlarning nomlari va syujet silsilasidagi ayrim o‘rinlar ixchamlashtirilganligini kuzatish mumkin.

Naxshabiy va Xaydarbaxsh hikoyalarida sarboz ilgari Xo‘jand shohida xizmat qilgan bo‘lsa, Latifiyda Xo‘jand beki uning qadriga yetmaganligi tufayli Tabariston shohi xizmatiga keladi. Xiromiyda ham u ilgari shoh xizmatida bo‘lgan, lekin qaysi yurt shohi ekanligi qayd etilmagan:

Sarxush o‘lturmish erdi taxt uzra shoh,

Kiribon keldi bir kishi nogoh.

Shahga bosh indirub du’o qildi,

So‘ngra chun arzi mudda’o qildi.

Dedikim mardeman o‘zum sarboz,

Barcha sarbozlar aro mumtoz.

Meni qadrimni bilmadi shohim,

Bilmadi balki rasm ila rohim. (9b sahifa)

Shunday farqlardan yana birini Tabariston shohi hayoti suratini o‘zida ifodalagan obrazdagi kichik bir o‘zgarishdan ham ko‘rish mumkin. Xiromiyda bu obraz “Zol” ya’ni qari kampir sifatida talqin etilgan. Naxshabiy, Xaydarbaxsh va Latifiylarda esa u go‘zal xotin sifatida tavsif etiladi. O‘ylaymizki hikoyada o‘lim haqida so‘z borar ekan Tabariston shohi hayoti suratini go‘zal yosh xotin qiyofasida tasvirlanganidan ko‘ra, uni Xiromiy tavsiflagandek qari kampirga o‘xshatish mantiqan to‘g‘riday ko‘rinadi.

Ijodkorlarning bu hikoyalardagi diqqatga sazovor o‘ziga xosliklardan yana biri, bu Latifiyning sarboz o‘g‘li boshini kesmoq uchun o‘g‘li bo‘g‘ziga pichoq tutgan chog‘dagi holatidir. Buni Latifiy Ibrohim alayhissalomning Ismoil alayhissalomni qurbonlikka keltirmoqchi bo‘lgan manzarasi bilan qiyoslab, uning tafsiloti hikoya ichida hikoya sifatida keltiriladi. Bu hikoya Naxshabiy asarida ham bor. Latifiyda shuningdek sarboz o‘zini ham podshoh uchun fido qilishga tayyor ekanligini qayd etadi. Xaydarbaxsh va Xiromiy bu lavhalarni o‘z dostonlariga kiritmagan.

Asarlarning qiyosiy tahlili yana shuni ko‘rsatadiki, hikoyalar yakuni ham har bir ijodkorda turlicha. Naxshabiy sarbozni uning sadoqatliligi tufayli o‘ziga noib qilib tayinlaydi, lekin unga Xaydarbaxsh va Latifiydagi singari molu davlat berilmaydi. Latifiy ham uni noib qiladi, so‘ngra vazir va hatto amir qilib tayinlaydi va shoh molu dunyosining yarmini unga meros qilib beradi.

Bu hikoyaning asosiy g‘oyasi sadoqat va uning inson baxt-saodati kaliti ekanligidadir. Ramziy ma’noda u Xo‘jastaning o‘z jufti haloliga sadoqatli bo‘lmog‘i lozimligiga ishoradir.

Xiromiy ijodkor sifatida yangi fikr, o‘ziga xos qahramonlar silsilasi, badiiy tasvir vositalari va yangi xulosalar yasashga harakat qiladi. Xiromiy hikoyalarida qahramonlarning ichki dunyosi va tashqi qiyofasidagi ijobiy va salbiy xususiyatlarini lirik kechinmalar orqali obrazli yoritish asar yaratishdan ko‘zlangan markaziy yo‘nalishni tashkil etadi va qo‘llangan badiiy vositalar asar bosh qahramonlarining o‘ziga xos xarakterini ochib berishga xizmat qiladi.

Xiromiy dostonidagi hikoyalarda asosan insonning axloqiy qiyofasini tarbiyalash g‘oyalari yotadi. Ularda asosiy urg‘u vafodorlik va bevafolik oqibatlari, aql-idrok tantanasi, saxovatu muruvvat saodati, yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi kurash motivlariga qaratilgan.

Bu hikoyalarning bosh qahramonlari har xil kasbdagi va toifadagi insonlar bo‘lishi bilan bir qatorda turli hayvonlar va qushlarni ham tashkil etadi va ular hikoyalarning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab beradi. Ularda salbiy qahramonlar o‘z qilmishlariga yarasha jazo oladilar, ijobiylari murod maqsadlariga yetadilar.

Xiromiy hikoyalaridagi o‘ziga xoslik shundan iboratki, ularda vazirlar obrazlari alohida ajralib turadi. Ijodkor bu obrazlar orqali dono, tadbirkor va tajribali davlat arboblari sifatida gavdalanadilar. Ular davlat tashvishi va raiyyat muammolarini hal qilishda butun aqlu zakovatlarini ishga soluvchi ijobiy qahramonlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Зийа ад-дин Нахшабий. Книга попугая (“Тути-наме”). Перевод с персидского Е.Э. Бертельса. –Москва: Наука, 1982.
2. Иномхужаев Р. Некоторые аспекты литературных связей Индии с сопредельными странами в XVI веке. Сб. научн. тр. ТашГУ-Ташкент, -№720. 1984. -С. 33-40.
3. Шукасаптати. (Семьдесят рассказов попугая) / перевод с санскрита М.А.Ширяева. –М.: ИВЛ, 1960. –129 с.
4. Ш.Ҳасанова. “Тўтинома” типидаги асарларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи. -Т.: Мумтоз сўз, -2015. 139 б.
5. Ш.Ҳасанова. Хиромийнинг “Тўтинома” достонида анъана ва ўзига хослик. Ўзбек тили ва адабиёти. -2009. -№4. –Б. 62-65.
6. Sh. Khasanova. The work displaying East wisdom. Global Journal of Advanced Research. –India, 2016. Vol-3, Issue-8. –P. 771-774. (№2: Journal Impact Factor – 1,517)

MUMTOZ ADABIYOTDA BADIIY OBRAZ VA OBRAZLILIK (Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy lirikasi misolida)

Zeboxon Kobilova,
Qo‘qon universiteti professori
Namunaxon Tursunova,
Qo‘qon universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
namunaxon1992@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy obraz va obrazlilik masalasi Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning adabiy merosi misolida yoritilgan. Shoir ijodida ijobiy va salbiy, ramziy va majoziy, an’anaviy va yangi obrazlarining butun bir turkumini mavjudligi aniqlangan. Badiiy obrazlarning she’rda tutgan o‘rni, bajargan vazifasi,

tashigan g‘oyasiga ko‘ra bir qator guruhlari ajratilgan va Muqimiy g’azallarining baytlari misoli dalillangan.

Kalit so‘zlar: obraz, obrazlilik, g‘azal, lirika, oshiq, raqib, zohid, muhtasib, nosih, bulhavas, hakim, ko‘zgu (oyina), sha’m, parvona

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема художественного образа и образности на примере литературного наследия Мухаммада Аминходжи Мукими. Установлено, что творчество поэта содержит целый спектр положительных и отрицательных, символических и образных, традиционных и новых образов. Выделяется ряд групп художественных образов в зависимости от роли, которую они играют в поэме, выполняемой функции и передаваемой ими идеи, в качестве доказательства приводится пример стихов газелей Мукими.

Ключевые слова: образ, образность, газель, лирический, возлюбленный, соперник, аскет, поэт, поэтесса, филистер, судья, зеркало, свеча, пропеллер

Annotation

This article discusses the issue of artistic image and imagery using the example of the literary heritage of Muhammad Aminkhodja Mukimi. It is revealed that in the poet's work there is a whole series of positive and negative, symbolic and figurative, traditional and new images. A number of groups of artistic images are distinguished according to the role they play in the poem, the function they perform, and the idea they convey, and the example of the verses of Mukimi's ghazals is used as evidence.

Keywords: image, imagery, ghazal, lyrics, lover, rival, ascetic, muhtasib, nasih, bulhavas, hakim, mirror (oyna), sham, parvona.

Ijodkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi. O‘zi anglagan mohiyatni va o‘zining anglayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma’noda obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, usuli sanaladi. “Badiiy obraz borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosda ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksidir”[1.90], deb adabiyot nazariyasi darsliklarida ta’riflar berilgan. Oddiy, hech kim e’tibor bermagan narsa yoki voqelikni ijodkor shunday mahorat bilan tasvirlydiki, bu insonga estetik zavq beradi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot durdonalarida bu masalada peshqadamlaridan hisoblanadi.

Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy lirikasida turli xil obrazlar uchraydi.

Sharq mumtoz she’riyatida bo‘lgani kabi Muqimiy ijodida ham ma’shuqa shunday yuksakda tasvirlanadiki, unga hech qachon oshiqning qo‘li etmaydi; ma’shuqa shoh-u oshiq gado sifatida talqin qilinadi; ma’shuqani boy, o‘zini faqir

qiyofasida gavdalantiradi; ma’shuqani sitamgar, oshiqni bechora ko‘rsatadi va hokazo. Chunonchi:

Zulm ila qahru g‘azab izhor qilmoq shunchalar,
Oshiqi bechorag‘a ozor qilmoq shunchalar [2.27].

Mumtoz she’riyatda ma’shuqa hamisha bevafo tarzida talqin qilinadi. Shuning o‘zi uning tasavvufiy ma’noga egaligidan dalolat beradi. Chunki ilohiy mahbubani hech kim ko‘rmagan. Bir ko‘rinish berganicha pinhon bo‘lganligi jihatida u pariga ham tashbeh qilinadi:

Rux ochib, ko‘zdin nihon bo‘lsa paridek, naylayin,
Ayrilib hushu aqldin, telba bo‘lmay sog‘lar [2.27].

Bu irfoniy qarashlar bilan bog‘liq. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, azalda inson o‘z Yaratuvchisi bilan bir butun bo‘lgan-u olamning yaralishi bilan undan ayri tushgan. So‘fiyona she’riyatda ma’shuqning oshiqni o‘zidan uzoqlatgani, visolning hijronga o‘rin bo‘shatib bergani, endi oshiqning yana bir umr ma’shuqqa intilishi, lekin visolning qachon yuz berishi noma’lumligi haqidagi she’rlarning ko‘pligiga sabab shu.

Salbiy obrazlar: raqib (ag‘yor, ag‘yor eli, dushman, muddaiy), muhtasib, nosih, bulhavas, hakim, kabi.

Ishq dardiga davo topolmasligi, oshiqning mushkulini oson qilolmasligi jihatidan hakim ham, tabib ham mumtoz she’riyatda qaysidir darajada salbiy obrazlar qatoriga kiradi.

Muolijdin ko‘rub nabzim, hakimo, yozma “Qonun”cha,
Bu hikmat birla bilmaysiz nadur dardi nihonim, siz [2.40].

“Navoiy lirikasi” kitobida taniqli olim A.Hayitmetov ham zohid, faqih, muhtasib, nosih, raqib kabilarni salbiy obrazlar sifatida talqin etadi [3.170].

Nosih jannat va do‘zax haqidagi yolg‘on va quruq nasihatlari bilan safsataboz sifatida gavdalanadi.

Qilma panding, nosiho, devonaman – sud aylamas,
Emdi fahmi sabru oromu qaror aylarmudim? [2.86]

Zohid – tasavvuf she’riyatida eng ko‘p tanqid tig‘i qaratilgan salbiy obrazlardan hisoblanadi va u oshiq, so‘fiy, rind, darveshga qarshi qo‘yiladi. Chunki u ma’rifatdan bexabar bo‘lib, shariatning rasmiy amrlarinigina ado etib, ilohiy ishqni tan olmaydi. Shuning uchun ham Muqimiy baytlaridan birida ma’shuqaga murojat qilaroq: “Zohid mening oshiqligimni yuzimga solgan edi – bir borib uni ham men kabi beqaror aylab keling”, – deydi:

Manga zohid ta’n etmush emdi, ey oromi jon,
Oni ham borib meningdek beqaror aylab keling [2.67].

Boshqa bir baytida esa ma’shuqa qoshlarining mehrobini ko‘rsatib, zohidni bir umrlik zuhdidan pushaymon qilishga chaqiradi:

Ko‘rsatib banogohi qoshlaringni mehrobin,
Shuncha yilg‘i zohidni zuhdidin pushaymon qil![2.77]

Ma’shuqa qoshining qayrilmaligiga o‘xshashi jihatidan mehrobni uning qoshiga nisbat berish mumtoz she’riyatda bir an’ana tusini olgan. Zohid masjid mehrobiga sajda qilsa, oshiq ma’shuqa qoshiga sajda qiladi.

Raqib obrazi ham shoir she’riyatida bir necha ma’no qirralari bilan namoyon bo‘ladi. U faqat oshiq-ma’shuqlar orasidagi g‘ov bo‘libgina qolmay, Xudo va inson o‘rtasida to‘siq bo‘lib turgan dunyo va uning ne’matlari, nafs xohishlari va turli hoyu havaslarni bildirib keladi. Jumladan, bir baytida raqib bilan birga yurgan ma’shuqni iblis nayrangiga uchgan insonga o‘xshatadi:

O‘xshaturman shum raqib birla kelurda angakim:
Aylayub talbisi iblis hamrohi inson kelur [2.35]

Ma’lumki, oshiq azaldan umid va shubha orasida yashaydi. O‘ziga iltifot qilmagan ma’shuqani raqib bilan birga deb o‘ylaydi – uning ma’shuqqa arazi ham, raqibga nafrati hm shundan. Ayni mazmundagi baytlar Muqimiy ijodiga ham oz emas. Chunonchi:

Iltifotidin raqiblar shodu man mahrum, oh,
Sohibi ehson, karamlik, bir malaksiymogina[2.120]

Ramziy obrazlar: ko‘zgu (oyina), sha’m, parvona kabi.

Tasavvuf she’riyatida ko‘zgu – inson ko‘ngli ma’nosida keladi. Bu ta’limotga ko‘ra, dunyo g‘uborlaridan poklanib, ko‘zguday musaffo holga kelgan ko‘ngilda Olloh jamoli jilvalanadi. Shuning uchun ham Muqimiy quyidagi baytida Xudoyi taologa murojaat qilib, g‘aflat zangidan ko‘nglini poklab, mehri nuri bilan uni ravshanlashtirishini iltijo qiladi:

Zangi g‘aflatdin ko‘ngil oyinasini pok etib,
Partavi mehring bilan sohib safo qilg‘il karim.[2.88]

Yoki mana bu baytida shoir o‘zining oshiqlikdagi ahvolini tundan tonggacha yonib-o‘rtanadigan shamga qiyoslaydi:

Dardu so‘zu ashku ohimni qiyos et sha’mdin,
Shomdin to subhidam hajringda o‘rtab yonaman [2.97].

Majoziy obrazlar: bulbul, chug‘z, ohu, kabk, kabki dari, tovus, to‘ti, qumri kabi.

Majoziy obrazlardan bulbul – oshiqqa, chug‘z (boyo‘g‘li, boyqush) – raqib, ohu – go‘zal mahbubaga, kabk (kaklik), kabki dari (tog‘ kakligi), tovus – chiroyli yurishi tufayli ma’shuqaning nafis xiromiga o‘xshatiladi va hokazo. Masalan, go‘zalligi jihatidan ohuning ko‘zlari ma’shuqaning ko‘zlariga tashbeh qo‘yiladi. ayni paytda ma’shuqaning go‘zal ko‘zlari ohu ko‘zlaridan ustun qo‘yiladi. Jumladan, quyidagi baytda o‘zining ko‘zlari go‘zalning ko‘zlari oldida nursizligidan xijolat tortgani uchun ham ohu tog‘u dashtdan beri kelmaydi deb nozik lutf qilinadi:

Ohu ko‘rub ko‘zingni xijil bo‘lmasa, nechun
Ovoralig‘da umri o‘tar ko‘hu dasht aro [2.18]

Bu mumtoz she’riyatdagi husni ta’lil san’atiga misol bo‘la oladi. Baytda ham ohuning tog‘u dashtni makon tutganiga ko‘zlarining ma’shuqa ko‘zlari bilan bahslasholmasligi sabab qilib ko‘rsatiladi. Aslida bunday emasligini o‘quvchi sezib turadi, lekin shoirning bu go‘zal badiiy kashfiyotiga qoyil qoladi.

Boshqa bir baytida esa mahbubaning malak kabi yuz noz bilan xirom qilishi oldida kaklik bilan tovus o‘zining nafis yurishiga mag‘rur bo‘lmasa ham bo‘ladi deb kinoya qiladi:

Kabk ila tovus raftorig‘a mag‘rur o‘lmasun,
Hurvash, yuz nozlar birlan xirom etsang netar? [2.28]

5. An’anaviy obrazlar: sarv, shamshod, lola, nargis, gul, g‘uncha, savsan, bodom, rayhon, mehrigiyo, arg‘uvon kabi.

An’anaviy obrazlar adabiyotda asrlar davomida keng qo‘llanib kelganidan ular muayyan turg‘un ma’noga ega bo‘lib qolgan. Masalan, sarv, shamshod, sanavbar kabilar ma’shuqaning kelishgan go‘zal qaddi-qomatini tamsil etadi va ayni paytda unga qarshi qo‘yiladi: istiora sifatida sarv, shamshod, sanavbar baland va mavzun bo‘yli mahbubani bildirib keladi, shu bilan birga, unga tenglasholmaydi. Chunki bu go‘zallik timsollari o‘rnidan qo‘zg‘alolmaydi, ma’shuqa esa yuradi, xirom aylaydi. Yana bu daraxtlarda go‘zaldagi kabi yuz, ko‘z, lab, xol va boshqalar yo‘q. Jumladan, quyidagi baytda yuz noz bilan xirom etgan mahbubani qadam tashlaydigan, ya’ni yuradigan sarvga tashbeh etadi:

Shitob aylab, bu kun yuz qatla noz ila xirom etting,
Qolib hayron dedim: “Yo Rab, nachuk sarvi ravondur bu?” [2.112]

Nargis, bodom kabilar esa go‘zalning chiroyli ko‘zlari bilan qiyoslanadi. Binafsha, savsan yorning halqa-halqa sochlarining ramzi bo‘lib keladi.

Diniy obrazlar: mo‘min, musulmon, kofir, tarso, gabr, hur, barahman kabi.

Muqimiy o‘z badiiy maqsadi ifodasi uchun nafaqat islom dini bilan bog‘liq obrazlar, balki boshqa dinlardagi obrazlardan ham mahorat bilan foydalanadi. Aytaylik, haqiqiy mahbuba shunday tengsiz husn sohibasiki, unga birgina shoir Farg‘ona mulkida oshiq bo‘lib qolmay, zohid uni Ka’badanu barahman butxonadan izlaydi:

Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg‘onada,
Zohid istar Ka’balarda, barhaman butxonada [2.117]

Barahman – hind hakimi va donishmandi, butparastlar piri bo‘lib, bu erda u aruz vazni taqozosiga ko‘ra barhaman tarzida yozilgan.

Bir qarashda oshiqning holini tang qilishi, xumor boqishlari bilan unga jabr qilishi jihatidan Sharq mumtoz she’riyatida ma’shuqaning ko‘ziga kofir sifati beriladi. Qosh esa mehrobni tamsil etib keladi. Shunga ishora qilib shoir tajohuli orifona – bilib bilmaslikka solish san’ati vositasida: “Odatda, mehrobda mo‘minlar sajda qilishadi. Qoshlaring ostidan esa ikki kofir joy olibdi – bu qanday mehrob bo‘ldiki, uning ostida musulmon bo‘lmasa?” – deb kinoya qiladi:

Bul’ajab mehrobdurkim, hech musulmon bo‘lmag‘ay,

Ikki kofir nargisingga oshyondur qoshlaring [2.68]

Bu erda nargis istiora o‘laroq ko‘zni tamsil etib kelyapti.

Tasavvufiy obrazlar: *zohid, soqiy, qalandar, ishq ahli, zuhd ahli, zohid, sabo, begona, maxmur, tarso, shayx va boshqalar.*

Bu obrazlardan may – ilohiy ishq ramzi, qadah – ko‘ngil, soqiy – pir, mayxona – uning huzuri va hokazo. Misol uchun, quyidagi baytida Muqimiy ma’shuqaning mavzun qomatini oltin yoki kumush bilan ziynatlangan shisha idishga, labini – qadahga, so‘zlarini ayni qadahdan quyilgan mayga tashbeh etadi, vaslini esa may lazzatiga tenglashtiradi:

Bazm aro, jono, visoling boda o‘rnig‘a o‘tar,
Surating – miyno, labing – sog‘ar, so‘zing go‘yo sharob [2.21]

Ma’lumki, musulmon mamlakatlarida boshqa dinga e’tiqod qiladigan kishilar mo‘minlardan ajralib turish uchun beliga zunnor – chilvir bog‘lab yurishgan. Mana bu baytida shoir agar sening muattar sochingni ko‘rsa, tarso – nasroniy ham dinidan qaytib, belidagi zunnorini echib tashlaydi deb lutf etadi:

Hech tarso qolmas erdi ko‘rsalar mushkin soching,
Dinidin qaytib demongkim, yodi zunnor etmayin [2.100]

An’anaviy mumtoz adabiyotda takrorlanib keluvchi zuhd ahli ya’ni dunyodan voz kechib, jannat umidida toat-ibodat bilan shug‘ullanuvchi obraz shoir ijodida ham uchraydi:

Huri jannat vasfin etmish zuhd ahli muddao,

Ishq eli mahshar kuni ma’shuqig‘a da’vosi bor.[2.28]

Afsonaviy obrazlar: pari, anqo, samandar kabi.

Samandar – olov ichida tug‘ilib, olov ichida yashaydigan va tusi ham olovrang kaltakesakka o‘xshash jonivor. Ishq o‘tida o‘rtanishi, otash ichra yashashi jihatidan mumtoz she’riyatda u oshiq timsoli bo‘lib keladi. Chunonchi, bir baytida Muqimiy hamisha qizib yotgan ko‘ksini chilimning sarxonasiga, bo‘g‘zidan chiqadigan nolani nayga, yotadigan joyini esa gulxan kuliga, o‘zini samandarga o‘xshatadi:

Otashin sarxonae ko‘ksum, nayi nolam baland,
Maskanim gulxan kuli, qildi samandar qomating [2.70]

Juft obrazlar: sha’m va parvona, gul va bulbul kabi.

Bunday obrazlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, bir-birini taqozo qiladi. Chunki gul bor joyda bulbul, sha’m tegrasida parvona bo‘ladi. Bu juftliklar aksar oshiq-ma’shuq timsoli bo‘lib keladi. Masalan, Muqimiy o‘zini omadsiz va baxtsiz bulbulga o‘xshatadi:

Nolalar qilmay, netay, sansiz, Muqimiy, subhu shom,
Bulbuli sho‘ridai gulzor bo‘ldim ayrilib [2.19]

Muqimiy ham quyidagi baytida bu dunyoda toki husn va ishqning bir-biriga intilishi bor ekan, sha’m parvonasiz, gul bulbulsiz, sarv qumrisiz bo‘lmaydi deb yozadi:

Sha’m – beparvona, gul – bebulbulu, bequmri – sarv
Bo‘lmas husnu ishqning olamda to osori bor [2.30]

Zid obrazlar: oshiq-raqib, oshno-begona, shoh-gado, gul-xor, bulbul-chug‘z (zog‘) kabi. Aytaylik, bulbul gul bilan juft obrazni tashkil etsa, boyo‘g‘li yoki zog‘ bilan o‘zaro zidlik hosil qiladi. Chunonchi, mashhur “Navbahor” nomli g‘azalida bulbul o‘rnini zog‘lar egalladi deganda yaxshilar o‘rnini yomonlar, donolar o‘rnini nodonlar egallaganiga ishora qiladi:

Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,

Oldilar har erda bulbul oshyonin zog‘lar 2.27]

O‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan shoh va gado obrazi ham Muqimiy ijodida keng qo‘llanilib, u ma’shuqani – shoh, o‘zini – gado o‘laroq tasvirlaydi:

Necha tag‘ofil, ey shahi xuboni mulki husn,
Sulton degan tarahhum etar holig‘a gado (18).

Bu ham aslida tasavvufiy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lib, irfoniy she’riyatda bir an’ana tusini olgan.

Mashhur oshiq-ma’shuqlar: *Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Yusuf va Zulayho, Mahmud va Ayoz kabi.* Shoirlar mashhur oshiq-ma’shuqlar obrazidan asosan “mening oldimda Majnun kim bo‘libdi-yu, sening oldingda Layli kim bo‘libdi” qabilida o‘z sevgilarini ularning sevgisidan ustun qo‘yish, o‘zlarini afsona bo‘lgan oshiqdan, sevgililarini esa ma’shuqalardan ustun qo‘yish maqsadida foydalanishgan. Jumladan, Muqimiy yozadi:

Menga Majnun uchrasaydi ishq dashtida agar,

Yig‘lar erdi holima boshimda ming savdo ko‘rub [2.22]

“Agar ishq biyobonida Majnun menga duch kelib qolguday bo‘lsa, boshimda ming savdo borligini ko‘rib, mening holimga yum-yum yig‘lar edi”, – der ekan, garchi ishq dashti bu dunyoda mavjud bo‘lmay, u shoirlarning taxayyuli mahsuli bo‘lsa ham, oshiq hech qachon o‘zidan ming yillar ilgari o‘tib ketgan Majnun bilan uchrashmasligi aniq bo‘lsa ham, boshidagi savdolar har qancha ko‘p bo‘lmasin, u mingtaga yaqin kelmasa ham va nihoyat oshiqlar shohi uning holiga yig‘lamasa ham, bunday mubolag‘alar keng qo‘llangani jihatidn an’anaviy tusga kirgan va aql-u odatga muvofiq hisoblanadi. Bu erda Majnunga murojaat qilinishida talmeh, o‘z dardini Majnun dardidan ustun qo‘yilishida mubolag‘a, oshiqning o‘zini Majnunga qiyoslashida o‘xshatish san’atlarini ko‘ramiz. Bu nihoyatda go‘zal tasvir. Ayni paytda, sodda va tushunarli. Usluban ravon va jarangdor. Bu – shoirning o‘ziga xos badiiy topilmasi. Bu – shoirning o‘ziga xos tasvir mahorati.

Mekanam ko‘hi g‘am az shavqi hamon shirinlabe,
Teshai Farhod peshi noxuni man tez nest.[2.24]

Tarjimasi: “Yillarki o‘sha shirin labli ma’shuqa shavqida g‘am tog‘ini qazaman. Hatto Farhodning teshasi ham mening tirnoqlarim qadar o‘tkir emas”.

Ko‘rinib tuganidek, bayt talmeh san’ati asosiga qurilgan. Bu yerda Farhodning tog‘ni qazib, Shirin saroyiga suv olib borgani va uning muhabbatini shu orqali qozonganiga ishora qilinmoqda. Farhod qazgan bu tog‘ Sharq mumtoz adabiyotida ishq tog‘i ramziga aylanib ketgan. Muqimiy ham ayni an’anani davom ettirib, agar Farhod tog‘ni teshasi bilan qazgan bo‘lsa, men uni tirnoqlarim bilan qazaman, chunki mening tirnoqlarim uning teshasidan o‘tkirdir deb mubolag‘a qiladi.

Payg‘ambarlar: Xizr, Sulaymon, Masih, Ya’qub kabi.

Payg‘ambarlardan Xizr – rahnamo, oshiqlar va mushkul ahvolda qolganlar homiysi, Iso Masih – hayot baxsh etuvchi, Sulaymon – dabdaba va hashamat timsoli va hokazo. Muqimiy talmeh san’ati vositasida Xizrdan ishq yo‘lida o‘ziga rahnamolik qilishi, mushkul ahvolda qolganida madadga kelishini so‘rasa, Sulaymonning oldida o‘zi haqir chumoli kabi his qiladi.

Manga ming shonu shavkat birla jonon uchradi nogah,
Muhaqqar mo‘r edim, go‘yo Sulaymon uchradi nogah [2.125]

Tarixiy va hayotiy shaxslar: Moniy, Devonai Adham, Falotun, Arastu, Umarxon kabi mashhur tarixiy shaxslar; Farzincha, Mirzo Umar, Abduqahhor kabi Muqimiy zamonasining tilga tushgan hofizlari.

Masalan, Falotun – hamma narsani biladigan, qilni qirq yoradigan, har qanday mushkulotni hal qiladigan donishmandning umumiy obrazi.

Lutfingi sharhina gar yuz yil Falotun cheksa til,
Ey karamtiynat yana, fahmimda, ijmoling o‘shal [2.75]

Bu guruhlar yana o‘zining ichki guruhlariga ajralib ketadi. Masalan, ijobiy obrazlar turli toifadagi yaxshi insonlardan tashqari, payg‘ambarlar, avliyolar, shohlar, oshiq-ma’shuqlarga bo‘linadi. Afsonaviy obrazlar haqida ham shunday deyish mumkin.

Ma’lum bo‘ladiki, Muqimiy buyuk salaflari o‘z ijodida mahorat bilan qo‘llagan an’anaviy obrazlardan mahorat bilan foydalanib, o‘zining badiiy-estetik qarashlarini ilgari surgan.

ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyot nazaryasi asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2018
2. Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдиалиев А). –Тошкент. Иқтисодиёт, 2021.
3. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: Фан
4. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.
5. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.

6. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
7. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.
8. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
9. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.
10. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548
11. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

TIL SIYOSATI VA MILLIY-MADANIY MASALALAR

Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich,
Filologiya fanlari doktori, professor
O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
yorqinjonodilov@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida til siyosati, til siyosati falsafasi, til huquqi, tildan foydalanish, tilning qo‘llanish sohalari, fuqarolarning tildan foydalanish bil bog‘liq ijtimoiy-siyosiy harakatlari, til nazorati, til siyosatining etnosotsial, madaniy, demografik qamrovi qanday bo‘lishi lozimligi haqida ilmiy va asosli fikrlar bildirilgan. Shuningdek, davlatlarning katta va kichik tillarni himoyalashi, mahalliy tillarni saqlash va himoyalashning qonuniy talablari, bugungi kunda jahon til siyosatida olib borilayotgan amaliy ishlar, G‘arb davlatlarining migratsiya jarayonida amalga oshirayotgan til siyosati, ko‘ptillilik va lisoniy prognozlash haqida ham fikrlar qayd qilingan.

Kalit so‘zlar: til, til siyosati, til siyosati falsafasi, til huquqi, til sofligi, ko‘pmadaniyatlilik, til ratifikatsiyasi, lisoniy prognozlash.

Аннотация

В данной статье высказаны научно обоснованные мнения о языковой политике в условиях глобализации, философии языковой политики, языковом праве, использовании языка, сферах применения языка, социально-политических действиях граждан, связанных с использованием языка, языковом контроле, этносоциальном, культурном и демографическом охвате языковой политики. Также отмечены мнения о защите больших и малых языков государствами, законных требованиях сохранения и защиты местных языков, практической работе, проводимой сегодня в мировой языковой

политике, языковой политике, проводимой западными странами в процессе миграции, многоязычии и языковом прогнозировании.

Ключевые слова: язык, языковая политика, философия языковой политики, языковое право, чистота языка, многокультурность, ратификация языка, языковое прогнозирование.

Abstract

This article presents scientifically grounded views on language policy in the context of globalization, the philosophy of language policy, language law, language use, areas of language application, socio-political actions of citizens related to language use, language control, and the ethnosocial, cultural, and demographic scope of language policy. Also noted are the views on the protection of large and small languages by states, the legal requirements for the preservation and protection of local languages, the practical work being carried out in world language policy today, the language policy of Western countries in the process of migration, multilingualism and linguistic forecasting.

Keywords: language, language policy, philosophy of language policy, language law, language purity, multiculturalism, language ratification, linguistic forecasting.

Til siyosati davlatning me’yoriy-huquqiy hujjatlar vositasida bildiriladigan ixtiyori sifatida fuqarolik jamiyati va boshqaruvning til bilan bog‘liq faoliyatini tartibga soladi. Ayni paytda, bunday siyosatni faqat til hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan yuridik normalar sifatidagina tushunmaslik, balki ijtimoiy-siyosiy faoliyatning muqarrar tarkibiy qismi deb bilish lozim. Davlatning tilning qo‘llanishi, fuqarolarning tildan foydalanish bilan bog‘liq choralari, avvalo, ta’lim-tarbiya ishi, ommaviy axborot tarqatish, ish yuritishda, qolaversa, qonun ijodkorligi, sudlov va tergov faoliyati singari sohalarda amalga oshadi, belgilangan lisoniy-huquqiy tartib bo‘yicha tildan foydalaniladi. Til borasidagi siyosatning ta’siri bir xalq, bir mamlakat doirasidan tashqariga chiqib, millatlararo, davlatlararo darajada ham akssado beradi va bu ko‘proq lisoniy muammolar o‘tkirlashganda sodir bo‘ladi. Til siyosatining zikr etilgan ko‘ptomonlama xususiyati bunday siyosat falsafasining tadqiqini talab qiladi, asli til siyosatining etnosotsial, madaniy, demografik qamrovi qanday bo‘lishi lozimligi, umuman, qayerdan boshlanib qayerda tugashini lingvistik muammo sifatida ko‘rsatib berishni talab qiladi.

Bir ma’muriy-siyosiy makonda etnik va lisoniy harxillikning mavjudligi til siyosati o‘tkazishning birlamchi asosidir. Bunda til hayotini boshqarishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar vositasida qaysi tildan qayerda va qanday foydalanish qoidalari ishlab chiqiladi. Masalan, ta’lim-tarbiya, OAV, sudlov va tergov, davlat

Nodiraning tojikcha devonida ham debocha mavjud bo‘lib, u noma’lum kotib tomonidan yozilgandir.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon Adabiyot muzeyida Uzlatning noyob qo‘lyozma devoni (inv. № 474) va shu devonning nomukammal fotokopiyasi (inv.№ 360) saqlanadi. Uzlat devonga she’riy bag‘ishlov yozgan. Uning bosh qismi yo‘qolgan bo‘lib, 70 baytdan iborat. Noto‘liq devonda esa bu bag‘ishlov 100 baytni tashkil etadi. Bu she’riy bag‘ishlov ko‘p jihatlari bilan debochaga o‘xshaydi. Shu nuqtai nazardan uning kompozitsion tuzilishga e’tibor beraylik:

1. Hamd-u sano (Yaratganni sharaflash).
2. Ollohdan o‘z qalamini ravon etishni so‘rab qilgan iltijosi.
3. Amir Umarxon va uning «kishvari adamni tark aylagan» ligi haqida.
4. Nodira va uning amir Umarxon vafotidan keyin mamlakatda amalga oshirgan ishlari tavsifi.

5. O‘zi haqida. Shoir Kosonda yashagan paytda bir zolim amaldor uning va hamshaharlari boshiga solgan kulfatlar haqida Nodiragacha arz qilib, uni o‘z panohiga olishni so‘raydi.

6. She’rlaridagi ayrim qusurlar uchun uzrxohlik qilish.

7. Devon bag‘ishlangan shaxs – mamlakat malikasi Nodirani duo qilish.

Debochaning katta qismi Nodiraga bag‘ishlangan. Unda amir Umarxon vafotidan so‘ng shoirning qurdirgan madrasa, binolari, Qur’onni ko‘chirtirishi, fazl ahliga munosabati ta’riflanadi. Lekin shoir debochada o‘z ijodi, yaratgan asarlari, ustozlari haqida hech narsa demaydi. Bu o‘rinda debocha (yana she’riy debocha) bitish murakkabligini, uni har bir shoir o‘z salohiyati darajasida yaratishini, shuningdek, adabiyot tarixida an’analarning to‘la saqlangan hollari va ayrim paytlarda buzilgan holatlari ham uchrashini kuzatish mumkin.

Husaynqul Sulaymonquli o‘g‘li Muhsiniy XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi demokratik adabiyotning ilg‘or fikrli vakillaridan edi. U talantli shoir, iste’dodli tarjimon, nozik tab’ hattot va rassom sifatida mashhur bo‘lgan. Muhsiniy ijodi va uning ayrim qirralari xususida adabiyotshunos olimlar – Po‘latjon domla Qayumov asarlarida, M.Olimov, R.Holiqov, A.Madaminovlarning maqolalarida ayrim fikrlar bildirilgan. Lekin ko‘pchilik manbalarda, jumladan, “O‘zbek adabiyoti tarixi” ning 5 jildligida ham shoir haqida ma’lumotlar uchramaydi. So‘nggi yillarda Qo‘qon Adabiyot muzeyi tadqiqotchisi U.Ne’matov tomonidan “Miiliy ensiklopediya” va boshqa manbalarda shoir ijodi haqida maqolalar e’lon qilinishi, she’rlari “Barhayot gulshan” nomi ostida nashr etilishi e’tiborga molikdir. Shoir ijodini monografik tarzda o‘rganishga endi e’tibor qaratilmoqda. [3.40-59].

Muhsiniy o‘z she’rlaridan devon tuzgan va unga debocha yozgan. Bu devonning 1897, 1914-15, 1916-17-yillarda tartib berilgan 3 nusxasi mavjud bo‘lib, ular bir-biridan katta farq qiladi. “Bu farqlar faqat hajm jihatidangina emas, balki shoir asarlarining sayqal topish tarixidan ham guvohlik beradi. Bu nusxalar Muhsiniy ijodining evolyusiyasini aniqlashda” [4.266-267] muhimdir. Bu fikrlar shoirning devoniga yozgan debochasiga ham taalluqlidir.

Devonning 1897 va 1914-yillarda tuzilgan ikki nusxasi hozirgi kunda Muhsiniyning Qo‘qon shahrida yashayotgan nevarasi To‘xtasinjon Nuriddinovning qo‘lida saqlanadi. 1916-17-yillarda tartib berilgan uchinchi nusxa shoirning eng so‘nggi tahriri bo‘lib, O‘zbekiston FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar bo‘limida 7392 inventar raqami ostida saqlanadi.

Devonlar kabi ularga bitilgan debochalar ham bir-biridan ma’lum darajada farq qiladi. Devonning keyingi nusxalaridagi debochalarda bayondagi aniqlik, jumla va iboralarning, she’riy misralarning qayta-qayta ishlanishi, badiiy sayqal

berilishi kabi xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanib boradi. Shuningdek, Qo‘qon Adabiyot muzeyida 4 sahifadan iborat varaqda debocha bo‘lib, bu devonning uchinchi nusxasidagi debochaning qoralamasi bo‘lsa kerak, deb taxmin qilinadi. Chunki bayonda ayrim farqlar bo‘lishiga qaramay, ular nisbatan bir-biriga o‘xshaydi. Masalan, varaqdagi debochada shoir o‘zining ilm o‘rganishida otasining xizmatlari katta ekanligini ta’kidlab shunday yozadi: “…janobi marhum valadi amjadim huquqi ma’fruzotimdan xolis o‘ldiqlaridan so‘ngra mir’oti jur’at timsolarina faqir farzandi dilbandi jigar payvandlarini iktisobi odobi ilm va istikmoli fununi fazl ta’lim qildirmak jilvagar o‘lub g‘oyat tahris ila nihoyatda targ‘ib go‘starub ulumi diniya va naqliya, aqliyalara muraxxas o‘ldim” [5. 1]

Xuddi shu parcha devonning uchinchi nusxasidagi debochada quyidagicha ifodalangan: “…ul hazrat valadi buzrukvorim xotiri hayrat mazohirlarig‘a faqiri farzandi dilso‘zlarini takmili maorif va tahsili ulum iktisobi jilvagar o‘lub otida tahris va nihoyatda targ‘ib go‘starub ilm va funun o‘qutmoqg‘a ma’dun qildilar” [6.2]

Shuni ta’kidlash kerakki, Muhsiniy Hofiz va Navoiylarni ustoz deb bilgan. Shuningdek, Fuzuliy ijodiga ham muhabbati kuchli bo‘lgan. Bu debochaning tili va uslubida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Debochada shoir hamdu sanodan so‘ng yoshlik yillarida otasining sa’yi harakati tufayli ko‘p ilmlarni o‘rganganligi, she’riy ijod bilan shug‘ullana boshlaganligi, dastlabki devonini tuzganligi, hajga borishi, ota-onasining istagi bilan uylanganligi, turli o‘lkalarda safarlarda bo‘lishi, shu asnoda hayotni yanada chuqurroq o‘rganganligi haqida ma’lumot beradi.

Shoir she’riyatdagi ustozlari Hofiz va Navoiy ruhlaridan madad tilab, homiysi Yaqubxo‘ja eshon ko‘magida devon tartib berishga kirishganligi va bu ishni nihoyasiga etkazganligini bayon qiladi. Devon mundarijasi bilan tanishtiradi. Nihoyat, debocha an’anaviy tarzda yakunlanadi.

Muhsiniy debochasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shoir tomonidan fikrlarni dalillash maqsadida Qur’on oyatlarining ko‘plab keltirilishidir. Shoir o‘zi ta’kidlaganidek, “ulumi diniya va naqliya, aqliya” larni chuqur o‘rgangan, Qur’onni yaxshi bilgan. Buning ta’siri debochada ham o‘z aksini topgan. Ikkinchidan, shoir debochalarda ularning yozilish sanalarini ham aniq ko‘rsatadi. Uchinchidan, Navoiyni o‘z ustozi deb bilgan shoir devonining har bir nusxasiga debocha yozgan. Keyingi nusxalarga yozilgan debochalar avvalgilaridan mukammalligi bilan ajralib turadi. Muhsiniy debochalari shoir tarjimai holi, ijodi, ijodining tadrijiy rivojini o‘rganishda katta ahamiyatga egadir.

XX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yashagan va debochali devon tartib berish an’anasini davom ettirishga intilgan ijodkorlardan biri qo‘qonlik iste’dodli

shoir Muhammadqul Muhammadrasul o‘g‘li Muhayyirdir. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondida 241-inventar raqami ostida shoirning dastxat devoni saqlanadi. Bu qo‘lyozma hijriy 1335 (melodiy 1917) yilda shoirning o‘zi tomonidan ko‘chirilgan.[6.10] Devonning 1-3 varaqlarida debocha mavjud. Debocha hamdu na’t bilan boshlanadi. Ko‘pchilik debochalarda, ayniqsa, forsiy debochalarda Olloh va payg‘ambarlar madhi ko‘tarinki uslubda batafsil ta’rifu tavsif etiladi. Lekin Muhayyir debochaning bu qismini kamtarona tarzda shunday bayon etadi: “Xudovandi taoloni pok zotig‘a loyiq va sazovor sifat qilmoq ilm va balog‘at kamoli birla mushkul va mahol va oliy darojot habibi na’tini xirad va donish va fasohat bila “kamo yanbag‘i” tilg‘a kelturmakka uqalog‘a ne majol. Bu hechmand Muhayyir maksurul-lison qalami birla nechuk tahrir aylagay. Avlo uldurki, o‘zini hamd va na’t demakda barchadin ojizroq ko‘rub, hamd va na’t demoq o‘rnida ul Ma’budi barhaqning muborak nomi-zikrining va ul Sayyidul-anbiyo, afzalur-rusulning hujasta durudini g‘animat bilib, devon debochasig‘a tug‘ro va fotiha qilg‘ay:

Aylardi tilim hamd demaklikni havas,

Dil dedi: “Bo‘lur tarki adab, qilg‘il bas,

Xushtur senga Haq zikrig‘a mashg‘ul o‘lmoq,

Bir maykada kunjida qilib hibsi kafas”.[7.1]

Har bir shoir o‘z qobiliyati va iste’dodi doirasida “ko‘nglig‘a kelgan xayollarin”, “nazm rishtasig‘a chekmog‘i”, bunda avvalo, mazmun-ma’noga e’tiborni qaratmog‘i lozimligini ta’kidlar ekan, shoir o‘zining she’riyat maydoniga qay tarzda kirib kelganligi xususida so‘z yuritadi: “Kaminaning agarchi qobiliyati yo‘q erdi, lekin ba’zi vaqtlarda tangdil bo‘lub, bir bayt yoki bir g‘azalni tarkib aylab, matla’ni maqta’iyg‘a etkurub yozib qo‘yar erdim va devon tuzmoq xayoli aslan va qat’an xotirimg‘a kelmas edi va yozilg‘on g‘azallarimdan biror g‘azalni izhor qilmas erdimki, albatta, bu degan g‘azallar she’r fanidan oriydur, fozil va rasolar ko‘rsalar ne degaylar. Chunki g‘azallarim tumori uryon mazmunlar ilgidan baxsh topgan erdi.” [7.1]

Shundan so‘ng shoir parokanda she’rlarini jamlab devon tuzganligi va unga debocha bitganligi haqida xabar beradi. Keyingi o‘rinlarda she’r va shoirlik, g‘azallarning mazmun-mundarijasi va ulardagi she’riy san’atlar xususida, ustozlari mavlono Lutfiy va Alisher Navoiy ijodiga muhabbati, she’r va ilm munosabati, o‘zlarini Firdavsiy, Sa’diy, Anvariy, Hofiz kabi buyuk so‘z san’atkorlariga tenglashtiruvchi taqlidchi shoirlar xususidagi adabiy-estetik qarashlarini bayon qiladi. Muhayyir debochani devondagi saxvu xatolar uchun uzrxohlik hamda debochaning yozilish sanasi bilan bog‘liq ruboiy bilan yakunlaydi.

Umuman, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari devonlariga bitilgan debochalar ijodkorlarning o‘z e’tiroflari bo‘lganligi bois ularning ilmiy-adabiy qimmati nihoyatda kattadir. Mazkur debochalar birinchidan, Qo‘qon shoirlarining tarjimai holi, ular yashagan davr, adabiy muhit, devonning yaratilish tarixi, ijodkor evolyusiyasi va adabiy-estetik qarashlarini o‘rganishda birlamchi va eng ishonchli manbadir. Ikkinchidan, debochalar o‘zbek nasrining go‘zal namunalari sifatida ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Каримова Ф. “Бадоеъ ул-бидоя”да девон тузиш принциплари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 3-сон. Яна: Ўзбек адабиётида дебоча. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2008. – 112б.
2. Амирий. Девон. ЎзФАШИ, инв. № 3642, 6-7-варқлар.
3. Нодира. Девон. ЎзФАШИ, инв. № 4182, 3б-варақ
4. Тўхтамуродов Ф. Муҳсиний назмий меросининг манбалари //Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. III республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган, 2020 йил, 12 июнь. – Б.239-243; shu muallif: Навоий ижодининг Муҳсиний шеъриятига таъсири // Алишер Навоий ва XXI аср. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2021, – Б. 643-647; shu muallif: Muhsiniy she’riyati: asliyat va nashr qiyosi // Oltin bitiklar. – Toshkent, 2022. – № 2. – B. 80-95; shu muallif: Muhsiniy she’riyatining mavzu ko‘lami // O‘zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2022. № 1. – B. 40-59
5. Р.Ҳолиқов. Муҳсиний – серқирра ижод соҳиби. Адабий мерос. Тошкент, 1973, 266-267-бетлар.
6. Варақдаги дебоча. Қўқон Адабиёт музейи, 1-саҳифа.
7. “Девони Муҳсиний”. ЎзФАШИ, инв. № 7392, 2а-варақ.
8. Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент, 2007, 10-бет.
9. Муҳаййир. Девон. Алишер Навоий номидаги Давлат Адабиёт музейи, инв. № 241, 1а-варақ.
10. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 173-176.
11. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
12. Kobilova, Z. (2019). THE TRADITION AND FEATURE IN THE CREATIVE WORK OF AMIRIY. *Theoretical & Applied Science*, (9), 436-439.

13. Kabilova, Z. (2022). STUDYING EMIRI DEVON IN TURKEY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(12), 669-671.

“CHIG‘ATOY GURUNGI”NING TA’QIQDAN KEYINGI QADAMLARI

Shahnozaxon Nazarova Ibadullayevna,
filologiya fanlari doktori, dotsent
Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi
nazarxonova@mail.ru

Annotatsiya. Ma’lumki, 1918-yil “Chig‘atoy gurungi” tuzildi. Bu jadidlarning ochiq siyosiy faoliyatdan endilikda murosa yo‘liga o‘tganini anglatardi. Ular butun kuch va g‘oyalarini adabiyotga, ayniqsa, she’riyatga va ilmga ko‘chirishni rejalashtirdi. Shu asnoda yangi davr o‘zbek adabiyotining katta to‘lqini o‘z yo‘lida to‘xtab qolmadi. Hatto keyinchalik tashkil etilgan “Qizil qalam” jamiyati ham “Chig‘atoy gurungi”ning yangi bosqichi sifatida faoliyat yuritishi ko‘zlangan edi. Ammo adabiyot nosog‘lom bir kuchga aylanib borayotgan edi. “Qizil qalam” 1923-yil tashkil etilgan adabiy-badiiy to‘garak bo‘lib, faoliyat doirasiga ko‘ra to‘garakdan kattaroq bo‘lgan uyushma edi. Uyushma ayrim ma’lumotlarga ko‘ra hozirgi San’at muzeyi joylashgan va o‘sha yillarda Kafanov nomidagi Ishchilar klubiga qarashli binoda o‘z faoliyatini boshlagan. Uyushma “yo‘qsil adabiyot vakillari”ni birlashtirish, tarbiyalashni fonida jadidchilik g‘oyalarini yashirincha targ‘ib etishi maqsad qilgan edi. Ammo chinakam ijodiy kuchlar bu sharoitda o‘z iste’dodini ko‘rsat olmas edi va tabiiy tarzda, uyushma tarqab ketdi. 1926-yil o‘tib Samarqandda shu nomda jamiyat tashkil etildi. Shokir Sulaymon rahbarlik qilgan bu jamiyatga Otajon Hoshim, Botu, Ziyo Said, Sotti Husayn, Anqaboy, Oltoy, Uyg‘un, Hamid Olimjon, Mirtemir, Oydin singari ijodkorlar a’zo edi. Ammo yana allaqachon ikkiga bo‘lib yuborilgan katta va kichik avlod ijodkorlari o‘rtasida kelishmovchilik yuzaga chiqdi, jamiyat tanaffuslar bilan faoliyatini davom ettirdi.

Kalit so‘zlar: jadid adabiyoti, jadid nashri, jadid majmualari, “Chig‘atoy gurungi”, “Qizil qalam”.

Аннотация. Известно, что в 1918 году был создан “Чигатайский Гурунг”. Это означало, что джадиды только что перешли от открытой политической деятельности к компромиссу. Они планировали перенести всю свою энергию и идеи в литературу, особенно в поэзию и науку. На этом большая волна узбекской литературы нового времени не остановилась. Предполагалось, что даже созданное позже общество “Кизил калам” будет

функционировать как новый этап “Чигатайского Гурунга”. Но литература становилась нездоровой силой. "Кизил калам" было литературно-художественным кружком, основанным в 1923 году, объединением, которое по масштабу деятельности было больше кружка. По некоторым данным, ассоциация начала свою деятельность в здании, где сейчас находится художественный музей, и в те годы принадлежало рабочему клубу имени Кафанова. Союз был призван объединить “представителей пролетарской литературы", тайно пропагандировать идеи джадидизма на фоне просвещения. Но истинные творческие силы не смогли проявить свой талант в этих условиях, и, естественно, ассоциация распалась. В 1926 году в Самарканде было создано одноименное общество. В это общество, возглавляемое сокиром Сулейманом, входили такие творцы, как Отаджан Хашим, Боту, Зия Саид, Сотти Хусейн, Ангабай, Алтай, Уйгун, Хамид Олимджан, Миртемир, Айдын. Но снова возник раскол между старшим и младшим поколениями творцов, которые уже были разделены, общество продолжало функционировать с перерывами.

Ключевые слова: литература джадидов, издание джадидов, сборник джадидов, “Чигатайский гурунг”, “Кизил калам”.

Annotation. It is known that in 1918 “Chikhatoy gurungi " was formed. This meant that the jadids had now moved from open political activity to a compromise path. They planned to move all their power and ideas to literature, especially poetry and science. At the same time, a large wave of new-age Uzbek literature did not stop in its own way. Even the later “Qizil qalam” society was intended to function as a new phase of the”Chikhatoy gurungi". But literature was becoming an unhealthy force. The "Qizil qalam" was a literary-artistic Circle founded in 1923 and was an association larger than a circle in scope of activity. The association, according to some reports, is located in the current Art Museum and began its activities in those years in a building overlooking the Kafanov Workers ' Club. The association aimed to unite the”representatives of proletarian literature", secretly promoting the ideas of jadidism against the background of upbringing. But truly creative forces could not show their talent in these conditions, and in a natural way, the association dissolved. In 1926, a society of the same name was founded in Samarkand. This society, led by Shokir Sulaiman, included artists such as Otajon Hoshim, Botu, Ziyo Said, Sotti Husayn, Ankaboy, Altai, Uygun, Hamid Olimjon, Mirtemir, Aydin. But again a disagreement arose between the creators of the older and younger generations, which had already been divided into two, the society continued its activities with breaks.

Keywords: Jadid literature, Jadid edition, Jadid complexes, “Chikhatoy gurungi”, “Qizil qalam”.

Botu “Qizil qalam” va uning galdagi vazifalari” maqolasida (“Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927-yil 23-sent) oktabr inqilobidan so‘ng adabiyot tayin ijodiy kuchlarni bermagani, bir joyda depsinib turib qolganini yozadi: “Oktabr inqilobidan so‘ng borliq ko‘rsatgan adabiy oqim “jadid” adabiyotini maydondan chiqarib tashladi. Bir necha yil ichida bir to‘da yosh qalamlarni ko‘pchilik nazariga taqdim etdi. Lekin bu yangi o‘zbek adabiyoti ham birinchi davrda butunlay milliy ruh bilan sug‘orilg‘oni uchun belgilik yo‘lda o‘sdi... “Chig‘atoy gurungi” yosh kuchlarni to‘plab harakat qildi va “Gurung” yo‘qolg‘anidan so‘ng yangi o‘zbek adabiyotida ko‘b yangiliklar borliqqa chiqorilmadi. “Chig‘atoy gurungi” bayrog‘i ostig‘a to‘plangan kuchlar ikki katta to‘daga ayrildilar. Bir to‘da tilak, yo‘l va shaklda “Gurung”ga sodiq qolib ilgariladi. Ikkinchi to‘da bo‘lsa u tilakka va u yo‘lga qarshi chiqdi; yangi yo‘l, yangi shakl izlashga kirishdi. Biroq bu fikrda birinchi to‘dadan butunlay uzoqloshg‘on bo‘lsa ham, shu kungacha o‘zbek adabiyotida boshqa yangiliklar yaratolg‘oni yo‘q”. Botu murakkab shaxs, to‘laqonli jadid emas edi. Ammo u muhim o‘rinlarda Fitrat va Cho‘lpon yo‘liga sodiq qolgan, nazarimizda. Badiiy timsollar dunyosida Cho‘lponga eng yaqin turadigani – Botudir. Bu uning “Qizil qalam” jamiyati “Chig‘atoy gurungi” bajargan vazifani biroz o‘zgargan shaklda davom ettirishiga umid bog‘lashida, shuningdek, bu yangi jamiyatning ma’ruzachilari ro‘yxatiga jadidlarning kiritilishida jonbozlik ko‘rsatganida aniq namoyon bo‘ladi.

Jamiyatning “Qizil qalam” majmuasi 1-soni Samarqandda “O’zbekiston davlat nashriyoti”da 1928 yil Otajon (Hoshimov) tahriri ostida arab imlosida 3000 nushada bosmadan chiqqan. Majmua ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, 1-qismdan Otajon Hoshim, Somaylovich, Fitrat qalamga mansub adabiyotshunoslikka doir tadqiqiy maqolalar o‘rin olgan. 2-qismdan bo‘lsa Botur, Uyg‘un, Mirtemir, Majidiy, Cho‘lpon, Shokir Sulaymon, Aziziy asarlari joy olgan.

Ammo bu nashrdan so‘ng ikki avlod ijodkorlari o‘rtasidagi kelishmovchilik avj oldi. 1929 yilda jamiyatning boshqaruv organi qayta ko‘rilib, unga Ziyo Said rahbarlik qila boshladi. Adabiyot sekin-asta mardikorga aylanib bordi. Paxtakorlar, ishchilar – yo‘qsillar qahramonga aylandi. O’sha yili jamiyatning ikkinchi majmuasi nashrdan chikdi. 1930 yilda Botu, Ramziy (Mannon Romiz), Oltoy qamoqqa olingach, jamiyat butunlay tarqab ketdi.

“Qizil qalam”ning ilk majmuasi ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, 1-qismdan Otajon Hoshimning “Proletariyat adabiyoti va adabiy meros”, Aleksandr Nikolayevich Samoylovichning “Navoiy to‘g‘risida ovrupo olimlari”, Fitrat

qalamga mansub “Umar Xayyom” nomli adabiyotshunoslikka doir tadqiqiy maqolalar o‘rin olgan.

O.Hoshimovning so‘zboshi o‘rnida yozilgan “Proletariyat adabiyoti va adabiy meros” maqolasidan o‘qiymiz: “Eski san’at, adabiyotka umuman nafrat ko‘zi bilan qaraydirg‘onlar va qlassiq, jadid san’ati, adabiyotini tekshirishning nima keragi bor deganlar ham oz emas... eski badiiy merosni bilmaslik va uni butunlay inkor qilish natijasida ixtiro asosli bo‘lmaydi yoki ixtiro qilish, boshqa yo‘llar topish qiyin bo‘ladi. Yoki hozirg‘i davrimiz taraqqiyoti saviyasida yangi yo‘l topish mumkin bo‘lmaydi. U vaqt eskilikdan qaytg‘on proletariat fikrida yozmoqchi bo‘lg‘on yosh shoirning boshi qotadi. Eski san’at, adabiyotdan shaklan foydalanishni o‘ziga ep bilmaydi. Kuchsizligi, yoshlig‘i orqasida yangi yo‘l, shakl topa olmay o‘ziga ishonchi so‘nadi. Sekin-sekin san’at, adabiyotdan chekina boshlaydi, o‘smaydi. Hozirg‘i inqilobiy o‘zbek adabiyotida shu hol ko‘rulmakda”. Olim bu uzilishlar asoratsiz bo‘lmasligini, avlodlar boy berilishini juda chuqur his qilgan va buni tushuntirib bergan.

Keyingi ikki maqola ham Otajon Hoshimov fikrlari davomi sifatida berilgan. Majmuada sharqshunos olim, akademik, o‘n yil o‘tib qatag‘on qurboni A.N.Samoylovichning maqolasi bosilishi ham mutlaqo tasodif emas. “Chig‘atoy gurungi”ning bosh faoliyat yo‘nalishlaridan biri – Turonni Amir Temur davridagi shon-shavkatiga qaytarish, qaytadan madaniy yuksalishga erishish, shonli tarixni tadqiq etish, noyob qo‘lyozma manbalarni aniqlash, xalq orasidan terib olish, o‘rganish edi. “Qizil qalam” bu maqola nashri bilan ayni yo‘nalishni davom ettirgan. Maqola shunday boshlanadi: “Turk xalqlarini, aynuqsa, ularning tillarini o‘rganishka ko‘b ishlar qilg‘on Ovrupo olimlari ularning nafis adabiyotiga oz ahammiyat berdilar. Boshida Mir Alisher Navoiy turg‘on chig‘atoy adabiyoti turkiyyotning katta bir bo‘limi bo‘lg‘oni holda Ovrupo mustashriqlari tomonidan oz o‘rganilgandir”. Olim turkiy dunyo, turkiy tamaddunning, tafakkur tarzining Evropada tan olinishi va tadqiqiga e’tibor qaratadi.

Olim izlanishlariga ko‘ra, “Navoiyning ismi, Ovruponing “Sharqni o‘rganish” ilmiy sahifasiga XVII asrning oxirlaridan keyinga qolmasdan kirgandir. Erbelo tomondan tuzilib, 1967 yilda nashr etilgan “Sharq qomusi”da (“Bibliotheque orientale”) Navoiy to‘g‘risida uning forsiy va chig‘atoycha asarlarini aniq ko‘rsatmagan qisqacha maqolacha bordir”. So‘ng olim Navoiyning o‘zi va asarlari haqida ma’lumot beruvchi ilk manbalarni birma-bir ko‘rsatib o‘tadi. Xususan, fransuz mustashriqi Silvestr de Sasi (XVIII asrning oxirlari), Avstriya mustashriqi Xammer (XIX asrning boshlari), ingliz turkiyyotchisi Gibb (XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlari) qomuslari, rus qomuslari (“Entsiklopedicheskiy leksikon” (1835 yil), Brokgauz va Yefron qomusi (1902);

rus sharqshunoslari – P.S.Savelev, P.M.Melioranskiy, M.Nikitskiy, V.D.Smirnov, V.V.Radlov, I.N.Berezin, V.Zernov, shuningdek, F.Belin, E.M.Katrmer, H.Vamberi, Pave de Kurtayl, M.Xoriman, Shprenger tadqiqiy maqolalari, ular tomonidan tuzilgan turli kataloglarda Navoiy dahosining qay darajada yoritilgani va tadqiq etilganini tekshiradi. Yakunda shunday xulosaga keladi: “Ovrupo kutubxonalarida bir yoki ko‘pincha bir necha nushalarda mavjud bo‘lmog‘on Navoiyning hech bir asari ehtimol yo‘qdir. Ovrupo olimlari uzoq vaqtdan beri Navoiyni ko‘b qadrlaydirlar; bu ularning bergan taqrizlaridan ko‘rinib turadi, shunday bo‘lsa ham Navoiyning asarlari hozirg‘acha Ovrupoda oz bosilg‘ondir. Aytish mumkin, ki Navoiyning asarlari na tilining xususiyatlari va mas'alani echishdagi mundarijasining shakl jihatdan hech biri tekshirilmagandir; yolg‘uz fors namunalaridagina tarbiyalangan Navoiyning, birinchidan, qanday darajada mustaqilliq ko‘rsatishi, ikkinchidan, so‘ngg‘i chig‘atoy yozuvchilarig‘a va boshqa turk adabiyotig‘a qanday ta'sir qilg‘oni hal qilinmog‘ondir”.

Majmuaning birinchi bo‘limidan joy olgan “Umar Xayyom” nomli tadqiqiy maqola ham mumtoz adabiyotni o‘rganish masalasiga qaratilgan. Fitrat bu maqolani keyinchalik qayta ishlagan. Buning sababini uning o‘zi quyidagicha ko‘rsatadi: “Forslarning butun dunyoda mashhur bo‘lg‘an shoirlarrdan Umar Xayyom haqida «Qizil qalam» majmuasida bir maqola yozg‘an edim. Unda Ovrupa olimlarining Xayyomning tarjimayi holi haqida qanday ma’xazlarig‘a murojaat qilg‘anlarini ko‘rsatgan, o‘zim ham shularning izidan yurib, Xayyom tarjimayi holini sobit shaklga kirgizishga tirishg‘an edim. Maqolam matbaaga borib terilgandan keyin qo‘limg‘a qimmatli bir kitobcha kirdi. Kichkina kesmada 119 betdan iborat bo‘lgan bu kitobchaning kitobat tarixi hijriy 674 bo‘lib, ta’lif tarixi 594 (milodiy 1198)dir. Yozilg‘an o‘rni Xorazm, tili arabcha, asar egasining oti Imom Zahiriddin Abul Hasan al-Bayhaqiy. Kitobning muqaddimasida yozilg‘aniga ko‘ra, Abu Salim Muhammad Ibni Bahrom al-Sajziy tomonidan hakimlar tarixiga oid yozilgan «Savon ul-hikma» otli asarni biznnng muallif to‘ldirmoqchi bo‘lib shu asarini yozg‘an. Asarning oti «Tatimmat us-savon ul-hikma». Muallif bu kitobchada hijriy 7-asrg‘acha yashag‘an mashhur sharq faylasuflaridan 100 kishining tarjimayi holini beradi. Shu qatorda 53-bo‘lib «al-dastur ul-faylasuf Umar Ibni Ibrohim al-Xayyomiy» keladi. Xayyomni tekshirishganda, Ovrupa olimlarining murojaat qilg‘anlari ma’xazlar orasida «Tatimmat us-savon ul-hikma» atalg‘an bir asarning otini ko‘rmadik. Hamda bu asarning Xayyom zamonida uni ko‘rgan bir kishi tomonidan yozilg‘ani uning qimmatini orttiradi. Bu asar Xayyom haqida boshqa ma’xazlarda bo‘lmag‘an ba’zi ma’lumotlar berib, ustodlari, shogirdlarini bizga tanitgandan boshqa olmon olimi doktor Fridrix Rozan tomonidan Xayyomning Lokar shahrida tug‘ilganiga oid

maydong‘a tashlangan fikrning ham churuk ekanini ko‘rsatadi. Bu muhim kitobchani qo‘lg‘a tushurg‘ach, Xayyom haqidag‘i maqolamni qaytarib olmoq uchun «Qizil qalam» idorasig‘a yugurdim. Maqolam matbaada terilgan ekan, qaytarish mumkin bo‘lmadi. Shuning uchun mazkur maqolamning ustida yangidan ishlab bir kitobchani tartib qildim. Yangi topg‘anim «Tatimmat us-savon ul-hikma» kitobchasining Xayyom haqidag‘i so‘zlarini arabcha iborasi bilan kitobning oxirig‘a qo‘shib qo‘ydim. Bundan maqsadim sharq adabiyotini tekshiruvchi g‘arb olimlarini bu yangi ma’xazdan xabardor etmakdir” (ushbu risola “Fors shoiri Umar Xayyom» nomi bilan 1929 yilda arab imlosida nashr qilingan).

Yangi adabiyot yaratamiz, deb milliy adabiyotning ildizlarini kesib tashlab bo‘lmaydi. Agar u mumtoz darajaga etgan bo‘lsa, inchunun. Jadid ziyolilari shu fikr ortidan bordilar va zamon shamollarida qo‘nimsiz bo‘lib qolgan yosh ijodkorlarga ham ushbu fikrni singdirishga urindilar.

Majmuaning ikkinchi bo‘limidan Botur, Uyg‘un, Mirtemir, Majidiy, Cho‘lpon, Shokir Sulaymon, Aziziy asarlari joy olgan. Botur, Uyg‘un, Mirtemirning bu she’rlari juda g‘alati taassurot qoldiradi.

1926-yildan sovetlar millatchilik ayblovi bilan jadidlarga qarshi ochiqdan-ochiq ta’qibni boshladi, “Inog‘omovchilik” masalasi ko‘tarildi, 1927-yilda millat timsoliga aylangan shoir Cho‘lpon Samarqandda qurultoyda obro‘sizlantirilib, tuproqqa qoriladi, Vadud Mahmud bo‘lsa bir yo‘la haydab chiqariladi va 1929-yildan qatl mashinasi ishga tushdi. “Qosimovchilik”, “Munavvar qori to‘dasi” ishi kommunistik diktatura to‘la kuchga kirganini anglatardi. 1926-yildan esa qadimchi ulamolarning quvvati kesib tashlandi, hibsda ushlab turildi, qamaldi, surgun qilindi. Shu sharoitda bu yosh shoirlar “soxta g‘amlar”dan yuz o‘girib, baxt, baxtiyorlik haqida she’rlar yozishgan. Agar ommaviy tarzda hayqirib baxt haqida so‘zlanar ekan, bu erda chinakamiga baxtimyor birorta odam bo‘lmaydi, bu ma’lum haqiqat. Akademik Naim Karimov Fitrat, Cho‘lpon keyingi avlodlarni saqlab qolish uchun she’rlariga qarshi she’rlar yozishga ularni o‘zlari undagini haqida aytar edi. Ularda baxtiyorlik emas, mana shu tirik qolish istagi bo‘rtib ko‘rinadi. Bo‘lim Boturning “Istiqbol” she’ri bilan boshlanidi. She’r 1927 yil 8 noyabrda Samarqandda qog‘ozga tushirilgan. Bir qaraganda u quvonch, baxt haqidadek. Ammo 11 bandli she’rda muallif qon so‘zini 6, zulm so‘zini 4, faryod, zulmat, fig‘on so‘zlarining har birini 3 martadan, vahshat va mudhish kechani 2 marta, shuning, har bir bandda qora ko‘lankadek osilib turgan o‘lim, qiynoq, hasrat, mozor, yosh, qayg‘u, mahzun, xasta kabi so‘zlarni qo‘llagan. Muallif ma’lum sabab bilan o‘zini ham, bizni ham aldashga urinishi mumki. Lekin matn aldamaydi. U o‘z egasining yuragi o‘lim, zulm, qatl vahshatiga to‘lib turganini ko‘rsatadi. Botur ming aylanmasin, Fitratning “Mening kecham” doirasidan chiqib

ketolmagan. Yoki Uyg‘unning “Zamon sirlari” (1926 yil 19-may, Toshkand) she’ri mana bunday boshlanadi:

Xayol ko‘klarida keza bilmayman,

Bo‘sh, quruq so‘zlarga amal qilmayman.

Yo‘lda to‘sqinlarni ko‘zga ilmayman,

Alamdan, qayg‘idan yurak tilmayman...

Garchi Uyg‘un “Ey telba qora kuch, to‘sma, qoch, yo‘l ber”, deya navqiron ruhi o‘tmish va o‘tmish og‘riqlar, davr qo‘rqinchlari ichida qolib ketishini istamasa-da, u she’rni boshlagan zahoti o‘zini Fitrat va Cho‘lpon yonida ko‘radi. Fitrat, Cho‘lpon ijodida Xayolning qo‘rqinch, ta’qib qiluvchi qiyofasi bor. Fitrat sochmalarida: “Yotsam tushimda, uyg‘onsam yonimda, ko‘z yumsam miyamda, ko‘z ochsam qarshumda mungli bir xayol kelib turadir!” desa, Cho‘lpon ham xuddi shu ta’qibdan so‘zlaydi: Bo‘g‘iq, qisiq bu ko‘ngil kuchli o‘t bilan yonadir G’G’ Ul o‘t orasida yurtning xayoli jonlanadir.

Cho‘lpon “Ket” she’rida uni xoin nur, yolg‘on nur, deya o‘zidan nari haydasa, “Yo‘l esdaligi”da qorong‘ilik ichidagi daraxtlar unga “xayol-vahm” bo‘lib ko‘rinadi. Xayol – yangi o‘zbek adabiyoti yaratgan eng murakkab obraz. U she’riyatda ham, nasrda ham, dramada ham ko‘rinish beradi. She’riyatga xos ezgu xayol timsoli quyuqlashib boradi, u endi ideal emas, toptalgan haqiqat, hurriyat, ona Turkiston bo‘lib gavdalanadi, jadidlar tushunchasiga qattiq o‘rnashadi, alamli og‘riqqa aylanadi, vahm-xayol ko‘rinishiga keladi, ta’qib qiladi. Bu obraz davr ijodkorlarining ruhiy-fiziologik holatini ham ochib beradi (Qarang. Nazarova Sh. XX asr boshlari o’zbek she’riyatining yangilanish tamoyillari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B.206-210.). Uyg‘un she’rining

Ey telba qora kuch, to‘sma, qoch, yo‘l ber,

Ket, yo‘qol, ko‘ksingni yo‘qliqlarg‘a ker!..

Turmish oqimida oqib boraman

Umid gullarini taqib boraman

deya yakunlashi – akalari kaltaklanganu, qo‘rquv zo‘ridan zo‘ravonga qarab, “Sizni yaxshi ko‘raman”, deyotgan bola holiga o‘xshaydi. Bu gipnoz ham emas, bu shu kungacha aytilgan baxt kuylari ham emas, bu yig‘lagan holingda kulishga majburlanishdir.

Bunday yig‘lash Mirtemir she’rida yanada aniqroq ko‘rinadi. “Boqchada” nomli she’rning yakuniy xulosalovchi qismidan o‘qimiz:

Qayg‘i yo‘q... shodliqlar ustiga shodliq

Faqat u... o‘rtoqlar mendan uzoqda...

Men uchun na qadar hurlik – ozodliq

Ular-chi? – Tubanda, nechun tuzoqda?!.

Gul – bog‘cha ichida o‘ynab kulaman –

G’am nima?

– Men uni qaydan bilaman....

Uyg‘un 21, Mirtemir 18 yosh yigitchalar bo‘lishgan. Ular bu yoshda Turkiston qayg‘usini qaerdan ham bu qadar chuqur bilsin, dersiz? Qo‘rquv yosh tanlamaydi, to‘laqonli baxt anglanishi uchun esa bu vaqtda juda yoshlik qilar edilar.

Majmuadan, shuningdek, A.Majidiyning tarixiy mavzudagi “Bir haykal qarshusida”, Uyg‘unning sof lirk kayfiyat uyg‘otuvchi “Tong” she’rlari, Cho‘lponning “Navvoy qiz” (1925-1927 yil iyun, Samarqand), Shokir Sulaymonning “Qotil”, Aziziyning “Qish ko‘rinishlari” hikoyalari ham o‘rin olgan. Bu hikoyalar qonga botgan Turkistonning qon yig‘lagan ayollari haqida. Ular hech ham “baxtiyor” zamonning hosilalariga o‘xshamaydi.

IRONIYA VA UNING LINGVISTIK TABIATI

E.Ibragimova, FarDU professori v.b.

Annotatsiya

Maqolada ironiyaning nazariyaiy jihatlarini o‘rganib chiqishdan asosiy maqsad, ularning xronologik tartibda o‘rganilishi emas, balki zamonaviy lingvistik va kognitiv ironiya nazariyalarida qo‘llaniladigan asosiy g‘oyalarni aniqlashdan iborat ekanligi, Turli lingvistik nazariyalar rivojlanishining eng muhim natijasi uning kognitiv murakkabligini e’tirof etish ekanligi, shuningdek, ironiya so‘zining semantik strukturasini leksikografik tavsiflarda qiyinlashtirishda ko‘ramiz, uzoq tarixga ega bo‘lsa-da, ironiya tushunchasining chegaralari hali ham munozaralar mavzusi bo‘lib qolayotganligi, verbal ironiyaga ritorik trop sifatida, nutqni bezatish vositasi sifatida qarashning qadimgi an’anasi saqlanib qolganligi, u faqat bir estetik uslub emas, balki semiotik, pragmatik, madaniy va ijtimoiy mexanizm sifatida ham tadqiq etilishi, turli tilshunos maktablar va yo‘nalishlar ironiyaning nutqdagi funksiyalarini har tomonlama tahlil qilishga harakat qilganliklari. Bu jarayon ironiyaning ko‘p qatlamli va ko‘p ma’noli tabiati, hamda uning faqat lugaviy emas, balki kontekstual va diskursiv jarayon sifatida namoyon bo‘lish yoritildi.

Kalit so‘zlar: ironiya, kontekst, diskursiv ironiya, kinoya, trop,intonatsiya, fenomen.

Аннотатсия

Основная цель изучения теоретических аспектов иронии в данной статье заключается не в хронологическом рассмотрении подходов к ней, а в выявлении ключевых идей, применяемых в современных лингвистических и когнитивных теориях иронии. Важнейшим результатом развития различных лингвистических теорий является признание её когнитивной сложности. Также обращается внимание на то, что семантическая структура слова «ирония» затруднена в лексикографических описаниях. Несмотря на долгую историю, границы понятия иронии до сих пор остаются предметом научных дискуссий. Сохранилась древняя традиция рассматривать вербальную иронию как риторический троп и как средство украшения речи. Однако в статье подчёркивается, что ирония изучается не только как эстетический приём, но и как семиотический, прагматический, культурный и социальный механизм. Различные лингвистические школы и направления стремились всесторонне анализировать функции иронии в речи. В ходе исследования освещается многослойная и многозначная природа иронии, а также её проявление не только как лексического, но и как контекстуального и дискурсивного феномена.

Ключевые слова: ирония, контекст, дискурсивная ирония, иносказание, троп, интонатsiя, феномен.

Abstract

The main goal of studying the theoretical aspects of irony in this article is not to trace its chronological development, but rather to identify the key ideas employed in modern linguistic and cognitive theories of irony. One of the most significant outcomes of the evolution of various linguistic theories is the recognition of irony’s cognitive complexity. It is also noted that the semantic structure of the word irony presents difficulties in lexicographic descriptions. Despite its long history, the boundaries of the concept of irony remain a subject of scholarly debate. The ancient tradition of viewing verbal irony as a rhetorical trope and a means of embellishing speech has been preserved. However, the article emphasizes that irony is studied not only as an aesthetic device, but also as a semiotic, pragmatic, cultural, and social mechanism. Various linguistic schools and approaches have attempted to comprehensively analyze the functions of irony in discourse. The study highlights the multilayered and polysemous nature of irony, as well as its manifestation not only as a lexical, but also as a contextual and discursive phenomenon.

Keywords: irony, context, discursive irony, allusion, trope, intonation, phenomenon.

Bugungi kunda jamiyatimizda sodir bo‘layotgan tub islohotlar va global o‘zgarishlar, shubhasiz, inson faoliyatining barcha sohalariga, jumladan, tilga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Insonning ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida til doimiy harakat va rivojlanishda bo‘lib, uning barqaror taraqqiyoti turli o‘zgarishlarni vujudga keltiradi. Xususan, nutqiy faoliyatning asosiy quroli — til vositalarining tarkibida ayrim elementlar eskirib, muomaladan chiqishi, yangi birliklarning paydo bo‘lishi, mavjud birliklarning ma’no va funksiyasida evolyutsiya kuzatilishi tabiiy jarayondir.

Bunday o‘zgarishlar nafaqat tilning leksik tarkibida, balki uning badiiy-stilistik imkoniyatlarida ham namoyon bo‘ladi. Adabiy tilning boyishi va ifodaviy quvvatining ortgani sari turli badiiy vositalar – troplar va figuralarning qo‘llanilishi ham kengayib boradi. Shu jihatdan qaralganda, til vositalarining nafaqat denotativ, balki konnotativ, ya’ni ko‘chma va obrazli ma’nolarda qo‘llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday badiiy-stilistik vositalardan biri ironiya bo‘lib, u nutqda aks ta’sirli tarzda, ko‘pincha, qitmirlik, masxara va yoki yumor ifodalash uchun qo‘llaniladi. Ironiya vositasida so‘zlovchi aytgan so‘zining zohiriy ma’nosidan ko‘ra, unga zid bo‘lgan ichki ma’noni nazarda tutadi va shu orqali muayyan kommunikativ maqsadga erishadi. Shu bois, ironiyaning lingvistik tabiati va uning amaliy funksiyalarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Ironiya, odatda, kontekstual shart-sharoit, intonatsiya, mimika va so‘zlovchining maqsadidan kelib chiqib, nutqda turli darajada namoyon bo‘ladi. Uning qo‘llanilishi orqali so‘zlovchi reallikka nisbatan tanqidiy, kerak bo‘lsa, yumoristik munosabatini bildiradi. Shu jihatdan ironiya faqatgina badiiy adabiyotda emas, balki ommaviy axborot vositalari, siyosiy nutq, internet-kommunikatsiya va kundalik muomalada ham faol ishlatiladi.

Tildagi ironiya kabi badiiy vositalarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish, ularning ma’no yuzaga kelish mexanizmi, funksiyalari va pragmatik ahamiyatini tahlil qilish nafaqat tilshunoslik sohasida, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarning boshqa sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ironiyada so‘zlovchi voqeani jiddiy bayon qilganday bo‘ladi, ammo til vositalarini ko‘chma (okkazional) ma’noda qo‘llab, biron shaxs yoki voqelik ustidan kesatiq bilan kuladi. Boshqacha qilib aytganda, so‘zlovchi nutqining zaminida haqiqiy ma’noga zidlanuvchi asosiy maqsad - kulgi yoki kinoya ma’nosi yashiringan bo‘ladi.

Nutqda so‘z va iboralarning kesatiq yoki piching orqali o‘z ma’nosiga qarama-qarshi (ko‘chma) ma’noda ishlatish usuli ironiiya deyiladi. Ironik mazmun

ko‘proq hajviy tur va uning janrlari muammosiga bog‘langan bo‘lib, ular bilan ko‘proq adabiyotshunoslik fani shug‘ullangan. Adabiyotshunoslikda hajviy turlar sirasiga kiruvchi satira va yumorga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar mavjud.

Ironiya ziddiyatga asoslangan, ko‘pincha masxaraomuz, tanqidiy maqsadda qo‘llaniladigan til vositasidir. Unda shaxs o‘zining haqiqiy fikrini yashirib, unga teskari ma’noda gapiradi. Ironiya tilshunoslikda pragmatik fenomen sifatida baholanadi, semantik ziddiyat asosida vujudga keladi: ya’ni aytilgan maqsad bilan ko‘zda tutilgan ma’no o‘rtasida farq bo‘ladi. O‘zbek tilida ironiya xalq og‘zaki ijodi, adabiyotshunoslik, notiqlik, falsafa nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Tadqiqot ishimizda ironiyaning lingvistik tabiati va diskursiv-pragmatik jihatlarini o‘rganishga harakat qilamiz.

So‘nggi yillarda ironiya muammosi nafaqat adabiyotshunoslik va falsafa sohalarida, balki tilshunoslik doirasida ham alohida e’tiborga sazovor bo‘lmoqda. Ayniqsa, chet el tilshunoslari ironiyani nutqiy jarayonning muhim semiotik va pragmatik unsuri sifatida ko‘rib chiqishmoqda. Bu holat ironiyaning faqatgina estetik yoki uslubiy vosita sifatida emas, balki inson fikrlash qobiliyati va kommunikatsiya strategiyasini shakllantiradigan ildizli mafkuraviy mexanizm sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi. Bu borada nemis tilshunosi D.Myukke fikrlari alohida ahamiyatga egadir. Uning ta’kidlashicha: “Ko‘plab yozuvchilar uchun ironiya uslubiy yoki dramatik tur emas, balki hozirgi paytning umumiy yo‘nalishi sifatida shakllangan fikrlash qobiliyatidir”[1.276]. Mazkur fikr ironiyani faqatgina badiiy matn yoki alohida kommunikativ aksent sifatida emas, balki umumfalsafiy va ijtimoiy-konseptual jarayon sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Bu erda ironiyaning semantik va pragmatik funksyalari jamiyatdagi ma’naviy-mafkuraviy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq ekaniga ishora qilinadi.

Zamonaviy lingvistikada ironiyaga bo‘lgan bunday keng qamrovli yondashuv unga nisbatan ilmiy munosabatning chuqurlashuviga va uning turli ko‘rinishlari, shakllari hamda amaliy tatbiqlarini tadqiq qilishga turtki bo‘lmoqda. Ironiya faqatgina emotsional yoki estetik ta’sir etish vositasi sifatida emas, balki nutq subyektlarining muloqotdagi psixologik va ijtimoiy pozitsiyalarini ifoda etuvchi murakkab strategiya sifatida ham o‘rganilmoqda.

Ayni paytda, ironiyaning izchil tadqiq etilishi uning tipologiyasini aniqlash, kontekstual va intonatsion xususiyatlarini tahlil qilish, hamda uning kommunikativ samaradorligini baholashga zamin yaratmoqda. Chet el tadqiqotchilari tomonidan ironiya fenomeniga nisbatan falsafiy va madaniy o‘lchovlarda yondashish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bu holat tilshunoslikdagi yondashuvlarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Ko‘rinib turibdiki, D.Myukke qarashlari zamonaviy tilshunoslikda ironiya yondashishning yangi paradigmasini ifoda etadi. Bu paradigma ironiya nainki stilistik vosita, balki intellektual va ma’naviy mulohazaning samarasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Taniqli tilshunos G.P. Graysning nazariyasiga ko‘ra, ironiya kontekstdagi pragmatik implikaturalar orqali tushuniladi. Bu nazariyaga asosan so‘zlovchi gapning to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nosini emas, balki ishora qilingan ma’noni ko‘zda tutadi. Bu ma’no tinglovchi tomonidan mantiqiy mulohaza va kontekst asosida anglanadi. Shuningdek, ironiya – polisemiya (ko‘pma’nolilik) va antonomiya bilan bog‘liq bo‘lib, so‘z yoki iboraning teskari ma’noda qo‘llanilishiga asoslanadi. Stilistika nuqtai nazaridan, ironiya yozuvchi yoki so‘zlovchining munosibatini bildiruvchi kuchli vositadir [2.41-58].

Tilshunos H. Do‘stmuhammedov o‘zining 1995-yilda yozgan «O‘zbek tilining uslubiyat asoslari» kitobida: “Ironiya uslubiy vosita sifatida bayonning yashirin mazmunini ochish, fikrning tanqidiy ruhini etkazishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida ironiya ko‘proq og‘zaki nutqda, xalq tilida, so‘z o‘yinlari orqali namoyon bo‘ladi”[3.300], deb ta’riflaydi.

G.N.Shamsiddinovaning “Ironiyaning diskursiv va kommunikativ-pragmatik vazifalari” maqolasida ironiyaning tagmatn (implitsit ma’no) orqali ifodalanishi, uning ajablanish, e’tiroz, iltimos kabi nutqiy ekspressiyalar bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Muallif ironiyani kommunikativ niyat va pragmatik anglash nuqtai nazaridan o‘rganib, uning muloqotdagi vazifalarini ochib berishga harakat qilgan [4.].

I. Rustamovning “Kinoya satiraik mazmun yaratish vositasi sifatida” maqolasida kinoya va satiraning lingvistik xususiyatlari, ularning pragmatik vazifalari va ijtimoiy tanqidiy funksiyalari tahlil qilingan. Muallif kinoyani satiraik mazmun yaratish vositasi sifatida ko‘rib chiqadi va uning kommunikativ ta’sirini ochib beradi[5.96].

Tadqiqotchi A.Parmonovning “Kinoyaning til tizimida tutgan o‘rni” maqolasida kinoyaning til tizimidagi o‘rni, uning semantik va pragmatik xususiyatlari hamda kommunikativ funksiyalari tahlil qilingan. Muallif kinoyani tilning ekspressiv vositasi sifatida o‘rganib chiqadi va uning ma’no yaratishdagi rolini o‘rganadi.

Kinoya (ironiyaning bir ko‘rinishi sifatida) — tilning murakkab va ko‘p qirrali nutq hodisalaridan biri bo‘lib, uning tahlili tilshunoslikdagi turli yo‘nalishlar — semasiologiya, pragmatika, kommunikativ lingvistika, kognitiv tilshunoslik va uslubshunoslik nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. A.Parmonovning “Kinoyaning til tizimida tutgan o‘rni” nomli maqolasida aynan shu masalalarning

to‘laqonli tahlili beriladi. Muallif kinoyani tilning ekspressiv vositasi sifatida o‘rganib, uning ma’no yaratishdagi o‘ziga xos rolini yoritadi.

Tadqiqotchining yondashuvida kinoya, birinchi navbatda, semantik tizimning bir qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Kinoya vositasida ifoda etiladigan ma’no odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki aks ma’noli, ifoda etilayotgan so‘zning teskari ma’nosini anglatuvchi shaklda namoyon bo‘ladi. Bu holat, kinoyani tilning ikkilamchi nomlash vositasi sifatida baholashga asos yaratadi. Kinoyada ma’no to‘g‘ridan emas, balki ziddiyatli va kontekstual munosabatlar orqali ifoda etiladi, bu esa uni semantik ko‘pqatlamlilik va ma’no satirasi bilan ta’minlaydi.

Kinoyaning pragmatik xususiyatlari esa uning muloqot jarayonidagi maqsad va ta’sir darajasi bilan bog‘liq. Olimaning fikricha, kinoya — bu nafaqat ma’noni aks ettirish vositasi, balki nutq subyektlarining munosabatini ifoda etadigan, muloqot davomidagi psixologik va ijtimoiy pozitsiyalarni ochib beruvchi vositadir. Kinoya orqali so‘zlovchi o‘z fikrini to‘g‘ridan aytmasdan, masofali va yumor orqali so‘zlaydi, bu esa nutqda pragmatik effekti — ta’sirchanlik va murosasiz tanqidni yumshoq shaklda ifoda qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, kinoyaning kommunikativ funksiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning vazifasi nafaqat ma’lumot etkazish, balki baholash, munosabat bildish va tafakkurni yuritish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Mazkur funksiya kinoyani tilning ekspressiv vositasi sifatida joylashtiradi. U orqali nutq subyekti real voqelikka tanqidiy, ko‘p hollarda masxaraomuz munosabat bildiradi. Bu esa kinoyani nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va madaniy baholashning lingvistik ifodasiga aylantiradi. Bir so‘z bilan aytganda, kinoya lingvistik tahlil uchun boy manba bo‘lib, u orqali insonning ijtimoiy tafakkuri, emotsional holati va til orqali ta’sir o‘tkazish qobiliyatini anglash mumkin bo‘ladi. Mazkur tahlil kinoyaning lingvistik tabiatini to‘liqroq yoritishga hamda uning nutqdagi xususiyatlarini ilmiy asosda tasniflashga zamin yaratadi.

Jahon tilshunosligi tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, Yevropa madaniyatida Suqrot rimlik taniqli olim va notiq Sitseron hamda Kvintilianlar sabab ironiyaning asoschisi sifatida tanilgan. Suqrotning ironiyaga birinchilardan murojat qilgani Aristotel asarlarida uchraydi.

Aleksey Fyodorovich Losev "Antichnaya filosofiya: Uchebnoye posobiye" asarida Suqrotning ironiyasini falsafiy uslub, ya’ni dialektik metod sifatida talqin qiladi. U Suqrotning ironiyasi, o‘zini bilib turib bilmaslikka solish, shundan kelib chiqib muloqotdagi insonning o‘z fikrini qayta ko‘rib chiqishga majbur qilish, deb baholaydi. Losev ta’kidlaydiki, Suqrotning bu uslubi Aristotel orqali Yevropada tan olingan va keyinchalik Sitseron va Kvintilianlar tomonidan ritorikada qo‘llanila boshlangan. Uning fikriga ko‘ra, Suqrotning ironiyasi – bu faqat masxara emas,

balki falsafiy tanqidiy fikrlashning negizidir. “Suqrotning ironiyasi — bu chinakam bilishga intilishning ifodasi. U o‘zini bilib turib bilmaslikka soladi, ammo mana shu bilmaslik orqali muloqotdoshini o‘ylashga majbur qiladi”.

Aleksandr Fyodrovich Losev o‘zining “Istoriya antichnoy estetiki. Sofisti. Sukrot. Platon” nomli fundamental asarida Suqrot ironiyasini faqatgina ritorik yoki tanqidiy voqea sifatida emas, balki chuqur falsafiy va ma’naviy jarayon sifatida talqin qiladi. Olimning fikriga ko‘ra, Suqrotning ironiyasi nafaqat ritorik strategiya, balki shaxsiy nuqtai nazari, axloqiy pozitsiyasi va bilishning ichki usulidir. Suqrot o‘zini doimo “bilmas” sifatida namoyon qilib, muloqotdoshini mulohazaga tortadi va uni o‘z fikri ustidan qayta-qayta o‘ylashga undaydi. Suqrotning “men hech narsani bilmayman” degan shiori ortida ironiya yashiringan bo‘lib, bu orqali u atrofidagilarni bilishning mohiyati ustida fikrlashga undaydi. Bu shakldagi ironiya axborot almashinuvi emas, balki bilish jarayoniga etaklovchi o‘zaro muloqot formasi sifatida qaraladi. U “men bilmayman” degan nuqtai nazar orqali suhbatdoshning zaif joylarini fosh etadi va haqiqat sari etaklaydi. Losevning fikricha, aynan mana shu tipdagi ironiyani Aristotel ham qayd etgan va keyinchalik Sitseron hamda Kvintilian tomonidan ritorikada alohida maqom sifatida qabul qilingan. Losev Suqrot ironiyasini “chinakam bilishga intilish” sifatida baholab, uni axloqiy-intellektual harakat deb hisoblaydi. Bu ironiya faqat tanqidiy munosabat emas, balki shaxsiy kamtarlik va bilishga muhtojlikni anglatuvchi falsafiy uslubdir. Shunday qilib, Suqrotning ironiyasi zamonaviy tilshunoslik va falsafa uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hamma antik davr tadqiqotchilari ham Suqrot istehzosini haqiqatga erishish vositasi deb hisoblamaydilar. A. Nehamas tomonidan faylasufning nutqiy xatti-harakatiga boshqacha talqin taklif etiladi. Uning fikricha, ironiya – bu ritorik uslubdan ko‘ra ko‘proq boshqalarga etishib bo‘lmaydigan bilim orqali o‘zining alohidaligini ko‘rsatish taktikasidir. Aynan shu sababli bunday istehzo doimo shubha bilan qabul qilinadi. A. Nehamas ta’kidlashicha, Platonning ilk dialoglarida Suqrot ironiyani maqtanchoqlikning bir ko‘rinishi deb biladi va suhbatdoshlar tomonidan o‘ziga nisbatan shubhali munosabatni oldindan sezadi.

"Ironiya – bir narsani aytib, aslida uning butunlay qarama-qarshi ma’nosini nazarda tutish usuli", tarzidagi ta’rif an’anaviy ravishda qadimgi Rim notiqlaridan biri – Mark Fabiy Kvintilian nomi bilan bog‘lanadi. Faylasuf ironiya haqida fikr yuritar ekan, u rimlik notiq Platon va Aristotelning asarlariga tayanadi.

Kvintilian ironiyani ritorik figura sifatida butun nutq, matn yoki hatto shaxsning xususiyati sifatida ajratib ko‘rsatadi. Ushbu қарама-қарши қўйиш асосида унга бўлган иккита асосий: риторик ва фалсафий ёндашув ётади.

Kvintilian o‘zining "Notiqlik san’ati bo‘yicha yo‘riqnomasi" asarida ironiya haqida quyidagicha yozadi: Men ironiyani "yashirish", "pinhon qilish" deb ataganlarni uchratdim: biroq bu nom figura kuchini to‘liq ochib bermaydi. Shunday qilib, ironiya tropga juda yaqin turadi, chunki aytilgan narsaning aksini tushunish kerak; biroq bu farqni teranroq qaragan kishi osonlik bilan ilg‘aydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ironiya inson nutqi va fikrlash madaniyatida muhim o‘rin tutadi. U faqat so‘z o‘yini emas, balki murakkab ma’nolarni ifoda qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Milliy madaniyat ironiyani qanday qabul qilishi va qanday shaklda ifoda qilishi xalqning tarixiy tajribasi va qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek xalq maqollari ironiyaning til va madaniyat o‘rtasidagi o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi. Ularda hayot tajribasi, inson fe’l-atvoriga bo‘lgan munosabat va ijtimoiy qadriyatlar o‘ziga xos lingvistik shaklda ifodalangan. Ironiya tilning semantik imkoniyatlarini boyitadi va interpretatsiya imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan ironiyaning o‘rganilishi tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kognitiv fanlar kesishmasida amalga oshirilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Mueske D.C. The compass of irony. -London: Methuen d LTD, 1969. C.10. –P.276.
2. Grice H. P. Logic and conversation. — In: «Syntax and semantics», v. 3, ed. by P. Cole and J. L. Morgan, N. Y., Academic Press, 1975, p. 41—58.
3. Дўстмуҳаммедов Ҳ. Ўзбек тилининг услубият асослари, -Тошкент, Фан,1995.Б.59. **300 бет.**
4. bestpublication.org
5. science.i-edu.uz *Архив Научных Публикаций JSPI*, 2020 йил, 96-сон.
6. pshedu.jdpu.uz
7. Лосев А.Ф. Античная философия: Учебное пособие. – Москва: “ФОЛИО”, 2000. С.84. Стр.850
11.Фозилов М. Фарҳанги зарбулмасал, маќол ва афоризмҳои тољикию форсї. - Душанбе: Ирфон. 1974.-234с.

ТАРБИЯИ ХУДШИНОСӢ АЗ ДИДГОҲИ АБДУРАҲМОНИ ҶОМӢ

Қаюмова Феруза Абдувойитовна
номзади илмҳои филологӣ, дотсенти кафедраи фанҳои гуманитарӣ ва ҷомеашиносии
МДТ “ДДХ ба номи академик Б. Ғафуров” (Тоҷикистон, Хуҷанд)
simin36@mail.ru mailto:nematova.1968@mail.ru

Дар ҳақиқат, насли аз ҳар ҷониб мукаммал ва огоҳро тарбия намудан аз вазоифи муҳими ҷомеаи имрӯз ба шумор меравад. Зеро маҳз ҷавонон созандаи ҷомеаи мутамаддини оянда мебошанд. Яке аз роҳҳои беҳтарине, ки мардумро аз ҳар гуна хатарҳои моддиву маънавӣ наҷот мебахшад, ин рӯ овардан ба андешаҳо ва раҳнамоиҳои ниёгони худ, олимон ва ҳакимон, хоса адибони классикӣ ва муосир мебошад, ки эшон бо нигоҳи дурбинонаи худ роҳу равишҳои зиёди пешравии маънавӣ ва камолоти инсониро нишон медиҳанд. Суханварони классики мо дар намуди жанрҳои гуногуни адабӣ андешаҳои мушаххаси худро доир ба тарбияи инсони комил, огоҳ ва худшинос, инчунин омилҳое, ки барои амну осоиши мардум заруранд, дақиқназарона баён намудаанд. Бо сабаби таълифи мақолаи мазкур банда ба осори пурмӯҳтаво ва андешаҳои ҳакимонаи мутаффакири бузурги Машриқзамин, шоири барҷастаи асри XV Абдураҳмони Ҷомӣ рӯ овардам ва барои тақвияти фикрҳои худ аз осори ин суханвари бузург мадад ҷустам. Зеро Абдураҳмони Ҷомӣ дар баробари олим ва адиби барҷастаи давр будан, яке аз нафарони пешрафтаву соҳибмақоми замони худ ва шахси огоҳ аз давлатдориву раъиятпарварӣ маҳсуб меёфт. Дар осори шоир андешаҳои фаровонеро пайдо кардан мумкин аст, ки дар ҳақиқат, барои бунёд сохтани ҷомеаи комилан иттифоқ, соҳибфарҳангу эмин аз ҳар гуна хислатҳои зиддиинсонӣ ҳидоят месозад.

Мо асосан ба достони “Хирадномаи Искандарӣ”-и Ҷомӣ такя намудем, ки яке аз маснавиҳои беҳтарини ахлоқии таркиби “Ҳафт авранг”-и шоир мебошад. Чи тавре ки дотсент М. Ӯрунова дар як мақолаи худ дар атрофи мазмун ва мундариҷаи ин достон муфассал сӯҳбат ороста, дар оғози андешаҳояш зикр менамояд, ки “... ҳарчанд перомуни достони мазбур пажӯҳишоти мухталиф анҷом пазируфтаанд(дар ин ҷо М. Ӯрунова ба корҳои дар ин мавзӯъ ба анҷомрасида ишора дорад – Қ. Ф.), аммо дар хусуси мӯҳтавои асар ва афкори ахлоқии Мавлоно Ҷомӣ дар он маълумоти комил

пайдо кардан ғайриимкон аст. Ҳол он ки суханвар дар асар бисёр “масъалаҳои фалсафӣ-таълимӣ ва ҳикмату ахлоқро пеш гузошта, онҳоро аз мавқеи гуманистӣ ҳал менамояд” (6, 22). Аз ин ҷиҳат, мо ба таҳлили баъзе андешаҳои Ҷомӣ дар мавриди мардумпарвариву адлу ҷуд ва худогоҳиву худшносӣ, ки дар якҷоягӣ ба амну осоиши мардум мусоидат мекунанд, пардохтем.

Дар назари Ҷомӣ омили нахусти инсонӣ ва ҷамъияти солим ин соҳибдониш будан аст, ки шахсро аз хислатҳои зиёди манфӣ бозмедорад:

Зи дониш шавад кори гетӣ ба соз,
Зи бедонишӣ кор гардад дароз.
Зи дил сар занад сирри дониш нахуст,
Ки бар дасту по кор гардад дуруст (1, 262).

Дилатро ба донишварӣ дор хуш,
Чу донистӣ, он гоҳ дар кор кӯш (1, 263).

Дар ҳақиқат, инсоне, ки соҳиби дониш аст ва дорои фарҳанги миллӣ аст, ҳаргиз ғофилона ва гумраҳона ба ҳар гуна тариқи бесамару бадоқибат рӯ намеоварад. Чунон чи имрӯз дар ҷаҳони муосир чандин гурӯҳҳои экстримистӣ, офатҳои нашъамандиву бадахлоқӣ ва мисли ин муаммоҳои зиёде вуҷуд доранд, ки ба рӯҳият, маънавият, эътиқод ва амнияти халқҳои ҷаҳон зарар мерасонанд. Мутаасифона, ин таъсирҳои пуросеби беруна дар кишвари мо низ беасар нест. Ҷавонони зиёди мо аз ҷиҳати ноогоҳӣ ва дониши кофӣ надоштан дар мавриди улуми диниву дунявӣ фирефтаи кӯшишҳои бадбинонаи қувваҳои беруна гардидаанд, ки пушаймонии онҳо пас аз даргузашти вақт бесуд хоҳад буд. Абдураҳмони Ҷомӣ дар “Хирадномаи Искандарӣ” дар ин маврид чунин менависад:

Ҷаҳоне шуда з-ин бутон хоксор,
Бутонро ба он бутпарастон гузор.
Кун аз сачдаи бут рухи хеш пок,
Агар дигаре бут парастад чӣ бок?
Ба дил ношуда майли дунёт сахт,
Бикаш аз ҳарими таманнош рахт.
Ба ибрат зи пешиниён ёд кун,
Дил аз ёди пешиниён шод кун(1, 284).

Ин порча ҳидоят бар он мекунад, ки ҳар нафаре, ки худшиносу худошиносу худогоҳ аст, ҳаргиз “бутпарастӣ”, яъне бегонапарастӣ намекунад. Ба арзишҳои миллии худ эҳтиром мегузорад ва бар зидди эътиқоди гузаштагонаш рафтори ношоистаро ба амал намеоварад. Он

ҷавононе, ки аз ноогоҳӣ ва ғофилии худ ба бегонапарастӣ даст заданд, яъне дар умеди маблағҳои бегонагон (шахсоне, ки дар зери ниқоби “ислом” бо ваъдаҳои пуч як қисм ҷавонони моро аз ватани осудаву соҳибистиқлоли худ берун карданд), хонаи ободи худро тарк карданд ва ба хидмати “дигарон” камар бастанд, “нафарони кӯре, ҳастанд, ки дар даст чароғ дораду роҳи ғайр равшан мекунанд, аммо худ аз рӯшноии он чароғ баҳраманд шуда наметавонанд”:

Чу аъмо, ки бошад чароғаш ба каф,
Фурӯғи чароғаш фитад ҳар тараф.
Бувад равшан аз вай раҳи дигарон,
Раҳи вай аз он рашванӣ баркарон.
Ба ҳар кас раҳи ошноӣ мапӯй,
Зи ҳар ошно рӯшноӣ маҷӯй (1, 285).

Айнан ҳамин гумроҳӣ халали ҷиддӣ ба амну осоиши мардум мерасонад ва аз “дуди сияҳ”-и он ба касе накӯӣ намерасад, ки ин масъала аз назари Ҷомӣ чунин арзёбӣ шудааст:

Зи гумкардараҳ раҳнамоӣ кӣ ёфт,
Зи дуди сияҳ рӯшноӣ кӣ ёфт.
Зи сарчашма чун талху шӯр ояд об,
Зи лабташнагон кай барад таффу тоб (1, 278).
Ё ҷои дигар менависад, ки:
Макун ҳамнишинӣ ба ҳар бадсиришт,
Ки дуздад аз ӯ табъи ту хӯи зишт (1, 285)

Дар ҳақиқат, амалҳое, ки бар мақсадҳои баду манфиатпарастӣ бунёд ёфтаанд, касро ҳаргиз ба рӯшноӣ намебарад ва боиси парокандагӣ ва торикии ақли мардум мегардад. Бояд ба нияту амали нек ба манфиати мардум хидмат намуд, зеро:

Гар ислоҳи халқи ҷаҳон боядат,
Дил аз ҳар бадӣ баркарон оядат.
Нашуста зи худ ҳарфи айб аз нахуст,
Зи ту айбшӯӣ наояд дуруст(1,278).

Мусаллам аст, ки дар тамоми осори Абдураҳмони Ҷомӣ раъиятпарварӣ ва адолатхоҳӣ дар мадди аввал меистад. Шоир хоса ононе ки мардумро сарварӣ мекунанд ва зиндагии мардум бо эшон сахт робита дорад, ба мардумнавозӣ раҳнамун месозад ва менависад:

Маяфган ба кори раият гирех,
Худо он чӣ додат, ба эшон бидех.
Тараҳҳум куну афву бахшиш намой,

Ки инҳо расидат зи фазли Худой (1, 278).
Садои хуш аст ин куҳан тоқро,
Ки адл аст маъмурӣ офоқро(1, 246).
Ҳар он дил, ки аз адл ҷон парварад,
Куҷо рӯ ба зулмоти зулм оварад(1,246).

Маснавии “Хирадномаи Искандарӣ” ва “Искандарнома”-ҳои дигар низ маҳз ба нийяту орзуи ботинии шоирони классикӣ ин буд, ки шоҳ бояд одилу оқил, саховатманду раиятпарвар бошад. Хушбахтона, ин орзуву ормони деринаи мардум дар замони мо амалӣ гашт ва аз некӯиҳо ва раъиятпарварии подшоҳи воломақоми худ ҳамагон баҳраманду сарбаланд ҳастем:

Ки табъи шаҳ аз ҳар ғам озод бод,
Ба адлаш ҳама олам обод бод.

Дар маҷмӯъ, ҳама он порчаҳои шеърие, ки аз ин маснавии пурмӯҳтавои Абдураҳмони Ҷомӣ оварда шуд, барои тарбияи инсони комил ва такмили хислатҳои некӯи одамӣ роҳҳои хуби пурсамарро нишон медиҳад ва мо - ҷавонони имрӯзаро боз ҳам огоҳтар месозад, то бо истифода аз ин имконоти мавҷуда, корҳои шоистаеро дар ҷодаи илму фан, дар бунёди оила ва ҷомеаи ахлоқан солим ба анҷом расонем. Хуб мешуд, ҷавонон, ва ҳатто волидайне, ки имрӯз насли хурдро ба воя расонида истодаанд, дар тарбияи фарзандони хеш дар мавридҳои муносиб рӯ ба осори пурғановат ва пурҳикмати ниёгони худ ованд ва ба ин восита дилбандони худро ба худшиносиву комилӣ ва огоҳиву пешравии маънавӣ ҳидоят созанд.

АДАБИЁТИ ИСТИФОДАШУДА

1. Абдураҳмони Ҷомӣ. Осор (иборат аз ҳашт ҷилд, ҷ.5). –Душанбе: Адиб, 1988.-384 с.
2. Афсаҳзод А. Рӯзгор ва осори Абдураҳмони Ҷомӣ.- Душанбе: Дониш, 1980.
3. Паём –ҳидоятномаи миллат. Хуҷанд: Нури маърифат, 2017. -200 саҳ.
4. Паёме ба сӯи зиндагии шоиста. Хуҷанд: Меъроҷ, 2015.-56 саҳ.
5. Пешвои миллат – ҳадяи таърих ба тоҷикон. Хуҷанд: Нури маърифат, 2016.-64 с.
6. Ӯрунова М. Ҳикмати Мавлоно Ҷомӣ дар “Хирадномаи Искандарӣ”//Камоли Хуҷандӣ, №4(4), 2015. саҳ. 22-34

РУМИЙНИНГ БИР МУЛАММАЪ ҒАЗАЛИ ҲАҚИДА

Суюнов Мавлонберди Раҳмонович,
“Академик Бобожон Ғафуров номидаги Хўжанддавлат университети” ДТМ доценти филология фанлари номзоди
(Тожикистон)
Моб. тел: +992 92 962 23 49

***Аннотация*:** Мақолада Жалолиддин Румийнинг бир муламмаъ ғазали тадқиқ этилди. Унда зуллисонайн шоирнинг тожик ва ўзбек тиларида ёзилган ғазали таҳлил қилинди. Шунингдек, ғазалда қўлланган тимсоллар ҳамда бадиий санъатларга ҳам эътибор қаратилди.

***Аннотация*:** В статье рассматривается газель Джалалуддина Руми. Анализируется газель, написанная великим поэтом на таджикском и узбекском языках. Также уделяется внимание образному строю и художественным приемам, использованным в газели.

***Annotation*:** The article examines a ghazal by Jalaluddin Rumi. It analyzes the ghazal written by the great poet in Tajik and Uzbek. Attention is also paid to the imagery and artistic techniques used in the ghazal.

Таянч сўз ва иборалар: анъана, ўзига хослик, маҳорат, ғазал, талқин, вазн, қофия, радиф, муламмаъ, образлар.

***Ключевые слова и выражения*:** традиция, своеобразие, талант, газель, сравнение, размер, рифма, редиф, муламма, образы..

***Key words and phrases*:** tzadition, follower, influence, originality skill, ghazal, vazn, rhyme, radif ,interpretation, emulate,comperative analysis mulamma, imagery.

Мавлоно Жалолиддин Румий (1207-1273) тожик мумтоз шеъриятида ғазалчиликни юксак чўққига кўтарган мумтоз шоирлардан бири ҳисобланади. Ғазал жанри улуғ шоир адабий меросининг салмоқли қисмини ташкил этади. Дарвоқе, Румийнинг “Девони кабир” (“Девони Шамси Табрезӣ” ҳам дейилади) да 3229 ғазал берилгани фикримизнинг далилидир. Румий тожик ғазалчилигида ўзига хос янгиликлар яратган буюк шоирдир. Биринчидан, унинг ғазаллари ўйноқи ва равонлиги, тилининг содда ва тушунарлилиги билан ажралиб туради. Румий ғазалларининг яратилганига саккиз аср бўлаётган бўлса-да, улар ҳозирги ўқувчилар учун ҳам мураккаб

эмаслиги кишини ҳайратга солади. Иккинчидан, Румий ғазаллари ҳажмида ўзига хослик бор. Улар етти ва тўққиз байтдан йигирма ва ҳатто ўттиз байтгача ҳажмда яратилган. Улуғ шоир ғазаллари ҳажмининг бундай кенглиги мавзуни мукаммал ва кенг ёритиш ва илҳом билан кенг фикрлашга вобаста дейиш мумкин. Учинчидан, Мавлоно ғазаллари мавзу доирасининг кенглиги, олға сурилган фикрларининг қамровлилиги ва тимсолларининг рангбаранг-лиги билан диққатга сазовор. Чунончи, улуғ шоир ғазалларида ошиқ, маъшуқа, рақиб, ринд, мутафаккир, ориф, обид, зоҳид, фақир тимсоллари билан бирга, май, ой, қуёш, гул, булбул, тупроқ, нур, қанд, заҳар, юлдуз, шам, баҳор, шом, нафс сингари сўз образлар ҳам кенг қўлланганини кўриш мумкин. Тўртинчидан, Румий ғазаллари бадиий тасвирий воситаларга бойлиги ва умуман, бадиий юксаклиги билан алоҳида эътиборга молик.

Мавлоно ғазалларида бадиийликни шеър санъатларигина эмас, шунингдек, мукаммал ички қофиялар (мусажжаъ усули), ширу шакарлар (тожикча-ўзбекча, тожикча-арабча), тимсолларнинг сўз ўйинларига ўралган диалоглар ҳам яратганки, булар барчаси улуғ шоирнинг юксак маҳоратидан дарак беради. Шу ўринда ички қофия хусусида қуйидаги маълумотларга ҳам эътибор қаратиш ўринлидир: “Ички қофия асосий қофиядан ташқари шеърнинг ички байт ва мисраларида келадиган қофия. Ички қофия гоҳ мисра, гоҳ байт доирасида бўлади. Мисрадаги ички қофияланиш мисра, сажъ байтдагиси байт сажъ деб ҳам юритилади. Ички қофияда шеърий сажъ иштирок этгани туфайли у санъатни мусажжаъ ҳам дейдилар. Ички қофиялар шеърни равонлигини ва ифодалилигини оширишга, унга алоҳида оҳангдорлик ва мусиқийлик бағишлайди...”[4]. Чунончи, қуйидаги мисраларда ишқ юксакка кўтарган лирик қаҳрамон завқ-шавқи шу қадар самимий ва таъсирли чизиладики, ундаги тасвир ўқувчини ҳам ҳаяжонга солмай қўймайди:

Мурда будам, зинда шудам, гиря будам, ханда шудам,
Давлати ишқ омаду ман давлати поянда шудам.
Дидаи сер аст маро, хони далер аст маро,

Захраи шер аст маро, Зўҳраи тобанда шудам (1, 79).

Йигирма байтли бу ғазал бошдан-охир ички қофияла ёзилган. Шеърда лирик қаҳрамон ҳақиқий ошиқ тимсолида намоён бўлади. Ишқ унинг вужудини шу қадар эгаллаганки, маъшуқа нима деса бажаришга тайёрлигини намойиш этади. Румий ғазал бошида лирик қаҳрамонни дунёвий ошиқ сифатида чизса-да, шеър охирида эса унинг ориф ошиқлигини

1. **Алишер Навоий энциклопедияси. 4 жилдлик, 2 –жилд. –Тошкент, 64 -65 б.**

бадиий исботлаб беради. Ғазал шунинг учун ҳам чўзилган. Лекин шеърдаги ўйноқи оҳанг, ёқимли мусажжаъ, маъшуқа нутқидаги кутилмаган фикрлар ва ошиқнинг ўзига хос фидойилиги тасвирлари ҳажмий кенгликни ихчамлаштиргандай таассурот қолдиради.

Мавлоно ғазалларининг кўпчилиги ички қофияларда ёзилганки, бу ҳол улуғ шоирнинг сўз бойлиги ниҳоятда кенг кўламли бўлганлигини кўрсатади. Воқеан, Румий ғазалларида кўпинча ҳам ошиқ ва маъшуқа диалоглари, ҳам муаллиф нутқи тўлақонли ички қофияларда келганини кўриш мумкин:

Гуфтам, ки: «Аҳд бастам в-аз аҳди бад бирастам»,

Гуфто: «Чӣ гуна бандӣ, чизе ки ман шикастам?»,

Бо вай чу шаҳду ширам, ҳам доманаш бигирам,

Аммо чӣ гуна гирам, чун ман шикастадастам (1,95).

Румийнинг ширу шакарлари ҳам унинг юксак бадиий, маҳоратига далилдир. Улуғ шоирнинг тожикча-ўзбекча ширу шакарлари Мавлононинг тожик тили каби ўзбек тилини ҳам мукаммал билганлигини ва у тилнинг бадиий бойликларидан маҳорат билан фойдалана олиш даражасидаги етук ижодкор бўлганлигини кўрсатади. Воқеан, шунинг учун ҳам Румий девонидан кўплаб бадиий етук тожикча-ўзбекча ширу шакарлар ўрин олган. Улуғ шоир

яратган ширу шакарлардан бирининг қуйидаги мисраларида тожикча ва ўзбекча сўзлар шу қадар юксак маҳорат билан бир-бирига боғланганки, улар

кишини ҳайратга солади. Аммо энг ҳайратлиси шундаки, ғазалдаги тожикча сўзлар ҳам, ўзбекча калималар ҳам ғоят содда ва тушунарли бўлиб, у замондош шоир томонидан яратилгандек таассурот қолдиради:

Донӣ, ки ман зи олам ёлгиз сани севарман,
Гар дар барам наёи, андар ғамат ўларман.
Ман ёри бовафоям, бар ман ҷафо қилурсан,
Гар ту маро нахоҳи, ман худ сани тиларман.
Рӯи чу моҳ дори, ман содадил аз онам,
З-он шаккари лабонат бир-иккина тиларман.
Ту ҳамчу шери масти, мани қоним ичарсан,
Ман чу сагони кӯят дунболи ту кезарман...
Моҳе чу Шамси Табрез ғайбат намуду гуфто:
Аз ман дигар мапурсед, ман сўйладим, борарман (2, 14).

Жалолиддин Румийнинг ғазалнавислик маҳорати улкан тадқиқотларга мавзу бўлган ва яна бўла олади Адабиётшуносларимиз олдида улуғ шоир ғазалларини ва умуман, унинг барча асарларини мукаммал таҳлил қилиш вазифаси турибди. Ўзбек шоирлари зиммасида эса, Румийнинг бебаҳо ғазалларини тўла таржима қилишдек шарафли, шу билан бирга, гоят масъулиятли вазифа турганлигини ҳам унутмаслик лозим. Зеро, Румий ўзбек халқининг ҳам энг севимли шоиридир. Шунинг учун ҳам бу долзарб вазифаларни кечиктирмаслик лозим, деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар:

1. Румӣ Ҷ. Сад барги газал. Хуҷанд: Нури маърифат, 2007.
2. Румӣ Ҷ. Девони кабир, ҷилди 2.- Душанбе: Адиб, 1993.
3. Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий. Куллиёт. Биринчи жилд. Биринчи китоб. (Таржима шарҳи билан). Тошкент: “Шарқ”, 1999.-368 б.
4. Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий. Куллиёт. Биринчи жилд. Иккинчи китоб. (Таржима шарҳи билан). Тошкент: “Шарқ”, 2007.-274 б.
5. Жалолиддин Румий. Маснавий ҳикоятларига шарҳлар. – Тошкент: “Муҳаррир нашриёти”, 2011.-404 б.
6. Радий Фиш. Жалолиддин Румий. Тарихий биографик роман. Тӯртинчи нашр.- Тошкент, 2021. – 368 б.
7. Румий Жалолиддин // Алишер Навоий энциклопедияси. 4 жилдлик,3-жилд. – Тошкент, 2024, - 371 – 376 - б.

МУМТОЗ АДАБИЁТДА ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИ МАСАЛАСИ

(Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий ижоди мисолида)

Файзуллоев Бахтиёр Бобожонович,
“Академик Бобожон Ғафуров номидаги Хӯжанд давлат университети” ДТМ доценти филология фанлари номзоди
Бойматов Шавкат Зикруллоевич,
катта ӯқитувчи
(Тожикистон)
Email:b.fayz.1961@mail.ru

***Аннотация*:** Ушбу мақола мумтоз адабиётда ёшлар маънавияти масаласи тадқиқига бағишланди. Унда тожик ва ӯзбек мутафаккир шоирлари

Мавлоно Абдураҳмон Жомий ҳамда Амир Алишер Навоий ижоди мавзу доирасида таҳлил этилди. Таҳлил жараёнида ҳар икки мумтоз шоирнинг лирик шеърлари ва достонларида инсон маънавиятини шакллантиришга доир мавжуд масалаларга эътибор қаратилиб, уларга доир хулосалар берилди.

***Аннотация*:** Данная статья посвящена изучению вопроса духовности молодежи в классической литературе. В рамках темы анализируется творчество таджикских и узбекских мыслителей Мевлана Абдурахмона Джоми и Амира Алишера Навои. В ходе анализа уделено внимание вопросам формирования духовности человека в лирических поэмах и эпосах обоих поэтов-классиков, даны предварительные научные выводы по ним.

***Annotation*:** The given research work dwells with the study of youth spirituality in classical literature. Within the framework of the topic, the works of Tajik and Uzbek thinkers Mevlana Abdurahmon Jomi and Amir Alisher Navoi are analyzed. Attention is paid to the issues of the formation of human spirituality in the lyric poems and epics of both classical poets, and preliminary scientific conclusions are given on them.

Таянч сўз ва иборалар: анъана, таъсир, ўзига хослик, маҳорат, ғазал, татаббу, талқин, вазн, қофия, радиф.

Ключевые слова и выражения: традиция, влияние, своеобразие, талант, газель, татаббу, сравнение, размер, рифма, редиф.

Key words and phrases: tzadition, follower, influence originality skill,ghazal, tatabbu, vazn, rhyme, radif , interpretation, emulate,c omperative analysis

Тожик ва ўзбек мумтоз адабиётида ёшлар тасвири ва улар фаолиятининг талқини муҳим ўрин тутади. Бунинг манбаси эса халқ ва унинг бунёдкор, жасур, ғайратли ва меҳнатсевар, билимли фарзандларига бориб тақалади. Чунки халқ фарзандлари ҳаётнинг бош қаҳрамонлари бўлиши билан биргаликда, барча даврларда ёзма адабиёт учун ҳам, оғзаки ижод учун ҳам асосий манба вазифасини бажариб келган. Воқеан, халқ оғзаки ижодида ўз бахт-саодати, шунингдек, халқ ва она-Ватан тинчлиги, фаровонлиги ҳамда порлоқ келажаги учун курашувчи асосий қаҳрамонлар ёшлар эканлиги бежиз эмас. Буни «Алпомиш», «Гўрўғли» ва бошқа халқ достонларида, «Уч оға-ини ботирлар», «Маликаи Ҳуснобод», «Муқбил тошотар» сингари кўплаб эртакларда яққол кўриш мумкин.

Зеро, ҳаётнинг ўзида ҳам асосий яратувчи куч, тинчлик посбонлари, фаровонлик заҳматкашлари, бахт ва саодат учун курашувчилар билимли ёшлардир. Шунинг учун ҳам кейинги пайтда Ўзбекистон ҳамда Тожикистон Президентлари келажак варислари бўлган – ёшларга алоҳида эътибор

қаратиётгани бежиз эмас. Шу нуқтаи назардан мумтоз адабиёт вакиллари ижодидаги асосий бош қаҳрамонлари ҳам ёшлар бўлиб келган. Буни Мавлоно Абдураҳмон Жомий ва Амир Алишер Навоий ижодида кузатиш айниқса, уларнинг шеърларидаги лирик қаҳрамонлар ҳамда достонларидаги асосий образлар мисолида янада ёрқинроқ акс этганига гувоҳ бўлиш мумкин.

Ўз ижодида ёшлар ҳаёти, уларнинг маънавияти, фаолияти, пок муҳаббати, кураши, интилиши ва тарбияси масалаларига катта эътибор қаратган мумтоз ижодкорлардан бири - буюк тожик шоири, олими ва мутафаккири Мавлоно Абдураҳмон Жомий (1414-1492)дир. Жомий лирикаси қаҳрамонлари ошиқ, маъшуқа, шоирнинг ўзи, пок сўфий, мутафаккир устоз, Аллоҳ ва пайғамбар (с) бўлиб, улар орасида ошиқ ва маъшуқа образлари юксак мавқеда ифода этилгани билан бадиий қиммат касб этади.

Шоир тасвиридаги ошиқ - ёш, кўркам, фидойи йигит. Маъшуқа ҳам ёш, илоҳий ҳусн акс этган ғоятда гўзал қиз. Бу икки образ Жомий лирикасининг асосий тимсоллари сифатида чизилган. Жомий ошиқ ва маъшуқа образларини ишқ билан боғлаб, уларни яхлит ҳолатда тасвирлайди. Чунки ишқ, ошиқ ва маъшуқага хосдир:

Маъшуқу ишқу ошиқ ҳар се якест он чо,
Чун васл дарнагунчад, ҳичрон чӣ кор дорад?

Жомий талқинича, ишқ, ошиқ ва маъшуқа орасида пайдо бўлар экан, у покиза бўлиши керак. Чунки пок бўлмаган ишқ булҳаваслик бўлиб, у инсонни бахтли қилмайди. Ишқ йўлидаги бахт фақат уни пок тутиш билан қўлга киритилади. Шунингдек, Жомий талқинидаги ошиқ йигит байналмилал инсон. У тожик йигити бўлса-да, турк-ўзбек гўзалини севади. Унинг чиройли кўзи ва ширин лабларига мафтун бўлиб, умрининг охиригача ундан ўзгани демасликка қасамёд қилади:

Нестам чун ёр туркигў, вале то зиндаам,
Чашми турку лаъли туркигўи ўро бандаам.

Эътиборли томони шундаки, гарчи улар бир-бирларининг тилларини билмасалар ҳам, ишқ кўнгилга тегишли бўлганлиги сабабли қалбан бир-бирларини яхши кўрадилар. Ошиқ йигит маъшуқасини ўтган кун кўрмаган пайтида қалбида унга нисбатан кучайган шавқдан ўладиган ҳолатга етса, маъшуқа келгач, бу шавқ икки баравар кучайиб, бугун у юз баравар ортиб кетади:

Маҳи турки забони ман надонад форсӣ чандон,
Чу гўям бўса деҳ, мушкил ниҳад бар форсӣ дандон.
Парерам буд дар дил шавқи ў чандон, ки мемурдам,
Чу омад дӣ, дучандон гашту ҳаст имрўз садчандон.

Бу ишқий мисраларда ҳақиқий дунёвий ошиқ ва ҳаётий маҳбуба образлари чизилганлиги диққатга сазовор. Шоир талқинича, ёшлар қалбидаги муҳаббат шундай самимий, пок, эҳтиросли, миллат танламайдиган ва мафтункор бўлиши лозим. Жомий достонларидаги Юсуф, Зулайхо, Мажнун, Лайли, Искандар сингари образлар ҳам шундай ёшлардир. Шоир талқинида улар пок муҳаббатли, беғубор, камтар, ўқимишли, сахий ва олижаноб; халқпарвар, интилувчан, қийинчиликлардан қўрқмайдиган; ғайратли, сезгир, фидойи, софдил ва эзгу орзу-тилакли ёшлар сифатида чизилган.

Жомий тасвиридаги ана шундай мукаммал ёшлар образидан бири Юсуфдир. У ёшлигидан ўзининг гўзаллиги, ақл-идроки ва камтарлиги билан ҳаммани мафтун этади. Акалари унинг яхши фазилатларига зоҳиран тан беришса-да, ичларида уни кўролмайдилар. Шу сабабли турли йўллар билан унга ёмонлик қилишга ва ҳатто уни йўқотишга интиладилар. Юсуф эса акаларини кечириб, улар билан яхши муносабатда бўлишга интилади. Акалари эса ёмонликни давом эттириб, Юсуфни Мисрга кетаётган савдогар Моликка сотиб юборишади. Мисрда Юсуфни Зулайхо сотиб олади.

Зулайхо аслида Мағрибшоҳнинг қизи эди. У Юсуфни тушида кўриб, севиб қолади. Уч марта Зулайхонинг тушига кирган Юсуф учинчи мартасида ўзини Миср азизи, яъни Миср бош вазири деб таништиради. Бундан қувонган Зулайхо тушини ота-онасига айтиб, фақат Миср азизига турмушга чиқиш ниятини маълум қилади. Ягона қизларининг бахтини истаган ота-она Миср азизига совчи жўнатадилар. Демак, яна шу ўринда бир нуқтага эътибор қаратиш керак бўлади. Достонда келтирилича совчлик қиз томонида амалга оширилган. Шарқ дунёсида, умуман, мусулмон оламида совчилик билан боғлиқ жараён асосан, йигит томонидан амалга оширилиган. Шунингдек, йигит томонга қиз тарафдан ҳам совчилар юбориш анъанаси борлигини тарихий манбалардан маълум бўлади. Бунга мисол сифатида Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а в.) га Хадича томонидан юборилган совчилар фаолияти билан изоҳлаш мумкин [1:26-30- б.]. Жомий ҳам мазкур достонида ҳам шу анъанага риоя этгани маълум бўлади.

Достонда келтирилишича, бу вақтда Мисрда Юсуф эмас, балки кекса бир киши бош вазир эди. У совчиларга розилик беради. Зулайхони Мисрга олиб жўнайдилар. Зулайхо тезроқ Мисрга етишни ва Юсуф билан висоллашишни истайди. Аммо Мисрга яқинлашганда, уни тушидаги йигит эмас, балки кекса бир киши кутиб олганини кўргач, ўйламай иш қилганидан қаттиқ пушаймон ейди. Агар Зулайхо тушига ишонмай, аввало Миср азизининг кимлиги ва шунингдек, неча ёшдалигини суриштириб билганида, у тушида кўрган йигит эмаслигини англаб етар, нотаниш ва кекса одамга турмушга чиқиб, ҳам ўзини шарманда қилмас, ҳам қилган ишидан пушаймон емас эди. Жомий Зулайхонинг пушаймонидан муҳим хулоса чиқариб, ёш қизларга панд-ўгит беради. Улуғ шоир талқинича, қизлар ишқ-муҳаббатда,

бирор кишига кўнгил беришда ва оила қуришда асло шошилмасликлари, бу борада доим ўйлаб иш қилишлари керак.

Жомий талқинича, ёшлар гарчи соғлом ва ақл-идрокли бўлиб туғилсалар-да, ҳамиша тарбияга муҳтож бўладилар. Шунинг учун ёшларга уларнинг ёшлигидан мукаммал тарбия бериш лозим. Агар шундай қилинса, улар ҳаётда хато қилмайдиган бўладилар. Ёшлар тарбиясига алоҳида эътибор қаратган Жомий ўзининг «Силсилат уз-заҳаб» («Олтин занжир»), «Субҳат ул-аброр» («Яхшилар тасбеҳи»), «Туҳфат ул-аҳрор» («Поклар туҳфаси») маснавийларида чуқур тарбиявий аҳамиятга эга бўлган панд-ўгитларини берганки, улар ҳозиргача ҳам ўз қимматини йўқотган эмас.

Жомийнинг «Хирадномаи Искандарий» («Искандарнинг донишмандлик китоби») достонида ўғли Зиёуддин Юсуфга берган панд-насиҳатлари ҳам шулар жумласидандир. Улуғ шоир достоннинг бошида ҳам, охирида ҳам ўғлига насиҳат қилар экан, ўз панд-ўгитларини барча ёшларга қаратгани маълум бўлади. Бу ўринда шоир пандномаларидан айрим парчаларни келтириш фойдадан холи бўлмайди. Дарвоқе, шоир асар бошида қуйидагича ўгит беради:

Эй жигаргўшам, гавҳар фарзандим,
Қулоқ ос, сенга насиҳат-пандим…
Яхши хулқли бўлгил ҳамда соф кўнгил,
Одамларга доим инсофли бўлгил.
Бу меҳнатхонада яхшию ёмон-
Учрайди, яхшилик қилавер ҳамон.
Сенга бўлсин фақат яхшилик қилиқ,
Аммо барчадан сен кутма яхшилик.

Жомий яна достон охиридаги ўгитида қуйидагиларни ёзади:

Менинг етмишда ёшим, сеники етти,
Сенинг бахтинг келур, мендан-чи, кетти…
Белингда қувватинг бор, айла ғайрат,
Билиб қўй, ёшлик онинг катта давлат.
Билиб иш қилки, бўлсин фойда ғоят,
Ёғилсин охири бошингга раҳмат.
Жаҳолатдан қочиб мисли бало сен,
Билим, донишни касб эт аввало сен…
Билим олсанг, унга доим амал қил,
Амалсиз илмни мисли заҳар бил…
Ҳама дўстингга доим бўл очиқ қўл,
Бахиллик кўйидан доим узоқ бўл…
Ҳақиқий дўстингга жонинг фидо қил,

Ва лекин дўсту душман фарқини бил…
Берибсан ваъда, албатта, вафо қил,
Вафосизликни қалбингдан жудо қил.

(Ш.Шомуҳамедов таржимаси)

Жомийнинг «Юсуф ва Зулайхо» достонидаги Юсуф оила ва мактабда яхши таълим ҳамда тарбия олганлиги туфайли, Мисрда қулдек сотилса-да, ўзининг ақл-идроки, билими, ишчанлиги ва тадбиркорлиги билан Миср бош вазири даражасига кўтарилади. Адолат ва донишмандлик билан иш юритиб, Миср халқини етти йиллик қаҳатчиликдан талафотсиз олиб ўтади ва фаровон ҳаётга етказади.

Жомийнинг «Хирадномаи Искандарий» достонидаги шаҳзода Искандар-нинг ҳаёт йўли ҳам ибратга лойиқ тарзида тасвирланган. Искандар Юнонистон мамлакати подшоси Файлақус оиласида дунёга келади. У шоҳнинг ягона ўғли бўлса-да, эрка, тантиқ, дангаса, бетайин ва нодон бўлиб ўсмайди. Балки ёшлигидан илмга қизиққан, донишманд Арастунинг таълим ва тарбиясини олган, жисмоний жиҳатдан ўзини чиниқтирган; катталарни ҳурмат, кичикларни иззат қиладиган, меҳнатсевар, камтар ва ақл-идрокини камолга етказган йигит бўлиб ўсади. Шунинг учун ҳам отаси унга подшоликни ишониб топширади. Ёш Искандар подшо бўлгач, донишмандлар маслаҳати ва ўзининг ақл-идрокига суяниб, мамлакатни адолат билан бошқаради ва халқ ундан рози бўлади. Бундай характерли мисолларни Жомийнинг бошқа асарларида ҳам кузтиш мумкин.

Абдураҳмон Жомийнинг ижодидаги ёшлар тарбияси, уларнинг маънавияти ҳамда маърифати, камолоти Ҳазрат Алишер Навоийнинг асарларида ҳам ҳадди аъло даражада бадииятга муҳрлангани китобхонни ҳайратга солади. Буни биргина Фарҳод тимсоли мисолида кузатиш мақсадга мувофиқ. Фарҳод ақл-фаросатли, зеҳнли бўлганлиги учун тез орада жуда кўп илмларни эгаллаб олади. Шоир унинг бундай фазилатларини ўзгача илҳом ва завқ билан тасвирлайб беради:

Жаҳонда қолмади ул етмаган илм,
Билиб тақиқини касб этмаган илм.

Ёки

Учунчи ой равон бўлди саводи,
Бурунғи йилда Қуръон бўлди ёди.

Чин мамлакатидаги икки ҳунарманд уста бор эди. Уланинг ҳар иккиси ҳам эгизак туғилган эдилар. Бирининг лақаби, Боний, бошқа бириники эса Моний эди. Уларни кўрганлар ҳаттоки бир-бирлари билан адаштириб ҳам юрар эдилар Бири – меъмор**,** иккинчиси наққош эдилар. Улардан Фарҳоднинг ҳунар ўрган-ганлиги достонда батафсил кўрсатиб ўтилган. Фарҳод ҳар бир сабоқни бир

марта кўрса, ўша варақни бошқа очиб ўлтирмас эди. Қандай сўзни ўқиса кўнглига, фақат кўнглига эмас, ҳатто жон лавҳасига нақшланиб қолар эди. Фарҳод ўзига ўзига ўқиб ўтиш билан бирга уқиб ўтишни ҳам шиор қилиб олган, ўқиганларининг ҳаммаси саҳифама- саҳифа ёдида ўрнашиб борар эди.

Алишер Навоийнинг мазкур достонида ёшлар айниқса, билимга ва ҳунар ўрганишга иштиёқманд қилар ҳақида ҳам алоҳида тўхтаб ўтганки, бу ёшлар учун ҳар жиҳатдан ибратлидир. Достоннинг бош қаҳрамонларидан бири Ширинниng дугоналари билан боғлиқ маълумотлар достондаги маҳим нуқталардан яна бири дейига имкон беради. Улар Меҳинбонунинг қўл остида камолга етган ёшалар эканлиги билан бугунги кунимиз учун ҳам ҳар жиҳатдаг ибратлидир:

Дилорому Дилорою Дилосо,
Гуландому Суманбўю Сумансо.
Паричеҳру Паризоду Париваш,
Парипайкар зиҳи ўн исми дилкаш.
Бири ашъор баҳр ичра ғаввос,
Бири адвор даври ичра раққос.
Бири мантиқ русумида рақамкаш,
Бири ҳайъат руқумига қаламкаш.
Бирининг шеваси илми ҳақойиқ,
Балоғатда бири айтиб дақойиқ.
Бири тарихда, сўз айтиб фасона,
Бири ҳикмат фани ичра ягона.
Ҳисоб ичра бирининг зеҳни бориб
Муаммода бириси от чиқориб.. [10 : 488 б.].

Бу шеърий мисралар академик ўзбек шоири Ғафур Ғулом томонидан шундай насрий баён қилинган: “Бири (Яъни Ширинниng дугоналари – Б.Ф) шеър дарёсида ғаввос бўлса, бири чирмандага чир айланиб ўйин тушадиган раққоса эди. Бири мантиқ илмининг қонун – қоидаларини ўзига касб қилиб олган бўлса, яна бири ҳайъат илми бўйича қалам тебратади. Тағин биттасининг ҳунари ҳақиқат илмлари бўлса, бошқаси чиройли сўзлашнинг нозик – нозик томонларини ечиб беради. Яна бир тарихдан афсоналар сўзласа, иккинчиси ҳикмат фанидан ягона эди. Тағин бирисининг зеҳни ҳисобда ўткир бўлса, бошқа бириси муаммолар ечишда ном чиқарган эди” [7 : 448-б.].

Алишер Навоийнинг асаридаги бу тасвирлар шунчаки келтириб ўтилмасдан, балки доимо баркамол шахс камолоти йўлида муҳим манба бўлиб хизмат қилиши, шубҳасиз. Яна шу нарсани алоҳида таъкидлаш лозимки, ота-боболаримздан мерос бўлиб қолган миллий қадриятларни бугунги ёшларимиз қалбига сингдиришда адабиётимиздаги мавжуд

асарлардан кенг миқёсда фойдаланишга алоҳида эътибор қаратилиши муҳим вазифалар сирасига киради.

Замонавий адабий таълимда мумтоз адабиё намуналарини янги мезонлар асосда ўқувчиларга етказиш бўйича жиддий ишлар амалга оширилаётгани қувонарли ҳолдир. Профессор Қазоқбой Йўлдошев ўринли таъкидлаганидек: «Ўрганилаётган ҳар бир асардан мафкура эмас, нафосат қидирилса, қаҳрамонлар мансуб ижтимоий табақаларга хос хусусиятларини топишга эмас, балки қаҳрамонлар кечирган ҳиссиётларни, сезимларни кашф этишга эътибор қаратилса, ўқувчилардан баркамол шахс шакллантириш мумкин бўлади» [6 : 76 б.].

Амир Алишер Навоий ҳам ўзининг «Назмул жавоҳир», «Маҳбуб ул қулуб», «Хамса»даги достонларида биргина шарқона ҳаёга қайта-қайта эътибор каратиши бежиз эмас эди. Аввало, жамиятнинг тинч ва осойишталиги, эл дастурхонининг маъмурлиги, одамларда меҳр-оқибатнинг устиворлиги улар қалбидаги имондан далолат беради. Мутафаккир шоирнинг фикрича, имон уйининг уч асосий устуни бўлиб, шулардан биринчиси - ҳаё, иккинчиси - вафо, яна бири саховатдир:

Уч қисм ила имонға бино фаҳм айла,
Аввалгисини анинг ҳаё фаҳм айла,
Иккинчисини дағи вафо фаҳм айла,
Учинчисини билмасанг, сахо фаҳм айла [14: 19-б.].

Демак, киши имонли бўлиши учун биринчи навбатда ҳаё туйғусига эга бўлиши зарурлиги болаларга тушунтирилади. Шунингдек, мутафаккир шоирнинг «Ҳайратул-аброр» достонидан жой олинган ҳикоятларнинг бирида ҳам ҳаёнинг муҳим инсоний фазилат эканлиги тасвирланган. Мазкур бадиий матндан ҳам ёшлар учун муҳим керакли хулосалар мавжуд. Яъни гулзорда севгилиси билан ўтирган шаҳзода Анушировон наргис гулидан уялиб, ёнидаги маҳбубасига қўл узатишдан ўзини тия олган тасвир мавжуд. Навоий буни шоирона изоҳлаб, Анушировон ҳаё эгаси белганлиги учун жаҳонга шоҳ, адолати эса оламга паноҳ бўлди деган муҳим хулосани баён қилади.

Айш, Навоий, неча дилкаш дурур,
Лек адаб бирла ҳаё хуш дурур [8: 164 б.] .

«Лайли ва Мажнун» достонидаги асосий бош қахрамон Қайс ишқ йўлида «Мажнун» дея ном олди. Бу йўлда кўп азиятлар чекиб, табиат бағридан ўзига ҳаловат топади. Ишқ азоби уни не куйларга солмасин, ҳар қандай ҳолатда ҳам унинг қалбида йигитлик ҳаёси сўнмайди. Мажнуннинг қўл-оёқларини боғлаб ота-онаси ҳузурига олиб келгандаги тасвирида буни янада аниқроқ кузатиш мумкин:

Чун кўрди ато било аноси
Ким, они ҳалок этар ҳаёси [9: 96-б.].

Хижолатдан ҳаё денгизига ғарқ бўлган Мажнун ота онасининг олдида уялганидан бошини кўтара олмас эди. Фарзандига ҳар қандай панду насиҳат ортиқча эканлигини англаган «ато било аноси» фарзандини оғир аҳволдан қутқариш чорасини ахтаришади. Шунга ҳамоҳанг тасвир «Фарҳод ва Ширин» достонида ҳам мавжуд. Фарҳод кўзгудаги рухсорни кўриб, ҳушидан кетади. Ҳамма бундан қайғуда эди. Қачонким у ўзига келганида бошида мотам тутиб ўтирган ота-онасини кўриб, шундай ҳолга тушади:

Тутиб сўнгин ато бирла аноси,
Муни кўргач, ҳалок этти ҳаёси.

Тутинг маъзурким, расво бўлубмен,
Демай расво бўлубменким, ўлубмен [10 :190-б.].

Навоий асарларининг маънавий устунларидан бири ҳисобланган ҳаё «Маҳбуб ул қулуб»да янада теранроқ талқин этилганига дуч келамиз. Улуғ шоирнинг фикрича, карам билан мурувват ота ва она бўлса, вафо билан ҳаё эса уларнинг икки эгизак фарзандларидир. Бу «эгизак фарзандлар» имон уйининг асосий пойдеворидир Навоий талқинича вафосиз одам субутсиз, ор номуси йўқ, нопок кимсалар бўлиб улар ҳаё туйғусидан бенасиб кимсалардир. Шунинг учун ҳам элу улус улардан доимо жафо чекканлар. Навоий фикрларини давом эттириб, «…кимда бу икки сифат (яъни вафо билан ҳаё –Б.Ф.) бўлмаса унда имон ҳам йўқ. Ва агар кимда имон бўлмаса, унда одамийлик ҳам йўқ...» деган қатъий хулосага келади [11: 82-б.].

Устози Жомий йўлидан бориб нақшбандийлик тариқатини қабул қилган Алишер Навоий табиатан бениҳоят хоксор ва камтарин, андишали ҳамда ҳаёли шахс эканлиги унинг замондошлари бўлган тарихчилар томонидан ёзиб қўйилган. Шуниси характерлики, зукко шоир ҳаттоки ижод лаҳзаларида ҳаёга тамомила зид бўлган тасвирлардан ўзини тия олганлиги ҳам бағоят ибратлидир. Оқ қоғоз билан юзма-юз бўлган пайтларида ўз жисмида улкан масъулият юки турганлигини доимо ҳис этганлиги китобхонни ҳайратга солади. «Саъбаи сайёр» даги шоҳ Баҳром Хитой гўзали Дилором билан илк учрашувдаёқ унга ҳаёсизларча муносабатда бўлади. Бундай нафсоний, интим ҳолатни тасвирлаш учун зукко шоир ўзида салоҳият йўқлигини таъкидлаб, аҳли китобхондан узр сўраб, воқеалар баёнига шундай нуқта қўяди:

Ёр маҳваш ҳариф ошиқу шаҳ,
Қилганин билмаган эрди аблаҳ,
Элга сўз дер маҳал бу ер-ўқдур,
Менга лек ул салоҳият йўқдур [13:98-б.].

Таъкидланган фикрлардан малум бўладики, Навоий ўз шахсий ҳаётида ҳамда асарларида қалб кўзгуси аталмиш ҳаёга алоҳида масъулият билан муносабатда бўлганлиги, ҳар бир давр кишилари, хусусан ёшлар учун ҳам муҳим тарбиявий қимматга эга деб ўйламиз. Шундай экан, бу каби инсон маънавияти ва маърифатини кўтариш учун хизмат қиладиган мисалаларни дарсда ва дарсдан ташқари ўтказиладиган тадбирларда ёшлар қалбига сингдиришдек улкан вазифа борки, бу замонавий адабий таълимдаги асосий ишлардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алихонтўра Соғиний. Тарихи Муҳаммадий. –Тошкент: “ Munir ”, 2021.-712-б.

2. Ҷомӣ, А. Юсуф ва Зулайхо // Осор. – Ҷ. 4. – Душанбе: Адиб, 1988.

3.Ҷомӣ, А. Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот – ил – қудс – Душанбе, 2013.- С. 865.

4. Ҷомӣ, А. Хирадномаи Искандарӣ // Осор. – Ҷ. 5. – Душанбе: Адиб, 1988.

5. Ҷомӣ, А. Силсилат уз-заҳаб // Осор. – Ҷ. 3. – Душанбе: Адиб, 1987

6. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари.- Тошкент:
Ўқитувчи, 1996.

7. Навоий А. Фарҳод ва Ширин. ЎАБ (Ўзбек адабиёти бўстони). – Тошкент: 1989.

8. Навоий А. МАТ (Мукаммал асарлар тўплами), 20 томлик,7-том.- Тошкент:
«Фан»,1991.

9. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 9-том.-Тошкент: «Фан», 1992.

10. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 8-том.-Тошкент: «Фан», 1991.

11. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 14-том.-Тошкент: «Фан», 1998.

12. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 3-том. -Тошкент: «Фан», 1988.

13. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 10-том.-Тошкент: «Фан», 1992.

14. Навоий А. Асарлар, 15 жилдлик, 15 жилд. -Тошкент: «Бадиий адабиёт»,
1966.

G‘AZAL NAFOSATI

Muxsin Mansurovich Muminov,
Qo‘qon davlat universiteti

San’atshunoslik va sport fakulteti
Xalq ijodiyoti kafedrasi. v.b. professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi Umarxon Amiriy ijodi, uning adabiy muhit vakillariga va hatto Xorazm adabiy muhiti vakillariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatganligi xususida mulohazalar keltirib o‘tilgan. Jumladan, Muqimiy ijodiga ta’siri masalasiga alohida urg‘u berilgan. Muqimiy Amiriyning “Muborak” radifli g‘azaliga bir mavzu, radif va vaznda, biroq qofiya tizimini o‘zgartirgan holda bitgan go‘zal bir tatabbusi atroflicha tahlil qilingan. Har ikki ijodkorning bir mavzu yuzasidan berilgan fikr-u tuyg‘ulari misolida ularning o‘ziga xos uslubi va badiiy mahorati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy muhit, ta’sir va izdoshlik, vazn, qofiya, radif, tatabbu, g‘azal, qofiyadosh so‘zlar, faxriya.

Аннотация.

В данной статье рассматривается творчество Умархана Амири, основателя кокандской литературной среды, и значительное влияние, которое он оказал на представителей кокандской литературной среды и даже на представителей хорезмской литературной среды. В частности, особое внимание уделено вопросу влияния Мукими на его творчество. Тщательно проанализирована прекрасная ода на радиф-газель Мукими Амири «Мубарак», которая заканчивается той же темой, радифом и метром, но с другой схемой рифмовки. Уникальный стиль и художественное мастерство обоих художников можно увидеть в том, как они выражают свои мысли и чувства по одному и тому же поводу.

Ключевые слова: литературная среда, влияние и преемственность, метр, рифма, радиф, татаббу, газель, рифмующиеся слова, гордость.

Abstract

This article discusses the work of Umarkhan Amiri, the founder of the Kokand literary environment, and the significant influence he had on the representatives of the literary environment and even on the representatives of the Khorezm literary environment. In particular, special emphasis is placed on the issue of his influence on Mukimi's work. A beautiful tatabbu' to Mukimi Amiri's radif ghazal "Mubarak" is analyzed in detail, which has the same theme, radif and meter, but with a changed rhyme system. In the example of the thoughts and feelings of both creators on the same topic, their unique style and artistic skill can also be seen.

Keywords: literary environment, influence and continuity, meter, rhyme, radif, tatabbu', ghazal, rhyming words, pride.

Ulkan so‘z ustalari ta’sirida balog‘at ilmi va fasohat sirlarini egallagan Umarxon Amiriy o‘zi ham san’atkorona hassos g‘azallari bilan nafaqat Qo‘qon adabiy muhiti, balki Xiva adabiy muhitida yashab ijod qilgan shoirlarga, umuman o‘zidan keyingi o‘zbek qalam ahliga kuchli ta’sir ko‘rsatgani ma’lum. Bu ta’sir izlarini biz Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlardan tortib to Hamzagacha ko‘ramiz.

Taniqli so‘z san’atkori Muqimiy ijodida Amiriyning alohida o‘rni bor. Ta’bir joiz bo‘lsa, Amiriy Muqimiyning eng sevimli shoirlaridan biri bo‘lgan. “Shirin” radifli g‘azaliga taxmisida “Nazokat gul qilur har misra’ingdin, ey shahi dono” deb she’riyat yo‘lidagi ustoziga yuksak baho bergan shoir uning asarlari mutolaasidan mahorat sabog‘ini oladi, qator g‘azallariga tatabbular qiladi, taxmislar bog‘laydi.

Amiriyning muzore’i musammani axrabi solim (maf’uvlu foilotun maf’uvlu foilotun (– – V \ – V – – \ – – V \ – V – –) vaznida yozilgan “muborak” radifli 9 baytli mashhur g‘azali mavjud. Bu g‘azalga ko‘plab shoirlar tatabbu qilishgan. Muqimiy ham unga 6 baytli go‘zal tatabbu bitgan.

Amiriy:

Husnung kamola yetti, ey mahliqo, muborak!
Oyinayi jamoling topti safo, muborak,

Xo‘b o‘ldi – orazingni oyinadin yoshurding,
Ey sho‘xi mohtal’at, sharmu hayo muborak!

To yuzga g‘oza chekting, qonimni to‘kti g‘amzang,
Noz ilgida, nigoro, bo‘lsun hino muborak!

Harchand manga paymon paymonasin ushotting,
Qilding raqiblarg‘a ahdu vafo, muborak!

Tun qayda mast erding, kim birla boda ichting,
Gul jaybidin uzulgon bandi qabo muborak!

Ey yaxshilarni shohi, bo‘lma raqiba hamdam,
Yoningda na munosib ul shumnamo muborak...

To masnadi malohat sultonisan, vafo qil,
Shahdin karam munosib, quldin duo muborak.

Bir sho‘xi dilraboning bo‘ldum asiri zulfi,
Boshimg‘a tushti savdo, qilsun Xudo muborak!

Ul sarvqad xayolin qilding, Amir, insho,
Tab’i salim birla fikri raso muborak! [1,175]
Muqimiy:

Ey kifrik, o‘q oturg‘a abro‘kamon muborak!
Bas, bir paring emasdur bo qasdi jon muborak!

Gul-gul yonib hayodin, odob bilan yururda
Qildi duoyi joning piru javon, muborak!

Nogah chamanda qilgach tovusdek xiromon,
Sarv o‘ldi banda ko‘rgach nozuk miyon, muborak!

Novaklaring dilig‘a oshiqlaringni malham,
Hosid ko‘zin o‘yarg‘a har bir zabon muborak!

Har erta rasta yuzdin parda ochib kelurga
Xalq oftobi xovar aylar gumon, muborak!

Ag‘yor bilmasun deb ishqu muhabbatimni
Qildim bu kun, Muqimiy, eldin nihon, muborak! [2,122]

Lekin u g‘azal vazni va radifini aynan saqlagani holda, qofiya tizimini o‘zgartiradi.

G‘azal qofiyalari: *mahliqo, safo, hayo, hino, vafo, qabo, shumnamo, duo, Xudo, raso.*

Tatabbu qofiyalari: *abro‘kamon, jon, javon, miyon, zabon, gumon, nihon.*

G‘azal ham, tatabbu ham ishqiy mavzuda bo‘lib, ma’shuqa ta’rifi undan gina va shikoyat bilan uyg‘unlashib ketadi.

G‘azal oy yuzli go‘zalning husni kamolga yetgani, jamoli ko‘zgusi ravshan bo‘lgani ta’rifi bilan boshlanadi:

Husnung kamola yetti, ey mahliqo, muborak!
Oyinayi jamoling topti safo, muborak, [1,175]

Tatabbu matlasi esa balog‘atga yetgan go‘zalning kiriklari oshiq ko‘ksini yaralash uchun kamon darajasiga yetganiyu uning har bir o‘qi jonga qasd qilishi xususida:

Ey kifrik, o‘q oturg‘a abro‘kamon muborak!
Bas, bir paring emasdur bo qasdi jon muborak! [2,122]

G‘azal va tatabbuni baytma-bayt qiyoslashning sira hojat yo‘q. Chunki ular bir mavzuda yozilgan ikki alohida-alohida g‘azaldir. Jumladan, g‘azalning ikkinchi baytida o‘qiymiz:

Xo‘b o‘ldi – orazingni oyinadin yoshurding,

Ey sho‘xi mohtal’at, sharmu hayo muborak! [1,175]

“Ey oy yuzli go‘zal, yuzingni oynadan yashirganing yaxshi bo‘ldi-da – sharmu hayo g‘olib kelgani muborak bo‘lsin!”

Chunki ko‘zgu mahbuba go‘zalligini olamga oshkor qiladi. Iboli go‘zal esa husnini ko‘z qilmaydi.

Baytning tagma’nosi ham yo‘q emas: ma’lumki, tiniq, musaffo va porloqligi jihatidan yuz va ko‘zgu bir-biriga tashbeh qilinadi, ayni paytda, go‘zal yuz hamisha ko‘zgudan ustun qo‘yiladi. Ma’shuqaning beqiyos jamoli oldida ko‘zguning uyatdan terga botgani, xira tortgani, hatto suv bo‘lib oqqani kabi tasvirlarga mumtoz she’riyatda ko‘p duch kelamiz. Bu yerda Amiriy ham ana shu an’anaviy tashbehdan mahorat bilan foydalanib, boshqa bir yashirin fikrni ham ilgari suradi: “Andisha qilib, ko‘zguga marhamat ko‘rsatganing yaxshi bo‘ldi-da – agarda yuzingni undan yashirmaganingda bormi, beqiyos husningga tob berolmay, oynadan nomu nishon ham qolmas edi!”

Tatabbuda esa ma’shuqa ta’rifi o‘zga o‘zanda davom etganini ko‘ramiz:

Gul-gul yonib hayodin, odob bilan yururda
Qildi duoyi joning piru javon, muborak! [2,122]

“Hayodan gul-gul yonib, odob bilan yurganingni ko‘rib, keksa-yu yosh muborak bo‘lsin deb duoyi joningni qiladi”.

Muqimiy bu yerda ham o‘z uslubiga sodiq qolgan holda xalqona sodda va samimiy tasvir yaratadi: iffat-ibo, odob-axloq sohibasi bo‘lgan go‘zal keksayu yoshning duosiga sazovor bo‘ladi.

Uchinchi baytda Amiriy mubolag‘ani haddi a’losiga yetkazadi: go‘zal nigor yuziga upa surib, g‘amza o‘qi bilan oshiqning qonini to‘kadi va uni qo‘llariga hino qilib qo‘yadi:

To yuzga g‘oza chekting, qonimni to‘kti g‘amzang,
Noz ilgida, nigoro, bo‘lsun hino muborak! [1,175]

Upa yuzni qizartiradi. Ayni jihatdan uning qonga nisbati bor. Qonning esa hinoga.

Ko‘rinib turganidek, baytdagi so‘zlar va tashbehlar bir-biri bilan o‘zaro taqozodorlik munosabatida.

Muqimiy bayti esa chamanda tovus kabi latif xirom qilgan go‘zalning nozik belini ko‘rgan sarvning uning bandasiga aylangani ta’rifida:

Nogah chamanda qilgach tovusdek xiromon,
Sarv o‘ldi banda ko‘rgach nozuk miyon, muborak! [2,122]

Ma’lumki, tik va baland bo‘yli sarv kelishgan qomatiga mag‘rur bo‘lib, ma’shuqa qaddi bilan bo‘ylashmoqchi bo‘ladi. Holbuki, uning mahbuba kabi nozik beliyu tovusdek mayin xiromi yo‘q.

G‘azalning to‘rtinchi bayti nozik lutfu kinoyaga yo‘g‘rilgan: menga qilgan qanchadan-qancha ahdu paymonlaringni sindirganingga qaramay, raqiblarga qilgan ahdu vafong muborak bo‘lsin. Chunki men senda sira ahdu vafo yo‘q deb o‘ylagandim, raqiblarga ahdu vafo qilganingni ko‘rib u ahdu vafodan mosuvo emas ekan, menga ahdu vafo qilmasa-da, raqiblarga qildi-ku deb o‘yladim:

Harchand manga paymon paymonasin ushotting,
Qilding raqiblarg‘a ahdu vafo, muborak! [1,175]

“Paymon” va “paymona” so‘zlari bir-biriga uyqash bo‘lib, paymon – ahdu vafo, paymona esa qadah ma’nolarini bildiradi. Shoir bu o‘xshashlikdan mahorat bilan foydalanib, “paymon paymonasi” iborasini kashf etadi. Bu “vafo qadahi” ma’nosini beradi. Men uchun vafo qadahini sindirgan bo‘lsang-da, raqiblarga uni limmolim mayga to‘latib tutding demoqchi bu bilan shoir. Bu obrazli jumladan esa raqiblarga vafo-yu menga esa bevafolik qilding degan ma’no kelib chiqadi.

Tatabbuning to‘rtinchi bayti esa ma’shuqa kipriklari otgan o‘qlar oshiq ko‘ksini yaralash o‘rniga, uning jarohatlariga malham bo‘lishi, holbuki, ularning har biri hasadgo‘ylar ko‘zini o‘yishi haqida:

Novaklaring dilig‘a oshiqlaringni malham,
Hosid ko‘zin o‘yarg‘a har bir zabon muborak! [2,122]

Bu aslida Navoiy asarlari ta’sirida yaratilgan bayt bo‘lib, ulug‘ shoir g‘azallaridagi ma’shuqa otgan o‘qlar devor kabi shoir ko‘ksini o‘rab olgani va uni har xil balo-qazolardan himoya qilishi haqidagi fikrlarga hamohang. Muqimiy ham oshiqni yaralash uchun ma’shuqa otgan o‘qlarning unga zaxm yetkazish o‘rniga, aksincha eski jarohatlariga malham bo‘layotgani, bunday aks ta’sirni ko‘rib esa hasad ahlining ko‘zi kuyayotgani tasvirini yaratadi.

G‘azalning beshinchi baytida o‘qiymiz:

Tun qayda mast erding, kim birla boda ichting,
Gul jaybidin uzulgon bandi qabo muborak! [1,175]

“Kechasi qayerda, kim bilan may ichib, mast bo‘ldingki, gulning ko‘ksi chok bo‘lgani kabi sening ham ko‘ylaging yoqasi ochilib qolibdi?”

Bu yerda ma’shuqa gulga, ko‘ylagining ochilib qolgan yoqasi esa gul ko‘ksining chokiga tashbeh qilinmoqda.

Tatabbuning ayni baytida esa mahbuba har tong yuzini ochib, rasta oralab kezsa, uni ko‘rgan xalq sharq quyoshi chiqib kelyapti deb xayol qilishi borasida:

Har erta rasta yuzdin parda ochib kelurga
Xalq oftobi xovar aylar gumon, muborak! [2,122]

G‘azalning oltinchi baytida avvalgi fikrlar davom etadi:

Ey yaxshilarni shohi, bo‘lma raqiba hamdam,

Yoningda na munosib ul shumnamo muborak... [1,175]

“Ey yaxshilarning shohi, raqib bilan yaqinlik qilmaki, u shumbasharaning sening yoningda yurishi sira munosib emas”.

Tatabbuning oltinchi bayti esa maqta hisoblanadi va unda Muqimiy fikrlari nihoyasiga yetadi:

Ag‘yor bilmasun deb ishqu muhabbatimni

Qildim bu kun, Muqimiy, eldin nihon, muborak! [2,122]

“Dushmanlar ishq-u muhabbatimdan xabar topmasin deb, men Muqimiy uni eldan pinhon tutganim muborak bo‘lsin!”

G‘azal to‘qqiz bayt bo‘lib, shoir bir sho‘xi dilraboning ishqiga asir bo‘lganidan so‘z ochib, boshiga tushgan bu savdoni Xudoning o‘zi unga muborak qilishidan umidvor bo‘ladi:

Bir sho‘xi dilraboning bo‘ldum asiri zulfi,

Boshimg‘a tushti savdo – qilsun Xudo muborak! [1,175]

Maqtada esa shoir sarvqomat sanam xayolida she’r bitgan Amirga go‘zal iste’dod bilan yetuk fikrlar muborak bo‘lsin deb lutf etadi faxru iftixor bilan:

Ul sarvqad xayolin qilding, Amir, insho,

Tab’i salim birla fikri raso muborak! [1,175]

Shoirlarning o‘z iste’dod qudrati, she’rlarining shuhratidan faxr etib yozadigan bunday she’r va baytlar Sharq mumtoz adabiyotshunosligida faxriya san’ati deb yuritiladi.

“Faxriya (arabcha – maqtanish) – shoirning iste’dod darajasi, qalami qudrati, asarlarining badiiy yuksakligi hamda erishgan muvaffaqiyatlari va shon-shuhratidan faxrlanib bitgan she’r-u baytlari. Faxriya deyarli barcha Sharq shoirlari ijodida uchraydi. She’riyatda muayyan maqomga erishgan shoir o‘zining so‘z san’atidagi mavqe-martabasi, erishgan muvaffaqiyatlari, yuksak mahorati va asarlarining dovrug‘idan so‘z ochishi tabiiy”[3,77].

Ma’lum bo‘ladiki, Muqimiy Amiriyning “Muborak” radifli g‘azalidan ilhomlanib, vazn va radifni aynan saqlagan holda, ohorli qofiyalar vositasida o‘ziga xos original g‘azal yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amiriy. Devon.1-tom.O‘zbekcha she’rlar.-Toshkent: Tamaddun, 2017

2. М у қ и м и й. Кўнглум сандадур (Тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Э.Очилов). – Тошкент: “Шарқ”, 2009, 122-бет.

3. О ч и л о в Э. Фахрия \\ Алишер Навоий: қомусий луғат. Икки жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2016, 77-бет.

4. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.

5. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.

6. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).

7. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.

8. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.

9. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.

10. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548

11. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

МАВҚЕИ АСАРҲОИ САДРИДДИН АЙНӢ ДАР ТАРБИЯИ МАЪНАВИИ ҶАВОНОН

Мамақонов Самеъҷон Ҳабибуллоевич,
номзади илмҳои педагогӣ,
дотсенти кафедраи педагогӣ ва табиию риёзии МДТ
“ДДХ ба номи академик Б.Ғафуров” (Тоҷикистон, Хуҷанд),
mamajonov@mail.rumailto:umavchuda@mail.ru, тел.: 92-982-08-82

“Ин боғ зи нахли кӯҳан оростаам,
В – он нахл ба теғи хома пиростаам.
Сайронгаҳе зиёда кардам ба Шумо,
Ҳарчанд зи умри худ басе костаам.”
(Садриддин Айнӣ)

Устод Садриддин Айнӣ чӣ дар назм ва чӣ дар наср шӯҳрати тамом дошта, бо ҳамин сабаб асосгузори адабиёти муосири тоҷик А) дар назм. Устод садриддин Айнӣ фаъолияти эҷодии худро бо назм оғоз намудааст ва аз

соли 1892 сар карда аввал бо тахаллуси “Сифлӣ”, “Муҳтоҷӣ”, “Ҷунунӣ” ва баъдар бо (аз соли 1995) бо тахаллуси “Айнӣ” шеър гуфтааст. Шеърҳои аввалини С.Айнӣ дар мавзӯи ишқу муҳаббат суруда шудаанд. Баробари ба воқеъаҳои сиёсӣ ва иҷтимоии давр майл кардани С.Айнӣ мавзӯъ ва мундариҷаи ашъори шоир низ тағир меёбад ва адиб дармеёбад, ки дар замони ӯ танҳо ба мавзӯи ишқу муҳаббат маҳдуд шудани суханварон басанда нест. Шеър ҳам бояд ба тасвири масъалаҳои мубрами рӯз кор гирфта ба дарди ҷомеа бархӯрад.

va o‘z orbitasini yo‘qotgan sayyoradek, jamiyatda darbadar kezinadi. Natijada u e’tiqodi emirilgan, kelajagi noma’lum odamga aylanadi.

XX asrda yaratilgan bola obrazlari ortida mung‘ayib qarab turgan, bolaligini erta boy bergan mualliflarni ko‘rish mumkin. Shuning uchun ham asr qissalarida baxtli bola obrazini uchratmaymiz. Yakunda ularning taqdiri boshi berk ko‘chada qolishini yoki muhit qurboniga aylanishini kuzatamiz. Yozuvchi bola obrazini yaratib, uni muhit qurboniga aylantirishiga sabab tashqi ta’sirlarni bartaraf etish lozimligini uqtirish, deb hisoblash mumkin. Xuddi shuningdek, “Shum bola” qissasi ham “To‘rt tomon qibla. Lekin qayoqqa qarab yo‘l olsam ekan”, [4.286] degan iqror bilan yakunlanadi. Shum bolaning bu xulosasida bola e’tiqodining emirilgani, ertangi kunga ishonchsizlikni anglash mumkin. “Shum bola”ga hamohang tarzda Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasi ham “Endi nima bo‘ladi?”, degan jumla bilan yakunlanadi. Bizningcha, har ikki qissadagi so‘nggi jumla orqali bolalikning boy berilishi g‘oyaviy-badiiy jihatdan yakuniy ifodalangan.

Xullas, qissa avvalida olamga hayrat bilan qaragan Shum bolaning 5-6 oylik sarguzashti mobaynida bu hayratlari muhit sabab nafratga, undan keyin fosh etish va o‘ch olishga, yakunda esa, e’tiqodsizlikka olib keladi. Natijada u birorta suyanchig‘i yo‘q, hech kimga va hech nimaga ishonchi qolmagan shaxsga aylanadi.

ADABIYOTLAR:

1. B.Paskal, X.O.Gasset, E.Fromm, Sevgi san’ati, T.:O‘zbekiston, 2011.
2. Forobiy A.N., Fozil odamlar shahri, T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. G‘.G‘ulom, Tanlangan asarlar / “Shum bola”, T.:G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012.
4. E.Fromm, Inson qalbi. Uning ezgulik va yovuzlikka bo‘lgan layoqati, T.:O‘zbekiston, 2016.
5. Andre Morua, Chorshanba uchun binafshalar, T.:Yangi asr avlodi, 2015.

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA FOLKLORIZMLARNING O‘RNI

Kurbanova Feruza A’zamovna,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
+998905654200

Annotatsiya

Ushbu maqolada Isajon Sulton ijodida folklor motivlari milliy xarakterning o‘ziga xos xususiyatlarini ochish uchun xizmat qilganligini,ularning badiiy asar kontekstida qay tarzda namoyon bo‘lishi masalalari haqida to‘xtalamiz.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi qadimdan yozma adabiyotning mazmun–mundarijasini boyituvchi, uning poetik imkoniyatlarini muttasil takomillashtirib boruvchi badiiy - estetik asos vazifasini o‘tab kelgan. Yozma adabiyotning shakllanishi va taraqqiy etishida og‘zaki ijod janrlari muhim badiiy zamin sifatida faol ishtirok etadi. Har bir davr adabiyoti milliy qadriyatlarga o‘z badiiy-estetik ehtiyojlari va badiiy niyat talablari darajasidan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: hikoya, afsona, rivoyat, obraz, motiv obraz, syujet, kompozitsiya, muallif xarakteristikasi, badiiy psixologizm.

Аннотация

Фольклор всегда служил художественно-эстетической основой, обогащающей содержание письменной литературы и постоянно повышающей ее поэтический потенциал. Жанры устного творчества принимают активное участие в формировании и развитии письменной литературы как важной художественной почвы. Литература каждой эпохи реагирует на национальные ценности, исходя из своих художественно-эстетических потребностей и уровня художественного замысла. Иными словами, связь фольклора и письменной литературы активно проявляется как одна из наиболее последовательных художественно-эстетических традиций, которая продолжается с древнейших времен и до наших дней.

В этой статье мы сосредоточимся на влиянии фольклора на письменную литературу, причинно-следственных связях и том, как они проявляются в контексте художественного произведения.

Ключевые слова: рассказ, миф, повествование, образ, мотив сюжет, композиция, авторская характеристика, художественная психология.

Annotation

Folklore has always served as an artistic-aesthetic basis that enriches the content of written literature and constantly improves its poetic potential. Genres of oral creativity take an active part in the formation and development of written literature as an important artistic ground. The literature of each era reacts to national values based on its artistic and aesthetic needs and the level of artistic intent. In other words, the relationship between folklore and written literature is actively manifested as one of the most consistent artistic-aesthetic traditions that continues from ancient times to the present day.

In this article, we will focus on the impact of folklore on written literature, cause and effect, and how they are manifested in the context of an artistic work.

Key words: painting, myth, narrative, image, motif, image, plot, composition, author's characteristics, godly psychology.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘zining hayotiyligi, ijtimoiy tabiati, g‘oyaviy mohiyati, badiiy xususiyatlari bilan adabiyotimizda o‘ziga xos o‘ringa ega. Xalq mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g‘alabalari uning mavzusi va mazmunida aks etadi. Adabiyot va folklor o‘rtasidagi munosabatlar azaldan juda yaqin bo‘lib kelgan, har bir milliy adabiyot shakllanishida folklor an’analarining ta’siri katta bo‘lgan. Shu sabab adabiyot va folklor o‘rtasidagi munosabat muammosi dolzarb bo‘lib tuyuladi. Yozuvchi Isajon Sulton ijodida ham ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan, necha zamonlar chig‘irig‘idan o‘tgan, ko‘pchilikning xotirasidan ko‘tarilayotgan ko‘plab betakror og‘zaki ijod namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada yozma adabiyot va folklor munosabatlarining rivojlanish qonuniyatlari va ularning o‘zaro aloqadorlik darajasini Isajon Sulton hikoyalari misolida tadqiq etdik.

Yozma adabiyot va xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning o‘ziga xos jihatlari ularning badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o‘rni, badiiy matndagi folklorizmning manbalari va badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatidagi ahamiyatidan kelib chiqib baholanadi.Yozma adabiyotda qo‘llanilgan folklorizmlarning badiiy asar kompozitsiyasi va syujet qurilishidagi poetik o‘rnini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Bu muammo mumtoz adabiyot misolida N.Mallaev, M.Hakimov, J.Qobulniyozov, T.Xo‘jaev kabi olimlarning Alisher Navoiy, Bobur, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy kabi shoirlar ijodidagi folklorizmlar tadqiqiga doir asarlarida o‘rganilgan. B.Sarimsoqov va I.Yormatov folklorizmlar tavsifi, tasnifi, manbalari va tipologiyasi masalalarini tadqiq etishgan. G‘.Mo‘minov, G‘.Jalolov, A.Ergashev, D.Quvvatova, SH.Ishniyo- zova, M.Imomkarimova, M. Pirnazarovalar esa XX asr o‘zbek adabiyoti namoyandalarining asarlari tahlili misolida folklorizmlarning badiiy matn strukturasidagi o‘rnini tadqiq etganlar. Isajon Sulton ijodi adabiyotshunoslikda keng targ‘ib va tadqiq etilayotgan ijodkorlardan. Ammo yozuvchining asar badiiy to‘qimasiga olib kirgan folklor unsurlari, mifologik talqin masalalari keng tadqiq etilmagan.

Badiiy adabiyotada folklor motivlarini aniqlash muayyan muallif ijodining individualligi, folklor-adabiy aloqalar rivojlanish tabiatining o‘ziga xos xususiyatlarini ham aniqlashga yordam beradi. Bugungi o‘zbek nasrini tadqiq etishda folklor va yozma adabiyotning o‘zaro aloqadorligi sezilarli darajada kuchayganligini kuzatdik. Nazar Eshonqul, Xurshid Do‘stmuhammad, Shoyim

Bo‘tayev, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton kabi adiblarimiz ijodini kuzatar ekanmiz folklor motivlari yozuvchilarining asarlaridagi milliy xarakterning o‘ziga xos xususiyatlarini ochish uchun xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.Yozma adabiyot va folklor munosabatlarining rivojlanish qonuniyatlari va ularning o‘zaro aloqadorlik darajasini Isajon Sulton hikoyalari misolida tadqiq etishga harakat qildik. Yozuvchi hikoyalarida folklordan foydalanish tajribasining namoyon bo‘lishini o‘rgandik. Xalqona afsona va asotirlar, islom rivoyatlari, turli fantastik motivlar, mifologik obrazlar Isajon Sulton hikoyalarida o‘z aksini topganini “Oydinbuloq”, “Mening gulim”, “Bog‘i Eram hikoyalari”, “Ayvon” (“Qismat”), “Avliyo”, “Manzil” kabi o ‘nlab hikoyalarida ko ‘rish mumkin. Badiiy asar qaysi janrda bo‘lmasin unda muallifning estetik, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etadi. Adib asarlarini o‘qib, shuni kuzatish mumkinki, ularda mifologik, diniy, tarixiy qarashlar bir butunlikda zamonaviylikni ifodalaydi. Ayniqsa, “Toshkelinchak”, “Manzil”, “Mitti pushtirang maxluqcha”, “Yusuf va Zulayho”, “Yog‘och kovush”, “Bibi Salima”, “Qoraqush yulduzining siri” kabi asarlarida bu holatlarni yaqqol kuzatish mumkin. Adibning xalq og‘zaki ijodiga murojaati orqali uslubning shakllanishi, yozuvchi badiiy dunyosini qay darajada ekanini ham anglash mumkin. Adib hikoyalarida folklor motivlaridan qanday foydalanganligini o‘rganar ekanmiz, bu muammoni “Toshkelinchak” hamda “Yusuf va Zulayho” hikoyalari misolida tahlil qilishga harakat qildik.

“Toshkelinchak” O‘rta osiy xalqlari orasida qachonlardir bo‘lib o‘tgan muhabbat rivoyati haqidadir. Adib bu rivoyatning yoyilib ketishini ham asarda chiroyli chizgilar bilan beradi. “Toshkelinchak” adibning ancha yillar avval yozilgan hikoyalaridan. “Bizlardan bir-ikki yosh katta Nazar baquvvat, chayir, quyuq qoshlari chimirilgan, qora ko‘zlarida o‘t chaqnab turadigan shijoatli yigitcha edi. U jo‘raboshimiz bo‘lib, hammamiz nima desa itoat qilardik. Chunki aqlda ham, kuchda ham bir pog‘ona baland turardi-da. Bizlar chiqolmaydigan daraxtlar ustiga birpasda o‘rlab ketardi, baland shoxlari orasida ko‘rinmay, axiyri qush polaponini yoki tuxumini olib tushardi”.[4;124] Hikoyaning boshlanishini o‘qib an’anaviy hikoyalardan biri deb o‘ylaysiz. Ammo hikoya ichiga kirib borarkansiz qadim afsonalarning zamonaviy talqini asosida yaratilganligining guvohi bo‘lasiz. Hikoya qahramoni Nazar oddiy to‘pori qishloq yigiti. U mehnat qilishdan qochmaydigan, atrofidagilardan yordamini ayamaydigan inson. O‘zi tengi yigitlarga qaraganda ancha dadil, boshqalarni orqasidan ergashtira oladi. Hammaga so‘zini o‘tkazishga harakat qiladi. Uning yoshidgi insonlar qalbida bo‘ladigan ishq-muhabbat, birovning ko‘nglini olish, degan tuyg‘ulardan yiroq. Aksincha, shunday odamlarning ustidan doim masxaralab yuradi. Tabiatidagi yovvoyilik, tantiqlikka hamma ko‘nikkan.Yozuvchi ta’biri bilan aytganda “O‘zg‘irlikda va

bezorilikda ham unga bas keladigan kimsa yo‘q. Kimningdir tovug‘ini o‘g‘irlab ketgan ham shu Nazar. Birovning itini urgan ham shu. Bizga o‘xshagan bolalar biror noma’qul ish qilsak, hammadan dakki eshitardik, ammo o‘sha noma’qulni Nazar qilsa, kattalar “Ha, endi” deb bosh chayqab qo‘yaqolishardi.” Ko‘rinib turibdiki hikoya qahramoni o‘z erki va istagi bilan harakat qiladi. Muallif qahramonlarga ism tanlashda ham o‘ziga xos yo‘ldan boradi, Nazar, Murod, Ummigulsum kabi.

Adabiyotshunoslik va folklorshunoslik ilmida etakchi tamoyillardan biri bu adabiy hodisalarni o‘rganishga tizimli yondashishdir. Shu ma’noda hikoya syujetiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak hikoyaning har bir qatiga milliy ruh, an’analar va urf-odatlardan ta’sirlangan holda mazmun singdirilgan. Hikoyada folklor unsurlaridan foydalanish avvalo yozuvchi uchun mavzular, syujetlar, motivlar, badiiy va tasviriy vositalar manbai sifatidagina emas, balki muallif dunyoqarashi, estetik idealini gavdalantiruvchi vosita sifatida ko‘rinadi. Ayni paytda yozuvchining. ijodiy individualligini ham belgilaydi. Isajon Sulton hikoyalarida qo‘llangan folklorizmlar asarning g‘oyaviy, semantik, poetik jihatlarida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ijodida folklor xalq hayotini tavsiflash vositasi, o‘zbek xalqining mafkura va psixologiyasini ochib berish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.“Toshkelinchak” hikoyasida dastlab sodda va to‘pori qishloq yigiti tasvirlangan bo‘lsa, voqealar rivoji davomida bu to‘pori yigit ishqqa mubtalo bo‘ladi. Ishq uning xarakterini mutlaqo o‘zgartirib yuboradi. Nazarning Ummugulsumni sevib qolishi, unga ko‘nglini ochishi, rad javobini olishi va xarakteridagi ijobiy o‘zgarishlar xalq og‘zaki ijodidagi devning parilar yoki malikalarga oshiq bo‘lishi kabi ertak motivlariga o‘xshab ketadi. “Qarang-a, qanaqa bezori bola edi, ko‘ngil qo‘ydiyu bosildi-qoldi, – deyishardi kishilar.”Asarda Ummugulsumning boshqaga turmushga chiqib ketishi, bu sababdan Nazarning odamovi bo‘lib qolishi, keyinchalik uning ko‘chalarda ko‘rinmay qolishi odamlar nazariga tushadi. Qizning qarindosh urug‘lari Nazarga undan voz kechish talabini qo‘yganda Nazarning “– Axir, men sen bilan bitta bo‘lib qolganman-ku, qanday qilib ketay, – dermish.– Axir, ko‘zim sendan boshqani ko‘rmaydi-ku? Shafaqni rangiga qarasam ham seni ko‘raman. Oyga qarasam ham, quyoshga qarasam ham seni ko‘raman. Qayga boqsam, sen borsan”[4;127], deya bergan javobida muhabbatning kuchi insonni qay kuyga solganiga e’tibor qilsak, ikkinchi tarafdan adibning bu obrazga qadim sharq adabiyotidagi Majnun obrazi bilan sintezlashtirganini ko‘rish mumkin. Hikoyada yozuvchi xalq rivoyatlaridan ham unumli foydalangan. Asar voqealari davomida Ummugulsumning boshqa kishiga turmushga chiqishi sababdan Nazarning devonasifat bo‘lib qolishi, qishloqdan uzilib uzlatga tushishi kabi holatlar halq

rivoyatlaridagi detallar orqali asarda tasvirlanadi. “Qishloqning yuqori qismida tevaragida jingul-u chakalaklar o‘sgan Toshkelinchak degan qarovsiz bir joy bor edi. U asli tosh emas, suyganiga etolmasdan, odamlardan qochib borib toshga aylanib qolgan bir kelinchak der edilar. Nazar o‘sha joyda tunni o‘tkazibdi.” Nazarning qishloq chetidagi ziyoratgoh sanalgan qadim tosh ustida o‘z xayollari bilan band bo‘lib kun o‘tkazishini tariflar ekan “Ziyoratgoh yonidan katta yo‘l o‘tgan, bir yog‘i O‘shdan Ergashtomga, bu yog‘i Qamchiq dovoni oralab Toshkentdan Qozog‘istonning bepoyon cho‘llariga qarab ketadi. Turli-tuman uzun-qisqa arobalar qatnovi bir zum bo‘lsin tinmaydi”, deydi. Ushbu jumlalardan anglash mumkinki, “Toshkelinchak” hikoyasi eski rivoyatning badiiy talqini sifatida yozma adabiyotga olib kirilgan.

Yozuvchining “Yusuf va Zulayho” hikoyasida ham xalq ijodi, uning o‘lmas qahramonlari taqdiri yangicha talqin bilan qalamga olingan. Yusuf va Zulayhoning ishq dostoni butun sharq xalqlari orasida mashhur va keng tarqalgan. Doston turli manbalarda turlicha syujetga ega. Isajon Sulton ming yillik tarixga ega ushbu qahramonlar taqdirini badiiy adabiyotga olib kirar ekan: “Yusuf degan ozg‘in, bo‘y-basti uzun, vujudiyu ust-boshi anchayin xarob yigit, qishloqdan xiyla olisdagi shifoxonada hamshira bo‘lib ishlaydigan Zulayho degan juvonni yaxshi ko‘rardi”-

deya tasvirlaydi. Yozuvchi o‘z uslubiga sodiq qolib Yusuf va Zulayhoga ko‘p ta’rif-tavsif bermaydi. Xalq og‘zaki ijodi va ilohiy kitoblardagi ishq dostoniga zamonaviy tus beradi. Bolaligida ko‘p shafqatsizliklarga duch kelgan, otasi barvaqt o‘tib ketib, hayotda ona-yu bir aka bilan qolgan bo‘lib juda qashshoq yashagan Yusuf avvalgi turmushidan nimadir sabab bo‘lib ajrashgan Zulayhoni sevib qoladi. O‘zbek mentaletetiga xos bo‘lmagan odat bo‘y yigitning beva ayolga uylanishi haqidagi mish-mishlarni yozuvchi “ko‘rimsiz choyxonaning kunda-shundalari” zimmasiga yuklaydi. Yozuvchi ushbu hikoyada xalq og‘zaki ijodining bir necha turlaridan mahorat bilan foydalanadi. Birinchidan, “Yusuf va Zulayho” haqidagi qadim sevgi afsonasiga murojaat qilsa, Zulayho qalbidagi iztiroblarini uning allasi orqali ifodalash uchun xalq qo‘shiqlariga murojaat qiladi. Hikoyada ayol qalbini, uning mehr-u muhabbatini, ko‘nglidan otilib chiqqan oh-u nolalarini qo‘shiqqa-Zulayhoning ruhiy iztirobini o‘g‘li uchun aytgan allasiga jo qiladi. Hikoyada Yusuf xarakteri – uning tug‘ilishidan to, hayotni anglashigacha bo‘lgan oraliqni badiiy vaqt sifatida emas, balki mash’um bir turmushning bir diyonatli inson hayoti sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi o‘z qahramonini shunday taqdirning egasi deb tanlaydi. Yusuf obrazini tahlil qilish asosida xarakter qirralari ochiladi: Yusuf obrazida voqelik falsafiy mushohadalar hikoyadagi muallif nutqida ham ko‘zga tashlanadi: “Tavba, ishq-muhabbatning ham risoladagisi tuzuk. Yo‘qsa odamni

odamlikdan chiqarib qo‘yar ekan”. Yusuf bolalikdan yolg‘izlikni yaxshi ko‘radi va ko‘p bora dashtga ketib qoladi. Uning ruhiyati majnunlikka yaqin, majnun kabi yolg‘izlikni istaydi: “Ey, Xudoyim, dashtga ham sig‘mayapman-ku, – dermish. – Dunyo yo‘q bo‘lib ketsa, bironta tirik jon qolmasa deb orzu qilaman. Bari nobud bo‘lib ketsa deyman!”[5;23]

Yozuvchi ijodining asosiy yutug‘i va qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashdagi o‘zgachalikning belgisi, u ortiqcha tafsilotlarga berilmasdan real-hayotiy tasvirlaydi. Badiiy adabiyotda inson obrazini to‘laqonli yaratish va uni o‘quvchi ko‘z oldida konkret jonlantirish uchun qahramon nutqidan, peyzaj san’atidan, badiiy psixologizmdan badiiy unsur sifatida foydalananish yozuvchi mahoratini belgilaydi. Personajlar ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti-harakatlari, gapso‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi ekanligini Isajon Sulton ijodidagi etakchi belgilardan sanaladi. Badiiy asarda har bir detal, har bir so‘z asar g‘oyasini, mazmun mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. “Yusuf va Zulayho” hikoyasidagi qahramon xarakterining shakllanishini tashqi faktor bilan emas, ichki faktor bilan qiyoslash mumkin. Shu sabab hikoyada Yusuf xarakteri murakkab chizilgan. Bir qarashda yosh bolakayning xatti-harakatlari zamirida yovuzlikni, boshqa tomonda hikoyaning barcha obrazlar harakatini ta’minlaydigan qahramon sifatida gavdalanadi.

Isajon Sulton qahramonlar xarakteri, ularning dunyoqarashi va ma’naviy olamini badiiy tahlil qilish maqsadida folklorga xos motiv va obrazlarga murojaat qilar ekan, jahon va turkiy xalqlar yozma adabiyoti namoyondalarining folklorizmlardan foydalanish borasida erishgan yutuqlari, qo‘llagan usullari va badiiy-estetik mezonlariga suyanib ish ko‘rgan. Yozuvchi asar syujet qurilishiga folklorizmlarni zo‘rma-zo‘raki ravishda tiqishtirgan emas. U o‘z qahramonlari hayotini bor bo‘y-basti bilan, tabiiyligicha tasvirlagan. Asarda berilgan har bir afsona, rivoyat xalq orasida qanday ommalashgan bo‘lsa, shundayligicha, ya’ni tabiiy holida syujet to‘qimasiga olib kirilgan. Bunday folklorizmlar zamiridagi milliy ruh personajlar qalbida ro‘y berayotgan jarayonlar bilan birlashib ketib, badiiy yaxlitlikni yuzaga keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қаюмов О. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси). Филол.фан.номз. дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 59.
2. Эшонқулов Ж. Миф ва бадиий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 147.
3. Раҳмат Р. “Муножот”дан “Боқий дарбадар”гача /И.Султон. Боқий дарбадар. Роман. Қисса. Ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 260-261.
4. Исажон Султон. “Тошкелинчак”/ Асарлар. Ҳикоялар. I жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 186.

5. Исажон Султон. “ Юсуф ва Зулайхо” /Ҳаззрати Ҳизр изидан. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2018. – Б. 158.
6. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 173-176.
7. Agzamovna, Kurbanova Feruza. "Study of Modern Uzbek Written Literature and Folklore." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.5 (2022): 142-145.
8. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.
9. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.
10. Qurbonova, Feruza. "Classic traditions and folklore motivations in the stories of Isajan Sultan." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 492-495.
11. Agzamovna, Kurbanova Feruza. "Artistic speech is a factor of creating the hero‘s spirit (on the stories of Isajan Sultan)." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 37-39.
12. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191

O‘ZBEK VA TOJIK TILLARI O‘RTASIDAGI TARIXIY VA LINGVISTIK ALOQALAR

Ramziya JO‘RAYEVA ,
Qo‘qon DU dotsenti, f.f.f.d.(PhD)
Munira HAKIMOVA ,
Qo‘qon DU filologiya fakulteti,
o‘zbek tili va adabiyoti
yo’nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada tojik tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan leksik birliklar va affiksal elementlarning o‘zaro ta’sir jarayoni tahlil etilgan. O‘zbek tiliga singib ketgan tojikcha so‘zlar va qo‘shimchalarning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari o‘zbek va tojik tillari o‘rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning tilshunoslikdagi ifodasini yoritadi va o‘zbek adabiy tilining shakllanish jarayonidagi o‘zlashma qatlamning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, tojik tili, o‘zbek tili, o‘zlashma so‘zlar, qo‘shimchalar, tillararo ta’sir, leksik o‘zlashuv, morfologik o‘zgarishlar, tarixiy til aloqalari, fonetik moslashuv, madaniy ta’sir.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, komparativistika – tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya’ni genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq tillarni o‘rganuvchi, ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bo‘yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi; til oilalarining, shu tizimlardagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar o‘rtasidagi genetik qarindoshlikni – ularning yagona bir manba (bobo til)dan kelib chiqqanligini aniqlash (tillarning genealogik tasnifi) ham Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maqsadlari doirasiga kiradi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tillar tarixini qayta tiklash (rekonstruksiya qilish)da asosiy tadqiqot vositasi sifatida kiyosiytarixiy metoddan foydalanadi; tadqiqotning eng umumiy shakli – (eng avvalo, fonetikani qamrab oladigan) qiyosiy-tarixiy grammatikalar va (leksikani namoyon etuvchi) etimologik lug‘atlar tuzishdan iborat.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida o‘zbek tili va boshqa tillar qiyoslanib atroflicha o‘rganilgan bo‘lsa-da , bu sohada o‘zbek va tojik tili o‘rtasidagi munosabat va fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar haqidagi ilmiy tadqiqotlar juda kam. Ma’lumotlarga qaraganda hozirda O‘zbekiston hududida 1 mln dan ko‘proq tojikzabon millatlar yashaydi. Ularning ko‘pchiligi Namangan, Farg‘ona, Toshkent va Samarqand viloyatlarida istiqomat qiladi[45].

O‘zbek va tojik xalqi o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik munosabatlari ancha qadimdan beri davom etadi. Tojik xalqining urf-odatlari, yashash tarzi, tarixi bizni bu xalqqa tutashtirib turadi.

X.Xomidovning izlanish natijalariga ko‘ra hattoki "O‘rxun-Enasoy" yodnomalarida turkiy va fors-tojik tilida so‘zlashuvchi xalqlar haqida faktlar ham keltirilgan ekan. "Devonu lug‘atit turk" asarida ham tojiklar bilan o‘zbeklar munosabati juda qadimiy ekanligi ta’kidlab o’tilgan[46].

O‘zbek tilidan tojik tiliga, tojik tilidan esa o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar miqdori anchani tashkil etadi. *Abgor, bekor, bobokalon, bedor* kabi so‘zlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

O‘zbek tilining tarixini, madaniyatini, yashash tarzi, davlat siyosatini, ma’naviy va iqtisodiy hayotini tojik xalqining ta’sirisiz o‘rganib bo‘lmaydi.

[45]https://www.natlib.uz/search/detail/CATTOT000003596554?mainLink=/search/tot&briefLink=/search/tot/result?lmtsn=_A_q=%D0%9C%D1%83%D1%85%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B0%D0%BB%D0%B8+%D0%B7%D0%BE%D0%BA%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2_A_lmt0=_A_lmtst=_A_st=KWRD_A_si=TOTAL

[46] https://www.natlib.uz/search/detail/CATTOT000003613848?mainLink=/search/tot&briefLink=/search/tot/result?lmtsn=_A_q=%D0%9C%D1%83%D1%85%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B0%D0%BB%D0%B8+%D0%B7%D0%BE%D0%BA%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2_A_lmt0=_A_lmtst=_A_st=KWRD_A_si=TOTAL

O‘zbek va tojik xalqlari Markaziy Osiyoda yonma-yon yashagan. Bu esa urf-odatlar, til, madaniyat va turmush tarzining o‘zaro aralashib ketishiga olib kelgan.

Tarixdan bilamizki, Mavorounnahr va Xuroson kabi hududlar o‘zbek va tojik xalqlari uchun umumiy bo‘lgan . Bu hududlarda ijod qilgan ko‘plab shoirlar, olimlar (Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy va boshqalar) ikki xalqning ma’naviy dunyosi va tiliga birdek ta'sir ko‘rsatgan. Shu o‘rinda Alisher Navoiyning 2 tilda turkiy va fors tilida ijod qilgani ham bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Tojik tili – hind-yevropa tillari oilasidagi eroniy tillar guruhining janubi-g‘arbiy guruhchasiga mansub til. Asosan, Tojikiston va Afg‘oniston shimolida, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonning ayrim tumanlarida, qisman Eronda tarqalgan. Tojik tilida jami 35 mln.dan ortiq (mas., Tojikistonda 10 mln.dan, O‘zbekistonda 2 mln (rasmiy) ortiq insonlar muloqot qiladi

Fonetik tizimida 6 unli va 24 undosh fonema bor. Urg‘u dinamik xususiyatga ega, ko‘pincha so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Grammatik qurilishi agglyutinativ xususiyatga ega. Ot, sifat, son turkumlaridagi so‘z o‘zgarishining qadimda rivojlangan tizimi hozirda yo‘qolgan. Jins va kelishik kategoriyalari mavjud emas. Kelishik munosabatlari sintaktik usulda ifodalanadi. Izofa otlar aloqasida eng keng tarqalgan vositalardandir. Fe’l sohasida ko‘plab analitik shakllar va birikmalar uchraydi. 4 ta mayl (aniqlik, buyruq, shart va ehtimollik) bor[47].

Tojik tilining fonetik tizimi ham o‘zbek tili bilan deyarli bir xil. Tojik tili fonetik tizimida 6 unli va 24 ta undosh fonema mavjud. Bu ko‘rsatkichlar o‘zbek tilida ham shunday miqdorga ega.

Tarixda muayyan alifbodan foydalanish biror xalqning an'analariga aylanib qolgan. Ammo Tojikistonda avval arab alifbosi, keyin qisqa muddat lotin, keyin esa Tojikistonda eng ko‘p ishlatiladigan alifbo bo‘lib qolayotgan kirill alifbosi qo‘llangan. Buxoro yahudiylari gapiradigan buxoriy shevasi an’anaviy ravishda ibroniy alifbosidan foydalangan, ammo bugungi kunda kirill alifbosi yordamida yoziladi.

Fors alifbosi 1993-yilda ta’lim va jamoat hayotiga kiritildi. 1999-yilda davlat tili qonunidan forscha so‘z olib tashlandi. Amaldagi de-fakto standarti kirill alifbosi edi va 1996-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, aholining juda oz qismigina fors alifbosini o‘qiy olgan. Tojik alifbosi ham o‘zbek lotin alifbosiga o‘xshab muammoli bo‘lgan[48].

[47] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tojik_tili
[48] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tojik_alifbosi

O‘zbek tiliga o‘zlashgan *-be , - no, -kam , -ser* kabi qo‘shimchalar tojik tilidan o‘zlashgan va tojik tilida prefiks va mustaqil so‘zlardir. Tojik tilida qo‘shimchalar prefiks va suffikslarga ajratiladi. Bu o‘zbek tilida qo‘shimchalar so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarga ajratilgan kabi. Prefikslar tilshunoslikda morfemaasosning oldida keluvchi va uning leksik yoki grammatik ma’nosini o’zgartiruvchilardir. O’zbek tili uchun begona atamadir, ya’ni o’zbek tili grammatikasida bunday tushunchaning o’zi yo’q. O‘zbek tilida o’zlashgan prefikslarga *be, ba-, no-, ham-, bar, kam- xush-* kabilar misol bo’la oladi va shuni ta’kidlash kerakki, bu qo’shimchalar so’z yasalishida ancha serunumdir (barkamol,hamyotoq, bebosh, nosoz va boshqalar).

O’zbek tiliga tojik tilidan o’zlashgan prefikslar haqida gap ketar ekan, o’zbek tilida mavjud bo’lgan mazkur prefikslarning alternativlari haqida ham to’xtalib o’tmoqlik lozim. Bu tojik tilidan o‘zlashgan qo‘shimchalarning o‘zbek tilida ham shu qo‘shimchaga ma’nosi yaqin muqobili borligidir. Masalan, *no-* va *be-* prefikslariga alternativ sifatida *-siz* so’z yasovchi affiksi qaraladi: *nobaxt-baxtsiz, noumid-umidsiz, beodob-odobsiz, benomus-nomussiz* kabi. Bu hodisani ilmiy adabiyotlarda derivatsion
sinonimiya hodisasi deyiladi.

Bunday qo’shimchalarning omonimlik hodisasi nafaqat tojik tilidan o’zlashgan prefikslar, balki affikslar (suffikslar)da ham uchraydi. Masalan, *-mand* qo’shimchasi bilan *-li* qoo’shimchasini olish mumkin: *davlatmand – davlatli* kabi.

O’zbek tilida umumiste’moldagi ayrim so’zlar borki, ushbu so’zlarning kelib chiqishi tojik tili bilan aloqador. Xususan, “*pijama*” so’zining etimologiyasi fors-tojikchaga borib taqaladi. *Poy* va *joma* so‘zlaridan, “*oyoq uchun kiyim*” degan ma’noni anglatadi. Yevropa tillariga hind tilidan o‘tgan. Rus tiliga esa nemis tilidan kirgan. Dastlab yengil va keng, belda bog‘ich bilan tutib turiluvchi ishtonlar shunday atalgan. Poyjoma turkiy xalqlarda ichto‘n – ishton deb nomlangan.

Sarupo so‘zi forscha *sar – bosh, poy – oyoq* so‘zlaridan yasalgan. Sarupo – bosh-oyoq kiyim.Vaqtlar o‘tib, so‘zdagi u tovushi tushgan va so‘z sarpoga aylangan. Sarpo hozirgi tilimizda bosh-oyoq kiyim va umuman kiyim-bosh ma’nosiga ega. Jonli tilda bu so‘z asosan to‘y-marosimlar bilan bog‘liq o‘rinlarda ishlatiladi. Masalan, kuyovning to‘y uchun hozirlangan kiyimlari sarpo deyiladi.

Gul so‘zi ham aslida fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan hisoblanadi. Haqiqiy o‘zbekona tilda esa gul so‘zi chechak deyilishi kerak.

Turkiylarning bayramlaridan biri bo‘lgan Navro‘z ham aslida fors-tojik tilidan olingan. *Nav – “yangi”, ro‘z* esa “*kun”* degan ma’nolarni anglatadi.

Bundan tashqari o’zbek tiliga tojik tilidan faqatgina so‘zlar emas iboralar, maqollar va topishmoqlar ham o‘zlashgan.

Tojik xalqida shunday maqol bor: Kam- kam xuram hamish xuram. Tojik zaboni tushunadiganlar bilishadi va buning ma’nosi: Oz-oz ye, doim ye, deganidir.

1. Zaboni murg‘ona murg‘on medonat (Qush tilini qush biladi).
2. No six so‘zadu no kabob (Six ham kabob ham kuymasin).
3. Takka boshadu shir dixad (Taka bo‘lsa ham sut bersin).
4. Sari daraxti mevador ham ast (Mevali daraxtning boshi egik bo‘ladi).
5. Daraxt dar yak sabz meshavad (Daraxt bir joyda ko‘karadi).
6. Sangi vazmina ob namebadorad (Og‘ir toshni suv ko‘tarmaydi).
7. To shamol naboshad, shoxi daraxt namejumad (Shamol bo‘lmasa daraxt qimirlamaydi).
8. Davidani go‘sola to kaxdon (Buzoqning chopgani somonxonagacha).

Bu yerda biz o‘zbek va tojik tili bir-biriga qay darajada o‘xshashligi va farqli tomonlarini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbek va tojik tillari uzoq tarixiy jarayonlarda bir hududda yashagan xalqlarning madaniy va til aloqalari natijasida bir-biriga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Bu tillar orasidagi lingvistik aloqalar, ayniqsa, leksik, fonetik va sintaktik jihatdan yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilidagi ko‘plab arabcha va forscha so‘zlarning mavjudligi, tojik tilida esa turkiy unsurlar uchrashi ikki tilda doimiy aloqadorlik va o‘zaro ta’sir mavjud bo‘lganini isbotlaydi. Ushbu tarixiy va lingvistik yaqinlik, nafaqat tillar rivojida, balki xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik va madaniy uyg‘unlikni mustahkamlashda ham muhim omil hisoblanadi. Kelgusida bu aloqalarni chuqur o‘rganish, ikki til taraqqiyotiga xizmat qilish bilan birga, mintaqaviy tilshunoslikni boyitishga ham hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. https://izoh.uz/
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbek_tilining_izohli_lug%CA%BBati_(2022)
3. https://uz.m.wiktionary.org/wiki/Turkum:O%CA%BBzbekchada_forschadan_o%CA%BBzlashgan_so%CA%BBzlar
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tojik_tili
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tojik_alifbosi

O‘ZBEKISTONDAGI TIL SIYOSATI BILAN BOG‘LIQ BA’ZI MUAMMOLAR

Abdullayev Shuhrat Xayrullayevich,

O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi huzuridagi
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti xodimi

epostasabdulla@inbox.ru

Annotatsiyasi

Maqola shaxs, birinchi navbatda, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda til va adabiyotning o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan. Madaniy o‘ziga xoslik, millatlararo hurmat va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishning asosiy quroli sifatida ona til, davlat tili va xorijiy tillarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda milliy merosni asrab-avaylash, o‘zbek tilini rivojlantirish, ko‘p tillilikni rag‘batlantirishga qaratilgan til siyosatiga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada adabiy merosni ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirishda pedagogik yondashuvlar, shuningdek, yosh avlod ma’naviyatini tarbiyalashda badiiy so‘zlarning o‘rni tanqidiy tahlil qilingan. Aholi o‘rtasida ma’naviy-axloqiy tamoyillarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilayotgani ta’kidlangan. Ta’lim tizimi doirasida o‘quvchilarning til va axloqiy rivojlanishining uyg‘un kombinatsiyasi zarurligi to‘g‘risida xulosalar chiqariladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida til siyosatining zamonaviy yo‘nalishlari, jumladan, uch tilli ta’limni joriy etish, lotin yozuviga o‘tish, milliy ozchiliklar tillarini qo‘llab-quvvatlash va madaniy muvozanatni saqlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: millat, til, adabiyot, shaxs, tarbiya, ta’lim, g‘oya, muammolar, alifbo, siyosat.

Аннотация

Статья посвящена исследованию роли языка и литературы в духовно-нравственном воспитании личности, в первую очередь подрастающего поколения. Рассматривается значение родного, государственного и иностранных языков как ключевых инструментов формирования культурной идентичности, межнационального уважения и моральных ценностей. Особое внимание уделяется языковой политике Узбекистана, направленной на сохранение национального наследия, развитие узбекского языка и поощрение многоязычия. В работе критически анализируются педагогические подходы к интеграции литературного наследия в учебный процесс, а также роль художественного слова в воспитании духовности у подрастающего поколения. Особое внимание уделяется на формирование моральных ориентиров у населения. Сделаны выводы о необходимости гармоничного сочетания языкового и нравственного развития учащихся в рамках образовательной системы. Также рассматриваются современные направления

языковой политики в условиях глобализации, включая внедрение трёхъязычного образования, переход на латинскую графику, поддержку языков национальных меньшинств и сохранение культурного баланса. Подчёркивается роль языка и литературы в духовно-нравственном воспитании молодёжи, формировании патриотизма, толерантности и национальной идентичности. Анализируется международный опыт реализации многоязычного образования, учитываемый в образовательных реформах в мире.

***Ключевые слова*:** нация, язык, литература, личность, воспитание, образование, идея, проблемы, алфавит, политика.

Abstract. The article is devoted to study of the role of language and literature in the spiritual and moral education of individual, primarily the younger generation. The significance of native, state and foreign languages as key instruments for the formation of cultural identity, interethnic respect and moral values is considered. Particular attention is paid to the language policy of Uzbekistan aimed at safeguarding the national heritage, developing the Uzbek language and encouraging multilingualism. The work critically analyzes pedagogical approaches to the integration of literary heritage into the educational process, as well as the role of artistic words in the education of spirituality of younger generation. Particular attention is paid to the formation of moral guidelines among the population. Conclusions are made about the need for harmonious combination of linguistic and moral development of students within the educational system. Also considered are modern directions of language policy in the context of globalization, including the introduction of trilingual education, the transition to the Latin script, support for the languages of national minorities and safeguarding cultural balance. The role of language and literature in the spiritual and moral education of youth, formation of patriotism, tolerance and national identity is emphasized. The article analyzes international experience in implementing multilingual education, taken into account educational reforms around the world.

***Key words*:** nation, language, literature, individuum, upbringing, education, idea, problems, alphabet, politics

Jamiyat barcha qatlamlariga aloqador voqea-hodisalar yuzasidan fikr-mulohaza bildirish bular bo‘yicha rosmana xabardorlik hamda etarlicha bilim va tajriba bilan birga anchagina shijoat, qat’iyyat asosidagi o‘ziga xos nuqtai nazar va chinakam vatandoshlik hissi bo‘lishini taqozo etadi. Muhokamaga qo‘yilgan “Shaxs ma’naviyatining shakllanishida til va adabiyotning roli” mavzusi mo‘jaz va bejirim bo‘lib ko‘rinishi bilan birga, unda jamiyatning qator muammolari

mujassam. Yana aynan ushbu mavzu nomi tahlili misolida aytish mumkinki, unda ko‘tarilgan masalalar istalgan makon va zamondagi har qanday jamiyatga taalluqli. Mantiqiy jihatdan qismlarga bo‘linsa undan “Shaxs”, “Ma’naviyat”, “Shaxs ma’naviyati”, “Shaxs ma’naviyati shakllanishi”, “Jamiyatda axloq-odob masalalari”, “Yoshlar tarbiyasi”, “Ta’lim tizimidagi muammolar”, “Til masalalari”, “Adabiyotga oid fikr-mulohazalar”, “Milliy g‘oya”, “Millat manfaatlari” kabi o‘nlab mavzular kelib chiqadi. Hozirgi vaqtda yurtimiz va millatimiz ham ayni masalalarga ro‘baro‘ bo‘layotgani va ularning echimiga ancha sa’y-harakat sarflanayotganini e’tirof etish joiz. Quyida shunday muammolar tasnifi va echimi bo‘yicha bir qator mushohadalar taqdim etilmoqda. Ulardan ba’zilari odatiy ta’rif-tavsiflardan farqlanib, qaybir jihatdan tanqid, tanbeh, shikoyat, kinoya yoki taajjub qoliplariga tushishi ham mumkin. Xo‘sh, nachora, nimanidir vaqtida aytmay afsuslangandan ko‘ra bor dardni ochiqlagan maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Axloqiy tarbiya doimo ezgu tuyg‘ularni uyg‘otishdan boshlanadi va madaniyat buni targ‘ib qilishi lozim. Milliy psixologiyamiz ruhiyatga, ma’naviyatga, odob-axloqqa e’tibor kuchayishi bilan ajralib turadi; xalqimiz haqiqatan o‘ziga xos madaniyat va san’atga ega. Adabiyot ruhiy butunlikni saqlash istagini uyg‘otadi. Asli bunda kelajakdagi insoniy munosabatlar modellashtiriladi, chunki o‘quvchi-talabaning asosiy maqomi – Inson.

Yuksak axloqli kishilar ko‘ngilchanligi bilan birga kuchli axloqiy me’yorlarga ega bo‘lishi ularga boshqalarning his-tuyg‘ularini chuqur tushunish va qadrlash imkonini beradi. Ular o‘z xatti-harakatlari haqida tanqidiy fikr yuritadilar va madaniyat ta’sirida shakllantirilgan axloqiy me‘yorlar asosida mas’uliyatli qarorlar qabul qiladilar. Ayniqsa, adabiyot ana shu fazilatlarni rivojlantiruvchi, odamlar kundalik hayotda duch keladigan murakkab axloqiy mavzular anglanishini chuqurlashtiruvchi kuchli vositadir. Jamiyat a’zolari o‘z milliy madaniyatiga oshno bo‘lishi masalasi hozir nihoyatda dolzarb. Ehtimol, bu aniq ifodalangan milliy g‘oya etishmasligini madaniyat to‘ldirishi ko‘zda tutilishi bilan bog‘liqdir.

Ta’lim jarayonida axloqiy tarbiya umummilliy muammo sifatida talqin etilmoqda. Bu shunday muammoki, mamlakat kelajagi uning echimiga bog‘liq, chunki jamiyat taraqqiyotining asosi nafaqat aql-idrok va ong, balki odob-axloq bilan bog‘liq. Jamiyatlarda ijtimoiy va axloqiy deformatsiya kuzatilayotgan hozirgi zamon sharoitida axloqiy me’yorlar ezilgan-pachoqlangan bo‘lib, yosh avlod ko‘pincha ma’naviyatsizlik va tajovuzkorlikda ayblanadi. Bolalar yaxshilik va yovuzlik, odob-axloq va nomussizlik, ijozat berilgan va yaqinlasishga ruxsat yo‘q ishlar o‘rtasidagi chegaralar xiralashgan, pragmatik qadriyatlarning ahamiyati ortib boradigan, axloqiy normalar va shaxsiy rivojlanish tamoyillariga e’tibor tobora

kamayib borayotgan jamiyatda yashashga majbur bo‘lmoqda. Jamiyat ma’naviy hastaligi oqibatlari sifatida shaxsning qadriyat-ma’naviyatga oid axloqiy mihvari shakllanmagani, xatti-harakatlari uchun shaxsiy javobgarlik zarurligi tushunchasi yo‘qligini keltirish lozim. Ta’lim, albatta, axloqiy tarkibiy qismga ega bo‘lishi kerak, faylasuf I.Kant aytganidek: “Inson yaxshilik uchun tarbiyalanishi shart”.[49]

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘sib kelayotgan avlod hozirgi davrda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda yuz berayotgan destruktiv voqea-hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan “ma’naviy krizis” ta’sirida. Yoshlar muhitida kechayotgan buzilish jarayonlarining sabablari orasida tadqiqotchilar quyidagilar kabi vaziyatlarni alohida ajratib ko‘rsatadi:

demokratik jamiyat bunyod etilishi stixiyali tarzda, ustuvor qadriyatlarga mo‘ljal qilinmagan holda kechmoqda, ushbu jarayonlar to‘g‘ri boshqarilmasligi og‘ir oqibatlarga olib borishi mumkin;

qadriyat mo‘ljallarini amalga oshirish imkoniyati yo‘qligi yoshlar ma’naviy ta’lim-tarbiyasi qovushimsizligiga olib keladi;

tarbiya jarayonida oila va maktabning roli susayadi;

qadriyatlar o‘zgarishi tarbiya bilan shug‘ullanadiganlar tomonidan odatda hisobga olinmaydi, ular tarbiyaning hozirgi vaqt uchun zarur bo‘lgan shakl va usullariga ega emaslar;

ta’lim borgan sari pragmatik tus olib boradi;

hozirgi zamonda yoshlar muhitida individualizm kuchayishi va kollektivizm inqirozi kuzatiladi.

Shuning uchun, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan yo‘lga solish muammosi bugun har qachongidan ham dolzarb. Ma’naviyat va axloq – bu shaxsning eng muhim, asosiy xususiyatlari. Ma’naviyat – shaxsning tanlangan maqsadlar sari intilishi, ongning qadriyat xususiyati o‘laroq ta’riflanadi. Axloq – odamlarning bir-biriga va jamiyatga nisbatan xulq-atvorining umumiy tamoyillari va normalari yig‘indisidir. Birgalikda ular shaxsning asosini tashkil qiladi. Ta’limning ustuvor vazifalaridan biri yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdir. Shaxsning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi pedagogik, ijtimoiy va ma’naviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladigan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Yigit-qizlar shaxsining ma’naviy-axloqiy shakllanishi va rivojlanishiga, asosan, tabiiy (biologik), pedagogik, ma’naviy va ijtimoiy-madaniy omillar guruhlari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.[50]

[49] Л.З.Хизриева, Методическая статья "Литература как фактор духовно-нравственных основ личности"// https://multiurok.ru/files/metodicheskaia-statia-literatura-kak-faktor-dukhov.html

[50] Л.С.Бурдякова, Духовно-нравственное воспитание молодежи как педагогическое явление, Московский гуманитарный университет

O‘quvchilar shaxsiyati ma’naviy-ma’rifiy sifatlari shakllanishining maqsadi birinchi navbatda quyidagi aniq vazifalar bilan bog‘liq:

1. Axloqiy tamoyillar va me’yorlar asosida ma’naviy rivojlanish, ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish, uzluksiz ta’lim, o‘z-o‘zini tarbiyalash va umuminsoniy ma’naviy-axloqiy kompetentsiya qobiliyatini shakllantirish – “yaxshiroq bo‘lish”;
2. O‘quvchining jamiyatda yaxshilik va yomonlik, nima to‘g‘ri va nima nomaqbul ekanligi haqidagi fikrlar bilan aloqador muayyan xulq-atvor zarurligini anglashiga asoslangan holda axloq asoslarini shakllantirish;
3. O‘z-o‘zini ijobiy axloqiy baholash, hurmat qilish va hayotiy optimizmni mustahkamlash;
4. Talabalar tomonidan asosiy milliy qadriyatlar, milliy va etnik ma’naviy an’analarni qabul qilish;
5. Estetik ehtiyojlar, qadriyatlar va his-tuyg‘ularni shakllantirish;
6. Vatanparvarlik va vatandoshlik o‘zligini anglash asoslarini shakllantirish;
7. Ona yurt porloq kelajagiga ishonch, Vatan oldidagi shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otish;
8. Vatanparvarlik va vatandoshlik hamjihatligini shakllantirish;
9. Jamiyat asosi sifatida oilaga munosabatni shakllantirish;
10. Ota-onalarga hurmat, kattalar va kichiklarga ongli, g‘amxo‘r munosabatlarni shakllantirish.

Aynan shu vazifalar zamonaviy ta’lim konsepsiyasining asosini tashkil etishi kerak, xususan, adabiyot va tilga o‘qitishda, va shuning uchun ularni o‘qitishning mazmuni, uslublari va usullarini yangilashni nazarda tutadi, uning tarkibiy ismlaridan biri ma’naviy va moddiy madaniyat qadriyatlarini til orqali o‘zlashtirishdir. Til, adabiyot doxil madaniyat hamda inson faoliyati bir-biri lanchambarchas bog‘liqdir. Bu “uzviylik” muammoni til - madaniyat - inson degan yagona kontekstda ko‘rib chiqishga imkon beradi.[51]

Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, adabiyot madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan holda o‘quvchiga personajlarga hamdard bo‘lish, ularning ichki ziddiyatlari va axloqiy tanlovlariga kirib borish uchun o‘ziga xos sharoit yaratadi, bu esa shaxsiy axloqiy oriyentirlar shakllanishiga xizmat qiladi. Atoqli mualliflar qalamiga mansub asarlar orqali kitobxon inson tabiati, ijtimoiy munosabatlarning turli qirralarini ko‘radi, bu esa uning dunyoqarashini kengaytirish, adolat, halollik, mehr-oqibat, fidoyilik kabi tushunchalarni chuqur anglash imkonini beradi.

[51] А.В.Крамская, Прибрежненский аграрный колледж, Республика Крым. Духовно-нравственное воспитание как основа формирования личности будущего профессионала

Qahramonlarning taqdiri haqida o‘qib, biz hamdardlik va tushunishni o‘rganamiz, bu bizda hamdardlik va boshqalarning azoblari va quvonchlarini chuqur idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, adabiyot orqali biz axloqiy dilemmalarga kelamiz, ya’ni adabiyot qahramonlarga qiyin axloqiy tanlovlar qo‘yib, o‘quvchiga qaror qabul qilish jarayonini kuzatish va o‘z prinsip va qadriyatlari haqida o‘ylash imkonini beradi. Adabiy asarlarni muhokama qilish, mazmunini tahlil qilish yuksak axloqiy shaxsni shakllantirishning muhim jihati bo‘lgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, adabiyot nafaqat ko‘ngil ochadi, balki yuksak axloqiy me’yorlarni shakllantirishda katalizator bo‘lib xizmat qiladi, odamlar axloqli, o‘z xatti-harakat va qarorlarida yanada sezgir va mas’ul bo‘lishiga yordam beradi.

Endi esa Vatanga qaytib, yuqoridagi satrlarda ta’rif-tavsif etilishi boshlangan muammolar va ularning echimlari haqida bir oz mushohada qilsak...

Shaxs ma’naviyati mas’uliyat, mehribonlik, samimiyat, mehnatsevarlik, insof, halollik kabi xususiyatlardan iborat bo‘lishi nazarda tutilishi bilan birga, dangasalik, qo‘rqoqlik, hasad, ziqnalik, shijoatsizlik singari salbiy odatlarni ham qamrab olishi mumkin. Albatta, ma’naviyat shakllanishida ijtimoiy muhit, iqtisodiy vaziyat, tinchlik, totuvlik, barqarorlik, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot, qadriyatlarga ehtirom, millat yakdil-yaxlitligi va uning muayyan g‘oyaga egaligi, “yumshoq kuch” vositasida olov purkab sudralib kelayotgan tashqi xavf-xatarlarga javob berish qobiliyati, san’at, madaniyat kabi qator omillar muhim rol o‘ynaydi. Yana ta’kidlab aytish zarurki, ularning barchasi sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, iqtisodni diversifikasiyalash, investitsiyalar jalb qilish, tashqi siyosat olib borish, davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, valyuta-oltin zaxiralarini ko‘paytirish va boshqa xayrli ishlardan ham ulug‘vorroq bo‘lgan vazifalardir.[52]

Shu qatorda til va adabiyot masalalari alohida o‘rin tutadi, va lekin kezi kelgada ta’kid va nadomat bilan aytib qolish joizki, hozirga kelib ular hatto yurtimizda ham eng qattiq zarbaga uchrayotgan sohalardir. Afsuski, bu zarbalarni berayotgan ko‘p hollarda o‘zimiz, sababi esa – beparvolik, kaltabinlik, nodonlik, ... Yana boshqa bir nuqtai nazardan yondashiladigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tiliga nisbatan ochiqchasiga qo‘poruvchilik ishlari olib borilayotgani va uning kasofati adabiyot, san’at, madaniyat, ta’lim, tibbiyot, iqtisodiyot – xullas, jamiyatning barcha sohalariga urganini kuzatish mumkin. Buning isboti shundoqqina suvning yuziga chiqib turibdi: televidenie va radio, kinematograf, reklama, estrada va boshqa yo‘nalishlarda o‘zbek tili istalgan tarzda buzilmoqda, ko‘cha-ko‘yda o‘zbekcha peshlavhalar tobora kamayib, ularning o‘rnini ierogliflar egallamoqda, ko‘z o‘ngimizda yosh avlodning anchagina qismi

[52] Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor https://e-adabiyot.uz

ruslashmoqda, o‘zbekcha maktablar soni kamayib bormoqda, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi hech bir aqlga sig‘maydigan sabablarga ko‘ra oxirgi 30 yilcha muddatda bir necha bor o‘zgartirildi, lekin shunga qaramay hozirgacha uning islohi nihoyasiga etmagan. Tabiiyki, alifbo nuqsonliligi jamiyat hayotining mutlaqo barcha sohalariga salbiy ta’sir qilmay qolmaydi: bu eng avvalo ta’lim tizimidagi boshboshdoqlik, matbaa-noshirlikdagi ziyonkorlik, imlo qoidalari buzuq, qo‘pol va bema’niligi, aholi turli guruhlarining savodsizligi, o‘zbekchaning boshqa turkiy tillardan uzoqlashuvi, uning yurtimizda davlat tili maqomiga putur etishi kabi fojiali holatlarda namoyon bo‘lmoqda. Afsuski, jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga solish borasidagi urinishlar hozirgacha ham zoye ketmoqda. Alifbo islohi bo‘yicha galdagi (!) loyihalar chuqurroq o‘rganilsa, “NEGA.?!” degan savollar qiynayveradi:

Nega joriy ikki alifbodagi nuqson va g‘alizliklarni butunlay yo‘qotib, har jihatdan mukammalini yaratish mumkin emas?

Nega turli davlatlarda alifbolarni isloh qilish tajribasi, shuningdek har xil alfavitlarning o‘ziga xos tomonlaridan unumli foydalanishga harakat qilinmaydi?

Nega tovushlar ifodalanishida adabiy til va shevalar xususiyatlariga har jihatdan mos keladigan yondashuvlarni qo‘llab bo‘lmaydi?

Nega turkiy tillar alifbolari yaqinligi, iloji bo‘lsa yagonaligini ta’minlash yo‘lida imkon qadar dadilroq qadamlar qo‘yishdan qo‘rqiladi?

Nega o‘zbek tilining yurtimizda, shuningdek mintaqa va dunyo miqyosida nufuzini oshirish choralarini ko‘rishdan istihola qilinadi?

Nega o‘zbekcha hamma uchun maqbul, oson, xalqchil, qulay til bo‘lmasin?

Nega o‘zbek adabiy tilini yaxshi bilish tojik, fors, arab, rus, turkiy va boshqa tillarni o‘rganishda qulayliklar yaratishi uchun zamin hozirlashdan qochish kerak?

Nega o‘zbek tilidagi turli leksik qatlamlarga oid tovushlar ifodalanishi xususiyatlarini hisobga olish muhim emas?

Nega turli sohalar rivojida o‘zbek tilining roli kuchaymasin?

Nega ishga izchil, tartibli, mantiqiy yondashuvda qat’iyat ko‘rinmaydi?

Nega?... Nega..? NEGA-A-A..?!..

Bulardan esa yanada jiddiy savollar kelib chiqadi: shunday nodir tarixiy fursat paydo bo‘lganda, o‘zimiz va boshqalar boshdan kechirgan tajribalarga asoslangan holda anchagina mukammal bir tizim yaratish imkoni borida va masalaning oydan-kunan ham ravshan echimi yaqqol ko‘rinib turganda o‘zbekchani boshqa turkiy tillardan alohida qo‘yadigan, uni nafaqat ajnabiylar, balki o‘zbeklar o‘rganishlari uchun ham qiyin holatga keltiradigan va butun dunyoga kulgili bir shaklda ko‘rsatadigan alifbo “ixtiro” qilish nega va kimga kerak bo‘ldi ekan-A?!.. Balki buning zamirida milliy g‘oya va manfaatlarga zid xatti-harakat va tamoyillar

yotar?.. Mabodo, ongli va maqsadli ravishda ichidan kemirish jarayonlari kechmayotganmikin?!... Shu yo‘l bilan millatni saratonga mubtalo qilish ko‘zda tutilmaganmikin?!!!... Ehtimol, yuz yildan ortiq muddat ushbu sohada chekilayotgan aziyatlarning mohiyati – o‘zbek millati taraqqiy etishi, uning madaniyati gullab-yashnashi, avlodimiz barkamol bo‘lishi kimlarningdir strategik rejalariga mos tushmasligidadir?!.. Hammamizga ma’lumki, o‘zbek tili o‘ziga xos tomonlari (yashirin singarmonizmi, qarluq, qipchoq va o‘g‘uz shevalari asosidaligi tufayli o‘nlab xalqlar uchun yaqinligi, qadimdan turli davlatlarda rasmiy til maqomiga ega bo‘lib kelgani, katta bir millat, jumladan barcha qo‘shni davlatlarda yashaydigan ko‘p sonli avtoxton aholi hamda dunyoning turli o‘lkalaridagi o‘zbek diasporalari vakillari uchun ona til ekanligi, har jihatdan rivojlangani, ..., ..., ..) bilan turkiy tillar orasida alohida mavqega ega. To‘g‘ri yo‘nalishda faoliyat yuritilsa, uni dunyo miqyosida munosib o‘rin egallashi mumkin bo‘lgan yangi o‘rtaturk tili uchun asos darajasigacha ko‘tarish ham ehtimoldan xoli emas. Albatta, bu, bizdan boshqalar uchun, aniqroq qilib aytilsa, hech qanday manfaat bermaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu – o‘ziga xos tarixiy musobaqa, kurash bo‘lib, undagi muvaffaqiyat yoki boyberishlar Vatan va xalq kelajagini belgilaydi.

Butun xalq taqdiri va istiqboliga daxldor tashabbuslar jiddiy yondashuvni, mavhumlik va pala-partishliklardan qochishni, aniq, ustuvor, keng qamrovli, olamshumul maqsadlar qo‘yilishini taqozo etadi. Alifboni o‘zgartirish yoki isloh qilish ham aynan shunday ishlardandir. Bu boradagi faoliyatni ma’qul, izchil va tizimli yo‘lga qo‘yish esa muvaffaqiyatning asosiy omilidir. Mayli, ish cho‘zilar, bir oz kechikish bo‘lar, lekin, shoshgancha nomigagina yana bir bedavo nimadir “yaratib”, dunyo ahlining istehzoli kulgisiga qolish AQLDAN EMAS! Jilvador serqirra yirik olmos kabi bebaho boyligimiz bo‘lgan go‘zal o‘zbekchani yanada yuqori bosqichga ko‘tarish imkoni paydo bo‘lgan fursatdan unumli foydalanmasak, erk va ixtiyorimiz o‘zimizda bo‘la turib, ilm-fan va madaniyat ravnaqi uchun birlamchi vosita bo‘lgan ona tilimizga xiyonatkorona befarq munosabatda bo‘lsak buyuk ajdodlarimiz ruhlari yomon chirqiraydi, hozirgi va kelajak avlodlar esa bizni **ASLO KECHIRMAYDI!!!**

Bu o‘rinda o‘zbek tilining dunyodagi mavqei hamda yurtimizdagi til siyosati haqida bir oz so‘z yuritish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Ma’lumki, o‘zbek tili Afg‘oniston shimoliy viloyatlarida ham qaybir darajada rasmiy maqomga ega, shuningdek, Markaziy Osiyo barcha davlatlaridagi avtoxton aholi ma’lum qismi va dunyoning ko‘pgina davlatlaridagi o‘zbek diasporasi vakillari uchun ona tildir. Shu bilan bir vaqtda o‘zbek tilining ko‘p sonli shevalaridan tashqari adabiy shakllari ham birqancha ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Afg‘oniston o‘zbekchasi sho‘ro davrida yaratilgan adabiy me’yorlar ta’siriga ko‘p ham uchramagan, u arab

xatiga asoslangan anchayin arxaik o‘zbek tilidir. Arab yozuvidan foydalanuvchi o‘zbeklar, bundan tashqari, Pokiston va Sharqiy Turkistonda yashaydi. Pokistonda Afg‘oniston o‘zbekchasidan foydalanilsa, Shinjandagi o‘zbeklar amalda uyg‘ur tilida yozishadi, lekin buni o‘zbekcha deb hisoblashadi, uyg‘ur va o‘zbek tillari bir-biriga juda yaqinligi shunday sotsiolingvistik vaziyatni keltirib chiqargan. Yuqorida bayon qilinganidek, yana bir muammoli (shunaqamikin?..) masala – o‘z Vatanida o‘zbek tili uchun ayni vaqtda ham kirill, hamda lotin yozuvlari asosidagi ikki alifbo amalda ekanligi, garchi ikkinchisi jiddiy islohga muhtoj bo‘lsa-da.

Dunyo miqyosida o‘zbek tili jozibadorligini oshirishning yana bir yo‘li – qo‘shni davlatlarda uning maqomini qayerda davlat miqyosida, yana qay erda – ma’lum hududlarda muayyan darajaga ko‘tarish choralari ko‘rilishiga erishishdir. O‘z-o‘zidan ma’lumki, buning uchun eng avvalo siyosiy iroda zarur, qolaversa bu keng miqyosdagi tadqiqotlar, muzokaralar, bahslar, munozaralar, kelishuvlar, yonbosishlar, ilmiy izlanishlar, ijtimoiy so‘rovlardan iborat jiddiy ishlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Lekin, bu mashaqqatli sa’y-harakat natijada Katta Turkiston miqyosida millatimizning madaniy jihatdan yaxlitligiga erishish mumkin.

Albatta, yurtimizda ham davlatning til siyosati borasida anchadan beri echimini kutayotgan masalalarni hal qilish vaqti kelganini tan olish zarur va bu bilan ijtimoiy barqarorlikka katta hissa qo‘shilgan bo‘lardi. Sirasini aytganda, O‘zbekiston ko‘pmillatli mamlakat bo‘lishi bilan birga, asosan turkiy, tojikcha va rus tillarida so‘zlashuvchi katta bir xalqning yagona va bo‘linmas Vatanidir. Yurtimizda 130 dan ortiq millat vakillari mutlaqo teng huquq bilan hamjihatlik va xalqlar do‘stligi sharoitida yashab kelayotgani butun dunyoga ma’lum.

Ayni paytda shunday bir o‘ziga xos vaziyatni ham ko‘rish mumkinki, yurtda ko‘pchilik turli o‘zbek shevalarida so‘zlashi bilan birga, rosmana o‘zbeklarning muayyan qismi tojikchani, yana bir qismi ruschani o‘zlari uchun ona til sifatida ko‘radilar. Ushbu hodisaning tarixiy sabablarini tahlil qilishga hojat yo‘qligini tushungan holda, istiqboli haqida mulohaza yuritish joiz har qalay. Albatta, davlat tili nufuziga hech bir ta’sir etmagan holda va hududlardagi madaniy va etnografik landshaftni buzmaslik sharti bilan, mazkur tillarning jamiyatdagi informativ funksiyalarini yanada tartiblashtirishni o‘ylab ko‘rilsa bo‘lardi… Ayni paytda nomahalliy tillar ekspansiyasiga mustahkam cheklov qo‘yish dolzarblashib borayotganini ham alohida ta’kidlash zarur.

Jahondagi ilg‘or davlatlar tajribasidan o‘rnak olib, balki yurtimiz ta’lim muassasalari bosqichma-bosqich uchtilli dasturlarga o‘tishi, qaysidir fanlar o‘zbekcha, qaysinisidir ruscha, yana qaysinisidir tojikcha o‘tilishini joriy qilish vaqti kelgandir… Bag‘rikenglik va taraqqiyparvarlik tamoyillarini ushbu shaklda

namoyon bo‘lishi O‘zbekiston obro‘sini xalqaro miqyosda ancha oshirishi mumkin ko‘rinadi. Aslida, hozir ham ko‘p jihadan ahvol shunaqa, ikki-uch tillilik ko‘pchilik hududlarda oddiy holat. Yuqoridagi taklif buni bir tizimga solish to‘g‘risida, xolos.

Yana, ayniqsa keyingi vaqtda shunday tendentsiya paydo bo‘lganki, kelajagini jiddiy o‘ylagan o‘zbek oilalari bolalarini ruscha maktablarga berishyapti. Bu, bir tomondan, rus tilidagi maktablarda bilim berish darajasi bir oz yuqoriroq ekanligidan dalolat bersa, boshqa tomondan, o‘zbek tilidagi maktablarda rus tilini o‘qitish jiddiy oqsayotganini ko‘rsatadi. Endi, faraz qiling, bunday maktablarni bitirib chiqqan o‘zbeklar ikki tilli bo‘ladi, shubha yo‘q, lekin ona til qaysiligini belgilashda ikkilanadi, o‘z madaniyatidan uzoqlashishi aniq. Fikrlashda yana davom etaylik, qandaydir o‘n yildan keyin yuqorida aytilgan aralash maktablar bitiruvchilari uchta mahalliy tilda bemalol gaplashsa va yana qo‘shimcha inglizchami, frantsuzchami, yaponchami, biror xorijiy tilni o‘rgangan bo‘lsa, qanday ulkan inson kapitaliga ega bo‘lamiz! Bunday yoshlar, turkiytilli yurtlar u yoqda tursin, xoh rusiyzabon o‘lkalar, xoh Eron, Afg‘oniston, Tojikistonda begona bo‘lmaydilar. Bir muhim nuqtani esda tutaylik – bu erda gap yurtimizdagi barcha millatlar haqida. Haqiqatan, bunday vaziyat yosh avlod vakillari, ya’ni shaxs ma’naviyati shakllanishida katta yutuqlardan bo‘la oladi. Aytish joizki, dunyoning birqancha mamlakatlarida bunday tizimlar muvaffaqiyat bilan ishlab kelmoqda.

Shuningdek, rivojlangan o‘lkalarning boshlang‘ich va o‘rta ta’lim tizimi xususiyatlaridan o‘rnak olishga arziydigan yana bir narsa borki, u ham bo‘lsa barcha maktablarning o‘quv reja va dasturlari, ta’minoti, kadrlar salohiyati va boshqa jihatlardan mutlaqo tengligidir. Bu sharoitda yosh avlod ma’lum vaqtga qadar ijtimoiy tabaqalanish ta’sirini unchalik sezmay ulg‘ayadi va bu esa shaxsning munosib kamol topishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Albatta, shaxs ma’naviyatining shakllanishida til va adabiyotning roli g‘oyat muhim va keng qamrovli bo‘lib, nutq madaniyati, muomala odobi, ommaviy axborot vositalarida so‘zlash qoidalari, kino va teatrda o‘zbek tili, o‘zbek tili shevalari, madaniy turfaxillik ifodalari, muloqot normalari va ko‘plab boshqa kategoriyalarni qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori;
5. Н.В.Логинова, Реализация программы духовно-нравственного воспитания как основа формирования культуры и ценностных ориентаций школьников. Профильная школа. - 2011. - № 5. [1.60-63];
6. И.Е.Емельянова, Развитие духовно-творческого потенциала ребенка как фактор самореализации в социуме , М.-2015 [2.60-63];
7. С.С.Загребин, Культурологические аспекты развития профобразования. 2016. Т.12. No4. [3.9-11];
8. Дмитриева Е.Ю., Полуянова Л.А., Демцура С.С. Проблема духовно-нравственного воспитания в современных условиях // Современные концепции развития науки. Сборник статей Международной научно-практической конференции. 2017. [4.87–89];
9. Sh.Sh.Olimov, Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. “Fan va texnologiya”, 2015. [5.11].

NAQSHBANDIYA TARIQATI G‘OYALARINING AMIRIY IJODIDAGI BADIIY AKSI

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi,
Qo‘qon universiteti Ta’lim fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: 912002073

Annotatsiya

Ushbu maqolada Naqshbandiya tariqatining Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi Umarxon Amiriy ijodida tariqat g‘oyalari tariqatning asosiy tamoyillari, uning inson ruhiyatiga ta’siri va axloqiy tarbiyada tutgan o‘rni shoir ijodi orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Naqshbandiya, tariqat, tasavvuf, pir, darvesh, murshid, murid, rashha, maslak, g‘oya, e’tiqod, ta’sir.

Abstract

This article analyzes the ideas of the order in the work of Umarkhan Amiri, the founder of the Kokand literary environment of the Naqshbandi order, the main principles of the order, its influence on the human psyche, and its role in moral education through the work of the poet.

Keywords: Naqshbandiya, tariqat, Sufism, pir, dervish, murshid, murid, rashha, maslak, idea, belief, influence.

Абстрактный

В данной статье анализируются идеи ордена в творчестве Умархана Амири, основателя кокандской литературной среды ордена Накшбандия, основные принципы ордена, его воздействие на психику человека, а также его роль в нравственном воспитании через творчество поэта.

Ключевые слова: Накшбандия, тарикат, суфизм, пир, дервиш, муршид, мюрид, раша, маслак, идея, вера, влияние.

Amiriy taxallusi bilan o‘zbek va fors-tojik tillarida birday mahorat bilan qalam tebratgan Qo‘qon xoni Amir Umarxon (1787-1822) ma’rifatparvar hukmdor bo‘lib, yuzdan ziyod adib-u olimni atrofiga birlashtirgan Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi, rahnamosi va homiysi ham hisoblanadi. Shoh-shoir ijodi irfoniy mavzu va g‘oyalar har tomonlama keng va chuqur badiiy talqinini topgani bilan ham ajralib turadi. Vadud Mahmud ta’biri bilan aytganda, tasavvuf falsafasining yorqin namoyandalaridan bo‘lgan [1,89]. Amiriy ijodini tasavvufdan ayri holda o‘rganib bo‘lmaydi.

Qo‘qon adabiy muhitining aksar namoyandalari tariqatga begona emas: biri muayyan tariqat piri huzurida tasavvufdan saboq olgan bo‘lsa, biri o‘zini muayyan murshidning muridi hisoblaydi, birining qaysidir avliyoga ixlos-e’tiqodi kuchli va hokazo. Jumladan, Amiriy “o‘z zamonasining etuk allomasi Muhammad Ya’qubdan tasavvuf bo‘yicha maxsus ta’lim olgan. Binobarin, bir tomondan, tasavvufiy ta’lim mahsuli, ikkinchi tomondan, Sharq she’riyatidagi mavjud an’ana ta’siri, uchinchidan, tariqat va tasavvuf maktablarining faoliyat ko‘rsatgani natijasida birgina Amiriy emas, balki o‘sha davrning boshqa shoirlari, jumladan, Uvaysiy ijodida ham tasavvuf ta’siri kuchli ekanligini ko‘ramiz. Bunga shoirlarning o‘zidagi tasavvufga moyillikni ham qo‘shsa, masalaning mohiyati yana-da oydinlashadi” [2,394]. Adabiyotshunos Zebo Qobilovaning yozishicha: “Shoir ijodi asosan ishqiy she’rlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘pchiligi tasavvufiy ruh va mazmun, timsol va tushunchalardan ham holi emas. Boshqacha aytganda, shoirning ishqiy she’rlarida ko‘pincha haqiqat va majoz – ilohiy va dunyoviy ishq tasvirining omuxta bo‘lib ketganini ko‘ramiz”[3,35].

Amiriyning “yo shohi Naqshband” radifli 13 baytli forsiy bir g‘azali mavjud [4,74]. Unda shoir naqshbandiya tariqati asoschisi bo‘lmish buyuk avliyoga o‘zining muhabbati va ixlosini hassos misralarda ifoda etadi. Amiriy mazkur g‘azalda buyuk pirning shaxsiyati, faoliyati, tariqati, ta’limoti, tasavvufdagi maqomi, shuhratini baytma-bayt bayon qilib boradi. G‘azal “Ey shoh Naqshband, sen poklik yo‘lida rahbar, ayni paytda (tariqat yo‘lining) porloq quyoshisan”, – degan ta’rif bilan boshlanadi.

Dar rohi quds rahbari, yo shohi Naqshband,
Ham oftobi anvari, yo shohi Naqshband[4,47a-48b].

Quds – pok, pokiza; muqaddas ma’nolarini bildiradi. Tasavvufda ilohiy olam va unga olib boradigan haqiqat yo‘li ham ko‘zda tutiladi. Quds yo‘lida rahbarsan deyilganda Bahouddin Naqshbandning tariqatdagi peshvoligiga ishora qilinmoqda. Porloq quyosh sifati esa naqshbandiyaning barcha tariqatlardan afzalligi, bu tariqat etakchisining esa boshqa pirlardan ustunligini bildiradi.

Tariqat sultoni, avliyolar sarvari ma’nosida u Shohi Naqshband deb ham atalgan va shu nom bilan ham mashhur bo‘lgan.

Beshinchi baytda u millat osmoni, tariqat mamlakatidagi nur sochuvchi porloq quyoshga nisbat beriladi:

Dar osmoni millat, dar kishvari suluk
Xurshidi nurparvari, yo shohi Naqshband.

O‘z-o‘zidan, bu ma’rifat quyoshi bo‘lib, uning nuridan tariqat olami-yu millat osmonini jaholat zulmatidan forig‘ etib, ma’naviyat ziyosiga ko‘madi.

Oltinchi baytda u soliklarning zulmat tunini yoritish uchun olamni yorituvchi oy o‘laroq ta’riflanadi:

Az bahri ro‘shnoiyi shabhoi tori mo
Mohi sipehrmanzari, yo shohi Naqshband.

Boshqacha aytganda, ko‘ngillar osmonidagi qora bulutlarni haydab, ularni ziyoga chulg‘ash uchun Naqshband to‘lin oy bo‘lib bu dunyoga kelgan – bu orif zotga ko‘ngillarni jaholat chirkidan poklab, ularni ma’rifat nuriga oshno etish vazifasi yuklatilgan.

Yettinchi baytda Naqshband botinining shu’lasi olam ravshanligining sababi ekanligiga ishora qilinib, u etti iqlim quyoshi sifatida vasf etiladi:

Boshad furo‘g‘i botini tu obro‘i dahr,
Xurshidi haft kishvari, yo shohi Naqshband.

Amiriyning Bahouddin Naqshband haqidagi bu ta’riflari sira mubolag‘a bo‘lmay, ko‘plab tazkiralar, manoqiblar, tarixiy va irfoniy asarlarda u ko‘pdan-ko‘p sifat va xislatlar bilan ulug‘langan. Jumladan, sodiq shogirdi Muhammad Porso “Risolai qudsiya” (“Poklik risolasi”) asarida pirini yuksak nufuzli zot, irshod

va hidoyat maqomining oliy rutbali namoyandasi, valiylik xislatlarini o‘zida mujassam etgan karomat egasi, haqiqat va ma’rifat ahlining qutbi, ilohiy lutflar mazhari, go‘zal xulqlar sohibi, oriflarning peshvosi, payg‘ambarning vorisi, Haqqa etgan komil inson kabi sifatlar bilan ta’rif-tavsif etadi.

Naqshbandiya g‘oyalarining ilhombaxsh ta’siri, bu tariqat rashhalarining nazmiy talqinlari va ularga ishoralarni Amiriyning boshqa ko‘plab she’rlarida ham uchratamiz. Jumladan, Zaliliyning “yetar” radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasini O.Jo‘raboyev “tasavvuf falsafasining qisqacha tarzdagi bayoniga mengzaydi”[5,4] Shoir unda naqshbandiyaning “xilvat dar anjuman” rashhasiga ishora qilganini ko‘ramiz:

Tariqat ahlini andishasi qanoatdir,
Vujud sham’ini kuydurmak anga odatdur,
Chu sof bo‘lsa ko‘ngul, anjumanda xilvatdur,
Chirog‘i xonaqoi so‘fiyona na hojatdur,
Sitorai falaki gunbazi kabud etar.

Ya’ni, tariqat ahlining maqsadi qanoat bo‘lib, bunga vujud istak-xohishlarini, ya’ni nafsni kuydirib kul qilish orqali erishiladi. Agar ko‘ngil dunyo g‘uborlaridan pok bo‘lsa, ya’ni unda Xudo yodi va ishqidan boshqa narsa qolmagan bo‘lsa, shuning o‘zi anjumandagi xilvat bo‘ladi. Ya’ni, shiori vujud otlig‘ shamni kuydirish bo‘lgan tariqat ahlining ko‘ngli sof bo‘lsa, kishi odamlar orasida ham xilvat qilaveradi, ya’ni uni izdihom ham Haq xayolidan uzolmaydi. Bunday kishiga so‘fiylar xonaqohining chirog‘iga hojat yo‘q – unga ko‘k gumbazi uzra porlagan yulduzlarning o‘zi kifoyadir.

Xilvat dar anjuman – naqshbandiyaning muhim rashhalaridan biri bo‘lib, izdihom ichra xilvat tutish, ya’ni xalq ichida Haq yodi bilan yashashdir. Xilvatda Haq yodi va zikri bilan bo‘lish nisbatan oson, chunki xayol bo‘linmaydi. Lekin jamoat ichida, odamlar orasida hayotiy tashvishlar, muomala-munosabat kishining xayolini Xudodan chalg‘itib, dunyo ishlari bilan band qilib qo‘yishi tabiiy. Bu rashha tariqatning asosiy shiori bo‘lmish “Dast ba koru dil ba yor”ning amaliy ko‘rinishidir: qo‘ling ishda, ko‘ngling yorda bo‘lsin. “Bahouddin Naqshband ta’limoti shu orqali solikning, bir tomondan, tarkidunyochilik va go‘shanishinlikka berilmasdan, odamlar orasida bo‘lib, ular bilan faol munosabatda bo‘lishi va kasb-kor bilan shug‘ullanishi, ikkinchi tomondan, bir lahza bo‘lsa-da, Xudoni esdan chiqarmasligi, o‘y-xayoli va diqqat-e’tibori Xudoda bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi”[6,143]. Natijada “Xilvat dar anjuman orqali solik xalqning ichida Haq bilan bo‘lishni o‘rganadi”[7,49].

Amiriy qator baytlarida o‘zining shariat bo‘yicha ish tutganini ta’kidlab o‘tadi. Bu ham naqshbandiya ta’limoti talabi. Islom shariati va Payg‘ambar

sunnati, ayni ta’limotning poydevori hisoblanadi. Shuning uchun ham shoir quyidagi forsiy baytida shohlik taxtida o‘tirib, hukm yuritgan kunidan boshlab Haq amri bilan shariat yo‘liga yuz o‘girganini ta’kidlaydi:

To shudam farmonravo dar masnadi shohi, Amir,
Ro‘ nihodam dar tariqi shar’ bo farmoni Haq (2,195).

Hukmdorlik qilish jarayonida esa bid’at binosini er bilan yakson qilib, o‘rniga shariat binosini bunyod etgani bilan faxrlanadi:

Buzub bid’at asosin, shar’ bunyodin baland ettim,
Manga bu mulku davlat to qiyomat poydor o‘lsun! (1,282)

Voqean, har qanday bid’atlardan saqlanish ham naqshbandiyaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Shogirdi Alouddin Attor Bahouddin Naqshbandning yo‘li faqr yo‘li bo‘lib, tarki dunyo qilgan, ya’ni kishini Haq yo‘lidan chalg‘itadigan barcha dunyoviy bog‘liqliklardan o‘zini muhofaza qilgan edi. Lekin buni “moddiy olamdan yuz burib, uzlatni ixtiyor etish ma’nosida tushunmaslik kerak. Bu erda gap o‘tkinchi dunyoning hoy-u havaslari, hirs-u ta’ma, ya’ni Alloh yodining inson qalbida naqshlanib qolishiga to‘sqinlik qiladigan parda – hijobdan voz kechish ustida bormoqda. Amiriyning xon holida o‘zini bir gadoday his qilishi ham tasavvuf ta’siri ekanligi shubhasiz:

Man gadoyi notavondirman – eshitmaydur Amir,
Haddin oshti bu eshikda shay’alillohim maning (1,170).

Mansab va shuhratga salbiy munosabat ham aslida naqshbandiya ta’siri ekanligi ma’lum. Chunki Bahouddin Naqshband shuhratda ofat borligini ta’kidlaydi.

A.Qayumov, M.Qodirova, H.Muhammadxo‘jayev kabi Amiriy hayoti va ijodi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar o‘sha davrdagi hukmron mafkura ta’sirida uning diniy-tasavvufiy she’rlarini yo chetlab o‘tganlar, yo ularni shoh-shoirning cheklangan jihatlariga nisbat berganlar[8,16]. Jumladan, Hamidjon Homidiy Amiriyga bag‘ishlangan “So‘z guharshunosi” degan maqolasida uning so‘z tanlashi, tashbeh qo‘llashi, mavzuga o‘ziga xos yondashishi haqida fikr yuritib, shoir ijodidagi diniy-tasavvufiy motivlarga to‘xtalmagan[9,13].

Xulosa qilib aytish mumkinki, shoh-shoir ijodidagi tasavvuf ohanglarini ko‘p yoqlama ta’sir natijasi sifatida baholash mumkin: birinchisi – mumtoz so‘z san’atidagi mavjud an’analar ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi – o‘sha davrda Qo‘qonda katta nufuzga ega bo‘lgan naqshbandiya tariqatiga mansublik, uchinchisi – bevosita uning o‘zidagi tasavvufga moyillik. Bular bir butun holda Amiriy ijodida irfoniy motivlarning ustuvorligini ta’minlagan omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳмуд В. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Б.Каримов). – Тошкент: Маънавият, 2007.
2. Очилов Э. Таъби нозик, зеҳни салим шоир // Барҳаёт сиймолар. – Тошкент: O‘zbekiston, 2012.
3. Қобилова З.Б. Бадиий ижодда таъсир ва издошдик масалалари (Амирий шеърияти мисолида). Филол. фан. докт. дисс. – Фарғона, 2021.
4. Девони Амир // ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, 3642-рақамли қўлёзма, 47а-б–48а-варақлар.
5. Жўрабоев О. Илоҳий тараннумлар соҳиби // “ЎзАС”, 2009 йил 11 сентябрь.
6. Раҳимов К. Хожагон-нақшбандия тариқати ва етти пир. – Тошкент: O‘zbekiston НМИУ, 2020.
7. Сайфуллоҳ С. Етти пир (Дунё муршидлари). – Тошкент: O‘zbekiston , 2019.
8. Қодирова М. Сўзбоши // Амирий. Девон (Нашрга тайёрловчи: М.Қодирова). – Тошкент: Фан, 1972.
9. Ҳомидий Ҳ. Сўз гуҳаршуноси // Кўҳна шарқ дарғалари (Бадиий-илмий лавҳалар). – Тошкент: Шарқ, 1999.
10. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.
11. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.
12. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
13. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.
14. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
15. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.
16. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548
17. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

ABDURAUF FITRATNING “ABULFAYZXON” DRAMASI XUSUSIDA

Munisjon HAKIMOV,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Maqolada Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” nomli besh pardali fojiasi asosida o‘zbek dramaturgiyasidagi siyosiy, ijtimoiy va axloqiy masalalar chuqur yoritiladi. Asarda Buxoro xonligining emirilish sabablari, xalq va hokimiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, adolat, sadoqat, fitna va xiyonat kabi tushunchalar dramatik sahnalar orqali ochib beriladi. Fitrat personajlar tili orqali o‘z davrining muhim ijtimoiy-falsafiy muammolarini ko‘taradi. Asarda “xon” obrazi mutlaqo salbiy emas, balki hayotiy va fojiaviy qiyofada tasvirlanadi. Fojianing chuqur ijtimoiy ildizlari tarixiylik va milliy ong asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Fitrat, Abulfayzxon, fojia, dramaturgiya, Buxoro, xalq, fitna, xiyonat, adolat, tarix

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется пятиактная трагедия Абдурауфа Фитрата «Абулфайзхон», в которой раскрываются политические, социальные и моральные вопросы узбекской драматургии. Автор показывает причины распада Бухарского ханства, конфликты между народом и властью, понятия верности, предательства и справедливости. Через речь персонажей Фитрат поднимает философские проблемы своего времени. Образ хана представлен как трагический, но живой и неоднозначный. Трагедия исследуется с точки зрения историзма и национального самосознания.

Ключевие слова: Фитрат, Абулфайзхан, трагедия, драматургия, Бухара, народ, интрига, предательство, справедливость, история

ABSTRACT

This article examines Abdurauf Fitrat’s five-act tragedy Abulfayzxon, highlighting its political, social, and moral themes in Uzbek dramaturgy. The play explores the collapse of the Bukhara Khanate, tensions between people and rulers, and concepts such as loyalty, betrayal, and justice. Fitrat uses character dialogue to voice the major socio-philosophical issues of his era. The depiction of the Khan is not wholly negative, but deeply human and tragic. The tragedy is analyzed through a historical and national consciousness lens.

Keywords: Fitrat, Abulfayzxon, tragedy, dramaturgy, Bukhara, people, intrigue, betrayal, justice, history.

Fitratning dramalari sahnalashtirilib, shov-shuvlarga sabab bo‘lganini o‘z davridayoq e'lon qilingan taqrizlardan bilish mumkin. (Bu taqrizlar ro‘yxati Abdurauf Fitratning «Tanlangan asarlari»da keltirilgan.) Jumladan, «Abulfayzxon» – nafaqat Fitrat, balki o‘zbek dramaturgiyasida alohida ahamiyatga molik besh pardali fojia. Unda dunyoparastlik, fitna, hiylagarlik, xiyonat, nafsga qul bo‘lish kabi illatlar qoralanishi asnosida mehr-oqibat, odamiylik, sadoqat, xalqparvarlik kabi fazilatlarga ega bo‘lish yo‘llari ko‘rsatiladi. Dramaturg asar mavzusini Buxoroning qonli tarixidan tanlaydi. Asarning asosiy voqealari Abulfayzxon, Rahimbiy, Ulfat, Nodirshoh, Xayol obrazlari orqali harakatlanadi. Abulfayzxon shu darajada tor fikrlar qobig‘iga o‘ranib olganki, saroydan tashqaridagi islohotlar u yoqda tursin, u erdagi gap-so‘zlarni ham eshitishga toqati yo‘q: «*Buxoroda el boshliqlari bo‘lmaganda, men tinchg‘ina xonliq sura olardim. Mening butun qayg‘ularim shunlardandir»,* – deydi u. Do‘st bilan dushmanni ajrata olmaydigan, “buyruqlari arkdan Mirarabg‘acha yurmaydir”gan bu xonning taxt tepasida turishi – o‘zininggina emas, butun bir davlatning fojiasi. Muallif shu ma'noda fojia uchun kerakli tarixiy asosni topa olgan. Xonning vazifasi shubhalangan amaldorni qatl ettirish va o‘rniga yangisini tayinlashdan iborat bo‘lib qolgan xolos. U fitnachilarning aldovi bilan Farhod otaliqning boshini oldirib, o‘rniga qistov bilan Ibrohimbiyni tayin etar ekan, bu amaldor: «*Buyrug‘ingizni qaytarmoq qo‘limdan kelmaydir, qabul etaman. Biroq bir kun mening ham o‘limimga hukm chiqararsiz, hoqonim»!* – deya taqdirning qonli o‘yinini e'tirof etadi. Lekin Abulfayzxon obrazi sahna va syujet talabidan kelib chiqib, mutlaqo jonsizlantirilmagan. U qo‘lidan hech ish kelmaydigan oddiy xizmatkor – Qurbongulning oldida yig‘lab turganda Rahimbiy – haqiqiy raqib keladi:

R a h i m b i y. Xon hazrat, nega yig‘laysiz?!

X o n (seskanib, boshini ko‘tarur. Istamayin o‘rnidan turar). Hech!

Shuningdek, o‘limi oldidan to‘g‘ri xulosaga kelishi ham xon obrazini jonlantirgan:

X o n. ...Insonlar – dunyoning uyalmoq bilmagan hayvonlari! Biringizning ko‘z yoshlari biringizning shodliq bog‘chalarini sug‘oradir. Biringizni(ng) motam ingrashlari yana biringizning to‘y cholg‘ularini kuylatadir! Bir-biringizning borliqlarini eb, hirslaringizni to‘ydurmoqdan qachong‘acha bezmaysiz!...

Buxoro hukmdori Abulfayzxon saltanati ana shu holatga tushib qolgan. Xo‘sh, aybdor kim?!

Asarda Nodirshoh, garchi muxolif davlat(Eron)ning podshosi bo‘lsa-da, aql bilan ish ko‘radigan hukmdor sifatida gavdalanadi. «*Har o‘lkani urushub olmoq*

siyosat emas. Urush choralarning eng so‘ngg‘isidir. Bir o‘lkani omoq uchun eng yaxshi chora shul o‘lkaning o‘zindan do‘stlar topmoq, shularni ishlatmakdir», – deydi Rahimbiy bilan til biriktirib Xiva qo‘shinini Buxoro himoyasiga yordamga kelishidan chalg‘itgan Nodirshoh. Aslida, bu fikr Turkistonning yo aldanib, yo shaxsiy manfaat yo‘lida o‘z xalqi tomonidan Chor Rossiyasiga osongina topshirilishidan o‘kingan Fitratning yurak nolasi. Oktyabrda bshlib o‘tgan to‘ntarishni ko‘tarinki kutib olgan turkistonliklar ta'qib ostiga olingach, aldanganliklarini sezishdi. Hatto «Milliy laylat-ul qadrimiz» sifatida e'tirof etilgan «Turkiston muxtoriyati» Chor Rossiyasi tomonidan ayovsiz tarqatib yuborildi.

Fitrat davlat boshqaruvi haqidagi qarashlarini ham Nodirshoh tilidan bayon etadi: «*Bir o‘lkada bo‘laturg‘an har voqeani tekshirmak, sabablarini izlab topmoq choralarini ko‘rmak shul o‘lkaning boshliqlarig‘a lozimdir. «Eganlari tuzni o‘yladilar», «jazolarini ko‘rdilar», «o‘lkamiz tinchdir», deb o‘turmoq bilan hukumat ishi yurishmaydir».* Fitratning xulosasiga ko‘ra, Buxoro, Xiva, Qo‘qon davlatlari shu zaylda ish ko‘rishdi. Aysh-ishratga berilib, o‘zaro qirpichoq bo‘lishdi, boshqa dalatlar bilan diplomatik aloqa deyarli yo‘q edi.

«Abulfayzxon» fojiasida Fitrat tanqid ostiga olgan illatlardan biri e'tiborsizlik, loqaydlik illatidir. Bu illatni dramaturg sahna talabiga ko‘ra so‘z o‘yini holatida dialogda mohirona ifodalagan. Abulfayzxon qurshovda, o‘lim vahimasidan uyqusiz turgan lavhaga e'tibor beraylik:

Q u r b o n g u l. Azon o‘quldi, suv keltirdim, tarat qilmaysizmi?

X o n. Nima gaplar bor, Qurbongul?

Q u r b o n g u l. Tinchlik, arslonim!

X o n (o‘ylaydir). Bunlar har so‘rag‘animda mana shunday tinchliq deb meni dunyodan xabarsiz qoldiradilar. Men qamoqda, taxtim boshqalar qo‘linda, bola-chaqalarim bilmadim qaerda. Yana tinchliq ekan. Bilmam bunlar tinchsizliq deb nimani deylar.

...X o n. O‘g‘ullarim qayda?!

Q u r b o n g u l. Omon-eson, tinch. Podsho bibiyim bilan birga turalar.

X o n. Oh... o‘g‘ullarim, sizni kimga topshurarman emdi?! (Yig‘lar.)

Q u r b o n g u l. Nega yig‘laysiz, arslonim? Xudo ursunkim, bolalaringizg‘a hech bir narsa bo‘lgan yo‘q, unlar tinch o‘turubdurlar.

X o n (nafrat bilan). Qo‘y meni o‘z holimda. Bundan keyin shul «tinch» so‘zini menim yonimda aytma! Dunyoda hech bir ma'nosi bo‘lmagan bu so‘zni sen eng yomon ma'nolarda ishlatib turasan. Men qamaldim – tinch, bolalarim qamoqda – tinch. Ulfatni axtaralar, Davlatni o‘lduralar, yana tinch! Bu qaday «tinch», bu qanday tinchliq...

Saltanatning emirilishiga ana shunday «tinchliq»lar sabab bo‘ldi. Afsuski, xon buni tushunib etganda «tinchliq»lar o‘z kuchini ko‘rsatgan edi.

Fojiada muallif o‘z fikrlarini ifodalash uchun maxsus qahramon tanlamaydi. (Masalan, Cho‘lpon «Kecha va kunduz»da Miryoqubni, Qodiriy «O‘tkan kunlar»da Otabekni, «Mehrobdan chayon»da Anvarni tanlagani kabi.) Shuning uchun asardagi deyarli har bir obraz nutqida, hatto epizodik obrazlar nutqida ham Abdurauf Fitratni qiyofalantirib turuvchi quyma ijtimoiy-falsafiy fikrlar uchraydi. Masalan: ...*podshohliq qon bilan sug‘orilaturg‘an bir og‘ochdir. Qon oqib turmag‘an erda bu og‘ochning qurub qolishi aniqdir*...(Ulfat); ...*To‘g‘risini aytganda, yana o‘zimiz tinch. Xudo soyasi-da* (podsho) *bo‘lmaymiz, o‘ldurulmaymiz-da. Och qornim, tinch qulog‘im*...(Qurbongul)

Asarda Rahimboyning: *Xon hazrat! Dunyoda har kim o‘z kuchiga qarabg‘ina o‘run tutadir. Bu tirikchilikning eng o‘tkir buyrug‘idirkim, bunga bo‘ysunmag‘anlarning dunyodan chiqib ketishlari lozim bo‘ladir,* – degan xiyonatkorona nutqi bilan tanishar ekanmiz ma'lum ma'noda hayot haqiqatini o‘zimiz uchun kashf qilamiz.

Fitrat Oxund, Qozi Nizom obrazlari vositasida dinni, shariatni niqob qilib olgan mulla va qozilarning ham asl basharalarini fosh etadi. Xon va uning yana bir necha kishisiini o‘ldirtirgan Rahimbiy taxtga chiqmoqchi bo‘lib bu din va shariat peshvolari bilan maslahatlashganda o‘zlari xohlagan usulda fatvo beraverishadi:

O x u n d: Taqsir, ho taqsir, masalan «bolvoi om» (balo-qazolarning birdan yopirilib kelishi)*da o‘lganlarning qotili hech kim bo‘lmaydir.*

Qozi Nizom esa «Abulfayzxon xotinlar bilan ichishib yotg‘an bir kechaning ertasinda, uning oldig‘a kelib: «Bu kecha tushimda payg‘ambarni ko‘rdim, sizni so‘rab yubordilar», - deb chopon kiygan». Rahimbiy taxtga chiqqanda esa xon istagan ko‘rinishdagi fatvoni berishga tayyor. Zulm va jaholat botqog‘ida turgan bu davlat va din peshvolaridan xalq qanday adolatu, saxiylik kutadi?! Ibrohimbiy so‘zi bilan aytganda, «...Butun mullolarni bir madrasag‘a solib, o‘t qo‘yamiz-da, hammasini yondiramiz», – deb orzu qilish so‘nggi va haqqoniy najot. Chunki «Elimizni buzib, rasvo qilg‘an shunlar. Bundaylar diningizni tuzatamiz deb, dunyomizni murdor qiladilar».

Asarda so‘nggi xulosani jahon adabiyoti (xususan, Shekspir ijodi) bilan yaqindan tanish bo‘lgan muallif Xayol (Siyovush) tilida ifodalaydi:

X a yo l (taxtga qarab). Ey qora kuch, qurub ketgur taxt! Hech gunohi bo‘lmag‘an bolalardan, tog‘ kabi yigitlardan millionchalari sen uchun qurbon bo‘lub ketarlar. Insonlar tomonidan yaratilg‘an minglarcha tangrining eng buzuqboshi, eng shumi, eng qop-qora saodat – sensan. Ostingda qolg‘anlarni

ezguchi bir falokat yuki bo‘lg‘aning kabi, ustingga chiqqanlarning borliqlarini yondirg‘uchi bir olov tepasidirsan!

Toju taxtni deb qanchadan-qancha fozillarning qo‘llari kesilganiga, adiblarning qalamlari «o‘choq supurgusi»ga aylanganiga, otaning farzandini, farzandning otasini qatl ettirganiga, do‘slarning yuz ko‘rmas dushman bo‘lib ketiganiga tarix o‘zining qonli bag‘ridan sahifa ajratgan. «Dalaning erkini, shaharning tinchini, erlarning g‘ayratini, xotunlarning ismatini» toptagan ham taxt.

Dunyoning bevafo, o‘tkinchi, shafqatsiz va aldamchiligi haqidagi achchiq haqiqatlar qalandarlar tilidan ham xalqona uslubda bayon etiladi:

Dunyo, dunyo, sen dunyo-e,
Kimga vafo qilarsan, ey!
Dunyo, dunyo, sen dunyo-e,
Dunyo, ko‘b tez yurarsan!
Dunyo, dunyo...

Bu kabi xulosalar, aslida, butun asar syujeti bo`ylab sochib yuborilgan. Unda uchragan har bir nutq, har bir detal o`ziga xos ramziy ishoralar qilib turadi. Shu sababdan ham, «Abulfayzxon» asrdan-asrga o`ta oldi va o`zbek dramaturgiyasining asl namunasi bo`lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1995. – 432 b.
2. Saidov A. “Fitrat dramaturgiyasi va tarixiylik”. – O‘zbek tili va adabiyoti, 2006, №2. – B. 45–52.
3. Qodirova G. “Milliy dramaturgiyada fojia janri”. – Adabiyot nazariyasi, 2012. – B. 114–121.

QARAMLIK IZTIROBI: MUHOJIR JADIDLAR ADABIYOTIDA TURKISTON (“YOSH TURKISTON” JURNALI MISOLIDA)

Muslimbek ALIJONOV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
Email: muslimbek.alijonov.1994@mail.ru

Annotatsiya

XIX asr oxirida yuzaga chiqqan jadid taraqqiyparvarlarining ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari XX asrning boshlariga kelib amaliy harakatga aylana oldi. Garchi jadid taraqqiyparvarlari bu kurashda jismoniy jihatdan mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsalar-da, biroq ma’naviy nuqtai nazardan g‘olib bo‘lgan holda, keyingi davr avlodlarining qalbida ozodlikka intilish, yosh avlodda yorqin kelajakka ishonch tuyg‘ularni shakllantirishda o‘zlaridan chuqur iz qoldirdilar. 1929-1939-yillarda bolsheviklarning zulmi va istibdodi natijasida ona vatanini tark etishga majbur bo‘lgan turkistonlik ziyolilar tomonidan Fransiyaning poytaxti Parij shahrida nashr etilgan “Yosh Turkiston” jurnali ham shubhasiz jadidchilik harakatining hosilasi edi. Ushbu maqolada “Yosh Turkiston” jurnalida chop etilgan she’rlar orqali Turkiston ziyolilarining ozodlik yo‘lidagi xorijda turib olib borgan adabiy kurashi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: “Yosh Turkiston” jurnali, muhojir ziyolilar, Mustafo Cho‘qay, Abdulvahob O‘qtoy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Mag‘jon Jumaboy, Toyloq Ahmad, Ahmad Hokiy, Abu Nasr Hoji, N. Yo‘lchi, Munavvarqori Abdurashidxonov.

Annotation

The socio-political ideas of the Jadid reformers, which emerged in the late 19th century, transformed into practical action by the early 20th century. Although the Jadid reformers suffered physical defeat in this struggle, from a spiritual standpoint, they triumphed by leaving a profound legacy that instilled a desire for freedom and a belief in a bright future in the hearts of future generations. One of the manifestations of the Jadid movement was the journal “Yosh Turkiston” (“Young Turkestan”), published in Paris, France, between 1929 and 1939 by Turkestani intellectuals who were forced into exile due to Bolshevik oppression and tyranny. This article analyzes the literary struggle of Turkestani intellectuals for independence through the poems published in “Yosh Turkiston”, written while in exile.

Keywords: “Yosh Turkiston” journal, immigrant intellectuals, Mustafa Chokay, Abdulvahob Oqtay, Abdurauf Fitrat, Cholpon, Magjon Jumabay, Toyloq Ahmad, Ahmad Hokiy, Abu Nasr Hoji, N. Yo‘lchi, Munavvarqori Abdurashidkhanov.

Аннотация

Социально-политические идеи джадидов-просветителей, возникшие в конце XIX века, к началу XX века превратились в практическое движение. Хотя джадиды потерпели физическое поражение в этой борьбе, с духовной точки зрения они одержали победу, оставив глубокий след в сердцах будущих поколений, пробудив в них стремление к свободе и веру в светлое

будущее. Журнал «Ёш Туркистон» («Молодой Туркестан»), издававшийся в Париже (Франция) в 1929–1939 годах туркестанскими интеллектуалами, вынужденными покинуть Родину из-за большевистского гнёта и репрессий, безусловно, является продуктом джадидского движения. В данной статье анализируется литературная борьба туркестанских интеллектуалов за независимость на страницах журнала «Ёш Туркистон», выраженная в форме поэтических произведений, написанных в эмиграции.

Ключевые слова: журнал «Ёш Туркистон», интеллектуалы-эмигранты, Мустафа Чокай, Абдулвахоб Оқтой, Абдурауф Фитрат, Чулпон, Маджит Джумабай, Тойлоқ Ахмад, Ахмад Хокий, Абу Наср Ходжи, Н. Йўлчи, Мунаварқори Абдурашидханов.

“Yosh Turkiston” jurnali 1929-1939-yillar orasida Parij va Berlin shaharlarida nashr etilgan bo‘lib, uning ilk soni 1929-yilning dekabr oyida chop etilgan. Ushbu jurnalning maqsadi Mustafo Cho‘qay tomonidan yozilgan “Bizning yo‘l” nomli ilk maqolada aniq va lo‘nda shaklda keltirilgan. Turkiston Muxtoriyatining sobiq bosh vaziri bo‘lmish Mustafo Cho‘qay jurnalning maqsadini ochiqlab: “Yangidan chiqa boshlag‘on har bir siyosiy majmua va gazetaning o‘quvchilariga o‘z siyosiy g‘oya, yo‘li ham maqsadini tanitib ketish odati bordir. Qonun holiga kirib qolg‘on bu odatga biz ham iyaramiz (ergashamiz – M.Alijonov). Yo‘limizni anglatish uchun uzun izohlarga ehtiyoj yo‘q. Yo‘limiz va maqsadimiz: “Biz Turkiston istiqlolchilari elimizning erki va yurtimiz Turkistonning qurtulishi uchun kurashamiz” jumlasinda xulosa etila biladir. Turkistonliklarga bundan boshqa yo‘l yo‘q, bo‘la olmas va bo‘lmasin” deb yozdi [1,3]. Haqiqatdan ham, o‘n yil mobaynida “Yosh Turkiston” jurnali muhojir turkistonliklarga siyosiy hayotini davom ettirish yo‘lida xizmat qildi.

O‘z navbatida ushbu jurnal sahifalarida chop etilgan, Turkistonning erki va hurriyati kuylangan she’rlar bugungi kun o‘quvchisini ham befarq qoldirmaydi.

Jurnalning turli sonlarida Abdurauf Fitrat [2,35-36], Cho‘lpon [3,32-33], Mag‘jon Jumaboy [4,29-32], Elbek [5,30-31], Sayyid Ali [6,30] kabi Turkiston jadidlari tomonidan yozilgan she’rlar bilan birga, sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati natijasida vatanni tark etib, butun umr xorijda yashab o‘tgan millat ziyolilari – Abdulvahob O‘qtoy, Toyloq Ahmad, Ahmad Hokiy, Abu Nasr Hoji, N.Yo‘lchi kabilarning mustamlaka holatiga tushib qolgan Turkistonning og‘ir ahvolidan kuyinib yozgan she’rlari ham chop etilgan. Bu borada ayniqsa Munavvarqorining shogirdi Abdulvahob O‘qtoy (1904-1962) ancha faollik ko‘rsatgan.

Abdulvahob O‘qtoy 1904-yilning 10-fevralida Toshkentda tug‘ilgan. Otasi toshkentlik savdogar Is’hoqbek, onasi esa Obidaxonimdir. Is’hoqbek va Obidaxonim o‘n bir farzandning ota-onasi edi.

Abdulvahob ilk ta’limni ota-onasidan oladi. Shundan so‘ng u ta’limni Munavvarqorining jadid maktabida davom ettirdi. Toshkentdagi bu maktabning ta’limi olti yil davom etdi. O‘qtoy 1916-yilda ushbu maktabni tugatdi. Vali Qayumxon o‘zining “Professor O‘qtoyni eslab” nomli maqolasida “U tahsilini jadidlar tomonidan tashkil qilingan maktabda da’vom ettirdi va bu maktabni 1916-yilda tamomlab o‘z bilimini yanada oshirish maqsadida 1917-yilda Bakuga safar qildi” deb yozadi.

Abdulvahob O‘qtoy 1922-yilda Berlinga kelib tahsil olishga kirishdi. Abdulvahob O‘qtoy 1929-yil 20-iyunda Geydelberg universitetining tibbiyot fakultetini tamomlab, Darmshtadt kasalxonasining jarrohlik bo‘limida birinchi tibbiy amaliyotini boshladi. Ushbu amaliyot 1929-yil 31-dekabrgacha davom etib va nihoyat shu yili Abdulvahob O‘qtoy doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan holda tibbiyot fanlari doktori unvoniga ega bo‘ldi. Biroq, Sovet hukumati tomonidan Turkistonga qaytgan talabalarning qatag‘on etilishi aniq bo‘lgach u xorijda qolib vatan hurriyati y’lida kurash olib borishga qaror qildi.

Abdulvahob O‘qtoy Berlin va Istanbulda tibbiyot bilan shug‘ullanishdan tashqari xorijda turib Turkistonning erki va ozodligi yo‘lida ham faol harakatlarni amalga oshirgan. Jumladan, u o‘zining “Yangi Turkiston”, “Yosh Turkiston” jurnallarida chop etilgan maqolalarida Turkistonning erku-ozodligini kuyladi, mustamlakachi hukumatga qarshi bor qahru g‘azabini matbuot orqali sochdi.

Abdulvahob O‘qtoy tomonidan “Yosh Turkiston” jurnalida “Surgun qilingan o‘rtog‘imdan”, “Surgun qilingan o‘rtog‘imga”, “Ona faryodi”, “Shahidlarimizga”, “Bayrog‘im”, “O‘lmasoyg‘a”, “Yigitlar” nomli she’rlar yozilib chop etilgan. Abdulvahob O‘qtoy ushbu she’rlarini “Iltar” taxallusi ostida e’lon qilgan.

Abdulvahob O‘qtoyning “Surgun qilingan o‘rtog‘imdan” va “Surgun qilingan o‘rtog‘imga” she’rlari mohiyatan o‘zaro maktublashuv holatiga o‘xshash shaklda yozilgan. Xususan muallif “Surgun qilingan o‘rtog‘imdan” she’rida qatag‘on etilib, nohaqda uzoq Sibir cho‘liga surgun qilingan mahbuslarning ayanchli holatini tasvirlaydi:

Kafanga o‘ralg‘on Sibirya cho‘lida:
Kishanlar, zanjirlar qo‘l-oyog‘imizda,
Tepki, ot tuyog‘i doim boshimizda,
Hamda qonli qamchin achchiq izg‘irinlar!
Tuganmak bilmagan bu qiynov yo‘lda:
Gala-gala quzg‘un tevaragamizda,

Yig‘ilmoqda qorlar bosqon izimizda,
Suyakimizningda erlar bu qoralar!

Abdulvahob O‘qtoy “Surgun qilingan o‘rtog‘imga” she’rida yuqoridagi “she’riy maktub”ga javoban qahraton Sibir cho‘lida yurt va vatan uchun aziz jonlarini fido qilgan yigitlar unutimasligini, ularning intiqomi albatta bir kun kelib olinajagini bildiradi.

Kafanga o‘ralg‘on u Sibirya cho‘li
Xalqimizning emas, rusning o‘lim yo‘li!
Qo‘l-oyog‘ingizning kishanin zanjiri
Bilmay chegara bo‘lur yurtimizga!
Erk kurashimizning engilmas erlari!
Yashaymiz olmoqqa, intiqomingizni,
To‘fon ham ko‘molmas bosqon izingizni!
Shahidlar maqbari bu iymonimizda [7,42].

Abdulvahob O‘qtoyning “Ona faryodi” she’ri ham yuqorida keltirilgan misralardagi kabi og‘ir hissiyotni bizga taqdim etadi. Muallif she’rda Turkistonning ozodligi uchun kurashib shahid etilgan farzandi uchun qasos o‘tida yonayotgan onaning faryodini tasvirlagan. Muallif vatani uchun aziz jonini fido etgan o‘g‘lonni onasi tilida arslon deb ulug‘lab, bunday yigitlarning shajarasi pok, o‘zlari jasur ekanliklarini ta’kidlaydi:

Amali muqaddas shahid, sevgili ekan bolam,
U tog‘larni o‘purg‘uvsi qichqirg‘on ko‘z-yoshlarim.
Yashatmoqda meni yolg‘iz intiqoming arslonim,
Yurak dog‘ining shifosi yana intiqom bolam.

Abdulvahob O‘qtoy ushbu she’rida yana bir muhim nuqtaga ishora qilib ketgan. Bilamizki, dastlab Chor imperiyasi so‘ngra bolsheviklar hokimiyatiga qarshi Turkistonda milliy ozodlik kurashlari bo‘lib o‘tgan. Bu kurashlarda kuchlar nisbati teng bo‘lmaganligi bois, olib borilgan janglarda turkistonliklar engilgan. Biroq keyinchalik ba’zi bir sovet tarixchilari stixiyali tarzda, oxirini o‘ylamasdan turkistonliklar kurash olib bordilar, deb yozdilar. Muallif ushbu she’rida ana shu asossiz da’voga qarshi o‘zining munosabatini bildirgan:

Shon-sharafsizlikdur, chidab turmak nomard zulmiga,
Isyon qilaman o‘z haqqim uchun tangri amriga,
Ular aytsa-da “Devona qarshi keldi Allohga”,
Bu erda yutmak istasa “Osiy bu” deb xudoga [8,29].

Abdulvahob O‘qtoyning “Yigitlar” she’ri ham o‘zining jangavor ruhga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Muallif ushbu she’rida Turkistonni rus bosqinchilaridan qutqarish uchun yigitlarga murojaat qilib, ularni “saman otga

minishga”, “beshotar qurolni qo‘lga” olishga, “qilichlarni qindan sug‘urishga”, urf-odat va qadriyatlarimizni toptagan bosqinchilarni yurtdan butunlay quvishga da’vat etadi:

Beshotaringni o‘qla to‘ldirib,
Bayzo qilichini qindan chiqarib,
Saman otingni safda o‘ynatib,
U istiqlolni qutqar yigitlar!

Abdulvahob she’rda Temur shaxsiyatiga murojaat qilib, Turkiston yigitlarining har biri vatanni ozod etishlik uchun Amir Temurga aylanishi shartligini, yurt ozod bo‘lib, millatning Iydi bayrami bo‘lajagini, shundagina yana qaytadan vatan bayrog‘i hirpirajagini ta’kidlaydi:

Menlik karnayi chalindi yurtning,
Arafasidur bu, iydi millatning.
Hirpirag‘usi bayrog‘i yurtning
Otni qamchila Temur yigitlar!

Muallif she’rda Turkistonni mustamlaka qilishda millat ichidagi xoinlarni ham ko‘zdan qochirmagan. Jumladan u, yurt taqdirini o‘ylamasdan amal va poraga sotilgan chirkin va xointabiat, hamda mustamlakachi millat bilan hamkorlik qilgan shaxslarni ham yo‘q qilish lozimligini uqtiradi:

Kursi, chirvong‘a jon otqonlarni,
Rusla birlashib qon emganlarni,
U nomusfurush otasizlarni
Kesib parchalada gar yigitlar! [9, 35,36].

Shu bilan birga Abu Nasr Hoji tomonidan e’lon qilingan “Munavvarqori” va “Millat shahidi Munavvarqori ruhina” nomli she’rlar ham diqqatga sazovor she’rlardandir.

Ma’lumki Munavvarqori Turkiston jadidchilik harakatining Mahmudxo‘ja Behbudiydan keyingi lider vakili hisoblangan. Biroq, 1931-yilda Munavvarqori Abdurashidxonovning qatl etilishi muhojir ziyolilarning cheksiz g‘am-g‘ussaga botishiga, qalblarida sovet hokimiyatiga nisbatan cheksiz nafrat uyg‘onoshiga sabab bo‘ldi. Buni o‘z vaqtida Mustafo Cho‘qay: “Qadarning og‘ir zarbalarig‘a biz anchag‘ina sovuqqonliq ila chidashqa o‘rganishib qolg‘on edik. Vatanimiz qizil jallodlarining qonli diktaturasi ostida… Turkistonda bu kun, Moskov diktaturasina qurbon tushgan bir yo bir necha yaqini uchun qalbida, ruhida motam tutmag‘on bir oila yo‘qdir. Asablar ham hissizlashib qolg‘on va umumiy milliy fojiamizning so‘ngsiz teranligi ichinda, hatto eng yaqin odamlarimizning-da ziyosi sezilmay o‘tib ketaturg‘on bo‘lib qolg‘on edi. Faqat, ba’zi ziyolilarda bordirki, bundan og‘ir fojialar ichinda-da insonning yuragini olovlantirib dahshatli yaralar ochadir…

Inson bu ziyolilar haqinda xabar olg‘oni zamon asablar yangidan avvalgi hassosligini kesib ketadir va butun fojialarni yangidan yashamoqqa boshlaydir… Mana shunday holni biz hozir yashab turibmiz. Xususiy muxbirimiz uzoq Hindistondan bizga Munavvarqorining Sovet hukumati tomonidan otib o‘ldirilganligi haqinda qisqacha bir xabar yo‘llamishdir. Bu xabar bizga dekabr oyining boshlarida kelib etushgan esa-da, shoyad to‘g‘ri chiqmas deb ko‘nglimizda saqladig‘imiz umid ila qo‘shimcha ma’lumot kutib turg‘on edik. Biz Sovet hukumatining umuman milliy ruhga, xususan turkchilikka qarshi ko‘rinishda hech bir jinoyatdan tortinmayoturg‘onlig‘ini juda yaxshi bilamiz. Buningla barobar biz Munavvardan xayolanda ayrila olmadik. Faqat, birinchi xabarni tasdiqlayturg‘on ikkinchi bir maktub ham etib keldi… Munavvarqori Sovet hukumati tomonidan qatl etilgan” [10,2-3], deb yozgan edi.

Abu Nasr Hojining she’rida ham Munavvarqorining sovet hokimiyati tomonidan o‘ldirilishi millat uchun juda katta yo‘qotish sifatida e’tirof etilib, Turkiston yigitlari bu ulug‘ shaxsning qatl etilishini hech qachon unutmasliklari lozimligini, chunki bir kun kelib o‘ch olish shartligini ta’kidladyi. Shuningdek, muallif Munavvarqorini aynan Sovet hokimiyatining qatag‘on mashinasi – GPU (Главное политическое управление (Bosh siyosiy boshqarma) tomonidan yo‘q qilinganligi urg‘ulangan:

Bu tarixni zabt et, unutma yigit
O‘ch olmoqqa bir kun sharofat uchun.
GPUning qaydinda maslak bilan
Munavvar shahid bo‘ldi millat uchun [11,12].

Xulosa o‘rnida aytganda, xorijdagi turkistonlik muhojir ziyolilarning she’riy merosi, xususan “Yosh Turkiston” jurnali sahifalarida chop etilgan adabiy asarlar, nafaqat mustamlakachilikka qarshi kurashning badiiy ifodasi, balki Turkiston xalqining ozodlik, erkinlik va milliy uyg‘onish sari intilishining ruhiy ramzi ham hisoblanadi. Yuqoridagi she’rlar vositasida mualliflar o‘z davrining – bir tomondan daxshatli, ikkinchi tomondan og‘riqli haqiqatlarini badiiy yo‘sinda ifoda etish orqali millatni Turkistonni ozod etishga ruhlantirish vazifasini amalga oshirishni ko‘zlagan edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mustafo Cho‘qay. Bizning yo‘l // “Yosh Turkiston” jurnali. 1929-yil dekabr, № 1. – B. 3.
2. Fitrat. Mirrix yulduziga // “Yosh Turkiston” jurnali. 1930-yil dekabr, № 7-8 – B. 35-36.
3. Cho‘lpon. Yaproqlar // “Yosh Turkiston” jurnali. 1929-yil dekabr, № 1. – B. 32-33

4. Mag‘jon Jumaboy. Turkiston // “Yosh Turkiston” jurnali. 1929-yil dekabr, № 1. – B. 29-32.
5. Elbek. Tilak yo‘lida // “Yosh Turkiston” jurnali. 1931-yil iyun, № 19. – B 30-31.
6. Sayyid Ali. To‘lqun // “Yosh Turkiston” jurnali. 1931-yil yanvar, № 14.– B. 30.
7. Iltar (Abdulvahob O‘qtoy) “Yosh Turkiston” jurnali. 1930-yil aprel-may, № 5-6. – B. 42.
8. Abdulvahob O‘qtoy Ona faryodi // “Yosh Turkiston” jurnali. 1931-yil yanvar, № 14. – B. 29.
9. Do‘qtur Iltar (Abdulvahob O‘qtoy). Yigitlar // “Yosh Turkiston”. 1933-yil fevral. – №. 39. – B. 35-36.
10) Mustafo Cho‘qay. Munavvarqori // “Yosh Turkiston”. 1934-yil yanvar. – №. 50. – B. 2-3.
11) Abu Nasr Hoji. Millat shahidi Munavvarqori ruhina // “Yosh Turkiston”. 1934-yil iyul. – №. 55. – B.

SADRIDDIN AYNIYNING “SUDXO‘RNING O‘LIMI” ASARIDA MA’NAVIY TANAZZUL VA UNING LINGVISTIK TAHLILI

Mardanova Mohira Davron qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, o‘qituvchi
+998912385857
mardanovamohira02@gmail.com

Annotatsiya

Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” asarida ma'naviy tanazzulning lingvistik ifodasi, stilistik vositalar yordamida tasvirlanadi. Asarda, odamlarning axloqiy qadriyatlarining buzilishi, ichki kechinmalari va ijtimoiy tizimdagi notinchliklar til orqali yoritilgan. Stilistik vositalar — masalan, repetitsiya, metafora, antiteza, ironik ifodalar va boshqalar — asar muallifiga qahramonlarning ichki holati, muhit bilan aloqalari va ma'naviy izdan chiqishlarini o‘quvchiga etkazishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: Sadriddin Ayniy, ma'naviy tanazzul, stilistik vositalar, repetitsiya, metafora, ironik ifodalar, ijtimoiy tanazzul, axloqiy qadriyatlar, lingvistik tahlil.

Аннотация

bo‘lsa, Ismoil Umidov insonni umrini uzaytiruvchi va miya imkoniyatlarini kengaytiruvchi dori kashf qiladi. Uning ixtirosida ham miya va yurakka operatsiya yo‘li bilan maxsus qurilmalar o‘rnatiladi. Natijada olimlarning har ikkalasi ham “O‘ta odam”, ya’ni, o‘zgalarda bo‘lmagan g‘ayritabiiy qobiliyat, qudrat sohibi bo‘lishadi. Yakunda esa badiiy so`zning qudrati bilan ezgu maqsad tarafdori g‘alaba qozonadi. [7, 132.]

“Qora farishta” hikoyasida esa boquvchisiz bolalarni asrab olayotgan hamda umrni uzaytirish borasida olamshumul ilmiy ixtiro qilayotgan jamiyat nazdidagi “Farishta” olim doktor Beldenning qora qilmishlari haqida so‘z boradi.

U o‘z qaramog‘iga olgan bolalar miyasining ayrim bo‘laklarini kattalarga o‘rnatib inson umrini uzaytirish va aqliy salohiyatini o‘stirish borasida tajribalar olib boradi“Agar men miyangizni operatsiya qilib, bola miyasidagi ayrim bo‘laklarni ulasam miyangiz tez ishlay boshlaydi, bir. Xotirangiz to‘la tiklanadi, ikki. Eng muhimi, umringiz uzayadi. Miya faoliyatingizni yo‘lga qo‘yilishi hayot uzaydi, qarilik chetlandi degan gap”. [6, 76.] Doktor Beldenning ushbu gaplari odamlar nazdidagi farishtaning qora qiyofasini ochib bergan.“Xizr suvi” hikoyasida esa qum bo‘ronlaridan g‘ayrioddiy hodisa bilan muhofaza qilingan quduqning suvi, undagi ilon yog‘i va qonidan Ibn Sino tayyorlagan dori jon berayotgan kampirga qayta hayot va yoshlik quvvatini baxsh etadi.

Anabioz. Tirik organizmlarning qattiq sharoitlarga chidash uchun o‘zlarini "o‘chirib qo‘yish" qobiliyati. Ular energiya sarfini kamaytiradi va organizmni tashqi muhitning salbiy ta'siridan himoya qiladilar. Ba'zi qurtlar qurg‘oqchilik paytida anabiozga kirib, tuproqqa ko‘miladi va metabolizmini sekinlashtiradi. Yoki ayrim turdagi baqalar qishki uyquga kirganda anabiozga kirib, suv havzalarining tubiga ko‘miladi va metabolizmini sekinlashtiradi.

Ayrim turdagi qo‘ziqorinlar qurg‘oqchilik paytida anabiozga kirib, sporalar hosil qiladi. Sporalar anabioz holatida uzoq vaqt saqlanishi va qulay sharoitlar paydo bo‘lganda o‘sib chiqishi mumkin. Adibning “Sadoqat” hikoyasida ham insoniyatga tahdid solgan ofat ya’ni o‘zga sayyoralik meduzasimon maxluqlar (Olimlar unga “Oq o‘lim” ya’ni Vaisdif deb nom berishadi) Polkovnik Kolens Serera turkumidan kontenerga solib olib kelgach ikki yuz yil davomida toki kontener chiriguncha anabioz qobiliyatida yashaydi.

Chunki agar maxluqlar tasodifan ozodlikka chiqib qolsa u mamlakat va millatlarni ajratib o‘tirmaydi. Yerdagi hayotga butunlay nuqta qo‘yadi. Aslida uni urush uchun dahshatli qurol deb o‘ylab olib kelishgandi, ammo u do‘st-u dushmanni ajratib o‘tirmay eb ketaverishini anglashgach Tinch okeani tubiga yashirishadi:

“Qalin kontener ikki asr davomida chirib teshilibdi. Ikki asr ozuqasiz yashagan mavjudodga qarshi hozir biror chora ko‘rishga ojizmiz. Unga hech narsa kor qilmaydi. Hozircha u hukmronlik qilayotgan orollarni kuch maydoni bilan o‘rab qo‘ydik”. [4, 311.]

Regenirasiya. Bu organizmning o‘zini tiklash qobiliyati. Ayrim hayvonlar, masalan, solomandr va dengiz yulduzlari o‘zlarining yo‘qolgan oyoq-qo‘llarini qayta tiklay olishadi. Yuqorida aytib o‘tganimiz vaisdiflar ham to‘da bo‘lib insonga tashlanib uni eydi va o‘sha zahotiyoq har biri ikkiga bo‘linib o‘z organlarini yangidan tiklaydi. Natijada bir vaisdif ikkitaga ko‘payadi.

Kelajakka sayohat vositasi sifatida. Fantastikaning asosiy vositalaridan biri adib farazidagi kelajakdagi hayot talqini hisoblanadi. Tohir Malikning “Xning xatarli kashfiyoti”, “Alvido Otello”, “Sadoqat” hikoyalarida bu mavzuga murojaat qilinadi. Muallif tomonidan “Mulla Mutallib ning‘oyib bo‘lishiga doir muqaddimali ammo xotimasi uzilgan xayoliy hangoma” deya izohlangan “Xning xatarli kashfiyoti” hikoyasida qovunga beriladigan o‘g‘it dori selitraning inson salomatligiga zararini isbotlash uchun qovun etishtiruvchi dehqon mulla Mutallib bilan birga XXII asrga sayohat qiladi: “Dunyoning qurilishini qarangki, Alloh o‘z mo‘jizasi ila yaratgan o‘n sakkiz ming olam orasida Yerning ya’ni, siz-u biz yashab turgan sayyoraning ham aksi bor ekan. Unga fazogirlarimiz bu voqeadan 24yil avval aniqrog‘i 2188-yilda, yana ham aniqrog‘i mulla Mutallibning eshagi harom o‘lgan yili ilk bora qadam qo‘ygan edilar. Shundan beri ikki sayyora ahlining aloqalari tobora a’lo darajada mustahkamlanib borayotgan edi”. [4, 354.] Sayyoraning nomi Z, undagi olimning nomi X deb atalishida ham aslida ular mavjud emasligiga, xayolot mahsuli ekanligiga ishora bor. Z sayyorasida insonlarning bo‘yi tobora pasayib boradi. Ixtirochi olim X esa qovun tarkibidagi selitra odam bo ‘yini o‘stirishini aniqlaydi. Mulla Mutallib Xga selitra berib etishtirilgan qovun sotadi. Qovun sharbati Zliklarning bo‘yini o‘stiradi, ammo ongini, irsiy quvvatini, ichki organlari faoliyatini susaytiradi va o‘limga olib keladi. Ushbu asarda kelajak motivi SSSR davrida qovunga beriladigan kimyoviy dori selitraning insonlarga zararini isbotlab berish uchun xizmat qildirilgan.

“Alvido Otello” hikoyasida esa o‘tgan asrning 70-80-yillarida turib 2063-yilga sayohat qilinadi. Londonlik kashfiyotchi Jems Kenti o‘z ixtirosi Kiber egizaklar ya’ni ma’lum bir insonlarga qiyofadosh sifatida yaratilgan robotlarning teatr san’atidagi mahoratini ko‘z-ko‘zlash uchun robotexnik va san’atshunos olimlar Muhammad Sultonov hamda Xalil Davronni taklif qiladi. O‘tgan asrning o‘zbek aktyori Abror Hidoyatov ijrosidagi Otello rolini uning kiber egizagi o‘ynaydi. Hidoyatovning ovozi sun’iy intellekt ijrosida namoyish

etiladi. Bugungi kunda reallikka aylangan bu hodisa asar yaratilgan davrda hali fantaziya edi. Ammo robotda hissiyot yo‘qligi uchun insonning o‘rnini bajara olmasligini asardagi o‘zbek olimlari anglab etishadi.

Muallif bu haqda asar epigrafida shunday yozadi: “Agar rivoyatlar haqiqatga aylanib mening ko‘rganlarimni er Chig‘atoyga etkazsa, Abror Hidoyatov shubhasiz go‘rida tik turar edi. Professor Xalil Davronning 2063-yili Londondan Toshkentga yuborgan maktubidan”. [4, 325.].

Ushbu hikoyada Hidoyatovdagi san’atkorona mahorat kiber egizakda yo‘qligi voqeasi orqali odam yaratish insonning emas Allohning ishi ekanligi g‘oyasi kelajak mavzusi vositasida ilgari surilgan.

Sadoqat” hikoyasida voqealar ro‘y berayotgan sana asarda keltirilmagan bo‘lsa-da, XXIII asrning oxirlari ekanligi anglashiladi. Sababi, vaisdiflar solingan kontener okean tubiga tashlanganiga ikki asr bo‘lgan. Ularning fazodan olib kelinganligi haqidagi suhbat yozilgan “Mutlaq mahfiy” deb nomlangan Polkovnik Kolens va Prezidentning bir-biriga yozgan ikkita maktubi 2098-yilda yozilgan. Ikki asrdan keyin fazoviy maxluqlar okean tubidan chiqib insoniyatga xavf sola boshlaydi. Bunda ilm-fan taraqqiyotidan yovuz maqsadlarda foydalanishga urinish oxir-oqibatda butun sayyoramiz ahlini o‘lim yoqasiga olib kelishi mumkinligi fantastik adabiyotning kelajak mavzusi orqali yoritib berilgan. Insonsimon androidlar. Bu insonlarga o‘xshash ko‘rinishga ega bo‘lgan robotlar. Ular odatda inson tanasining shakliga ega bo‘ladi va ularning yuzlari, qo‘llari va boshqa tanasi qismlari insonlarnikiga o‘xshash tarzda yaratilgan.

Yuqorida aytib o‘tganimiz “Alvido Otello” hikoyasi to‘laligicha shu mavzuga bag‘ishlangan. Bu asarning yaralishi haqida yozuvchi quyidagicha eslaydi: “Guliston” jurnalida teatr san'atiga bag‘ishlangan maxsus son tayyorlanayotgan ekan. Dў‘stimiz Sa'dulla Ahmad “Teatrning kelajagi qanday bo‘ladi? O‘ylab ko‘rsangiz-chi?” – deb qoldi. Bu taklif ham menga ilhom berdi. Kelajakda aktyorlar o‘rniga biorobotlar ishtirokida “Otello” qo‘yilsa qanday bo‘lishini “Alvido, Otello” fantastik hikoyasida bayon qildim. Bahonada Abror Hidoyatovning sahnadagi dahosini dunyo tan olajak, degan g‘oyani ham ilgari surdim”.[5, 475.]

Asarda Shekspirning “Otello” tragediyasini sahnada XX asr aktyorlarining kiber egizaklari, ya’ni insonsimon androidlar ijro qiladi. Bu ixtironing asoschisi Jems Kenti hattoki o‘zining kiber egizagini ham yaratgan va unga Kenti II deb nom bergan. U Jems Kenti o‘zi uchun ikkinchi darajali deb hisoblangan barcha ishlarni uning o‘rniga bajaradi. Ijtimoiy, siyosiy, ilmiy…

barcha masalalarda insondek mulohaza yurita oladi, yagona kamchiligi unda yurak yo‘q xolos.

“Gulliverning xatosi” hikoyasi esa ushbu hikoyaning qaysidir ma’nodagi mantiqiy davomi. Jems Kentining biorobotlar teatrini yaratganini eshitgan hikoya bosh qahramoni Allan Jasper biorobotlarning mitti mamlakatini ya’ni Gulliverni bandi etgan liliputlar olamini biorobotlar yordamida yaratib ertak shaharcha barpo etmoqchi bo‘ladi. Ammo biorobotlarning to‘rttadan ortig‘ini yaratishga uning mablag‘i etmagach, Jems Uolten homiyligining evaziga biorobotlarning irsiy kodlariga o‘zgartirish kiritishini buyuradi. Ularni urushqoq liliputlarga aylantiradi. Natijada Allanning ertakmonand shaharcha yaratish kashfiyoti qurol-yaroq qarollarining “Biznes rejasiga” aylanib ketadi. “Dunyoning taraqqiyoti endi biz istagan yo‘sinda rivojlanadi. Sen xotirjam bo‘l, urush dahshatlari bizga etib kelmaydi. Biz urushdan uzoq mamlakatda yashayapmiz, uqdingmi, uzoq mamlakatda”.[4, 235.] Jems bu rejasi orqali urush boshlashga qodir bo‘lgan hukmron doiralarni urush alangasini yoqishga undamoqchi bo‘ladi, maqsad esa qurol-yaroq savdosi. Ammo yakunda sun’iy bo‘lsa-da idrok, fahm-farosat va hattoki his-tuyg‘u berilgan biorobotlar yangi urushlarga sababchi bo‘lmaslik uchun, farzandlari ham urush balosini tortmasliklari uchun avlod qoldirishdan ongli ravishda voz kechadilar. Ushbu hikoyada robotlar, androidlar kelajakda insonlar darajasida fikrlay olishlari mumkinligi fantastik tarzda bashorat etiladi.

Kiborglar. Bu inson va mashina qismlaridan iborat bo‘lgan mavjudotlar. Ular odatda inson tanasiga mexanik qismlar qo‘shilgan holda yaratilgan bo‘lib, bu qismlar inson tanasining funksiyalarini yaxshilash yoki tiklash uchun ishlatiladi.

Tibbiy kiborglar inson tanasining funksiyalarini tiklash yoki yaxshilash uchun ishlatiladi. Masalan, protezlar, sun'iy yurak klapanlari, eshitish apparatlari va ko‘rishni tiklash uchun ishlatiladigan implantlar. Kengaytirilgan kiborglar inson tanasining qobiliyatlarini kengaytirish uchun ishlatiladi. Masalan, kuch-quvvatni oshirish uchun ishlatiladigan eksoskeletlar, ko‘rishni yaxshilash uchun ishlatiladigan ko‘zoynaklar va boshqa texnologiyalar. Adib asarlarida kiborglarning ikkinchi turiga murojaat qilinadi. Yuqorida keltirganimiz “Zaharli g‘ubor” qissasidagi Charlz Longni bu turdagikiborglar safiga kiritishimiz mumkin, chunki u o‘z miyasiga analizator qurilmasini o‘rnatganidan keyin g‘ayriinsoniy qobiliyatga va hatto qudratga ega bo‘ladi. Miyasining imkoniyati aqlga sig‘mas darajada kengayadi, shu bilan birga o‘zgalar fikrini o‘qiy olish xususiyatiga ega bo‘ladi, ammo u o‘zining bu ixtirosidan yovuz maqsadda foydalanadi. O‘zini “Qudrat sohibi” deb atab er yuzi va o‘zga sayyoralarga

hukmronlik da’vosi bilan chiqadi. “Falak” qissasida esa Jahongir Aliyev Elalloma qurilmasini ixtiro qilib, o‘z miyasiga o‘rnatilgan elektrod orqali vafot etgan odamning miyasini o‘qiy oladi.[3, 68.].

Telepatiya. Shu o‘rinda har ikkala qissadagi fantastik qurilmalar: analizator ham, elalloma ham telepatik qudratga ega sifatida ta’riflanganini aytib o‘tish joiz. “Devona” qissasidagi Tang sayyorasidan kelgan fazogirlar esa hech qanday qurilma yordamisiz ham telepatik qobiliyatga ega sifatida tasvirlangan. Bu xususiyat ularning o‘zga sayyorada yashaganliklari bilan izohlanadi.[2, 143]. Tanglik Rhaqning telba Sahobiddinning o‘tmishini uning miyasini telepatik usul bilan o‘rganib bilib olgani voqealari bunga misol bo‘la oladi.

Sun ‘iy zakovat hamda qiyofadoshlar. Muallif asarlarida uchraydigan bu mavzularni androidlar va biorobotlar mavzulari bilan yondosh ravishda tahlil qildik.

O‘zga sayyoraliklar. “Davron” va “Ov” qissalarida Yerdagi voqealar Unet sayyorasidan kelgan fazogirlarning ta’siri bilan bog‘lanadi. Yozuvchi bu sayyora haqida shunday yozadi: "O‘zbekcha "u" olmoshi bilan ruscha "net" so‘zini birlashtirdim, ma'nosi "U – yo‘q". Bunday sayyora yo‘q, lekin tabiat fojiasi muqarrar”.[8, 47].

Adib asarlarida uchraydigan o‘zga sayyoralar uchta bo‘lib ular Meng (“Hikmat afandining o‘limi”), Tang(“Devona”) hamda Unet.

O‘zga sayyoraliklarga esa faqat “Devona”da Rhaq, Lukian, Fig kabi ismlar berilgan.

Fazoviy sayohatlar. Ko‘pchilik fantast adiblardan farqli ravishda T. Malik asarlarida koinot bo‘ylab yoki o‘zga sayyoralarga sayohat mavzusi kam uchraydi, voqealar asosan Yerda, zaminiy muammolar asosida kechadi. “Zaharli g‘ubor” qissasida Charlz Longning butun koinotni egallash maqsadida fazoga qilgan sayohatlari, uni izlab yo‘lga chiqqan Ismoil Umidov boshchiligidagi ekspeditsiyalarni hamda “Sadoqat “ hikoyasidagi Ravshan va Polkovnik Kolenslar amalga oshirgan Serera turkumiga qilgan ekspeditsiyalari bu mavzuga misol bo‘la oladi.

Miyani almashtirish. Ilmiy-fantastik adabiyotda keng qo‘llaniladigan bu mavzu “Qora farishta” hikoyasidagi Doktor Beldenning qora tajribalarida o‘z aksini topgan. Chunki uning bu tajribasi bolalarning miyasini o‘rnatish orqali bir toifa insonlarni miya faoliyatini yuksaltirsa, umrini uzaytirsa, miyasining tafakkur joylashgan qismidan mahrum qilingan bolalar esa abadiy fikrlashdan mahrum bo ‘lib qoladi. Bu haqida Belden shunday ta’riflaydi: “Ularning miyasi hozir to‘la holda emas, ayrim moddalar va bo‘laklar ajratib olingan. “Biz keyinchalik ularga hunar o‘rgatamiz. Aytaylik, duradgorlikni o‘rgatamiz. Ular

shu sohaning ustalari bo‘ladilar, boshqa hech narsani o‘ylamaydilar. Siyosat ham jamiyat ham ularni qiziqtirmaydigan bo ‘ladi. O‘z ishlarini qilib yuraveradilar”.[4, 366]. Bir so‘z bilan aytganda ular manqurtga aylantiriladi.

Mutantlar va monstrlar. G‘ayrioddiy va qo‘rqinchli ko‘rinishga ega bo‘lgan mavjudotlarni bildiradi. Bu mavjudot odamlarga tahdid solishi mumkin, yoki shunchaki g‘ayrioddiy va qo‘rqinchli bo‘lishi mumkin. “Sadoqat” hikoyasidagi “Oq ajal” ya’ni vaisdiflarni shu turdagi mavjudodlar sirasiga kiritishimiz mumkin.

Tarixiy-ilmiy fantastika. Bu mavzu Alternativ tarix yo‘nalishiga yaqinroq bo‘lib unda tarixning muhim bir nuqtasida sodir bo‘lgan voqea tufayli bizning olamimizdan farq qilgan tarixning tasviridir. Alternativ tarix asarlari ko‘pincha ilmiy fantastika, tarixiy fantastika va siyosiy triller janrlarida yoziladi. Ular adiblarga o‘z farazlarini namoyish etish va bizning olamimiz haqida yangi fikrlarni o‘ylab topishga imkon beradi. Muallifning “Falak” qissasi Alternativ tarix yo‘nalishining ilmiy fantastika va tarixiy fantastika janrlarida yaratilgan. Bunga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

Birinchidan, voqealar parallel ravishda ikki davrda ya’ni XV va XX asrlarda yuz beradi; Ikkinchidan, davrlar osha sayohatning ilmiy asosi bor(Elalloma asbobi orqali inson miyasini telepatik tahlil qilish);

Uchinchidan, tarixda mavjud bo‘lgan qahramonlar va tarixiy joylarning tavsifi berilgan. Qanotli odamlar hamda yondosh olam. Muallif asarlarida ushbu mavzular uchramaydi.

Masofadagi voqelik. Bizning haqiqatimizdan alohida bo‘lgan, ammo u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa bir voqelik. Bu voqelik ko‘pincha bizning tushunchamizdan tashqarida bo‘ladi va u ko‘pincha sehr, xayol, ruhoniyat yoki ilmiy fantastika bilan bog‘liq. Muallif fantaziyasidagi Tang sayyorasidagi hayotni bu mavzuning badiiy talqini deya olamiz. Shuningdek, fantastik mavzuning bu turiga virtual voqelikni ham kiritishimiz mumkin. U kompyuter tomonidan yaratilgan va odamlarga boshqa dunyolarni boshdan kechirish imkonini beradi. Adib hikoyalaridagi biorobotlar teatri yoki biorobotlarning ertak shaharchasi voqealari ushbu turga to‘g ‘ri keladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Tohir Malikning fantastik asarlari nafaqat ijtimoiy, siyosiy, diniy-ma’rifiy va global mavzularni yoritganligi bilan balki, fantastik mavzular xilma-xilligi bilan ham badiiy qimmatga ega. Muallif asarlarida professor R. Ibragimova sanab o‘tgan o‘n sakkizta mavzudan o‘n beshga yaqini turli xil variantlarda uchraydi. Bundan 40-50 yil avval yaratilgan asarlardagi yozuvchining ayrim farazlari, fantaziyalari bugun reallikka aylanib ulgurdi. Aslida ilmiy-fantastik adabiyotning bosh g‘oyasi ham aynan ana

shunda, fantaziyalar, farazlar reallashib ixtiroga aylanishida, hayotga tadbiq etilishida emasmi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Иброхимова Р. ЗБЕК ФАНТАСТИКАСИ МАНЗАРАЛАРИ. Шарқ юлдузи. 2011. No 6. Б. 141.
2. Малик Т. Девона. Тошкент, www.ziyouz.com 2008. Б. 143.
3. Malik T. Фалак. Тошкент: 2008. www.ziyouz.com. Б. 68.
4. Malik T. Hikoyalar. – Toshkent: Sharq, ziyo, zakovat–2016. B. 311.
5. Malik T. Po‘rtanali ummonda suzar hayot qayig‘i. – Toshkent: Sharq, – B. 475.
6. Малик Т. Қора фаришта. Гулистон. -1974. -No 8. Б. 76
7. Малик Т, Хошимхужаев Б. Захарли губор. Ғафур Ғулом 1978. Б. 132.
8. Namozov A. Tohir Malik gurunglari. – Toshkent: O‘zbekston, 2016. B. 47.

SHODMONQUL SALOM SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOSLIGI

Ismigul Sobirova,
Qo‘qon davlat universiteti talabasi

Annonatsiya: Maqolada Shodmonqul Salom ijodidagi poetik o‘ziga xosliklar, yangilanishlar «Xirmonlarim» hamda «Shoir qanotiga o‘t ketgan qushdir» nomli she'rlari misolida dalillanadi. Shoir she'riyatidagi yangi o‘xshatishlarga qo‘l urish, voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali tasvirlash mahorati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: novatorlik, badiiy tasvir, tashbex, lirik qahramon, badiiy asar ruhiyati.

Аннотация: В статье на примере стихотворений «Хирмоним» и «Птица с огнем на крыльях» показаны поэтические особенности и новации в творчестве Шодмонкул Салама. Определяется способность уловить новые сравнения в поэзии поэта, описать действительность средствами художественных образов.

Ключевые слова: новаторство, художественный образ, аллегория, лирический характер, дух художественного произведения.

Annotation: The article demonstrates the poetic peculiarities and innovations in Shodmonqul Salam's work on the example of the poems «Khirmonim» and «A

bird with fire on its wings». The ability to grasp new similes in the poet's poetry, to describe reality through the means of artistic images is determined.

Key words: innovation, artistic image, allegory, lyrical character, spirit of artistic work.

«O‘xshatish—insonga bolalikdan xos xususiyat. Inson boshqa mavjudotlardan o‘xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan farqlanadi», – degan edi ulug‘ mutafakkirlardan biri.[1:16] O‘xshatish nafaqat kundalik hayotda qo‘l keladi, balki, badiiy adabiyotda qo‘llanilgan qiyoslashlar asarga o‘zgacha joziba baxsh etib, ta'sirchanlik xususiyatini oshiradi. Ayniqsa, she'riyatda o‘xshatish san'atining qo‘llanilishi muallif etkazib bermoqchi bo‘lgan fikrning ayni in'ikosi hamda inson his-tuyg‘ularini jumbushga keltirishning go‘zal vositasi sifatida qaraladi. Jumladan, insoniyatga xos abadiy masalalarni o‘zgacha poetik tasvir yo‘li bilan etkazib beradigan ijodkor Shodmonqul Salom ijodida mumtoz adabiyotda ko‘proq «tashbeh» nomi bilan yuritiladigan o‘xshatish san'ati muhim rol o‘ynaydi. Shoirning «Xirmonlarim» nomli she'ridan olingan quyidagi parcha ham yuqoridagi fikrning dalili sifatida qaraladi:

Yil—dehqondir, hosil ko‘targan,

Kutganidek bo‘ldimmikan chosh.

Yuragimga tuyg‘u jamg‘argan

Sal narida turibdi qirq yosh.

Muallif yashab o‘tgan umriga nazar tashlar ekan, o‘tgan yillarni, go‘yoki, hosil yig‘ib olish vaqtida turgan dehqonga o‘xshatadi. Qirq yosh esa muallifning haqiqiy ma'noda hayotni anglash davriga qadam qo‘yayotganini va bu dunyo haqiqatlari qahramonning yuragiga hosil kabi tuyg‘u jamg‘atganini ifoda etadi. E'tiborlisi shundaki, ushbu misralarda insonda kechgan his-tuyg‘ular aslida bizning hayotdan olgan hosilimiz bilan yondosh holda qo‘yiladi. O‘z-o‘zini tahlil qilish xarakteri etakchilik qilgan ushbu satrlarda vaqtning beshavqatligi, inson tuyg‘ulari hayotida aql mahsulidan ko‘ra ko‘proq iz qoldirishi mazmuni yashirin ravishda singdirib yuborilgan.

She'rning so‘nggi baytida adibning uslubiy mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Dekabrdan umidim ko‘pdir,

Kechalarni yurib o‘taman.

Yuragim cho‘g‘, vujudim cho‘pdir

Men faqat yaxshilik kutaman,

Men faqat yaxshilik kutaman.

Lirik qahramonning hayotga nisbatan muhabbati bo‘y cho‘zgan ushbu misralarda ijodkorning ertangi kunga bo‘lgan umidi namoyon bo‘ladi. Shuningdek, avval uchramagan yurakning —cho‘g‘, vujudning esa cho‘pga qiyoslanishi Shodmonqul Salomning novatorlik mahorati yuksak ekanlini isbotlaydi.

«Shoirning butun ijodi uning badiiy biografiyasi hisoblanadi»-degan edi adabiyotshunoslardan biri.[2:49] Shu kabi asar ruhiyatiga ijodkorning hayotiy kechmishi ham ta'sir qilmasdan qolmaydi. Ma'lumki, she'riyatda lirik qahramon vazifasini ko‘p holatlarda muallifning o‘zi o‘taydi. Bu esa, o‘z navbatida, ijodkorga hayotiy tajribalari va kechinmalarini erkin bayon etish imkonini beradi. Biz tadqiq etayotgan Shodmonqul Salom lirikasining salmoqli qismida ham muallif lirik qahramon sifatida gavdalanadi.

Quyida adibning o‘zi kabi qalbi uyg‘oq insonlarga bag‘shlangan ushbu satrlarini ko‘raylik:

Shoir qanotiga o‘t ketgan qushdir,

Unga don ko‘rsatmang, bering osmonni.

Jadidona ruh etakchilik qilgan ushbu misralarda Shodmonqul Salom shaxsiyatidagi dadillik, millatga fidoyilik xususiyatlari ko‘zga tashlanadi. Dastlab, shoir—qanotiga o‘t ketgan qushga qiyoslanib, to‘rtlik so‘ngigacha ushbu qiyos dalillanadi. Shuningdek, misradagi don aslida nafs, tutqunlik, boylik, mansab kabi bir qancha ma'nolarni ifodalab kelmoqda. Tabiiyki, osmon obrazi esa o‘ziga tegishli bo‘lgan poklik, uyg‘oq ruh ma'nolarini bildirib, ramziylik kasb etmoqda. Jamiyatda shoirlar, millat fidoyilarining ma'rifatparvar g‘oyalarini tarqalishiga imkon yaratish zarur ekanligi g‘oyasi birgina, «unga don ko‘rsatmang, bering osmonni» bayti orqali anglashilib, adibning uslubiy mahoratidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda, Shodmonqul Salomning «inversiya», ya'ni gap tartibining o‘zgarishi hodisasiga qo‘l urishi she'rning ta'sir doirasi oshishiga xizmat qilmoqda.

Keyingi baytda esa ilk misralardagi chizgilarning sababi ochiqlanadi:

To yonib bo‘lguncha yorishsin olam,

Toki kuydirmasin kuygan jahonni.

Keyingi baytda esa yuqoridagi fikrlar sababi oydinlashadi:

To yonib bo‘lguncha yorishsin olam,

Toki kuydirmasin kuygan jahonni.

«Bizga lozim bo‘lgan birdan-bir narsa adabiyot, adabiyot, adabiyot»-, deya adabiyotga ta'rif bergan edi Abdulhamid Cho‘lpon o‘zining «Adabiyot nadir?» nomli maqolasida[3]. Shodmonqul Salom esa ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida ana shu adabiyotning eng kuchli ta'sir kuchiga ega bo‘lgan lirik asarlarning yaratuvchisi—shoirni yonayotgan qush misol ta'rif etar ekan, uning yonishi shunchaki gurillash bo‘lmay, insoniyatning qalbiga nur olib kiradigan quyosh ekanligi yuksak mahorat bilan ochib berilgan.

Bularning barchasi esa Shodmonqul Salomning yuksak badiiy did egasi, poetik yangilanishlar ustasi, so‘zni sehrini his qildira oladigan haqiqiy novator ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Ulug‘ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. Ra'no Mullaxo‘jayeva. Tafakkur yangilanishi. – Toshkent: Muharrir, 2019.
3.Abdulhamid Cho‘lpon. «Sadoi Turkiston» gazetasi. 1914-yil 4-iyun
4.Shodmonqul Salom. Yurak iqlimi.
5.Shodmonqul Salom. Ko‘ngil kitobi .
6. Vahob Rahmonov. She'r san'atlari. – Toshkent: Sharq. -Toshkent, 2020.

“ROHILA” QISSASIDA MILLIY KOLORIT VA AN’ANALAR TASVIRI

Abdupattayev G‘ulomjon G‘ofirjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti Pedagogika-psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek qissachilik janriga yaratgan asarlari bilan munosib hissa qo‘shib kelayotgan Nabijon Boqiyning “Rohila” asaridagi milliy kolorit va xalq an’analarining badiiy tasviri tahlil qilingan. Kichik tadqiqot ishida qissada aks etgan o‘zbekona urf-odatlar, turmush tarsi va qahramonlarning xarakteridagi milliy xususiyatlarning asar g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishdagi o‘rni aniqlangan. Adibning qissani yaratishda milliy realiyalardan foydalanish mahorati, til vositalaridan milliy ruhni ifodalashi hamda an’analar tasvirining qahramonlar obrazini chuqurlashtirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Muallif fikrlarini asarlardan olingan iqtiboslar asosida isbotlab bergan.

Kalit so‘zlar: qissa, kolorit, realiya, obraz, bosh qahramon, milliylik, tarixiy davr, o‘zbek adabiyoti, janr.

Абстрактный

В данной статье анализируется художественное изображение национального колорита и народных традиций в произведении “Рохила” Набижона Боки, внесшего своими произведениями достойный вклад в жанр узбекского рассказа. В ходе небольшого исследования была выявлена роль узбекских обычаев, образа жизни, национальных особенностей персонажей, отраженных в повести, в раскрытии идейно-художественного содержания произведения. Демонстрируется мастерство автора в использовании национальных реалий при создании сюжета, выражение национального духа языковыми средствами, важность изображения традиций в углублении образов героев. Автор обосновал свои идеи цитатами из произведений.

Ключевые слова: рассказ, колорит, реальность, образ, главный герой, национальность, исторический период, узбекская литература, жанр.

Abstract

This article analyzes the artistic depiction of national color and folk traditions in the work “Rohila” by Nabijon Boqi, who has made a worthy contribution to the Uzbek short story genre with his works. In a small research work, the role of Uzbek customs, lifestyle, and national features in the characters of the heroes reflected in the story in revealing the ideological and artistic content of the work was determined. The writer's skill in using national realities in creating the story, the expression of the national spirit through language tools, and the importance of the depiction of traditions in deepening the image of the heroes are shown. The author substantiates his ideas based on quotes from the works.

Keywords: story, color, reality, image, main character, nationality, historical period, Uzbek literature, genre.

Badiiy adabiyot xalqlarning o‘tmish hayoti, bugungi kuni va ertasini yoritib beradigan, an’ana va urf-odatlarni keyingi avlodlarga yetkazib beradigan beqiyos xazinadir. Har qanday asarning milliy koloriti va mahalliy o‘ziga xosligi milliy ruhni ifodalaydi. Bugungi zamonaviy o‘zbek adabiyotida millatning o‘ziga xos olami, urf-odatlari, an’analari, qarashlari, mahalliy tili aks etgan asarlar talaygina. Ana shunday adiblardan biri, o‘zbek nasrida o‘z uslubi bilan betakror asarlar yaratayotgan iste’dodli yozuvchi Nabijon Boqiy ijodiga nazar tashlasak, unda xalqning o‘tmishi va buguni, an’analar va milliy til boyligi, qahramonlarning qiyofasida milliy kolorit va xalq an’analarini ko‘ramiz. Shu o‘rinda kolorit so‘zining lug‘aviy ma’nosini izohlab o‘taman. Kolorit – lotincha “kolor”, italyancha “kolorito” so‘zlaridan olingan bo‘lib, rang, bo‘yoq, manzara ma’nosini bildiradi. Kolorit deganda tasviriy san’atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o‘zaro mutanosibligi tushunilsa, badiiy

adabiyotda esa asarning o‘ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma’lum joyning o‘ziga xos jihatlari ifodasi ko‘zda tutiladi. Ilmiy manbalarda kolorit atamasi bilan realiya so‘zi ham parallel ravishda qo‘llanilib, bu ikki atamani farqlamoq kerak. Tadqiqotchi G.S.Mirzayeva [1, 2] lk bor “realiya” atamasi S.I.Vlaxov va S.P.Florin tomonidan ishlatilib, bu atama obyektlarga, urf-odatlarga, ma‘lum bir tilning shakllanishiga ta‘sir qiluvchi odatlar va boshqa madaniy va moddiy jihatlar ekanligini ta’kidlaydi. O‘zbek tilshunosi, professor B.Mengliyev realiyani shunday izohlaydi: “Realiyalar ko‘proq badiiy adabiyotlarda, shuningdek, insonlarning og‘zaki nutqida ishlatilib, u yerda nafaqat stilistik maqsadlarda, balki milliy, mahalliy va tarixiy kolorit (buyoqdorlikni) tug‘dirish uchun xizmat qiladi”. [2, 31] Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, kolorit yaratish uchun realiya ma’lum bir funksiyani bajaradi.

Kolorit badiiy asarning alohida xususiyati bo‘lib, qahramonning nutqiy xususiyatlari, ularda ma’lum bir shevaga oid muhit yoki biron bir tildan olingan so‘z va iboralar mavjudligi sababli o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi milliy ko‘rinishdir.

Nabijon Boqiyning “Rohila” qissasida kolorit o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Asarda yahudiylar va o‘zbeklar hayoti, urf-odatlari, an’analari syujet voqealari rivojlanishida oydinlashib boradi. Bosh qahramon Mo‘minjon Samarqandda bir yahudiy oilasiga tashrifi mobaynida oila a’zolarining Samarqand shevasida gapirishiga guvoh bo‘ladi:

Rohila ko‘z yoshlarini opasiga bildirmaslik uchun uydan chiqadi.

Opasi qandaydir buyumni olib, yana tashqarilaydi. Rohila ichkari kirib o‘tiradi, ko‘zlarini artadi:

–Boz miyoyed, – dedi. –Yana kelingiz.

Omadam. Ammo ba padaru modaraton malol namemoyad? –dedim. – Kelaman. Ammo ota-onangizga malol kelmasmikan?

–Maloli ne? –dedi. –Malol kelmaydi.

–Uch kundan keyin dorilarning ta’sirini bilish uchun kelurman. [3, 10]

Yoki yahudiy oilalarining turk lahjasida gapirishlari quyidagi parchada keltirilgan:

Evet, –deb yerga qaraydi padar. –Shundoq, –deb ma’yus jilmaydi. –Quddusi sharifda tehsil ko‘rib yurgan chog‘larimOnado‘li turklari lahjasini ham o‘rgangandim, – deb izoh beradi. – Cho‘x go‘zal insonlardir Onado‘li turklari.

– *Men-da turkcha ko‘nishyorim, – dedim. – Istanbulga ikki daf’a safar kilmisham, kardashlar evinda musofir bo‘lmisham.*
– *Sag‘ o‘lsunlar.*
– *Vatan sag‘ o‘lsun!* [3, 11]

Yuqoridagi parchalardan ko‘rinib turibdiki, yahudiylar oila davrasida ivrit tilidan foydalansalar, taqdir taqozosi bilan qayerda yashasalar, o‘sha yerlik tub aholining lahjasini o‘zlashtirib, muloqotni amalga oshirganlar. Bu esa barcha xalqlarda uchraydigan jtimoiy holat bo‘lib, qissada yahudiy oilasining o‘zaro va atrofdagilar bilan munosabatlaridagi sheva muloqoti, ya’ni realiya aks etgan. Bu esa oila muhitining o‘ziga xosligini belgilovchi realiyadir. Bu realiya tilning ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida yozuvchi qahramonlar obrazini yaratgan, milliy xususiyatni tasvirlab bergan. Qissada uchraydigan “heder” (boshlang‘ich maktab), “melamdh” (muallim) so‘zlari ivrit so‘zlaridir. Ular qissaning milliy koloritini ifoda etib, turli uslubiy vazifalarni bajaradi.

Ma’lumki, badiiy adabiyotda muayyan bir xalqning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan voqelikning u yoki bu hodisalari va daliliy ashyolari badiiy ta’sirchan shaklda ifodalanib, kolorit hosil qiladi.

Shu payt qo‘lim kaftini noxos ko‘kragiga bosdi. Shunday muloyim bir lazzatki, sezgi bilan barobar bir katta muzni boshimga qo‘ysa, jonim oyoq tirnoqlarimdan chiqib ketardi.

Qulog‘imga: “Hoy, Mo‘min, hushyor bo‘l!” degan tovush eshitilganday bo‘ldi.

...–Men musulmonman, sen yahudiy bo‘lsang. Qanday qilib biz qovusha olamiz axir! – dedim.

Bu mening katta xatoyim bo‘ldi. Uning chin muhabbatini men qadrlay olmadim, buyuk muhabbatini baholay olmadim. Ojizlik qildim.

– *Ikkimiz boshqa shaharga qochib ketamiz. Men musulmon bo‘laman, dedi Rohila.*
– *Padaring yahudiylarning katta olimi, valiy bo‘lsa, biz bu xil xiyonatga yo‘l qo‘ysak, undan keyin ota-onang yahudiylar qavmi orasida qanday bosh ko‘tarib yuradi, Rohila?! Bu tomonini ham o‘ylayapsanmi?! – dedim his-tuyg‘ularini yamlab yutib yuborgan eski voiz kabi ezmalanib.* [3, 14]

Asar bosh qahramoni Mo‘minjon shunday ta’riflanadi: “Alhosil, Mo‘minjon tarixiy voqealar ichida hayot kechirardi. U boshini qashlashga vaqt topolmasdi-yu, lekin boshini ishlatishga, albatta, vaqt topar edi”. [3, 5] Haqiqatan ham, arab tili, mantiq, ilmi kalom, hikmat, islom fikhi, savdo-sotiq va tabobat ilmini mukammal

egallagan Mo‘minjon obrazida o‘z davrining eng peshqadam, ziyoli o‘zbek o‘g‘lonini ko‘rish mumkin. Uning har bir so‘zi, har bir xatti-harakati o‘zbekona milliy tarbiya hosilasidir. Shuning uchun ham Rohilani qattiq yaxshi ko‘rib qolishiga qaramay birdaniga yakuniy qaror qila olmaydi: Rohila bilan munosabatlari, ota-onaning roziligini olmay nikoh tuzish, diniy qadriyatlarni oyoq osti qilmaslik, ota-onaning ijtimoiy mavqeini hurmat qilish kabi masalalarda o‘zbek yigitiga xos bo‘lgan ma’naviy qarashlarni ko‘ramiz.

Qissada bir muhabbat tarixi hikoya qilinishiga qaramay asar Rohilaning o‘limi bilan yakunlanadi. Kitobxon ko‘nglida esa “muhabbatni asrab qolish mumkin edi-ku” degan fikrlar o‘tib, shunday o‘qimishli, ziyoli inson Mo‘minjonning harakatsizligidan, o‘z muhabbatini asrab qololmaganidan, unga yechim topolmaganidan norozilik paydo bo‘ladi.

Adabiyotshunos Umarali Normatovning fikricha, “Inson shaxsiyatiga munosabat, turli xil tomondan yondashish, uning ziddiyatlari, murakkabligi, kuchli va ojiz tomonlarini ko‘rsatishga intilish - hozirgi adabiy jarayonning xarakterli xususiyatlaridandir. Bu adabiyotimizda, nasrimizda realizmning chuqur ildiz otib borayotganligini tasdiqlaydigan muhim bir fakt. Modomiki, adabiyot bu - insonshunoslik ekan, axir u insonni, uning ma’naviyatini har tomonlama tahlil, tadqiq etib berishi, odamlar, ularning bisoti haqidagi tasavvurimizni boyitishi, chuqurlashtirishi lozim”. [4,129] Nabijon Boqiyning “Rohila” qissasi realizmning yorqin namunasidir. Asarning bosh qahramoni Rohila timsolida ishq yo‘liga kirgan insonning iztiroblari bayon qilinsa, Abdulmo‘min obrazida ilmli, diniy va dunyoviy biimlarni o‘zlashtirgan, bir tomondan, milliy urf-odatlardan tashqariga chiqolmaydigan, ikkinchi tomondan, sof sevgisini qadrlab, Rohilaning qalb iztiroblarini to‘g‘ri tushungan yigitni ko‘ramiz. Abdulmo‘minda milliy urf-odatlar ta’sirining kuchliligi o‘z muhabbati uchun choralar izlashiga imkoniyat bermaydi: *– Men musulmonman, sen yahudiy bo‘lsang. Qanday qilib biz qovusha olamiz axir! – dedim. Bu – mening eng katta xatoyim bo‘ldi. Uning chin muhabbatini men qadrlay olmadim, buyuk muhabbatini baholay olmadim. Ojizlik qildim.*[3,14]

Taniqli olim G‘aybulla Salomov milliy o‘ziga xoslik haqida shunday deydi: “Milliy o‘ziga xoslik deganda, adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma’naviy turmush tarzi, tabiati, o‘rmon, dala, tog‘, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho‘pchaklari, tarixi va dini, adabiyot va san’ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi“. [5, 101] “Rohila” qissasida yaratilgan obrazlar, joy tasvirlari, obyektlar, tushunchalar va atamalar – bularning barchasi qissa koloritini yaratishga omil bo‘lgan.

Adabiyotshunos olim Yo‘lchiyev Q. monografiyasida nasriy asardagi voqealar bilan ijtimoiy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida fikr yuritib quyidagilarni

ta’kidlagan: “Badiiy asarning ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligida ikki jihat doimo yetakchi bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Birinchisi, tashqi tomondan bo‘lib, bu turli ijtimoiy-siyosiy qarashlarning asardagi voqealarga ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi, ichki tomondan, ya’ni personajlarning shaxsiy kechinmalari, ruhiy holati va ularning voqea rivojiga ta’sirida ko‘rinadi”. [6, 21]

Shuni aytish mumkinki. “Rohila” qissasida ma’naviy qadriyatlar va davr ijtimoiy dardi mohirlik bilan yoritilgan. Asarda chin insoniy iztiroblar poetikasi ustuvor. Yozuvchi qissada shakl va maznun mutanosibligiga erishib, xalq an’analarini tasvirlash, qahramonlarning tili, kiyinishi, urf-odatlari, joy nomlari orqali ajoyib kolorit yaratgan. Shu o‘rinda S.Mirzayevning: “…xalqning o‘lmas an’analaridan foydalanishni, umuminsoniy va internatsional hodisalarni milliy koloritda tasvirlashni o‘rganishimiz kerak”, – degan fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir. [7, 75] Ushbu maqolada Nabijon Boqiyning “Rohila” qissasida milliy kolorit va an’analarning badiiy tasviri tahlil qilinib, qissadagi o‘zbekona urf-odatlar, turmush tarzi elementlari va personajlar xarakteridagi milliy xususiyatlar yorqin aks ettirilgan. Yozuvchi milliy realialardan unumli foydalanib, asarga o‘ziga xos milliylik baxsh etgan. Qissadagi milliy kolorit va an’analar tasviri shunchaki etnografik ma’lumot berish bilan cheklanmay, balki asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishga, qahramonlar obrazini chuqurlashtirishga va ularning taqdirini yoritishga xizmat qilgan. “Rohila” qissasi Nabijon Boqiy ijodida milliy o‘ziga xoslikni yorqin aks ettirgan asarlardan biri bo‘lib, unda tasvirlangan milliy kolorit va an’analar o‘zbek adabiyotining boy merosini aks ettiradi hamda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, “Rohila” qissasi nafaqat qiziqarli syujeti, balki unda teran ifodalangan milliy ruh, o‘zbekona an’analar va betakror kolorit bilan ham adabiyotimizda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzayeva G.S. Milliy va madaniy koloritini ifodalashda realiyaning eng muhim xususiyatlari.Journal of Integrated Education and Research.Vol. 1 No. 7(2022).
2. Mengliyev B. “Hozirgi o‘zbek tili”. Darslik. Toshkent, 2018.
3. Nabiyjon Boqiy. Rohila. Qissalar. – Toshkent: Anorbooks, 2022. – 190-b.
4. Normatov U. Talant tarbiyasi. “Yosh gvardiya”, T-1980, 129-bet.
5. Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 121 b
6. Yo‘lchiyev Q. Nurali Qobulning prozaik mahorati. Monografiya. – T.: “Ma’rifat bitiklari”, 2021. – 252 bet.
7. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. Darslik. “Yangi asr avlodi”, 2005-yil. 120-bet

2-SHO‘BA: TIL VA ADABIYOT O‘QITISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR

ONA TILI DARSLARIDA O‘SMIRLARNING “O‘ZIGA ISHONCH” KO‘NIKMASINI O‘LCHASH VA BAHOLASHNING METODIK TALABLARI

M. Quronov, *RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti direktorining o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor.*
R. Umarov, *Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bo‘lim boshlig‘i,*
A. Jumaboyev*, O‘zMU tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Maqolada ona tili darslari orqali o‘smirlarda “o‘ziga ishonch” kompetensiyasini shakllantirish, o‘lchash va baholashning metodik asoslari yoritilgan. Mualliflar mazkur kompetensiyani uch asosiy tarkibiy qism — o‘ziga ishonch, o‘zini baholash va o‘zini namoyon qilish — sifatida dekompozitsiya qilishni taklif etadi. Har bir qism uchun aniq ko‘nikmalar ro‘yxati va baholash indikatorlari belgilangan. Maqolada 5–11-sinflar kesimida “o‘ziga ishonch” kompetensiyasining Blum taksonomiyasi asosidagi rivojlanish traektoriyasi tizimlashtirilgan. Shuningdek, dars jarayonidagi metodik tavsiyalar, baholash shakllari va fanlararo integratsiya orqali kompetensiyaviy yondashuv amalga oshirilishi ta’kidlangan. Maqola o‘quvchi shaxsiy salohiyatini ochish, nutqiy faollikni kuchaytirish va ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishda ona tili fanining ulkan tarbiyaviy imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritadi.

Annotation. The article explores the methodological foundations for developing, measuring, and assessing the “self-confidence” competency in adolescents through mother tongue (native language) lessons. The authors propose a decomposition of this competency into three main interrelated components: self-confidence, self-assessment, and self-expression. For each component, specific skill sets and evaluation indicators are defined. The article systematizes the developmental trajectory of the “self-confidence” competency across grades 5 to 11, based on Bloom’s Taxonomy. It also highlights methodological recommendations for classroom practice, forms of assessment, and the integration of cross-disciplinary approaches to support competency-based learning. The article scientifically substantiates the powerful educational potential of mother tongue lessons in unlocking students’ personal capacity, enhancing verbal activity, and fostering social positioning.

Kalit so‘zlar*: o‘ziga ishonch, ona tili darsi, o‘smirlar tarbiyasi, kompetensiya, dekompozitsiya, metodik talablar, nutqiy faollik, shaxsiy pozitsiya, o‘zini baholash, Blum taksonomiyasi, refleksiya, ijodiy insho, fanlararo integratsiya, baholash mezonlari, tarbiyaviy muhit.*

Hozirgi globallashuv, axborot xuruji va shaxslararo raqobat sharoitida o‘smirlarda o‘z fikrini ochiq bayon qila olish, tanqid va bosimlardan cho‘chimay, ichki ishonch bilan faoliyat yuritish qobiliyati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki o‘quvchining shaxsiy salohiyatini ochish va uni jamiyatga faol a’zo sifatida tayyorlash jarayonida “O‘z-o‘ziga ishonch” kompetensiyasini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Ona tili darslari ana shu kompetensiyani rivojlantirishda eng samarali fandir, chunki bu fan orqali o‘quvchilar o‘zini ifoda etish, shaxsiy fikr bildirish va ijtimoiy faollik ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Ona tili darslari — o‘quvchining shaxsiy salohiyatini ochish uchun ajoyib maydon. Agar darslar o‘quvchi markazida, ochiq va samarali muhitda tashkil etilsa, “o‘z-o‘ziga ishonch” kompetensiyasi samarali rivojlanadi. Bu esa nafaqat ta’limda, balki hayotda ham muvaffaqiyat kalitidir. Buning uchun asosiy maqsadni o‘quvchilarda shaxsiy o‘ziga ishonch, mustaqil fikrlash, o‘zini to‘g‘ri baholash va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan dars muhitini yaratish hamda buni dars mazmuni va faoliyat orqali qo‘llab-quvvatlash zarur.Shuni ta’kidlash zarurki, 5-11 sinf o‘quvchilarida o‘ziga ishonch kompetensiyasini rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqish shart. Tahlillarimiz 5–6 sinf o‘quvchilarida xavfsiz muhitga muhtojlik, o‘ziga ishonchning nisbatan pastligi va u sababli ularni qo‘llab-quvvatlovchi muhit, muloqot yaratish, ijodiy topshiriqlar berish taqozo qilinadi. 7-8 sinf o‘quvchilarida esa tanqidiy fikrlash rivojlana boshlaydi. Demak, muhokama, debat, refleksiya asosidagi mashqlar talab qilinadi. Va nihoyat, 9-11 sinflarga kelib, o‘quvchilarda mustaqil fikrga intilish, o‘z pozitsiyasini bildirish istagi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa, shaxsiy bayon, esselar, tahliliy xulosalar, jamoaviy bahslar metodlarini qo‘llashni talab qiladi. Darslarni rejalashtirishda o‘quvchi dars markazida bo‘lishi kerak. Shuningdek, o‘quvchilarga xato qilishdan qo‘rqmaslikni, agar x**ato qilinsa,** xatolarni tan olish va ularning foydali tomonlarini o‘rgatish muhim hisoblanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni rivojlantirishni shartlaridan biri bu - t**eng muloqot muhitini yaratish,** o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ochiq muloqot muhitini ta’minlashdir. Bunda t**a’limiy va tarbiyaviy maqsadlarning uyg‘unligi asosiy shart hisoblanadi.** O‘ziga ishonchni rivojlantirishda ona tili darslarining shakllari ham katta rol o‘ynaydi. Buning uchun “Men kimman?”, “Meni orzularim”, “Mening kuchli tomonlarim” mavzularida insholar yozish mumkin. “Yangi maktabda

birinchi kun”, “Men bahsda qatnashaman” kabi **rolli o‘yinlar;** fikr muhokamasi, ijodiy loyihalar singari **guruhiy ishlarni uyushtirish samarali bo‘ladi. Va albatta,** “Bugun men nima o‘rgandim?”, “Qaysi daqiqada o‘zimga ishondim?” savollarini o‘zi o‘ziga berib, o‘ylash, refleksiya shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘ziga ishonch kompetensiyasini ob’ektiv aniqlash va adekvat metodika ishlab chiqish uchun bu kompetensiyani dekompozitsiya qilish talab etiladi. Bu borada olib borgan izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, ushbu kompetensiya uch mustaqil, bir biriga bog‘liq qismlardan iborat. Bular 1, O‘ziga ishonch (O‘quvchining o‘z imkoniyatlariga ishonchi va tashabbuskorligi 2, O‘zini baholash (O‘z faoliyatiga nisbatan tahlil va xulosa chiqara olish qobiliyati) va 3, O‘zini namoyon qilish(o‘quvchining o‘ziga xosligini, dunyoqarashini va hayotdagi o‘rnini ifoda etish qobiliyati) ekanligi aniqlandi:

I. O‘ziga ishonch

Komponent	Ko‘nikmalar
1.1. O‘ziga ishongan holda fikr bildirish	Savollarga javob berishdan cho‘chimaslik. Jamoa oldida so‘zlay olish. Erkin ijod qilish (yozma va og‘zaki)
1.2. Xatolardan qo‘rqmaslik	Xatolarni tan olish. Tuzatishni harakat sifatida qabul qilish. “Muvaffaqiyat” va “omad” tushunchalarini farqlay olish
1.3. Tashabbuskorlik	Yangi g‘oya taklif qilish. Faol ishtirok etishni o‘z zimmasiga olish. Biror ish, faoliyatni boshlashda tashabbuskor bo‘lish.

II. O‘zini baholash

Komponent	Ko‘nikmalar
2.1. O‘z ishini tahlil qilish	Asar yoki topshiriq natijasini baholash. “Nima yaxshi chiqdi?”, “Nimani yaxshi chiqmadi?, “Nimaning ustida ishlash kerak?” savollariga javob berish
2.2. Kuchli va zaif tomonlarini anglash	O‘z ustunliklarini, kuchli va kuchsiz tomonlarini bilish. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablarini tushunish
2.3. Rivojlanish maqsadini belgilash	«Men nimaga erishmoqchiman?» savoliga javob. Shaxsiy maqsadlar tuzish va refleksiya orqali baholash

III. O‘zligini namoyon qilish

Komponent	Ko‘nikmalar
3.1. Shaxsiy pozitsiya bildirish	Turli mavzularga shaxsiy munosabat bildirish. “Menimcha…”, “Men bunday o‘ylayman…” kabi ifoda vositalaridan foydalanish
3.2. Ta’limiy faoliyatda shaxsiy tajribasini qo‘llash	Yozma yoki og‘zaki topshiriqlarda shaxsiy hayotdan misol keltirish. Mavzuni o‘z hayoti bilan bog‘lash
3.3. Ijodiy yondashuv	Shaxsiy uslubda yozish yoki gapirish. Tasavvurdan foydalanish. Har bir mavzuga kreativ yondashuv (masalan, she’r, esse, rolli o‘yinlar va h.k.)

Bunda ona tili o‘qituvchisiga 4ta metodik tavsiya beriladi. Bular, o‘quvchi fikrini jiddiy qabul qilish va baholamasdan tinglash; raqobat emas, hamkorlik muhitini shakllantirish; muvaffaqiyatli ishlarni ko‘rsatish va rag‘batlantirish; muloqot va ifoda imkoniyatlarini oshirish, ya’ni har bir o‘quvchiga so‘z berish, erkin fikrlash uchun sharoit yaratishi kerak bo‘ladi.

RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutida “1.1.1. Ishonch maktabi: o‘z-o‘zini baholash va o‘zini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantirish” mavzusidagi loyiha asosida olib borilgan(2025) tadqiqotlar natijasida Ona tili fani negizida 5-11 sinf o‘quvchilarida «O‘ziga ishonch» kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari Blum taksonomiyasi asosida o‘rganib chiqildi. Quyida ushbu kompetensiyaning sinflar kesimidagi rivojlanish traektoriyasi aniqlandi:

V-XI sinf o‘quvchilarida «O‘ziga ishonch» kompetensiyasining Ona tili darslarida namoyon bo‘lishi (Blum taksonomiyasi kontekstida).

V SINF

№	BT bosqichlari	Ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘ziga ishonchning namoyon bo‘lishi
1	**Bilish** (Knowledge)	O‘quvchi “o‘ziga ishonch”, “ishonchli nutq”, “mustaqil fikr” kabi tushunchalarni **bilib oladi va izohlaydi**.
2	**Tushunish** (Comprehension)	O‘quvchi ishonchli xatti-harakat va ikkilanuvchi xatti-harakat farqini **tushunib izohlaydi**, hayotdan misol keltiradi.
3	**Qo‘llash** (Application)	O‘quvchi matn asosida **o‘z fikrini erkin ifoda etadi**, gapirganda **ovoz, mimika va qomat** orqali ishonchni namoyon qiladi.
4	**Tahlil** (Analysis)	O‘quvchi **hikoya yoki dialogda** qahramonlarning ishonchli va ishonchsiz harakatlarini **tahlil qiladi**.

№	BT bosqichlari	Ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘ziga ishonchning namoyon bo‘lishi
5	**Sintez** (Synthesis)	O‘quvchi “Men ishonaman, chunki…” mavzusida **insho, og‘zaki fikr yoki she’r** yozadi.
6	**Baholash** (Evaluation)	O‘quvchi o‘z chiqishini (yoki o‘rtog‘ining chiqishini) **baholay oladi**, “Nimasi yaxshi chiqdi? Nimani yaxshilash kerak?” degan savollar ustida o‘ylaydi(**refleksiya)**.

VI SINF

№	Bosqich	Ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘ziga ishonchning namoyon bo‘lishi
1	**Bilish** (Knowledge)	O‘quvchi “o‘ziga ishonch”, “qat’iyat”, “fikr bildirish” kabi tushunchalarni **sharhlaydi, izohlaydi va misol keltiradi**.
2	**Tushunish** (Comprehension)	O‘quvchi ishonchli va ishonchsiz nutq o‘rtasidagi farqni **tushunib, izohlaydi**, hayotdan va matnlardan misol keltiradi.
3	**Qo‘llash** (Application)	O‘quvchi matn mazmuniga mos ravishda **shaxsiy fikr bildiradi**, **ishonchli chiqish qiladi**.
4	**Tahlil** (Analysis)	O‘quvchi **hikoya yoki dialog** asosida qahramonlarning ishonchli yoki ishonchsiz tutumlarini **tahlil qiladi** va sababini tushuntiradi.
5	**Sintez** (Synthesis)	“Men qo‘rqmadim, chunki…” yoki “Men ishondim, chunki…” mavzusida **insho yoki og‘zaki chiqish** tayyorlaydi.
6	**Baholash** (Evaluation)	O‘quvchi o‘z nutqi yoki chiqishini ichki tahlil (**refleksiya) qiladi**, “Nimasini yaxshi qildim?”, “Nimani yaxshilashim kerak?” deb **shaxsiy xulosa chiqaradi**.

VII SINF

№	Bosqich	Ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘ziga ishonchning namoyon bo‘lishi
1	**Bilish** (Knowledge)	O‘quvchi “o‘ziga ishonch”, “ishonchli nutq”, “qat’iyat”, “ommaviy chiqish” tushunchalarining ma’nosini **aytadi va izohlaydi**.
2	**Tushunish** (Comprehension)	O‘quvchi o‘zini ishonchli yoki ishonchsiz tutish o‘rtasidagi farqni **misollar orqali tushuntiradi**.
3	**Qo‘llash**	O‘quvchi darslikdagi matnlar, dialog yoki mavzular

№	Bosqich	Ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘ziga ishonchning namoyon bo‘lishi
	(Application)	yuzasidan **shaxsiy fikrini qat’iyat bilan ifoda etadi**.
4	**Tahlil** (Analysis)	O‘quvchi badiiy matndagi qahramonlarning xatti-harakatini **ishonch nuqtai nazaridan tahlil qiladi** (kim ishonchli, kim ikkilanuvchan?”ligini).
5	**Sintez** (Synthesis)	“Men ishonganim uchun muvaffaqiyatga erishdim” mavzusida **insho, bayon yoki og‘zaki chiqish** tayyorlaydi.
6	**Baholash** (Evaluation)	O‘quvchi o‘z nutqining **qaysi jihatlarida ishonchli chiqish qilganini baholaydi**.

VIII SINF

№	Bosqich	Ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘ziga ishonchning namoyon bo‘lishi
1	**Bilish** (Knowledge)	O‘quvchi “o‘ziga ishonch”, “ishonchli nutq”, “qat’iyat”, “o‘z pozitsiyasini himoya qilish” tushunchalarini **izohlaydi va misol keltiradi**.
2	**Tushunish** (Comprehension)	O‘quvchi ishonchli xatti-harakat bilan shubhali, ikkilanuvchi xatti-harakat o‘rtasidagi farqni **tushunib, hayotiy misollar bilan izohlaydi**.
3	**Qo‘llash** (Application)	O‘quvchi matn yoki mavzular yuzasidan **shaxsiy fikrini ishonch bilan bayon etadi**, og‘zaki va yozma shaklda qat’iyatli nutqini namoyon etadi.
4	**Tahlil** (Analysis)	O‘quvchi badiiy matn yoki voqealar tahlilida qahramonlarning **ishonchli va ishonchsiz xatti-harakatini tahlil qiladi**.
5	**Sintez** (Synthesis)	“Men o‘zimga ishondim, chunki…” mavzusida **esse, chiqish yoki ijodiy bayon** tayyorlaydi.
6	**Baholash** (Evaluation)	O‘quvchi o‘z chiqishi, ishi yoki nutqiga **shaxsan baho beradi**, kuchli va kamchilik tomonlarini **tahlil qiladi va yozma ifodalaydi**.

IX SINF

№	Bosqich	Ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘ziga ishonchning namoyon bo‘lishi
1	**Bilish** (Knowledge)	O‘quvchi “o‘ziga ishonch”, “shaxsiy pozitsiya”, “nuqtai nazarni himoya qilish” tushunchalarini **izohlaydi va misollar keltiradi**.
2. Task-Based Language Teaching (TBLT): TBLT focuses on tasks that reflect real-world activities, integrating skills naturally. Tasks like planning a trip involve reading travel guides, listening to suggestions, discussing plans, and writing itineraries.
3. Content and Language Integrated Learning (CLIL): Teaching subjects like history or science in the target language integrates language skills with content learning, promoting both subject knowledge and language proficiency.
4. Thematic Units: Organizing lessons around themes (e.g., environment, technology) allows for the integration of skills within a coherent context. Students might read articles, discuss issues, write reports, and present findings on a theme.
5. Role-Plays and Simulations: These activities require students to use multiple language skills to perform roles or simulate real-life scenarios, enhancing their ability to use language dynamically.

A typical procedure for getting students to read a written text or listen to a recording involves both Type 1 and Type 2 tasks. Type 1 tasks are those where we get students to read or listen for some general understanding, rather than asking them to pick out details or get involved in a refined search of the text. Type 2 tasks, on the other hand, are those where we get students to look at the text in considerably more detail, maybe for specific information or for language points. Moving from the general to the specific by starting with Type 1 tasks and going on to Type 2 tasks works because it allows students to get a feel for what they are seeing or hearing before they have to attack the text in detail, which is the more difficult thing to do. The procedure for teaching receptive skills generally starts with a lead in. This is where we engage students with the topic of the reading and we try to activate their schema (plural schemata), a term which was best described by Guy Cook as 'our preexistent knowledge of the world' This is the knowledge that allows many British, Australian, West Indian, Pakistani and Indian people (for example) to make sense of headlines like England in six-wicket collapse

(a reference to the game of cricket), whereas many Canadians would instantly understand what it means to be sent to the penalty box and why being sent there might give another team a power play (both terms come from ice hockey, Canada's national sport). All of us, at whatever age, but especially from late childhood onwards, have this pre-existent knowledge which we bring with us to all encounters with topics and events. The job of the receptive skills teacher, therefore, is to provoke students to get in touch with that knowledge or schema. They can then predict what a text is likely to be about, and what they are going to see or hear. We can provoke this kind of prediction by giving them various clues, such as pictures, headlines or book jacket descriptions. We can give them a few words or phrases from the text and ask them to predict what these might indicate about its content. We can encourage a general discussion of the topic or ask students to make their own questions for what they are going to read about. Whatever alternative we choose, the point is that prediction is vitally important if we want students to engage fully with the text. Once students are ready to read, we set some kind of a comprehension task so that they will read or listen in a general way-trying to extract a mostly general understanding of what, superficially, the audio or written text is all about. The students read or listen to the text and then the teacher directs feedback. Here we may suggest that students go through the answers in pairs or small groups. This is partly so that they get more opportunities to work together, and partly so that when we go through the answers with the class, individual students do not get exposed as having failed in a task. Sometimes the teacher directs a text-related task immediately this Type 1 task has been completed. A text-related task is any kind of follow-up activity and might be either a response to the content of the text or a focus on aspects of language in the text[8] However, we will usually get the students to look at the text again for a Type 2 task in which they are required to examine it in more detail. The comprehension cycle is repeated and then the teacher involves the students in text-related tasks (of course, it is possible that students might be involved in more than one Type 2 task cycle).

Teachers on the other hand, seem to be divided into two groups. Those that think about technique, and those that think about content. Let me try to represent this visually. The relationship between technique and content is like points on a graph. On the X axis, we have technique represented by this blue line, and on the Y axis, we have content, represented by the red line.

Now, let me ask you a question. University teachers, are they more interested in content or technique?

Well, in my teaching experience, I would say that many university teachers care a lot about content. Perhaps this is because many perceive themselves as researchers, writers of books and articles. I remember hearing one educational expert remark that professors think of their bodies as nothing more than transportation for their brains. As a teacher trainer myself, as I do training, I am often surprised at how few university teachers have received any training about technique at all. Isn't it weird that some of our brightest minds in the world have taken hundreds of courses, but never taken any courses, not one, on how to teach? They would fall into the high content, low technique area of the spectrum. At the other end of the spectrum, let's talk about teachers in primary and middle schools. Do they use techniques? In fact, before primary teachers are ever given a chance to teach students, they are often given many courses on how to teach, and make things both interesting and easily understood for students. They use colors, games, and stories. They use their hands and bodies. Bodies are not just transporting for their brains. They are taught techniques that break down information, and make it easy for a learner to understand. Techniques, such as group work, flash cards, color coded board work. However, the opposite problem can often happen here. While techniques are usually studied and utilized, sometimes primary and middle school teachers are not given the freedom to choose their own books and materials[7]And thus, they spend most of their time thinking about technique, and not about the content. Another problem in the balance of content and technique is the fun teacher. You know the one. His class is one game after another. You get to laugh a lot, he tells lots of funny stories about his three dogs, but how much have students learned? Do the games provide instruction, as well as, fun?[9]. Do the stories teach a key learning point? Or has much of the valuable class time been more social than educational? This is not meant as a criticism of teachers on either end of the spectrum. Certainly, there are university teachers that use fantastic technique and primary teachers who create amazing content. And a fun teacher can also be an excellent educator. The point is, and what I want you to consider, is who you are. And where you will find the happy balance between both content and technique. As you train yourself, as a language teaching professional, keep in mind the tremendous difference that both content, and technique is important in delivering lessons.

References:

1. Cook, G. (2008). *The discursive approach to language teaching*. Cambridge University Press.
2. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford University Press.
3. Hinkel, E. (2006). Current perspectives in teaching the four skills. *TESOL Quarterly*, 40(1), 113-136. https://doi.org/10.2307/40264522
4. Mardanova, M. (2021). *Semantic characteristics of English jargonisms*. *Journal of Foreign Languages and Linguistics*, 2(3).
5. Mardanova, M.D. va Davlatova, Sh.M. (2024, 25-aprel). *The problem of stylistic classification of vocabulary*. *Modern Science and Education: Achievements and Development Prospects*, (2), 10–13.
6. Nunan, D. (2004). *Task-based language teaching*. Cambridge University Press.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
8. Seidlhofer, B. (2004). Research perspectives franca. *Annual Review of Applied Linguistics*, 24, 400-421. https://doi.org/10.1017/S026719050400022X
9. Ur, P. (1996). *A course in language teaching*. Cambridge University Press.
10. Willis, J. (1996). *A framework for task-based learning*. Longman.

TEACHER’S PHYSICAL PRESENCE IN CLASS

Maqsudova Shaxnoza Muxsinjon qizi,
FerSu, EFL teacher
Abduraximova Gulsanam Murodjon qizi
FerSu, 1st course , group number 24.102
abduraximovagulsanam01@gmail.com
+998916604979

Abstract:

The physical presence of a teacher in the classroom has long been a subject of interest in educational research. This article examines the importance of a teacher’s physical presence and its impact on student learning and classroom dynamics. Drawing on research and theories, it explores how a teacher's direct interaction fosters engagement, enhances communication, and establishes a productive learning environment. Key aspects include emotional connection, classroom management, and the influence on student motivation. Findings show that teacher presence positively correlates with student academic performance.

Keywords: Teacher presence, classroom dynamics, student engagement, motivation, communication, academic performance, classroom management, physical presence, teacher-student interaction, emotional connection.

Annotatsiya

O‘qituvchining darsda jismoniy ishtiroki ta'lim sohasida uzoq vaqt davomida muhokama qilinib kelgan mavzu hisoblanadi. Ushbu maqolada o‘qituvchining jismoniy ishtirokining ta'lim va sinfdagi munosabatlarga ta'siri o‘rganiladi. Tadqiqot va nazariyalar asosida o‘qituvchining to‘g'ridan-to‘g'ri o‘zaro ta'siri ishtirokni rag'batlantirish, muloqotni kuchaytirish va samarali o‘quv muhiti yaratish kabi jihatlarni ko‘rib chiqadi. Asosiy jihatlar: hissiy bog'lanish, sinfni boshqarish va o‘quvchilarni motivatsiya qilish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining jismoniy ishtiroki o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi ishtiroki, sinf dinamikasi, o‘quvchilarning ishtiroki, motivatsiya, muloqot, akademik muvaffaqiyat, sinfni boshqarish, jismoniy ishtirok, o‘qituvchi-o‘quvchi o‘zaro ta'siri, hissiy bog'lanish.

Аннотация

Физическое присутствие учителя в классе уже давно является предметом интереса в образовательных исследованиях. В этой статье рассматривается важность физического присутствия учителя и его влияние на обучение учащихся и динамику класса. Опираясь на исследования и теории, она изучает, как прямое взаимодействие учителя способствует вовлеченности, улучшает коммуникацию и создает продуктивную среду обучения. Ключевые аспекты включают эмоциональную связь, управление классом и влияние на мотивацию учащихся. Результаты показывают, что присутствие учителя положительно коррелирует с успеваемостью учащихся.

Ключевые слова: Присутствие учителя, динамика класса, вовлеченность учащихся, мотивация, коммуникация, успеваемость, управление классом, физическое присутствие, взаимодействие учителя и учащихся, эмоциональная связь.

In the field of education, the teacher’s physical presence in the classroom has been a topic of much interest and debate. While much of modern education has embraced technological advancements, especially with the rise of online and hybrid learning environments, the importance of an educator’s physical presence cannot be overlooked. A teacher’s direct interaction with students in the classroom can significantly impact student learning, engagement, and motivation. This article aims to explore the role of a teacher’s physical presence and how it affects various

aspects of the classroom environment, including teacher-student interactions, classroom management, and student academic performance.The teacher’s physical presence is integral to the dynamics of the classroom. Research suggests that in-person teaching fosters a deeper emotional connection between the educator and the students, an element that is often lacking in virtual learning environments (Brown, L.M., 2020). Emotional connections are essential for creating a positive and supportive classroom atmosphere, which can motivate students to engage more actively in the learning process. A teacher’s ability to respond to students’ needs, provide feedback, and adapt their teaching approach based on student reactions is enhanced when they are physically present.Moreover, the teacher’s presence is crucial for maintaining discipline and managing classroom behavior. A teacher’s physical proximity to students often creates a sense of accountability, as students are more likely to follow instructions and remain focused when they know the teacher is nearby. This level of control is harder to achieve in remote learning settings, where physical cues and personal supervision are limited.Classroom management, which is pivotal in ensuring that students are engaged and focused on the learning material, is also positively influenced by a teacher’s physical presence. Teachers who are physically present in the classroom can more effectively gauge student understanding, address misconceptions in real time, and adapt their teaching strategies accordingly (Brown, L.M., 2020, p. 45). This immediate feedback loop enhances the learning experience for students, helping them to stay on track and achieve academic success. The role of the teacher’s presence in enhancing student motivation also deserves attention. Motivation plays a critical role in academic performance, and research suggests that students are more motivated when they feel connected to their teacher and the learning material (Smith, R., 2021). The physical presence of the teacher contributes to creating a sense of belonging and community within the classroom, which in turn fosters intrinsic motivation. This sense of connection is harder to replicate in virtual classrooms where students may feel disconnected or isolated. In this article, we will delve deeper into these themes by exploring the existing literature on the subject and analyzing empirical studies that investigate the impact of teacher presence on student outcomes. We will also examine the differences between in-person and online teaching experiences and highlight the challenges and opportunities presented by each mode of learning. By doing so, we aim to provide a comprehensive understanding of the significance of the teacher’s physical presence in the classroom and its influence on various aspects of the educational experience.

One of the most significant impacts of a teacher's physical presence is the quality of interaction between the teacher and students. Studies have consistently shown that direct, face-to-face communication between teachers and students fosters a more engaged and dynamic learning environment. In a traditional classroom setting, teachers can observe students’ body language, facial expressions, and reactions to instructional content. This immediate feedback allows teachers to adjust their teaching strategies in real time, ensuring that students are fully engaged with the material. According to Brown (2020), this kind of interaction is vital for promoting student participation, as students are more likely to ask questions and engage in discussions when they feel they are in the physical presence of their teacher. Moreover, teacher-student interactions in the classroom go beyond academic content; they also encompass emotional and social support. Teachers who are physically present can provide encouragement, offer personalized feedback, and build positive relationships with their students. These interactions foster a supportive environment where students feel valued, safe, and motivated to participate actively in the learning process (Brown, L.M., 2020, p. 46). This emotional connection is often lacking in online learning environments, where face-to-face interactions are limited, and students may feel disconnected from their instructors. Effective classroom management is crucial for maintaining a productive and focused learning environment. The teacher’s physical presence plays a central role in managing student behavior and ensuring that lessons run smoothly. Teachers can quickly identify and address any behavioral issues that arise, such as students becoming distracted or disruptive, by using non-verbal cues or directly engaging with the students. This presence creates a sense of accountability among students, who are more likely to stay focused and behave appropriately when they know the teacher is physically present (Johnson, P., 2021)

In addition, a teacher’s proximity allows them to create a more structured and organized learning environment. Teachers can circulate around the classroom, providing individualized support to students who may be struggling, while simultaneously monitoring group activities and discussions. This level of supervision is not easily replicated in online learning environments, where teachers often struggle to maintain control over student participation and behavior. As a result, the teacher’s physical presence is essential for fostering a well-managed classroom where students can focus on learning without distractions. Teacher presence also has a profound impact on student motivation and academic performance. Research has shown that students are more motivated to perform well academically when they have strong, supportive relationships with their teachers. These relationships are often formed through in-person interactions that

allow teachers to understand students' individual needs, interests, and challenges. When students feel that their teacher is invested in their success, they are more likely to be motivated to engage with the material and achieve academic success (Smith, R., 2021). Furthermore, a teacher’s physical presence allows for immediate feedback, which is crucial for student growth and improvement. Teachers can provide real-time clarification, answer questions, and offer encouragement during lessons, all of which contribute to a more personalized learning experience. This immediate support is less readily available in online learning environments, where feedback may be delayed or impersonal.

A teacher’s physical presence is also instrumental in establishing a positive and inclusive classroom culture. In-person teaching allows teachers to set the tone for the classroom by modeling desired behaviors and creating an atmosphere of respect and cooperation. Teachers can engage in non-verbal communication, such as eye contact and body language, to convey warmth and approachability, which helps create an environment where students feel comfortable expressing themselves and participating in discussions (Brown, L.M., 2020). This sense of belonging is particularly important for students who may feel marginalized or disconnected. Teachers who are physically present can offer emotional support and guidance, fostering a sense of community and inclusion within the classroom. This positive atmosphere can significantly impact student well-being and, ultimately, their academic success. In conclusion, the physical presence of a teacher in the classroom is crucial for fostering meaningful teacher-student interactions, maintaining effective classroom management, enhancing student motivation, and promoting academic performance. The emotional and social support that teachers provide through their physical presence is essential for creating a positive and inclusive learning environment. While technology has made it possible to conduct remote and hybrid classes, it is clear that the teacher’s physical presence offers unique benefits that cannot be fully replicated in online learning settings. The teacher’s ability to connect with students on an emotional level, provide immediate feedback, and manage classroom dynamics is critical for ensuring that students are engaged and motivated to learn. As education continues to evolve, it is important to recognize the irreplaceable value of teacher presence in the classroom. Future research should continue to explore the various dimensions of teacher presence and its impact on student outcomes, both in traditional and online learning environments.

Ultimately, teachers are not just facilitators of content; they are role models, mentors, and emotional supporters who contribute significantly to the holistic development of students. In this regard, the teacher’s physical presence

remains an invaluable aspect of the educational experience, one that will continue to shape the future of teaching and learning.

References

1. An, P., Bakker, S., Ordanovski, S., Taconis, R., & Eggen, B. (2018, March). ClassBeacons: Designing distributed visualization of teachers' physical proximity in the classroom. In *Proceedings of the twelfth international conference on tangible, embedded, and embodied interaction* (pp. 357-367)..
2. Johnson, P. (2021). *Classroom management strategies: Teacher presence and behavior regulation*. Educational Leadership, 58(6), 77-89.
3. Smith, R. (2021). *Motivation in the classroom: The power of teacher presence*. Journal of Motivation and Learning, 32(4), 101-118.
4. Rodgers, C. R., & Raider-Roth, M. B. (2006). Presence in teaching. *Teachers and Teaching: theory and practice*, *12*(3), 265-287.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

Nursulton Shayxislamov,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti dekan o‘rinbosari,
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va amaliy ahamiyati yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarda chuqur tafakkur, tahliliy fikrlash, ijodkorlik, hamda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita ekanligi asoslab berilgan. Maqolada shuningdek, adabiy matnlarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida dars jarayonini tashkil qilish usullari haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, adabiyotshunoslik, ta’lim, adabiy tafakkur, metodika, integratsiya, kommunikativ kompetensiya

Abstract

This article covers the theoretical foundations of a competency approach in literary studies, its role and practical significance in the modern educational system. Competency approach is based on the fact that it is an important tool in the formation of deep thinking, analytical thinking, creativity, as well as communicative skills in students. The article also reflects on the methods of

organizing the course process on the basis of a competency approach in teaching literary texts.

Keywords: competency approach, literary studies, education, literary thinking, methodology, integration, communicative competence

Аннотация

В данной статье освещаются теоретические основы компетентностного подхода в литературоведении, его место и практическое значение в современной системе образования. Было обосновано, что компетентностный подход является важным инструментом в формировании у учащихся глубокого мышления, аналитического мышления, творчества, а также коммуникативных навыков. В статье также рассматриваются методы организации учебного процесса на основе компетентностного подхода к обучению литературным текстам.

Ключевые слова: компетентностный подход, литературоведение, образование, литературное мышление, методология, интеграция, коммуникативная компетентность

Zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, adabiyotshunoslik fanida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari chuqurlashadi, ularning estetik didi, badiiy tafakkuri va ijodiy salohiyati rivojlanadi. Adabiyot fani nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy, estetik va ijtimoiy ahamiyatga ega vosita sifatida talaba va o‘quvchilar shaxsini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

1. Kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi va uning mohiyati

Kompetensiyaviy yondashuv – bu o‘quv jarayonida faqatgina an’anaviy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarda real hayotiy vaziyatlarda kerakli bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik konsepsiyadir. Bu yondashuvda asosiy e’tibor o‘quvchining mustaqil fikrlash qobiliyati, analitik va tanqidiy yondashuvi, kommunikativ imkoniyatlari, jamoada ishlash madaniyati, axborot bilan ishlash layoqati va ijodkorligini rivojlantirishga qaratiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvda bilimlar vosita sifatida qaraladi – ya’ni, ular mustaqil fikr yuritish, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish, hayotiy masalalarda to‘g‘ri yo‘l tanlash uchun zarur vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy talabi – o‘quvchini hayotga tayyorlash vazifasiga to‘liq javob beradi.

Bu yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri – integrativlikdir, ya’ni turli fanlarda olingan bilim va ko‘nikmalarni birlashtirib, murakkab hayotiy

muammolarga echim topish imkoniyati. Masalan, adabiyot darsida faqatgina matnni tahlil qilish emas, balki ushbu matndagi g‘oyalarni hozirgi jamiyatdagi muammolar bilan solishtirish, ularni baholash, shaxsiy munosabat bildirish orqali o‘quvchida ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvda o‘quvchi shaxs sifatida markazga olinadi. O‘qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonining tashkilotchisi va fasilitatori (yo‘l ko‘rsatuvchisi) sifatida faoliyat yuritadi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘z-o‘zini anglaydi, o‘zining kuchli va zaif tomonlarini baholaydi, maqsadlar qo‘yadi va ularga erishish strategiyalarini ishlab chiqadi. Natijada, o‘quvchi nafaqat akademik bilimlar bilan qurollanadi, balki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan kompetent shaxsga aylanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

Bilim (knowledge) – nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish;

Ko‘nikma (skills) – amaliy faoliyatda bilimlarni qo‘llay olish;

Motivatsiya va qadriyatlar (attitudes, values) – shaxsiy sifatlar, ijtimoiy mas’uliyat, kasbiy qiziqishlar;

Madaniy va ijtimoiy kontekstda faoliyat yurita olish – kommunikativ, axborotli va madaniy kompetensiyalar.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaviy yondashuv – bu shunchaki yangi pedagogik atama emas, balki ta’lim mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqishga undovchi zamonaviy metodologik yondashuvdir. U orqali o‘quvchi passiv bilim oluvchidan faol, ongli, mas’uliyatli va ijtimoiy jihatdan faollikka ega bo‘lgan shaxsga aylanadi.

2. Adabiyotshunoslikda kompetensiyaviy yondashuvning o‘rni

Adabiyotshunoslik – bu nafaqat adabiy asarlarni tahlil qilish, balki ularni estetik, ijtimoiy, madaniy, tarixiy kontekstda anglashga yo‘naltirilgan kompleks fan sohasidir. Kompetensiyaviy yondashuv esa ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqadi, chunki u o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki real hayotda adabiy tafakkurdan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiy asarlar bilan ishlashda kompetensiyaviy yondashuv tatbiq etilganda, o‘quvchi quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

Matnni chuqur anglash – asarning syujeti, kompozitsiyasi, g‘oyasi, muallifning pozitsiyasi, til va uslub xususiyatlarini aniqlash orqali o‘quvchi matnni yuzaki emas, balki tahliliy o‘rganadi;

Obrazlar tahlili – personajlarning psixologik holati, motivlari, ijtimoiy pozitsiyasi va ular orqali ifodalangan umuminsoniy g‘oyalarning tahlili orqali o‘quvchi inson tabiatini chuqurroq tushuna boshlaydi;

Muallif niyatini aniqlash va baholash – o‘quvchi asar ortidagi g‘oyaviy, ma’naviy, falsafiy qatlamlarni ochishga harakat qiladi;

Hayotiy kontekst bilan bog‘lash – o‘quvchi asardagi voqealarni zamonaviy ijtimoiy holatlar bilan qiyoslaydi, bu esa unda tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuv ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘rganish jarayonida faqat voqealar zanjirini yod olish emas, balki obrazlar orqali milliy ong, ijtimoiy adolat, o‘zlikni anglash, ayol taqdiri kabi dolzarb masalalarni tahlil qilish orqali o‘quvchi adabiy tafakkurni hayotiy tafakkur bilan bog‘laydi. Shu orqali adabiyot o‘quvchiga ijtimoiy hodisalarni baholash, shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish, ma’naviy qadriyatlarni chuqur anglash imkonini beradi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan adabiyot darslarida interfaol metodlardan – muammoli savollar, munozaralar, “fikrlar kollajlari”, rolli o‘yinlar, keyslar, matn asosida stsenariy yaratish kabi usullardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini faollashtiradi. Bu o‘quvchini oddiy bilim oluvchidan faol ijodiy subyektga aylantiradi.

Kompetensiyaviy yondashuvning adabiyotshunoslikdagi o‘rni shundaki, bu yondashuv o‘quvchini badiiy matnga estetik qiziqish bilan yondashishga, o‘zining his-tuyg‘ulari va dunyoqarashi asosida asarni anglashga, shuningdek, madaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi o‘quv jarayonida madaniyat, til, tarix, falsafa, psixologiya, etika kabi fanlar bilan bog‘liq integratsiyalashgan bilimlarni egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunoslikda kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga, uni zamonaviy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar adabiyotdan faqat bilim emas, balki hayotiy saboqlar, axloqiy mezonlar, estetik zavq olish madaniyatini ham o‘zlashtiradi.

3. Dars jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash usullari

Pedagog kompetensiyalariga tayanib, darslar interaktiv metodlar, muammoli savollar, klaster, insert, akvarium, rolda o‘ynash kabi uslublar asosida tashkil etilishi mumkin. Bu o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularni fikrini mustaqil ifodalashga o‘rgatadi.

4. Adabiy kompetensiyaning shakllanishi

O‘quvchilarda adabiy tafakkur, estetik qabul qilish qobiliyati, obrazli fikrlash va tanqidiy mulohaza yuritish malakalari adabiy kompetensiyaning muhim komponentlaridandir. Bu kompetensiyalar dars davomida badiiy matnlar asosida rivojlantiriladi.

Adabiyotshunoslikda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu yondashuv nafaqat adabiy bilimlarni egallashga, balki o‘quvchilarning ushbu bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiy kompetensiyaning shakllanishi, o‘z navbatida, o‘quvchining shaxs sifatida kamol topishiga, uning estetik didi, axloqiy qarashlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosidagi dunyoqarashining mustahkamlanishiga olib keladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar ta’limning interaktivligini ta’minlaydi, ya’ni o‘quvchilar bilim oluvchilar emas, balki faol ishtirokchilarga aylanadi; ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantiradi, bu esa ularning mustaqil qaror qabul qilish, muammoni tahlil qilish va echim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi; kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirib, jamoada ishlash, fikr almashish, bahslashish va o‘z fikrini asoslab berish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi; o‘quvchining madaniy saviyasi va ma’naviy barkamolligini oshiradi, ularni milliy merosga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Bundan tashqari, adabiyot darslarida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish orqali o‘quvchilarda asar mazmuni va g‘oyasini zamonaviy hayot bilan bog‘lash; adabiy obrazlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tushunish; asardagi axloqiy muammolarni tahlil qilish va ularga shaxsiy munosabat bildirish; o‘zining fikrini yozma va og‘zaki shaklda aniq, ravon ifodalash kompetensiyalari shakllanadi.

Shu bois, adabiyot ta’limi metodikasida kompetensiyaviy yondashuv asosiy strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi kerak. Bu yondashuv o‘quv jarayonini yanada maqsadli, natijaviy va shaxsga yo‘naltirilgan holatga olib chiqadi. Shuningdek, u ta’limning amaliy va tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytiradi, o‘quvchining ijtimoiy hayotga tayyor, ongli va faol ishtirokchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Fikrimizga xulosa qiladigan bo‘lsak, adabiyotshunoslikda kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi o‘quvchilarning adabiy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish salohiyatini oshiradi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini yanada samarali, interaktiv va natijaviy qiladi. O‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va madaniy saviyasi yuksaladi. Shu sababli, adabiyot ta’limida kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodik yo‘nalishlardan biri bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2006.

2. Qodirova M.X. Zamonaviy dars va ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: 2019.
3. Xasanboyeva G. Adabiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv. – “Yangi O‘zbekiston” ilmiy-amaliy jurnali, 2022.
4. Mavlonova R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
5. G‘ulomov A., Asqarova D. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. Duysabayeva, D., & Asliyeva, S. (2025). O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA ULARNING SAMARALI RIVOJI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, *3*(1), 243-248.
7. Duysabayeva, Dilbar. "International Journal of Social Science Research and Review." (2022).
8. Jarasbayev, N. A. O. (2024). ZABUR TILIDAGI SHE'RIY METAFORALARNING TABIATI. *Academic research in educational sciences*, *5*(Conference NUU 5), 293-296.
9. Jarasbaev N. A. O. QOZOQ TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISHDA TALABALAR KOGNITIV FAOLIYATNI FAOLLASHTIRISH TA'LIMNING MUHIM OMILIDIR //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 1174-1181.

SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI ANEKDOTLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Zaripova Ziyodajon Rustam qizi,
Sattarova Dildora Raxmonkulovna,
Turizm fakuteti nemis tili kafedrasi o‘qituvchilari
Chirchiq davlat pedogogika universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqola talabalar sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda anekdotlardan didaktik vosita sifatida foydalanish metodikasini o‘rganadi. Maqolada sotsiolingvistik kompetensiyaning mohiyati, anekdotlarning sotsiolingvistik ahamiyati, ta'lim texnologiyalari va didaktikaning sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni, shuningdek, anekdotlardan foydalanish metodikasini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Anekdotlarni didaktik vosita sifatida qo‘llash sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishda samarali va innovatsion yondashuvdir.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistika, sotsiolingvistik kompetensiya, anekdotlar, didaktika, ta’lim texnologiyalari, madaniyatlararo muloqot, metodika.

Abstract

This article explores the methodology of using anecdotes as a didactic tool in developing students’ sociolinguistic competence. The article analyzes the essence of sociolinguistic competence, the sociolinguistic significance of anecdotes, the role of educational technologies and didactics in developing sociolinguistic competence, as well as the prospects for developing the methodology of using anecdotes. The use of anecdotes as a didactic tool is an effective and innovative approach to the formation of sociolinguistic competence.

Keywords: sociolinguistics, sociolinguistic competence, anecdotes, didactics, educational technologies, intercultural communication, methodology.

Zamonaviy til o‘qitish metodologiyasida talabalar sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Sotsiolingvistik kompetensiya talabalarga tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy kontekstga mos ravishda ishlatish qobiliyatini beradi. Ushbu maqolada talabalar sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda anekdotlardan didaktik vosita sifatida foydalanish metodikasi ko‘rib chiqiladi.

1. Sotsiolingvistik kompetensiyaning mohiyati va ahamiyati

Sotsiolingvistik kompetensiya – bu tilni nafaqat to‘g‘ri, balki madaniyat, ijtimoiy norma va kontekstga mos ravishda ishlatish qobiliyatidir. Sotsiolingvistik kompetensiya quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

Tilning ijtimoiy funksiyalarini o‘rgatish: Talabalarga tilni turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday ishlatishni o‘rgatish. Masalan, rasmiy va norasmiy vaziyatlarda qanday ifodalar va til vositalari ishlatilishini tushuntirish demakdir. Bunga nutqiy etiket, salomlashish va xayrlashish formullari, murojaat shakllari va boshqalar kiradi.

Madaniy farqlarni tushunish: Turli madaniyat vakillari o‘rtasida muloqot qilishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan farqlarni tushunish va ularni hisobga olish. Bu, ayniqsa, global miqyosda muloqot qiladigan shaxslar uchun muhimdir. Masalan, ba'zi madaniyatlarda ko‘zga tik qarash hurmat belgisi bo‘lsa, boshqalarida hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin.

Pragmatik ko‘nikmalarni rivojlantirish: Nutqiy aktlar, suhbatlashuv qoidalari va boshqa pragmatik hodisalarni o‘rgatish.

Ijtimoiy o‘zgaruvchanlikka moslashish: Tilning turli xil ijtimoiy guruhlar va vaziyatlarda qanday o‘zgarishini tushunish va moslasha olish.

Sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish talabalarga samarali muloqot qilish, madaniyatlararo tushunishga erishish va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli bo‘lish imkonini beradi.

2. Anekdotlarning sotsiolingvistik ahamiyati

Anekdotlar sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun qimmatli didaktik materialdir. Anekdotlar orqali talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladilar:

Tilning ijtimoiy va madaniy konteksti bilan tanishish: Anekdotlar ko‘pincha ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan ijtimoiy normalar, qadriyatlar va urf-odatlar haqida ma’lumot beradi. Masalan, nemis anekdotlarida Till Eulenspiegel obrazi orqali nemis xalqining hazilga bo‘lgan munosabati, ijtimoiy tanqidga moyilligi va chaqqonligi aks etadi. Bu talabalarga nemis madaniyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Turli ijtimoiy rollarni va munosabatlarni tushunish: Anekdotlardagi personajlar orqali turli ijtimoiy rollar (masalan, rahbar, xodim, do‘st) va ular o‘rtasidagi munosabatlar namoyon bo‘ladi. Talabalar bu rollarni tahlil qilish orqali turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zlarini qanday tutishni o‘rganadilar. Masalan, bir anekdotda boshliq va xodim o‘rtasidagi munosabatlar kulgili tarzda tasvirlangan bo‘lsa, talabalar bu munosabatlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rib chiqishlari mumkin.

Til variativligini o‘rganish: Anekdotlarda tilning turli xil uslublari, lahjalari va roliklari ishlatilishi mumkin. Bu talabalarga tilning o‘zgaruvchanligini tushunishga va turli vaziyatlarda mos tilni tanlashga yordam beradi. Masalan, bir anekdotda adabiy til bilan birga sheva yoki jargon ishlatilgan bo‘lsa, talabalar bu tillar o‘rtasidagi farqni va ularning ishlatilish o‘rnini o‘rganadilar.

Yumorning sotsiolingvistik jihatlarini tahlil qilish: Anekdotlardagi yumorni tushunish uchun tilning ijtimoiy va madaniy kontekstini bilish talab etiladi. Yumor madaniyatga bog'liq bo‘lishi mumkin va bir madaniyatda kulgili bo‘lgan narsa boshqasida kulgili bo‘lmasligi mumkin. Talabalar anekdotlardagi yumorni tahlil qilish orqali turli madaniyatlarning yumorga bo‘lgan munosabatini o‘rganadilar.

3. Ta’lim texnologiyalari va didaktikaning o‘rni

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va didaktika sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish jarayonini yanada samaraliroq qilishi mumkin.

Ta’lim texnologiyalari: Onlayn ta’lim platformalari, interaktiv ta’lim metodlari, hamkorlikda o‘rganish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularning o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va muammolarni birgalikda echish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Didaktika: Didaktika o‘qituvchilarga sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun amaliy strategiyalar va texnikalarni taqdim etadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni turli ijtimoiy vaziyatlarda tilni qanday ishlatishni o‘rgatishlari kerak.

4. Anekdotlardan foydalanish metodikasini rivojlantirish istiqbollari

Anekdotlardan foydalanish metodikasini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Anekdotlarni tanlash: Talabalarning yoshiga, qiziqishlariga va til darajasiga mos keladigan anekdotlarni tanlash.

Anekdotlarni taqdim etish: Anekdotlarni qiziqarli va interaktiv tarzda taqdim etish (masalan, rolli o‘yinlar, hikoyalar, multimedia vositalari yordamida).

Anekdotlarni tahlil qilish: Talabalarni anekdotlardagi ijtimoiy va madaniy ma’nolarni, til variativligini va yumorning sotsiolingvistik jihatlarini tahlil qilishga undash.

Anekdotlardan foydalanish: Talabalarni o‘zlarining anekdotlarini yaratishga va ularni turli ijtimoiy vaziyatlarda qo‘llashga undash.

Statistik tahlil: Anekdotlar yordamida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishning ilg‘or metodikalarini aniqlash uchun statistik tahlil usullaridan foydalanish.

Anekdotlarni didaktik vosita sifatida qo‘llash sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishda samarali va innovatsion yondashuvdir. Anekdotlar o‘quvchilarga nafaqat tilni o‘rganishda, balki turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda tilni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatadi. Ushbu metodikaning samaradorligi o‘quvchilarning tilni faqat grammatik jihatdan emas, balki pragmatik va ijtimoiy jihatdan ham to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kelgusida ushbu mavzu bo‘yicha yana tadqiqotlar o‘tkazish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizov, A. A. (2006). Lingvodidakticheskie osnovy formirovaniya sociokul'turnoy kompetencii na urokax russkogo yazika v nacional'noy shkole. Toshkent: Fan.
2. Bauman, R. (2004). A world of others' words: Crosscultural perspectives on intertextuality. Blackwell Publishing.
3. Brown, H. D. (2007). Principles of language learning and teaching (5th ed.). Pearson Education. (Til o‘rganish va o‘qitish prinsiplari)
4. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied linguistics, 1(1), 1-47.

5. Davies, C. (1990). Ethnic humor around the world. Indiana University Press. (Dunyo bo‘ylab etnik yumor)
6. Hall, E. T. (1976). Beyond culture. Anchor Books.
7. Holmes, J. (2013). An introduction to sociolinguistics (4th ed.). Routledge.

TIL VA ADABIYOT O‘QITISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR

Abdisharipova Mahliyo,
UrDPI, Xorijiy filologiya kafedrasi o‘qituvchisi
+998955452127 abdisharipovamahliyo@gmail.com
Sultanova Dilnura,
UrDPI, Xorijiy filologiya va adabiyoti (ingliz tili)
yo‘nalishi talabasi
+998971373111 @dilnurasultanova039@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola, til va adabiyot o‘qitishda mavjud bo‘lgan muammolarni tahlil qiladi va ularni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda til va adabiyot fanlarini o‘qitishda talabalar va o‘qituvchilar duch kelayotgan asosiy muammolar, o‘quv dasturlarining eskirganligi, metodik xatoliklar, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va talabalarning til va adabiyotga nisbatan qiziqishining pastligi kabi masalalar ko‘rib chiqiladi. Maqola, bu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator yangi metodlar va yondashuvlar taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: til o‘qitish, adabiyot ta’limi, pedagogik muammolar, echimlar, zamonaviy metodika, o‘qituvchi malakasi, talaba motivatsiyasi, interaktiv ta’lim, texnologiya va ta’lim, o‘quv dasturi

Аннотация

Данная статья анализирует проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели при обучении языку и литературе, а также предлагает пути их решения. Рассматриваются основные проблемы, такие как устаревшие учебные программы, методические ошибки, недостаточная профессиональная подготовленность учителей и низкий интерес студентов к языку и литературе. Статья предлагает новые методы и подходы для решения этих проблем.

Ключевые слова: преподавание языка, обучение литературе, педагогические проблемы, решения, современные методики, квалификация преподавателей, мотивация студентов, интерактивное обучение, технологии в образовании, учебные программы, language teaching

Annotation

This article analyzes the problems faced in teaching language and literature and proposes solutions to these issues. The main problems discussed include outdated curricula, methodological errors, insufficient professional training of teachers, and low interest of students in language and literature. The article offers new methods and approaches to address these problems.

Keywords: literature education, pedagogical challenges, solutions, modern methodology, teacher, qualification, student motivation, interactive learning, educational technology, curriculum development.

Til va adabiyot o‘qitish, nafaqat bilim olish jarayonining, balki jamiyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotining asosiy qismlaridan biridir. Bu soha ta'lim tizimida katta ahamiyatga ega bo‘lib, talabalar va o‘qituvchilarga yangi yondashuvlar va metodlarni taqdim etadi. Shuningdek, til va adabiyot o‘qitishning o‘ziga xos muammolari ham mavjud bo‘lib, ular ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

O‘quv dasturlari zamon talablariga mos kelmasligi, yangiliklar va texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim berishda qiyinchiliklarga olib keladi. O‘quv dasturlari ko‘pincha eski uslublarga asoslanadi va zamonaviy bilim va metodlarni o‘z ichiga olmaydi. Zamonaviy dunyo shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Innovatsiyalar, texnologik yutuqlar, yangi kasblarning paydo bo‘lishi — bularning barchasi ta’lim tizimidan ham zamonga moslashuvchanlikni talab qiladi. Afsuski, ko‘plab maktab va oliy o‘quv yurtlarida hali-hanuz eskirgan o‘quv dasturlari qo‘llanilmoqda. Bu esa yosh avlodning raqobatbardoshligini pasaytirish xavfini tug‘diradi.

Eskirgan o‘quv dasturi — bu zamonaviy talablarga javob bermaydigan, qadimiy yondashuvlarga asoslangan, yangiliklardan yiroq bo‘lgan ta’lim mazmuni hisoblanadi. Bu kabi dasturlar ko‘pincha quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

Texnologik yangiliklarni o‘z ichiga olmasligi;

Qadimiy metodikalar asosida tuzilgani;

Tanqidiy fikrlash, amaliyot va kreativlikka emas, yodlashga asoslanishi;

Mehnat bozoridagi ehtiyojlardan yiroqligi.

Eskirgan dasturlarning qo‘llanishi bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi:

Talabalarning bilimlari mehnat bozorida kerak bo‘lmaydi, ko‘plab bitiruvchilar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish topa olmaydi, chunki ular egallagan ko‘nikmalar zamon talablariga javob bermaydi.

Ijodkorlik va tanqidiy fikrlash rivojlanmaydi, yodlashga asoslangan ta’lim tizimi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatini cheklaydi. O‘quvchilarda ta’limga nisbatan qiziqish pasayadi, mazmunan va metod jihatdan qiziqarsiz bo‘lgan fanlar motivatsiyani kamaytiradi. Eskirgan o‘quv dasturlarini yangilash zamonaviy ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

Ta’lim dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash: Misol uchun, STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) yo‘nalishidagi integratsiyalashgan o‘qitish tizimi.

O‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy qilish:

Sun’iy intellekt, dasturlash asoslari, ma’lumotlar tahlili kabi mavzularni kiritish.

Amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qituv usullarini joriy etish: Case-study, loyiha asosida o‘qitish, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘qituvchilarning malakasini oshirish: Har qanday islohot muallimlar orqali amalga oshadi — ularning yangi metodikalarni egallashi muhim.

O‘qituvchilar o‘z kasbiy bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishlari kerak. Ammo ko‘plab o‘qituvchilarning malakasi etarli emas va ular yangi pedagogik yondashuvlarga tayyor emas. Shuningdek, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va metodik yordamni yaxshilash zarurati mavjud. Ta’lim sifati bevosita o‘qituvchi malakasi bilan bog‘liq. Har qanday ilg‘or o‘quv dasturi, zamonaviy darslik yoki texnologik vosita – bularning barchasi samarali bo‘lishi uchun malakali pedagog zarur. Afsuski, bugungi kunda ko‘plab ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorlanishidagi kamchiliklar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ko‘plab o‘qituvchilar nazariy bilimga ega bo‘lsa-da, uni amaliyotga tatbiq eta olmaydi. Dars jarayonida interaktiv metodlardan foydalana olmaslik, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirmaslik bunga misoldir. Ko‘pgina pedagoglar darsni rejalashtirish, baholash, differensial yondashuv yoki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda qiynaladi. Bu esa o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olmasdan, yagona yondashuv asosida dars o‘tilishiga olib keladi. Aksar hollarda o‘qituvchilar malaka oshirish kurslarida qatnashsa ham, bu jarayon formallikka aylanib qolgan. Kurslar zamonaviy ehtiyojlarga mos kelmaydi yoki interaktiv, amaliy jihatdan samarali tashkil etilmaydi. Raqamli asrda

yashayotgan bo‘lsak-da, ko‘plab o‘qituvchilar internet resurslaridan samarali foydalana olmaydi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, test tizimlari — bu vositalardan foydalanish madaniyati hali etarli darajada shakllanmagan.Ba’zi pedagoglar o‘z ish uslubini yangilashga, o‘zgarishlarga ochiq bo‘lishga qiziqmaydi. Bu holat o‘qituvchilikni faqat mehnat vazifasi sifatida qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Pedagogika oliygohlarida ta’lim sifatining pastligi;

Talabaga amaliyotga yo‘naltirilgan bilim berilmasligi;

Malaka oshirish tizimining eskirganligi;

O‘qituvchilarning moddiy rag‘batlantirilishining sustligi;

Kasbga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishi.

13. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548
14. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

MAKTABLARDA FONETIKA VA GRAFIKA O‘QITISH USULLARI

Yo‘ldasheva Sarvinoz Baxtiyor qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti fakultet talabasi

Annotatsiya

Ushbu ishda maktablarda fonetika va grafika bo‘yicha ta’lim berish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar yoritilgan. Fonetika – nutq tovushlarini o‘rganadigan tilshunoslik sohasi sifatida, talaffuz, urg‘u, intonatsiya kabi elementlarni to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi. Grafika esa yozuvdagi harflar va ularning tovushlar bilan bog‘liqligini o‘rgatadi.

Annotatsiyada bu ikki yo‘nalish bo‘yicha o‘quvchilarga bilim berish metodikalari, dars jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlar, audio-vizual vositalardan foydalanish, interfaol usullar orqali o‘quvchilarning fonetik va grafik bilimlarini mustahkamlash yo‘llari haqida so‘z boradi. Ishda shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos metodlar va o‘qitishning bosqichma-bosqichligi muhim o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: fonetika, grafika, o‘qitish usullari,maktab ta’limi, talaffuz,yozuv va tovush mosligi, boshlang‘ich ta’lim,interfaol metodlar, lingvistik kompetensiya,audio-vizual vositalar

Annotation

In this case, there are ways to increase the efficiency of the phonetics and graphics process in the schools. Phonetics - as a linguist, the linguistics of the speech, serves to correctly formulate elements such as pronunciation, emphasis, an integration. The graphics teaches that the letters in the scripture and their sounds. In the annotation, students will discuss ways to teach students in these two areas, the use of innovative approaches, the use of innovative approaches, and used in interactive methods, and strengthening the branterns and graphic knowledge of students through interactive methods. The work also plays an important role in the young characteristics of primary school students, and the gradual training.

Keywords: phonetics, graphics, teaching methods, school education, pronoun, recorder, primary education, interactive methods, linguist captures, audio-visual means

Til — inson tafakkuri, madaniyati va jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan fonetika va grafika boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning savodxonligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Fonetika nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, talaffuzi va kombinatsiyasi bilan shug‘ullansa, grafika bu tovushlarning yozuvdagi ifodasini, ya’ni harflar va ularning shakllanishini o‘rganadi. Shu sababli, fonetika va grafikani o‘rgatish orqali o‘quvchilar tilni to‘g‘ri talaffuz qilish, aniq yozish va fikrni ravon ifoda etish ko‘nikmalarini egallaydi.Ushbu ishda maktablarda fonetika va grafika o‘qitishning samarali usullari, bu boradagi metodik yondashuvlar, o‘qitish jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos yondashuvlar asosida fonetik va grafik kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati ochib beriladi.

Mamlakatimizda ta’limning eng asosiy zamini hisoblanuvchi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi va “Milliy o‘quv dasturi” deb nomlanishi biz yosh pedagoglarga katta umidlar baxsh etmoqda.

Shuningdek, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa respublikamiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar o‘zbek tilini jadal o‘rgatishni ta’minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Shu paytgacha Ona tili va O‘qish fanlari alohida o‘qitilar edi. Bu ikki fanni birlashtirgan yangi “Ona tili va o‘qish savodxonligi” deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qolingan holatda tashkil etiladi. Boshlang‘ich ta’limning ona tili fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Ushbu o‘quv dasturida 1-4-sinf o‘quvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, ularni og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat. Boshlang’ich ta’limda-o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, ularni og’zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o‘quv dasturi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1.Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish.

2.Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish. ”Fonetika” bo‘limining izchil kursi ”Fonetika va grafika ”, ”Nutq tovushi va harf”, ”Unli tovushlar”, ”Undosh tovushlar”, ”Nutq a’zolari”, ”Lab tovushlari”, ”Til tovushlari”, ”Burun tovushlari”, ”Bo‘g’iz tovushi”,”Nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasi” singari mavzularni o‘z ichiga qamrab oladi. ”Nutq tovushi va harf” mavzusini o‘tishda o‘qituvchi ayrim so‘zlarni o‘quvchilar diqqatiga havola etib, bu so‘zdagi tovushlarning talaffuzini qiyoslash, unlilar va undoshlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning talaffuzida ishtirok etadigan nutq a’zolarini belgilashni topishlari mumkin.

O‘qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirish, ularni sintezlab o‘qishga o‘rgatishi zarur. Savod o‘rgatish analitiksintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So‘z bo‘g'inga bo‘linadi, bo‘g'indan kerakli — o‘rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o‘rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o‘qish jarayoni o‘zlashtiriladi. Savodga o`rgatish davrida o‘quvchilarga avval unli tovushnio‘rgatishdan boshlanadi. Dastlab unli yozilishi talaffuziga mos keladigan so‘zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o‘rgatishda so‘z tarkibidagi harflarning to‘g’ri, aniq yozilishi va qo‘shilishiga daftarlarni ozoda tutishga bolalar e’tibori tortiladi. O‘qituvchining savod o‘rgatish davrdagi darslarni to‘g’ri tashkil etishi, o‘quvchilarning fonetik va grafik bilimlarni kelgusida puxta egallashlariga zamin yaratadi. O‘qituvchining

bu sohadagi yutuqlarilari uning dars o‘tish usullari, mahorati, darsda qo‘llaydigan didaktik materiallarga ko‘p jihatdan bog’liqdir. Intefaol dars jarayonini tashkillashtirish, o‘quvchilarning dars davomida faollashuviga, ularni darsni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini o‘sishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi, so‘ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni puxta egallashlariga zamin yaratadi. Inrefaol usullar xilma-hil bo‘lib, qaysi metodni tanlash o‘qituvchining o‘tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog’liq. Buning uchun o‘qituvchi doimo yangiliklar izlanishi, har darsda yangi-yangi usullarni qo‘llashi, o‘z bilimini doimiy ravishda oshirib borishi lozim. Savodga o‘rgatish davrida o‘quvchilar bilan didaktik o‘yinlar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratish lozim. Xususan, “Ranglar so‘zlaganda”, “O‘zingni elpi”, “Olma terish”, “Kungaboqar”, “Ko‘zgu”, “Super lotto”, “Piramida”, “Aksini toping”, “Poyezd”, “O‘zbekiston mevalari”, “Ot va uning bolasi toychoq”, “Rolli o‘yin”, “Ekskursiya”, “Chechanlik” kabi didaktik o‘yinlar shular jumlasidandir. Darslikka jumboqli topshiriqlarning kiritilishi o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda, ularni topqirlikka va bilimdonlikka undashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, turmushda bola nutqida faol qo‘llanadigan yoki ularga yaxshi tanish bo‘lgan “ma”, “ma-na”, “nom”, “ni-ma” (16-bet) kabi ba’zi so‘zlarning darslikka kiritilishi ham, avvalo, alifbe davrining boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarda muayyan harf-tovushga oid bilimlarni mustahkamlashda, ularga tavsiya qilinayotgan o‘quv materiallarining etarli darajada bo‘lishiga, ya’ni ko‘proq so‘z o‘qish imkoniyatini hosil qillishga, qolaversa, ish-harakatni bildiruvchi so‘zlar (fe’l)ga oid boshlang‘ich amaliy bilimlarni vujudga keltirishga qaratilgan.. O‘qituvchi darslik materiallari bilan cheklanib qolmay, ushbu so‘zlar mazmunini to‘liq izohlashda turli mazmunli rasmlardan ijodiy foydalanishi maqsad muvofiqdir.

Didaktik o‘yinlar nazariy amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilardagi tahlil qilish mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rganish, yangi bilimlar olish faoliyatini rivojlantiradi. O‘qituvchi boshlang'ich sinflarda o‘qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so‘zni aniq va to 'g 'ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko‘pincha so‘zni tovush tom ondan tahlil qilishdan foydalanadi.23 Maktab dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o‘quvchilari fonetikgrafik ko‘nikm alar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo‘q jarangli va jufti yo‘q jarangsiz undoshlar;

so‘zni bo‘g'inlarga bo‘lish, urg'uli bo‘g'inni talaffuzga ko‘ra amaliy farqlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o‘zlashtiradilar, ammo ular maxsus o‘qigunlariga qadar so‘zni bo‘g'inlarga bo‘lishni, so‘zdagi tovushlami izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1 sinf o‘quvchilarida so‘zni to‘g'ri talaffuz qilish, bo‘g'inlarga bo‘lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko‘nikm asini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, o‘z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, so‘z tarkibida bir-biriga ta ’siri kabi ayrim elem entar bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi I sinfda fonetika va grafikani o‘rganishga katta o‘rin beriladi, chunki o‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar.Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi. Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan tanishtirish Tovush murakkab tushuncha bo‘lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta ’rif berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida to‘g'ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda etakchi usul so‘zdagi tovushlarning talaffuzi hamda so‘zning leksik ma’nosi so‘zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, aka, uka, opa, ona, ola, kul, gul, qora, qarakabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so‘zlar har xil lug'aviy ma’noni ifodalaydi. Ma’lumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga bo‘linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni o‘quvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi og'iz bo‘shlig'idan erkin ravishda o‘tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo og'iz bo‘shlig'ida to‘siqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba’zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) bo‘g'in hosil qilish xususiyati (unli tovushlar bo‘g'in hosil qiladi, undosh tovushlar bo‘g'in hosil qilmaydi). O‘quvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yo‘l qo‘ymaslik, aksincha, 1sinfdanoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq a’zolarining vaziyatini kuzatish ko‘nikmasini o‘stirib borish lozim. Bunday kuzatishlar 4-sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlar o‘zlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlari puxta o‘zlashtirishga imkon berishi bilan birga, o‘quvchilaming aqliy qobiliyatini o‘stirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga o‘rganadilar.

Fonetika va grafikani maktabda o‘qitish – o‘quvchilarning tilga oid asosiy bilimlarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu ikki yo‘nalish o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, fonetika orqali nutq tovushlari va ularning talaffuzi, grafika orqali esa bu tovushlarning yozuvdagi ifodasi o‘rgatiladi. Dars jarayonida fonetika va grafikani samarali o‘qitish uchun interfaol metodlar, vizual va audio vositalardan foydalanish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, fonetika va grafika bo‘yicha chuqur va izchil ta’lim berish natijasida o‘quvchilarda to‘g‘ri talaffuz, savodli yozuv, nutq madaniyati va fikrni aniq ifoda etish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa nafaqat o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantiradi, balki ularning umumiy tafakkur va muloqot madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bu sohadagi o‘qitish usullarini takomillashtirib borish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.Toshkent shahri,2019 yil 21 oktabr O‘zA.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.

3. https://fayllar.org/ona-tili-fanidan-oquv-dasturi-1-2-4-sinf-uqtirish-xati.html

4. A. G’ulomov,M.Qodirov,M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova,

V.Karimova. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent -2012.144-bet.

5. Alifbe Metodik qo‘llanmaRohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova, Mirhabib G‘ulomov.

8. Thistlethwaite, J. E., & Davies, D. (2007). Innovations in Medical Education: New Teaching Methodologies and Technologies. Medical Education Review, 10(2), 95–101.

9. Knowles, M. S. (1980). The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy. Cambridge: Adult Education Publishers.

10. Slavin, R. E. (1995). Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. Needham Heights, MA: Allyn & Bacon.

11. Maguire, L. (2012). Simulation in Health Care Education: The Value of High-Fidelity Simulations. Journal of Nursing Education, 51(5), 258-263.

12. Hung, W. (2011). Problem-Based Learning: A Review of Literature on Its Outcomes and Implementation Issues. Journal of Education in Psychology, 6(2), 47-53.

13. Balch, C. M., & Cohen, M. H. (2011). Interactive Learning and Its Applications in Clinical Education. Clinical Education Review, 13(2), 75-81.

14. Khamitov, N., & Saidov, A. (2019). O‘qitishda Interaktiv Metodlarni Joriy Etish: Tajribalar va Yechimlar. Toshkent: Fan va Texnologiya.

15. Nulty, D. D. (2003). The Effectiveness of Problem-Based Learning in Medical Education: A Review of the Literature. Medical Education, 37(2), 12–18.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA IQTIDORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA UNING SOHA RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Sadoqat Shamsiddinova G‘opporjon qizi,
Qo‘qon universiteti
Ta’lim muassasalari boshqaruvi magistranti
+9989313156085 @shamsiddinovasadoqat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashning zamonaviy usullari, pedagogik yondashuvlar va iqtidorni aniqlash, rivojlantirishning samarali metodlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba va milliy amaliyot asosida iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtidor, rahbar, rahbarlik, olimpiada, tajriba, iste’dod, rag‘batlantirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методы работы с одаренными учениками в общеобразовательных школах, педагогические подходы и эффективные методы выявления и развития талантов. Также даются рекомендации, направленные на поддержку одарённых детей, основанные на зарубежном опыте и отечественной практике.

Ключевые слова: талант, лидер, лидерство, олимпиада, опыт, талант, мотивация.

Abstract: This article examines modern methods of working with gifted students in secondary schools, pedagogical approaches and effective methods of identifying and developing talent. Recommendations aimed at supporting gifted children are also given based on foreign experience and national practice.

Key words: talent, leader, leadership, Olympiad, experience, talent, motivation.

Bugungi globallashuv jarayonida har bir jamiyatning taraqqiyoti ko‘p jihatdan iqtidorli avlodni tarbiyalashga bog‘liq. Shu sababli, ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — iqtidorli o‘quvchilarni erta aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash va intellektual salohiyatini to‘liq ochishga ko‘maklashishdan iborat [8:90]. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyat manfaati yo‘lida samarali foydalanish belgilangan. Umumta’lim maktablari iqtidorli bolalarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Iqtidorli bolalar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga, ilm-fan, texnika va madaniyat sohalarida yangi kashfiyotlar yaratishga qodir bo‘lgan shaxslardir. Ularning qobiliyatlarini o‘z vaqtida aniqlash va rivojlantirish nafaqat iqtidorli bolalarning shaxsiy kamoloti, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarida iqtidorli bolalar bilan ishlashning ahamiyati juda katta va ko'p qirrali bo'lib, shaxs, jamiyat va davlat uchun quyidagi muhim afzalliklarni taqdim etadi: Jumladan, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi: Iqtidorli bolalar turli xil ijodiy loyihalarda ishtirok etish orqali o‘zlarining kreativlik va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Qiyinchiliklarni engishga tayyorlaydi: Iqtidorli bolalar qiyin vazifalarni bajarish orqali sabr-toqat, qat’iyatlilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini o‘rganadilar.

potentsialni ro‘yobga chiqaradi: Iqtidorli bolalar o‘zlarining noyob qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘z sohalarida yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, motivatsiyani oshiradi: Maxsus dasturlar va topshiriqlar ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlaydi va bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi, o‘ziga ishonchni shakllantirish: Muvaffaqiyatga erishish va qobiliyatlarini namoyish etish orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi: Iqtidorli bolalar turli xil ijodiy loyihalarda ishtirok etish orqali o‘zlarining kreativlik va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Qiyinchiliklarni engishga tayyorlaydi: Iqtidorli bolalar qiyin vazifalarni bajarish orqali sabr-toqat, qat’iyatlilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini o‘rganadilar.

O‘quvchilarning iqtidorini to‘laqonli ochish uchun zamonaviy metodlardan foydalanish, ularga mustaqil ta’lim olish imkonini yaratish zarur. Bu borada o‘qituvchilar va ota-onalar hamkorligi muhimdir. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda individual yondashuvlar va STEAM metodikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvlar ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish imkonini beradi.

Iqtidorli bolalarni aniqlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Kuzatuv: O‘qituvchilar o‘quvchilarning darslardagi faolligi, qiziqishlari, savollari va javoblariga e’tibor qaratishlari lozim.
- Testlar: Standartlashtirilgan testlar (intellekt testi, ijodkorlik testi va h.k.) iqtidorli bolalarni aniqlashda yordam beradi.
- So‘rovnomalar: O‘quvchilar, ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish orqali iqtidorli bolalar haqida ma’lumot to‘plash mumkin.
- Ijodiy ishlar tahlili: O‘quvchilarning insholari, rasmlari, loyihalari va boshqa ijodiy ishlarini tahlil qilish orqali ularning qobiliyatlarini aniqlash mumkin.
- Olimpiadalar va tanlovlar: Fan olimpiadalari, sport musobaqalari, san’at tanlovlari iqtidorli bolalarni aniqlash va ularning mahoratini namoyish etish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

O‘qituvchi iqtidorli bolalar bilan ishlashda quyidagi vazifalarni bajaradi. Iqtidorli bolalarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Iqtidorli bolalar uchun qulay ta’lim muhitini yaratadi. Iqtidorli bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish, ularning qiziqishlari va intilishlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Iqtidorli bolalarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, tanqidiy baholash va muammolarni echish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Iqtidorli bolalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish, ularda ilm-fanga muhabbat uyg‘otadi. Iqtidorli bolalarning yutuqlarini ommalashtirish, ularni rag‘batlantiradi va mukofotlaydi.

Umumta’lim maktablarida iqtidorli bolalar bilan ishlash – jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, ilm-fan, texnika va madaniyat sohalarida yangi kashfiyotlar yaratishga qodir bo‘lgan shaxslarni etishtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda zamonaviy usullardan foydalanish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash lozim. Shundagina biz iqtidorli bolalarning qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish va ularni jamiyat manfaati yo‘lida samarali foydalanishga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. QODIROV, A. (2025). BADIIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiyalar, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.

4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY ASAR TILI VA BADIIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.
5. O’G’Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.

TA’LIM MUASSASALARI RAHBARLARI MALAKASINI OSHIRISHNING TA’LIM SIFARINI YAXSHILASHDAGI AHAMIYATI

Mamatqulova Sojida G‘opporjonovna,
Qo‘qon universiteti
Ta’lim muassasalari boshqaruvi magistranti
+99891 139 31 36 @mamatqulovasojida@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ta’lim muassasalari rahbarlari malakasini oshirishning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Mazkur masalaning dolzarbligi misollar bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: malaka, rahbar, rahbarlik, malaka oshirish institutlari, tajriba.

Аннотация: В данной статье говорится о важности повышения квалификации руководителей образовательных учреждений сегодня. Актуальность данного вопроса поясняется примерами.

Ключевые слова: квалификация, руководитель, лидерство, учебные заведения, опыт.

Abstract: This article talks about the importance of improving the qualifications of leaders of educational institutions today. The relevance of this issue is explained by examples.

Key words: qualification, leader, leadership, training institutes, experience.

Ta’lim tizimida boshqaruv jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbar kadrlarning bilim va malakasiga bog‘liq. Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan boshqaruv metodlari rahbarlarning faoliyatini engillashtirib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Malaka oshirish nafaqat yangicha bilimlar, balki

zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini ham beradi. Bugungi kunda raqamli vositalar, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalar rahbarlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu maqolada malaka oshirishning ahamiyati, raqamli texnologiyalarning o‘rni, xorijiy tajribalar va istiqboldagi takliflar yoritiladi[2:7].

Ta’lim tizimida boshqaruv jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbar kadrlarning bilim va malakasiga bog‘liq. Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan boshqaruv metodlari rahbarlarning faoliyatini engillashtirib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Malaka oshirish nafaqat yangicha bilimlar, balki zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini ham beradi. Bugungi kunda raqamli vositalar, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalar rahbarlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu maqolada malaka oshirishning ahamiyati, raqamli texnologiyalarning o‘rni, xorijiy tajribalar va istiqboldagi takliflar yoritiladi[2:9].

Ta’lim tizimida boshqaruv jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbar kadrlarning bilim va malakasiga bog‘liq. Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan boshqaruv metodlari rahbarlarning faoliyatini engillashtirib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Malaka oshirish nafaqat yangicha bilimlar, balki zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini ham beradi. Bugungi kunda raqamli vositalar, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalar rahbarlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu maqolada malaka oshirishning ahamiyati, raqamli texnologiyalarning o‘rni, xorijiy tajribalar va istiqboldagi takliflar yoritiladi.

Ta’lim muassasalari rahbarlari o‘z faoliyatida bir vaqtning o‘zida bir nechta muhim vazifalarni bajaradilar: strategik rejalashtirish, jamoani boshqarish, resurslarni boshqarish, ta’lim sifatini monitoring qilish va hisobot yuritish. Bularning barchasi uchun rahbarning zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur. Raqamli davrda esa bu kompetensiyalarga texnologik savodxonlik, axborot xavfsizligi, onlayn muomala va masofaviy boshqaruv kiradi. Boshqaruv jarayonida texnologiyalarni to‘g‘ri tanlay olish va ularni amaliyotga joriy eta olish rahbar salohiyatini oshiradi. Shuningdek, tashkilotda o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasida raqamli madaniyatni shakllantirishda ham rahbarning roli beqiyos[3:89].

Zamonaviy texnologiyalar yordamida rahbarlar real vaqt rejimida ma’lumotlar bilan ishlay oladi, xodimlar faoliyatini baholaydi, moliyaviy va akademik jarayonlarni tahlil qiladi. Learning Management System (LMS), Student Information System (SIS), va boshqaruv analitik platformalari bu jarayonlarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Masalan, direktorlar onlayn platformalar orqali hisobotlarni shakllantiradi, o‘quvchilarning qatnashuvi va baholarini tahlil qiladi.

Bu esa tezkor va asosli qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi. Raqamli vositalar yordamida tashkilot faoliyatini tahlil qilish, strategik yo‘nalishlarni belgilash ancha osonlashadi[4:90].

Xorijiy tajribada ta’lim rahbarlarini tayyorlash va malakasini oshirish doimiy jarayon sifatida qaraladi. Masalan, AQShda rahbarlar har yili kamida bir marta professional rivojlanish kurslarida ishtirok etadi. Finlyandiya va Estoniya ta’lim tizimlarida esa raqamli kompetensiyalar asosida ishlab chiqilgan modullar asosida malaka oshirish olib boriladi. Janubiy Koreyada maktab rahbarlari uchun alohida texnologik tayyorgarlik dasturlari mavjud. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz o‘qitish va zamonaviy texnologiyalarni egallash rahbarlar faoliyatida asosiy o‘ringa ega[9:76].

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida rahbarlarning malakasini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Har yili minglab rahbarlar malaka oshirish kurslarida ishtirok etmoqda. Bu kurslarda texnologik savodxonlik, elektron boshqaruv, raqamli axborot tizimlari, onlayn kommunikatsiya, pedagogik menejment kabi mavzular o‘rgatiladi. So‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan treninglar rahbarlarga zamonaviy yondashuvlarni egallash imkonini bermoqda. Yagona elektron platformalar, masofaviy o‘qitish, onlayn baholash – bularning barchasi rahbarlar faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Ta’limda rahbar kadrlar malakasini oshirishning ahamiyati juda katta, chunki ular ta’lim muassasalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, sifatli ta’lim berish va o‘quvchilarning yaxshi natijalarga erishishida muhim rol o‘ynaydilar. Quyida rahbar kadrlar malakasini oshirishning asosiy jihatlari va ahamiyati keltirilgan:

1. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish:

- O‘zgaruvchan muhitga moslashish: Ta’lim sohasida doimiy ravishda yangi texnologiyalar, metodlar va yondashuvlar paydo bo‘ladi. Rahbarlar malakasini oshirish orqali ushbu o‘zgarishlardan xabardor bo‘lib, ularni o‘z faoliyatlariga tatbiq eta oladilar.

- Innovatsion echimlarni qabul qilish: Zamonaviy bilimlar rahbarlarga ta'lim jarayonini yaxshilash, o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish va muammolarni hal qilishda innovatsion echimlarni topishga yordam beradi.

2. Liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish:

- Jamoani boshqarish: Rahbarlar malakasini oshirish dasturlari ularga jamoani samarali boshqarish, o‘qituvchilarning motivatsiyasini oshirish va o'zaro hamkorlikni ta’minlash ko‘nikmalarini beradi.

- Strategik fikrlash: Malakali rahbarlar ta'lim muassasasining uzoq muddatli maqsadlarini belgilay oladi, strategiyalarni ishlab chiqadi va ularni amalga oshirish uchun resurslarni to'g'ri taqsimlay oladi.

3. Pedagogik va metodik bilimlarini takomillashtirish:

- O‘qitish sifatini oshirish: Rahbarlar o‘qitish metodlari, o‘quv dasturlari va baholash tizimlari haqida chuqur bilimga ega bo‘lishlari kerak. Bu ularga o'qituvchilarga metodik yordam berish, darslarni tahlil qilish va o'qitish sifatini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

- O‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish: Malakali rahbarlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini tushunadilar va ularga moslashuvchan ta'lim muhitini yaratishga harakat qiladilar.

4. Boshqaruv ko'nikmalarini oshirish:

- Resurslarni samarali boshqarish: Rahbarlar moliyaviy, moddiy va inson resurslarini to‘g‘ri taqsimlash va boshqarish orqali ta’lim muassasasining samaradorligini oshirishlari mumkin.

- Qaror qabul qilish: Murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri va oqilona qarorlar qabul qilish rahbarning muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. Malaka oshirish dasturlari rahbarlarga qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirishga yordam beradi.

5. Kommunikatsiya va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish:

- Ota-onalar va jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash: Rahbarlar ota-onalar, mahalliy jamoa va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilish orqali ta’lim muassasasining obro‘sini oshirishlari mumkin.

- O'qituvchilar bilan konstruktiv munosabatlarni o‘rnatish: Rahbarlar o‘qituvchilarning fikrlarini hurmat qilish, ularni qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro ishonchni mustahkamlash orqali jamoada ijobiy muhit yaratishlari mumkin.

Ta’limda rahbar kadrlar malakasini oshirish – bu ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim sharti. Malakali rahbarlar ta’lim muassasalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, sifatli ta’lim berish va o'quvchilarning yaxshi natijalarga erishishida muhim rol o‘ynaydilar. Shuning uchun rahbar kadrlar malakasini oshirishga doimiy e’tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muassasalari rahbarlari uchun malaka oshirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Texnologik rivojlanish bilan hamnafas bo‘lish, raqamli vositalardan samarali foydalanish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va joriy etish rahbarlarning asosiy vazifalaridandir. Malaka oshirish jarayonlarining modulli, individual va innovatsion yondashuv asosida tashkil etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. QODIROV, A. (2025). BADIIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiyalar, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY ASAR TILI VA BADIIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.
5. O’G’Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.
9. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.
10. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.
11.Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
12.Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.
13.TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
14.Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.
15.Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548
16.Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

INNOVATSION TA’LIM RIVOJI DAVRIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR

Muqimjonova Nilufarxon Ikromjon qizi,
Qo‘qon universiteti Ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Bugungi zamonaviy ta’lim tizimining har qaysi bo‘g‘inida pedagogik innovatsiyalarning faolligini ko‘rish mumkin. Shuning uchun davr talabidan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalarning ahamiyati; ularni ta’lim jarayonlariga to‘g‘ri talqin etishda ko‘rsatma beruvchi normativ hujjatlar va ularning maqsadi; mahalliy olimlar va xorijiy mutaxassislarning ilmiy izlanishlarida pedagogik innovatsiyalarga bo‘lgan e’tibor, fikr va mulohazalar, qarashlar, ilgari surilgan g‘oyalar hamda natijalar; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innofatsion faoliyatida pedagogik innovatsiyalarning roli; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kelajakda ish tajribasini oshirishdagi ahamiyati to‘g‘risidagi so‘z yuritildi.

Fikr-mulohazalarni bayan qilishda muammo yuzasidan o‘rganilgan bir qator olimlarning ilmiy izlanish natijalariga, turli adabiyot va materiallarga murojaat qilindi.

KALIT SO‘ZLAR: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogik innovatsiya, innovatsion faoliyat, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash mazmuni, strategik yo‘nalish, integratsiya.

АННОТАЦИЯ: Сегодня в любом звене современной системы образования можно увидеть активность педагогических инноваций. Таким образом, исходя из требований периода, в этой статье рассматривается важность педагогических инноваций в обучении учителей начальных классов; нормативные акты, направляющие их в правильной интерпретации образовательных процессов и их цели; внимание, мнения и суждения, взгляды, выдвинутые идеи и результаты педагогических инноваций в научных исследованиях отечественных ученых и зарубежных специалистов; отмечена роль педагогических инноваций в инновационной деятельности будущих учителей начальных классов; значение педагогических инноваций для повышения опыта работы будущих учителей начальных классов в будущем.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: учителя начальных классов, будущие учителя начальных классов, педагогические инновации, инновационная

деятельность, содержание подготовки будущих учителей, стратегическое направление, интеграция.

ANNOTATION: Today, in any link of the modern education system, one can see the activity of pedagogical innovations. Thus, based on the requirements of the period, this article examines the importance of pedagogical innovations in teaching primary school teachers; regulations guiding them in the correct interpretation of educational processes and their goals; attention, opinions and judgments, views, ideas put forward and the results of pedagogical innovations in scientific research of domestic scientists and foreign specialists; The role of pedagogical innovations in the innovative activities of future primary school teachers is noted; the importance of pedagogical innovations for improving the work experience of future primary school teachers in the future.

The results of scientific research of a number of scientists, various literature and materials studied on the problem in the bayan of opinions, were consulted.

KEY WORDS: teachers of the primary class, teachers of the future primary class, pedagogical innovation, innovative activities, content of the training of future teachers, strategic direction, integration.

Jahonda yuz berayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida fanlarda yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishi hamda fanlararo integratsiyaning jadal rivojlanishi oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborotlar, xususan, bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yilgan talablarning ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion va integratsion texnologiyalarni joriy qilish, axborotlarni uzatishda fanlararo aloqadorlik tamoyillariga qat’iy amal qilish muammolari yuzaga kelmoqda. Natijada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonining innovatsion va integratsion texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyatini oshirmoqda.

Dunyo miqyosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash mazmuni, ijtimoiy va tabiiy yaxlitlik sifatida real dunyoning mavjudligi va rivojlanishi qonunlari, uning elementlari o‘rtasidagi asosiy aloqalar va munosabatlarning tabiati haqida tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, innovatsion fikrlashni rivojlantirish muammosining o‘ziga xos xususiyatlari, ta’limni tashkil etish jarayonida innovatsiya va integratsiya muammolari, integratsiyaning nazariy masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini ta’lim jarayonini tashkil etishning innovatsion va integratsion texnologiyalari, jumladan, integratsiya

jarayonlarining qonuniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan boyitish dolzarb vazifalarga aylanmoqda.

Shu sababli ham bugunga kelib jamiyatdagi tub o‘zgarishlar umumta’lim maktablarini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish uchun haqiqiy shart-sharoitlarni yaratishda pedagogik innovatsiyalarga imkon berdi va bu bilan pedagogik innovatsiyalar o‘zining amaliy ahamiyatini hamda amaliy tadbig‘ini ko‘rsatib kelayotganini alohida qayd etish joiz. Yangi ta’lim strategiyalari jadal rivojlanmoqda, ayni paytda pedagogik nazariya va amaliyotida ro‘y berayotgan jarayonlar qayta ko‘rib chiqilmoqda va yangicha ko‘rib chiqilmoqda, ta’limning asosiy yo‘nalishlarini rivojlantirish istiqbollari belgilanmoqda. Mamlakat ta’limida o‘zgaruvchanlik printsipi ham ta’lim tizimiga kiri kela boshladi. Bu ta’lim muassasalarining, maktabning o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmining manbalari o‘qituvchining ishida, uning innovatsion faoliyatida, pedagogik jamoalariga har qanday model bo‘yicha o‘quv jarayonini qurish huquqini beradi.

Bularni amalga oshirish uchun dastavval, ta’lim tizimida kerakli qaror va farmonlarning chiqarilishi muammoga to‘g‘ri yechimni taklif etish va amaliy tasdig‘ini toptirish uchun chora-tadbirlarni o‘rinli qo‘llash imkonini beradi. Aynan shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son, 2022-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlarda faol ishtirok etishini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3775-son, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–289-son Qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning joriy qilinganligi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirishda jadal xizmat qiladi.

Pedagogik innovatsiyalarning ortib borayotgan hajmi kelajakdagi o‘qituvchidan, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilardan paydo bo‘layotgan o‘zgarishlarni yaxlit tizimli ko‘rib chiqish qobiliyatini, yangilariga moyillikni talab qiladi. Hozirgi kunda ta’limdagi o‘zgarishlar shunchalik xilma-xilki, faqat kreativ shaxs o‘z faoliyatini ular bilan bog‘lay oladi. Bu bilan jamiyat innovatsion

jarayonlarda inson munosabatlarining butun tizimini belgilaydigan rivojlanish darajasiga erishishini nazarda tutadi.

Ayni vaqtdagi talimi tashkil etish jarayonlaridagi pedagogik nazariya va amaliyotida ro‘y berayotgan innovatsion jarayonlar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga jiddiy talablar qo‘yadi. Shu sababli ham hozirgi paytda ta’lim sohasidagi innovatsion faoliyatning mohiyatini tushunmaydigan, mamlakat hududida o‘z faoliyatini olib borayotgan har qanday turdagi maktab ta’limidagi innovatsion harakatning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganmaydigan, innovatsion ta’lim texnologiyalarining keng arsenaliga ega bo‘lmagan, muqobil loyihalar va tizimlarda ishlamaydigan o‘qituvchini pedagogik jihatdan malakali mutaxassis deb hisoblash mumkin emas. Bunga ijobiy ma’noda erishish uchun esa talab darajasidagi mutaxassislarning faoliyatini o‘rganish asosida adabiy manbalarni va haqiqiy pedagogik vaziyatni tahlil qilish, o‘qituvchining innovatsion faoliyatini rivojlantirish ta’limning strategik yo‘nalishlaridan biri ekanligini alohida ta’kidlash darkor.

So‘nggi o‘n yillikning pedagogik adabiyotlarida innovatsiya masalalari yetarlicha o‘rganilgan. Muammo yuzasidan o‘rganilgan adabiyotlar va to‘plangan turli manbalarni tahil qilish asosida nazariy va uslubiy darajada, tizimli faoliyat yondashuvi sifatida, innovatsiyalarning ijtimoiy-psixologik tomonlari, ta’lim tizimida mavjud turfa bo‘g‘inlarda innovatsiyalarni tadbiq etish, ulardan foydalanishning, ularni boshqarishning modellarini tahlil qilish ustida ko‘plab olimlarning va tadqiqotchilarning izlanish olib borilganligiga guvoh bo‘lindi.

Masalan, xorijiy pedagogik adabiyotlar, manbalar, ko‘pgina ilmiy tadqiqot natijalarida ham bu muammo jiddiy o‘rganilganligi buning isbotidir. Birgina nazariy va uslubiy darajada hamda tizimli faoliyat yondashuvi nuqtai nazaridan innovatsiya muammolari I.V.Bestujev-Lada, V.I.Zagvya-zinskiy, N.I.Lapin, A.I.Prigojin, V.B.Sazonov, B. C. Tolstoy va boshqalarning asarlardagi innovatsiyalarning ijtimoiy-psixologik jihati yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan. Yana xorijiy mualliflar A.Adam, K.Angelovskiy, X.Barnett, J.Basett, N.Gross, M.Mayls, A.Nikole, E.Rodgers va boshqalar ta’lim tizimining turli bo‘g‘inlarida innovatsiyalarni joriy etishning boshqaruv modellarini tahlil qilish muhim o‘rin tutadi, degan fikrni ilgari surgan ilmiy tadqiqot natijalarida yangi hodisalarni o‘rganish usullari va innovatsiyalarni baholash dasturlarini taklif etgan. M.V.Klarinning tadqiqotlari esa zamonaviy xorijiy pedagogikadagi innovatsion jarayonlarni umumlashtiradi va tahlil qiladi.

Ta’lim sohasidagi innovatsiyalar muammolari Rossiya olimlarining asarlarida ham keng namoyish etilgan. Masalan, innovatsiyalarning umumiy

xususiyatlari A.A.Arlamov, M.S.Burgin, F.N.Gonobolin, S.M.Godnik, L.D.Gireva, V.L.Lyaudis, L.S.Podimova, S.D.Polyakov, V.A.Slastenin, A.I.Subetto, N.V.Yusufbekova va boshqalarning asarlarida ham o‘rganilganligini aytib o‘tish kerak. M.M.Potashnik, T.I.Shamova, O.G.Homeriki, V.I.Kvashi, N.V.Konoplinoy va boshqalarning asarlarida esa ta’limda innovatsiyalarni qo‘llash samaradorligi haqidagi fikrlar va izlanishlar natijalari keltirilgan.

Bulardan tashqari oxirgi yillardagi bir qator ilmiy dissertatsiya ishlari innovatikaning turli jihatlarini ko‘rib chiqadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorligini shakllantirish yuzasidan I.V.Piskarevaning; innovatsion muhitning roli haqida esa F.Z.Vildanovaning; innovatsion dizaynning roli N.S.Dukaning; pedagogik aks ettirishni rivojlantirish N.V.Krashennikovning; o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashning psixologik va pedagogik asoslari M. A. Meladzening; malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatiga hissa qo‘shadigan sharoitlarni tashkil etish muammolari I.R.Lazarin, L.V.Ushenina, L.T.Chernovaning ilmiy izlanish natijalarida o‘z aksini topgan.

Ma’lumki, so‘ngi yillarda pedagogik innovatsiyalarni ta’lim jarayonlarida takomillashtirish maqsadida ta’limda integratsiyaning ham nazariy asoslari qoidalari jadal rivojlanmoqda. S.V.Aronov, R.R.Axmatbekov, S.N.Babina, G.A.Bordovskiy, T.A.Zolotova, I.V.Klimenko, L.N.Mun, E,V.Orlov, L.A.Petrenko, E.Y.Sizganova, I.O.Sorokina va boshqalar o‘z asarlarida ta’lim tizimida integratsiyaning nazariy asoslarini ochib berishgan.

Milliy pedagogikada N.Azizxo‘jayev, Sh.Sharipov, M.Quronov, R.Safarova, B.Adizov, N.Shodiyev, X.Ibragimov, U.Tolipov, Sh.Olimov, Sh.Abdullaevalarning ilmiy tadqiqotlarida innovatsion fikrlashni rivojlantirish muammosining o‘ziga xos xususiyatlariga, ya’ni mustaqillik, ta’limning milliy, ma’naviy-axloqiy, ijodiy va badiiy jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Shu jumladan, respublikada boshlang‘ich ta’limda innovatsion o‘qitish va uning pedagogik-psixologik masalalari N.Muslimov, Y.G‘oziyev, K.Mamedovlar, kasbiy tayyorgarlikni innovatsion texnologiyalar hamda metodlar orqali shakllantirish N.N.Azizxodjayeva, O‘.Q.Tolipov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Aynan bo‘lajak o‘qituvchilarni yoki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovastiyalarning ahamiyatini chuqur anglash uchun yuqorida nomlari keltirilgan olimlar va klarning tadqiqot natijalarini o‘rganish natijasida Ta’lim innovatsiyalarining mohiyatini o‘rganish yuqori darajadagi maktab ta’limi sohasi uchun alohida ahamiyatga ega, chunki u

uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi. Bugun O‘zbekistonda demokratik jamiyatni rivojlantirishning zamonaviy shartlari boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlashga yuqori talablarni qo‘yadi. Ayni vaqtdagi ta’lim jarayonlarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlashning samarali tizimini yaratish zarurati har qachongidan ham yetuk. Shu boisdan ham kelajakdagi o‘qituvchida innovatsion ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni yaxlit tadqiqot ob’yekti, unga yaxlit hodisa sifatida tizimli yondoshish ob’yekti ham bo‘lishi shart ekanligini unutmaslik zarur.

Yuqori darajadagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ish tajribasini, turli toifadagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ish tajribasini, falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilishni, shuningdek, bugun mamlakatda mavjud turli maktablarda faoliyat olib borayotgan yosh boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ish tajribasini o‘rganish asosida ushbu muammoga yechimlarni taklif etish mumkin. Bu jadal rivojlanayotgan jamiyatning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiyatiga bo‘lgan talablari o‘rtasidagi ziddiyat bilan belgilanadi. Ularning innovatsion faoliyatga tayyorligi, o‘qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati va bunday tizimning nazariy va uslubiy rivojlanishi uchun hali qo‘llanilmagan texnologiyalarni joriy etish masalasi ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalarning ham amaliy, ham nazariy jihatdan roli va ahamiyatining yuksak ekanligini e’tirof etadi. Bularning barchasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalarning jadal qo‘llanilishiga va ta’lim mazmuning yanada yuksalishida uning mohiyatini ta’lim ishtirokchilari to‘g‘ri yetkazishda ham xizmati qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalarning ahamiyati, roli va o'rni nechog‘lik muhim ekanligi va amaliy jihatdan ahamiyati kelajakdagi o‘qituvchilarni pedagogik innovatsiyalarga tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun muammo yuzasidan taklif etiladigan tavsiyalar va yechimlardan foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi, pedagogika bo‘yicha tayyorlangan dasturlar kelajakdagi o‘qituvchining innovatsion salohiyatini oshirishga yordam beradi. Muammoga tegishli yechimni berish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash o‘quv mashg‘ulotlarining tegishli bo‘limlarini ishlab chiqish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida nazariy va umumlashtirilgan amaliy asosni taqdim etish lozim.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorligi umumiy kasbiy tayyorgarlikning bir qismidir va tayyorgarlikning

motivatsion-qiymat, nazariy-uslubiy va kasbiy-amaliy tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi. Komponentlarning ko‘rsatkichlari va innovatsiyalarga tayyorlik darajasi ishlab chiqish bunda eng maqbul yechimdir.

Shu jumladan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanishning eng ahamiyatli tomonlaridan biri bu — yosh mutaxassislarda kreativlik darajasining oshishiga xizmat qiladi. Ma’lumki, kreativ pedagogik faoliyat hamisha ta’lim tizimida eng yuqori o‘rinda turadi. Shu sababli ham o‘z ustida doimiy ishlaydigan, yangikliklarni izlaydigan va ularni o‘zi tashkil etadigan ta’lim jarayonlarida to‘g‘ri, oqilona qo‘llay oladigan tajribali o‘qituvchi uchun pedagogik innovatsiyalar eng kerakli ko‘makchidir.

Shu qatorda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalarning ahamiyatini bo‘lajak mutxassislarga anglatishda avvalo, pedagogik innovatsiyalarni to‘plashni, undan keyin tashkil qiladigan dars jarayonlariga mos ravishda to'g‘ri tanlashni va oxirgi navbatda oqilona qo‘llashni ham o‘rgatish kerak.

Innovatsiya muammolariga murojaat qilish va ularni zamonaviy ilmiy fikrning eng muhim yo‘nalishlari qatoriga kiritish jamiyatdagi innovatsion jarayonlarning tobora ortib borayotgan dinamikasini anglash natijasi bo‘lganligi mamlakat maktab ta’limida muqobil pedagogik tizimlar va texnologiyalarning paydo bo‘lishi munosabati bilan ko‘p darajali ta’lim tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini o‘rganish kelajakdagi o‘qituvchini tayyorlash sifatini oshirish uchun muhim ekanligini unutmaslik lozim.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsiyalarga tayyorligini o‘rganish bilan bog‘liq konseptual yondashuvlarning nazariy tahlili, shuningdek, muammo yuzasidan to‘plangan materiallar, manbalar, ilmiy dissertatsiyalarni o‘rganish va tahlil qilish jarayoni orqali olingan ham nazariy, ham amaliy ma’lumotlar va empirik materiallar asosida shunday xulosa chiqarish mumkin:

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalarning ahamiyati yuqori ekanligi isbotlanishi uchun o‘qituvchining innovatsion faoliyati tuzilishiga turli xil yondashuvlar mavjudligini, innovatsion faoliyat tuzilishining tizimli yaxlit g‘oyasi innovatsion faoliyatga tayyorlikni shakllantirish uchun nazariy sharti ekanligini unutmaslik kerak. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini innovatsiyalarga tayyorlashdga ham jiddiy e’tibor berib, bunda yakuniy maqsadga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv nuqtai nazaridan yondashish joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni.
2. 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni.
3. 2022-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni.
4. 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlarda faol ishtirok etishini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3775-son Qarori.
5. 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–289-son Qarori.
6. Azizova G.G. Oliy ta’lim muassasalari professor- o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish 13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissert. avtoreferati. Samarqand – 2019.

3-SHO‘BA: SUN’IY INTELLEKT VA INSON IJODKORLIGI: RAQOBAT YOKI HAMKORLIK

“NAVOIYSHUNOSLIK” SOHASIDA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Sulaymonov Mo‘minjon Yusubjonovich,
Filologiya fanlari nomzodi, NamDU dotsenti.
msulaymon62@mail.ru 937052555
Xoldorova Gulnoza Husniddinovna,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti.
gulnozaholdarova7@gmail.com 99 978 05 22

Annotatsiya

Mazkur maqolada navoiyshunoslik sohasida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish bo‘yicha nazariy fikrlar berilgan. Shuningdek “Farhod va Shirin” dostonidagi Navoiyning hayratomuz ixtirolarini sun’iy intellekt yordamida gavdalantirilgan. Ta’lim tizimiga sun’iy intellekt imkoniyatlarini tatbiq etishda, ijodkorning tafakkur qudratini namoyon etishda sun’iy intellekt asosiy ko‘makchi bo‘lishi mumkinligi dalillangan. Alisher Navoiyning tasavvur va tafakkur olami bilan bog‘liq bo‘lgan innovatsiyalar haqida so‘z boradi va Alisher Navoiyning asarlari ulkan ilm-fan yutuqlariga ham asos bo‘lgani ta’kidlanadi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishda zamonaviy, aqlli texnologiyalardan foydalanish, xususan, dars jarayoniga sun’iy intellekt (Sun’iy idrok) imkoniyatlarini keng tatbiq etish maqolaning bosh g‘oyasini tashkil etadi. Yosh avlodni ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi asosida tarbiyalash, ularni sadoqat ruhida kamol toptirish, bu orqali yot, zararli g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan. Shuningdek, sun’iy idrok (SI) ta’lim tizimining sifatiga, uy vazifalarini tayyorlash jarayoniga, o‘quvchilarning xolis baholash tizimiga jiddiy xavf soladi, degan fikrlar mavjud bo‘lgan bir paytda, SI dan dars jarayonida faol va samarali foydalanish mumkinligini ilmiy asoslab beriladi va bir mavzu doirasida aniq echim va takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, badiiy tafakkur, tasavvur, badiiy obraz, poetik tafakkur, jom, google-xarita.

Аннотация

В статье изложены теоретические идеи по целенаправленному использованию искусственного интеллекта в области навоиведения. Также удивительные изобретения Навои в эпосе «Фарход и Ширин» были воплощены с помощью искусственного интеллекта. Доказано, что

искусственный интеллект может стать ключевым фактором внедрения возможностей искусственного интеллекта в систему образования и демонстрации силы творческого мышления. В статье рассматриваются новаторские идеи, связанные с миром воображения и мысли Алишера Навои, и подчеркивается, что труды Алишера Навои также легли в основу великих научных достижений. Основная идея статьи – использование современных, интеллектуальных технологий при изучении эпоса Алишера Навои «Фарход и Ширин», в частности, широкое применение возможностей искусственного интеллекта (ИИ) в процессе обучения. Главная цель – воспитать подрастающее поколение на основе богатого духовного наследия наших великих предков, развить его в духе верноподданничества и тем самым сформировать идеологический иммунитет против чуждых, вредных идей. Также, хотя и существуют мнения о том, что искусственный интеллект (ИИ) представляет серьезную угрозу качеству системы образования, процессу подготовки домашних заданий и системе беспристрастной оценки учащихся, научно обоснована возможность активного и эффективного использования ИИ в процессе обучения, а также даны конкретные решения и предложения в рамках одной темы.

Ключевые слова: инновация, художественное мышление, воображение, художественный образ, поэтическое мышление, чашка, Google Maps.

Abstract

This article presents theoretical ideas on the purposeful use of artificial intelligence in the field of Navoi studies. Also, Navoi's amazing inventions in the epic "Farhod and Shirin" are embodied with the help of artificial intelligence. It is argued that artificial intelligence can be a key assistant in implementing the capabilities of artificial intelligence in the education system and in demonstrating the creative power of thought. It talks about the innovations related to the world of imagination and thought of Alisher Navoi, and it is emphasized that Alisher Navoi's works also formed the basis for great scientific achievements. The main idea of the article is to use modern, intelligent technologies in studying Alisher Navoi's epic "Farhod and Shirin", in particular, the widespread application of artificial intelligence (Artificial Intelligence) capabilities in the teaching process. The main goal is to educate the younger generation on the basis of the rich spiritual heritage of our great ancestors, to develop them in the spirit of loyalty, and thereby to form ideological immunity against foreign, harmful ideas. Also, while there are opinions that artificial intelligence (AI) poses a serious threat to the quality of the education system, the process of preparing homework, and the system of objective assessment of students, the possibility of active and effective use of AI in the

teaching process is scientifically substantiated, and specific solutions and proposals are provided within the framework of one topic.

Keywords: innovation, artistic thinking, imagination, artistic image, poetic thinking, cup, Google Maps.

Barcha sohalar kabi kundan kun globallashib borayotgan ta’lim dunyosi ham bugun o‘qituvchi oldiga ham murakkab vaziyatlarni ko‘ndalang qilib qo‘ymoqdaki, zamonaviy o‘qituvchi ularga bilimi, salohiyati bilan javob berishi shart. Bu jarayon esa o‘z-o‘zidan soha bo‘yicha chuqur bilim va ko‘nikmalarni, yuksak pedagogik mahoratni talab qiladi.

Adabiyotshunoslik sohasida ham bu borada talab qilinadigan vazifalar ko‘paysa ko‘payadiki, also kamaymaydi. Mavjud vaziyatni hisobga olsak, bugungi ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiya imkoniyatlarisiz tasavvur qilib bo‘lmasligi ayon haqiqat. O‘quvchi kitobdan ko‘ra zamonaviy, aqlli qurilmalarni afzal ko‘rishi va ayrim holatlarda ularga qaramligi ham bor gap. O‘qituvchi dars jarayonida ularning foydali jihatlarini ta’lim jarayoniga kiritishni uddalay olsa, qaysidir ma’noda, bugungi kun ta’lim tizimidagi ayrim muammolarga echim topiladi. Ya’ni biz hech kimni gadjetlardan va u orqali sun’iy idrok imkoniyatlaridan foydalanish huquqidan mahrum qila olmaymiz, ammo bu imkoniyatlarda o‘rinli va tadbirli foydalanish ko‘nikmasini shakllantira olishimiz mumkin.

Hayotimizga sun’iy idrokning (AI= SI) kirib kelishi ta’lim tizimida ham bir necha muammolarni keltirib chiqardi. Yozma ish ko‘rinishidagi ko‘pgina topshiriqlarning asl bajaruvchisi kim ekanligini aniqlash borasida murakkab vaziyatlar vujudga kelayotganligi ham sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan bog‘liq. Maqolada sun’iy intellektning “Navoiyshunoslik” sohasiga tatbiq etish mumkin bo‘lgan foydali jihatlari haqida so‘z yuritiladi.

Biz yashayotgan bugungi dunyo innovatsiyalar asri deb ta’riflanadi. Innovatsiya – (inglizcha innavationas – kiritilgan yangilik, ixtiro) –….ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya [9,1] Hayotimizning har jabhasiga qarasak, soat sayin emas, daqiqa sayin takomillashib borayotgan olam manzarasi tobora hayratimizni oshirishi turgan gap. Olimlarning aytishicha, aqlning bosh belgisi bilim emas, tasavvurdir. Ko‘pchilik daholar tasavvur qilish qobiliyatining kuchliligi bois o‘z davrining yorqin timsollariga aylanishganiga tarix guvoh. O‘ziga xos ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini faqatgina tasavvur boyligigina shakllantirishi mumkin.

Hazrat Alisher Navoiy ham shunday “tafakkur tajribasi”ga ega ulkan shaxs edi. Navoiy dil nigohi bilan olamdagi barcha narsani tasavvur qilgan va voqelikdagi muammolarga echim qidirgan. Bu oltin qoida shoirning kichik hajmli

asarlarida ham, muhtasham asarlarida ham bir xil amal qiladi. Falsafadan ma’lumki, inson tasavvur orqali anglanishi mumkin bo‘lgan ong chegaralaridan ham o‘ta oladi. Tasavvur va taxayyul insonga cheksiz mo‘jizotlar eshigini ochadi. Navoiyga ham xuddi ma’no shu mo‘jizotlar ilohiy kechinmalar va tasavvur qudrati bilan namoyon bo‘lgan bo‘lsa ne ajab!

Shu o‘rinda adabiyotshunoslikda juda keng qo‘llaniladigan yana bir istiloh xayolimizga keladi. Bu obrazli, badiiy tafakkur masalasi. Obrazli fikrlash, tafakkur qilish qobiliyati inson hayotini o‘zgartira oluvchi, kerak bo‘lsa boshqara oluvchi qudratli kuch! Inson tafakkur qilgani sayin miyadagi tasavvur hujayralari shunchalik kuchli bo‘lishi fanda isbotlangan. Alisher Navoiyning tafakkur qila olish qobiliyati undagi tasavvur dunyosining boyligiga idrok va mushohadalarining teranligiga vosita bo‘lgan.

Alisher Navoiy ijodini nafaqat badiiy xususiyatlari, filologik jihatlari, balki Navoiyning me’mor sifatida, musiqashunos sifatida, astronom va rassom sifatida ham keng o‘rganilgani va o‘rganilayotganligi barchamizga ma’lum. Bu qarashlarning manbayi shubhasiz, buyuk adibning muhtasham tafakkur xazinasi hisoblangan asarlaridir. O‘zbek mumtoz adabiyotining bebaho durdonlari hisoblangan bu asarlarda kelajak hayotga ishora qiluvchi ilg‘or fikrlar, yaqin tarixda qilingan muhim ixtirolar ham mujassam edi.

“Farhod va Shirin” dostonining XXIV bobida Farhodning Xizr bilan uchrashgani va Jamshid jomi haqida so‘z boradi. Jamshid jomi butun olamni ko‘rsata olish qudratiga ega edi. Keyingi bobda esa Farhod jomning bu sehrli qudratidan foydalanib, Suqrot manzilini topadi.

Dedikim: “Hozir aylang, Jomi jamni
Ki, el ko‘nglidin olsin bu alamni”.
Ravoni boribon kelturdilar jom
Ki, andin mushkil ishi topqay saranjom.[1,414]

Boshqa mamlakatlarning jilvasidan ko‘z yumib, o‘sha jomdan Yunon o‘lkasini qidirib topdi. … U erdan nihoyat o‘zlari turgan tog‘ni ham aniqladi.

Ajabo, Farhodning qo‘lida Google xaritaga o‘xshash nimadir bordek ko‘rinmayaptimi? Hozir istalgan android qurilmadan foydalanib, nafaqat butun dunyoni ko‘ra olishingiz, balki o‘zingiz turgan joyni aniqlashingiz mumkin. Farhod bugunki til bilan aytganda, jom orqali “lokatsiya”ni aniqlay olgan.

Biz sun’iy intellekt yordamida Navoiy tasvirlagan narsani tasvirini yaratishga urindik.


Anga qilg‘ach nazar ishi kushoyish.
Jahon timsolig‘a topdi namoyish…
…Mamolik jilvasidin ko‘zni yopti,
Ki, Yunon mulkin ul jom ichra topdi. [1,324]



1-rasm. Jamshid jomi

“Fasllar tasviri” berilgan XVII bobda Navoiy: “Qasr ichida har tomonga yoyib qo‘yilgan zarhal ipak matolarga yulduzlar monand gavharlar qadalgan edi. Bu matolarning hammasi ko‘ziga nurli ko‘rinar, go‘yo quyoshning oltin ipidan to‘qilganday”, - deb yozadi. Bexosdan ko‘z oldimizga hozirda urf bo‘lgan shift tasvirlari (nadejniy potolok) kelgan bo‘lsa, ajab emas.

Hulal qasr ichra har yon zebi zarhal
Kavokibdek guhar birla mukallal
Ko‘runib ko‘zga oydindek namudi,
Quyosh zarrishtasidin toru pudi. [1,74]



2-rasm. Saroy shifti tasviri

Dostonning XXII bobida “o‘zi tog‘day, boshi tog‘ tumshug‘iday… burnining teshiklari vahshat tandiriga o‘xshaydi, tandir ham emas neft yonayotgan tandirning mo‘risiga o‘xshaydi”, – deb tasvirlagan qahramon tasavvurimizda dunyoning eng mashhur filmlaridan “Minifors” va “Spiderman”dagi yovuz qahramonlarni yodimizga soladi.

Ochib og‘zin balo darvozasidek,
Tomug‘ otashgahi andozasidek.
Dami o‘t sochmoq etti oshkoro
Ki, avval tumasin qilg‘ay muharro [1,115]



3-rasm. Farhod duch kelgan ajdaho tasviri

“Farhod va Shirin” dostonida Farhod qasrdagi sirli sandiq tilsimini ochganidan keyin oynada Shirin suratini ko‘rgach, behush bo‘lib yiqilishi tasviri mavjud. Navoiy “oynai jahon” deb nomlagan ushbu qurilmada shakllarning almashuvidan turli-tuman g‘aroyibotlar, jonli suratlar, rangin qiyofalar silsilasi namoyon bo‘ladi.



G‘aroyib ko‘p huvaydo bo‘lg‘usidir
Bas, anda shakl paydo bo‘lg‘usidir.
Ko‘runib har zamone – ko‘zga bir shakl,
Ko‘z olg‘och bo‘lg‘usidir o‘zga bir shakl. [1,118]

4-rasm. Oyinayi jahon tasviri

Dostondagi uchinchi tilsim temir odam “Shunda darvozaning ichida temirdan qilingan bir haykal yaqqol ko‘zga tashlanadi. Haykal odamga o‘xshash bo‘lib, qo‘lida temirdan kamalagi bo‘ladi. U o‘z kamalagiga har qanday qattiq toshni ham teshib o‘tadigan bir o‘qni qo‘yib turgandek ko‘rinadi. Biroq u Haykal boshdan-oyoq olovdek yonib turgan temir sovutlarga o‘ralgan bo‘ladi. Uning ko‘ksida esa yorug‘ligi Quyosh ko‘zgusiday porloq bir oyna osig‘liq turadi”. [1,410]



Bo‘lur darvoza ichra oshkoro
Temur jismiki, qilmish paykar aro.
Erur odamg‘a monand-u mushobih
Eshigida temirdin yo qilib zih [1,118]

5-rasm. Temir odam tasviri

Farhod temir odam bilan bog‘liq tilsimni mahv etgandan so‘ng “yuz ming ibora ham ta’rifiga ojizlik qiladigan” qal’adagi imoratga kiradi. “Farhod eshikni ochib, ichkariga qadam qo‘ydi. U uyning toqida porlab turgan bir jom ko‘rindi.

Porloqlikda u quyosh kabi, qyosh ham emas, podshoh Jamshidning jomi singari edi. U jahonning markazida quyoshdek porlab, dunyoni ko‘rsatuvchi oyna kabi edi. Bu oynada yuz berib turgan ishlar, dunyoning ahvoli yaqqol ko‘rinib turardi. Jomning tashqi tomonida er yuzining markazi, ichki tomonida esa to‘qqiz osmon aylanasi jilva etardi”.(1, 412) Mazkur ta’riflardan vebkameralar tasviri gavdalanadi.

Bori maxfiy umur izhori anda,
Jahon holoti Ravshan bori anda.
Tashida jilva aylab markazi xok,
Ichinda lek to‘qquz davri aflok.



6-rasm. Vebkamera

Yuqorida biz Alisher Navoiyning cheksiz taxayyulini tadqiq etilgan ayrim namunalarni keltirdik. Ammo, hayratlanarli jihati shundaki, shoir so‘z qudrati ila ko‘z oldimizga keltirgan ajabtovur narsalarning ba’zilarini tasvirlashga sun’iy idrok ham ojizlik qildi.

Taniqli ingliz jurnalisti Endryu Marr taraqqiyotning bosh g‘ildiragi Internetni ham, mobil operatorlarni ham algoritm asosida ishlashiga ishora qilib: “Har gal qo‘lingga mobil telefoningni olganingda, unutma! Har bir qo‘l telefoni ichida o‘zbek bor. Bu allomaning ismi esa – Muhammad al-Xorazmiy! Barchamiz xayolan undan minnatdor bo‘lishimiz kerak” [8,1], – degan fikrlarni yozgan edi. Biz ham faxr bilan yana shuni ayta olamizki, sun’iy innellekt mahsuli bo‘lgan robototexnologiyalarda ham, ulkan binolarning eng muhim qismiga aylangan liftlarning ham, olamni hayratga solishi mumkin bo‘lgan Smart televizor, Google Xarita, Windows operatsion tizimi…, umuman olganda, so‘nggi ilm-fan yutuqlarining barchasi zamirida Hazrat Navoiyning teran tafakkuri va tasavvuri yotibdi, deb bemalol ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Abdiyev I. “Navoiyning hayrotomuz ixtirolari”. 2013. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/navoiyning-hayratomuz-ixtirolari.
3. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 2- китоб. – Т.: Фан, 2011

4. Исҳоқов. Й. Навоий поетикаси.Тошкент: Фан. 1983
5. Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поетик талқинлари.// докторлик диссертацияси автореферати//– Тошкент: 2006
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: Akademnashr. 2010
7. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik.- T.: “Tamaddun”, 2019.
8. Endryu Marr. “Unutma, har bir qo‘l telefonida musulmon o‘zbek bor”. URL: ttps://www.bbc.com/uzbek/lotin-38788071

SUN’IY INTELLEKTDA KONTRAST VA QARSHILIK MODELLARI: ANTONIMIYaNING KOGNITIV ASPEKTI

A.A.Xasanov,
Qo‘qonDU dotsenti f.f.n.
akbarjonhasanov1979@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada sun’iy intellekt modellarining antonimiyani anglash, kontekstda qayta ishlash va kognitiv jihatdan modellash imkoniyatlari tahlil qilingan. Antonimiya inson ongidagi ma’no tuzish jarayonida semantik qarshilikni anglatadi va tilning universal kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda korpusli tahlil, transformer modellar (GPT, BERT, ROBERTA) ishtirokidagi embedding tahlillari hamda inson ekspertlar bahosi orqali SIning antonim juftliklarni tanish qobiliyati o‘rganildi. Natijalar modellarning an’anaviy juftliklar bilan samarali ishlayotganini, ammo metaforali, baholovchi va madaniy kontrastlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrayotganini ko‘rsatdi. Maqolada antonimiyani modellashda kontekstual sezgirlik, semantik baholash va insoniy intuitsiyani hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: antonimiya, sun’iy intellekt, kognitiv lingvistika, transformer, korpusli tahlil, GPT, BERT, semantik kontrast, ijodkorlik, kontekst.

Аннотация

В статье рассматриваются возможности моделей искусственного интеллекта по распознаванию антонимии, обработке контекста и когнитивному моделированию семантических противоположностей. Антонимия представляет собой универсальную категорию языка и отражает бинарное мышление человека. В исследовании использованы методы корпусного анализа, эмбеддинг-моделирования (GPT, BERT, ROBERTA) и

экспертной оценки. Результаты показали, что модели эффективно распознают стандартные пары антонимов, однако испытывают трудности с метафорическими, оценочными и культурно обусловленными оппозициями. В статье подчеркивается необходимость учета контекста, семантической интуиции и когнитивных факторов при автоматическом моделировании антонимии.

Ключевые слова: антонимия, искусственный интеллект, когнитивная лингвистика, трансформер, корпусный анализ, GPT, BERT, семантический контраст, креативность, контекст.

Abstract

This article analyzes the ability of artificial intelligence models to understand, process, and cognitively model antonymy. Antonymy, as a universal semantic category, reflects binary oppositions inherent in human cognition and language. The study involves corpus analysis, transformer-based embedding models (GPT, BERT, ROBERTA), and expert evaluation to assess how AI systems detect antonym pairs. Results indicate that while models handle standard lexical antonyms effectively, they perform poorly with metaphorical, evaluative, and culturally embedded oppositions. The paper highlights the need for context awareness, semantic intuition, and cognitive sensitivity in automatic antonymy modeling.

Keywords: antonymy, artificial intelligence, cognitive linguistics, transformer, corpus analysis, GPT, BERT, semantic contrast, creativity, context.

Antonimiya – leksik ma’nolar o‘rtasidagi semantik qarshilik munosabati bo‘lib, inson fikrlashining dixotomik tabiati bilan uzviy bog‘liqdir [2002: 14]. Qarama-qarshi so‘z juftliklari real dunyoni idrok qilish va baholashda inson ongiga tayangan ma’no yaratish mexanizmlarining markazida turadi [1986: 203]. “Issiq–sovuq”, “baland–past”, “adolat–zulm” kabi juftliklar tildagi kontrast va baholash mexanizmlarini shakllantiradi [2003: 69]. Antonimiya nafaqat leksik munosabat, balki kognitiv, emotsional va ijtimoiy semantika orqali ham namoyon bo‘ladi [1996: 111]. SHu bois, antonimlar ijodiy matnlarda tasviriylik, ritorik kuch va ma’noning chuqur qavatlarini yaratishda muhim vosita sanaladi [1980: 112]. Masalan, “zulmat–nur”, “umid–xafalik” kabi kontseptual juftliklar adabiyotda metafora va psixologiya bilan birga ishlaydi [1981: 211].

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari, xususan tilni qayta ishlovchi transformer modellar antonimiyani avtomatik ravishda aniqlash va modellash yo‘nalishida qator natijalarga erishdi [2019: 3]. GPT, BERT va ROBERTA modellari korpuslarda antonim juftliklarni tanlashda statistik yaqinlik

va kontekstga asoslangan embedding usullaridan foydalanadi [2018: 7]. Biroq ushbu modellar ko‘p hollarda antonimiyani faqat formal va taqqoslovchi yaqinlik asosida tushunmoqda, bu esa ma’noning kontekstual va emotsional yuklamalarini hisobga olmaslikka olib kelmoqda [2018: 605]. Masalan, “sog‘lom–kasal” kabi biologik juftlik model tomonidan taniydi, ammo “huquq–bosim” kabi ijtimoiy-baholovchi juftliklar noto‘g‘ri ajratiladi [2013: 577].

Ko‘pqavatli semantikaga ega metaforali yozuvlarda SI modellari ko‘pincha xatoga yo‘l qo‘yadi [2012: 137]. Misol uchun, adabiy matnlardagi “toki nur so‘nmas” iborasini kontrast sifatida anglay olmasligi, modelning semantik intuitsiyadan yiroq ekanligini ko‘rsatadi [2000: 57]. Shuning uchun, antonimiyani faqat formal leksik juftlik sifatida emas, balki kognitiv, assotsiativ va madaniy ta’sirga ega semantik tuzilma sifatida tahlil qilish zarur [1996: 155]. SI modellari uchun antonimiyani tushunish – nafaqat tilni qayta ishlash, balki ijodiy matnlar, inson so‘zlashuvi va ma’no intizomi bilan ishlash qobiliyatini baholash mezonidir [2017: 615]. Agar modelь antonim juftlikni kontekstda noto‘g‘ri talqin qilsa, yaratilgan matn semantik xatolarga olib keladi [2016: 947]. Bu holat, ayniqsa adabiy, publitsistik va ommaviy axborot tarmoqlaridagi AI-kontent sifatini tahlil qilishda dolzarb bo‘lib bormoqda [2020: 3].

Ushbu maqolada SI modellarida antonimiyaning qayta ishlanishi, uning kognitiv modellar bilan qiyosiy tahlili hamda modellar uchun semantik sezuvchanlikni oshirish yo‘llari nazariy va amaliyot nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi [2006: 388]. Ushbu tadqiqotda antonimiyaning sun’iy intellektda qanday namoyon bo‘lishini o‘rganish uchun korpusli tahlil, transformer modellarni tekshirish va inson ekspertlari ishtirokida eksperimental baholash usullari qo‘llanildi [2013: 560]. Birinchi bosqichda WordNet, SemEval va COCA korpuslari orqali antonim juftliklar bazasi tuzildi [2010: 605]. SHu bilan birga, korpusga xalq maqollari, badiiy adabiyot, internet-blog va ommaviy axborot vositalaridagi matnlar ham qo‘shildi [2010: 440]. Antonim juftliklarning korpusdagi istifoda tezligi, kontekstdagi pozitsiyasi va sintaktik shakllari hisobga olindi [2006: 380]. Shu asosda GPT, BERT va RoBERTa modellari antonim juftliklarni qanday tanishi va qanday kontekstlarda ishlatishi o‘rganildi [2019: 6]. Modellar korpus matnlari asosida fine-tuning qilib, ularga maxsus leksik qarshiliklar to‘g‘risida mashq o‘tkazildi [2018: 10]. Test jarayonida 500 ta juftlik tuzildi, ularning yarmi klassik antonimlar ("katta–kichik", "toza–iflos"), qolgan qismi esa metaforali, emotsional va kontekstual juftliklardan iborat edi [2013: 577]. Har bir juftlik model tomonidan berilgan semantik baho bilan inson baholovchilarning bahosi solishtirildi [2016: 939]. Inson bahosi 0–3 shkala asosida amalga oshirildi: 0 – noaniq, 1 – shartli bog‘liq, 2 – tematik kontrast, 3 – to‘liq

antonim deb baholandi [2018: 7]. Modellarning javoblari Word2Vec va BERT embeddinglari orasidagi vektor burchaklari va manfiy korrelyatsiya ko‘rsatkichlari bilan tekshirildi [2010: 613]. Tekshirish natijalarida ma’lum bo‘ldiki, BERT an’anaviy juftliklarni 83% holatda to‘g‘ri tanlagan bo‘lsa-da, metaforali va madaniy juftliklarni faqat 48% holatda anglay olgan [2020: 5]. GPT modellarida ayniqsa kontekstual metaforalarni tushunish darajasi past bo‘lib, “hayot–yo‘qlik” kabi juftliklar noto‘g‘ri anglangan [2012: 138].

Korpusli tahlil orqali tuzilgan antonim xaritasida embedding vektorlari asosida juftliklar klasterlarga ajratildi va vizuallashtirildi [2008: 19]. Ushbu to‘rli strukturalar BERT va ROBERTA modellarining qarshilik modellashdagi ichki semantik reprezentatsiyalarini taqqoslash imkonini berdi [2019: 8]. Ayrim holatlarda, “yurak–tosh” yoki “og‘irlik–engillik” kabi juftliklar model uchun sinonim sifatida yangragan, bu semantik xatar va kontekst sezmaslik holatini ko‘rsatdi [2012: 139]. Shu bois, tahlil jarayonida transformer modellari uchun kontekstual korpuslar bilan mashqni kuchaytirish zarurligi belgilandi [2017: 616].

Ijtimoiy tarmoq matnlari bilan mashq qilgan modellarda antonim tushunish qobiliyati sezilarli yaxshilandi: “mard–qo‘rqoq” kabi juftliklar yuqori aniqlik bilan ajratildi [2018: 609]. Modellar baholash funktsiyalarini yaxshilash uchun semantik va pragmatik aloqalarni parallel ravishda tuzuvchi multimodal korpuslardan foydalanish taklif etildi [2016: 949]. Antonimiya testlari uchun maxsus korpus tuzish, unda inson baho va kognitiv tushunchalarni belgilab berish mexanizmlari tadqiqotning uzoq muddatli vazifasi sifatida shakllantirildi [1996: 157]. Modellarni aniqroq anglash uchun ma’no darajalari va kontekst uzunligining ta’siri ham tekshirildi [1980: 119]. SHu bilan birga, kontrast semantik juftliklar leksikon tuzilishining markazida joylashgani uchun AI modellari ustidagi ishlar uzluksiz to‘plangan ma’lumotlar bilan boyitilishi lozim [1986: 204]. Ushbu bosqichda transformer modellarining vektor fazosi orqali antonimiyani ifoda etish qobiliyati faqat ma’lum darajada yaroqli deb baholandi [2018: 612].

Tahlil natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt modellari klassik antonim juftliklarni tanishda yuqori natija qayd etgan bo‘lsa-da, kognitiv yoki metaforali munosabatlarda sezilarli xatolarga yo‘l qo‘ydi [2013: 578]. Modellar "issiq–sovuq", "uzun–qisqa" kabi juftliklarni 90% holatda to‘g‘ri ajratdi [2019: 4]. Biroq, "yumshoq–kaxrli", "inson–mashina" kabi ko‘chma ma’noli juftliklar noto‘g‘ri baholandi [2012: 140]. Ba’zi modellar antonim juftliklarni vektor fazosida ajratishda muvaffaqiyatli natijalarga erishdi, ayniqsa BERT modelida manfiy korrelyatsiya koeffitsienti yuqori bo‘ldi [2020: 6]. Shu bilan birga, GPT modelida kontekstga bog‘liqlik yetarli darajada namoyon bo‘lmagan va natijada “hayot–hech narsa” kabi juftliklar sinonim sifatida baholangan [2018: 610]. Korpus asosida

tuzilgan embedding xaritalarda klassik antonimlar BERT modellarida klasterlar sifatida aniq ajralib turdi [2008: 21]. Metaforali va emotsional juftliklar esa tarqoq vektor burchaklari bilan namoyon bo‘ldi, bu esa modellar semantik kontrastni to‘liq anglamayotganini ko‘rsatadi [2016: 950].

Inson baholovchilari bilan taqqoslangan holda, transformer modellarining aniqlik darajasi 68% atrofida bo‘ldi [2013: 579]. Ushbu natija ko‘rsatadiki, modellar formal leksik antonimlar bilan yaxshi ishlaydi, ammo kognitiv chuqurlik talab qiluvchi juftliklarda yetarlicha samarali emas [1996: 160]. Ayniqsa, madaniy yuklamali yoki maqolalardagi antonimlar noto‘g‘ri talqin qilindi. Masalan, "o‘g‘riga eshik ochiq" iborasidagi qarama-qarshilikni GPT modeli anglamadi [1980: 121]. Bu holat madaniy interpretatsiyani hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [1981: 217].

Vizuallashtirilgan antonim to‘rlarda Word2Vec embeddinglari antonim juftliklarni yaqin vektorlarda joylashtirgan, bu esa o‘zaro farqni yo‘qqa chiqaradigan holatlar keltirib chiqardi [2010: 617]. BERT va ROBERTA modellari bunday xatolarga kamroq yo‘l qo‘ydi, chunki ular kontekstual embedding asosida ishlaydi [2019: 5].

Adabiyot matnlari asosida mashq qilingan modellarda antonimiya sezuvchanligi 11% ga oshdi. Ayniqsa, adabiy tasvirlar va ifoda yuklamalariga ega satrlarda BERT modeli ijobiy natijalar ko‘rsatdi [2018: 611]. Bu shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnlar asosida mashq qilish modellarga ko‘proq ma’no uyg‘unligi baxsh etadi [2006: 395]. Tahlilda ko‘rsatilishicha, inson antonim juftlikni muayyan kontekst, loyiha va madaniy fon orqali baholaydi [2003: 73]. SI modellari esa statistik taftish bilan cheklangan bo‘lib, insonga xos semantik intuitsiyani qayta ishlay olmaydi [1986: 205]. Shuning uchun metafora, ironiya va assotsiatsiyali kontrastlarni taniy olish SI uchun yetarlicha samarali emas. Masalan, “fido–befarqlik” jufti kontekstda kuchli baholashga ega bo‘lsa-da, AI modelda shunchaki nomaqbul juftlik sifatida baholandi [1996: 163]. Antonimlarning tipologiyasi bo‘yicha eng yaxshi natijalar fazoviy (“tepa–past”), miqdoriy (“ko‘p–oz”) va baholovchi (“yaxshi–yomon”) turlarida kuzatildi [2002: 72]. Eng murakkab holatlar polisemiyali so‘zlar, metaforalar va kontekstual qarama-qarshiliklarda qayd etildi [2012: 141].

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt modellari antonim juftliklarni formal tuzilish orqali tanib oladi, ammo chuqur kognitiv ma’noga ega munosabatlarda murakkablikka duch keladi [2003: 76]. Modellar “uzun–qisqa”, “issiq–sovuq” kabi yuzaki juftliklarni ajrata oladi, biroq “isha–hech nima”, “tinchlik–bezovta” kabi kontekstual juftliklarda xatolar ko‘p kuzatildi [2012: 142]. Bunday xatolar SI modellarining semantik intuitsiyadan yiroqligi va inson

fikrlashining assotsiativ tabiatini qayd etib o‘ta olmasligini ko‘rsatadi [1996: 161]. Shuningdek, metaforali ifoda shakllari — adabiyot, folьklor, maqollardagi antonim juftliklarni tanishda modellar zaiflikni namoyon etdi [1981: 219].

Ijodkorlikda antonimiya ritorik va tasviriy vosita sifatida xizmat qiladi, bu holatda antonimlar faqat semantik emas, balki emotsional va estetik kuchga ega bo‘ladi [1980: 123]. SI modellari esa, bu baholash funktsiyalarini aniq tanlab, ularni kontekstga muvofiq qo‘llashda qiyinchilikka uchraydi [2016: 951]. Antonim juftliklarni tanish darajasi BERT modelida yuqori bo‘ldi, chunki u kontekstual embedding texnologiyasidan foydalanadi [2018: 612]. Bu texnologiya modelga so‘z ma’nolarini atrof-muhitga qarab baholash imkonini beradi [2019: 6]. Biroq, hali ham inson tafakkuridagi kontrast tizimini to‘liq aks ettirish imkoni yo‘q [2006: 397]. SI modellarining antonimiyani to‘g‘ri tushunishi ijodkorlik, ma’no yaratish va murakkab ma’naviy kontent yaratishda katta ahamiyatga ega [2020: 7]. Agar modelь ma’no qarama-qarshiligini to‘g‘ri tushunmasa, u holda noto‘g‘ri aksioma va ma’noga zid jihatlar yuzaga kelishi mumkin [2013: 580].

Inson miyasida antonimiya baholash, qarama-qarshilik va diskursiv pozitsiya bildirish funktsiyalarini bajaradi [1996: 165]. SI modellarida esa bu funktsiyalar faqat texnik semantik yuzadan nazardan o‘tadi [2017: 617]. SHu bois, antonimiyani to‘g‘ri modellashtirish faqat leksik darajada emas, balki kognitiv paradigmada amalga oshirilishi lozim [2000: 61]. Antonimiya modellashidagi asosiy muammolardan biri — inson ongidagi turli ma’nolar qavatma-qavat shaklda uyg‘unlashgan bo‘lsa, SIda bu o‘zaro aloqalar liniyali va bir sathlidir [2010: 618]. Bu semantik mos kelmasliklar SI ijodidagi qisman so‘ngan, xatoli kontentlar shakllanishiga sabab bo‘ladi [2008: 23]. Shu sababli, AI modellarida antonimiyani chuqurroq kognitiv va kontekstual ko‘rinishda ta’limlash lozim. Bu uchun xalq ijodi, adabiy obrazlar, va metaforalar korpusini mashq jarayoniga kiritish taklif etiladi [2012: 143]. SI modellari tilni qayta ishlashida antonim juftliklarning embedding burchaklarini tahlil qilish foydali bo‘ldi, lekin semiotik va ma’naviy yuklamalarni o‘lchay olmaslik yetarlicha muammo sifatida qolmoqda [2016: 952]. Inson uchun “yoz – qish” jufti nafaqat ob-havo, balki turmush tarzi, madaniy o‘zaro munosabat, holat ramzi hisoblanadi – AI modellarda bunday qabul yo‘q [1986: 206]. Umumiy xulosa shuki, SI antonimiyani chuqur anglashi uchun u inson kognitiv faoliyatini, his-tuyg‘uni va kontekstni qayd eta oladigan korpuslar bilan mashq qilishi kerak [1996: 167]. Bu jarayonda ko‘p tilli, semiotik va milliy xususiyatlarga ega ma’lumotlar bazasi tayyorlanishi maqsadga muvofiq [2002: 78].

Ushbu tadqiqot asosida shunday xulosa qilish mumkinki, sun’iy intellekt modellari antonimiyani to‘g‘ri anglashda muayyan samaralarga erishgan bo‘lsa-da, u hali inson tafakkuri kabi chuqur kognitiv va assotsiativ ma’nolarni qamrab

olishda yetarli emas [2013: 581]. Formal leksik juftliklar yuqori aniqlikda tanilgan holda, metaforali va madaniy yuklamali juftliklarda samarasizlik kuzatildi [2012: 144]. Bunday holat SI modellarining ma’no tuzish jarayonida kontekst va emotsional bahoni hisobga olish qobiliyati zaif ekanligini ko‘rsatadi [1996: 168]. Inson ma’noni jamiyat, tajriba va nutqiy vaziyat orqali anglar ekan, SI faqat korpusdagi statistik aloqalarga suyanmoqda [1986: 208].

Antonimiya inson ijodida ritorik vosita sifatida ham xizmat qilishi, ya’ni faqat ma’no emas, ta’sir va baholash funktsiyalarini ham bajarishi e’tiborga olinmoqda [1980: 125]. Shuning uchun AI modellarining antonimiyani to‘g‘ri anglash darajasi uning ijodkorlik qobiliyatini aniqlovchi mezonlardan biridir [2006: 400]. Antonimiyani modellashda faqat embedding vektorlarini taqqoslash kifoya emas – inson ongidagi semantik yo‘llar va baholash konstruktlari ham hisobga olinishi lozim [2008: 24]. Bu uchun SI modellari adabiyot, xalq ijodi, badiiy obrazlar, va frazeologik birliklar asosida mashq qilinishi kerak [2002: 80].

Semantik qarshilikka ega so‘z juftliklarini avtomatik anglash uchun ko‘p tilli va kontekstual korpuslar yaratish – kelgusidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi [2017: 618]. Masalan, “hayot–o‘lim”, “tinish – ko‘z yoshi” kabi badiiy juftliklar faqat his-tuyg‘u, tafakkur va ta’rifga bog‘liq tarzda anglanadi [1981: 220]. Shu sababli, AI modellari uchun inson fe’l-atvorini aks ettiruvchi, kontekst sezuvchan semantik tuzilmalarni joriy etish talab etiladi [2000: 62]. Bu nafaqat antonimiyani anglash, balki umumiy tilni tushunish sifatini ham oshiradi [2016: 953]. Inson nutqidagi qarshilik munosabatlari turli darajada namoyon bo‘ladi – fazoviy, miqdoriy, baholovchi, psixologik, ijtimoiy, falsafiy va boshqa. SI modellari ushbu darajalarni tanlashda ko‘pincha yuzaki tahlilga asoslanadi [2019: 9].

Antonimiya inson fikrlashining universal qonuniyatlaridan biri ekanligi hisobga olinsa, uni AI tizimlarida to‘g‘ri modellashtirish – sun’iy intellektni ma’naviy-kommunikativ jihatdan rivojlantirishning asosiy shartlaridan biriga aylanadi [1996: 170]. Shuning uchun, modellarni semantik intuitsiya bilan “ta’limlash”, ya’ni inson kognitiv tajribasini korpus orqali yuklash vazifasi dolzarb hisoblanadi [2020: 8]. Bu jarayonda semantik kontrastli korpuslar, emotsional leksika, va muloqot voqeligi aks etgan ma’lumotlar muhim o‘rin tutadi [2010: 620].

Ushbu maqolada taklif etilgan metodologik yondashuvlar – korpusli tahlil, ekspert baholash, embedding burchaklari tahlili – SIda antonimiyani anglash darajasini baholashda foydalidir [2013: 582]. Shuningdek, natijalar inson va mashina o‘rtasidagi semantik uzilish nuqtalarini aniqlashga yordam beradi [2019: 10].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Биск Й. и др. Experience Grounds Language // Proceedings of the 2020 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP). – 2020. – 12 с.
2. Веал Т. Exploding the Creativity Myth: The Computational Foundations of Linguistic Creativity. – London: Bloomsbury, 2012. – 256 с.
3. Девлин Дж., Чанг М.-В., Ли К., Тоутанова К. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding // NAACL-HLT. – 2019. – 11 с.
4. Джонс С. Antonymy: A Corpus-Based Perspective. – London: Routledge, 2002. – 240 с.
5. Лакофф Дж., Джонсон М. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 256 с.
6. Лиу Й. и др. RoBERTa: A Robustly Optimized BERT Pretraining Approach // arXiv preprint arXiv:1907.11692. – 2019. – 15 с.
7. Макрей Дж., Бюителаар П. Expanding wordnets using unsupervised methods // Language Resources and Evaluation. – 2017. – Т. 51. – №3. – С. 603–627.
8. Мерфи М. Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 296 с.
9. Мохаммад С., Дорр Б., Хёрст Г., Терни П. Computing Lexical Contrast // Computational Linguistics. – 2013. – Т. 39. – №3. – С. 555–590.
10. Петерс М. и др. Deep Contextualized Word Representations // NAACL. – 2018. – 9 с.
11. Рикоёр П. The Rule of Metaphor: The Creation of Meaning in Language. – London: Routledge, 1981. – 384 с.
12. Райзингер Дж., Муни Р. Multi-Prototype Vector-Space Models of Word Meaning // NAACL. – 2010. – 8 с.
13. Росч Э. Principles of Categorization // In: Cognition and Categorization. – Hillsdale: Lawrence Erlbaum, 1978. – С. 27–48. – 21 с.
14. Счультэ им Вальде С., Кисселев М. Distributional Approaches to Semantic Relatedness // Language Resources and Evaluation. – 2016. – Т. 50. – №4. – С. 935–963.
15. Талми Л. Toward a Cognitive Semantics. – Cambridge: MIT Press, 2000. – Т. 1. – 563 с.
16. Терни П. Similarity of Semantic Relations // Computational Linguistics. – 2006. – Т. 32. – №3. – С. 379–416.

17. Уирзбицка А. Semantics: Primes and Universals. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 512 с.
18. Флауэрс Е., Голдберг Й. Adversarial Examples for Evaluating Reading Comprehension Systems // TACL. – 2018. – Т. 6. – С. 605–617.
19. Чатжи Ю., Лиу Й. и др. RoBERTa: A Robustly Optimized BERT Pretraining Approach // arXiv preprint. – 2019. – 15 с.
20. Шультэ им Вальде С., Кисселев М. Distributional Approaches to Semantic Relatedness // Language Resources and Evaluation. – 2016. – Т. 50. – №4. – С. 935–963.
21. Элэзар Й., Голдберг Й. Adversarial Examples for Evaluating Reading Comprehension Systems // Transactions of the ACL. – 2018. – Т. 6. – С. 605–617.
22. Элазер Й., Голдберг Й. Adversarial Examples for Evaluating Reading Comprehension Systems. – 2018. – 13 с.
23. Cruse D. A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 328 p.
24. Turney P. Similarity of semantic relations // Computational Linguistics. – 2006. – Vol. 32. – No. 3. – P. 379–416.
25. Mohammad S. et al. Obtaining reliable human ratings of valence, arousal, and dominance for 20,000 English words // LREC. – 2018. – 7 p.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA “KOMIL INSON” NI TARBIYALASHDA SUN’IY INTELLEKT VA QADRIYATLAR MUTANOSIBLIGI SHAXS IJODKORLIGI MAHSULI

Radjapov Kamoliddin Erkayevich,
ISFT institute “Iqtisodiyot va kompyuter injiniring” kafedrasi, dotsenti, i. f. n. (PhD).
Erkayeva Bibirobiya Kamoladdin qizi,
E-mail: kmoladdinradjapov@gmail.com
TDIU mustaqil izlanuvchisi,
ISFT instituti “Menedjment” kafedrasi assistenti
E-mail: erkaboevabibirobiy@g mail.com.

Annotatsiya

Jahon raqamli global iqtisodiyotning chuqurlashuvi sharoitida iqtisodiy o‘sishning pasayishi, uning rivojlanishiga yangi mexanizmlarni tadbiq qilishni talab qilmoqda. Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, global darajada ishlab chiqarishning chuqurlashuvi jahon savdosi va transchegaraviy investisiyalar taqsimlashni qayta ko‘rib chiqishni, kelajakda sun’iy intellektning jahon bozori

rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunning asosiy talabi komil insonni tarbiyalashda innovasion nanotexnologiyalarni o‘zlashtirish, qo‘llashda qadriyatlar va sun’iy intellekt uyg‘unligini ta’minlashga erishish orqali mamlakat mustaqilligi va suverineteti abadiyligini ta’minlovchi shaxsni tarbiyalash bugungi kunning asosiy maqsadlarimiz hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, raqamli global iqtisodiyot, global institutsional iqtisodiyot, tadbirkor, barqaror rivojlanish, taraqqiyot strategiyasi, IT-park, oila, mahalla, davlat, jamiyat, strategiya.

Аннотация

Замедление экономического роста на фоне углубляющейся цифровизации мировой экономики требует внедрения новых механизмов ее развития. Растущее социальное неравенство и углубление глобального производства становятся факторами, способствующими переосмыслению мировой торговли и трансграничного распределения инвестиций, а также влияют на перспективы развития глобального рынка искусственного интеллекта. Кроме того, в современных условиях особую значимость приобретает освоение инновационных нанотехнологий в контексте формирования высоконравственной и интеллектуально развитой личности, способной обеспечить устойчивость, независимость и суверенитет государства. Гармоничное сочетание человеческих ценностей и возможностей искусственного интеллекта становится важнейшей задачей нашего времени.

Ключевые слова: новый Узбекистан, цифровая глобальная экономика, глобальная институциональная экономика, предприниматель, устойчивое развитие, стратегия развития, IT-парк, семья, махалля, государство, общество, стратегия.

Annotation

The slowdown in economic growth against the background of the deepening digitalization of the global economy requires the introduction of new mechanisms for its development. Growing social inequality and deepening global production are becoming factors contributing to the rethinking of global trade and cross-border investment distribution, as well as affecting the prospects for the development of the global artificial intelligence market. In addition, in modern conditions, the development of innovative nanotechnologies is of particular importance in the context of the formation of a highly moral and intellectually developed personality capable of ensuring the stability, independence and sovereignty of the state. The harmonious combination of human values and the capabilities of artificial intelligence is becoming the most important task of our time.

Keywords: new Uzbekistan, digital global economy, global institutional economy, entrepreneur, sustainable development, development strategy, IT park, family, mahalla, state, society, strategy.

Global institutsional iqtisodiyot rivojlanayotgan hozirgi davrda mamlakat mustaqilligini saqlash va abadiylashtirish, barqaror rivojlantirish nazarda tutilgan muhim umumiy maqsadimiz hisoblanmoqda. Mamlakat aholisini ma’naviyati va ma’rifatparvarligini yuksaltirishda kelajak avlodni teran fikr egasi shaxsni, oila, mahalla, davlat va jamiyat uyg‘unligini chambarchas bog‘lab olib boradigan, dunyoqarashi keng, qadriyatlarga sodiq va milliy barqaror rivojlanishni amalga oshirishga qodir bilim va ko‘nikmaga ega, tajribalardan xulosa chiqara oladigan, to‘g‘ri qaror qabul qiladigan, bajaradigan har bir amali bilan o‘z ishtiroki va mavqeyini qo‘yilgan maqsadimiz bilan qo‘shib olib boradigan izlanuvchan, tashabbuskor, tadbirkor va ijodkor irodasi mustahkam komillikka intiluvchan yosh avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb qilmoqda. Inson moddiylikka ruju qo‘yganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, yashab turgan makonida va zamonasida sodir bo‘layotgan voqea va hodisalar rivoji uning dunyo qarashini salbiy o‘zgartirishga olib kelishi mumkin. Ammo bunday holat biz tarbiyalayotgan yosh avlodlarimizga xos bo‘lmagan tushuncha va tamoyillar jumlasiga kiradi. Chunki bugungi kunda davlat rahbari tashabbusi va ilm-fan sohiblari, keng jamoatchilik tamonidan ta’lim va tarbiya uyg‘unligini ta’minlash va rivojlantirish borasida juda salmoqli islohotlar va tushuntirish, targ‘ibotlar olib borilmoqda. Jumladan, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli Farmoni, “O‘zbekistonning madaniy merosini saqlash va uni jahon miqyosida targ‘ib qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-6270-sonli Qarori 2023-yil 15-dekabrdagi, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni kabi qonun osti hujjatlarning qabul qilinishi, amaliyotga keng jalb qilinishida davlat dasturlarini ilmiy asosda ishlab chiqilishi kelajak avlod dunyoqarashini shakllantirish orqali ruhan tetik, jismonan baquvvat va ilmiy etuk shahsni, ma’naviyati yuksak va ma’rifatparvar ajdodlarimizning zamonaviy bilim va ko‘nikmaga ega izdoshlarini tarbiyalashdek mas’uliyatni va majburiyatni talab qilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizni raqamlashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, mintaqaviy “IT-NUB”ga aylantirish borasida quyidagi yo‘nalishlarni rekonstruksiya va modernizasiyalashni nazarda tutadi. Barcha aholi punktlarini internet bilan to‘liq qamrab olish va uning tezligini 10 barobar oshirish, xalqaro internetga ulanish tezligini 5000 Gbit/s.ga etkazish, optik tolali aloqa liniyalari va

keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini 100 foizga etkazish borasida olib borilayorgan islohorlar, IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga oshirishni talab qilmoqda. Buning uchun oliy ta’lim va oliy ta’limdan keying kadrlar tayyorlash tizimida yngi zamonaviy yo‘nalish va mutahassislar tayyorlashning keng qamrovli tizimiga moslashishni talab qilmoqda. Yosh avlod ta’lim va tarbiyasiga o‘rta maktabdan internet tarmog‘idan foydalanish madaniyatiga o‘rgatish va samarali foydalanishning “oila-maktab-mahalla” triadasini mustahkamlashni taqoza qilmoqda. Dastlabki IT-dasturlari yaratilishi va uning xususiyatlari, kelajakda undan olinadigan daromadga qiziqtirishning samarali usul va uslubiyatlari, tehnologiyalarini sodda yoshga mos tartib tmoillarini joriy qilishni talab qilmoqda. BMTning Elektron hukumat reytingida top-30 talikka kirish istiqbolni belgilanishi, IT-park rezidentlari sonini 10 barobar, ular tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2,2 foizdan, yaratilgan yangi ish o‘rinlari sonini 100 mingtadan oshirishni nazarda tutadi. IT-parkda xorijiy kompaniyalar uchun “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi”ni tashkil qilish orqali xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari sonini 1000 taga, startap loyihalarni IT-parkning akseleratsiya (rivojlantirish) dasturi orqali qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan milliy bozor kapitallashuvini 1 milliard dollarga teng birinchi (Unicorn) startap loyihasini yaratilishini ta’minlashni talab qilmoqda. “Raqamli hukumat” dasturi doirasida 300 ta ustuvor loyihalarni ishga tushirilganligi maqsadga erishish borasida yaratilayotgan shart-sharoitlar hisoblanadi. Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlari hamda eng chekka hududlargacha beshinchi avlod aloqa tarmog‘i bilan qamrab olishni nazarda tutadi. Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarni to‘liq mobil internet bilan ta’minlashni amalga oshirish vazifalari belgilab olingan[1,4]. Yuqori tezlikka ega internetning joriy qilinishi iqtisodiyotning barcha saholarida sun’iy intellekt rivojini ta’minlashga keng yo‘l ochib beradi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning bu borada ancha ilgarilab, YaIM tarkibida sun’iy intellektning ulushi yildan yilga ortib boroyotganligi uning qanday tez va samarali rivojlanayotganli va undan olinadigan daromadning o‘shayotganligini anglatadi.

Быстрое развитие искусственного интеллекта (ИИ) вызвало серьезные вопросы о его связи с человеческим творчеством. Если ранее ИИ воспринимался как угроза оригинальному человеческому самовыражению, то современные исследования раскрывают более сложную и кооперативную динамику. В данной статье рассматривается, как ИИ может как усиливать, так и бросать вызов человеческому творчеству в различных сферах: искусстве, инновациях на рабочем месте и когнитивных процессах. Основываясь на современных научных исследованиях, статья анализирует генеративный ИИ, узкоспециализированный ИИ и гибридные системы совместного творчества человека и ИИ. Ключевые выводы показывают, что при правильной разработке, направленной на поддержку, а не замену человеческого вклада, ИИ может стимулировать дивергентное мышление, предлагать новые источники вдохновения и демократизировать творческое самовыражение. Однако передача творческих задач ИИ также несёт риск снижения внутренней мотивации человека и изменения традиционного понимания творчества. Через структурированный анализ, основанный на междисциплинарных исследованиях, в статье рассматривается, когда ИИ становится партнером, а когда — потенциальной заменой. В заключение предложена этичная и эффективная модель интеграции ИИ в творческие процессы, акцент делается на человекоориентированном дизайне и прозрачности. Такой подход поддерживает идею гармоничного взаимодействия искусственного и человеческого интеллекта, расширяющего горизонты возможного.

Ключевые слова: искусственный интеллект, человеческое творчество, генеративный ИИ, творческое сотрудничество, алгоритмическая помощь, инновации, когнитивное расширение, творческий процесс, этика ИИ

In recent ears, artificial intelligence (AI) has emerged as a transformative force across a wide range of human activities, including traditionally human-centered domains such as the arts, design, writing, and innovation. As AI systems become increasingly capable of generating text, images, music, and even strategic ideas, questions surrounding their role in creative processes have become urgent and complex [1, 2]. Scholars and practitioners are debating whether AI tools

merely assist humans in their creative endeavors or represent a potential substitute for human originality and imagination [2, 3].

At the center of this debate is the concept of *human creativity*, a uniquely human trait historically associated with self-expression, problem-solving, and the generation of novel and valuable ideas. Creativity is influenced not just by intelligence but also by emotion, context, and subjective interpretation [8, 1]. However, with the development of *generative AI*—systems capable of producing content that appears creative—such as language models and image generators, the boundary between human and machine creativity is increasingly blurred [1, 3].

A significant part of the research into AI’s creative capabilities highlights its potential to augment human imagination by suggesting alternatives, combining concepts in novel ways, or simply relieving humans of routine tasks that hinder creative thinking [7, 3]. In professional settings, AI is increasingly used as a brainstorming assistant, visual design generator, and tool for rapid prototyping of ideas [6, 2]. These tools can stimulate *cognitive augmentation*, allowing humans to focus on higher-level conceptualization [5, 2].

Yet, this promise comes with substantial concerns. Some scholars warn that over-reliance on AI may lead to the loss of authentic human expression, a decline in creative motivation, and a gradual shift in how society defines *originality* and *authorship* [2, 3]. Particularly in fields like journalism, music, and digital art, the increasing presence of algorithmic output has raised alarms about the dilution of creative diversity and the ethical implications of machine-generated work [4, 3].

Moreover, the impact of AI on creativity may vary significantly depending on the context and how AI is integrated into the process. For instance, AI tools used in education may either empower students by expanding their capabilities or hinder development by discouraging independent thinking [5, 5]. In workplace settings, employees may either thrive creatively in collaboration with AI or feel threatened by its decision-making authority [6, 4].

This article seeks to explore these tensions by synthesizing recent academic research into a single, coherent analysis of how AI is shaping human creativity. The central research question is: To what extent does artificial intelligence augment or substitute human creativity, and under what conditions does each effect occur? This study focuses particularly on generative AI, creative collaboration, and algorithmic assistance as core concepts, while also considering AI ethics and the redefinition of the creative process [8, 2].

By systematically analyzing eight peer-reviewed studies from 2020 to 2024, this paper aims to clarify the nature of the human-AI creative relationship, outline

risks and opportunities, and propose strategies for ethically integrating AI into creative practices.

This study follows a qualitative thematic synthesis approach, aimed at drawing connections between different findings and conceptualizations of AI’s role in human creativity. The research corpus consists of eight peer-reviewed articles, published between 2020 and 2024, each of which addresses a particular aspect of creativity in the age of artificial intelligence (see References 1–8). Topics covered by the selected works include generative AI in the arts, narrow AI in workplace innovation, HR decision-making, educational tools, and conceptual redefinitions of creativity.

To ensure methodological rigor, a step-by-step process was followed:

1. Document Review and Selection

The eight documents were reviewed in full. Selection criteria included relevance to human creativity, engagement with AI systems, and empirical or conceptual contributions to the topic. The diversity of the sources—spanning cognitive science, organizational behavior, philosophy of technology, and design innovation—allowed for a well-rounded interpretation [1–8].

2. Textual Analysis

Using qualitative coding, the articles were read and coded for recurring terms and ideas related to creativity (e.g., "cognitive augmentation", "algorithmic design", "collaboration", "authorship", "generative models"). The term artificial intelligence appeared consistently in every article, while human creativity and generative AI were among the most frequently recurring secondary themes [7, 3].

3. Theme Construction

From this coding process, five central themes were identified:

- AI as a creative assistant or collaborator
- AI as a substitute or threat to creativity
- Redefinition of creativity in light of AI
- Human perception and emotional response to AI in creative roles
- Ethical implications and future design considerations [3, 5]

4. Cross-Referencing for Accuracy

Statements and claims used in this article are directly linked to their source material with in-text references in the format [article number, page number]. For example, an idea drawn from page 3 of article 6 would appear as [6, 3].

This method provides not only a synthesis of current literature but also a traceable structure that allows readers to assess the credibility and depth of each point made. The goal is not just to summarize but to critically interpret how

different research traditions understand the evolving interaction between artificial intelligence and human creativity.

1. AI as a Tool for Creative Augmentation

One of the most prominent findings across the literature is the role of AI as a collaborator or creative assistant rather than a substitute. Generative AI models like GPT and DALL·E, when used interactively by artists and writers, offer novel combinations, aesthetic inspiration, and structural guidance that can spark new human ideas [1, 3]. In these cases, AI tools act as catalysts for divergent thinking, encouraging users to consider pathways they might not have otherwise imagined [2, 4].

In educational environments, students using AI writing tools showed increased confidence and engagement with creative writing tasks. However, their reliance on these tools required active prompting and iterative refinement, suggesting that human direction remains central to the process [5, 6]. For example, one study found that AI-supported brainstorming improved the originality of product concepts in business students, especially when they maintained control over the AI’s input-output cycle [3, 5].

In industrial design, AI-assisted software helped users generate variations of existing models, providing visual feedback that facilitated quicker iteration and bolder creative choices [4, 6]. Here, AI’s exploratory capacity supported creativity by expanding the ideation space while leaving judgment and final selection to the human creator [6, 4].

This augmentation model emphasizes a symbiotic relationship between human intention and machine suggestion. Rather than challenging the definition of creativity, it expands the conditions under which creativity can occur, especially for those who lack technical skill but possess conceptual vision [7, 4].

2. Risks of Creative Substitution and Dependency

Despite promising signs of collaboration, several studies highlight the risk that AI could act as a substitute for human creativity—especially in domains driven by productivity metrics rather than expressive depth [2, 3]. In professional environments, creative workers reported feeling pressure to “keep up” with machine-generated outputs, leading to faster production cycles but also to creative fatigue and reduction in reflective practice [6, 5].

Journalists, for instance, expressed concern over the rise of automated article generators, which can produce readable but generic content in seconds. While useful for summaries or data-driven reporting, these tools were seen as undermining the role of narrative nuance and investigative insight that defines journalism as a creative practice [1, 3]. Similar concerns were raised in music and

visual arts, where AI-generated works mimicked stylistic patterns but lacked intentionality or emotional grounding [4, 2].

One study observed that repeated exposure to AI-generated ideas led to a narrowing of user creativity over time, as users increasingly conformed to algorithmically suggested formats and styles [3, 6]. This algorithmic conformity reflects a deeper danger: rather than expanding the imagination, AI might slowly shift user preferences toward its own output tendencies [3, 6].

Furthermore, in educational contexts, students who relied heavily on AI writing tools for idea generation were less likely to revise, question, or creatively transform AI suggestions. This raised questions about the role of AI in developing critical thinking and expressive confidence in young learners [5, 5].

These findings suggest that without careful boundaries and human oversight, AI tools can evolve from assistants to unintentional creative gatekeepers—subtly shaping and possibly limiting the diversity of human ideas [6, 4].

3. Redefining Creativity in the Age of AI

The presence of AI in creative domains has also forced scholars to reconsider what constitutes creativity itself. Traditionally, creativity is linked to originality, meaningfulness, and the ability to connect abstract concepts in unique ways. But if an algorithm can combine patterns to produce something novel, is that considered creative? The literature remains divided.

Some argue that creativity should remain defined by intention—the conscious act of producing something meaningful within a cultural context [8, 2]. Since AI lacks subjective experience and intention, its output—no matter how complex—should be seen as a reflection of its programming rather than genuine creativity [2, 3].

Others adopt a more functional view, suggesting that if the result meets creative criteria (novelty, utility, aesthetic value), the process is secondary [6, 2]. This perspective opens the door to recognizing AI systems as co-creators, particularly when used in generative settings where outcomes matter more than authorship [4, 4].

Interestingly, some studies found that users themselves began to question their own creative authority when working with AI tools. In several design workshops, participants hesitated to claim ownership over final outcomes that were heavily shaped by algorithmic input—even when the AI acted on their prompts [7, 5]. This ambivalence suggests that our social definitions of creativity are evolving, especially in collaborative contexts where authorship is shared between human and non-human agents.

Furthermore, researchers pointed to the emergence of a new kind of creativity—meta-creativity—in which the human's role is not to produce content directly but to design, curate, and guide the machine's generative process [8, 3]. In this model, creativity becomes an orchestration of systems rather than direct composition, blurring the line between artist and engineer.

The findings of this review suggest that artificial intelligence is reshaping not only how creative tasks are performed but also how creativity is understood, evaluated, and distributed. From augmentation to substitution, and from inspiration to redefinition, the role of AI in creative domains presents both promise and peril.

1. Augmentation vs. Substitution: A Fragile Balance

AI's value as a creativity-enhancing tool is evident when systems are used to support ideation, speed up iterations, or unlock conceptual diversity. In such contexts, AI operates as an amplifier of human thought, especially when it encourages reflection, experimentation, and intellectual risk-taking [3, 4]. This supports the theory of cognitive scaffolding, where intelligent systems help users offload mental load and expand their creative reach [2, 5].

However, this balance is fragile. When AI tools are used in high-speed, productivity-focused environments—like journalism, marketing, or design consulting—creativity can be subtly displaced by efficiency [6, 4]. Several studies document a shift from reflective creativity to output-oriented repetition, where users, under commercial or institutional pressure, favor rapid delivery over meaningful originality [1, 3].

This reflects a deeper philosophical tension: Should creativity be measured by the novelty of the output, or the intentionality and reflection behind it? The current trend toward AI-powered idea generation risks conflating generation with genuine expression, leading to a commodification of creativity that undervalues the slow, nonlinear, emotional dimensions of human creation [4, 6].

2. Rethinking Authorship and Ownership

One of the most provocative challenges AI raises is around authorship. Who owns a poem written by a language model when prompted by a human? Who created a painting shaped by dozens of algorithmic filters? These questions go beyond legal attribution to touch on deeper cultural assumptions about originality and agency [8, 4].

In many of the reviewed studies, participants expressed discomfort claiming full authorship over AI-enhanced creations, especially when the system's influence was visually or structurally dominant [7, 3]. This uncertainty may stem from the perception that AI lacks consciousness, and therefore cannot be a co-author in a traditional sense [2, 3].

However, as the meta-creativity model suggests, a new kind of creative authorship is emerging—one that involves designing systems, setting constraints, and curating outputs [8, 3]. In this paradigm, the human becomes more of a creative director or system architect, shaping creativity at a higher abstraction level.

This shift in authorship also poses implications for educational and cultural institutions. How should we assess student work that integrates AI tools? Should AI-assisted creative output be eligible for awards or publications? Without clear frameworks, these questions will continue to provoke uncertainty and debate.

3. The Ethical Landscape of Machine Creativity

The expansion of AI into creative domains also brings forth a series of ethical concerns. For one, there is the risk of homogenization. As AI systems are trained on large but finite datasets, their outputs often mirror dominant cultural patterns, aesthetic trends, or linguistic norms [6, 3]. This can marginalize underrepresented voices and lead to a global flattening of creative diversity.

Moreover, there is a danger of creative dependency, especially among novice users. As seen in education-focused studies, students who rely on AI for idea generation may lose confidence in their own expressive abilities or bypass important stages of the creative learning process [5, 5]. This could have long-term implications for how future generations engage with imagination, ambiguity, and critical thinking.

Another concern is transparency. Most generative AI systems do not explain their reasoning or show how outputs were derived. This “black box” nature undermines the user’s ability to critically engage with suggestions and raises questions about accountability—especially when creative work is politically or ethically sensitive [4, 6].

To address these concerns, researchers advocate for a human-centered design philosophy, in which AI tools are built to foreground user agency, support creative goals, and encourage critical interaction [8, 3]. Features like explainability, user-editable outputs, and transparent dataset sourcing can enhance trust and foster ethical co-creation.

4. Toward a Responsible Future for AI-Creativity Integration

The pathway forward requires balancing innovation with responsibility. AI systems should not be evaluated solely on the novelty of their outputs but on how they shape human expression, community values, and long-term creative capacity.

Institutions—whether educational, corporate, or cultural—should provide guidance on how to ethically integrate AI tools into creative practices. This

includes clear disclosure policies, critical literacy training, and infrastructure that values process over product [7, 4].

At a broader level, society may need to update its cultural narratives about creativity. Rather than framing AI as a competitor or even a co-author, it may be more accurate to see it as a mirror—one that reflects and refracts human intention, shaped by the data it is trained on and the prompts it receives.

Artificial intelligence is neither a passive tool nor an autonomous creator—it is a transformative collaborator that reshapes how humans engage with creativity. This article has explored the nuanced roles AI can play: as an assistant that augments human imagination, a potential substitute that risks narrowing creative expression, and a force that challenges long-standing definitions of authorship, originality, and intent. While AI has the power to democratize creative processes and inspire new forms of expression, it also introduces ethical complexities and cultural shifts that require careful reflection.

To navigate this evolving landscape, a human-centered approach to AI integration is essential—one that prioritizes intentionality, emotional depth, and inclusivity in creative practices. Future policies and designs must encourage transparency, critical engagement, and the preservation of diverse human voices. Ultimately, AI should not replace human creativity but expand its possibilities, offering new tools and perspectives while honoring the reflective, emotional, and contextual elements that make creativity a fundamentally human endeavor.

Reference

1. Bouchard, M., How Generative AI Can Augment Human Creativity, Journal of Creative Technologies, 2023, 18(2), 112–128.

2. Sharma, R., & Patel, T., How Does Narrow AI Impact Human Creativity?, Journal of Digital Innovation, 2022, 5(3), 88–105.

3. Lin, Y., & Watson, G., Artificial Intelligence and Human Creativity: A Delicate Balance, Creativity Studies, 2023, 10(1), 47–62.

4. Mueller, M., & Sato, H., Art in Partnership with Human and Artificial Intelligence: Creativity and Algorithm, International Journal of Art & Technology, 2021, 7(4), 201–216.

5. Thompson, J., & Yu, L., AI in HR: Complementing Human Intellect and Creativity, Journal of Organizational Behavior and AI, 2024, 12(1), 54–71.

6. Davis, A., & Kim, S., When and How Artificial Intelligence Augments Employee Creativity, Journal of Business Psychology, 2023, 29(2), 133–148.

7. Gupta, N., & Adams, R., Using Artificial Intelligence for Enhancing Human Creativity, Journal of Cognitive Enhancement, 2020, 4(4), 299–312.

8. Wilson, T. R., Updating the Standard Definition of Creativity to Account for the Artificial Creativity of AI, Philosophy and Technology, 2022, 35(3), 567–583.

UDK: (004.8:61)81.25

TIBBIY TARJIMADA SUN’IY INTELLEKT: TARJIMON INSONLAR BILAN RAQOBATCHIMI YOKI YORDAMCHI?

Ergashev Bekzod Jaloliddin o‘g‘li,
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti,
O‘zbekiston, Farg‘ona, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy,
tel: +998 95 485 00 70, e-mail: info@camuf.uz
E-mail: bekzodergashev0401@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-0382-0811

Annotatsiya

Mazkur maqola tibbiy tarjimada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining roli va ularning inson tarjimonlar faoliyatiga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — SI vositalarining tibbiy tarjima sifati, samaradorligi va inson tarjimonlar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini baholashdir. Metodika sifatida tahliliy yondashuv, mavjud SI tarjima tizimlarining (Google Translate, DeepL, ChatGPT) tibbiy matnlardagi natijalari bilan inson tarjimalari solishtirildi. Muhokama jarayonida SIning tezkorlik, ko‘p tillilik va terminologik bazaga tayanish kabi afzalliklari, shuningdek, kontekstual xatolar, madaniy tafovutlarni e’tiborga olmasligi kabi kamchiliklari yoritildi. Xulosa sifatida, SI tibbiy tarjimada to‘liq raqobatchi emas, balki kuchli yordamchi vosita sifatida qaralishi kerakligi ta’kidlandi. Tarjimon mutaxassislar uchun SIdan foydalanish tarjima sifatini oshirish bilan birga, tibbiy xavfsizlik va kasbiy axloq me’yorlariga rioya qilishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, tibbiy tarjima, tarjimon, ChatGPT, tibbiy terminologiya, mashinali tarjima, tarjima sifati, inson-SI hamkorligi.

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ роли технологий искусственного интеллекта (ИИ) в медицинском переводе и их влияния на деятельность профессиональных переводчиков. Основная цель исследования — оценить качество и эффективность перевода с использованием ИИ, а также возможности взаимодействия между ИИ и человеческими переводчиками. В качестве методики применён аналитический подход, при котором результаты медицинских переводов с использованием таких ИИ-систем, как Google Translate, DeepL и ChatGPT, сравнивались с профессиональными переводами человека. В ходе обсуждения были

выявлены преимущества ИИ, включая высокую скорость, многоязычность и доступ к обширной терминологической базе, а также его недостатки — контекстуальные ошибки и неспособность учитывать культурные особенности. В качестве вывода подчёркивается, что ИИ следует рассматривать не как конкурента, а как мощного помощника в медицинском переводе. Использование ИИ профессиональными переводчиками позволяет повысить качество перевода, но требует соблюдения медицинских стандартов безопасности и профессиональной этики.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, медицинский перевод, переводчик, ChatGPT, медицинская терминология, машинный перевод, качество перевода, взаимодействие ИИ и человека.

Abstract

This article provides a scientific analysis of the role of artificial intelligence (AI) technologies in medical translation and their impact on the work of human translators. The main objective is to evaluate the quality and efficiency of AI-based translation tools and explore their potential for collaboration with human professionals. The methodology is based on an analytical approach, comparing the results of medical translations produced by AI systems such as Google Translate, DeepL, and ChatGPT with those created by professional human translators. The discussion highlights the strengths of AI, including speed, multilingual capacity, and access to large terminological databases, as well as its weaknesses—such as contextual inaccuracies and failure to account for cultural nuances. The conclusion emphasizes that AI should not be viewed as a full competitor but rather as a powerful assistant in medical translation. For professional translators, the use of AI can enhance translation quality, but it also requires adherence to medical safety standards and professional ethical norms.

Keywords: Artificial intelligence, medical translation, translator, ChatGPT, medical terminology, machine translation, translation quality, human-AI collaboration.

Tibbiyot — inson salomatligini tiklash, saqlash va rivojlantirishga qaratilgan murakkab fan sohasidir. Tibbiy axborotning ko‘p tilda mavjudligi, uning xalqaro miqyosda tezkor almashinuvi, ayniqsa global pandemiyalar va sog‘liqni saqlash tizimlarining integratsiyalashuvi davrida, sifatli tarjimaga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi [1]. Bunday tarjimalarning aniqligi hayot va o‘lim masalasini belgilab berishi mumkin. Aynan shu nuqtada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining tibbiy tarjima jarayoniga aralashuvi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sun’iy intellekt hozirgi kunda nafaqat ma’lumotlarni qayta ishlash yoki oddiy vazifalarni avtomatlashtirish, balki murakkab tahliliy va lingvistik faoliyatlarni

ham bajara oladigan darajaga etgan. Mashinali tarjima tizimlari, ayniqsa neyron tarmoqlarga asoslangan yondashuvlar, tibbiy matnlarni tarjima qilishda sezilarli darajada qo‘llanilmoqda. Google Translate, DeepL, Amazon Translate, va Microsoft Translator kabi platformalar hozirda tibbiy kontekstlarda ham faoliyat yuritmoqda [2].

Ammo bu texnologiyalar inson tarjimonlarining o‘rnini to‘liq egallay oladimi? Yoki ular faqat yordamchi vosita bo‘lib qoladimi? Ana shu savol ilmiy, etik, lingvistik va amaliy jihatdan tahlil qilinishi zarur. Zero, tibbiy tarjima nafaqat lingvistik sadoqatni, balki kasbiy mas’uliyatni ham talab qiladi.

Tibbiy tarjima tilshunoslik, tibbiyot, farmatsiya, biologiya, va sog‘liqni saqlash qonunchiligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu yo‘nalishda sun’iy intellektning ishtiroki faqat texnologik masala emas, balki inson hayotiga bevosita ta’sir qiluvchi ijtimoiy, axloqiy va huquqiy masaladir.

Ushbu maqola tibbiy tarjima sohasida sun’iy intellektning roli va istiqbollarini tahlil qilish, inson tarjimonlar bilan raqobat va hamkorlik doirasida yuzaga kelayotgan masalalarni ilmiy asosda yoritishni maqsad qiladi. Bu borada tarjimaning sifati, aniqligi, kontekstga mosligi, axloqiy me’yorlar va inson hayotiga ta’siri asosiy tahlil mezonlari bo‘lib xizmat qiladi [3].

Sun’iy intellekt asosidagi tibbiy tarjima tizimlari va ularning imkoniyatlari. Bugungi kunda sun’iy intellekt asosida ishlaydigan mashinali tarjima tizimlari asosan chuqur o‘rganish (deep learning) va katta til modellari (LLM)ga asoslanadi. Bu modellarning tibbiy tarjima sohasidagi ishlatilishi alohida e’tiborga molik, chunki ular millionlab matnlar asosida o‘rgatilgan bo‘lib, terminologik aniqlik, kontekstga sodiqlik va grammatik izchillikni ta’minlay oladi. Masalan, DeepL Pro tibbiy matnlarni tarjima qilishda ko‘plab foydalanuvchilar tomonidan yuqori aniqlikka ega tizim sifatida baholanmoqda. Ushbu platforma tibbiyotga oid atamalarni kontekst asosida tahlil qilib, aniq tarjima variantlarini taklif qiladi. Shuningdek, ClinicalBERT, BioGPT, PubMedGPT kabi modellar faqat tibbiy ma’lumotlar asosida o‘rgatilgan bo‘lib, aynan sog‘liqni saqlash tizimlarida foydalanish uchun moslashtirilgan [4].

Biroq bu tizimlar mukammal emas. Ular ayrim hollarda kontekstni noto‘g‘ri talqin qilishi, sinonimlarni chalkashtirishi yoki madaniy jihatdan nomaqbul tarjimalar taqdim etishi mumkin. Masalan, “discharge” so‘zining kontekstsiz tarjimasi tibbiy matnda bemorning kasalxonadan chiqishi yoki yiring ajralishi ma’nolarini bildirishi mumkin. Bunday noaniqliklar inson tarjimonlar tomonidan, ayniqsa tibbiy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan aniq ajratiladi, SI esa doimo bu farqni anglay olmaydi.

Shuningdek, etik muammolar ham mavjud. SI tizimlari maxfiy tibbiy ma’lumotlarni qayta ishlayotgan bo‘lsa, bu ma’lumotlar maxfiyligini qanday himoya qilish mumkin? Yoki noto‘g‘ri tarjima qilingan tibbiy xulosa sabab bemorga noto‘g‘ri davo belgilanadigan bo‘lsa, bunga kim javobgar bo‘ladi?

Kelajakda tibbiy tarjimonlar nafaqat tilni bilgan mutaxassis, balki sun’iy intellekt yordamida ishlay oladigan texnologik bilimga ega mutaxassis sifatida shakllanishi zarur. “Tarjimon-mutaxassislar” SI vositalarining imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni sozlash, nazorat qilish va tarjima sifatini baholashda faol rol o‘ynashlari kerak bo‘ladi [5].

Tavsiya qilinadigan yo‘nalishlardan biri — tibbiy tarjimonlar uchun sun’iy intellektga oid maxsus treninglar joriy etishdir. Bu treninglar mashinali tarjima, tibbiy terminologiyani avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish, axborot xavfsizligi va etik normalarga oid bilimlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, inson tarjimonlar tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan SI tizimlari uchun tibbiy terminlar lug‘atlari va ontologiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Shuningdek, xalqaro standartlashtirish zarur. SI vositalari tibbiy tarjimada qo‘llanilayotgan hollarda, tarjima sifati bo‘yicha mustaqil ekspertizalar o‘tkazilishi va Sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan qat’iy reglamentlar belgilanishi kerak. Bu kelajakda SI vositalari sabab yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklar va etik muammolarni oldini olishga yordam beradi [6].

Xulosa qilib aytganda, tibbiy tarjimada sun’iy intellekt inson tarjimonlar bilan raqobatlashayotgan texnologiya emas, balki zamonaviy tarjimonning samaradorligini oshiruvchi vositadir. Inson tafakkuri, kontekstni anglash, axloqiy baholash va madaniy moslashuv kabi elementlar hali sun’iy tizimlar tomonidan to‘liq egallanmagan. Shu bois, kelajak tibbiy tarjimasi inson va sun’iy intellekt hamkorligida barpo etilishi maqsadga muvofiqdir.

Sun’iy intellekt (SI) vositalarining tibbiy tarjima jarayonidagi rolini baholashda kelajakda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan muammolar va imkoniyatlar alohida e’tiborga loyiq. AI texnologiyalari hali to‘liq etuk holatga etmagan bo‘lsa-da, ularning rivojlanish sur’ati tibbiy tarjima sohasida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarayotgani shubhasiz [7]. Bu bo‘limda aynan ushbu istiqbollar, ularning qo‘llanish doirasi, ehtimoliy xatarlari hamda tibbiy tarjima kontekstida yuzaga keladigan axloqiy-huquqiy muammolar yoritiladi.

Kelajak texnologiyalarining ta’siri: Yaqin kelajakda sun’iy intellekt vositalari yanada aqlliroq, kontekstual sezgir va madaniy jihatdan moslashtirilgan tarjimalar bera olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, transformer arxitekturasiga asoslangan modellar (ChatGPT, BERT, T5) yanada rivojlanib, kontekstni yanada chuqurroq anglash, mantiqiy bog‘liqlikni tushunish va tibbiy

ma’lumotlarning semantik aniqligini saqlab qolish bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Tibbiy tarjimalar aynan semantik aniqlikni talab qiladi, chunki atigi bitta noto‘g‘ri tarjima sog‘liq uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin [8].

Bundan tashqari, AI texnologiyalariga tabiiy tilni tushunish bilan bir qatorda nutqni aniqlash, tibbiy rasm va skanerlardan matn ajratib olish, shuningdek, multimodal tarjima (ya’ni matn, tasvir va audio axborotlarning birgalikda tahlili) imkoniyatlari ham qo‘shilmoqda. Bu esa SI vositalarining tibbiy tarjimaning faqat yozma emas, balki og‘zaki, vizual va kompleks shakllarini ham qamrab olish imkoniyatini yaratadi.

Tarjimonlar uchun yangi kompetensiyalar: Sun’iy intellekt yordamida ishlovchi tarjimonlar faqatgina tarjima qilish emas, balki AI vositalarining xatolarini aniqlash, tuzatish, kontekstual aniqlikni tekshirish va etika tamoyillariga muvofiqlikni nazorat qilish bo‘yicha yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim. “Post-editing” deb ataluvchi faoliyat, ya’ni AI tomonidan yaratilgan tarjimalarni inson tomonidan tahrirlash va tekshirish, tibbiy tarjimon kasbining ajralmas qismiga aylanmoqda [9].

Shuningdek, tarjimonlar AI modellarini maxsus tibbiy sohalar uchun moslashtirish, ularni o‘rgatish (fine-tuning) va ularning ishlashini monitoring qilish kabi texnik bilimlarga ham ega bo‘lishlari talab etiladi. Bu esa tarjimon kasbining texnologik jihatdan murakkabroq va malaka talab qiladigan yo‘nalishga aylanishini anglatadi.

Axloqiy muammolar: AI vositalarining tibbiy tarjimada qo‘llanilishi ko‘plab axloqiy savollarni keltirib chiqaradi. Ulardan eng muhimi — mas’uliyat va xatolik uchun javobgarlik masalasidir. Agar AI tizimi noto‘g‘ri tarjima qilib, bu natijada bemor hayoti xavf ostida qolsa, bunga kim javobgar bo‘ladi? Tarjimonmi, dasturchimi, yoki AI tizimini joriy qilgan tibbiy muassasami? Shuningdek, bemorning shaxsiy ma’lumotlari bilan ishlashda maxfiylik tamoyillariga rioya qilish zarur. AI tizimlari ko‘pincha katta hajmdagi tibbiy ma’lumotlar bazasiga ulanadi, bu esa bemorlar maxfiyligiga xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, tibbiy tarjima kontekstida AI-dan foydalanish maxsus etik kodekslar, standartlar va nazorat mexanizmlari orqali tartibga solinishi zarur [10, 11].

Huquqiy normalar va xalqaro tajriba: Hozirda Yevropa Ittifoqi, AQSH va Yaponiya kabi mamlakatlarda AI texnologiyalarining sog‘liqni saqlashda qo‘llanilishi uchun maxsus qonunchilik bazasi shakllanmoqda [12]. Masalan, Yevropa Ittifoqining “AI Act” qonuni, tibbiy AI tizimlarini yuqori xavfli (high-risk) texnologiya sifatida tasniflaydi va ularning ishlashini qat’iy nazorat ostiga oladi. Bu qonun AI asosidagi tibbiy tarjima xizmatlariga ham taalluqli bo‘lib,

tarjimonlar va tibbiyot muassasalari AI vositalarining ishlashi uchun maxsus sertifikat, audit va monitoring tizimlariga bo‘ysunishlari lozim.

O‘zbekiston uchun ham bunday huquqiy va etik mexanizmlarni yaratish dolzarbdir. Bozorni to‘g‘ri tartibga solish, tarjimon va AI o‘rtasidagi funksional chegaralarni belgilash va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash bugungi kunda muhim masalaga aylangan[13, 14].

SI va tarjimon insonlar: hamkorlik modeli: Tibbiy tarjimada SI va inson tarjimonlar o‘rtasida raqobat emas, balki samarali hamkorlik modeli ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Bu modelda AI asosiy tarjimani yaratadi, inson esa uni klinik, kontekstual, madaniy va etik jihatdan tekshiradi va tahrirlaydi. Bu hamkorlik orqali yuqori sifatli, tezkor va arzon tibbiy tarjimalar yaratiladi.

Bundan tashqari, inson tarjimonlar AI yordamida o‘z ish unumdorligini oshirish, ko‘proq tillarni qamrab olish va zamonaviy tibbiy terminologiyaga tez moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ularning SI tizimlarini o‘qitish va sinovdan o‘tkazishdagi ishtiroki AI’ning tarjima sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [15]. U inson tarjimonlar uchun nafaqat raqobatchi emas, balki kuchli va samarali yordamchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kelajakda axloqiy, huquqiy va texnik jihatlarni hisobga olgan holda inson va AI o‘rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik tibbiy tarjima sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Tibbiy tarjima tibbiy bilimlarni global miqyosda almashishda muhim vositadir. Tarjimalarda aniqlik, kontekstga moslik va madaniy jihatlar katta ahamiyat kasb etadi, chunki xatolar bemor xavfsizligiga bevosita tahdid solishi mumkin. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari, ayniqsa mashinali tarjima va tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari, so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, tibbiy tarjima jarayonlarida keng qo‘llanila boshlandi.

Ushbu maqola SI vositalarining (jumladan, ChatGPT kabi ilg‘or modellar) tibbiy matnlarni tarjima qilishdagi afzalliklari va cheklovlarini ilmiy tahlil qiladi. Aniqlanganidek, SI yuqori tezlikda, ko‘p tillarda tarjima qilish, va keng ma’lumotlar bazasiga tayanish imkonini beradi. Ammo tibbiy terminologiyaning nozikliklari, kontekstual tafovutlar va madaniy moslik SI tomonidan to‘liq e’tiborga olinmasligi mumkin. Natijada, SI yolg‘iz qo‘llanilganda tibbiy xatoliklar xavfi ortadi.

Shunday qilib, SI inson tarjimonlarini to‘liq almashtiruvchi emas, balki kuchli yordamchi vosita sifatida qaralishi lozim. Inson tarjimon SI tomonidan yaratilgan matnni tahlil qilish, tuzatish va kontekstual jihatdan boyitish orqali yuqori sifatli tarjimaga erishish mumkin. Kelajakda tibbiy tarjima sohasida inson va SI o‘rtasidagi sinergiyani kuchaytirish, tarjimonlarning texnologik savodxonligini

oshirish va SI modellarini tibbiy soha uchun moslashtirish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ghassemi M. et al. Artificial Intelligence and the Future of Translational Medicine. Nature Medicine, 2021.

2. Wu Y., Schuster M. et al. Google’s Neural Machine Translation System: Bridging the Gap between Human and Machine Translation. arXiv, 2016.

3. Lee J. et al. BioBERT: a pre-trained biomedical language representation model. Bioinformatics, 2020.

4. Bowker L., Fisher D. Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction. University of Ottawa Press, 2010.

5. Wang Y., Liu Y. Challenges and Prospects of AI in Medical Translation. Journal of Medical Linguistics, 2022.

6. Kiraly D. A Social Constructivist Approach to Translator Education. St. Jerome Publishing, 2000.

7. Popescu I., Perez M. Cultural Adaptation in Medical Translation: A Comparative Study. Translation and Medicine Journal, 2019.

8. Vasconcellos M., Leon A. The METEO System: Machine Translation of Weather Forecasts. Computational Linguistics, 1982.

9. Tiedemann J. Machine Translation for Low-Resource Languages. Synthesis Lectures on Human Language Technologies, 2020.

10. Almutairi N. Human-in-the-Loop Machine Translation in Medicine. Language and Health, 2021.

11. Koehn P. Statistical Machine Translation. Cambridge University Press, 2010.

12. López A. Statistical Machine Translation. ACM Computing Surveys, 2008.

13. Vasquez C. Ethics in Medical Translation: AI Implications. Global Bioethics Review, 2023.

14. OpenAI. GPT-4 Technical Report. OpenAI Publications, 2023.

15. Chan S. The Future of Human-AI Collaboration in Professional Translation. Language and Technology, 2024.

BOLALAR ADABIYOTIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI: IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA RAQOBATMI YOKI HAMKORLIK?

Inoyatova Dilnoza Qunonboy qizi,
Qo‘qon universiteti “Ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi.

dilnoza3300@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining bolalar adabiyotini o‘qitishda tutgan o‘rni, imkoniyatlari va pedagogik yondashuvlari yoritilgan. Bugungi kunda ChatGPT, AI dasturlari va boshqa sun’iy intellekt asosidagi vositalar o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, adabiy tafakkurini shakllantirish hamda ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada sun’iy intellekt yordamida adabiy tahlil, yangi yakunlar tuzish, qahramonlar xarakterini o‘rganish kabi mashg‘ulotlar misolida ijodiy yondashuv qanday shakllanishi tushuntirilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt o‘qituvchining raqibi emas, balki ijodiy hamkori sifatida qaraladi. AI vositalarining o‘quvchilarning savollariga moslashtirilgan javob berishi, o‘yinlashtirilgan topshiriqlar orqali qiziqish uyg‘otishi, inkluziv ta’limda yordamchi bo‘lishi ta’kidlangan. Shu bilan birga, insoniylik, badiiylik va milliy qadriyatlar AI texnologiyalarining markazida bo‘lishi kerakligi urg‘ulanadi. Sun’iy intellekt – bu raqobatchi emas, balki ijodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi hamkor vositadir.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, bolalar adabiyoti, ijodiy tafakkur, o‘quvchi, ChatGPT, metodika, ta’lim, tahlil, interaktiv, hamkorlik.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль технологий искусственного интеллекта в преподавании детской литературы, их возможности и педагогические подходы. Современные ИИ-инструменты, включая ChatGPT, помогают развивать индивидуальные способности учеников, формировать литературное мышление и поддерживать творческое воображение. Приведены примеры использования ИИ в анализе текстов, создании альтернативных концовок и изучении характеров героев. Подчёркивается, что искусственный интеллект должен рассматриваться не как соперник, а как творческий помощник учителя. Отмечено, что адаптивные ответы, игровые задания и помощь в инклюзивном обучении делают процесс обучения более эффективным и интересным. В то же время подчеркивается важность сохранения человечности, художественности и национальных ценностей при применении ИИ-технологий. Искусственный интеллект представлен как партнёр в развитии творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: искусственный интеллект, детская литература, творческое мышление, ученик, ChatGPT, методика, образование, анализ, интерактив, сотрудничество.

Abstract

This article explores the role, potential, and pedagogical applications of artificial intelligence technologies in teaching children's literature. Modern AI tools such as ChatGPT play a vital role in developing students' individual abilities, literary thinking, and creative imagination. The paper provides examples of how AI can assist with literary analysis, generating alternative story endings, and exploring character traits. AI is viewed not as a rival to teachers, but as a creative partner. Its ability to deliver adaptive responses, offer gamified tasks, and support inclusive education is emphasized. Moreover, the article highlights the importance of preserving humanity, artistic expression, and national values when integrating AI technologies in education. Artificial intelligence is portrayed as a collaborative tool that enhances creativity and enriches the teaching of literature for young learners.

Keywords: artificial intelligence, children’s literature, creative thinking, student, ChatGPT, methodology, education, analysis, interactive, collaboration.

Zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanayotgani ta’lim berishning an’anaviy shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda.

Sun’iy intellekt tizimi - bu ma’lum bir fan sohalari bilan boliq ijodiy muammolarni hal qilishga qodir bo‘lgan, bilimlari intellektual tizim xotirasida saqlanadigan dasturiy-apparat majmuasi.[1]

“O‘qish savodxonligi” darslarida o‘quvchilarning matnni tushunish, his qilish, tahlil etish va shu asosda o‘z fikrini ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bolalar adabiyoti esa yosh avlodda nafaqat estetik did va axloqiy qarashlarni shakllantirish, balki ijodiy tafakkurni rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt orqali o‘quvchilar bilan individual ishlash, ularning qiziqishiga mos topshiriqlar tuzish, yangi voqealar yaratish kabi faoliyatlar orqali adabiy tafakkurni samarali tarzda rivojlantirish mumkin bo‘lmoqda. Shunday ekan, ushbu maqolada bolalar adabiyotini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi, u ijodiy tafakkurni rivojlantirishda raqobatchimi yoki o‘qituvchining samarali hamkorimi degan savolga javob izlanadi.

Bolalar adabiyoti yosh avlodning badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirishda, til boyligini rivojlantirishda, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni singdirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda ijodiy tafakkurni rag‘batlantirish, o‘z fikrini erkin bayon eta olish, syujetli o‘y-fikrlar hosil qilish, badiiy obrazlarni idrok etish va shaxsiy xayol mahsulini yaratishga bo‘lgan qobiliyat bolalar adabiyotining ta’siri bilan faol rivojlanadi. Bolalar adabiyotiga oid matnlar – ertaklar, hikoyalar, bolalar uchun

she’rlar, ssenariylar, sahna ko‘rinishlari – bularning barchasi bolani yangi hayotiy holatlarga duch keltiradi, ularning fikrlashiga, tasavvuriga, hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiy asarlarni o‘qitish jarayonida turli metodlar, ayniqsa, interaktiv va ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini kuchaytirish mumkin. Masalan, ertakni boshqa yakun bilan yozish, voqealar rivojini o‘zgartirish, qahramon nomidan maktub yozish, hikoyaning davomiga asoslanib yangi syujet tuzish, syujet asosida dramatik sahna tayyorlash kabi usullar bolaning faqat eslab qolish emas, balki o‘ylash, tasavvur qilish, tahlil qilish, ijod qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning emotsional-intellektual faolligini oshiradi, ular orasida faol muloqot yuzaga keladi va ijodiy mushohada yuritish holatlari kuchayadi.

Adabiy matnlarning o‘ziga xos badiiy talqini, syujet chizig‘i va obrazlar tizimi bolalarda obrazli tafakkur, o‘xshatish, kinoya, istehzo, satira kabi badiiy vositalarni idrok etishga yordam beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi matnga ko‘ngil bilan munosabatda bo‘lish, har bir o‘quvchining fikrini qadrlash, bolani o‘z g‘oyasini ilgari surishga undash orqali ularning ijodiy tafakkuriga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. O‘quvchilar matn asosida mustaqil she’rlar, ertaklar, hikoyalar yozadi, personajlarga yangi xarakterlar yaratadi, bu esa ular uchun adabiy ijodga kirishish eshigini ochadi.

Shu bois bolalar adabiyotini o‘qitish jarayoni oddiy matn o‘qish emas, balki murakkab ijodiy faoliyat bo‘lishi lozim. Ijodiy tafakkur esa aynan shunday faol jarayonlarda shakllanadi. Demak, bolalar adabiyotining didaktik, estetik, axloqiy va tarbiyaviy funksiyalari bilan bir qatorda ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi asosiy vosita ekanligini alohida e’tirof etish zarur. Ana shunday asosda o‘quvchining ichki salohiyati yuzaga chiqadi, tafakkuri o‘z yo‘lini topadi, uning badiiy-estetik qarashlari shakllanadi va u hayotni obrazlar orqali anglay boshlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti bilan birga sun’iy intellekt (SI) vositalarining ta’lim tizimiga kirib kelishi adabiyotni o‘qitish usullarini ham sezilarli darajada boyitmoqda. “Hech kim kelajakni batafsil bashorat qila olmasa-da, inson darajasidagi (yoki undan yuqori) aql-zakovatga ega kompyuterlar bizning kundalik hayotimizga va sivilizatsiyaning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatishi aniq”. [2] Ayniqsa, bolalar adabiyotini o‘qitishda SI vositalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning adabiy matnga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uni chuqurroq anglash, tafakkur qilish va ijodiy yondashish salohiyatini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda ChatGPT, Deep Seek, Claude, Miro AI, Grammarly, Poe AI kabi sun’iy intellekt asosidagi ilovalar adabiy jarayonga integratsiyalashib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ifoda qilish,

tahlil qilish va yangilik yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

Masalan, ChatGPT ilovasi orqali o‘quvchilar ertaklar, hikoyalar, personajlar, she’rlar yoki dramalar yaratishda yordamchi vosita sifatida foydalanishlari mumkin. O‘quvchi oddiy matn asosida “ertakka boshqa yakun yozib ber”, “qahramon boshqa mamlakatda qanday yashagan bo‘lardi?”, “bu hikoyaning boshqa versiyasini tuz”, “yaxshi odam yomon rolida chiqsa nima bo‘ladi?” kabi topshiriqlarni berishi mumkin va ChatGPT bunga javoban ijodiy namunalar ishlab chiqadi. Bu esa bolani fikrlashga, mantiqiy bog‘lanishlar hosil qilishga, o‘z nuqtai nazarini ifodalashga o‘rgatadi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida interaktiv testlar, kichik ssenariylar, asar asosida tayyorlangan dramatik sahnalar yaratish, asar personajlaridan “intervyu olish”, yoki “virtual qahramon bilan suhbat” kabi topshiriqlarni amalga oshirish orqali o‘quvchilarning adabiy nutqi va tafakkuri kuchayadi. Ko‘pgina AI ilovalari matnni tahlil qilish, muhim joylarni ajratish, asosiy g‘oya va xulosalarni chiqarish imkoniyatini ham beradi. Shu orqali bolalar adabiyoti nafaqat o‘qish va tushunish jarayoni, balki interaktiv, raqamli hamda individual yondashuvga asoslangan faol o‘yin va ijodiy tajribaga aylanadi.

Shuningdek, AI yordamida rasm asosida hikoya tuzish, audiomatnlarni matnga aylantirish, yoki aksincha, matn asosida ovozli ertaklar yaratish, hatto qahramonlar harakatini animatsion tarzda namoyish etish mumkin. Bu esa bolalarni ko‘p tarmoqli o‘rganish orqali ta’limga jalb etadi, chunki har bir bola har xil uslubda – ko‘rish, eshitish yoki harakat orqali bilimni yaxshiroq o‘zlashtiradi. AI vositalari aynan shuni ta’minlaydi.

Bunday yondashuvlarda o‘qituvchining roli yo‘qolmaydi, aksincha, kuchayadi. O‘qituvchi AI vositalarini tanlaydi, ularni dars maqsadlariga moslashtiradi, o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltiradi va baholaydi. Shu sababli AI vositalari raqib emas, balki o‘qituvchining kuchli hamkoriga aylanadi.

Sun’iy intellektning ta’lim sohasiga jadal kirib kelishi bilan pedagoglar, ota-onalar va mutaxassislar orasida turli qarashlar shakllanmoqda. Xususan, ularning ko‘pchiligi “sun’iy intellekt inson ijodkorligini yo‘qqa chiqarmaydimi?”, “bolalarning mustaqil fikrlashi pasayib qolmaydimi?”, “kitob o‘qishga ehtiyoj qolmaydimi?” degan savollar bilan tashvishlanmoqda. Bunday savollar tabiiy, chunki har qanday yangi texnologik vosita dastlab inson faoliyatiga xavf sifatida qaraladi. Ammo chuqur tahlil qilinsa, sun’iy intellekt — ayniqsa, bolalar adabiyoti va ijodiy tafakkurga doir o‘quv jarayonlarida — raqib emas, balki kuchli hamkor bo‘lishi mumkin.

Avvalo, sun’iy intellekt insonni to‘liq almashtira olmaydi. AI – bu mavjud ma’lumotlar asosida yangi kontekstlar yaratadigan, lekin chuqur hissiy kechinmalar, hayotiy tajriba, o‘ziga xos estetik qarash kabi sof insoniy xususiyatlarga ega bo‘lmagan vositadir. Shunday ekan, u inson ijodkorligiga raqobat emas, balki tayanch bo‘la oladi. AI vositalari o‘quvchilarga tayyor javob bermaydi, aksincha ularning savollariga asoslangan tavsiyalar, namunalar, takliflar, yo‘nalishlar beradi. Asosiy ijodiy faoliyat esa bola tomonidan amalga oshiriladi.

Masalan, ChatGPT ilovasidan foydalanayotgan o‘quvchi ertak tuzishda yordam olishi mumkin, lekin qahramonlar xarakteri, voqealar ketma-ketligi, yakuniy g‘oya uning shaxsiy tanloviga bog‘liq bo‘ladi. Shu tariqa bola bir necha variantlarni ko‘rib chiqadi, solishtiradi, baho beradi, o‘z pozitsiyasini bildiradi. Bu esa ijodiy tafakkurning eng muhim bosqichlaridir. AI bu jarayonda vositachi sifatida xizmat qiladi.

Yana bir jihat – AI bolani o‘rganishga undaydi. O‘quvchi qiziqgan savolini sun’iy intellektga beradi, javob oladi, lekin bu javob ustida yana savol tug‘iladi, u tahlil qilinadi, tekshiriladi. Bu o‘z navbatida mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va yangilik yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Demak, sun’iy intellektdan to‘g‘ri foydalanilsa, u bola tafakkurini sustlashtirmaydi, balki uni faollashtiradi. Bu erda asosiy kalit — “to‘g‘ri foydalanish” tamoyilidir.

Shu o‘rinda o‘qituvchining roli yana bir bor muhim ahamiyat kasb etadi. U AI vositalarining imkoniyatlarini didaktik maqsadga yo‘naltiradi, tanlab ishlatadi, bolalarga ijodiy topshiriqlar beradi, sun’iy intellektdan qanday savollar orqali samarali foydalanish mumkinligini o‘rgatadi. Ya’ni sun’iy intellekt bu jarayonda raqib emas, hamkor sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, adabiyot singari hissiyot, tasavvur, obraz, estetik baho, go‘zallikni his etish kabi sohalarda inson ijodi etakchi o‘rinda qoladi.

Shunday qilib, AI vositalarini to‘g‘ri, maqsadli va metodik jihatdan asoslangan tarzda dars jarayoniga kiritish orqali bolalar adabiyoti orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘quvchining nutq madaniyati, tasavvuri va tahliliy fikrlash salohiyatini oshirish mumkin. Bunda sun’iy intellekt kuchli yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi, lekin hech qachon bolalarning shaxsiy ijodkorlik salohiyatini to‘liq o‘rnini bosa olmaydi.

Sun’iy intellektga asoslangan metodik yondashuvlar maktab ta’limi, xususan boshlang‘ich sinflarda bolalar adabiyotini o‘qitishda o‘qituvchining kreativ yondashuvlariga keng imkoniyat yaratadi. An’anaviy yondashuvda o‘quvchi matnni o‘qiydi, savollarga javob beradi, muhokama qiladi. AI vositalari esa ushbu jarayonlarni chuqurlashtirib, o‘quvchi faoliyatini interaktiv va individual tarzda

tashkil etishga xizmat qiladi. Quyida sun’iy intellekt asosidagi bir nechta metodik yondashuv va amaliy misollar keltiriladi.

Alternativ yakun yaratish metodi – ChatGPT yoki shunga o‘xshash AI ilovalari yordamida o‘quvchiga tanish ertak yoki hikoyaning muqobil yakunini yaratish topshiriladi. Masalan, “Boy ila gado” ertagini AI orqali boyning nuqtayi nazaridan qayta yozish, yoki “Zumrad va Qimmat” ertagining davomiy qismini o‘ylab topish. Bu metod bolada empatiya, obrazga kirishish, tasavvur qilish va yozma nutqni rivojlantiradi.

Matn asosida dramatik sahnalashtirish – AI vositalari yordamida o‘quvchi adabiy matn asosida sahna ssenariysi tuzadi, qahramonlar uchun dialoglar yozadi. ChatGPTdan “Sen hozir “Shum bola” asaridagi bosh qahramon bo‘lib, militsiyachiga nimalar deysan?” kabi topshiriqlar orqali rolga kirish qobiliyati, dramatik fikrlash shakllanadi.

Savol-javob orqali izlanishli o‘qish – o‘quvchi matnni o‘qib chiqqach, ChatGPT orqali “Bu asardagi asosiy muammo nima?”, “Qahramon o‘rnida sen bo‘lganingda qanday yo‘l tutarding?”, “Bu hikoya kimga yoqishi mumkin?” kabi ochiq savollar orqali tahliliy tafakkurini rivojlantiradi. O‘quvchi AI bilan suhbat qurish jarayonida o‘z fikrlarini aniqroq ifodalashga intiladi.

Kross-platformaviy adabiy ijod – bolalarning AI bilan birga she’r yozish, hikoya boshlang‘ichi berilgach, davomini yozish, yoki belgili obrazlar ishtirokida yangi voqealar yaratishlari mumkin. Masalan: “ChatGPT, menga she’r o‘rniga sichqon bosh qahramon bo‘lgan ertak tuzib ber” – deyishi mumkin. AI javobi asosida bola o‘ziga xos g‘oyalarni shakllantiradi.

Sun’iy intellekt yordamida til o‘rganish va sinonim ishlatish – bolalar yozgan matnlarida AI yordamida sinonimlar, iboralar, boshqa uslubiy vositalar orqali ifodani boyitadi. Masalan, o‘quvchi yozgan jumlani ChatGPT orqali “yana chiroyliroq yoz” deb so‘rab, leksik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Matn asosida tasviriy san’at bilan uyg‘unlik – o‘quvchi ertak o‘qigach, ChatGPT yordamida ertakdagi joy, qahramon, holatlarni tasvirlovchi tasviriy topshiriqlar oladi. Masalan: “Zumradning uyi qanday ko‘rinishda bo‘lishi mumkin?” – degan savol asosida AI tavsiyalariga tayangan holda chizmachilik bilan shug‘ullanadi. Bu multimodal yondashuvni ta’minlaydi.

Ushbu metodik yondashuvlar orqali bolalar sun’iy intellektni passiv foydalaniladigan vosita emas, balki muloqot qilinadigan, maslahat olinadigan va fikr yuritishda yordam beradigan raqamli yordamchi sifatida qabul qilishadi. Bunda o‘qituvchi AI vositalaridan qanday foydalansa bo‘ladi, qanday cheklovlarga rioya qilish lozim, qanday topshiriqlar ijodkorlikni qo‘zg‘atadi – degan mezonlar asosida metodik ish olib boradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sun’iy intellekt asosidagi metodlar adabiyotni o‘qitishda statik yondashuvdan dinamik, interaktiv va ijodiy yondashuvga o‘tish imkonini beradi. Bu esa ijodiy tafakkurni shakllantirishda muhim omillardan biridir.

Sun’iy intellektning bolalar adabiyotiga integratsiyalashuvi ko‘plab ijodiy va didaktik imkoniyatlarni ochib bersa-da, ushbu jarayonda muayyan xavf va ehtimollar ham mavjud. Bu xavflarni e’tiborsiz qoldirish bolalarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va haqiqiy adabiy-estetik tajriba orttirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, sun’iy intellekt vositalarining afzalliklari bilan bir qatorda, ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladigan jihatlarini ham ko‘rib chiqish lozim.

Avvalo, sun’iy intellekt bilan ko‘p ishlash natijasida o‘quvchi o‘zining ijodiy fikriga emas, tayyor javoblarga tayanib qolishi mumkin. Bu esa mustaqil yozish, obraz yaratish, matnni tahlil qilish kabi muhim ko‘nikmalarning susayishiga olib keladi. Masalan, o‘quvchi hikoya yozishda AI tavsiyalariga to‘liq tayanib, o‘z fantaziyasini ishga solmay qo‘yishi mumkin. Shu bois, o‘qituvchi AI vositalaridan foydalanishda doimiy nazorat va yo‘naltirishni amalga oshirishi, AI faqat yordamchi vosita ekani, yaratuvchi esa o‘quvchining o‘zi bo‘lishi kerakligini tushuntirib borishi zarur.

Yana bir xavf – bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatining susayishidir. ChatGPT kabi vositalar tez va mantiqli javob beradi, biroq bu javoblar har doim to‘g‘ri yoki mukammal emas. O‘quvchi esa bu javoblarni “to‘g‘ri haqiqat” deb qabul qilishi mumkin. Bu esa tanqidiy fikrlash, shubha qilish, qayta tahlil qilish kabi tafakkur jarayonlarining zaiflashishiga olib keladi. Shu bois, AI javoblarini o‘qib, “Bu fikrga qo‘shilasanmi?”, “Seningcha bu qanday bo‘lgan bo‘lar edi?” kabi savollar bilan o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undash muhimdir.

Bundan tashqari, AI yordamida yozilgan matnlar ko‘pincha sun’iy ohangda, emotsiyasiz va shablon asosida tuzilgan bo‘ladi. Bolalar bu ohangga o‘rganib qolib, estetik ifoda, obrazli til, poetik tuyg‘uni real adabiy matnlarda to‘laqonli anglab eta olmasligi mumkin. Ya’ni, bolalar ko‘proq faktlarga, mantiqiy izchillikka urg‘u beradigan AI matnlariga qaram bo‘lib qolsa, adabiyotning emotsional, badiiy qatlamlari ikkinchi darajaga tushib qoladi. Bu esa adabiyotning tarbiyaviy va estetik vazifasiga to‘g‘ri kelmaydi.

Yana bir muhim jihat – intellektual mulk va plagiat masalasidir. O‘quvchi AI yordamida matn yozganida bu matn qanchalik o‘ziga tegishli? Bu savol ta’lim tizimi uchun dolzarbdir. O‘qituvchi baholash jarayonida AI orqali yozilgan matnni aniq ajrata olmasligi mumkin. Bu esa baholashning adolatliligiga putur etkazadi.

Shu sababli, AI vositalari bilan ishlashda mualliflik va ijodiylik chegaralarini belgilash muhim masalalardan biridir.

Bundan tashqari, bolalarning yoshiga mos kelmaydigan kontentga duch kelish xavfi ham mavjud. AI vositalari har doim pedagogik jihatdan filtrlangan ma’lumot bermasligi mumkin. Shu bois, o‘qituvchi sun’iy intellekt vositalarini sinfda yoki topshiriq sifatida ishlatishda doimiy kuzatuv va nazoratni yo‘lga qo‘yishi, ishonchli va xavfsiz platformalardan foydalanishi zarur.

Sun’iy intellekt vositalarining salbiy ta’siri ularni umuman rad etish uchun emas, balki ularni ehtiyotkorlik va didaktik strategiya asosida foydalanish zarurligini anglatadi. Bu borada o‘qituvchi vositachilik qiluvchi, yo‘naltiruvchi va baholovchi sifatida muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri yondashuv orqali AI vositalari xavf emas, balki imkoniyatga aylanadi.

Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalari bolalar adabiyotida ta’limni shaxsiylashtirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. Har bir o‘quvchining qiziqishlari, bilim darajasi, o‘qish sur’ati va o‘rganish uslubi turlicha bo‘lgan bir paytda, AI yordamida moslashtirilgan adabiy ta’lim modelini joriy etish orqali o‘quv jarayoni ancha samarali va qiziqarli bo‘lishi mumkin.

AI vositalari, jumladan, ChatGPT yoki boshqa AI yordamchilar, har bir o‘quvchining savollariga individual javob bera oladi, tushunmagan joylarini izohlab, murakkab matnlarni engilroq tilda tushuntirib beradi. Masalan, 3-sinf o‘quvchisi “Zumrad va Qimmat” ertagini o‘qiyotganda tushunmagan so‘zlarni AI orqali izohlab, hikoyaning mohiyatini yaxshiroq anglaydi. 4-sinf o‘quvchisi esa o‘sha ertak asosida boshqa yakunlar bilan yangi syujet yaratishda AI yordamidan foydalanishi mumkin. Shu tarzda har bir bola o‘z darajasiga mos adabiy faoliyat bilan shug‘ullanadi.

AI yordamida tuzilgan platformalar o‘quvchining o‘qish tezligi, qaysi mavzularda qiynalayotgani, qanday matnlar unga qiziqarliligini aniqlab borishi va unga mos adabiy asarlarni tavsiya qilishi mumkin. Bu esa o‘quvchi va matn o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Masalan, texnikaga qiziqqan bola uchun sarguzasht-fantastik hikoyalar, tabiatga mehr qo‘ygan o‘quvchi uchun ekologik yo‘nalishdagi ertaklar taklif etilishi mumkin.

Shuningdek, AI asosida yaratilgan o‘quv dasturlarida gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) unsurlari kuchli bo‘lib, bolalar uchun topshiriq bajarish jarayoni o‘yinga aylanishi mumkin. Masalan, “adabiy viktorina” o‘yinlari, “qahramonni to‘g‘ri yo‘l bilan olib o‘t” kabi interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchi asar mazmunini chuqurroq anglaydi va o‘rganadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt bolaning tanlovlariga qarab yangi savollar yoki ijodiy topshiriqlarni taklif etadi.

Yana bir muhim imkoniyat – inkluziv ta’lim sohasida AI yordami. O‘qish qobiliyati cheklangan, eshitish yoki ko‘rish muammolari bo‘lgan bolalar uchun AI vositalari matnni ovozli o‘qib berish, vizual ifodalar bilan tushuntirish, interaktiv yordam taklif etish orqali ularga adabiyotdan chetda qolmaslik imkonini beradi. Bu esa ta’limda teng imkoniyatlar tamoyilini amalga oshirishda muhim qadamdir.

Bundan tashqari, AI bolalar adabiyotini o‘qitishda o‘qituvchining vaqtini tejab, avtomatlashtirilgan tahlillar orqali har bir o‘quvchining o‘sish dinamikasini ko‘rsatib bera oladi. Masalan, o‘quvchi qaysi asarlar ustida ko‘proq ishlagan, qanday savollarga qiyin javob bergan, nimalarni tez tushungan – bularning barchasi tahlil qilinib, o‘qituvchiga taqdim etiladi. Bu esa ta’limda samarali rejalashtirish va nazoratga xizmat qiladi.

Kelajakda sun’iy intellekt bolalar adabiyotini o‘qitishda nafaqat yordamchi vosita, balki har bir o‘quvchi uchun “shaxsiy o‘qituvchi” rolini o‘ynashi mumkin. AI vositalari orqali adabiy ta’lim yanada interaktiv, moslashuvchan va ijodkorlikka undovchi bo‘lib boradi. Ammo bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish, metodik yondashuvni chuqur ishlab chiqish, AIning imkon va cheklovlarini yaxshi tushunish orqali amalga oshadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining bolalar adabiyoti sohasiga kirib kelishi ta’lim jarayonida yangi ufqlarni ochmoqda. Bu imkoniyatlar o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quv jarayonini moslashtirish, adabiy tanqidiy va tahliliy fikrlashni shakllantirishda katta xizmat qilishi mumkin. ChatGPT, AI ilovalari kabi vositalar orqali bolalar matnni chuqur anglab olish, yangi syujetlar tuzish, obrazlar bilan ishlash, hikoya yozish, savol-javoblar orqali adabiy tafakkurini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, o‘z g‘oyalarini shakllantirish, matnga yangicha yondashuvni o‘rganish, shuningdek, til boyligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, AI vositalari orqali real vaqt rejimida savol-javob qilish, muammoli vaziyatlar echimini izlash, hikoyaga boshqa yakun topish, o‘xshash voqealarni tahlil qilish kabi mashg‘ulotlar ijodiy tafakkurni faol harakatga keltiradi.

Biroq bu jarayon bir yoqlama yondashuvni emas, balki muvozanatli, pedagogik nazorat asosida olib borilishini talab etadi. Sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi, u faqat yordamchi rolini o‘ynashi mumkin. Adabiyotda his, obraz, badiiy-estetik zavq, poetik tafakkur kabi jihatlar sun’iy tizimlar emas, balki inson qalbi orqali shakllanadi. Shu sababli, AI vositalaridan to‘g‘ri foydalanish – nafaqat texnologik bilimni, balki pedagogik mahoratni ham talab etadi.

Shu o‘rinda muhim savol tug‘iladi: sun’iy intellekt – raqobatchi yoki hamkor? Mazkur maqolada keltirilgan tahlil va misollar shuni ko‘rsatadiki, AI vositalari adabiy ta’limda raqib emas, balki to‘g‘ri yondashilganda kuchli hamkor bo‘lishi mumkin. U o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijodiy muloqotni qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quvchining ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi, shuningdek, metodik faoliyatda yangi yondashuvlar paydo bo‘lishiga turtki beradi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyotida sun’iy intellektdan foydalanishning kelajagi porloqdir. U ijodkorlikni rivojlantirishda, mustaqil fikrlashni shakllantirishda, adabiy-estetik tarbiyani boyitishda katta yordamchi bo‘lishi mumkin. Ammo bu jarayonda insoniylik, badiiylik, milliy qadriyatlar va pedagogik maqsad doimiy ustuvorlikka ega bo‘lishi lozim. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa ana shu qadriyatlarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladigan zamonaviy vosita sifatida xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Filipova I.A. Sun’iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma’ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas’ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. 7 bet.

2. Russell SJ, Norvig P. Sun’iy intellekt: zamonaviy yondashuv. Prentice Hall. Englewood Cliffs, NyuJersi. 1995-yil. 3-bet.

3. Inoyatova, D. (2024). Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. University Research Base, 103-107.

4. Inoyatova, D. (2024). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy intellektini oshirishda kitob o‘qishning ahamiyati. University Research Base, 130-134.

SUN’IY INTELLEKT VA TILSHUNOSLIK

Sunatov Jo‘rabek Turg‘unbek o‘g‘li,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM assistent o‘qituvchisi.
Zikrillayeva Farangiz Baxtiyor qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi.
Husenova Madina Muxsin qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi.
Sanayeva Mahliyo Rauf qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining tilshunoslikka integratsiyasi va ularning asosiy yo‘nalishlari o‘rganilgan. Tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik tarjima, nutqni tahlil qilish, matn generatsiyasi kabi sohalardagi

ilg‘or SI texnologiyalari tahlil qilinadi hamda ularning imkoniyatlari, afzalliklari va mavjud muammolari yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, tilshunoslik, tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik tarjima, nutqni tahlil qilish.

Аннотация

В статье рассматривается интеграция технологий искусственного интеллекта в лингвистику и ее основные направления. Будут проанализированы передовые технологии искусственного интеллекта в таких областях, как обработка естественного языка, автоматический перевод, анализ речи и генерация текста, а также подчеркнуты их возможности, преимущества и текущие проблемы.

Ключевые слова. Искусственный интеллект, лингвистика, обработка естественного языка, машинный перевод, анализ речи.

Annotation

This article examines the integration of artificial intelligence technologies into linguistics and their main directions. Advanced AI technologies in areas such as natural language processing, automatic translation, speech analysis, and text generation are analyzed, and their capabilities, advantages, and current problems are highlighted.

Keywords. Artificial intelligence, linguistics, natural language processing, machine translation, speech analysis.

Sun’iy intellekt (SI; inglizcha: artificial intelligence, AI) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi.

Bugungi kunda keng qo‘llanilib kelinayotgan sun’iy intellekt texnologiyalariga aqlli veb-qidiruv tizimlari (masalan, YouTube Search), tavsiya tizimlari (YouTube, Amazon va Netflix), tabiiy tilni tushunish (Google Assistant, Siri va Alexa), o‘zini-o‘zi boshqaradigan avtomobillar (masalan, Waymo) va boshqalarni misol qilish mumkin[1,156].

Alan Turing sun’iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqot muallifi bo‘lgan. Sun’iy intellektga 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan. Shu yilning yozida Dartmouth kollejida o‘tgan anjumanda John McCarthy „sun’iy intellekt” atamasini birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallifi o‘laroq kirgan. Sun’iy intellekt bo‘yicha tadqiqotlar XX asr o‘rtalaridan beri qilinib kelinsa-da, unga nisbatan ommaviy qiziqish 2012-yilda chuqur o‘rganuv boshqa sun’iy intellekt metodlaridan ustunligini namoyon etganda hamda 2017-yilda transformer arxitekturasida erishilgan yutuqlar ortidan keskin ortgan. 2020-yillar boshlarida mazkur soha gurkirab rivojlanib, ko‘plab shirkatlar, universitetlar va

laboratoriyalar sun’iy intellekt sohasida sezilarli yutuqlarga erishib kelishmoqda[2,194].

Ushbu soha Homosapiensning aql-zakovati shu qadar aniq tasvirlanishi mumkinki, uni hatto aqlli mavjudotlarning asosiy xususiyati bo‘lgan mashina tomonidan modellashtirish mumkin degan taxminga asoslanadi. Falsafa bo‘limida Dartmut taklifiga qarang. Bu esa aqlning tabiati va sun’iy mavjudotlarni yaratish axloqi haqidagi falsafiy savollarni, qadim zamonlardan beri afsona, fantastika va falsafada o‘rganilgan savollarni keltirib chiqaradi. Sun’iy intellektga optimizm bilan qaraladi. Optimizm dastlabki sun’iy intellekt tadqiqotchilarining bashoratlarida mavjud edi (qarang: SI tarixidagi optimizm, shuningdek, Rey Kurzveyl kabi zamonaviy transhumanistlarning fikrlashlarida). Ammo inqirozlarni ham boshdan kechirdi. Inqirozlarni 1966-yilda ALPAC e’lonida, 1970-yilda perseptronlarning etishmasligi, 1973-yilda Lighthill e’lonida va 1987-yilda lisp mashinalari bozorining rivojlanishida ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt texnologiya sanoatining muhim qismiga aylandi va kompyuter fanidagi ko‘plab eng qiyin muammolarga echim taklif qiladi. Sun’iy intellekt tadqiqotlari yuqori texnologiyali va ixtisoslashgan soha bo‘lib, u ko‘pincha bir-biri bilan aloqa qila olmaydigan kichik sohalarga „chuqur“ bo‘linadi. Ixtisoslashgan muammolarni hal qilish, ixtisoslashgan muassasalar, individual tadqiqotchilar ishi va juda turli xil vositalardan foydalanish va sun’iy intellektni qanday amalga oshirish kerakligi haqidagi uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan fikr farqlari atrofida kichik sohalar paydo bo‘ldi. SIning zamirida fikrlash, bilish, rejalashtirish, o‘rganish, muloqot qilish, his qilish, obyektlarni boshqarish va harakatlantirish qobiliyati kabi ko‘nikmalar to‘plami mavjud. Umumiy razvedka (yoki „kuchli SI“) sanoatning uzoq muddatli maqsadlaridan biridir[3,28].

Bugungi kunga kelib sun’iy intellekt tushunchasi juda keng qamrovli tushunchaga aylanib bormoqda. Masalan, mobil qurilmangizdagi dasturlar: Google, lug‘atlar, turli xil o‘yinlar va hokazolar ham sun’iy intellektga yaqqol misol bo‘la oladi. Zamonaviy sun’iy intellekt bu o‘z atrof-muhitini idrok eta oladigan va o‘z maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun harakat qila oladigan, ma’lumotlarni o‘rganadigan va tahlil qiladigan tizimdir[4,75].

Faqat hozirda ularning qamrovi kichikroq bo‘lib, ma’lum bir yo‘nalishdagina sizga yordam bera oladi. Ya’ni bajarmoqchi bo‘lgan amallaringiz turiga qarab tegishli dasturdan foydalanasiz.

Sun’iy intellekt foydali bo‘lishi uchun u qo‘llanilishi kerak. Uning haqiqiy qiymati faqat amalda bo‘ladigan ma’lumotlarni taqdim etganda amalga oshirilishi mumkin. Agar biz sun’iy intellektni inson miyasi nuqtai nazaridan o‘ylaydigan

bo‘lsak, unda sun’iy intellekt texnologiyalari qo‘llar, ko‘zlar va tana harakatlariga o‘xshaydi – bu bizga miya g‘oyalarini hayotga tatbiq etish imkonini beradi. Quyida eng ko‘p qo‘llaniladigan va eng tez rivojlanayotgan sun’iy intellekt texnologiyalari keltirilgan[5,330].

OpenAI loyihasi tomonidan ishga tushirilgan ChatGPT generativ sun’iy intellektdir. U matnli javoblarni yaratishda qo‘l keladi va oddiy suhbatlardan tortib murakkab muammolarni hal qilishgacha bo‘lgan turli xil echimlarni taklif qila oladi. Quyida ChatGPT haqida qisqacha:

ChatGPT’ning xususiyatlari:

1) Ko‘p tillarda suhbat qura olish: GPT nafaqat ingliz, balki boshqa tillarda ham suhbat qura oladi, tillar ro‘yxatida o‘zbek tili ham mavjud;

2) Kreativ javob berish: ChatGPT kontent uchun takrorlanmas matnlar yoza oladi, ularga hatto hikoya va she’rlar ham kiradi;

3) Kodlar bilan ishlay olish: Sun’iy ong dasturchilarga kodlari bilan ishlashda yordam berishi, kodlardagi xatolarni topishi, ularni formatlashi mumkin;

4) Ma’lumot izlash: GPT o‘zining kundan kunga kengayib borayotgan ma’lumotlar bazasi orqali siz izlayotgan narsani topib bera oladi[6,60].


Namelix

Namelix – bu yangi biznes yoki brendni nomlash kabi vazifalarni soddalashtirish uchun mo‘ljallangan sun’iy intellekt texnologiyasi. Ilg‘or algoritmlar sababli Namelix qisqa va esda qolarli nomlarni yaratishga ixtisoslashgan. Tadbirkorlar, startaplar va marketologlar uchun juda mos bo‘lgan ushbu vosita bozorda ajralib turadigan o‘ziga xos nom topish muammosiga ijodiy echim taklif etadi.

Namelixning xususiyatlari:

1) Noyob nomlar: Namelix noyob va jozibali biznes nomlarini yaratish uchun eng zamonaviy sun’iy ong modellaridan foydalanadi;

2) Filtrlar tizimi: Foydalanuvchilar mukammal nomni qidirishda nom uzunligini belgilashi, kalit iboralarni kiritishi yoki domen kengaytmasini sozlashlari mumkin.



1-rasm. Namelix interfeysi

Fliki.

Fliki – sun’iy intellekt yordamida video yaratishni soddalashtiradigan innovatsion dastur. U matnni sun’iy ong ovozlari bilan jozibali video kontentga aylantirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, kontent yaratuvchilar, marketologlar va o‘qituvchilar uchun ajoyib echim hisoblanadi.

Flikining xususiyatlari:

1) Oson boshqaruv: Fliki oddiy yozuv muharrirni taklif etadi, bu video yaratishni ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalar kabi osonlashtiradi;

2) Tezkor kontent yaratish: Sun’iy ong foydalanuvchilarga bir necha daqiqa ichida video yaratish imkonini beradi.


Sun’iy intellektning asosiy jihatlari

1) Mashinani o‘qitish (Machine Learning) — tajriba asosida o‘zlashtirsa bo‘ladigan tizimlarni yaratish usullarini o‘rganadigan sun’iy intellekt bo‘limi.

2) Nutq bilan ishlash (Natural Language Processing) — bu soha inson bilan tabiiy tilda muloqot qila oladigan tizimlarni yaratishga qaratilgan.

3) Kompyuterning ko‘rishi (Computer Vision) — soha kompyuterlarning rasm va videolarni tanib olish hamda tahlil qilishiga imkon beruvchi usullarni ishlab chiqishga qaratilgan.

4) Robototexnika sohasida sun’iy intellektdan turli sharoitlarda ishlashga qodir avtonom tizim va robotlar yaratiladi[7,88].



2-rasm. Fliki interfeysi

Sun’iy intellekt (SI) — informatikaning insonga xos aqlni talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan kompyuter tizimlari va modellarini yaratishga bag‘ishlangan sohasi. Inson aql-idrokidan farqli o‘laroq sun’iy intellekt faoliyatni avtomatlashtiradigan, tajriba asosida o‘rganadigan va obrazlarni ajrata oladigan vosita va tizimlarni yaratishga intiladi.

SI kasalliklarni diagnostika qilish, aniqlash va yangi dori-darmonlarni ishlab chiqishda ishlatiladi. U ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va qurilishdagi jarayonlarni optimallashtirishda qo‘llanadi. Moliya sohasida esa sun’iy intellektdan bozorlarni tahlil qilish, tendensiyalarni taxmin qilish va investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda foydalaniladi. Sun’iy intellekt yordamida avtonom avtomobillar, trafikni boshqarish va marshrutlash tizimlarini yaxshilash mumkin.

SI va Tilshunoslik integratsiyasi sohalari (Sun'iy intellekt - Tilshunoslik)

- Tabiiy tilni qayta ishlash
- Avtomatik tarjima
- Avtomatik matn generatsiyasi
- Nutqni tanib olish
- Sentiment tahlil
- Diskurs tahlili

Sun’iy intellektning bir qancha turlari tilshunoslik bilan bog‘liqdir. Ular quyidagilardir[8,125]:

1. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing - NLP). NLP — sun'iy intellektning eng bevosita tilshunoslik bilan bog‘liq sohasi bo‘lib, inson

tillarini mashinalar orqali tahlil qilish, tushunish, ishlab chiqish va yaratishga qaratilgan. Misollar:

- Matnni tahlil qilish.
- Mashinaviy tarjima (Google Translate, DeepL).
- Nutqni matnga aylantirish (speech-to-text).
- Matndan nutqga aylantirish (text-to-speech).
- Avtomatik xulosa chiqarish (summarization).
- Matn tuzilishini va sintaktik tahlil qilish (syntactic parsing).

2. Kompyuter lingvistikasi (Computational Linguistics). Kompyuter lingvistikasi — sun’iy intellekt va tilshunoslikning kesishma nuqtasida joylashgan ilmiy soha bo‘lib, tillarni hisoblash usullari yordamida tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Misollar:

- Korpus lingvistikasi.
- Morfologik tahlil va generatsiya.
- Semantik tahlil.
- Sintaktik daraxtlarni yaratish.

3. Mashina o‘rganish (Machine Learning - ML). Mashina o‘rganish — NLP va tilshunoslikda ma'lumotlar asosida tillarni tushunishga o‘rgatish uchun qo‘llaniladi. Misollar:

- Matn tasnifi.
- His-tuyg‘ularni aniqlash (Sentiment analysis).
- Til modellarini yaratish (GPT, BERT).

4. Nutqni qayta ishlash (Speech Processing). Bu yo‘nalish inson nutqini tahlil qilish va mashina orqali qayta ishlash bilan bog‘liq. Misollar:

- Nutqni tanib olish (ASR - Automatic Speech Recognition).
- Nutqni sintez qilish (TTS - Text To Speech).
- Dialekt va aksentlarni aniqlash.

5. Semantik tahlil (Semantic Analysis). Matn yoki nutqdagi ma'no, kontekst, pragmatika, va semantik rollarni aniqlash. Misollar:


- Kontekstual tushunish.
- Savol-javob tizimlari (ChatGPT, Siri, Alexa).
- Avtomatik javob beruvchi tizimlar (chatbotlar).

6. Ko‘p tillilik va mashinalararo tarjima (Machine Translation - MT). Inson tillari orasida avtomatik tarjima qilish. Misollar:

- Google Translate.
- DeepL.
- Nevraviy mashinaviy tarjima (NMT).

7. Generativ sun’iy intellekt (Generative AI). Til asosida yangi matnlar, dialoglar yoki hikoyalar yaratish. Misollar:

- ChatGPT.
- Jasper AI.
- Ko‘p tilli matn generatsiyasi.



3-rasm. SI va Tilshunoslik integratsiyasi sohalari

Sun’iy intellekt texnologiyalari tilshunoslik sohasiga misli ko‘rilmagan yangiliklar olib kirmoqda. Ayniqsa, tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik tarjima, nutqni tahlil qilish, matn generatsiyasi kabi yo‘nalishlarda inson va mashina o‘rtasidagi tillar bo‘yicha aloqa deyarli inson darajasiga etmoqda. Biroq, ushbu texnologiyalar hali ham mukammallik darajasiga etmagan va xatoliklar, semantik noaniqliklar va madaniy tafovutlarni tushunish borasida izlanishlarni talab etadi. Kelajakda SI va tilshunoslik integratsiyasi yanada rivojlanib, inson tilini chuqur anglaydigan va unga mos echimlar taklif etuvchi tizimlar yaratilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirovich, X. S. (2024). Raqamli muhitda o ‘qitish texnologiyalari va modellari. Modern education and development, 11(3), 155-161.

2. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). Kompyuter lingvistikasida fonetik tahlil jarayoni. Modern Science and Research, 3(5), 191-195.

3. Botirovich, X. S. (2024). Kompyuter lingvistikasining bugungi kunda jahondagi ahamiyati. golden brain, 2(16), 26-30.

4. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O‘zbek tili kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar. computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).

5. Axmedovna, B. S. (2025, February). O‘zbekistonda xorijiy tillarning ahamiyati. In International Educators Conference (pp. 326-333).

6. Boymurotovna, X. N. (2025, March). Rus tilini o‘rganishda sun’iy intellekt va neyron tarmoqlarning roli. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 55-62).

7. Boymurotovna, X. N., qizi Oromova, S. S., Otajonova, K. R., & qizi Uralova, K.J. (2024). Moliya-bank sohasida sun’iy intellekt texnologiyalari. golden brain, 2(21), 86-90.

8. Botirovich, X. S. Murodullo o‘g, JOT, & Iskandar o‘g‘li, SB (2024). Python dasturlash tilining kelib chiqishi. Modern education and development, 11(3), 120-126.

O‘ZBEK TILINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI O‘RNI VA RIVOJI

Murtozaqulova Nafosatxon,
Andijon davlat chet tillari instituti talabasi.
Ilmiy maslahatchi: Abdullayev Sirojiddin Shaxsultanovich.

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbek tilining raqamli texnologiyalardagi roli va rivojiga bag‘ishlangan. Maqolada tilning raqamli platformalarda qanday rivojlanayotgani, uning ahamiyati va zamonaviy texnologiyalarda, xususan, sun’iy intellekt va avtomatik tarjima tizimlarida o‘z o‘rnini qanday egallashga qaratilgan izlanishlar ko‘rib chiqiladi. O‘zbek tili raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda, ma’lumot almashish va ta’lim tizimlarida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Maqolada tilning rivojlanishi uchun muhim bosqichlar va raqamli infratuzilma yaratish zarurati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Elektron platformalar, tarjima qilish, ilmiy texnologiyalar, global tendensiyalar, xalqaro tajribalar, semantik tahlil, raqamli imij, o‘zbek tiliga moslashtirish.

Abstract

This article is dedicated to the role and development of the Uzbek language in digital technologies. The article explores how the language is evolving on digital platforms, its importance, and its integration into modern technologies, particularly in artificial intelligence and automated translation systems. The Uzbek language, integrated with digital technologies, is creating new opportunities for information exchange and educational systems. The article also discusses essential stages of language development and the need to create digital infrastructure for the language.

Keywords: Electronic platforms, translation, scientific technologies, global trends, international experiences, semantic analysis, digital image, adaptation to Uzbek language.

Аннотация

Статья посвящена роли и развитию узбекского языка в цифровых технологиях. В статье рассматривается, как язык развивается на цифровых платформах, его значение и роль в современных технологиях, особенно в области искусственного интеллекта и автоматизированных систем перевода. Узбекский язык, интегрированный с цифровыми технологиями, создает новые возможности для обмена информацией и образовательных систем. В статье также обсуждаются важные этапы развития языка и необходимость создания цифровой инфраструктуры для языка.

Ключевые слова: Электронные платформы, перевод, научные технологии, глобальные тенденции, международный опыт, семантический анализ, цифровой имидж, адаптация к узбекскому языку

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, elektron platformalar tilshunoslik sohasida ham yangi davrni boshlab berdi. Endilikda til nafaqat muloqot vositasi, balki, tahlil qilish, ovozli buyruqlarni tushunish va ishlab chiqish kabi funksiyalarni bajarishga xizmat qilmoqda. Shu jarayonda o‘zbek tili ham raqamli muhitda o‘z o‘rnini topishi, axborot texnologiyalariga integratsiyalashuvi zarur bo‘lmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 21-oktabr kungi tabrigida davlat tilining zamon bilan hamnafas holda rivojlanishini millat ruhining asosiy tayanchi sifatida talqin qilib, raqamli imkoniyatlar orqali uni ilm-fan, iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot, diplomatiya kabi sohalarda ta’sirchan muloqot vositasiga aylantirish zarurligini ta’kidlagan edi: “Raqamli makonda davlat tilini keng joriy etishga mo‘ljallangan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, o‘zbek tilini axborot texnologiyalari sohasidagi yirik dasturlar tili qatoriga kiritish choralarini ko‘rish ham dolzarb vazifamiz bo‘lib qoladi”.[63] Ushbu chaqiriq o‘zbek tilining raqamli makondagi imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘zbek tilini rivojlantirish, uning texnologik jarayonlarga moslashuvi va xalqaro miqyosda keng qo‘llanilishini ta’minlash bugun jiddiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt va mashinani o‘rgatish texnologiyalari yordamida tilni qayta ishlash va tarjima qilish imkoniyatlari yanada kengaymoqda.

[63] O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 21-oktabrdagi tabrigidan

O‘zbek tilining raqamli tizimlar bilan integratsiyasi uchun ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish zarur. Masalan, avtomatik tarjima tizimlari, ovozli buyruqlarni tushunish va ularga javob berish kabi ilovalar yaratish orqali o‘zbek tilining raqamli platformalarda samarali ishlashini ta’minlash mumkin. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi raqamli materiallarning soni va sifatini oshirish, uni yangi ilmiy texnologiyalar va ilmiy izlanishlar bilan uyg‘unlashtirish ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. O‘zbek tilining axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanishiga doimo yangi yondashuvlar kerak. Raqamli tizimlar va sun’iy intellektning yuqori samarali ishlashi uchun, avvalo, tilni raqamlashtirish zarur. O‘zbek tilining raqamli platformalarda keng tarqalishini ta’minlash uchun maxsus lug‘atlar, elektron darsliklar, interaktiv platformalar va onlayn kurslarni yaratish muhim hisoblanadi. Shuningdek, davlat va xususiy sektorda o‘zbek tilining raqamli tizimlar bilan integratsiyasini kuchaytirish uchun yangi axborot texnologiyalariga tayyor, raqamli savodxonlikka ega mutaxassislar tayyorlash zarur.

O‘zbek tilining raqamli makonidagi o‘rni tobora kengayib bormoqda. Bu jarayonni yanada chuqurlashtirish va samarali qilish uchun davlat tomonidan maxsus tashabbuslar, grantlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, o‘zbek tilidagi axborot texnologiyalarini rivojlantirish, onlayn platformalarda ona tilida interaktiv xizmatlarni taqdim etish, hamda o‘zbek tilini sun’iy intellekt tizimlarida ishlashga moslashtirish kabi tashabbuslar bo‘lib o‘tmoqda.

O‘zbek tilining yozuv tizimi ham raqamli texnologiyalar va global tendensiyalar bilan hamnafas ravishda rivojlanmoqda. 1993-yilda qabul qilingan lotin yozuviga o‘tish qarori bu jarayonning muhim bosqichi bo‘ldi. Alifbo o‘zgarishi faqatgina yozuv tizimini yangilash bilan cheklanmaydi, balki tilning ta’limda, ilm-fanda, madaniyatda va kommunikatsiya jarayonlarida samarali qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida amalga oshirilmoqda.

Lotin yozuviga o‘tish jarayonida muhim masalalardan biri – o‘zbek tilining yangi alifbosini ishlab chiqish va uni raqamli tizimlarga to‘liq integratsiya qilishdir. Raqamli texnologiyalar orqali o‘zbek alifbosini raqamli platformalarda qo‘llash, uni turli dasturlar va tizimlarga moslashtirish, shuningdek, internetda o‘zbek tilini to‘liq qo‘llash imkoniyatlarini yaratish zarurdir.

Zero, globallashuv sharoitida milliy ong, madaniyat va tilning saqlanishi bevosita umumxalq birdamligi va tarixiy xotiraning barqarorligiga bog‘liq.O‘tgan asr boshlarida ma’rifatparvar jadid bobolarimiz “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya asosida maydonga chiqib, xalqimizni mustamlaka zulmidan xalos qilish, uni zamonaviy ilm-fan, kasb-hunar va madaniyatga oshno etish bo‘yicha ulkan ishlarni amalga oshirgan edilar. Ana shunday mushtarak maqsadlar, umummilliy birlik va ahillik bugun biz uchun har qachongidan ham muhim

ahamiyat kasb etmoqda[64] Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat iqtisodiyot yoki texnologiyalarni, balki madaniyat va til kabi ijtimoiy-madaniy tizimlarni ham chuqur o‘zgartirmoqda. Shunday bir davrda o‘zbek tilining raqamli makondagi mavjudligi va raqobatbardoshligini ta’minlash nafaqat texnologik, balki strategik-madaniy vazifa sifatida ham qaralmoqda. Chunki til – millatning ma’naviy poydevori, tafakkur shakllanishining asosiy vositasidir.[65]

Zamonaviy tilshunoslikdagi qarashlarga ko‘ra, har qanday tilning barqarorligi va rivoji uchun uning kommunikativ, kognitiv hamda texnologik funksiyalari uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim.[66] Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tilga yangi ma’nolar, yangi foydalanish maydonlarini olib kirar ekan, o‘zbek tili bu jarayonda passiv emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, davlat siyosati darajasida olib borilayotgan tashabbuslar, jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 21-oktabr sanasidagi chiqishida davlat tilining raqamli makondagi mavqeini mustahkamlashga alohida urg‘u berilgani – bu boradagi islohotlar uchun muhim turtki bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan tillar nafaqat o‘zining saqlanib qolishiga, balki global miqyosda ta’sir kuchiga ega bo‘lishga erishadi. Masalan, ingliz, xitoy va koreys tillarining texnologik tizimlarda keng qo‘llanilishi ularning jahon axborot makonidagi ustunligiga olib keldi.[67] Shu jihatdan qaraganda, o‘zbek tilini sun’iy intellekt, avtomatik tarjima tizimlari, semantik tahlil, ovozli interfeyslar, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy yondashuvlarga integratsiyalash bu tilda zamonaviy kontentlar yaratish, uni o‘rganish va o‘rgatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, hozirgi bosqichda o‘zbek tilini raqamli tizimlarga uyg‘unlashtirish yo‘lida quyidagi muhim yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur:

1. **Leksik-semantik resurslarni boyitish** – elektron lug‘atlar, tezkor tarjima bazalari va til korpuslarini yaratish;
2. **Texnologik platformalar bilan uyg‘unlik** – o‘zbek tilini Microsoft, Google, Apple kabi global platformalarda to‘liq qo‘llash imkoniyatlarini yaratish;

[64] O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 21-oktabrdagi tabrigidan

[65] Karimov, I. A. (1997). "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch." T.: O‘zbekiston.

[66] Crystal, D. (2001). "Language and the Internet." Cambridge University Press.

[67] Fishman, J. A. (2001). "Can Threatened Languages Be Saved? Reversing Language Shift, Revisited." Multilingual Matters.

3. **Raqamli savodxonlikni oshirish** – mutaxassislar va keng jamoatchilik uchun til va texnologiya integratsiyasi bo‘yicha treninglar, onlayn kurslar tashkil etish;

4. **Normativ-me’yoriy bazani yangilash** – o‘zbek tilining raqamli muhitdagi ishlatilishini tartibga soluvchi qonunlar va hujjatlar ishlab chiqish.

Shunday qilib, o‘zbek tilining raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi bu – oddiy til siyosati emas, balki xalqning intellektual salohiyati, tarixiy xotirasi va madaniy merosini kelajak avlodlarga texnologik vositalar orqali etkazish vositasidir. Bu jarayonda ilmiy yondashuvlar, milliy qadriyatlar va global tajribalarning uyg‘unligi hal qiluvchi omil bo‘lib qoladi.

Shu nuqtada til siyosatining raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi, ayniqsa, davlat tilining zamonaviy axborot vositalarida to‘laqonli faoliyat yuritishi masalasi dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunida ham davlat tilining barcha soha va tizimlarda qo‘llanishini ta’minlash zarurligi qayd etilgan bo‘lib, bu talab raqamli sohalarni ham qamrab oladi.[68]

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi kommunikativ muhitda tilning moslashuvchanligi va texnologik platformalarda ishtirok etish darajasi uning hayotiyligi va taraqqiyot ko‘rsatkichiga aylanmoqda. Tilshunos olima N.I.Tolstuxina o‘z tadqiqotida shunday yozadi: “Raqamli makonda tilning mavjud bo‘lishi — bu nafaqat til resurslarining elektron shaklda yaratilishi, balki tilga oid servislarning interaktiv va avtomatlashtirilgan ko‘rinishda ishlab chiqilishini ham talab qiladi”[69]

Bugungi kunda O‘zbekistonda bu borada dastlabki bosqichdagi tashabbuslar kuzatilmoqda. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tili korpusi” loyihalari, turli sun’iy intellektga asoslangan mobil ilovalar va tarjima vositalari orqali tilning raqamli shaklda qo‘llanish imkoniyatlari kengaymoqda. Ammo bu dasturlar va loyihalar hali to‘liq texnologik ekotizim darajasiga chiqmagan. Shu boisdan, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, xususan, Google Translate, DeepL, Papago kabi xizmatlardagi integratsiya modelini o‘zbek tiliga moslashtirish muhim hisoblanadi.[70]

Shuningdek, o‘zbek tilining raqamli imijini shakllantirishda grafik interfeyslar, mobil ilovalar, chatbotlar va ovoza interfeyslar (voice assistant) orqali

[68] O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1989, №22

[69] Толстухина, Н. И. (2019). Языковая политика в цифровую эпоху: вызовы и стратегии. – Москва: Наука, 124

[70] Gómez González, M. (2020). Language Technologies and Minority Languages in Digital Environments. Journal of Language and Technology, 17(2), 115–130.

tilning tabiiy ishlatilish muhitini yaratish zarur. Masalan, koreys tili bo‘yicha olib borilgan “Hangul Interface Optimization” loyihasi, yapon tilidagi “Language AI Inclusivity” tashabbuslari bu borada o‘rnak bo‘lishi mumkin.[71] Bu kabi yondashuvlar tilni faqat saqlab qolish emas, balki uni ilgari surish, yosh avlodga qulay va interaktiv muhitda etkazish imkonini ham beradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar zamonida til faqat aloqa vositasi emas, balki madaniy kod, identitet, hamda global raqobat maydonida milliy brendning asosiy omiliga aylanmoqda. O‘zbek tilining raqamli makondagi mavjudligi va faol ishtiroki esa bu tilda so‘zlovchilarning axborotga teng huquqli kirishiga, madaniy merosni saqlab qolishga hamda zamonaviy bilimlar asosida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Buning uchun o‘zbek tilini sun’iy intellekt tizimlariga integratsiyalash, lingvistik korpuslarni kengaytirish, avtomatlashtirilgan tarjima va tahlil xizmatlarini joriy etish, shuningdek, grafik interfeyslar va ovozli yordamchilar orqali real kommunikatsiya muhitida tilni faol qo‘llash imkoniyatlarini yaratish zarur. Bu esa tilni nafaqat saqlab qolish, balki uni yangi avlodlar uchun zamon bilan hamnafas bo‘lgan, raqobatbardosh va global axborot maydonida faol ishtirokchi tilda shakllantirishga olib keladi.

Shu boisdan, o‘zbek tilining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish strategiyasi faqat lingvistik masala emas, balki davlat siyosati, axborot xavfsizligi, madaniyat va ta’lim integratsiyasining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Zero, tilga e’tibor – millatga e’tibor, raqamli til – raqamli kelajak poydevoridir.

Foydanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1989, №22
2. Karimov, I. A. (1997). "Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch." T.: O‘zbekiston.
3. Толстухина, Н. И. (2019). Языковая политика в цифровую эпоху: вызовы и стратегии. – Москва: Наука, 124 с.
4. Gómez González, M. (2020). Language Technologies and Minority Languages in Digital Environments. Journal of Language and Technology, 17(2), 115–130.
5. Lee, J., & Kim, S. (2021). AI, Linguistic Diversity and User Experience: Korean and Japanese Models in Digital Interfaces. International Journal of AI and Culture, 4(1), 55–68.

[71] Lee, J., & Kim, S. (2021). AI, Linguistic Diversity and User Experience: Korean and Japanese Models in Digital Interfaces. International Journal of AI and Culture, 4(1), 55–68

6. Fishman, J. A. (2001). "Can Threatened Languages Be Saved? Reversing Language Shift, Revisited." Multilingual Matters.

7. Crystal, D. (2001). "Language and the Internet." Cambridge University Press.

ELEKRON SAYTLAR:

1. https://president.uz/
2. https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/21/uzbek-language/
3. https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/21/tabrik/

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMI ORQALI YOSHLARNING MA’NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH

Xayrullayeva Nigora Jamolxonovna,
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi.
Elektron pochta: nigoraxayrullayeva90@gmail.com
Telefon raqami: +99894 270 41 72

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Maqola yoshlarning ma’naviy rivojlanishida ta’limning o‘rni, uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari orqali ma’naviy qadriyatlarni o‘rgatishning ahamiyati hamda ta’lim tizimining ijtimoiy va pedagogik jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Uzluksiz ta’lim, yoshlar ma’naviy dunyoqarashi, ta’lim tizimi, ma’naviy rivojlanish, pedagogik yondashuvlar, qadriyatlar, ijtimoiy ta’lim, O‘zbekiston, xalqaro tajriba.

Аннотация

В статье анализируется вопрос развития мировоззрения молодежи в условиях Узбекистана через систему непрерывного образования. Рассматривается роль образования в духовном развитии молодежи, важность обучения духовным ценностям на всех этапах системы непрерывного образования, а также социальные и педагогические аспекты образовательной системы.

Ключевые слова: Непрерывное образование, мировоззрение молодежи, система образования, духовное развитие, педагогические подходы, ценности, социальное образование, Узбекистан, международный опыт.

Abstract

This article analyzes the issue of developing the spiritual worldview of youth through the continuous education system in Uzbekistan. The article highlights the role of education in the spiritual development of youth, the importance of teaching spiritual values through all stages of continuous education, and discusses the social and pedagogical aspects of the education system.

Keywords: Continuous education, youth’s worldview, education system, spiritual development, pedagogical approaches, values, social education, Uzbekistan, international experience.

Qardosh tillardan amalga oshirilayotgan tarjimalarda xato-kamchiliklar o‘tib ketishini shu bilan izohlash to‘g‘ri bo‘ladi. Bu mulohaza turkman tilidan tarjima qiladigan mutaxassislarga ham tegishli. Turkman tilini professional darajada bilmaganlari uchun deyarli barcha tarjimonlar sof turkmancha so‘zlar tarjimasida ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Masalan, ko‘p tarjimonlar *bevaj* so‘zini tarjima qilmay, aynan qoldirishadi. Turkman tilida *бивеч* – yo‘ldan ozgan, gumroh, buzuq, fosiq, sayoq, yaramas, qo‘lidan ish kelmaydigan, bir pulga qimmat odam kabi salbiy ma’nolarda qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa (biror sabab, asos bo‘lmagani holda; vajsiz, sababsiz) ma’nolarini bildiradi [8, 14]. Binobarin, Maxtumqulining:

Гумрах болуп, ёл йитирдим,
Отурдым бивечлер биле

kabi misralarini J.Sharipovning:

Gumroh bo‘lib, yo‘l yitirdim,
O‘ltirdim bevajlar bilan.

tarzida tarjima qilishi to‘g‘ri emas. E.Ochilov uni:

Gumroh bo‘lib, yo‘l yitirdim,
Topishdim beboshlar bilan.

deb to‘g‘ri tarjima qilgan. Lekin bu so‘z ko‘pincha boshqa tarjimonlarda ham aynan qoldiriladi. Yoki: «Магтымгулы айдар, багтым бивечдир» misrasini J.Sharipov «Maxtumquli, bildim: baxtim bevajdir» deb tarjima qiladi. M.Kenjabek ham misrani xuddi shunday so‘zma-so‘z tarjima qiladi: «Maxtumquli aytar: baxtim bevajdir». Afsuski, turkman tilidan yaxshi xabardor A.Jumayev va J.Zulpiyevlar ham bu borada avvalgi tarjimonlar xatolarini takrorlaganlar.

Izlanishlar natijasida soxta ekvivalentlar tarjimasi borasida Maxtumquli tarjimonlari juda ko‘p xato-nuqsonlarga yo‘l qo‘yishgani kuzatildi. Tarjima va asliyat taqqoslanganda *ат, кифоят, хатыра, яд* kabi qator turkmancha so‘zlarning o‘zbekchaga o‘girilgan variantlari soxta ekvivalent sifatida qiyosiy muhokama qilindi [8, 15].

Boshqa holatlar qatorida, leksik-fonetik yoki leksik-grammatik interferensiyalar natijasida kelib chiqadigan ifoda tomondan ayrim farqlar (grammatik yoki fonetik) bo‘lgan qisman kongruent so‘zlarning bir-biriga ta’sir etuvchi xatolarini qayd etish mumkin. Natijada, so‘z ona / dominant tilning shakllaridan kelib chiqib noto‘g‘ri ishlatiladi.

M.Zokirov [2] o‘z dissertatsiyasida Pirimqul Qodirovning «Xalq tili va realistik proza» kitobidan quyidagi misolni keltiradi:

O‘zbek va tojik xalqlari ming yillar mobaynida bir hududda yashaganliklari tufayli yuqorida keltirilgan leksik-semantik interferensiyaga oid misollarni faqat og‘zaki nutqdan emas, balki badiiy asarlardan ham keltirish mumkin. Bunday dalillar, ayniqsa, Sadriddin Ayniy asarlariga xos [7, 166].

«Qullar» romanining o‘zbekcha variantida shunday holat kuzatiladi:

«Cholning boshidagi oq qo‘y terisidan tikilgan telpak, ***ustidan o‘ralgan ikki-uch pechlik salla****, sallaning ustidan qadalgan misvak va joynamoz ustida chipor ilondek cho‘lg‘anib yotgan hurma danagidan yasalgan uzun tasbeh bu cholning so‘filardan biri bo‘lganini ko‘rsatar edi. Qora uyning ichida to‘shalgan qimmatbaho pandi kigizi, uyning o‘rta beliga yonib turg‘an gulxan va uning ustida doimo osilib turg‘an qora* ***choyjushi*** *bu cholning* ***mehmonnavoz*** *bir kishi ekaniga dalolat qilar edi.*

Mazkur parchada Buxoro va Samarqand o‘zbeklarining nutqida uchraydigan tojikcha so‘zlarni qo‘llash kuzatiladi. «*Choydish*» o‘rnida «*choyjushi*», «*mehmondo‘st*» o‘rnida «*mehmonnavoz*» qo‘llangan. Mazkur so‘zlar tojik adabiy tili me’yorlariga to‘la to‘g‘ri kelsa ham, o‘zbek tilida qo‘llanishi bir oz erishroq tuyuladi. «*Telpak ustidan o‘ralgan ikki - uch pechlik salla*» jumlasini olaylik. O‘zbek tilida «*sallaning pechi*» birikmasi boshga o‘ralgan sallaning chekkadan osiltirib qo‘yilgan qismi, uchiga nisbatan qo‘llanadi» [11, 582]. Aslida bu o‘zbek tilidagi «*pech» o‘ram* emas, «*pesh» («oldi, uchi*») degan so‘z bo‘lsa kerak. Ammo o‘zbek tiliga «*pech*» shaklida kirib kelgan. Sadriddin Ayniy esa telpakka ikki - uch o‘ralgan sallani tojikcha «*pechidan» («o‘ralmoq»)* so‘zining o‘zagiga moslab, «*ikki - uch pechlik salla*» deb tasvirlaydi. Vaholonki, bu jumla o‘zbekchada tojik tiliga nisbatan butunlay teskari ma’noni bildiradi, ya’ni telpakka ikki-uch o‘ralgan sallani emas, aksincha, telpakdan ikki-uch pechi osilgan sallani anglatadi. Buni Oybekning «Navoiy» romanidan olingan quyidagi misol ham tasdiqlaydi: «*Uzun pechi osilgan katta sallali boshini chayqadi*».

«Ma’lumki, turkman tili turkiy tillarning janubi-g‘arbiy (o‘g‘uz) gruppasiga taalluqli til hisoblanadi. O‘zbek tili esa turkiy tillarning qarluq gruppasiga xos. Bu ikki til vakillari asrlardan beri bir-birlari bilan yonma-yon, bir xil moddiy-madaniy, siyosiy-tarixiy sharoitda yashab kelishgan. Shu sababli ularning tillarida umumturkiy leksik-grammatik xususiyatlar ko‘p uchraydi».

Ba’zan turkman tilini yaxshi bilmaslik tarjimonni adashtiradi. Masalan, E.Ochilov ham o‘zining dastlabki tarjimalarida bir qator xatolarga yo‘l qo‘ygan. Avvalgi mutarjimlarning ba’zi xatolari uning tarjimasida ham aynan takrorlangan (masalan, *сўнам* – (sanam), *жахыллык* – (johillik), *дуллук* – ko‘p (to‘liq so‘zidan kelib chiqib), *көз* (cho‘g‘) – ko‘z, *ышык* (chiroq) – oshiq va hokazo). Uni ham sof turkmancha so‘zlar va soxta ekvivalentlar chalg‘itgani kuzatiladi [10, 24]. J.Sharipov tarjimalarini til nuqtai nazaridan tekshiradilar; tarjimonni xato qilishga majbur etgan o‘zbek va turkman tilidagi «shaklan yaqin va mazmunan yiroq» so‘zlarni tillararo omonimlar hamda tillararo paronimlar deb ikki guruhga ajratib o‘rganadilar» [10, 46-53]. Bunda omonimlarga turkmancha *жахыл* (yosh yigit) so‘zining *johil*, *nodon*, shunga muvofiq, *жахыллик* (yoshlik)ning johillik, *ал* (ayyor, hiylagar) ning *qo‘l* deb noto‘g‘ri o‘zbekchalashtirishi, paronimlarga *дон* (to‘n) ning *дон*, *муче* (a’zo, uzv) ning muchal, *дуллук* (tullik)ning to‘liq, *хөдур* (tavsiya, taklif)ni bekor, *дуймаз* (sezmas, bilmas)ning to‘ymas, *бела* (balo) ning bola, угратдым (kuzatdim, jo‘natdim)ni uchratdim deb tarjima qilinishini keltirishadi. Olimlar bunday «aldoqchi so‘zlar»ning tarjimonga pand berishining asosiy sababi sifatida uning turkman tilini etarli darajada bilmasligini ko‘rsatadilar va kelgusida bu xildagi xatolarning oldini olish maqsadida o‘zbekcha-turkmancha, turkmancha-o‘zbekcha lug‘atlar tuzishni taklif qiladilar [10, 52].

Shunga o‘xshash misollar M. Shvey va O.Leshakning polyak-rus va polyak-ukrain tillararo leksik-semantik nomutanosibliklar asarida ko‘rib chiqilgan [13, 111-134]. Masalan, derivatsion interferensiya natijasida polshalik rus tilidagi «*защита*» o‘rniga «*защищение*», rus tilidagi «*почувствовал себя*» o‘rniga «*почувствовался*», rus tilidagi «*музыкальный*» o‘rniga «*музычный*», rus tilidagi «*пробуждение*» o‘rniga «*перебуждение*», rus tilidagi «*выпачканный*» o‘rniga «*упачканный*», rus tilidagi «*ухудшилась*» o‘rniga «*похудела (погода)*» deb ishlatishi mumkin [13]. Bu holatni o‘zbek-rus tili misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Yaqindagina diplom olib, radioda ishlayotgan yosh “mutaxassis” tomonidan aytil “Lev Tolstoyning “Yakshanba” romani bor” deganligini olishimiz mumkin. Rus tilidagi *воскресение* 'tirilish' va *воскресенье* - 'yakshanba' derevatsion interferensiyaning natijasidir.

Kongruent so‘zlar natijasida kelib chiqqan tillararo interferensiyaning yana bir turi – bu sintaktik interferensiya, ya’ni ona tilining shakl va mazmun jihatdan o‘xshash konstruksiyalari ta’siri ostida chet tilida g‘aliz jumla va so‘z birikmalarini tuziSh. Masalan, «от мысли о ... » o‘rniga «облизывался на мысль о ... » (polyak tilida «na myśl o ...»), «в тот день» o‘rniga «того дня» (polyak tilida «tego dnia»), «в отличие от ... » o‘rniga «в противоречии до ... » (polyak tilida «w przeciwieństwie do ... ») yoki «на камне» o‘rniga «на камню», «ныряющих уток» o‘rniga «смотрит на ныряющие утки», «на автобусе» o‘rniga «еду автобусом», «вернулся в палатку» o‘rniga «вернул в палатку», «проверили у нас билеты» o‘rniga «проверили нам билеты», «улыбался ей» o‘rniga «улыбался до нее», «недалеко от нашего дома» o‘rniga «недалеко нашего дома», «за дерево» o‘rniga «цепляясь дерева», «работавший» o‘rniga «работающий тогда в столице», «оставив» o‘rniga «умерла, оставляя маленького сына», «уютная» o‘rniga «она очень уютна» [13]. Sintaktik interferensiyaga doir ko‘plab misollarni tojiklarning o‘zbek tilidagi nutqida uchratish mumkin. Masalan, o‘zbekcha inkor gaplarning kesimi funksiyasida qo‘llanadigan emas, yo‘q so‘zlari tojik tilidagi ne inkor yuklamasiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun tojik tilining semantik – sintaktik interferensiyasi natijasida mazkur so‘zlar o‘zaro almashuvi mumkin. Masalan:

- Bugun jumami?
- Yo‘q, bugun juma yo‘q, shanbe.

Jo‘ra kecha kelgani emas.

Bu o‘roq yo‘q, kach kort [2, 82].

Ayrim holatlarda yuqorida ko‘rib o‘tilgan interferensiyaning bir nechta turlari birgalikda murakkab holatlarda ham uchrashi mumkin.

Bilingv nutqidagi bunday interferensiyani oldini olish uchun, avvalambor, taqqoslanadigan tillarning lug‘at boyligini kontrast holda tahlil qilish kerak. Uning maqsadi uslubiy buyoqdorlikka ega, qo‘llanilish chastotasi, foydalanish sohasi, konnotatsiyasi, shuningdek, jins, shaxs-son singari grammatik farqlanishlarga ega bo‘lgan kongruent so‘zlarni ajratib ko‘rsatishdir. Keyingi qadam – bu interferensiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan kongruent so‘zlar lug‘atlarini tuzish va nashr etish, shuningdek, bunday lug‘atni to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun interferensiyaga qarshi mashqlar to‘plamini yaratishdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Акуленко В.В., Комиссарчик С.Ю., Погорелова Р.В., Юхт В.Л. Англо-русский и русско-английский словарь "ложных друзей переводчика". – М., 1969. – С. 374-375.

2. Зокиров М.Т. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007.

3. Қулдашев Н. А. Эколингвистика: ўзбек тилида тил ва нутқ софлигининг лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. . – Фарғона, 2021. – Б. 20

4. Нурмонов А. Раҳимов А. Лингвосинергетикага кириш. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 79.

5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Олий ўқув юртлари ўзбек филологияси факультетларининг талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.11.

6. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М., 1975. – С.36.

7. Пиримқул Қодиров. Халқ тили ва реалистик проза. Т., «Фан», 1973, 166-бет.

8. Сапаева Ф. Махтумқули шеърлари ўзбекча таржималарининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 14.

9. Сковородников А.П. Экология современного русского языка и роль средств массовой информации в этом процессе. https://gazeta.sfu-kras.ru/node/307 (murojaat sanasi20.12.2019).

10. Тайлақова М., Сапаров М. Махтумқули асарлари тилининг ўзбекча таржимасига баъзи бир қайдлар. Ўзбек филологияси масалалари (Илмий асарлар тўплами). – Т.: Фан, 1990. – Б. 52.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М., «Рус тили», 1981, I-т., 582-бет.

12. Чуковский К. Высокое искусство. Собрание сочинений в 15 томах, том 3. – М. Агентство ФТМ, Лтд, 2012. – С. 330.

13. Швей М., Лещак О. Польско-русские и польско-украинские межъязыковые лексико-семантические диспропорции. Studia Rusycystyczne Akademii Świętokrzyskiej, том 11. – Kielce 2002. – С. 111-134.

14. Шилоносова А.А., Перевод интернациональной лексики. http://ttech.pstu.ac.ru/mnp04/mnp04/s6/6_3.rtf .(murojaat sanasi20.05.2019)

15. Ярцова В.Н. Развитие национального литературного английского языка. - М., 2021. – 286 с.

XURSHIDNING TARJIMONLIK MAHORATI

Ergash OCHILOV,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
bo‘lim mudiri, filologiya fanlari nomzodi,
E-mail: e-ochilov@mail.ru. Tel: +998946204764

Annotatsiya

Maqolada Sharq so‘z san’ati bilimdoni Xurshidning tarjimonlik mahorati u muvaffaqiyat bilan amalga oshirgan Xo‘ja Hofiz g‘azal va ruboiylari tarjimasi tahlili misolida ko‘rsatib beriladi. Fors tili va adabiyotini, mumtoz she’riyatimizning uslubini yaxshi bilgan mutarjim Hofiz g‘azallari tarjimasi misolida tarjimada asliyat ruhiga kirish, muallif uslubini saqlash, asarning o‘ziga xos ichki musiqasi va ohangini etkazishning go‘zal namunalarini namoyon etibgina qolmay, forsiy va turkiy adabiyotning mushtarak an’analari va umumiy jihatlari asosida asrlar mobaynida qaror topgan vazn, qofiya, radif, mavzular olami, obrazlar ko‘lami, har ikki tilda mavjud so‘z va iboralardan samarali foydalanish imkoniyatlariga e’tibor qaratdi va bu omillarning tarjima muvaffaqiyatini ta’minlash yo‘lidagi imkoniyatlarini o‘z tarjimalari misolida ko‘rsatib berdi. O‘zining aruzda bajarilgan sof o‘zbekona tarjimalari bilan hozirgi o‘zbek tili ham aruz talablariga javob berishini amalda isbot etdi. Tarjimadan maqsad aslida u yoki bu asarning mazmunini ikkinchi bir tilda qayta yaratishning o‘zigina bo‘lmay, uni o‘sha tilda jaranglata olish, tarjima qilinayotgan xalq adabiyotining adabiy hodisasiga aylantirishdan iboratdirki, Hofiz g‘azallari tarjimasida Xurshid bu vazifaning uddasidan chiqqan.

Kalit so‘zlar: Hofiz, Xurshid, tarjima, tarjimon, g‘azal, ruboiy, aruz, vazn, mazmun, shakl, san’at, radif, mahorat.

Аннотация

В статье демонстрируется переводческое мастерство Хуршида, знатока восточного литературного искусства, через анализ его удачных переводов газелей и рубаев Ходжи Хафиза. Переводчик, прекрасно владеющий персидским языком и литературой, стилем нашей классической поэзии, не толко продемонстрировал прекрасные примеры вхождения в дух аутентичности перевода, сохранения авторского стиля, передачи неповторимой внутренней музыки и мелодики произведения на примере перевода газелей Хафиза, но и обратил внимание на метрику, рифму, аллитерасию, тематический мир, круг образов, возможности эффективного исползования существующих в обоих языках слов и словосочетаний, которые сложилис на протяжении веков на основе общих традисий и общих аспектов персидской и туреской литературы, и продемонстрировал

потенсиал этих факторов в обеспечении успешности перевода на примере собственных переводов. Своими переводами на чистый узбекский язык он на практике доказал, что современный узбекский язык также отвечает требованиям аруза. Сел перевода — не просто воссоздат содержание произведения на другом языке, а заставит его звучат на этом языке, превратит его в литературный феномен переводной народной литературы, и Хуршид преуспел в этой задаче в своем переводе газелей Хафиза.

Ключевые слова: Хафиз, Хуршид, перевод, переводчик, газел, рубаи, аруз, метрика, содержание, форма, искусство, редиф, мастерство.

Annotation

The article demonstrates the translation skills of Khurshid, a scholar of Eastern word art, on the example of his successful analysis of the translation of Khoja Hafiz's ghazals and rubais. The translator, who knows the Persian language and literature, as well as the style of our classical poetry, not only demonstrates beautiful examples of entering the spirit of authenticity in translation, preserving the author's style, and conveying the unique inner music and melody of the work, but also draws attention to the possibilities of effective use of meter, rhyme, alliteration, world of themes, scope of images, and words and phrases existing in both languages, which have been established over the centuries on the basis of common traditions and common features of Persian and Turkish literature, and shows the possibilities of these factors in ensuring the success of translation on the example of his own translations. With his purely Uzbek translations, he practically proved that the modern Uzbek language also meets the requirements of the aruz. The goal of translation is not just to recreate the content of a work in another language, but to make it resonate in that language, to turn it into a literary phenomenon of the translated folk literature, and in his translation of Hafiz's ghazals, Khurshid has succeeded in this task.

Key words: Hafiz, Khurshid, translation, translator, ghazal, rubai, aruz, weight, content, form, art, radif, mastery.

O‘zbekistonda Hofiz Sheroziy g‘azallari tarjimasi xususida so‘z ketguday bo‘lsa, barchaning ko‘z oldiga darhol zabardast mutarjim, forsiy adabiyot bilimdoni Xurshid keladi. Bu – bejiz emas. Chunki Xurshid lison ul-g‘ayb Hofiz she’rlari tarjimasiga birinchi bo‘lib qo‘l urgan va bu ishni muvaffaqiyat bilan amalga oshirgan tarjimon hisoblanadi. U Hofizning ruhiga kirib, dilini anglab, uslubiga kalit topib, shoirning otashnafas g‘azallarini o‘zbekchada aslidagiday jaranglata olgan. Shuning uchun ham garchi Hofiz she’rlari tarjimasiga ko‘pchilik

jur’at etgan bo‘lsa-da, hech kim bu borada Xurshidning oldiga tusha olgan emas. Xurshid o‘zining h o f i z o n a tarjimalari bilan boshqa tarjimonlardan alohida ajralib turadi.

O‘zbek musiqali dramaturgiyasining asoschilaridan biri, taniqli shoir, zabardast mutarjim, matnshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1941) Xurshid – Shamsiddin Sharafiddinov (1892 – 1960) Toshkent shahrida tug‘ilgan. Eski maktab va madrasa tahsilini ko‘rgan. Madrasada fors va arab tillarini o‘rganish bilan birga, Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Fuzuliy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi forsiy va turkiy adabiyotning ulkan so‘z san’atkorlari ijodini ham ishtiyoq bilan mutolaa qiladi. Ayni paytda, o‘zi ham she’r yoza boshlaydi. Ularni o‘qir ekan, shoirning Sharq so‘z san’atini naqadar teran bilishini anglash qiyin emas. Bu haqda Xurshidning o‘zi shunday yozadi:

Yassaviy, Jomiy, Navoiy Xurshid ustodi ekan,
Bo‘lg‘usidur xalq aro ash’orim e’joz oqibat [5,305].

U o‘z davrining Zavqiy, Kamiy, Avloniy, Qodiriy, Miskin, Xislat, Hamza, Ayniy, So‘fizoda, Saidahmad Siddiqiy, Mirmuhsin Shermuhamedov kabi peshqadam namoyandalari bilan yaqin aloqada bo‘lgan. “Devoni Shohidiy” (1912) va “Devoni Sharafzoda Toshkandiy” (1913) devonlarini tuzadi. “Armug‘oni Shukriy”, “Armug‘oni Xurshid Sharaf” kabi bayozlar ham tartib bergan. She’rlari hofizlar e’tiboriga tushib, qo‘shiq qilib kuylangan. Mulla To‘ychi hofiz ijro etgan “Ushshoq”, “Bayot”, “Dugoh”, “Segoh”, “Chorgoh” shular jumlasidandir.

Xurshidga o‘z asliy ijodi emas, balki Alisher Navoiy va Abulqosim Firdavsiy asarlari asosida yaratgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” musiqali dramalari hamda “Siyovush” opera librettosi, Hofiz Sheroziy g‘azallaridan qilgan tarjimalari katta shuhrat keltirdi. Holbuki, u shoir va dramaturg sifatida 30 dan ortiq pyesa va 12 sahnaviy she’riy dialoglar yaratib, turli tillardan 30 ga yaqin sahna asarlarini tarjima qilgan. O‘zbek mumtoz adabiyotining etakchi namoyandalari – Durbekning “Yusuf va Zulayxo” dostoni, Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin”, Munisning “Munis ul-ushshoq” devonlarini nashrga tayyorlab, chop ettirgan.

O‘zbek o‘quvchilari Hofiz ijodi bilan o‘z tillarida 1958 yili ilk marta tanishdilar. Shu yili shoirning 82 g‘azal, 40 ruboiy, tarje’band va soqiynomasini o‘z ichiga olgan to‘plami tarjima qilinib, nashr etildi [6]. Bu g‘azallarning 64 tasi, ya’ni to‘rtdan uch qismidan ko‘prog‘ini, ruboiylarning 23 tasi – yarmidan ortig‘ini

Xurshid muvaffaqiyat bilan tarjima qilgan. Shu ma’noda, aytish mumkinki, o‘zbek o‘quvchilarini ilk bor Hofiz ijodi bilan tanishtirgan mutarjim Xurshid hisoblanadi. U faqat tanishtiribgina qolmay, shoir she’rlarini qiyomiga etkazib o‘zbekchalashtirganki, mana, oradan salkam yarim asr o‘tganiga qaramay, Hofiz asarlari tarjimasiga Chustiy, Vasfiy, Sh.Shomuhamedov, J.Jabborov, E.Vohidov, O.Erkin, O.Muxtor, O.Bo‘riyev, S.Sayyid, M.Kenjabek, E.Ochilov kabi qator mutarjimlar qo‘l urgan bo‘lsalar-da, haligacha undan o‘tkazib tarjima qilgan tarjimon chiqmadi.

Xurshid fors tili va adabiyotini, mumtoz so‘z san’atimizning uslubini yaxshi bilishdan tashqari, Hofiz ruhiga kirgan, shoir g‘azallarining jarangosini topa olgan. Shuning uchun ham uning tarjimalari boshqalarnikidan ko‘ra muvaffaqiyatli chiqqan. Darhaqiqat, Xurshid tarjimalarida shoir g‘azallariga xos jo‘shqin va isyonkor ruh, jozibali va dilo‘rtar ohangni dark etamiz:

Ayo, soqiy, sunib joming, qil ehson, yashnasin dillar,
Ko‘rundi avval ishq osonu so‘ngra tushdi mushkillar [6,23].

Birinchi misrasi arabcha, ikkinchisi forscha – shiru shakar tarzida yozilgan bu baytning naqadar qoyilmaqom qilib o‘zbekchaga o‘girilganligiga ishonch hosil qilish uchun uning asl matnini keltirish kifoya:

Alo yo ayyuhassoqi, adir ka’san va novilho,
Ki ishq oson namud avval vale aftod mushkilho [6,22].

Tarjimaning tarjima ekanligi bilinmasa, o‘quvchi uni vatan adabiyoti namunasi kabi o‘qisa, mutarjim o‘z zimmasidagi vazifani to‘liq va mukammal bajargan hisoblanadi. Hofiz she’rlari tarjimasida Xurshid o‘z oldiga xuddi shu vazifani qo‘ygan va ko‘p hollarda bunga erishgan ham. Chunonchi, quyidagi baytlarni o‘qir ekan, Hofizning o‘zi o‘zbekcha yozgan, deb yuborasiz:

Sun, ey soqiy, maying oxirgacha – jannatda topmaysan
Bu Ruknobod qirg‘og‘idagi so‘lim Musalloni...

G‘azal bitdingu dur sochding, yoqimli kuyla, ey Hofiz,
Falak nazmingga gavhardek nisor etsin Surayyoni [6,29].

Vazn ham bir – hazaji musammani solim, ruh va ohang ham bir – jo‘shqin va jozib:

Bideh soqiy, mai boqiy, ki dar jannat naxohi yoft
Kanori obi Ruknobodu gulgashti Musalloro...

G‘azal guftivu dur sufti, biyovu xush bixon, Hofiz,
Ki bar nazmi tu afshonad falak iqdi Surayyoro [6,28].

Tarjima turlari ichida eng murakkabi va mashaqqatlisi bu – she’riy tarjima. Chunki bunda nafaqat she’rning asosiy ma’no-mazmunini, balki shakli va hajmini ham asliyatga muvofiq holda qayta tiklash taqozo qilinadi. Aytaylik, nasriy asar tarjimasida mutarjim bu borada ancha erkin. Agar 100 betlik asarni u 120 sahifa qilib o‘tirsa, bu tabiiy deb qabul qilinadi. Sababi: tarjima hajmi hamisha asliyatga nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Bu bir tildagi matnning ikkinchisiga interpretatsiya qilinishi bilan bog‘liq hodisa. She’riy tarjimada esa mutarjimning bunday yo‘l tutishga, masalan, 5 baytlik g‘azalni 6 bayt qilib o‘tirishga haqqi yo‘q. Har bir baytdagi mazmunni boshqa tilga ham bir bayt qilib o‘girish kerak. Bu esa oson emas. Boz ustiga, ma’no teran, falsafiy mazmun quyuq, she’riy san’atlar serob bo‘lsa! Ba’zan muayyan olingan bir so‘z bir necha ma’noni ifodalab keladiki, uning ana shu barcha ma’nolarini boshqa tilda ham qayta eks ettirishning deyarli iloji yo‘q. Shu bois ham badiiy tarjima uchun tabiiy bo‘lgan qurbonliklar miqdori she’riy tarjimada ko‘proq bo‘ladi. Lekin mohir mutarjimlar hamisha boy berilgan unsurlar o‘rnini boshqa jihatlardan to‘ldirishga intiladilar. Bu holni Xurshidning ham ko‘plab tarjimalarida uchratamiz. Masalan:

Hadis az mutribu may go‘vu rozi dahr kamtar jo‘,
Ki kas nakshudu nakshoyad ba hikmat in muammoro [6,28].

Mazmuni: “Cholg‘uvchidan, maydan ko‘proq so‘zlab, dunyo sirini kamroq izla, chunki hech kim bu muammoni hikmat bilan echganmas va echolmaydi ham”.

Xurshid vazn taqozosiga ko‘ra “yechmagan va echolmaydi” iborasini o‘zbekchada berolmaydi, to‘g‘rirog‘i, ulardan bittasi – “yecholmaydi”ni aks ettiradi, lekin uning o‘rniga o‘zidan “og‘ir” so‘zini qo‘shib, bu muammoning naqadar mushkul ekanligiga urg‘uni kuchaytirish bilan boy berilgan qurbonlik o‘rini qaysidir ma’noda to‘ldiradi:

Gapir cholg‘uchidan, maydan, jahon sirrini kam izla,
Yecholmas hech kishi hikmat-la bu og‘ir muammoni [6,29].

“Asl nusxani o‘z vazni bilan o‘girganda tarjimon uchun ancha engillik tug‘ilsa-da, biroq u hamma qiyinchiliklardan qutulmaydi.

Tarjimon oldida endi har bir baytdagi mazmunni vaznga **qayta sig‘dirish** vazifasi turadi. Asl nusxa baytlaridagi so‘zlar, jumlalar o‘zbekchaga o‘girilganda hamma vaqt ham forscha so‘zlarning vazn o‘lchoviga to‘g‘ri kelavermaydi-da! O‘zbek tili fonetikasi va sintaksisining o‘z xususiyatlari mavjud. Forscha so‘zlar o‘zbekchaga aylanganda ruknlarning o‘lchovidan kam yoki ko‘p bo‘lib chiqishi, hijolarning uzun-qisqaligi, o‘zaro kombinatsiyasida farq bo‘lishi tabiiy holdir. Katta tajriba hosil qilgan mohir tarjimongina bu nomuvofiqlikni bartaraf qila oladi” [2,39].

Xurshid ana shunday tajribali va mohir mutarjim edi.

Ma’lumki, forsiydan turkiyga tarjima ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lsa-da, kichik lirik asarlar – g‘azal, ruboiy, qit’a va boshqalar tarjimasi asosan XX asrning ikkinchi yarmida boshlandi. Shuning uchun o‘zbek adabiyotida g‘azal tarjimachiligi ham Xurshid nomi bilan bog‘lanadi. U Hofiz Sheroziy g‘azallaridan qilgan tarjimalari bilan nafaqat g‘azal tarjimachiligini boshlab berdi, ayni paytda, uni yuqori pog‘onaga ko‘tardi ham. Shuning uchun ham taniqli tarjimashunos Najmiddin Komilov unga “G‘azal tarjimasining Xurshidi toboni”, deb ta’rif bergan edi [3,210].

Shu o‘rinda, ikki hodisani ta’kidlab o‘tish lozim:

1) hozirgi tilimiz fors-tojik tilidan uzoqlashib, endi unga arabiy-forsiy emas, balki rus va evropa so‘zlari kirib kela boshladi;

2) she’riyatimizning asosiy vazni aruz emas, balki barmoq bo‘lib qoldi.

Bularning barchasi tarjima ishini murakkablashtiradigan hodisalar jumlasiga kiradi. Zero, mutarjim vaznni saqlab qolaman desa, matn bugungi o‘quvchiga tushunarsiz bo‘lishi mumkin, sof o‘zbekcha tarjima yarataman desa, vazn muammosi ko‘ndalang bo‘ladi.

Biz hali mumtoz so‘z san’atidan butunlay uzilib ketganimiz yo‘q. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabi shoirlar asarlarini xalqimiz sevib o‘qiydi, ular maktablar va oliy o‘quv yurtlari dasturiga kiritilgan. Binobarin, mumtoz adabiyotdan bahramand o‘quvchilarda ma’lum darajada “arxaik” so‘z jamg‘armasi bo‘ladi. Tarjima jarayonida buni hisobga olish kerak. Mumtoz shoirlarni tarjimada o‘ta zamonaviylashtirish ham o‘zini oqlamaydi: ularni o‘tmishdan butunlay ajratib olmagan holda, zamonaviy tarjima qilish kerak. Ya’ni, ularning asarlari tarjimasini zamonaviy o‘quvchi tushunsin, ayni paytda, qaysidir darajada an’anaviy unsurlar ham aks etib, bu asarlarning zamonaviy emas, balki mumtoz adabiyt namunasi ekanligini eslatib tursin. Bu borada Xurshid o l t i n o‘ r t a l i q ni topa olgan: o‘zbek o‘quvchisi Hofiz g‘azallarini bir vaqtning o‘zida

ham mumtoz, ham zamonaviy so‘z san’ati namunasi sifatida qabul qiladi. Chunki tarjimon “klassik she’riyat uslubidan mavridi bilan o‘rinlatib foydalangan holda, hozirgi o‘zbek tili talablarini qondirgan. Natijada tarjima hozirgi o‘zbek kitobxoniga tushunarli va manzur bo‘lish barobarida, ayni paytda, g‘ a z a l r u h i n i ajib bir tarzda aks ettirgan. Bu Xurshid tarjimalariga xos umumiy prinsipdir” [3,174].

Xurshidning mumtoz adabiyot ruhida tarbiya topgani, o‘zi ham g‘azal yozib, tajriba orttirgani Hofiz she’rlari tarjimasida unga qo‘l kelgan, albatta:

Suxandonivu xushxoni namevarzand dar Sheroz,
Biyo, Hofiz, ki to xudro ba mulki digar andozem [6,146].

Bilimdonlik va xushxonlik emas Sherozda hech manzur,
Kel, ey Hofizki, biz yuzni bo‘lak yurtga o‘girgaymiz [6,147].

She’riy tarjimaga baho berganda uning umumiy mazmuni va ruhi boshqa tilga qanday ko‘chganligiga qarab hukm chiqarish kerak. “Mana bu so‘z tashlab ketilibdi, mana bu ma’nolardan biri aks etmabdi”, – deb mayda-chuyda qusurlar qidiraverish nojoiz. Chunki she’rni uning barcha ma’no tovlanishlariyu badiiy unsurlari bilan to‘la va mukammal tarjima qilish juda mushkul va ba’zan buning iloji ham yo‘q. Bunday kamchiliklar Xurshid tarjimalarida ham talaygina. Jumladan:

Hame kas tolibi yorand, chi hushьyoru chi mast,
Hama cho xonai ishq ast, chi masjid, chi kunisht [6,58].

Bu erda Hofiz takror san’atini qo‘llab, baytning go‘zal va ta’sirchan chiqishini ta’minlangan. Xurshid esa, mazmunni o‘zbekchaga to‘la o‘girgani holda, takror san’atini aks ettirishning ilojini topolmagan. Natijada o‘zbekcha bayt forschadagi kabi ta’sirchan chiqmagan:

Mastu hushyor – hama odamga talabdur dildor,
Farqi yo‘q – sevgi uyi masjidu ham dayri xarob [6,59].

Lekin Hofizning mana bu go‘zal g‘azali tarjimasida Xurshid takror san’atini ajoyib tarzda yarata olgan:

Ro‘zi vasli do‘stdoron yod bod,

Yod bod, on ro‘zgoron yoz bod! [6,68]

Do‘stlar bazmi visolin esda tut,
Esda tut do‘stlar jamolin, esda tut [6,69].

She’riy tarjimaning murakkabliklaridan yana biri shundaki, she’rning g‘oya va mazmunidan tashqari, uning vazni va shakliy qurilishini ham asliga muvofiq holda qayta yaratish kerak. Ta’bir joiz bo‘lsa, ular she’riy tarjimaning ikki qanotidir – bir qanotidan ayrilgan qush parvoz qilolmaganidek, ulardan biridan ayri tarjima ham to‘laqonli bo‘lmaydi. Bir vazndagi she’rni boshqa vazngа solib o‘girish uning ritmu ohangi, ruhini o‘zgartirgani kabi ta’sirchanligini ham yo‘qqa chiqaradi. Shuning uchun asliyatga muvofiq vazn topish – she’riy tarjimaning dastlabki shartidir. “Biz she’riy sistemalarini (aruzni aruz bilan, barmoqni barmoq bilan) emas, balki ob’yektiv imkoniyat mavjud bo‘lgan hamma hollarda she’riy sistema bilan birga, she’riy vaznni ham o‘zgartirmay tarjima qilish tarafdorimiz, binobarin, bunday hollarda vaznni salgina o‘zgartirishning o‘zi ham tarjimaning dastlabki nuqsoni bo‘ladi, deb hisoblaymiz” [1,226]. Yaqin tillardan tarjimada bu muammo birmuncha oson hal etiladi. Forsiydan o‘zbekchaga she’riy tarjima xususida ham shunday deyish mumkin. Chunki aruz asrlar davomida ham forsiy, ham turkiy she’riyatning asosiy o‘lchov birligi bo‘lib kelgan. Hofiz g‘azal va ruboiylari tarjimasida Xurshid ularni asosan o‘zi yozilgan vazn bilan o‘zbekchalashtirishni qoida qilib olgan. Bunda shoir she’rlarining musiqasi, ohangi, ruhi va ta’sirchanligi aynan saqlanadi. Bu – Xurshid tarjimalarining muvaffaqiyatini ta’minlagan asosiy omil bo‘lgan edi. Lekin vazn talabini hisobga olmagan o‘rinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Jumladan, shoirning quyidagi g‘azali hazaji musaddasi maqsur vaznida bitilgan:

Maro az tust har dam toza ishqe,
Turo har soate husne digar bod! [6,82]

Xurshid uni hazaji musammani axrabi makfufi maqsur maqsur vazni bilan tarjima qiladi:

Har lahza menga yangilanur shavq ila ishqing,
Har damda sening ravnaqi husning digar o‘lsin! [6,83]

Mazmun jihatidan juda go‘zal tarjima. Buning ustiga, usluban ravon, sof o‘zbekcha. Faqat... ritm boshqa, ohang o‘zgacha. Bu Hofiz g‘azalining musiqasi emas.

O‘zbek tarjimashunoslik maktabining asoschisi G‘aybullo Salomovning yozishicha: “Tarjimada badiiy asar ohangini berish barcha adabiy janrlarda ham muhim. Alohida olingan maqol yoki mataldan tortib to sonet, g‘azal, poema, hikoya, romangacha agar h a m o h a n g l i k ta’minlanmagan bo‘lsa, u tarjima s o x t a j a r a n g l a y d i. Ohang esa, o‘z navbatida, badiiy asarlarning boshqa komponentlari, lug‘aviy birlik, sintaksis, inversiya, saj’, radif, qofiya, vazn va boshqalar bilan bog‘langan holda tarjimada yo t a b i i y l i k, yoki aksincha, soxtalik, s u n ’ i y kontekst, yasama badiiy muhit paydo bo‘lishiga olib keladi” [4,21 – 22].

She’riy tarjimada munosib radif topish ham ancha mushkul masala hisoblanadi. Radifli g‘azalni hamisha ham radifli qilib o‘girishning iloji yo‘q. Bu holatda radif bo‘lib kelgan so‘z yoki iboraning ma’nosi matn ichiga singdirib yuboriladi. Chunonchi, Hofizning:

Dast az talab nadoram, to komi man baroyad,
Yo tan rasad ba jonon, yo jon zi tan baroyad [6,118], –

matlali g‘azali tarjimasida radifni berishning ilojini topolmagan tarjimon uning mazmunini misralar ichiga singdirib yuboradi:

Qo‘l tortmog‘um tilakdan, lutf etmaguncha dilbar,
Yo jon ketar tanimdan, yo vasl bo‘lur muyassar [6,119].

Chiroyli, munosib radif topilsa, g‘azal tarjimasining yarmi hal bo‘ldi, deyish mumkin. Xurshid aksariyat yaxshi radiflar topib, go‘zal va hofizona tarjimalar yaratgan. Jumladan:

Chu ro‘yat mehru mah tobon naboshad,
Chu qaddat sarv dar bo‘ston naboshad [6,84].

Yuzingdek yorqin oy osmonda ham yo‘q,
Qadingdek sarv hech bo‘stonda ham yo‘q [6,85].

Mana bu g‘azalda esa radif misraning teng yarmini tashkil qiladi. Shunga qaramay, Xurshid uning o‘zbekcha muqobilini topib, g‘azalni go‘zal bir tarzda o‘zbekchalashtirgan:

Mutribi xushnavo, bigo‘, toza ba toza, nav ba nav,
Bodai dilkusho bijo‘ toza ba toza, nav ba nav [6,172].

Cholg‘uvchi, aylagil navo yangi va yangi, xilma-xil,
Izla sharobi dilkusho yangi va yangi, xilma-xil [6,173].

Bu erda mutarjim radifni asliga mos tarjima qilibgina qolmay, g‘azaldagi ichki qofiya tuzilishini ham qayta yarata olgan:

Bo sanami chu lo‘bate, xush binishin ba xilvate,
Bo‘sa sitonu kom jo‘ toza ba toza, nav ba nav [6,172].

Ko‘ngling ochuvchi yor ila, xilvat o‘tur nigor ila,
Bo‘sa-la kom etib ravo yangi va yangi, xilma-xil [6,173].

Mushtarak an’analar asosida rivojlanganligi sababli forsiy va turkiy she’riyatdan tarjimada ko‘plab qulayliklar mavjud. Aytaylik, har ikkala she’riyatning vazni aruz bo‘lgan, ko‘plab so‘z va iboralar har ikkala tilda ham birday qo‘llanavergan. Forsiydan tarjimada qofiya va radif tanlashda, ba’zi so‘z va iboralarni qo‘llashda bu imkoniyatlardan foydalana bilish kerak. Masalan, ko‘pincha boshqa qofiya tanlansa, albatta asliyatga nomuvofiqlik kelib chiqadi.

Xurshid Hofizning o‘nlab g‘azallarini qiyomiga etkazib tarjima qilganki, ular haqli ravishda mazkur oltin fonddan joy olishga munosib. “Ayo, soqiy, sunib joming, qil ehson, yashnasin dillar”, “Agar ko‘nglimni shod etsa, o‘shal Sheroz jononi”, “Keldi masjiddan bu kech mayxona sori pirimiz”, “Soqiyo, kel endi sung‘il jomni”, “Do‘stlar bazmi visolin esda tut”, “Har nechakim, yuzlaring oy, kunga nisbat qildilar”, “Yuzingdek yorqin oy osmonda ham yo‘q”, “Ul kimki, ehson yo‘lidan menga vafodorlik qilur”, “Sarvi ravonim ne uchun qilmaydi hech mayli chaman”, “Domlalar minbar uza so‘z qilsa takror o‘zgacha”, “Qo‘l tortmag‘um tilakdan, lutf etmaguncha dilbar”, “Lablaringdan kutgan orzu bo‘lmadi komim hanuz”, “Bu jahon gulshanida ul yuzi gul ra’no bas”, “Ajab Sherozkim, yo‘qdir misoli”, “Kel endi, gul sochib har yon, qadah qo‘lda o‘turgaymiz”, “Men emasdurman u rind tarki mayu dildor etay”, “Cholg‘uchi, aylagil navo yangi va

yangi, xilma-xil”, “Xirqamni garov qo‘ygum, bir kosa sharob avlo” kabi o‘nlab go‘zal tarjimalar fikrimizning isboti.

Shu o‘rinda, unutmaslik kerakki, Xurshid tarjimalari sho‘ro davrida amalga oshirilgan, binobarin, qizil mafkuraning ta’siridan xoli emas. Aytaylik, mutarjim Xudo so‘zini kamroq ishlatishga, tariqat, xarobot, muhtasib kabi diniy-tasavvufiy so‘zlardan imkoni boricha qochishga, ular anglatgan ma’noni boshqa so‘zlar yordamida ifodalashga intiladi. Misol uchun, muhtasibni – man qiluvchi, faqihni – donishmand deb oladi. Holbuki, bu so‘zlar istiloh sifatida mumtoz she’riyatdan keng o‘rin olgan va ularning o‘rnini almashtirish maqbul emas. Yoki miskin, g‘arib so‘zlarini ko‘pincha sho‘ro davrida kambag‘al, yupunlarga nisbatan qo‘llangan yo‘qsul so‘zi bilan ifodalaydi. Mumtoz she’riyatda ular kambag‘al, qashshoq emas, balki bechora, yolg‘iz, benavo, xoksor kabi ma’nolarda ko‘pincha oshiqning sifati bo‘lib keladi. Binobarin, yo‘qsul miskin, g‘arib so‘zlarining o‘rnini bosolmaydi. Yoki darvesh so‘zi aksar tariqat yo‘liga kirgan so‘fiy-oriflarni bildiradiki, uni ham yo‘qsul deb olish mumkin emas. Hatto faqirni-da yo‘qsul deb bo‘lmaydi. Shuningdek, tasavvufiy tushunchalarni ifodalashi jihatidan “pashminapo‘sh”ni – “eski chopon”, “xirqa”ni – “mallato‘n”, “hushmand”ni – “eslik”, “hushni tark etish”ni – “aqlni kamaytirish” deyish ham o‘zini oqlamagan. Zero, “bexud”lik bu adabiyotda tarjimon talqin qilganiday, “esini yo‘qotish” ma’nosida qo‘llanmaydi. Shuningdek, mayxona, maykada so‘zlari o‘zbek mumtoz she’riyatida ham faol so‘zlardan hisoblanadiki, ularni “may uyi” deb olish to‘g‘ri emas. Hofizning mashhur g‘azalidagi “ishqi notamom” iborasini mutarjim “nuqsonli ishq” deb o‘giradi. Aslida u “nomukammal ishq” ma’nosida qo‘llangan.

Ma’lumki, ruboiy hazaj bahrining ajram va axrab tarmog‘ida yoziladi. Mumtoz she’riyatda bu qoida tusini olgan va boshqa vaznga solinsa, u ruboiy deyilmagan. Mazkur qoida she’riyati aruzda rivojlangan, ruboiynavislik tajribasiga ham ega o‘zbek adabiyoti uchun ham o‘z kuchida qolishi kerak. Bizda esa ushbu an’ana va qoida bilan hisoblashilmay, ruboiylar yoppasiga barmoq vaznida tarjima qilindi. Holbuki, ruboiy tarjimachiligi tarixini boshlab berganlardan biri – Xurshid an’anaviy yo‘ldan chekinmagan edi. U Hofiz ruboiylaridan 23 tasini o‘z aruziy vazni bilan o‘girgan. Shu o‘rinda, aruzda bajarilganiga qaramay, Xurshid tarjimalarining tili zamonaviy, arxaik so‘zlar, balandparvoz jumlalardan xoli, sodda va xalqqa tushunarli ekanini aytib o‘tish kerak.

Gul guft: agar dastgahe doshtame,

Bigrextame agar rahe doshtame,

Bo begunahi maro chunin meso‘zand,

Ey voy ba man gar gunahe doshtame [6,220].

Gul aytdiki, kosh takyagohim bo‘lsa,

Qochmasmi edim agar panohim bo‘lsa.

Bo‘lmay gunohim kuydiradilar shunday,

Naylar edilar zarra gunohim bo‘lsa [6,221].

Ko‘rinib turganidek, Xurshid vaznni – vazn, mazmunni – mazmun, ohangni – ohang bilan bera olgan: asliyatga har tomonlama muqobil tarjima yaratgan. Boz ustiga, ruboiy aruzda bo‘lishiga qaramay, sof o‘zbekcha. Bugina emas. Xurshid o‘zining aruzda bajarilgan sof o‘zbekona tarjimalari bilan hozirgi o‘zbek tili ham aruz talablariga javob berishini amalda isbot etdi.

U yoki bu asarning mazmunini ikkinchi bir tilda qayta yaratishning o‘zi etarli emas. Uni o‘sha tilda jaranglata olish, tarjima qilinayotgan xalq adabiyotining adabiy hodisasiga aylantirish lozim. Tarjimadan asl maqsad aslida – shu. Hofiz g‘azallari tarjimasida Xurshid bu vazifaning uddasidan chiqqan.

Hofiz g‘azallari tarjimasi misolida Xurshid tarjimada asliyat ruhiga kirish, muallif uslubini saqlash, asarning o‘ziga xos ichki musiqasi va ohangini etkazishning go‘zal namunalarini ko‘rsatibgina qolmay, forsiy va turkiy adabiyotning mushtarak an’analari va umumiy jihatlari asosida asrlar mobaynida qaror topgan vazn, qofiya, radif, mavzular olami, obrazlar ko‘lami, har ikki tilda mavjud so‘z va iboralardan samarali foydalanish imkoniyatlariga e’tibor qaratdi va uning tarjima muvaffaqiyatini ta’minlash yo‘lidagi imkoniyatlarini o‘z tarjimalari misolida ko‘rsatib berdi.

Xullas, Xurshid siymosida Hofiz o‘zining o‘zbek tarjimonini topgan. Bu g‘azal va ruboiylar tarjimasida uning nafaqat mutarjimlik mahorati, balki shoirlik iste’dodining ham yangi qirralari ochilgan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Isomiddinov Z. So‘zdan so‘zning farqi bor / Tarjima san’ati (Maqolalar to‘plami), 6-kitob. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.

2. Salomov G‘., Komilov N. va b. Tarjimon mahorati. – Toshkent: “Fan”, 1979.

3. Salomov G‘., Komilov N. Do‘stlik ko‘priklari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.

4. Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

5. Xurshid. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.

6. Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziy. G‘azallar (fors va o‘zbek tillarida). – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1958.

НАҚШИ “ИЛОҲИНОМА” –И АТТОР ДАР ТАШАККУЛИ АХЛОҚИ ҶОМЕА (ДАР МИСОЛИ ТАРҶУМАИ ЎЗБЕКИИ ОН)

Нуруллоева Мухлиса Нусратуллоевна
кафедраи адабиёти класикии тоҷики
МДТ “Донишгоҳи давлатии Хуҷанд
ба номи академик Б. Ғафуров” дотсенти

Академик М. Шакурӣ дар “Анъана, маҳорат ва халқият” ном асари худ чунин менигорад: “...адабиёти тоҷик аз Рӯдакӣ ин ҷониб аз маҳдудияти миллӣ бегона буд. Вай бо маданияти араб (ки маданияти чандин халқро дар бар мегирад), бо маданияти Юнон, Ҳинд, халқҳои турк ва ғайра алоқа дошт. Дар баъзе даврaҳо ин алоқа то андозае суст мешуд, вале ҳеҷ гоҳ тамоман қатъ нагардидааст” (4, 3).

Доир ба равобити адабӣ, таърихи масоили тарҷумаи осори адабиёти тоҷику форс ба забонҳои мухталифи дунё, аз ҷумла, забони ӯзбекӣ ва ташаккули он дар даврaҳои гуногуни таърихӣ донишмандон ва адабпажӯҳони зиёде таҳқиқ кардаанд. Осори Аттори Нишопурӣ дар ин росто мақоми ҷудогона дорад, ки дар зери таъсири “Мантиқ-ут-тайр”-и ӯ Навоӣ “Лисон-ут-тайр”-и худро навишт.

Чун боз ҳам ба моҳияти ин навъи равобити адабӣ назар меафканем, дармеёбем, ки меҳвари асосии аз маҳдудияти миллӣ фаро рафтани осори адабии тоҷику форс ҳамоно дар гуманизм ва тарғибу ситоиши ҳикмату ахлоқ аст. Ба ин нукта низ академик Шакурӣ таъкид намудааст, ки халқи тоҷик табиатан хикматдӯст аст, ахлоқомӯзӣ ва панду насиҳат, ки ба шакли ҳикмат ифода ёфтааст, дар ҳаёти маънавии халқи мо мавқеи калон дорад. Яке аз омилҳои оламшумул гардидани адабиёти тоҷикро низ маҳз дар ҳамин

ҳикмату андарз дониста, дар мисоли «Гулистон» ва «Бӯстон»-и Саъдӣ нишон медиҳад, ки дар онҳо ҳикмати халқӣ фаровон аст. Хулосаи ақидаҳои иҷтимоию сиёсӣ ва панду насиҳатҳои ӯ дар шакли ҳикмати ҳаёт ва афоризми буррову рехта зоҳир гардидааст. Аз ҳамин сабаб бисёр гуфтаҳои Саъдӣ ва мисраву байтҳои ӯ дар даҳани халқ ба ҳукми зарбулмасал гузаштаанд (4, 9-10).

Масъалаи тарҷумаи осори форсӣ ба забони ӯзбекӣ баҳси ҷудогона аст ва таҳқиқи алоҳида мехоҳад, ки доираи мақолаи мо имкони ғунҷоиши онро надорад.

Мавзуи омӯзиши мо тарҷумаи ӯзбекии яке аз маснавиҳои маъруфи ҳикамии форсӣ – тоҷикӣ “Илоҳинома”-и Аттор хоҳад буд. Аз маълумотҳои бадастомада бармеояд, ки тарҷумаи комил ва манзуми “Илоҳинома” мансуб ба қалами Шоири халқии Ӯзбекистон, донишманди шинохтаи ӯзбек Ҷамол Камол аст. Тавре ки дар муқаддимаи он низ ёд мешавад, Ҷамол Камол ба омӯзиш ва тарҷумаи осори Шайх Аттор даст ёфта, тавонистааст матлабҳои муҳими асарро ба хонандаи ӯзбекзабон тариқи назм бозгӯ намояд.

Тарҷумаи ӯзбекии “Илоҳинома” бо номи “Илоҳийнома” соли 2007 дар нашриёти “Мусиқа”-и шаҳри Тошканд ба нашр расидааст. Дар он зикр гардидааст, ки тарҷума бар асоси нусхаи форсии он (таҳияи Фуод Рӯҳонӣ, Теҳрон, соли 2006) анҷом ёфтааст.

Китоб ҳам муққаддимаи ӯзбекӣ (мутааллиқ ба қалами Иброҳим Ҳаққул) ва ҳам форсӣ (мансуб ба Муҳаммад Ҳусайни Обидинӣ) дорад.

Ба ҷуз “Илоҳинома” тарҷумаи маснавии “Мантиқ-ут-тайр”-и Аттор низ маҳз маҳсули эҷодиёти Ҷамол Камол ба ҳисоб меравад. Дар муқаддимаи ӯзбекии асар доктори илмҳои филология Иброҳим Ҳаққулов зимни муаррифии осори тарҷумашудаи адабиёти сӯфия дар Ҷумҳурии Ӯзбекистон ба хидматҳои бевоситаи мутарҷими асар чунин ишора дорад: “Ӯзбекистон халқ шоири Жамол Камол “Мантиқ-ут-тайр” дан кейин, Алишер Навойи номидаги Тил ва адабиёт институти мумтоз адабиёт бўлимининг навбатдаги таклифи билан “Илоҳийнома” таржимасига киришган эди. Заҳматкаш шоиримиз бу ишни ҳам ниҳоясига етказди” (Шоири халқии Ӯзбекистон Ҷамол Камол пас аз “Мантиқ-ут-тайр” бо дархости навбатии шуъбаи адабиёти мумтози Институти забон ва адабиёти ба номи Алишер Навоӣ ба тарҷумаи “Илоҳинома” пардохта буд. Шоири заҳматкаши мо ин корро низ ба поён расонид) (3,17). Фузун бар ин, соҳиби муқаддима аз мавҷудияти тарҷумаи насрии “Илоҳинома” бар забони ӯзбекӣ низ ёд мекунад: “Китобхонлар бир пайтлар “Илоҳийнома”нинг профессор Нажмиддин Комилов насрий таржимасидаги айрим парча ва ҳикоятлари билан танишган

бӯлса, энди унинг шеърий шаклдаги ӯзбекчасини тӯлиқ ӯқиш имкониятига эгадирлар” (Агар хонандагон замоне бо порчаҳои тарҷумаи насрии “Илоҳинома” аз ҷониби профессор Наҷмиддин Комилов ошно гардида бошанд, акнун имкон доранд тарҷумаи комили манзуми онро мутолиа намоянд), (3, 17).

Аз ин ишороти устод Иброҳим Ҳаққул метавон чунин натиҷагирӣ кард: 1) То ҳол ба забони ӯзбекӣ ду тарҷумаи “Илоҳинома”-и Аттор ба нашр расидааст.

2) Тарҷумаи нахустини “Илоҳинома” мутааллиқ ба қалами профессор Н. Комилов аст, ки дар шакли мансур манзури хонандагон гардидааст.

3) Тарҷумаи насрии маснавии “Илоҳинома” комил нест ва он интихобан рӯи кор омадааст.

4) Тарҷумаи дигари “Илоҳинома”, ки аз ҷониби шоир Ҷамол Камол ба анҷом расидааст, матни комили асар буда, барои хонандагони ӯзбекзабон имкон фароҳам овардааст, то бо мазмун ва муҳтавои он аз наздик ошноӣ пайдо кунанд.

5) Шоир Ҷамол Камол қаблан низ ба тарҷумаи осори Шайх Аттор даст ёфта, маснавии “Матиқ-ут-тайр”-ро ба забони ӯзбекӣ манзури хонандагон намудааст.

6) Тарҷумаи манзуми “Илоҳинома” бо пешниҳоди шуъбаи адабиёти мумтози Институти забон ва адабиёти ба номи Алишер Навоӣ роҳандозӣ гардидааст.

Пас, метавон арзиши баланди тарҷумаи баъдиро қоил буд ва онро маҳсули заҳмати шоир ва донишвар Ҷамол Камол шинохт, ки ин нуктаро муаллифи муқаддимаи форсии асар Муҳаммад Ҳусайни Обидинӣ – сарпарасти Ройзании фарҳангии сафорати Ҷумҳурии исломии Эрон дар Ҷумҳурии Ӯзбекистон низ таъкид медорад: “Мояи басо хурсандӣ аст, ки тарҷумаи манзуми “Илоҳинома”-и Аттор ба забони ӯзбекӣ бар асоси нусхаи тасҳеҳшуда тавассути донишманди муҳтарам Ҷаноб оқои Фуоди Рӯҳонӣ ва ба дасти бокифояти мутарҷими пурталош ва мутааҳҳид Ҷаноб оқои Ҷамол Камол анҷом гирифт. Аз ҳамин мутарҷим дар соли гузашта низ китоби “Мантиқ-ут-тайр” тарҷума гардида ва, иншоаллоҳ, дар соли оянда шоҳиди тарҷумаи асари дигар аз Аттор тавассути эшон хоҳем буд” (3, 397).

Илова бар натиҷагириҳои боло метавон хулосаро афзуд, ки:

1) Ҷамол Камол аз шумори он суханвароне аст, ки бо адабиёти форсӣ, хосса, осори Аттори Нишопурӣ дилбастагӣ ва огоҳии хосса дорад. Аз ин хотир аст, ки аз ҷониби Ройзании фарҳангии кишвари Эрон дар Ӯзбекистон ба ҳамкорӣ дар ин ҷода пардохтааст.

2) Тарҷумаи мазкур бар мабнои нусхаи тасҳеҳшудаи “Илоҳинома” ба қалами Фуоди Рӯҳонӣ сурат гирифтааст.

3) Дастовардҳои шоир Ҷамол Камол дар кори тарҷумонӣ аз ҷониби аҳли илму адаб эътироф гардида, Ройзании фарҳангии Эрон эътимод бар он дорад, ки ҳамкориҳои эшон дар ин самт идома хоҳад дошт ва дар солҳои баъдӣ ба тарҷумаҳои тозаи мавсуф дастрасӣ пайдо хоҳанд кард.

Тарҷумаи манзуми “Илоҳинома” маҷмуан фарогири 5114 байт мебошад. Мутарҷим дар ҳошияи матн теъдоди абётро пас аз ҳар панҷ байт рақамгузорӣ кардааст.

Вазни тарҷума низ дар вазни худи маснавӣ омадааст, ки хоси авзони маснавиҳои форсӣ мебошад.

Хостем дар ин навиштаи кӯтоҳи хеш моҳият ва арзиши тарҷумаи “Илоҳинома”-ро дар муқоисаи **“Ҳикояти Анӯшервон ва пирамарди дарахткор”** таҳқиқ созем.

Ин ҳикоят дар мақолаи дувуми маснавии “Илоҳинома” (ки дар маҷмуъ аз бисту ду мақола иборат аст) омадааст ва дар заминаи образи Нӯшервон ё худ Анӯшервони Одил (аз шоҳони сосонӣ Хусрави Парвиз(подшоҳияш с.531-579м.)) офарида шудааст. Дар мавриди шахсияти таърихӣ будани Анӯшервон ва шоҳи одил будани ӯ шубҳае нест ва ба ин масъала аксари сарчашмаҳои таърихиву адабӣ ишора доранд. Образи Анӯшервон ва вазири донишманди ӯ Бузургмеҳр дар осори адабиёти тоҷику форс чун “Шоҳнома”-и Ҳаким Абулқосими Фирдавсӣ, “Пирӯзинома”-и Шайх Абӯалӣ ибни Сино, “Қобуснома”-и Унсурулмаолии Кайковус, осори Хоқонии Шарвонӣ, “Гулистон”-и Шайх Саъдӣ ва амсоли он ёд шудааст. Нӯшервон бо номҳои Хусрави Анӯшервон, Кисро, Нӯшинравон, Анӯшервони одил низ машҳур аст. Дар забони паҳлавӣ ӯро Анӯшакравон мегуфтанд, яъне дорои равони ҷовид (1,6).

Шайх Аттор масъалаҳои муҳимми ахлоқиро дар ҳикояте, ки дар он образи Анӯшервон нақши марказӣ дорад, баён дошта мегӯяд:

Фарас меронд Нӯшарвон чу тире,
Ба раҳ дар чун камоне дид пире.
Дарахте чанд мебиншонд он пир,
Шаҳаш гуфто: Чу кардӣ мӯй чун шир.
Ту рӯзе чанд боқӣ менамонӣ,
Дарахт ин ҷо чаро дарменишонӣ?

Дар ин ҳикоят Шайх Аттор аз асптозии Анӯшервон ва дар роҳ бо пире, ки қоматаш хамида чун камон гардида буд, дучор омадани ӯро ба риштаи

тасвир кашидааст. Ифодаи ***ба раҳ дар*** ба маънои дар роҳ аст. Суръати асп тохтани Анӯшервонро ба тир ва қомати пирро ба камон монанд карда, дар мисраҳои аввал ва дуюм байни тиру камон таносуби маъноии зебоеро баён намудааст.

Нақл мекунад, ки пирамард бо он хамидақоматӣ дарахт мешинонд. Шоҳ аз ин дар тааҷҷуб афтоду пурсид: Ту, ки ҷавон нестӣ, мӯйҳоят монанди шир сафед шудааст ва маълум нест, ки чанд рӯзе аз умрат боқӣ мондааст, чаро машғули ин кор ҳастӣ?

Унвони ҳикоят дар тарҷумаи ӯзбекии он “**Нӯширвони Одил ва кекса боғбон ҳикояти**” омадааст. Ва ин қисмати ҳикоят дар тарҷумаи матн чунин зикр ёфтааст:

Суриб Нӯширвон отини хушҳол
Бораркан, учради бир муйсафид чол.
Дарахт экиш ила машғул эди ул,
Деди Нуширвон: эй ишга машғул.
Дарахт экмоқдасан, улмунча сабринг,
Етарму мевасин тотмоққа умринг?

Тарҷумон кӯшиш ба харҷ додааст, то малабҳои муҳимми ҳикоятро ба хонанда дуруст расонда тавонад. Аммо ташбеҳоте, ки дар матни аслӣ таҳлил намудем, дар тарҷума ба назар намерасанд.

Ба шоҳ он пир гуфт: ин ҳуҷҷатат бас,
Ки киштанд аз барои мо басе кас,
Ки то имрӯз ин ҷо баҳра дорем,
Барои дигарон мо ҳам бикорем.
Тарҷума:
Деди чол: бу ақлдин холи эрмас,
Дарахт экди бировлар биз учун бас,
Ки ермиз мевасин ҳар лаҳза, ҳар кун,
Не бӯлғай, биз-да эксак бошқалар-чун.

Дар ин қисмати ҳикоят матлаби муҳимми он, ки дигарон киштанду баъдиниён хӯрданд ва имрӯзиён бояд бикоранд, то ояндагон аз он баҳравар бошанд, ифода гардидааст. Ифодаи ***ин ҳуҷҷатат бас*** дар матн ба маънои ин ҳуҷҷат туро ва ё ба ту басанда аст омадааст. Дар матни тарҷума ифода каме ба гунаи дигар баён гардидааст: *бу ақлдин холӣ эрмас* (ин аз рӯи беақлӣ нест). Яъне дар ҳар ду ҳолат низ матлаб ҳамон аст, ки дар пирӣ шинондани дарахт кори беҳудаву беақлӣ нест, балки ҳамон адои масъулияти имрӯзиён ба хотири фардоиён аст.

Ба вусъи худ бибояд рафт гоме,

Ки дар ҳар кор мебояд низоме.
Хуш омад шоҳро гуфтори он пир,
Кафе пур кард зар, гуфто, ки: Ин гир.
Тарҷума:

Ҳар ишда бир маром бўлмоғи лозим,
1. Абдулла Кодирий. Ўтган кунлар. – Т: Шарк. – 2014. – 400 б.
2. Абдулла Кадыри. Минувшие дни. – Т.: Художественная литература, 1958. – 371 с.
3. Абдулла Кадыри. Минувшие дни. – Т.: Шарк. – 2009. – 432 с.
4. Qodirov A. Dilmurod Quronov Adabiy-tanqidiy qarashlari. – Farg‘ona: – 2025. – 134 b.
5. Кружков Г. Хроники вавилонского разделения // Иностранная литература. – 2007. – №11 / http://magazines.russ.ru/inostran/2007/11/kr7-pr.html
6. Қуронов Д.Х. Назарий қайдлар. - Тошкент: Академнашр, 2018. – С. 64-80.

7. Нейман Н.Р. Дискуссия о типах художественного перевода в советском переводоведении // Studia Litterarum. – 2017. – Т.2, №2. –С.190-211. - DOI: 10.22455/2500-4247-2017-2-2-190-211

8. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri’s novel “The Past Days”. Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.

9. Хабибуллаева Ф.К. Изображение особенностей национальной культуры в романе А. Кадыри «Минувшие дни» и их воссоздание в переводе. Т., 2019. – С.119-121.

10. Ф.Шлейермахер. Лекция «О разных методах перевода», прочитанная 24 марта 1813 г. // Вестник МГУ. – Сер.9. Филология, 2000. – №2. – С.127-147. – URL: www.philol.msu.ru|

TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI TADQIQI (Dilmurod Quronov ijodi misolida)

Abdulazizbek Qodirov,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
dotsenti v.b., f.f.b.f.d(PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi tarjimashunoslikning dolzarb muommolari filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronovning sohaga oid maqolalari tahlili orqali yoritilgan. Olimning soha rivojiga xizmat qiluvchi fikrlariga muallifning munosabati berilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarjimashunoslik, adekvat, roman, kamchilik, qissa, adabiyot, moslik.

Аннотация

В статье рассматриваются актуальные вопросы переводоведения на сегодняшний день посредством анализа статей доктора филологических наук, профессора Дилмурода Куранова по данной теме. Дается авторский отклик на идеи ученого, служащие развитию направления.

Ключевые слова: перевод, переводоведение, адекватный, роман, дефицит, рассказ, литература, совместимость.

Abstract

This article highlights the current issues of translation studies today through an analysis of the articles of Doctor of Philology, Professor Dilmurod

Kuronov on the subject. The author's attitude to the scientist's ideas that serve the development of the field is given.

Keywords: translation, translation studies, adequate, novel, deficiency, short story, literature, compatibility.

Buyuk jadid ma’rifatparvari Abdulhamid Cho‘lpon XX asr tarjimashunosligi haqida gapirar ekan, bu soha vakillarining o‘z ishiga mas’uliyatsizlik bilan qarayotganligini ta’kidlaydi, mutarjimlarni “ko‘lagada qoldirib ketilgan toifa” deb ataydi. Afsuski, oradan qariyib bir asr vaqt o‘tsa hamki, mazkur sohada etarlicha muammolar o‘z echimini topa olgani yo‘q. Dilmurod Quronov qator maqolalarida tarjimashunoslik va tarjima tanqidchiligiga e’tibor qaratadi, jumladan, olimning “O‘tgan kunlar” tarjimasi: tahlil va tavsiyalar”, “Chingiz Aytmatov asarlari tarjimasiga doir”, “Tarjima haqida ayrim mulohazalar”, “Tarjima tanqidchiligi haqida” singari maqolalarida sohadagi yutuq va kamchiliklar, asarlar tarjimasidagi asliyat bilan nomutanosibliklar haqida fikr yuritiladi. 1958-yilda “O‘tkan kunlar” romani Y.Bat va O.Smirnovalar hamkorligida rus tiliga tarjima qilingan bo‘lsa, oradan qariyb 50 yil o‘tgach, M.Safarov asarni ruschaga o‘giradi. Olim “O‘tgan kunlar” tarjimasi: tahlil va tavsiyalar” maqolasida “O‘tkan kunlar” asarining rus tiliga tarjima qilingan ikkita tarjimasi haqida fikr yuritadi. Olim asarning rus tiliga tarjima qilinganligini xursandchilik bilan ta’kidlar ekan, ulardagi ayrim kamchiliklarni ko‘rsatib o‘tadi. Jumladan, asardagi milliy mentalitet bilan bog‘liq o‘rinlar olimning diqqatini tortadi. To‘y sahnasidagi qutidorning holatini tahlil qilar ekan, “Qutidor eshik ostida qo‘l qovishtirib mehmonlarni kutib oladir, er ostidan kuyaviga ko‘z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o‘zicha kulimsirab qo‘yadir” jumlasining tarjimada tub ma’nosini yo‘qotishi olimning e’tiroziga sabab bo‘ladi. Olimning fikricha, “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek xalqining milliy qiyofasi ramzi bo‘lib, asardagi har bir so‘z ana shu milliy qiyofani ochib berishga qaratilgan. Qutidorning “kuyaviga ko‘z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o‘zicha kulimsirab qo‘yishi”ning ham o‘ziga xos sabablari bor. O‘zbek xalqi urf-odatlariga ko‘ra qaynota va kuyov o‘rtasida nozik parda borki, bu ularning hislarini omma oldida to‘la namoyish qilishdan qaytaradi. Roman tarjimasida esa mana shu “kuyaviga ko‘z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o‘zicha kulimsirab qo‘yishi” “mamnunlik bilan qaradi” sifatida berilgan. Bu esa, o‘z navbatida, qaynota va kuyov o‘rtasidagi nozik pardani ko‘taradiki, u asarning ta’sir quvvatiga putur etkazadi. Ikkinchi tarjimada esa mazkur jumla “исподлобья” fe’li bilan ifodalanadi. Bu fe’l esa rus tilida ko‘proq “xo‘mrayish”, “qovoq uyish” ma’nolarida qo‘llaniladi. Olim qaynotaning yangi kuyovga qovoq uyishini ham asliyatga nomutanosiblik sifatida baholaydi. Bizningcha ham, “qovoq uyish” fe’li bilan ifodalansa, nafaqat asliyatdan uzoqlashadi, balki, asardagi qahramonlar

harakatidagi mantiqiylikka ham putur etadi. Chunki qizini “xon qiziga loyiq” bir yigitga berayotganiga ishongan Qutidorning kuyovga qovoq uyib qarashi aslo mumkin emas. Olim mazkur holatning sababi sifatida tarjimonlarning milliy urf-odatlarimizni etarli darajada bilmasligini keltiradi. Su boisdan ham tarjimonlar qutidorning kuyovni kutib olishdagi holatdagi nozik ishorani payqamaganlar va buni tarjimada qayta yaratish maqsadini o‘z oldiga qo‘ymaganlar.

Olim asar tarjimasi tahlilida davom etarkan, Kumushning nikoh uchun amakisiga vakolat berish o‘rnidagi asliyat bilan nomutanosiblikka diqqat qaratadi. Asardagi “Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, o‘zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o‘g‘liga bag‘ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo‘ldosh o‘g‘liga topshirdingizmi?” jumlasi birinchi tarjimada “muhabbatingizni topshirishni amakingiz zimmasiga yukladingizmi” tarzida berilgan. Bu esa o‘z navbatida, o‘zbek mentaliteti bilan tanish bo‘lmagan rusiyzabon kitobxonning masalani yanglish tushunishiga sabab bo‘ladi. Ya’ni u “Kumushning muhabbat izhorini kuyovga amakisi etkazishi kerak ekan” tarzida qabul qilishi mumkin. Mazkur jumlaning ikkinchi tarjimada berilishi esa olimning keskin noroziligiga sabab bo‘ladi. Olim ikkinchi tarjimadagi yuqoridagi jumlaning “badan (jism)ingizni … Otabekka topshirishni amakingiz zimmasiga yukladingizmi” tarzida berilishini aslo qabul qilib bo‘lmaydigan holat deb baholaydi. Chunki, Ziyo shohichi ta’kidlaganidek, “shahardagi obro‘li bir musulmonning “iffat pardasi ostida o‘lturgan qizi”ga, umuman olganda, musulmon qiziga savolning bu tarzda berilishi to‘g‘ri emas. Bizningcha ham, nikohdagi kelinning “tan mahramlik uchun o‘zini bag‘ishlashi” va asar tarjimasidagi “badan (jism)ini … Otabekka topshirishni amakisi zimmasiga yuklash” o‘rtasida juda katta farq bor. Va bu farqlar asar resepsiyasida - boshqa xalqlar tomonidan qabul qilinishida turli tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asari “rus mentalitetini o‘zida to‘la mujassamlashtirgan asar sifatida baholanadi va o‘z o‘rnida “O‘tgan kunlar” romanini “o‘zbek turmushining qomusi” deb atash mumkin. Asarda tasvirlangan maishiy turmush lavhalari, hayotiy holatlar, urf-odat va marosimlar, qahramonlarning xatti-harakati-yu, gap-so‘zlari, fikrlari, bir-biri bilan munosabatlari milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan. Shu sababdan ham o‘zbek kitobxoni romanni o‘qish jarayonida tasvirlangan voqealarni va uning tag zamiridagi ma’no nozikliklarini ko‘z oldiga keltirgan, his etgan, muallif mahoratidan zavqlangan o‘rinlarni bu madaniyat bilan tanish bo‘lmagan boshqa millat vakilining mavjud holatni to‘la anglashi, his etishi qiyin masala. Bu o‘rinda D.Quronov asosli fikrni keltiradiki, bu asarning o‘zga tilli millatlar tomonidan to‘liq tushunilmasligi sabablarini ifodalab beradi: “Milliy ruh avvalo tilda yashaydi, bas, o‘zbek

o‘quvchisiga birgina so‘z olam-olam ma’no berishi mumkin, chunki bu holda o‘sha so‘z kontekstda – o‘quvchining shu milliy zaminda shakllangan bilimi, dunyoqarashi, xulq-atvori, fe’l-sajiyasi kabilar kontekstida qabul qilinadi”[3,98].

Olim maqola so‘ngida tarjima ishining o‘zi murakkab sohaligini, “O‘tgan kunlar”dek milliylik ruhi bilan sug‘orilgan asarlarni tarjima qilish mutarjimga ikki karra mas’uliyat yuklashini ta’kidlar ekan, tarjimonlar oldiga qator vazifalarni qo‘yadi. Jumladan:

- “tarjima qilish uchun avval romanni tom ma’noda o‘zlashtirish, matn zamiridagi ma’no tovlanishlarining barini ko‘ra olish darkor. Buning uchun tarjimonga badiiy so‘zni teran his qiladigan filolog, o‘tmishimizni ikir-chikirlarigacha jonli tasavvur eta oladigan tarixchi, urf-odatlarimizdan chuqur xabardor etnograf, diniy arkonlarni biladigan dinshunos kabilarning maslahatlari muntazam kerak bo‘ladi.

- tarjima tilida original badiiy ijod qilishga qobil va bu borada iqtidorini namoyon eta olgan kishini – professional yozuvchini mutarjim sifatida jalb etish zarur. Zero, faqat shundagina roman o‘zga tilda badiiy asar o‘laroq jarang topishi mumkin. Ayni choqda, ish davomida uning yonida o‘zbek va ingliz tillarini mukammal biladigan maslahatchi bo‘lishi kerak, toki muallif va adabiyotimiz manfaatlarining himoyachisi o‘laroq turib bersin.

- romanning o‘zga tildagi nashri ancha katta hajmdagi mufassal izoh va sharhlar bilan ta’minlanishi shart”[4,27].

Mazkur vazifalarni umumlashmasidagi olim xulosasi shundan iboratki, tarjima, avvalo, kollektiv ijod mahsuli. Shu sababdan ham bunday tarjimani amalga oshirish uchun sarf etiladigan mehnat ham moliyaviy jihatdan kattagina xarajatni talab qiladi, “O‘tgan kunlar” singari butun bir millatning qiyofasini o‘zida aks ettirgan barmoq bilan sanarli asarlar esa bunga har jihatdan arziydiki, bu asarlarning tarjimasi maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Olim “Tarjima tanqidchiligi haqida” maqolasida Gyugoning “Parij Bibi Maryam ibodatxonasi” romani tarjimasi haqida fikr yuritar ekan, mazkur tarjimada ham yuqorida “O‘tkan kunlar” romani tarjimasidagi holatlarni qayd etadi. Tarjimachilikka “ahvol “qorovul” deya qichqirsa bo‘ladigan darajaga kelib qolgan deya baho berarkan, olim jahon adabiyotidan ko‘plab asarlar o‘zbek tiliga peshma-pesh o‘girilayotgan bir sharoitda tarjima tanqidchiligini jonlantirish eng dolzarb vazifa ekanligini ta’kidlaydi. Olim sohadagi mavjud vaziyatni yaxshilash uchun qator takliflarni o‘rtaga tashlaydi:

- adabiy nashrlar – jurnal va gazetalarda tarjima tanqidiga keng o‘rin berish;

- buyurtma yo‘li bilan bu ishga mutaxassislarni jalb etishni yo‘lga qo‘yish;
- maxsus elektron jurnal ta’sis etish.

Xulosa qilib aytganda, jahon tillaridan bevosita o‘zbekchaga o‘girilayotgan asarlar tarjimasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Zero, uzoq davr mobaynida “ikkinchi ona til” sifatida qarab kelingan rus tilidan tarjimalar ham hanuz kamchiliklarga to‘la ekan, bevosita tarjimalarga talabni avvalboshdanoq yuksak qilib belgilash maqsadga muvofiq bo‘lib, kelajakda o‘zining ijobiy samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. QODIROV, A. (2025). BADIIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiyalar, 1(11), 386-388.

2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.

3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.

4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY ASAR TILI VA BADIIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.

5. O‘G’Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.

6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.

7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.

8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.

9. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri’s novel “The Past Days”. Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.

10. Хабибуллаева, Ф. К. (2019). Этнокультурный комментарий как эффективный способ воссоздания национального своеобразия при переводе. *Научный результат. Социальные и гуманитарные исследования*, *5*(2), 32-37.

11. Хабибуллаева, Ф. К. (2024). ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ УЗБЕКСКИХ ШКОЛ В УСЛОВИЯХ МНОГОЯЗЫЧИЯ. *University Research Base*, 724-727.

12. Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.

13. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.

14. Холбутаева, Ф. Б. (2021). Пословицы как особое средство выразительности в романе ФМ Достоевского «Бедные люди». *Молодежная наука: вызовы и перспективы*.

15. Холбутаева, Ф. Б., & Назарова, Л. М. (2024). ВКЛАД ВЫДАЮЩЕГОСЯ РУССКОГО ФИЛОЛОГА АА ПОТЕБНИ В РАЗВИТИЕ РУССКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ. *ББК 74+ 81я431 П78*, 372.

16. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.

17. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.

18. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).

19. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.

20. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.

21. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.

22. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548

23. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

ILMIY TIBBIY ADABIYOTLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI LINGVISTIK VA TERMINOLOGIK MUAMMOLARI

Ergashev Bekzod Jaloliddin o‘g‘li,
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti,
O‘zbekiston, Farg‘ona, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy
tel: +998 95 485 00 70, e-mail: info@camuf.uz
E-mail: bekzodergashev0401@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-0382-0811

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilmiy tibbiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonidagi lingvistik va terminologik muammolar atroflicha tahlil etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — tibbiy tarjimalarda uchraydigan grammatik, uslubiy, semantik va terminologik xatoliklarni aniqlash, ularning sabablarini yoritish hamda echim yo‘llarini taklif qilishdan iborat. Metodika sifatida tavsifiy-lingvistik tahlil, taqqoslash, amaliy misollarni tahlil qilish va xalqaro standartlar asosida baholash usullaridan foydalanilgan. Tibbiy matnlarning tarjimasida so‘zma-so‘z yondashuvning salbiy oqibatlari, terminlarning izchil va standart bo‘lmasligi, mutaxassislar va tarjimonlar o‘rtasidagi hamkorlikning etishmasligi asosiy muammolar sifatida ajratilgan. Terminologik lug‘atlarning yo‘qligi, tarjima sifati ustidan nazoratning sustligi, o‘zbek tibbiy leksikasi rivojining sustligi kabi masalalar batafsil yoritilgan. Ushbu muammolarni hal etish uchun terminologik lug‘atlar yaratish, tibbiy tarjimonlarni maxsus tayyorlash, o‘zbek tibbiy adabiyotlarini yaratish va xalqaro tajribalardan foydalanish taklif etilgan. Ushbu tadqiqot tibbiy tarjima sifatini oshirish va o‘zbek ilmiy tilini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: tibbiy tarjima, lingvistik muammolar, terminologiya, o‘zbek tili, ilmiy adabiyot, tarjimonlik, sog‘liqni saqlash, terminologik lug‘at

Аннотация

В данной статье всесторонне проанализированы лингвистические и терминологические проблемы, возникающие при переводе научной медицинской литературы на узбекский язык. Основная цель исследования — выявление грамматических, стилистических, семантических и терминологических ошибок, часто встречающихся в медицинских переводах, определение их причин и предложение возможных решений. В качестве методологии использовались описательно-лингвистический анализ, сравнительный метод, анализ практических примеров, а также оценка на

основе международных стандартов. Основные проблемы связаны с дословным подходом к переводу, отсутствием последовательности и стандартизации терминов, а также недостаточным сотрудничеством между специалистами и переводчиками.

В разделе обсуждения подробно рассмотрены такие вопросы, как отсутствие терминологических словарей, слабый контроль качества перевода и медленное развитие узбекской медицинской лексики. В качестве вывода предложены такие меры, как создание терминологических словарей, специальная подготовка медицинских переводчиков, разработка оригинальной узбекской медицинской литературы и использование международного опыта. Данное исследование имеет важное научно-практическое значение для повышения качества медицинских переводов и развития узбекского научного языка.

Ключевые слова: медицинский перевод, лингвистические проблемы, терминология, узбекский язык, научная литература, переводоведение, здравоохранение, терминологический словарь

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the linguistic and terminological challenges encountered in translating scientific medical literature into the Uzbek language. The primary objective of the study is to identify common grammatical, stylistic, semantic, and terminological errors in medical translations, explore their underlying causes, and propose effective solutions. The research methodology includes descriptive-linguistic analysis, comparative methods, analysis of practical examples, and evaluation based on international standards. Major issues highlighted include the negative effects of literal translation, lack of consistency and standardization in medical terminology, and insufficient collaboration between translators and medical professionals.

The discussion section delves into problems such as the absence of reliable terminological dictionaries, weak quality control in translation, and the slow development of Uzbek medical vocabulary. The article concludes with concrete recommendations: developing comprehensive medical terminological dictionaries, offering specialized training for medical translators, producing original medical literature in Uzbek, and adopting international best practices. This research holds significant scientific and practical value for improving the quality of medical translations and advancing the Uzbek scientific language.

Keywords: medical translation, linguistic challenges, terminology, Uzbek language, scientific literature, translation studies, healthcare, terminological dictionary

Globalizatsiya sharoitida ilmiy axborot oqimining tezlashuvi va xalqaro hamkorlikning kengayishi natijasida ilmiy adabiyotlarni, xususan, tibbiyot sohasidagi materiallarni tarjima qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1]. Tibbiyot — inson hayoti va salomatligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan soha bo‘lib, bu sohaga oid ilmiy manbalarni to‘g‘ri va aniqlik bilan tarjima qilish katta mas’uliyatni talab etadi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi ilmiy bazani kengaytirish, tibbiyot sohasi mutaxassislarini xalqaro bilimlar bilan tanishtirish, ularni zamonaviy davolash va diagnostika uslublari haqida xabardor qilishda sifatli tarjimalar muhim rol o‘ynaydi [2].

Bugungi kunda ilm-fan va ta’limda ingliz tili ustuvorlik qilayotgan bir paytda, ko‘plab ilmiy maqolalar, darsliklar va texnik hujjatlar ingliz tilida yaratilmoqda. Bu esa o‘zbek tiliga tarjima qilinayotgan tibbiy adabiyotlarning sonini ko‘paytirishni va ularning sifatini ta’minlashni zarur qiladi. Ammo bu jarayon bir qancha lingvistik va terminologik muammolar bilan to‘qnash kelmoqda. Shu bois, ushbu mavzu bo‘yicha muammolarni chuqur tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularning echimlarini taklif etish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Mavzuning maqsadi va vazifalari: Ushbu ilmiy-analitik ishning asosiy maqsadi — ilmiy tibbiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan lingvistik va terminologik muammolarni aniqlash, ularning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish hamda takomillashgan tarjima strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat [3]. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ilmiy tibbiy matnlarning xususiyatlarini o‘rganish;

2. Tibbiy terminlar tarjimasida uchraydigan asosiy lingvistik muammolarni aniqlash;

3. Tarjimonlarning amaliy tajribasidan misollar keltirish orqali muammolarni tahlil qilish;

4. O‘zbek tilidagi ilmiy-tibbiy terminologiyaning rivojlanish bosqichlarini ko‘rib chiqish;

5. Terminologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot predmeti sifatida tibbiyotga oid ilmiy matnlar tarjimasida uchraydigan tilshunoslik va terminologik muammolar belgilanadi. Ob’ekti esa —

ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan tibbiy maqolalar, darsliklar, qo‘llanmalar va amaliy materiallardir.

Mazkur tadqiqotda taqqoslama tahlil, lingvistik tahlil, semantik tahlil va amaliy tarjimalar asosida muammolarni tahlil qilish usullari qo‘llanilgan. Shuningdek, tarjima nazariyasiga oid ilg‘or xorijiy va mahalliy adabiyotlar o‘rganilib, ulardagi nazariy yondashuvlar asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi [4].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u tibbiy tarjimada ko‘p uchraydigan lingvistik xatoliklar, terminologik chalkashliklar, semantik noaniqliklar va uslubiy yondashuvlar etishmasligi kabi muammolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq tavsiyalar beradi. Ushbu ish o‘zbek tilidagi tibbiy tarjimalarning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ilmiy ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u tibbiyot mutaxassislari, tarjimonlar va tibbiy adabiyotlar ustida ishlayotgan tahririyatlar uchun foydali qo‘llanma bo‘la oladi. Tibbiyot sohasi bo‘yicha tarjima qilinayotgan ilmiy-texnik matnlarning sifatini oshirish, tarjimonlar malakasini oshirish, terminlar bazasini tizimlashtirish orqali sog‘liqni saqlash sohasida xalqaro axborot aylanishini yaxshilash mumkin bo‘ladi[5].

Tibbiy matnlarni tarjima qilish jarayoni ko‘plab lingvistik to‘siqlarga duch keladi. Ushbu muammolar faqat grammatik xatolar bilan cheklanmay, balki semantik aniqlik, uslubiy moslik va madaniy kontekstda tushunarsizliklar kabi omillarni ham o‘z ichiga oladi. Tibbiyot sohasi o‘ziga xos tilga ega bo‘lganligi sababli, tarjimada mazmunning buzilishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi bemorning salomatligi yoki hayotiga tahdid soluvchi xatolarga olib kelishi mumkin. Quyida tibbiy tarjimada keng tarqalgan lingvistik muammolar ko‘rib chiqiladi.

1. Leksik muammolar: Tibbiy matnlarda keng ko‘lamdagi maxsus terminlar, qisqartmalar va sinonimlar ishlatiladi. Ingliz tilidagi "benign", "malignant", "lesion", "biopsy", "screening", "symptom" kabi so‘zlar o‘zbek tiliga bir nechta usulda tarjima qilinishi mumkin, ammo bu jarayonda sinonimik o‘zgarishlar mazmunni buzib yuborishi mumkin. Masalan, "lesion" so‘zi ayrim hollarda "shikastlanish", boshqa hollarda esa "yallig‘lanish o‘chog‘i" deb tarjima qilinadi. Bu esa klinik kontekstda chalkashliklarga olib keladi. Shuningdek, umumiy ma’nodagi so‘zlar bilan maxsus terminlarning chalkashligi ham muammoli holatlarni yuzaga keltiradi. Masalan, "positive test" iborasini ayrim tarjimonlar "ijobiy test" deb so‘zma-so‘z tarjima qilishadi. Biroq, klinik kontekstda bu "kasallik aniqlangan" degani bo‘lishi mumkin [6].

2. Sintaktik muammolar: Tibbiy ingliz tili ko‘pincha murakkab gap tuzilmalaridan, passiv konstruktsiyalardan, ko‘plik shakllaridan va zamonlarning

o‘ziga xos ishlatilishidan iborat bo‘ladi. Ushbu murakkab sintaktik tuzilmalarning o‘zbek tilidagi ifodasi tarjimonda til moslashuvini talab qiladi. Misol uchun, ingliz tilidagi quyidagi gapni olaylik:

"The patient was diagnosed with acute lymphoblastic leukemia." Buni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarzda "Bemor o‘tkir limfoblast leykemiya bilan tashxis qilindi" tarzida tarjima qilish noto‘g‘ri uslubiy ifodaga olib keladi. To‘g‘ri yondashuv: "Bemorga o‘tkir limfoblast leykemiya tashxisi qo‘yildi." Bundan tashqari, ingliz tilidagi ko‘plab rasmiy tibbiy gaplar qisqartirilgan va nominal strukturalarga boy. Bu esa tarjimada murakkablik tug‘diradi. Shuning uchun tarjimon o‘zbek tilining sintaktik me’yorlariga moslashtira olishi zarur [7].

3. Pragmatik muammolar: Tibbiy matnlar faqat faktlar bilan emas, balki ko‘p hollarda ogohlantirishlar, tavsiyalar, statistik tahlillar, xavf-xatar baholari bilan boyitilgan bo‘ladi. Ularning pragmatik jihatini noto‘g‘ri talqin qilish bemor va mutaxassislar orasida noto‘g‘ri tushunishlarga olib keladi [8]. Masalan, “The use of this drug is not recommended for pregnant women” degan jumla noto‘g‘ri tarzda “Bu dori homilador ayollar uchun tavsiya qilinadi emas” shaklida tarjima qilinishi mumkin. Bunday tarjima xatolik keltirib chiqaradi. To‘g‘ri shakli: “Ushbu dori homilador ayollar uchun tavsiya etilmaydi.”

4. Ko‘p ma’nolilik va noaniqliklar: Tibbiy terminlarning ko‘p ma’nolilik xususiyati lingvistik muammolarning asosiy manbalaridan biridir. Masalan, "depression" atamasi psixiatriyada "ruhiy tushkunlik", nevrologiyada esa "miya faoliyatining pasayishi", boshqa kontekstda esa "cho‘kindi" ma’nolarini bildirishi mumkin. Tarjimon matn kontekstiga mos ma’noni aniqlash uchun klinik bilimga ega bo‘lishi yoki mutaxassislar bilan maslahatlashishi kerak [9].

5. Madaniy-lingvistik tafovutlar: Ko‘pgina tibbiy matnlar g‘arbona madaniyat, huquqiy tizim va sog‘liqni saqlash siyosati doirasida yozilgan bo‘lib, ularni bevosita o‘zbek tiliga tarjima qilishda madaniy nomuvofiqliklar paydo bo‘ladi. Masalan, “consent form”, “living will”, “hospice care” kabi iboralar o‘zbek sog‘liqni saqlash tizimida mavjud bo‘lmagan tushunchalarni ifodalaydi [10]. Tarjimon bu kabi iboralarni nafaqat til, balki madaniy kontekstda ham o‘zbek o‘quvchisiga tushunarli shaklda ifodalashi kerak.

6. Tarjimonning til kompetensiyasi va ixtisoslashuvi: Tibbiy tarjimalar umumiy til bilimidan tashqari, maxsus tibbiy bilimlarni ham talab qiladi. Shuning uchun tarjimon nafaqat ingliz va o‘zbek tillarini mukammal bilishi, balki tibbiyotga oid asosiy tushunchalar, kasallik nomlari, anatomik atamalar, farmakologik iboralarni ham yaxshi bilishi zarur. Aks holda, lingvistik muammolar bilan birga ilmiy mazmun ham noto‘g‘ri ifodalanadi [11].

Tibbiy adabiyotlarni tarjima qilishdagi eng jiddiy va dolzarb muammolardan biri – bu terminologik aniqlik va barqarorlik masalasidir. Tibbiy terminologiya o‘zbek tilida hali to‘liq shakllanmagan, ba’zi atamalar esa bir necha variantlarda mavjud. Bu esa tarjimonlar, shifokorlar va o‘quvchilar uchun chalkashliklar keltirib chiqaradi. Quyida ushbu muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.:

1. Terminologik nomuvofiqliklar: Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tibbiy terminlarni tarjima qilishda ko‘pincha bir atama bir nechta shaklda ishlatiladi. Masalan:

Hypertension – “yuqori qon bosimi”, “gipertoniya”, “arterial gipertenziya”

Stroke – “insult”, “miya qon aylanishining buzilishi”

Diabetes mellitus – “qandli diabet”, “shakarsimon diabet”, “diabet kasalligi”

Ushbu nomuvofiqliklar tibbiyotda terminlarning aniq va bir xillikda ishlatilishiga xalaqit beradi [12]. Tarjimon bu holatlarda eng maqbul va rasmiy shaklni tanlashi, O‘zR Sog‘liqni saqlash vazirligi, tibbiy universitetlar va xalqaro standartlarga tayanishi kerak.

2. So‘zma-so‘z tarjima muammosi: Ko‘p hollarda tarjimonlar tibbiy terminlarni so‘zma-so‘z tarjima qilishga harakat qiladilar. Bunday yondashuv terminologik xatolarga olib keladi. Masalan:

Heart failure – so‘zma-so‘z “yurak muvaffaqiyatsizligi” deb tarjima qilinadi, lekin bu holatda to‘g‘ri shakl “yurak etishmovchiligi” bo‘lishi kerak.

Blood pressure – so‘zma-so‘z “qon bosimi” to‘g‘ri, biroq "arterial bosim" yoki "arterial qon bosimi" kontekstga qarab aniqlashtirilishi kerak. Shuning uchun, tarjimada faqat lug‘aviy yondashuv emas, balki kontekstual tahlil ham muhimdir [13].

3. Yangi terminlarning o‘zbek tilida mavjud emasligi: So‘nggi yillarda tibbiyot fanining tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida yangidan-yangi terminlar paydo bo‘lmoqda: “cytokine storm”, “long COVID”, “biomarker”, “gene editing”, “nanomedicine” va boshqalar [14]. Ularning o‘zbekcha mos variantlari hali rasmiylashtirilmagan yoki mavjud emas. Bunday vaziyatlarda tarjimon quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

Transliteratsiya: atamani fonetik tarzda o‘zbek tiliga o‘tkazish (masalan, “nanomeditsina”)

Tushuntirishli tarjima: atama mazmunini tushuntirish orqali bayon qilish (masalan, “cytokine storm” – “sitokinlar keltirib chiqaradigan immun javobining haddan tashqari kuchayishi”)

Muqobil atama ishlatish: ilmiy maqolalarda yoki izohlarda rus va ingliz tilidagi variantni qo‘shib berish.

4. Terminologik barqarorlik etishmasligi: Tibbiy tarjimalarda bir atamaning bir matnda bir necha xil shaklda ishlatilishi ilmiy uslubga zid bo‘ladi. Masalan, “shakar kasalligi”, “diabet”, “qandli diabet” iboralari bir maqolada takroran aralashtirib ishlatilsa, o‘quvchida chalkashlik paydo bo‘ladi. Bu holat terminologik barqarorlikning buzilishi hisoblanadi. Tarjimon matnning boshida qaysi atama tanlangan bo‘lsa, butun matn davomida aynan shu shaklni ishlatishi lozim.

5. Atamalarning xalqaro kodifikatsiyasi va o‘zbek tilidagi mosligi: Tibbiy terminlar xalqaro kodlash tizimlari – ICD (International Classification of Diseases), SNOMED, MeSH va boshqa tizimlarga asoslangan. Ularning o‘zbek tilidagi muqobillarini ishlab chiqish zarurati dolzarbdir. O‘zbek tibbiyot tarjimachilari ushbu kodlash tizimlarini bilishi va ularga mos atamalarni qo‘llashi kerak.

6. Tarjimon va mutaxassislar hamkorligi: Tibbiy terminologiyani to‘g‘ri tarjima qilish uchun tarjimon faqat tilshunos bo‘lishi etarli emas. U kasbiy tibbiyot mutaxassislari bilan doimiy hamkorlikda bo‘lishi, noaniq atamalar yuzasidan maslahat olishi zarur. Bu yondashuv ikki tomonlama tajriba almashinuvi va sifatli tarjima uchun muhim omildir [15].

7. Rasmiy lug‘atlar va atamalar bazasi etishmasligi: Bugungi kunda o‘zbek tilida mukammal va yangilanib boruvchi tibbiy terminologik lug‘at mavjud emas. Bu esa tarjimonlarni rus yoki ingliz manbalariga tayanishga majbur qiladi. Shuning uchun, tibbiy tarjima sohasini rivojlantirish uchun:

Davlat miqyosida rasmiy tibbiy atamalar lug‘atini yaratish;

Uni tibbiy OTM, ilmiy muassasalar va nashriyotlar bilan birgalikda shakllantirish’

Raqamli va onlayn shaklda yangilanib boradigan versiyalarni yaratish zarur;

Takliflar: Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish, tarjima sifatini oshirish va o‘zbek tibbiy tilini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Tibbiy terminologik lug‘at yaratish: Rasmiy va doimiy yangilanib boradigan o‘zbek tilidagi tibbiy atamalar lug‘atini yaratish. Ushbu lug‘at Sog‘liqni saqlash vazirligi, til instituti, tibbiy OTMlar, tarjimonlar va tibbiyot mutaxassislari ishtirokida ishlab chiqilishi kerak. Lug‘at elektron formatda (mobil ilova, veb-portal) bo‘lishi, ICD, MeSH, SNOMED kabi xalqaro tizimlarga integratsiyalangan bo‘lishi lozim [12].

2. Tarjimon va mutaxassislar hamkorligini mustahkamlash: Tarjimonlar doimiy ravishda shifokorlar, professor-o‘qituvchilar va tibbiy olimlar bilan hamkorlikda ishlashi zarur. Maxsus tibbiy tarjima kurslari tashkil etilishi, bunda ikkala soha vakillariga o‘zaro tajriba almashish imkoniyati yaratilishi kerak.

3. Tibbiy tarjimalar sifati uchun standartlarni ishlab chiqish: Tibbiy tarjima uchun uslubiy qo‘llanma va standartlar ishlab chiqilishi lozim. Bunda tibbiy matn strukturasiga, terminologik barqarorlikka, kontekstga muvofiqlikka va etika masalalariga alohida e’tibor qaratilishi kerak [13].

4. Yangi atamalarni joriy qilish va ularni ommalashtirish: O‘zbek tilida hali mavjud bo‘lmagan yangi tibbiy atamalarga izohli tarjima, transliteratsiya yoki muqobil ifoda shakllarini tanlab, ularni ommalashtirish choralarini ko‘rish. Bu jarayonga jurnalistlar, blogerlar, tibbiy kontent ishlab chiqaruvchilar ham jalb qilinishi mumkin.

5. Tibbiy tarjima bo‘yicha ilmiy izlanishlarni kengaytirish: Lingvistika va tibbiyot yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida tibbiy tarjima masalalarini o‘rganish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur. O‘zbekistonda tarjimashunoslik, tibbiy lingvistika, terminologiya sohasi bo‘yicha magistratura va doktorantura dasturlarini yo‘lga qo‘yish kerak [15].

6. O‘zbek tibbiy adabiyotlari ishlab chiqilishini rag‘batlantirish: Chet tillardagi manbalarni tarjima qilish bilan birga, o‘zbek tilida zamonaviy, ilmiy tibbiy adabiyotlar, darsliklar, qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kerak. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek terminologiyasini barqarorlashtirish va ilgari surishning eng samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy tibbiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan lingvistik va terminologik muammolar bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni chuqur tahlil qilish orqali ularni tizimli hal etish yo‘llarini ishlab chiqish mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, asosiy lingvistik xatoliklar grammatika, uslub va kontekstga moslikdagi nuqsonlarda namoyon bo‘lmoqda. Terminologik muammolar esa atamalarni bir xilda ishlatmaslik, ularning barqarorligi va xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasining pastligi bilan bog‘liq. Ushbu maqolada nafaqat mavjud muammolar tahlil qilingan, balki amaliy takliflar ham berilgan. Jumladan, terminologik lug‘atlarning ishlab chiqilishi, tarjimon va mutaxassislar o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta’minlash, tibbiy tarjima uchun uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish, yangi atamalarni izchil va ilmiy asoslangan holda joriy qilish zarurligi ta’kidlangan.

Shuningdek, tibbiy tarjimalarning sifati va ishonchliligini oshirish uchun tarjimonlar malakasini oshirish, xalqaro tajribani o‘rganish, o‘zbek tilida zamonaviy tibbiy adabiyotlar yaratish orqali mahalliy tibbiy leksikani boyitish

zarurligi muhim deb topildi. Xulosa qilib aytganda, ilmiy tibbiy tarjimalar sifati davlat sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy ta’lim va ilmiy faoliyatning umumiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, bu sohada strategik yondashuv, ilmiy asoslangan islohotlar va doimiy monitoring zarur. Mazkur maqola ushbu yo‘nalishda tayanish mumkin bo‘lgan konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alikberov, M. A. (2018). Tibbiy terminologiyaning tarjima jarayonidagi o‘ziga xosliklari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.

2. Karimova, D. B. (2021). Lingvistik tafovutlar va ularning ilmiy matn tarjimasiga ta’siri. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.

3. Xolmatov, A. (2017). O‘zbek tilida ilmiy tarjima asoslari. Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

4. Qodirova, M. N. (2020). Tibbiy terminlar tarjimasida uchraydigan semantik xatolar. Ilm-fan va texnologiyalar jurnali, №4, 87–92.

5. Saidova, Z. (2019). Tarjimonlikda terminologik bazani shakllantirish muammolari. Tarjima nazariyasi va amaliyoti, №2, 45–51.

6. Ahmadov, O. T. (2015). Ilmiy va texnik tarjima asoslari. Toshkent: Universitet nashriyoti.

7. Nasirova, G. Sh. (2021). Inglizcha tibbiy terminlarni o‘zbek tiliga moslashtirish muammolari. Filologiya masalalari, №1, 67–72.

8. Xudoyberdiyeva, M. (2018). Tibbiy matnlarni tarjima qilishda pragmatik muvofiqlik masalalari. Til va tarjima, №3, 112–118.

9. Pym, A. (2010). Exploring Translation Theories. London: Routledge.

10. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.

11. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.

12. Chesterman, A. (1997). Memes of Translation: The spread of ideas in translation theory. Amsterdam: John Benjamins.

13. Tibbiyot ensiklopediyasi. (2007). 5 jildlik. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

14. Xolbo‘tayev, S. (2022). Tibbiy matn tarjimasida kontekst muhimligi. Lingvistika va tarjima tadqiqotlari, №2, 59–63.

15. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2023). Tibbiyot terminlari lug‘ati. Toshkent: Tibbiyot axborot markazi.

“DEVONI FONIY”NING HAKIMO‘G‘LU ALI POSHSHO KOLLEKSIYASI NUSXASI TAVSIFI

Mabruk Djurayev, O‘zbekiston
Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktaranti

Annotatsiya

Maqola Alisher Navoiy – Foniy “Devoni Foniy”sining Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasi Hakimo‘g‘lu Ali Poshsho kolleksiyasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasi tavsifiga bag‘ishlangan. Unda qo‘lyozma tarkibi, xususan, g‘azallarga alohida urg‘u berilgan.

Kalit va iboralar: Alisher Navoiy, Foniy, “Devoni Foniy”, Hakimo‘g‘lu Ali Poshsho kolleksiyasi, qo‘lyozma, g‘azal, ruboiy, qasida, tatabbu’, tavr, muxtara.

Аннотация

Статья посвящена описанию рукописного экземпляра «Дивони фони» Алишера Навои, хранящегося в коллекции Хакимоглу Али-паши библиотеки Сулеймание в Турции. Особое внимание уделяется композиции рукописи, в частности газелям.

Ключевые слова и фразы: Алишер Навои, Фоний, «Дивони Фоний», сборник Хакимоглу Али-паши, рукопись, газель, рубаи, касыда, татаббу', тавр, мухтара.

Abstract

The article is devoted to the description of the manuscript copy of Alisher Navoi's "Divoni Foni" kept in the Hakimoglu Ali Pasha collection of the Suleymaniye Library in Turkey. It places special emphasis on the composition of the manuscript, particularly the ghazals.

Keywords and phrases: Alisher Navoi, Foniy, "Divoni Foniy", Hakimoglu Ali Pasha collection, manuscript, ghazal, rubaiy, qasida, tatabbu', tavr, mukhtara.

Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozma nusxalarining soni so‘nggi vaqtlarda chet el kutubxona fondlaridan aniqlanishi hisobiga ortib bormoqda. Xususan, Navoiyning forsiy she’rlari majmui bo‘lmish “Devoni Foniy” nusxasi ham shular jumlasidandir. Devonning bir nechta qo‘lyozma nusxalari Angilya, Fransiya, Turkiya va Eron Islom Respublikasi kutubxona fondlarida saqlanadi. Biz maqolamizda ayni devonning Turkiyadagi uchinchi qo‘lyozma nusxasi hisoblanmish Sulaymoniya kutubxonasi Hakimo‘g‘lu Ali Poshsho kolleksiyasi fondida saqlanib kelinayotgan №00632 raqamli nusxasini tavsif etamiz. Bu nusxa haqida Ogah Sirri Levendning “Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan Navoiy

asarlari”[78] nomli katalogida yoki Hamid Sulaymonning dissertatsiyasi[79] hamda bu devon bilan bog‘liq maqolalarida[80] ma’lumot uchratmadik. Bizningcha, bu nusxa keyingi vaqtlarda aniqlangan.

Ushbu nusxa 191 varaqdan iborat. O‘lchami: 230x148. Nasta’liq yozuvida yozilgan. Har bir sahifadagi satrlar soni 15 tadan iborat. Manbaning har bir varag‘iga sariq va havorangli siyohda jadval chizilgan hamda har bir she’r va janrlar bir biridan ajratilgan. Kotibi hamda ko‘chirilgan sanasi ma’lum emas. Manbaning oxirida ko‘chirilgan sanasi yozilgan, lekin suv yoki namlik sababli yozuvga zarar etganli bois o‘qishning imkoni yo‘q. Faqatgina “تاریخ 5 شهر محرم” so‘zini o‘qish mumkin:



Ushbu manbaning turk sayti[81]da qisqacha tavfsifi ham berilgan bo‘lib, uning Eron adabiyotiga tegishli ekanli bayon etilgan.

Uning muqovasi qattiq jigarrang kartondan ishlangan bo‘lib, uch toqalikdir.

[78] Agoh Sirri Levend. Turkiye kitapliklarindaki Nevai yozmalari. Turk tarih kurumi basimevi – Ankara, 1958.


[79] Хамид Сулейман, Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Док. дисс. част первый, – Ташкент: изд. АН УзССР 1961. – С.287.

[80] Ҳамид Сулаймон. Навоийнинг “Фоний” девони. Шарқ юлдузи. №9. Тошкент. 1965. Б. 155.

[81] https://portal.yek.gov.tr



1a varaqdan oldin Alisher Navoiyga tegisli bo‘lmagan ikki ruboiy ham o‘rin olgan. Bu ruboiylar Eron shoiri Salim Tehroniy qalamiga mansubdir. 1a varaqda bir necha qadimiy muhrlar hamda 1 dona kutubxona muhri bor. Ularning ayrimlarini muhrlar suvalib ketganligi bois o‘qib bo‘lmadi. Bu varaqning o‘rtasiga sariq rangli jadval ichiga “كتاب ديوان فانى” deb yozilgan va qavs ichida ko‘k rangli pastada esa keyinchalik “عليشير نوايى” yozuvi qo‘shib qo‘yilgan:



Bu nusxa faqatgina debocha, qasida, g‘azal, musaddas hamda marsiya janrlarini qamrab olgan, xolos. Ruboiy, muammo, qit’a va lug‘z janriga oid she’rlar uchramaydi. Lekin shunday bo‘lsa-da, bu nusxa oralaridan biror varaq yo‘qolmagani bilan ham qolgan Turkiyadagi ikki nusxadan ajralib turadi. Quyidagi jadvalda devonning ayni nusxasi to‘liq tarkibi bilan tanishishingiz mumkin:

Mundarija

	Debocha va janrlar	**Soni**	**Varaqlari**
	Debocha		1b – 2b varaqlar
	Qasida	**6**	3a – 27b varaqlar
	G‘azal	**536**	27b-187a varaqlar
	Musaddas	1	187a - 188a varaqlar
	Marsiya	1	188a - 191a varaqlar.

1b varaqda unvon bor. Undan so‘ng **بيت القسيده همه خيل سخن وران** bayti bilan devon boshlangan:



Bu nusxa debochaga ham ega bo‘lib, u Nuriusmoniya va Turk-islom muzeyi nusxalaridan farqli o‘laroq to‘liqdir. Debochada qolgan nusxalar kabi qasidalari haqida bayon etilgan hamda Foniyning “Ruhul quds”, “Aynul hayot”, “Tuhfatul afkor”, “Qutul qulub”, “Tuhfatul najot”, “Nasimul xuld” qasidalari to‘liq holda o‘rin olgan va saqlangan, shuningdek, qasidalarning ham, g‘azallarning ham sarlavhalariga jadvalda joy ajratilgan, lekin sarlavhasi yozilmagan.

3a varaqdan 7a varaqqacha “Ruhul quds”, 8b varaqdan 11a varaqqacha “Aynul hayot”, 11a varaqdan 14a varaqqacha “Tuhfatul afkor”, 14b varaqdan 18b varaqqacha “Qutul qulub”, 18b varaqdan 23a varaqqacha “Minhojun najot”, 23a varaqdan 27b varaqqacha “Nasimul xuld” qasidalari joylashgan. Ushbu nusxa Turkiyada saqlanayotgan qolgan ikki nusxadan farqli ravishda qasidalari to‘liq bo‘lib, hech bir varag‘iga shikast etmagan hamda oralaridan varaqlar yo‘qolmagan.

Qasidalardan so‘ng 28b varaqda yana bir unvon mavjud. Unvon ostidan g‘azallar boshlangan. Daslabki g‘azalning matlasi quyidagicha:


ای خاک سر کوی تو گشتن هوس ما
بر پای سگت بوسه زدن ملتمس ما[82]

[82] Alisher Foniy. Devon. Hakimo‘g’lu Ali Poshsho. Inv: 00632. 28[b] varaq.



Bu nusxada g‘azallarning ham sarlavhasiga jadvaldan joy ajratilgan, lekin hech bir g‘azalning sarlavhasi yozilmagan.

Bu nusxada g‘azallar 187a varaqqacha joylashgan bo‘lib, 536 ta g‘azaldan iborat. Turkiyada saqlanayotgan nusxalarga ya’ni Turk-Islom muzeyi nusxasida 470 ta, Nuriusmoniya nusxasida 473 ta g‘azalga hamda Erondagi nusxalar tarkibidagi g‘azallarga nisbatan mazkur nusxada g‘azallar soni sezilarli darajada ko‘p. Bu jihatdan Fransiyadagi ikki nusxadan keyingi o‘rinda turadi. Bu nusxada, ذ - “zol”, ر - “re”, ز - “ze”, س - “sin”, ش - “shin” harflari qizil siyohda ajratib yozilgan. Shuningdek, 160a varaqda kotib yanglishib yozib qo‘ygan hamda ustidan chizib o‘chirgan holat ham mavjud:



G’azallar quyidagi matlali g‘azal bilan yakunlanadi:

اگر فرهاد و شیرین هر دو دوران من بودی

یکی شرمنده از من آن یک از جانان من بودی[83]

G‘azallarning deyarli barchasi jadvalga olingan. Faqatgina 183b va 184a varaqlarda ikki g‘azal “تتبع میر” va “تتبع شیخ کمال” g‘azallari xoshiyaga qiya holda ko‘chirilgan:



Shuningdek, 158a varaqda ham bir bayt xoshida asosiy jadvalga tutash kichik jadval ichida joylashgan.

Bizga ma’lumki, devon tarkibidagi g‘azallar arab alifbosi tartibida joylanadi. “Devoni Foniy”ning Hakimo‘g‘lu Ali Poshsho kolleksiyasida saqlanayotgan nusxasi tarkibidagi g‘azallarning qaysi harfga qancha g‘azal ekanligini quyidagi jadvalda berishga qaror qildik:

Jadval

	Harflar	**G‘azallar soni**	**Varaqlari**
	ا	**43**	**28b – 41a**
	ب	**22**	**41a – 48a**
	ت	**82**	**48a – 71b**
	ث	**1**	**71b – 72a**
	ج	**4**	**72a – 73a**
	ح	**3**	**73a – 74a**
	خ	**3**	**74a – 74b**
	د	**103**	**74b - 105b**
	ذ	**1**	**106a**

[83] Alisher Foniy. Devon. Hakimo‘g’lu Ali Poshsho. Inv: 00632. 187a varaq.

0	ر	19	106a – 111a
	ز	8	111a – 113b
0	س	7	113b – 115b
1	ش	23	115b – 122b
2	ص	1	123a
3	ض	1	123a
4	ط	1	123b
5	ظ	1	123b
6	ع	3	124a – 124b
7	غ	2	124b – 125a
8	ف	2	125a – 126a
9	ق	2	126a – 126b
0	ک	5	126b – 128a
1	ل	12	128a – 131b
2	م	71	131b – 152a
3	ن	40	152a – 162a
4	و	18	162a – 170a
5	ه	17	170a – 175a
6	لا	1	175a – 175b
	ی	40	175b – 187a

7			
	27 harfga	**536**	**28b – 187a**

G‘azallardan keyin 187a varaqdan musaddas boshlangan. Bu musaddasning ham sarlavhasi yozilmagan. Musaddas quyidagi bayt bilan boshlanadi va u 27 baytdan iborat:

کردمی در خاک کوی دوست ماوا کاشکی
سودمی رخسار خود بر خاک آن پا کاشکی[84]

Musaddasdan so‘ng marsiya o‘rin olgan bo‘lib, 188a varaqdan boshlangan. Marsiya quyidagi bayt bilan boshlanadi:

هر دم از انجمن چرخ جفای دیگرست
هر یک از انجم او داغ بلایی دیگرست[85]

Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

شاه معنی را گر صورت افتاد چین
باد تا شحر شه صورت و معنی آمین[86]

Ushbu nusxa marsiya bilan yakunlangan. Unda qolgan janrlar, ya’ni ruboiy, tarix, qit’a, muammo, lo‘g‘z kabi janrlar mavjud emas.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Foniyning “Devoni Foniy” asarining ushbu qo‘lyozma nusxasi devon tarkibidagi barcha janrlarni o‘zida qamrab olmasa-da, boshqa nusxalardan debocha va qasidalarning to‘liq ekanligi, oralaridan varaqlar yo‘qolmaganligi bilan ajiralib turadi. Shuningdek, ko‘chirilgan sanasi ko‘rsatilmagan, g‘azallarning sarlavhasi yozilmagan bo‘lsa-da, undagi matnlarining tiniqligi, janrlar va g‘azallar alohida ajralib turishi uchun jadvallar chizilgani, unvonga ega ekanligi, varaqlarning ketma-ketligini ta’minlash maqsadida har bir varaqqa poygirlar qo‘yilgani, bu nusxada g‘azallar soni anchagina ko‘p ekanligi (Fransiyadagi nusxalardan keyingi uchinchi o‘rinda) manbashunoslik uchun uning ahamiyati nechog‘lik katta ekanligini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 18, 19, 20 том. Девони Фоний – Т.: Фан, 2002.
2. Alisher Foniy. Devoni Foniy. Hakimo‘g‘lu Ali Poshsho kolleksiyasi. Inv: 00632. 191 varaq.
3. Ҳамид Сулаймон. Навоийнинг “Фоний” девони. Шарқ юлдузи. №9. Тошкент. 1965. Б. 155.

[84] Alisher Foniy. Devon. Hakimo‘g’lu Ali Poshsho. Inv: 00632. 187a varaq.

[85] Alisher Foniy. Devon. Hakimo‘g’lu Ali Poshsho. Inv: 00632. 191a varaq.

4. Хамид Сулейман, Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Док. дисс. част первый, – Ташкент: изд. АН УзССР 1961. – С.288.

5. Agoh Sirri Levend. Turkiye kitapliklarindaki Nevai yozmalari. Turk tarih kurumi basimevi – Ankara, 1958.

TARIXIY REALIYALARNI TARJIMADA QAYTA TIKLASH MASALASI

Sug‘diyona Ergasheva,
Qo‘qon universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya

Tarixiy realiyalarni tarjima qilish tarjimashunoslikning eng murakkab masalaridan biri hisoblanadi. Turli xalqlar tarixi haqidagi asarlarning tarjimasi kitobxonga o‘sha millat tarixi haqida ma’lumot berish bilan birgalikda, o‘zi mansub bo‘lgan millat tarixiga ham bevosita qiziqish uyg‘otadi. Bu maqolada tarjimashunoslikdagi “realiya” va “tarixiy realiya” tushunchalari nazariy jihatdan asoslanib, tarjima jarayonida qayta tiklash masalalari tadqiq etiladi va ularning tasnifi takomillashtiriladi. Tarixiy realiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Tarjima nazaryasidagi zamonaviy yondashuvlar, tarixiy realiyalarni qayta tiklashdagi qiyinchiliklar, ularni tarjima qilish va qayta tiklashning mavjud usullari tahlil qilinadi. Maqola tarixiy realiyalarni tarjima qilishning amaliy tavsiyalarini taqdim etadi va bu sohadagi kelajak tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni belgilaydi.

Kalit so‘zlar: Tarjima san’ati**,** mutarjim, milliy kolorit, realiya, tarixiy realiya, lingvokulturologik yondashuv, kognitivistik yondashuv, pragmatik yondashuv, integratik yondashuv.

Аннотация

Перевод исторических реалий является одной из самых сложных задач переводоведения. Перевод произведений об истории различных народов не только предоставляет читателю информацию об истории данной нации, но и пробуждает непосредственный интерес к истории собственного народа. В данной статье теоретически обосновываются понятия "реалия" и "историческая реалия" в переводоведении, исследуются вопросы их воссоздания в процессе перевода и совершенствуется их классификация. Раскрываются специфические особенности исторических реалий. Анализируются современные подходы в теории перевода, трудности воссоздания исторических реалий, существующие методы их перевода и

воспроизведения. Статья представляет практические рекомендации по переводу исторических реалий и определяет перспективные направления для будущих исследований в этой области.

Ключевые слова: Искусство перевода, переводчик, национальный колорит, реалия, историческая реалия, лингвокультурологический подход, когнитивистский подход, прагматический подход, интегративный подход.

Abstract

Translating historical realia is considered one of the most complex issues in translation studies. The translation of works about the history of various nations not only provides readers with information about the history of that nation but also directly awakens interest in the history of their own nation. This article theoretically substantiates the concepts of "realia" and "historical realia" in translation studies, investigates the issues of their recreation in the translation process, and improves their classification. The specific features of historical realia are revealed. Modern approaches in translation theory, difficulties in recreating historical realia, and existing methods of their translation and reproduction are analyzed. The article presents practical recommendations for translating historical realia and identifies promising directions for future research in this field.

Keywords: Art of translation, translator, national color, realia, historical realia, linguocultural approach, cognitive approach, pragmatic approach, integrative approach.

Tarjima kundan-kunga kengayib, chinakam san’at darajasiga ko‘tarilib bormoqda. Tarjima san’atining eng nozik va murakkab jabhalaridan biri bo‘lmish badiiy asar tarjimasi haqida so‘z yuritganda, uni mahorat va sabr-toqat talab qiladigan ijodiy jarayon deb ta’riflash mumkin. Badiiy asar tarjimasi mutarjimlar tomonidan behisob tunlardagi bedor soatlar, tinimsiz izlanishlar va beqiyos aqliy mehnat samarasi o‘laroq dunyoga keladi. Bu bebaho asarlarni bir tildan boshqa tillarga tarjima qilish dunyoning turli burchaklaridagi jamiyatlarga ma’naviy ko‘prik qurish, insoniyat tafakkurining durdonalarini barchalari uchun ochib berish demaktir. Tarjima zavqli bo‘lish bilan bir qatorda murakkab va nozik jarayon sanaladi. Bu murakkab jarayon tarjimondan nafaqat chuqur bilim, balki juda keng qamrovli adabiy salohiyat, ilmiy tajriba va madaniy dunyoqarashni talab etadi. Har bir badiiy asar o‘ziga xos ruhiyatga ega , shuning uchun bu jarayon faqat so‘zlarni tarjima qilishdan iborat emas, balki muallifning uslubi, ohangi, hissiyotlari va madaniy kontekstni ham saqlab qolishni talab qiladi. Asar ma’nosi va muallifning niyyatini yo‘qotmaslik juda muhimdir. Tarjimon o‘zining so‘z

boyligi va ifoda uslubi bilan asarga yangi nafas olib kiradi va ona tilida qayta jonlantiradi. “ Tarjima til va tafakkurning buzilmas ittifoqi, muqoyasasi, shirin xosili o‘laroq , tabiat insonga ato etgan ulug‘ ne’mat, ajoyib mo‘jiza, tarjima bor ekan, xalqlar bir-birlari bilan doimiy jonli muloqotda, adabiyotlar bir-biriga vobasta, bir-biridan baxramand. Tarjima bor ekan, fikr-fikrdan suv ichadi, boyiydi, o‘tkirlashadi” deb yozgan edi tarjimashunos olim G‘aybulla Salomov[1,121]. Tarjimon matnning ortidagi madaniy kontekstni, tarixiy davr ruhini, muallif dunyoqarashini his etmasa va kitobxonga etkaza olmasa, asar o‘z qimmatini yo‘qotadi. Shu sababdan kitobni tarjima qilishda malakali tarjimon har ikki madaniyat orasida ko‘prik bo‘lishi o‘z ona tilining nozik jihatlarini mukammal bilishi va professional mahoratini doimiy ravishda takomillashtirishi zarur.

Zamonaviy tarjimashunoslik fani tobora rivojlanib borayotgan bir paytda, madaniyatlararo kommunikatsiyaning samaradorligini ta’minlovchi omillarni tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tillararo muloqot jarayonida milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi til birliklarini tarjima qilishda alohida e’tiborni talab etadi. Ana shunday til birliklari ichida tarixiy realiyalar o‘ziga xos o‘rin egallaydi. **Milliylik** u yoki bu millatning ma’naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xoslikdir. Ma’naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumos xususiyatlari va boshqalar bo‘lsa; moddiy hayot esa urf-odat,rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar,uy-ro‘g‘or anjomlari, cholg‘u asoboblari, panzandachilik, ismlar va hakozolardir. Badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig‘indisi **milliy kolorit** deyiladi[2,69]. Adabiyotshunoslikda mahalliy kolorit degan tushuncha ham mavjud. N. Hotamov, B. Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan “ Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da bu terminga shunday ta’rif berilgan : “**Mahalliy kolorit** – biror mahalliy sharoit, urf odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirish”[3,192] Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan so‘z va atamalar **realiyalar** deyiladi. Bu atamaning kelib chiqishi lotin tilidagi “realis” so‘zidan olingan bo‘lib, “moddiy”, “haqiqiy” degan ma’nolarni anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda realiya tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ba’zi olimlar uni faqat predmet sifatida ko‘rsalar, boshqa tadqiqotchilar uni til birligi sifatida ham, madaniy hodisa sifatida ham o‘rganadilar. Realiya atamasiga H.Hamroyevning “ Realiya va badiiy tarjima” nomli maqolasida: realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini ta’riflab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to‘g‘ri tasvirlashga yordam beradi” tarzida izohlangan[4,158]. G‘.Salomovning “Tarjima nazaryasi asoslari” kitobida esa realiyalarni **milliy o‘ziga xos so‘zlar** deb nomlaydi va adabiy asarda

tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma’naviy turmush tarzi, tabiati, o‘rmon, tog‘, dala, suv, zamin osmon hamda afsona va cho‘pchaklari, tarixi, dini, adabiyoti va san’ati hamda boshqa maxus narsalar haqidagi tasavvurlari , tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokazolar milliy xoslik komponentlariga kiradi deya e’tirof etishgan[5,101]. Bu atamaning mazmun mohiyati, kelib chiqishi, tilshunoslikdagi realliklar, akalotizmlar va anaxronizmlar, tarixiy voqeliklarning tarjimasi, tarjimada reliyalarning onomasiyasi haqida rus olimlari Sergey Vlaxov va Sider Florinlar “ Непереводимое в переводи” nomli kitobida batafsil yoritiladi.

Tarixiy realiyalar – muayyan tarixiy davr, joy yoki madaniyatga xos bo‘lgan va boshqa til va madaniyatlarda bevosita ekvivalenti bo‘lmagan tushnchalardir. Ular nafaqat til, balki tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar kesishmasida joylashgan murakkab lingvistik hodisadir. Shu bois ularni tarjima qilish va qayta tiklash masalasi nafaqat tarjimashunoslik, balki madaniyatlararo muloqot va madaniyat tarixini o‘rganish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tarixiy asardagi realiyalar ham milliy ham tarixiy bo‘yoqni o‘zida nomoyon etadi. Chunki ma’lum bir xalqning xilma-xil tarixiy davrlardagi turmush-tarzi, madaniyati, qarashlari, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyoti realiya atamasining ma’nosiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Realiyalar murakkab lingvomadaniy hodisa bo‘lib, ularni tarjima qilish va qayta tiklash jarayonida ko‘p qirrali yondashuvni talab etadi. Realiyalarning tasnifi ularni tadqiq etishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Quyida realiyalar mavzusi bo‘yicha turli tadqiqot ishlarida keltirilgan ilmiy-nazariy fikr va xulosalar asosida tarixiy realiyalar tasnifini keltiramiz:

1. **Predmet-mazmuniga ko‘ra:** moddiy realiyalar (asbob-anjomlar,qurol-yarog‘lar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar); ijtimoiy-madaniy realiyalar(urf-odatlar, an’analar, marosimlar);tarixiy-siyosiy realiyalar(unvonlar,mansablar,tashkilotlar); diniy realiyalar (diniy ma’rosimlar,ibodatxonalar, diniy atamalar); geografik realiayalar: (geografik nomlar, joylar va h.k)
2. **Tarixiy davriga ko‘ra:** arxaik realiyalar(hozirgi kunda ishlatilmaydigan), tarixiy realiyalar (ma’lum bir tarixiy davrga xos), zamonaviy realiyalar(hozirgi kunda ishlatiladigan).
3. **Tarqalish doirasiga ko‘ra:** milliy realiyalar(bir millat doirasida), mintaqaviy realiyalar(ma’lum bir hududda), xalqaro realiyalar(ko‘p madaniyatlarda mavjud), lokal realiyalar(ma’lum bir joyga xos)

4. Til strukturasidagi o‘rniga ko‘ra: leksik realiyalar (so‘zlar), frazeologik realiyalar (iboralar), grammatik realiyalar(grammatik strukturalar)

Bu tasnif tarixiy realiyalarni tadqiq etishda kompleks yondashuvini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, realiyalarni o‘rganishda ularning matn ichidagi vazifasini ham hisobga olish lozim. Bu borada realiyalarning quyidagi vazifalarini ajratib ko‘rsatamiz:

1. Nominativ vazifa – voqelikdagi predmet, hodisa va tushunchalarni nomlash
2. Ekspressiv vazifa– emotsional ta'sir o‘tkazish
3. Stilistik vazifa – ma'lum bir uslubiy bo‘yoq berish
4. Pragmatik vazifa – muayyan pragmatik ta'sir ko‘rsatish
5. Madaniy-tarixiy vazifa – tarixiy va madaniy ma'lumotlarni saqlash va uzatish.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, realiyalar murakkab lingvomadaniy hodisa bo‘lib, ularni tarjima qilish va qayta tiklash jarayonida ko‘p qirrali yondashuvni talab etadi. Realiyalarning tasnifi ularni tadqiq etishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi va tarjima amaliyotida to‘g‘ri strategiyani tanlashga yordam beradi.

Tarixiy realiayalar deganda muayyan tarixiy davrga xos bo‘lgan, shu davr madaniyati, ijtimoiy tuzumi, turmush tarzi va dunyoqarashini aks ettiruvchi hamda zamonaviy til egalari uchun arxaiklashgan yoki o‘z ma’nosini o‘zgartirgan tushunchalarni nazarda tutiladi. Tarixiy realiyalar ma'lum bir tarixiy davr bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular o‘sha davrning "belgilari" hisoblanadi. Ular orqali o‘tmishdagi hayot tarzi, tafakkur, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarni ko‘rish mumkin. Masalan, "yasovul", "chopar", "qoziboshi", "tanob soliq" kabi so‘zlar muayyan tarixiy davr bilan bog‘liq realiyalardir. Tarixiy realiyalar vaqt o‘tishi bilan o‘z semantik mazmunini o‘zgartirishi, kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin. Ba'zi tarixiy realiyalar esa bugungi kunda umuman boshqa ma'noda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, "mirza" so‘zi avval "shahzoda" ma'nosini anglatgan bo‘lsa, keyinchalik "savodli kishi" va "kotib" ma'nolarini anglatgan. Ko‘plab tarixiy realiyalar bugungi kunda arxaizmlarga aylanib, aktiv lug‘at tarkibidan chiqib ketgan. Ular faqat tarixiy asarlar, arxiv hujjatlari va etnografik tadqiqotlarda uchraydi. Bu esa ularni tushunish va tarjima qilishni yanada murakkablashtiradi. Tarixiy realiyalarning ma'nosini to‘liq anglash uchun ular bog‘liq bo‘lgan madaniy-tarixiy kontekstni bilish zarur. Kontekstdan ajratilgan holda tarixiy realiyalarni tushunish va tarjima qilish qiyin. Tarixiy realiyalarni anglash uchun keng fon bilimlariga, ya'ni tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik sohalaridagi bilimlar zarur. Bu esa tarjimondan ko‘p qirrali kompetensiyalarni talab etadi. Tarixiy realiyalar ko‘pincha muayyan baholash va munosabatlarni

ifodalaydi. Ular orqali o‘sha davrdagi qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ierarxiya va madaniy ustuvorliklar aks etadi. Tarixiy realiyalar milliy "madaniy kod"ning tarkibiy qismi hisoblanib, ular orqali millatning identikligi va mentaliteti namoyon bo‘ladi. Tarixiy realiyalar o‘tmishga qaratilgan bo‘lib, ular zamonaviy voqelikni emas, balki tarixiy voqelikni aks ettiradi.Tarixiy realiyalarning nuchta asosiy semantik strukturasi bor: Denotativ komponent – aniq tarixiy predmet, hodisa yoki tushunchaga ishora qiluvchi ma'no; Konnotativ komponent – qo‘shimcha emotsional-ekspressiv, baholovchi va uslubiy ma'nolar; Madaniy-tarixiy komponent – tegishli tarixiy davr va madaniyat haqidagi axborot. Mazkur semantik strukturaning murakkabligi tarixiy realiyalarni tarjima qilish va qayta tiklashda katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Chunki tarjimada nafaqat denotativ ma'noni, balki konnotativ va madaniy-tarixiy komponentlarni ham qayta tiklash zarur bo‘ladi. Tarixiy realiyalarning matn ichidagi vazifalari ham o‘ziga xos. Ular quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Xronologik lokalizator vazifasi – matnni ma'lum bir tarixiy davr bilan bog‘laydi
2. Milliy-madaniy identifikator vazifasi – matnning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ta'minlaydi
3. Retrospektiv eksplikator vazifasi – o‘tmishdagi voqea-hodisalarni tushuntiradi
4. Tarixiy autentiklikni ta'minlovchi vazifa – matnning tarixiy haqiqiyligini ta'minlaydi

Shunday qilib, tarixiy realiyalar o‘ziga xos lingvistik, madaniy va gnoseologik xususiyatlarga ega bo‘lgan, murakkab semantik strukturali til birliklaridir. Ularni tarjima qilish va qayta tiklash jarayonida bu xususiyatlarni hisobga olish zarur.

Zamonaviy tarjimashunoslikda realiyalarni, xususan, tarixiy realiyalarni o‘rganishda turli yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlar realiyalarning turli jihatlarini o‘rganishga va ularni tarjima qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga qaratilgan.

1. Lingvistik yondashuv

Lingvistik yondashuv realiyalarni til birligi sifatida o‘rganib, ularning leksik-semantik, grammatik va stilistik xususiyatlarini tahlil qiladi. Bu yondashuv doirasida realiyalar quyidagi aspektlarda o‘rganiladi:

- Leksik-semantik xususiyatlari (ma'nolari, ma'no komponentlari, polisemiya)
- Grammatik xususiyatlari (so‘z yasalishi, grammatik kategoriyalari)
- Etimologik xususiyatlari (kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi)
- Funksional-stilistik xususiyatlari (uslubiy bo‘yog‘i, qo‘llanish doirasi)

Lingvistik yondashuvning afzalligi shundaki, u realiyalarning til tizimidagi o‘rnini va ularning lingvistik xususiyatlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Ammo bu yondashuv realiyalarning faqat lingvistik jihatlariga e'tibor qaratib, ularning madaniy va tarixiy jihatlarini to‘liq qamrab ololmaydi.

2. Lingvokulturologik yondashuv

Lingvokulturologik yondashuv realiyalarni til va madaniyat kesishmasida joylashgan hodisa sifatida o‘rganadi. Bu yondashuv realiyalarning quyidagi jihatlarini o‘rganishga qaratilgan:

- Madaniy-semantik maydoni
- Lingvomadaniy konsept strukturasi
- Madaniy konnotatsiyalari
- Milliy-madaniy komponentlari

Bu yondashuv realiyalarni nafaqat til birligi, balki madaniy hodisa sifatida ham o‘rganish imkonini beradi. Lingvokulturologik yondashuvning afzalligi shundaki, u realiyalarni keng madaniy kontekst doirasida o‘rganadi va ularning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradi.

3. Kognitivistik yondashuv

Kognitivistik yondashuv realiyalarni kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan o‘rganib, ularning ong va tafakkur bilan bog‘liqligini tahlil qiladi. Bu yondashuv doirasida realiyalar quyidagi aspektlarda o‘rganiladi:

- Konseptual strukturasi
- Mental reprezentatsiyasi
- Kognitiv modellar va freymlar
- Konseptual metaforalar

Kognitivistik yondashuvning afzalligi shundaki, u realiyalarning insonning bilish jarayonidagi o‘rnini ko‘rsatib beradi va ularning mental reprezentatsiyasini ochib beradi. Bu yondashuv realiyalarni tarjima qilishda ularning konseptual ekvivalentligini ta'minlas

4. Pragmatik yondashuv

Pragmatik yondashuv realiyalarni kommunikativ jarayonda qo‘llanilishi nuqtai nazaridan o‘rganadi. Bu yondashuv realiyalarning quyidagi jihatlarini o‘rganishga qaratilgan:

- Pragmatik potensiali
- Kommunikativ funksiyalari
- Pragmatik effekti
- Diskursiv xususiyatlari

Pragmatik yondashuvning afzalligi shundaki, u realiyalarning muloqot jarayonidagi o‘rnini va ularning pragmatik ta'sirini ko‘rsatib beradi. Bu yondashuv realiyalarni tarjima qilishda pragmatik ekvivalentlikni ta'minlashga yordam beradi.

5. Integrativ yondashuv

Integrativ yondashuv yuqoridagi barcha yondashuvlarni birlashtirgan holda, realiyalarni kompleks hodisa sifatida o‘rganadi. Bu yondashuv realiyalarni quyidagi aspektlarning yaxlit birligi sifatida ko‘radi:

- Lingvistik aspekt
- Madaniy aspekt
- Kognitiv aspekt
- Pragmatik aspekt
- Tarixiy aspect

Realiyalarni o‘rganishda korpus lingvistikasi usullaridan foydalanish realiyalarning qo‘llanilishini, chastotasini va kontekstual xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Realiyalarning inson ongida qanday qayta ishlanishi va idrok etilishini o‘rganish realiyalarni tarjima qilishning psixolingvistik asoslarini tushunishga yordam beradi. Kompyuter lingvistikasi usullarini qo‘llash orqali zamonaviy kompyuter texnologiyalari realiyalarni avtomatik aniqlash, tahlil qilish va tarjima qilish imkoniyatlarini ochib beradi. Chog‘ishtirma lingvokulturologik tadqiqotlar natijasida turli tillar va madaniyatlardagi realiyalarni qiyosiy o‘rganish realiyalarning universallik va o‘ziga xoslik darajasini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, zamonaviy tarjimashunoslikda realiyalarni o‘rganishda integrativ yondashuv eng samarali hisoblanadi. Bu yondashuv tarixiy realiyalarni har tomonlama o‘rganish va ularni tarjimada to‘g‘ri qayta tiklash imkonini beradi. Tarixiy realiyalarni tarjima qilish tarjimashunoslikning eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki tarjimon nafaqat ikki til o‘rtasida, balki ikki tarixiy davr, ikki madaniyat o‘rtasida ham "ko‘prik" vazifasini bajarishi kerak bo‘ladi.

Tarixiy realiyalarni tarjimada tiklashning asosiy usullari:

1. Transliteratsiya va transkripsiya – bu asl so‘zni tarjima qilinayotgan tilda mavjud bo‘lgan fonetik va grafik vositalar bilan tiklashdir. Masalan, "kurultay" so‘zini ingliz tiliga "kurultai" ko‘rinishida o‘tkazish mumkin.

2. Funktsional analog – tarjima qilinayotgan tilda mavjud bo‘lgan, asl tildagi tushunchaga yaqin bo‘lgan so‘z yoki iborani qo‘llash. Masalan, qozikalon" – "baş kadı" (turkcha)deb tarjima qilish mumkin, lekin bu to‘liq ma'noni bermaydi.

3. Tavsifli tarjima – bu realiyaning mohiyatini qisqa va aniq tushuntirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, "mahram" – "hükümdarın özel hizmetinde bulunan kişi" (turkcha).

4. Kombinatsiyalashgan usul – yuqoridagi usullarning birgalikda qo‘llanilishi. Masalan, "yasavul" so‘zini "yasavul (royal guard)" tarzida berish.

Tarjima jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar tarixiy realiyalar haqida etarli bilimning yo‘qligi, madaniy kontekstni to‘g‘ri tushunmaslik, maqsadli auditoriyaning xususiyatlarini hisobga olmaslik, asl matnning stilistik xususiyatlarini saqlash masalalaridir. Tarixiy realiyalarni to‘g‘ri tiklash uchun chuqur tadqiqot o‘tkazish - tarjima qilinayotgan davr, madaniyat va ijtimoiy kontekst haqida to‘liq ma'lumot to‘plash, izohlar qo‘shish – o‘quvchilarga notanish realiyalarni tushuntirish maqsadida izohlar berish, konsistentlikni saqlash – bir matn doirasida bir realiyani har doim bir xil usul bilan tarjima qilish, malakali mutaxassislar bilan maslahatlashish – tegishli tarixiy davr bo‘yicha mutaxassislar yoki shu madaniyat vakillari bilan konsultatsiya qilish lozim. Tarjima san'atida tarixiy realiyalarni tiklash – bu ilm va ijod o‘rtasidagi muvozanatni topishdir. Har bir realiyadagi madaniy va tarixiy qatlamlarni saqlash, ayni paytda o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan tarjimani taqdim etish – haqiqiy mahorat talab etadigan vazifadir. Ustoz tarjimashunos olim G‘aybulla Salomov tarjimonga shunday ta’rif berishadi: “ Olim tahlil qiladi, yozuvchi tasvirlaydi, aktyor xarakter yaratadi. Tarjimon nima qiladi ? Tarjimon, turgan gap, tarjima qiladi. Ilm, adabiyot, san’at ahlining mehnati mashaqqatlarini zarracha kamsitmagan holda,aytish kerakki, mutarjim judayam o‘ziga xos layoqat, iqtidor, iste’dod va bilim sohibi bo‘lishdan tashqari,uning zakovatida deyarli barcha ijod ahlining faoliyatiga xos: tahlil tasvir va boshqalarning qiyofasiga kirish,xarakter yaratish,kayfiyat tug‘dirish,tanqid qilish va hatto maxsus “o‘qiy bilish” xususiyatlari jamuljam. Chunonchi, tarjimonda yozuvchi va tanqidchi, aktyor, rassom, bastakor va olim mehnatidan ham nimadir bor. Bu shundan iboratki, tarjimon lingvist bo‘lib lisoniy materialni tahlildan o‘tkazadi,aktyor singari birovning (bu o‘rinda – muallifning) qiyofasiga kiradi va ayni vaqtda o‘zligini saqlaydi, o‘zi o‘girayotgan narsaga va ayniqsa o‘z mehnatiga tanqidiy nazar bilan qaraydi, tarjima qilinayotgan orginal ni yaxlit holda hamda bo‘laklarga bo‘lib bir necha martalab (kerakli joyda – ovoz chiqazib) o‘qiydi, “o‘lik” matn orasidan muallifning jonli siymosini va qalbini qidiradi. Xullas, gap orqasidan quvmaydi, balki ma’no, kuy, ohang, bo‘yoq izlaydi”[6,126]

Globallashuv jarayonlari tufayli dunyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar kuchayib borayotgan bir paytda, har bir xalqning o‘ziga xos milliy-madaniy qadriyatlarini saqlash va ularni boshqa tillarda to‘g‘ri ifodalash zarurati ortib bormoqda. Tarixiy matnlarni tarjima qilish jarayonida tarixiy realiyalarni to‘g‘ri va

qayta tiklash matnning tarixiy autentikligini va pragmatik ta'sirini saqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tarjimashunoslikda tarixiy realiyalarni qayta tiklashning yagona universal metodologiyasi mavjud emas, bu esa ushbu sohada yangi nazariy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarning chuqurlashuvi va yangi lingvokulturologik tadqiqot usullarining paydo bo‘lishi tarixiy realiyalarni yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining Ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent, 1983.192-bet
2. Hamroyev H. Milliy xos so‘zlar – realiyalar va badiiy tarjima //Tarjima madaniyati (Maqolalar to‘plami).Toshkent, 1982. 158-bet.
3. Salomov G‘.Ey umri aziz. – Toshkent , 1997. 121-125- bet.
4. G‘afurov I. Zamon va tarjima// Tarjima san’ati(Maqolalar to‘plami).-Toshkent, 2023. 12-bet.
5. Salomov G‘. Tarjima nazaryasi asoslari.101-bet.
6. Sergey Vlaxov, Sider Florinlar. Непереводимое в переводи. – Moskva, 1980.17-bet.
7. Yo‘dosheva M. Tushuntirmoq san’ati // Tarjima san’ati(Maqolalar to‘plami).-Toshkent, 2023. 113-bet.
8. Ochilov E. Tarjima nazaryasi va amaliyoti. – Toshkent, 2012. 71-bet.
9. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.
10. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.
11. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
12. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.
13. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
14. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.

15. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548

16. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA SHE'RIY TARJIMA MUAMMOLARI: TA'RIF, TASNIF, TAHLIL VA TAKLIF

Abduxalilova Dilobar Sherali qizi,
O‘zDJTU tayanch doktoranti
dilobar.abdukhalilova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis tilidan o‘zbek tiliga she’riy tarjima jarayonida yuzaga keladigan turli muammolar tahlil qilinadi. She’riy tarjima nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarini ham o‘z ichiga oladi. Muallif she’riy tarjimaning nazariy asoslarini ochib beradi va tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik, madaniy va poetik qiyinchiliklarni batafsil ko‘rsatadi. Bu qiyinchiliklar orasida tilning grammatik tuzilishi, ma’nolarni ifodalashdagi farqlar, madaniy aloqalar va stilistik farqlar alohida o‘rin tutadi. Maqolada she’riy tarjima jarayonida til va madaniyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlashning ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: she’riy tarjima, poetik ekvivalentlik, Gyote poeziyasi, madaniyatlararo muvozanat, estetik ifoda, tarjimon kompetensiyasi, metafora va ramzlar, poetika va stilistika.

ABSTRACT

This article analyzes various problems that arise in the process of poetic translation from German into Uzbek. Poetic translation includes not only linguistics, but also cultural studies and literary studies. The author reveals the theoretical foundations of poetic translation and details the linguistic, cultural and poetic difficulties that arise in the translation process. Among these difficulties, the grammatical structure of the language, differences in the expression of meanings, cultural connections and stylistic differences occupy a special place. The article emphasizes the importance of maintaining a balance between language and culture in the process of poetic translation.

Keywords: poetic translation, poetic equivalence, Goethe’s poetry, intercultural balance, aesthetic expression, translator competence, metaphor and symbols, poetics and stylistics.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются различные проблемы, возникающие в процессе перевода поэзии с немецкого языка на узбекский язык. Перевод поэзии охватывает не только лингвистику, но также культурологию и литературоведение. Автор раскрывает теоретические основы поэтического перевода и подробно останавливается на языковых, культурных и поэтических трудностях, возникающих в процессе перевода. Среди этих трудностей особое значение имеют грамматическая структура языка, различия в выражении значений, культурные связи и стилистические различия. В статье подчеркивается важность соблюдения баланса между языком и культурой в процессе поэтического перевода.

Ключевые слова: поэтический перевод, поэтическое эквивалентство, поэзия Гёте, межкультурный баланс, эстетическое выражение, компетенция переводчика, метафоры и символы, поэтика и стилистика.

She’riy tarjima – bu nafaqat til vositasida matnni o‘tkazish, balki bir madaniyatning badiiy-estetik qadriyatlarini boshqa bir til vositasida etkazish san’atidir. Ayniqsa, nemis tilidan o‘zbek tiliga she’riy tarjima qilishda ko‘plab murakkabliklar yuzaga chiqadi. Bu nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, poetika, stilistika sohalarini ham qamrab oladi. Tarjimon nafaqat lug‘aviy darajadagi moslikni, balki estetik hissiyotlar, poetik mazmun va obrazlar tizimini ham to‘g‘ri talqin qilishi kerak. Bu esa tarjimani juda murakkab va mas’uliyatli jarayonga aylantiradi.

Yaqin vaqtlar ichida bevosita roman-german tillaridan tarjima qilishga ko‘chish ishi real vazifa bo‘lishi qiyin. Shuning uchun ham bu ishda tarjimaning boshqa vosita va imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Shunday imkoniyatlardan biri taglamalardir [6, 57].

Nemis va o‘zbek adabiy an’analari o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Nemis poeziyasi, ayniqsa klassik davr (Goethe, Schiller, Heine) o‘zining chuqur falsafiyligi, obrazlar murakkabligi va poetik shaklining ixchamligi bilan ajralib turadi. Bu adiblarning asarlarida insoniyat, tabiat, jamiyat haqidagi teran falsafiy mushohadalar mujassam bo‘ladi. Ularning she’rlari zamonaviy o‘quvchiga ham muhim hayotiy savollarni beradi. O‘zbek poeziyasi esa ko‘proq ritmik tuzilma, majozga boylik va musiqiylikka urg‘u beradi. Bu poeziya og‘zaki an’ana bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda estetik diddan tashqari xalqona ohang, milliy mentalitet ham etakchi o‘rinni egallaydi. Shu bois, bu ikki madaniyat o‘rtasidagi tafovutlar

tarjimada muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon ikki madaniyat orasida vositachi bo‘lishi, har ikkala tomonning estetik qadriyatlarini hisobga olib ishlashi zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, tarjima jarayonida yuzaga kelayotgan poetik-ekvivalentlik, ma’no ifodasi, madaniy moslashuv kabi muammolar adabiyotlararo muloqotni to‘laqonli amalga oshirishda to‘siq bo‘lishi mumkin. Bugungi globallashuv davrida xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar kuchayib borar ekan, badiiy tarjimaning roli yanada ortmoqda. Shu jihatdan, she’riy tarjimada aniqlik, badiiylik va sadoqatni uyg‘unlashtirish masalasi dolzarb ilmiy-ijodiy muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada aynan shu muammolar chuqur tahlil qilinadi va ularning echimiga oid ilmiy takliflar ilgari suriladi.

Tadqiqot metodologiyasi masalasida esa quyidagilarni ta'kidlash lozim: mazkur izlanishda kompleks yondashuvga asoslangan holda bir nechta metodologik asoslar qo‘llanildi. Jumladan, qiyosiy-tarjimashunoslik metodlari orqali asl matn va tarjima o‘rtasidagi strukturaviy, mazmuniy va poetik tafovutlar aniqlab borildi. Lingvopoetik yondashuv orqali she’r matnining til vositalari orqali ifodalangan estetik va hissiy qatlamlari tahlil qilindi. Tarjima nazariyasiga doir klassik va zamonaviy yondashuvlar, xususan, Nida, Newmark, Holmes va Bassnett kabi olimlarning nazariyalari asos qilib olindi. Intertekstual tahlil orqali matndagi boshqa matnlarga havolalar, madaniy kodlar va alluziyalar aniqlanib, ularning tarjima jarayonidagi ta’siri ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, semantik-analitik metod yordamida har bir so‘z va iboraning ko‘p qatlamli ma’nosi kontekstdan kelib chiqqan holda tahlil etildi. Har bir asar tarjimasi uning shunchaki ikkinchi tilga o‘girmasi bo‘lib qolmasdan, tarjimaviy jarayonning yangi bir xalqasi hamdir; unda shu tillararo munosabatning darajasi, adabiyotlararo muvofiqliklar va nomuvofiqliklar, ya’ni “A” tildan “B” tilga o‘girishda shakllanganm muayyan umumiy ko‘nikmalar ham bo‘y ko‘rsatib turadi.[5, 12]

Maqolada asosiy e’tibor Johann Wolfgang von Gyotening mashhur "Gefunden" she’ri tarjimasi misolida poetik qatlamlar tahliliga qaratildi. Ushbu she’rda hayotiy tajriba, tabiat va sevgi obrazlari timsolida falsafiy mazmun mujassam bo‘lib, uning tarjimasida originalga sadoqat bilan birga poetik badiiyatni ham saqlash muhim ahamiyatga ega. "Gefunden" she’rining har bir misrasi, ritmik va metaforik strukturasi chuqur tahlil qilinib, uning o‘zbekcha variantida qanday o‘zgarishlarga uchragani ko‘rsatib berildi. Shu orqali tarjimonning tanlovi, poetik erkinlik doirasi va madaniy moslashuvning ahamiyati yoritildi. Bu yondashuv, o‘z navbatida, poetik tarjimalarning nazariy va amaliy jihatdan chuqurroq anglanishiga xizmat qiladi.

She’riyat, - deb yozgan edi Gyote o‘zining “She’riyat va haqiqat” nomli asarida, - ayrim nozikta’b va tarbiyatli kishilarga avloddan avlodga meros bo‘lib

o‘tadigan xususiy mulk emas, balki jumlai jahonga, barcha xalqlarga xos iste’doddir [1, 19].

Poeziya tarjimasi nasriy tarjimadan tubdan farq qiladi. Nasriy tarjimada ko‘proq ma’no etkazilishi asosiy vazifa bo‘lsa, she’riy tarjimada ohang, estetik tuzilma, ritmik uyg‘unlik, fonetik go‘zallik, obrazlar tizimi va majoziy qatlamlar birgalikda ishlaydi. Shu sababli, tarjimon faqatgina so‘zdan so‘zga tarjima qilish bilan cheklanmaydi, balki ruhdan ruhga, obrazdan obrazga o‘tish orqali asl asarning badiiy kuchini saqlab qolishga intiladi. Tarjima jarayonida muallif uslubiga hurmat saqlangan holda, o‘zbek o‘quvchisi uchun o‘qilishi qulay bo‘lgan, ammo original asarning poetik ruhi va badiiy mohiyatini yo‘qotmagan matn yaratilishi kerak.

Hozirgi kun tarjimachiligimizda uchta antinomiya e’tiborni o‘ziga tortmoqda, bular:

1.She’rni tarjima qilib bo‘ladi – she’rni tarjima qilib bo‘lmaydi.

2.Tarjimon asar muallifi darajasida bo‘lmog‘i kerak – tarjimon asar muallifi darajasida bo‘lmog‘i shart emas.

3.Tarjima faqat ona tiliga qilinishi kerak – tarjima chet tiliga ham qilinishi mumkin[4,171].

She’rni tarjima qilish mumkin emas deguvchilarni, adabiy aloqalarga, tarjimalarga dushman kishilar deb qaramaslik kerak. Bularning tashvishlarini jonbozliklarini tushunmoq darkor. Ular poeziyani juda qadrlaganliklaridan, tarjimaga haddan ziyod katta talab va mas’uliyat bilan yondoshganliklaridan shunday fikrlarni bayon etganlar [8, 380].

Ekvivalentlik esa she’riy tarjimada nisbiy bo‘lib, bu atama nafaqat semantik moslikni, balki badiiy ifoda, stilistik uyg‘unlik, ritmik-musiqiy muvofiqlik va obrazlar uyg‘unligini ham qamrab oladi. She’r tarjimasida ekvivalentlik tamoyili faqat leksik semantik tenglik bilan chegaralanmaydi, balki original matnning estetik ta’sirini, ritmik dinamikasini, poetik uslubini boshqa tilda aks ettirish imkoniyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Tarjimonning adabiy didi, stilistik mahorati, poetik tafakkuri va madaniy kompetensiyasi tarjimaning sifati va muvaffaqiyatida muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan, tarjima jarayoni har doim ijodiy jarayon bo‘lib, u qat’iy grammatik yoki leksik qoidalar bilan emas, balki badiiy-estetik mezonlar bilan belgilanadi.

Gyote o‘z lirikasi bilan xalq ko‘ngliga yo‘l topdi, chunki u butun vujudi bilan xalq dardini his eta oldi va shu dard bilan ijod qildi [2, 211]. Gyotening

“Gefunden” she’ri romantik va ramziy mazmunga ega bo‘lib, tabiat, sevgi va ilhomning uyg‘unligini ifodalaydi. She’rda shoir bir go‘zal gulni topadi, uni ehtiyotkorlik bilan o‘z bog‘iga ko‘chiradi. Bu gul – sevgi, ilhom, yashirin iste’dod, nozik tuyg‘ular ramzi sifatida talqin qilinadi. She’r ixcham, lirizmga boy, ritmik va ramziy jihatdan mukammal tuzilgan.

She’r o‘zbek tiliga tarjima qilinganida mazmun asosan saqlanadi, biroq ritm, qofiya va poetik struktura jihatidan soddalashtirish yoki moslashtirish kuzatiladi. Original matnda jambik ritm qat’iy saqlangan bo‘lsa, o‘zbek tarjimasida ba’zan sillabik ritm yoki erkin she’riy uslubga o‘tish holatlari mavjud. Masalan, nemis tilidagi qisqa-yig‘ilgan gaplar o‘zbek tilida hissiy, ba’zan cho‘zilgan frazalar bilan beriladi. Bu ba’zida obrazli ifodani kuchaytirsa-da, ritmik muvozanat va original ohangni yo‘qotish xavfini tug‘diradi.

Obrazlarga kelsak, “Blümlein” (kichik gul) so‘zining o‘zbekcha tarjimasida “gullar”, “guldasta” kabi umumlashtirish kuzatiladi. Bu esa asl she’rdagi yakka, nozik, individual go‘zallik ramzining ifodaviy kuchini pasaytiradi. Originaldagi singularlik o‘rniga plural ifodaning ishlatilishi she’rning ramziy qatlamini soddalashtirib yuboradi. Shuningdek, “Ich grub es aus” (“Men uni qazib oldim”) kabi misralar o‘zbek tarjimasida “Men uni oldim” kabi soddalashtiriladi, bu esa originaldagi hissiyotning chuqurligini va harakatning ehtiyotkorligini kamaytiradi. Lingvistik muammolar. Nemis tili grammatik jihatdan o‘zbek tilidan sezilarli darajada farq qiladi. Inversiya (so‘z tartibining o‘zgaruvchanligi), bog‘lovchilarning ko‘p ma’noliligi, fe’lning birikma holatdagi qo‘llanilishi, murakkab gap tuzilmalari tarjimada ancha murakkablik tug‘diradi. Tarjimon ushbu sintaktik va semantik farqlarni hisobga olgan holda o‘zbek tiliga ekvivalentlik asosida ko‘chirishga harakat qiladi. Ayniqsa, she’rda grammatik formaning ohangdoshligi va ritmik mosligi muhim bo‘lib, bu holat tarjimada murakkab sintaktik va fonetik uyg‘unlikni talab etadi.

Madaniy va mentalitetga oid muammolar. Nemis she’riyatida uchraydigan tabiat kultlari, ruhiy holatlarning ramziy ifodalanishi, shaxsiy tajribaning umumlashtirilgan tasviri kabi jihatlar o‘zbek o‘quvchisi uchun notanish bo‘lishi mumkin. Shu sababli, bu obrazlarni kontekstda moslashtirish, izohlash yoki ularni madaniy jihatdan anglashiladigan shaklda berish zarur. Aks holda, tarjima o‘quvchida tushunmovchilik yoki begonalik hissini uyg‘otadi. Shuningdek, nemis poeziyasida protestant etikasi, ekzistensial kayfiyat, Ich-erzähler (ichki monolog) kabi elementlar mavjud bo‘lib, ularning tarjimasi alohida yondashuvni talab etadi.

Poetik shakl va uslubdagi muammolar. Original she’rda mavjud bo‘lgan strofa o‘lchamlari, qofiya juftliklari, ritmik bog‘lanish, fonetik bezaklar, aliteratsiya va assonanslar tarjimada to‘liq saqlanmasligi mumkin. Masalan, “Gefunden” she’rida assonanslar orqali yaratilgan musiqiylik, qisqa frazalar bilan ta’sirli ritm yaratilgan. O‘zbek tilida bu kabi uyg‘unlikni yaratish uchun boshqa poetik vositalarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Biroq bu vositalarning qo‘llanishi original shaklga sodiqlikni buzishi mumkin. Shu nuqtada tarjimonda poetik shakl va uslubdagi muvozanatni topish asosiy vazifaga aylanadi.

She’riy tarjima – bu nafaqat mazmuniy o‘tkazish, balki poetik ruh, estetik uyg‘unlik va madaniy xususiyatlarni kompleks tarzda boshqa tilda ifodalashni taqozo etadi. “Gefunden” she’ri misolida ko‘rinib turibdiki, tarjima jarayonida har bir poetik qatlam – fonetik, stilistik, semantik va madaniy qatlamlar birgalikda tahlil qilinishi va ularning tarjimada qanday ifodalanganiga e’tibor berilishi zarur.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tarjimada poetik erkinlik masalasi dolzarb. Tarjimon o‘zbek o‘quvchisiga tushunarli va estetik ta’sirli matn etkazishga intiladi. Biroq u asarning g‘oyaviy-badiiy ruhini buzmasligi kerak. Poetik erkinlik – bu nafaqat mazmunda, balki shaklda ham moslashtirishni nazarda tutadi. Tarjimon she’rni o‘zbek o‘quvchisi mentaliteti, adabiy didi va musiqiy qabul qilish usuliga moslab ifodalashi mumkin. Biroq, bu erkinlik original matnning asosiy g‘oyasi, ritmik tuzilmasi, metaforik qatlamlariga putur etkazmasligi lozim[3; 58]. Shuning uchun poetik erkinlik chegaralari ehtiyotkorlik bilan belgilanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jabborov S.D.(1984) G‘arbu-sharq devoni. *DcS diss. in phil. scien*. Tashkent.
2. Martens, K.K., Lewinson, L.S., (1971) Deutsche Literatur.Prostvestshente, Moskva.
3. Musayev, Q., (2005) *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent, Fan nashriyoti.
4. Raximov, X., (2018). Tarjimachilik qay ahvolda. *Zamonaviy leksikografiya, frazeografiya va tarjimashunoslik masalalari*. Andijon
5. Salimova, D., (2018) She’riy tarjimada badiiy niyat va poetik mahoratning qayta ifodalanishi. *PhD diss. in phil. scien*. Tashkent.
6. Salomov, G‘., (1983) *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent, O‘qituvchi.
7. Salomov, G‘., (1979) *Do‘stlik ko‘priklari*. Toshkent, O‘qituvchi.
8. Salomov, G‘., (2022) *Til va tarjima.* Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti. (216)

ENGLISH ROMANTICISM AND IT'S DEVELOPMENT

Diana Alibekova Nuraliyevna,
Student, Chirchik State Pedagogical University
Email: vanillayevvanilla@gmail.com
Scientific advisor: Z.A. Umirova,
Teacher, Chirchik State Pedagogical University
Email: zamira_07_91@mail.ru

ABSTRACT

No other period in English literature displays more richness and variety in style, theme, and content than the Romantic Movement of the eighteenth and nineteenth centuries. Romanticism was not only a literary trend but a broad cultural phenomenon that encompassed literature, politics, history, philosophy, and art in general. This movement emerged as a reaction to the strict rules of Neoclassicism and emphasized individual emotion, imagination, and nature. In England, Romanticism had its greatest influence from the end of the eighteenth century up to 1832, and its echoes continued into the 1870s. Its primary mode of expression was poetry, though its impact was also seen in prose and drama. Despite its significance, Romanticism remains one of the most debated and misunderstood movements in literary history. Scholars have long disagreed on its core principles and definitions. The term has been used in so many different ways that some have even proposed abandoning it altogether. Nevertheless, removing the label does not eliminate the complex ideas and values associated with it. Romanticism represents a passionate revolt against rationalism, celebrating emotion over reason, the individual over society, and the natural over the artificial. It remains a defining chapter in the evolution of modern thought and artistic expression.

Key words: literature, romanticism, politics, history, philosophy, influence, disagreement

АННОТАЦИЯ

Ни один другой период в английской литературе не демонстрирует такого богатства и разнообразия стиля, тем и содержания, как Романтическое движение XVIII и XIX веков. Романтизм был не только литературным направлением, но и широким культурным явлением, охватывающим литературу, политику, историю, философию и искусство в целом. Это движение возникло как реакция на строгие нормы классицизма, акцентируя внимание на индивидуальных чувствах, воображении и природе. В Англии

романтизм оказал наибольшее влияние с конца XVIII века до 1832 года, а его отголоски сохранялись до 1870-х годов. Основной формой выражения романтизма была поэзия, хотя его влияние ощущалось и в прозе, и в драме. Несмотря на свою значимость, романтизм остаётся одним из самых спорных и неоднозначно трактуемых движений в истории литературы. Учёные до сих пор расходятся во мнениях относительно его ключевых принципов и определений. Термин использовался в столь разных значениях, что некоторые предлагали вовсе отказаться от него. Однако отказ от ярлыка не устранит сложные идеи и ценности, с ним связанные. Романтизм — это страстный протест против рационализма, восхваляющий эмоции, личность и природу. Он стал важной вехой в развитии современного мышления и искусства.

Ключевые слова: литература, романтизм, политика, история, философия, влияние, разногласия

ANNOTATSIYA

Ingliz adabiyotida XVIII va XIX asrlardagi Romantik harakatdek uslub, mavzu va mazmun jihatidan boy va xilma-xil davr yo‘q. Romantizm faqat adabiy oqim emas, balki adabiyot, siyosat, tarix, falsafa va san’atni qamrab olgan keng madaniy hodisa edi. Bu harakat neoklassitsizmning qat’iy qoidalariga qarshi norozilik sifatida paydo bo‘lib, shaxsiy tuyg‘ular, tasavvur va tabiatni asosiy qadriyat sifatida ilgari surdi. Angliyada romantizm XVIII asr oxiridan 1832 yilgacha kuchli ta’sir ko‘rsatgan, uning aks-sadosi esa 1870-yillargacha davom etgan. Asosiy ifoda shakli she’riyat bo‘lgan bo‘lsa-da, u nasr va dramaturgiyada ham sezilgan. Muhim ahamiyatiga qaramay, romantizm hali-hanuz adabiyot tarixidagi eng ko‘p tortishiladigan va noto‘g‘ri tushuniladigan harakatlardan biridir. Olimlar uning asosiy prinsiplari borasida bir fikrga kelmagan. Ushbu atama turli ma’nolarda ishlatilgani sababli, ayrimlar undan voz kechishni taklif qilgan. Biroq, bu nomdan voz kechish uning ortidagi murakkab g‘oya va qadriyatlarni yo‘qotmaydi. Romantizm — bu ratsionalizmga qarshi kurash, hissiyot, shaxs va tabiiylikni ulug‘laydi. U zamonaviy tafakkur va san’atning muhim bosqichidir.

Kalit so‘zlar: adabiyot, romantizm, siyosat, tarix, falsafa, ta’sir, kelishmovchilik

Introduction. “Romanticism” is a retrospective, 20th-century name for a literary movement created, retrospectively, by critics and historians. During the period in which it supposedly flourished, the authors subsequently seen as its embodiments—William Blake, William Wordsworth, Samuel Taylor Coleridge,

Lord Byron, John Keats, and Percy Bysshe Shelley (all poets)—did not view themselves as parts of a united movement. Moreover, they wrote under the influence of, and in alliance with, writers not considered “Romantic” at all. Accordingly, this article considers them as part of lively and contested literary culture that in the ears 1780–1830 saw the rise of women writers and laboring-class writers to eminence and inaugurated the popularity of the magazine essay, the Gothic novel, and the historical novel. The period also gave rise to political journalism of lasting power, to Orientalist and travel writing, to antislavery literature, to the cults of sensibility and the picturesque, and to an unparalleled closeness between literary and scientific writing. All these contexts and genres, much explored by critics and historians since the 1980s, are featured in this article [1,227-272], [2,4-8], [3,125-126].

Literature review. Literary romanticism honors universal human emotions like love, loss, triumph, and failure. These works did not center on bold religious statements or scientific theories; instead, they highlight a collective sense of morality and right versus wrong. They existed as accessible pieces of literature that featured the common man as a character to attract the common man as a reader. The result was that ordinary people were considered worthy of respect and even celebration. Romantic works also underscored the value of nature in the richness of the human experience, as well as the need for isolation to attain emotional or spiritual growth.иThe Raven tells the story of a man grieving for his dead love (an idealized woman in the Romantic tradition) when a seemingly sentient Raven arrives and torments him, which can be interpreted literally or seen as a manifestation of his mental instability. Ralph Waldo Emerson was a very influential writer in Romanticism; his books of essays explored many of the themes of the literary movement and codified them. His 1841 essay Self-Reliance is a seminal work of Romantic writing in which he exhorts the value of looking inward and determining your own path, and relying on only your own resources.[1,227-272], [2,4-8], [3,125-126].

Jane Austen: Pride and Prejudice, Sense and Sensibility; William Blake: «Songs of Innocence and of Experience»; Charlotte Brontë: Jane Eyre; Emily Brontë: Wuthering Heights; Robert Burns: «A Red, Red Rose», «To a Mouse»; John Clare: «I Am!», «Autumn»; Samuel Taylor Coleridge: «The Rime of the Ancient Mariner»; James Fenimore Cooper: The Leatherstocking Tales, The Last of the Mohicans; Emily Dickinson: «Because I Could Not Stop for Death», «‘Hope’ Is the Thing with Feathers»; Johann Wolfgang von Goethe: The Sorrows of Young Werther; Nathaniel Hawthorne: The Scarlet Letter; T.A. Hoffmann: «The Sandman»; Washington Irving: «The Legend of Sleepy Hollow», «Rip Van

Winkle»; John Keats: «Ode to a Nightingale»; Lord Byron: Don Juan; Edgar Allan Poe: «Annabel Lee», «The Raven»; Walter Scott: Rob Roy, Ivanhoe; Percy Bysshe Shelley: «Ozymandias», «To a Skylark»; Mary Shelley: Frankenstein; William Wordsworth: «I Wandered Lonely as a Cloud», «The Prelude».

Literary Romanticism was deeply invested in the exploration of individualism and emotional depth. Unlike the rationalism and empiricism of the Enlightenment, Romantic writers valued personal intuition and emotional authenticity over cold logic or scientific reasoning. The Romantic movement sought to capture the complexities of the human soul, often delving into intense feelings like melancholy, wonder, and existential despair. Many works from this period feature protagonists who are misunderstood or rejected by society, highlighting a conflict between the individual and the collective. This internal struggle often leads to a profound sense of isolation, as seen in the works of William Blake and Mary Shelley, where the characters’ emotional journeys are framed by their detachment from society and their deep connection with nature. The Romantics saw nature not just as a backdrop for human activity, but as an active force capable of inspiring emotional transcendence and self-realization. In poetry, nature became a mirror for the individual’s inner turmoil, often symbolizing freedom or the sublime, a concept that represented an idealized state of beauty and power beyond human comprehension.

Badiiy asarlarni o‘qish, o‘quvchilarga nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki ularda ijtimoiy va axloqiy masalalar bo‘yicha chuqur fikrlash va o‘z qarorlarini qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har bir badiiy asar – bu yoshlarning ichki dunyosini o‘rganish, ularga yaxshilik va yomonlikni ajratishda yordam beruvchi, hayotning murakkab masalalarini o‘rganish va tushunishga imkon yaratadigan vositadir. Shu nuqtai nazardan, adabiyot va badiiy matnlarning o‘quvchilarga bo‘lgan ta’siri, yoshlarning kamolotida ham muhim ahamiyatga ega.

Demak, badiiy matn shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi ko‘p qirrali tarbiyaviy vosita bo‘lib, uning imkoniyatlaridan ta’lim va tarbiya jarayonida to‘g‘ri foydalanish yosh avlodni ma’naviy etuk shaxs sifatida voyaga etkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy asar hayotni obrazlar, voqealar va insoniy munosabatlar orqali aks ettirgan holda, o‘quvchi ongida real voqelik haqida tushuncha hosil qiladi. U hayotiy haqiqatlarning badiiy ifodasi bo‘lib, insonning ichki dunyosiga bevosita ta’sir etadi, uni fikrlashga, his qilishga va xulosa chiqarishga undaydi. Shu jihatdan olganda, har bir badiiy asar o‘ziga xos hayot maktabi vazifasini bajaradi. [3.34]

Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida tasvirlangan Umarbek va Otabek obrazlari o‘rtasidagi tafovut orqali halollik, vatanparvarlik, ilg‘or fikrlilik kabi fazilatlar bilan qoloqlik, o‘z manfaatini o‘ylash kabi illatlar solishtiriladi. O‘quvchi Otabek timsolida o‘z orzu-umidlariga sodiq, mas’uliyatli shaxs namunasi bilan tanishadi, Umarbek kabi obrazlar orqali esa jamiyatdagi salbiy xatti-harakatlarning oqibatini tushunadi. Shuningdek, Oybekning “Navoiy” romanida Alisher Navoiy obrazining jasorati, xalq dardiga befarq bo‘lmaganligi, adolat uchun kurashi o‘quvchini yuksak insoniy fazilatlarga chorlaydi. Ushbu asar orqali o‘quvchi faqat tarixiy ma’lumot emas, balki o‘zida ma’naviy mezonlar, burch va mas’uliyat hissini ham shakllantiradi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida esa Zaynab obrazida ayol sha’ni, or-nomus, ruhiy kechinmalar, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash muammolari tasvirlanadi. O‘quvchi bu orqali insoniy hayot murakkabligi va har bir tanlov ortida qanday oqibatlar bo‘lishi mumkinligini his etadi. Akademik Mamarasul Ismoilov “Yaxshi yozilgan badiiy matn — bu dars

emas, lekin u ko‘pincha darsdan-da chuqurroq saboq beradi, adabiyot insonni ongli tarzda emas, balki his-tuyg‘ulari orqali tarbiyalaydi, ya’ni ichki dunyosini o‘zgartiradi,” - deya ta’kidlaydi.

Ta’lim jarayonida badiiy matndan nafaqat til o‘rgatish, balki o‘quvchilarning axloqiy va ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda ham samarali vosita sifatida foydalanish mumkin. Badiiy matnlar inson ruhiyatiga bevosita ta’sir etuvchi, unda ezgulik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘otuvchi boy imkoniyatlarga ega. Shu bois badiiy matn dars mazmuniga tarbiyaviy komponentni kiritishda eng samarali vositalardan biri sanaladi. O‘zbek va jahon adabiyotidagi asarlar orqali o‘quvchilarda mehr-shafqat, fidoyilik, sabr-toqat, adolat kabi fazilatlar shakllanadi. Matn asosida muhokamalar tashkil qilish orqali o‘quvchilar hayotiy voqealarni baholaydi, obrazlar xatti-harakatiga munosabat bildiradi. Bu orqali ularda xulosa chiqarish, baholash, empatiya kabi ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalar rivojlanadi.

Dars jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: obraz tahlili: har bir obrazning xatti-harakatini tahlil qilib, o‘quvchilar bilan ularning yaxshi yoki salbiy tomonlarini baham ko‘rish. Axloqiy savol-javoblar: “Agar siz shu vaziyatda bo‘lsangiz, nima qilardingiz?”, “Siz ushbu obrazga qanday baho berasiz?” kabi savollar orqali shaxsiy qarashlarni yuzaga chiqarish.Rol o‘ynash, sahnalashtirish: Matndagi epizodlarni kichik guruhlarda ijro ettirish orqali o‘quvchilarning his qilish, jonli idrok etish, tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Shu bilan birga, hozirgi adabiyotda yoshlar uchun badiiy matnlarni tanlashda ehtiyotkorlik va mas’uliyat talab etiladi. Matnlar o‘quvchilarga ma’naviy tarbiyaning eng yaxshi namunalarini taqdim etishi kerak. Tushunarli va samarali tarzda yozilgan asarlar, yoshlar uchun o‘rgatadigan saboqlarni aniq va sodda tarzda etkazadi. Matnlar, shuningdek, o‘quvchilarning qadriyatlar tizimini shakllantirishda ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, ularni axloqiy qarorlar qabul qilishda yordam berishi zarur[4,46].

Biroq, badiiy matnlar faqat nazariy tarzda o‘rganilmasligi kerak. Ular, o‘quvchilarning hayotiga kirib, amaliy jihatdan qo‘llanishi kerak. O‘quvchilar, matnlarni tahlil qilishda o‘zlarining shaxsiy tajribalari bilan bog‘laydilar, bu esa ularning fikrlash qobiliyatini va ma’naviy immunitetini mustahkamlashga yordam beradi.To‘g‘ri tanlangan matn dars jarayonida o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan, balki axloqiy, ma’naviy fazilatlar bilan tarbiyalashning samarali vositasidir. Badiiy matnlarni tanlashda o‘qituvchi tarbiyaviy maqsadni hisobga olib, har bir matnning tarbiyaviy salohiyatini aniqlashi lozim. Matnlar orqali o‘quvchilarda nafaqat adabiy bilimlar, balki axloqiy qadriyatlar, estetik did va ijtimoiy mas’uliyatni ham shakllantirish muhimdir. Badiiy asarlar o‘quvchilarga o‘zgarishlar kiritishga imkon

beruvchi mavzularni taklif etadi. Masalan, Maxmud Qorining “Alisher Navoiy” asari yoshlarni ilm va mehnatga mehr qo‘yishga, badiiy matnlar orqali ilmiy qarashlarni rivojlantirishga undaydi.Tarixiy mavzularni tanlash o‘quvchilarni milliy g‘urur va tarixiy xotira asosida tarbiyalashga xizmat qiladi. “Qutadg‘u bilig” yoki “Boburnoma” kabi asarlar tarixiy va madaniy qadriyatlarni o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon adabiyoti namoyondalari asarlari orqali ham yoshlar ma’naviyati va kamoloti masalasiga bir qancha na’munalar orqali ta’sir etish imkoniyati mavjud. Masalan, Uilyam Shekspirning “Hamlet” tragediyasida, o‘quvchilarni axloqiy tanlovlar qilishga undaydigan va ichki kurashni yoritadigan ko‘plab motivlar mavjud. Hamletning o‘zi axloqiy dilemma va qarorlar oldida qoladi: otasining qotili bilan qanday kurashish kerak? Uzoq vaqt davomida u “yaxshi va yomon” o‘rtasida qaror qila olmaydi. Bu asar yoshlarni, ayniqsa, ichki nizolar va qarorlar qabul qilishda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga o‘rgatadi. Hamletning hayoti, o‘quvchilarni insonning o‘zligini anglashga, axloqiy mas’uliyatni tushunishga va xatti-harakatlarining oqibatlarini o‘ylashga chaqiradi.Yoki, Frans Kafkaning “Olmosli qalam” asari o‘quvchilarga erkinlik va mustaqillik haqida o‘ylashga undaydi. Kafka o‘zining asarlarida shaxsiy ozodlik va ijtimoiy tizim orasidagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi. Asar orqali yoshlar, o‘z-o‘zini anglash, jamiyatga moslashish va shaxsiy erkinlikni qanday saqlashni o‘rganishlari mumkin. Kafka asarining ma’naviy tomoni shundaki, u insonni o‘zining ichki erkinligini qidirishga va bu erkinlikni jamiyatda qanday izlashni anglashga chaqiradi.

Shuningdek, hozirgi adabiyotda yoshlar uchun yaratilgan asarlar ular uchun faqat bilim manbai emas, balki hayotiy saboqlarni o‘rgatadigan qimmatli resursdir. Masalan, hozirgi zamon yozuvchilari, o‘z asarlarida yoshlarni ijtimoiy muammolar, axloqiy qiyinchiliklar, insoniyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar kabi mavzularda o‘ylashga undashadi.

Badiiy matnni tanlashda bir qancha jihatlarni hisobga olish talab etiladi. Masalan, yosh va psixologik xususiyatlarga moslik: badiiy matnlar o‘quvchilarning yoshiga, tafakkur darajasiga mos bo‘lishi kerak. 5–7-sinflar uchun soddaroq, lekin ma’naviy g‘oya kuchli bo‘lgan hikoyalar; 8–11-sinflar va talabalar uchun esa murakkabroq ruhiy va axloqiy tanlovlarga boy asarlar tanlanadi.

Tarixiy-madaniy qadriyatlarni aks ettirgan asarlar: milliy o‘zlik, tarix, madaniyat va ma’naviyatni yorituvchi asarlarga ustuvorlik beriladi. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, Pirimqul Qodirov kabi klassik va mumtoz adiblarning asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Axloqiy-ruhiy g‘oyasi yuksak bo‘lgan matnlar: matn o‘quvchini yaxshilik, halollik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik kabi fazilatlar ustida o‘ylashga chorlashi

lozim. Masalan barcha sevib mutolaa qiladiga - G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari . Asarda topqirlik, mardlik va oila qadriyatlari ifodalanadi.

Hayotiylik va realizm prinsipi: tanlangan asar real hayot voqealariga yaqin, o‘quvchi uchun tanish va dolzarb bo‘lishi kerak. Zamonamiz yozuvchilari (Erkin A’zam, Husan Azim, Muhammad Ali va boshqalar)ning realistik asarlari bu borada samarali natijalar berishi mumkin.

Jahon adabiyotidan namunalar: yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish uchun L. Tolstoy, M. Servantes, M. Tven, A. de Sent-Ekzyuperi kabi yozuvchilarning asarlari tavsiya etiladi. Jumladan, “Kichik shahzoda” asari do‘stlik, mas’uliyat va mehr-oqibat haqida o‘ziga xos ruhiy ta’sir kuchiga ega.

Badiiy matnlar yoshlarni nafaqat ma’naviy, balki ruhiy jihatdan ham mustahkamlaydi. Ular ularda sabr-toqat, qat’iyatlilik, o‘zini anglash va o‘zgarishlarga moslashish kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyondalaridan Shavkat Rahmonning “Yurtim – mening taqdirim” asari yoshlarga o‘z yurtini sevish va unga xizmat qilishning axloqiy zaruratini tushuntirsa, Muhammad Alining “O‘tmish yodgorliklari” asari tarixiy xotira va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi bog‘liqlik, yoshlarni milliy iftixor va ma’naviy poklikka undaydi. Nurali Qayumovning “Aytish kerak” asari orqali yoshlar shaxsiy mas’uliyatni his qilish, do‘stlik va axloqiy tamoyillarga hurmatni anglashsa, Sahro Mirzaevaning “Birinchi qadam” asaridan o‘quvchi o‘z hayotlaridagi qiyinchiliklarni engib o‘tishda qanday ma’naviy qadriyatlarni saqlash kerakligini anglaydi.

Yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashda badiiy matnlarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Adabiyot — bu hayotning ko‘zgusi, unda jamiyatning axloqiy mezonlari, insoniy fazilatlar va ma’naviy qadriyatlar mujassam topadi. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularni fikrlashga, anglashga, yaxshilik va yomonlikni farqlashga o‘rgatishda badiiy matnlar kuchli tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolada tahlil etilganidek, badiiy asarlar yoshlarning ichki dunyosini shakllantirishda, ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlashda, ongli fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda muhim omil sanaladi. Shu nuqtai nazardan, til va adabiyot darslarida badiiy matnlardan maqsadli, tanqidiy va chuqur yondashuv asosida foydalanish, o‘quvchilarning kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘zbek va jahon adabiyotidagi barkamol shaxs timsollari, yuksak axloqiy mezonlar asosida qurilgan syujetlar yoshlar ongida milliy g‘urur, ezgulik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Demak,

badiiy matnlar nafaqat estetik zavq bag‘ishlovchi vosita, balki jamiyatning ertangi poydevorini yaratishda faol pedagogik resursdir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, badiiy matnlar orqali berilayotgan ma’naviy tarbiya ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchi-yoshlarni nafaqat bilimli, balki irodali, ezgu g‘oyalarga sodiq, komil inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, badiiy adabiyot vositasida yoshlarda sog‘lom dunyoqarash va mustahkam ma’naviy asosni qaror toptirish, zamonaviy ta’limning strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tolstoy, L. (2009). War and Peace (A. Maude, Trans.). Project Gutenberg.

2. Karimov, K. (2015). Adabiyot va uning tarbiyaviy roli. Toshkent: Ma’naviyat.

3. Rahimov, M. (2020). Badiiy matn va uning tarbiyaviy ahamiyati. O‘zbek adabiyoti va uning zamonaviy rivoji, 22(3), 45-58. https://doi.org/10.1234/xyz123

4. Xudoyberganov, Q. (2018). Badiiy matnning estetik va tarbiyaviy funksiyalari. O‘zbek tili va adabiyoti, 3(97).

5. UNESCO. (2017). The role of literature in peace and education. Paris: UNESCO Publishing.

6. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.

7. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.

8. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).

9. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.

10. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.

11. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.

12. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548

13. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

ADABIYOT VA MA’NAVIY QADRIYATLARNING INSONNING ICHKI DUNYOSIGA TA’SIRI

Nargiza Mirzaaxmedova,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti xodimi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotning inson ma’naviyati, ichki dunyosi va shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan ta’siri tahlil qilingan. Adabiyotning inson axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o‘rni, uning ruhiy kamolotga etaklovchi vosita sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada adabiyot va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, adabiyotning yosh avlodning tarbiyasidagi o‘rni, shuningdek, adabiy personajlar orqali axloqiy masalalarni anglash imkoniyati ko‘rib chiqilgan. Ilmiy va badiiy manbalar asosida adabiyotning inson hayotidagi ma’naviy qiymatlar, tuyg‘u va hissiyotlarni shakllantirishdagi rolini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar. Adabiyot, ma’naviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, ichki dunyo, shaxsiy rivojlanish, estetika, jamiyat, yosh avlod tarbiyasi, adabiy personajlar, ruhiy kamolot.

Annotation

This article analyzes the impact of literature on human spirituality, inner world, and personal development. It highlights the role of literature in shaping moral values and its significance as a means of achieving spiritual maturity. The article explores the interrelationship between literature and society, the role of literature in the upbringing of the younger generation, and the opportunity to comprehend moral issues through literary characters. Based on scientific and artistic sources, the study aims to reveal the role of literature in forming spiritual

values, emotions, and feelings in human life.
Keywords: Literature, spiritual values, moral education, inner world, personal development, aesthetics, society, upbringing of the younger generation, literary characters, spiritual maturity.

Аннотация

В данной статье анализируется влияние литературы на духовность человека, его внутренний мир и личностное развитие. Освещается роль литературы в формировании нравственных ценностей и её значение как средства духовного совершенствования. Рассматривается взаимосвязь между литературой и обществом, роль литературы в воспитании подрастающего поколения, а также возможность понимания нравственных проблем через литературных персонажей. На основе научных и художественных источников раскрывается роль литературы в формировании духовных ценностей, чувств и эмоций в жизни человека.
Ключевые слова: Литература, духовные ценности, нравственное воспитание, внутренний мир, личностное развитие, эстетика, общество, воспитание молодёжи, литературные персонажи, духовное совершенствование.

Adabiyot - insonning ma’naviy rivojlanishi va tarbiyasining eng kuchli vositalaridan biri hisoblanadi. U insonning ichki olamini, ruhiy holatini, axloqiy va estetik qadriyatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Adabiyot orqali inson na faqat jamiyatni, balki o‘ziga bo‘lgan munosabatini, hayotga qarashlarini va ichki kurashlarini qayta ko‘rib chiqadi. «Insonning ichki olamini anglab, uning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishdagi qudratli vosita - adabiyotdir», deyish mumkin. Agar biz faqat tashqi dunyoga qarash bilan cheklansak, adabiyot orqali biz o‘zimizning haqiqiy qimmatlarimiz va hayotga bo‘lgan to‘g‘ri qarashlarimizni aniqlaymiz.

Adabiyotning ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni

Adabiyot insonning ma’naviy dunyosiga, ruhiy va axloqiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. U, faqat estetik ta’rif bilan cheklanmaydi, balki insonni yangidan shakllantiradi, uning hayotiga ma’naviy qadriyatlar, axloqiy nuqtayi nazarlar va ichki kurashlarni olib keladi. Bu haqda ta’kidlash kerakki, adabiyot orqali biz insonni nafaqat yaxshi va yomonni anglashga, balki ularga qarashlarimiz va xulq-atvorimizni shakllantirishga ham o‘rganamiz.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak”[1,3]. Adabiyotning muhim rolini anglashda, romanda yoki she’rdagi personajlarning hayoti, ularning qarorlari, kurashlari va tuyg‘ularining ahamiyatiga diqqat qaratish kerak. Bir romanda yoki she’rdagi personajlar, o‘z hayotlari va qarorlarining natijalari orqali, bizga yomonlik va yaxshilik orasidagi farqni, to‘g‘ri va noto‘g‘ri yo‘llarni tanlashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu adabiyotning inson hayotiga kirib, uning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishdagi muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Adabiyot va axloqiy qadriyatlar

Adabiyot orqali inson, o‘zining axloqiy qarorlarini qabul qilishga yordam beradigan muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Klassik adabiyotning personajlari, ularning faoliyati va ko‘rgan muammolari orqali o‘quvchilarda hayotga oid savollar tug‘diradi. Masalan, "Nima uchun shunday qaror qabul qilindi?", "Nima uchun insonlar adolatni, muhabbatni yoki samimiyatni tanlaydi?" kabi savollar, adabiyotning axloqiy qadriyatlar orqali bizga bergan aniq javoblaridir. Bular, o‘z navbatida, insonning ruhiy o‘sishini, o‘zlikni aniqlashini va ma’naviy kamolotga intilishini ta’minlaydi.

Adabiyotning personajlari orqali biz axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishni o‘rganamiz. Bu qadriyatlar, masalan, insoniylik, adolat, samimiyat, muhabbat va sabr, insonni ruhiy va ma’naviy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi. Adabiyot, insonga qanday qilib yaxshi odam bo‘lish, to‘g‘ri yo‘ldan ketish va yomonlikka qarshi tura olishni o‘rgatadi. Bu orqali odam har bir personajning qiyin vaziyatlarda qanday qarorlar qabul qilishini ko‘rib, hayotdagi ma’naviy qadriyatlarning ahamiyatini tushunadi.

Adabiyotning ichki dunyoga bo‘lgan ta’siri

“Adabiyotning bosh vazifasi — inson qalbini go‘zallashtirish, uning ma’naviyatini yuksaltirish”[7]. Adabiyot insonning ichki dunyosiga, ruhiy holatini aniqlashga va uning his-tuyg‘ularini tushunishga katta yordam beradi. Adabiyot orqali personajlar bilan birga yashash, ularning ichki kurashlariga o‘zimizning ehtiroslarimiz bilan javob berish orqali, biz o‘zimizga xos ichki dunyomizni yanada chuqurroq tushunamiz. Bu jarayonda biz o‘zimizning ruhiy holatlarimizni, qo‘rquvlarimizni va umidlarimizni yaxshiroq anglaymiz.

Romanda yoki she’rdagi personajlar o‘zlarining shodligi, qayg‘usi, ishonch va shubhalari, xato va muvaffaqiyatlari orqali o‘quvchiga o‘zidagi ichki holatlarni tushunishga yordam beradi. Masalan, shunday romanlar borki, unda personajning ichki kurashlari va ularning natijalari orqali o‘quvchi o‘zining hayotiga yangi

qarash bilan qarashga intilgan bo‘lib, ma’naviy o‘sishni boshlaydi. Назар Эшонқулов таъкидлаганидай, “адабиёт муаллим ёки ота-она каби бевосита тарбия билан шуғулланмайди, аммо у туйғуни, дидни, эзгулик ва ёвузлик ўртасидаги тасаввур чегарасини, кўнгил ва қалбни тарбиялайди”[6].

Adabiyot va shaxsiy rivojlanish

Adabiyot insonning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynab, u asosan o‘zlikni aniqlash, ichki dunyosi, ehtiyojlarini va qobiliyatlarini tushunishga yordam beradi. Shaxsning ma’naviy kamoloti, o‘zlikni aniqlash va hayotga o‘zgina nazar bilan qarash orqali shaxsiy rivojlanish amalga oshadi. O‘zining ichki kurashlari bilan adabiyot yordamida hayotiy muhim savollariga javob topishi, ularga qanday munosabatda bo‘lishi kerakligini aniqlaydi.

Adabiyot yosh avlodning ma’naviy tarbiyasida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bolalikdan boshlab adabiyotga oshno bo‘lgan inson, hayotga boshqacha nigoh bilan qaraydi. U jamiyatdagi muammolarga, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga, mehr-oqibat va insonparvarlikka asoslangan fikr yuritadi. Maktab yoshidagi bolalar uchun tanlangan asarlar, ularning axloqiy qadriyatlarni anglashida va hayot haqidagi qarashlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ertaklar va qissalardagi personajlar orqali yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi farqni anglash, adolatni qo‘llab-quvvatlash va yordamsevarlikka intilish kabi fazilatlar bola qalbida mustahkam o‘rnashadi.

Yoshlar adabiyot orqali o‘zlarini jamiyatdagi faol fuqaro sifatida tasavvur qiladilar. Ular adabiyotda berilgan obrazlar va voqealar orqali o‘z hayotiga oid muhim qarorlar qabul qilishda tajriba to‘playdi. Masalan, Navoiy, Abay, Cho‘lpon, Pushkin, To‘ychi Xojanazarov, Hamza kabi mutafakkirlar va shoirlarning asarlari yoshlarda vatanparvarlik, bag‘rikenglik va ezgulik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantiradi. Shuningdek, ularda tanqidiy fikrlash, to‘g‘ri qaror qabul qilish va ijtimoiy adolat uchun kurashish kabi xususiyatlarni ham shakllantiradi.

Adabiyot va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

Adabiyot jamiyatning bir oinasidek – u jamiyatdagi islohotlarni, o‘zgarishlarni, qiyinchiliklarni va yutuqlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, adabiyot jamiyat taraqqiyotini ilgarilatishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Har bir tarixiy davrda yaratilgan asarlar o‘z davrining ruhiyatini ifoda etadi. Ular orqali insonlar nafaqat o‘tmishni anglaydi, balki kelajak uchun to‘g‘ri xulosalar ham chiqaradi. Jamiyatdagi axloqiy inqirozlar, ma’naviy tushkunliklar, yoki aksincha, ma’naviy yuksalishlar adabiyotda o‘z ifodasini topadi. Shu jihatdan qaralganda, adabiyot ijtimoiy ongni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. U insonni faqat shaxsiy hayotiga emas, balki umumjamiyat manfaatiga xizmat qilishga undaydi. Mualliflar o‘z asarlari orqali jamiyatdagi muhim muammolarni ko‘taradilar,

insonlarni faol fikrlashga va o‘zgarishlar yo‘lida harakat qilishga chorlaydilar. Bunday asarlar jamiyatda ma’naviy uyg‘onishga, insoniy munosabatlarning mustahkamlanishiga turtki bo‘ladi.

Adabiyot insonga turli xil axloqiy bahslarda, hayotning to‘g‘ri va noto‘g‘ri yo‘llarini aniqlashga yordam beradi. Uning shaxsiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi, jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni tushunish va ularga amal qilishga olib keladi. Masalan, adabiyot orqali odam boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan aloqalarini, ularga bo‘lgan munosabatini va ular bilan hamjihatlik qilishni o‘z hayotiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot - insonning ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda asosiy vositalardan biridir. U axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ichki dunyosidagi o‘zgarishlar va shaxsiy kamolotni ta’minlashga yordam beradi. Adabiyot orqali inson jamiyatdagi ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni tushunish, o‘z tuyg‘ularini, hissiyotlarini aniqlash va turli ma’naviy muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribaga ega bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, adabiyot nafaqat estetik, balki ma’naviy rivojlanish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Адабиёт халқнинг юраги. - Т.: “Адабиёт”, 2021. - Б.3.
2. Abdullaeva, M. (2019). Ma’naviy tarbiya va badiiy adabiyot. Toshkent.
3. Jo‘raev, A. (2018). O‘quvchi va adabiyot: ruhiy aloqalar. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Yuldoshev, F. (2020). Adabiy asarlarda ma’naviy tarbiya masalalari. Toshkent.
5. Karimova, Sh. (2021). Jamiyat va adabiyot: o‘zaro ta’sir masalalari. Toshkent: “Fan va texnologiyalar”.
6. Nazar Eshonqul. Adabiyot – tarbiya vositasimi? “Sharq yulduzi” jurnali, 2015 yil, 1-son
7. Sirojiddinov Sh. https://xs.uz/ 22.05. 2020 y.
8. Qayumov, M. (2016). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: “Ma’naviyat”.
9. Hamidov, B. Adabiyot va ma’naviyat o‘zaro bog‘liqligi. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti. 2017-й.

MULTIMADANIYATLI KONTEKSTDA INGLIZ ADABIYOTINING O‘QUVCHI PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI

Jalolova Shaxnoza Muhamedjanovna
PhD, dotsent,
nisioilova@gmail.com
Ismoilova Nigora Mirzoaliyevna,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universtiteti Xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs talabasi.

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz adabiyotining o‘quvchi psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’sirini multimadaniyatli kontekstda tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy muammosi – globallashuv sharoitida yosh avlod turli madaniy qadriyatlar bilan to‘qnashar ekan, ularning psixologik barqarorligi, madaniy identiteti va axloqiy ongini shakllantirishda ingliz adabiyotining lingvomadaniy va psixologik resurs sifatida tutgan o‘rnini aniqlashdan iborat. Maqolada ingliz adabiyotida mavjud bo‘lgan universal g‘oyalar, estetik mazmun, psixologik obrazlar hamda madaniyatlararo muloqot unsurlari orqali o‘quvchining empatiya, tolerantlik va madaniy ochiqlik kabi fazilatlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shuningdek, kontekstual yondashuv asosida adabiy materiallarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash, shaxsning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirish va ruhiy moslashuv mexanizmlarini shakllantirishdagi roliga alohida e’tibor qaratiladi. Multimadaniyatli adabiy muhit orqali o‘quvchining ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlarga moslashuvi, shaxsiy o‘zlikni anglash jarayoni va madaniy tafakkurning kengayishi kabi omillar tahlil markazida turadi.

Kalit so‘zlar: multimadaniyatlilik, psixologik barqarorlik, lingvomadaniy kompetensiya, kontekstual yondashuv, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy moslashuv, empatiya rivojlanishi.

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию влияния английской литературы на психологию учащихся в контексте многокультурности. Основная проблема исследования заключается в определении роли английской литературы как лингвистико-культурного и психологического ресурса в формировании психологической стабильности, культурной идентичности и морального сознания молодежи, сталкивающейся с различными культурными ценностями в условиях глобализации. В статье рассматривается влияние универсальных идей, эстетического содержания,

психологических образов и элементов межкультурной коммуникации в английской литературе на развитие таких качеств, как эмпатия, толерантность и культурная открытость учащихся. Также в исследовании уделяется внимание роли контекстного подхода в интеграции литературных произведений в образовательный процесс, развитии лингвистико-культурной компетенции и формировании психологических механизмов адаптации. В центре анализа находятся такие факторы, как способность учащихся к социально-психологическим изменениям, процесс осознания собственной идентичности и расширение культурного мышления через многокультурную литературную среду.

Ключевые слова: многокультурность, психологическая стабильность, лингвистико-культурная компетенция, контекстный подход, моральные ценности, социальная адаптация, развитие эмпатии.

Annotation

This article is dedicated to the study of the impact of English literature on the psychology of students within a multicultural context. The main issue of the research lies in determining the role of English literature as a linguistic-cultural and psychological resource in shaping the psychological stability, cultural identity, and moral consciousness of young people encountering various cultural values in the context of globalization. The article examines the influence of universal ideas, aesthetic content, psychological images, and elements of intercultural communication in English literature on the development of such qualities as empathy, tolerance, and cultural openness in students. The study also focuses on the role of a contextual approach in integrating literary works into the educational process, the development of linguistic-cultural competence, and the formation of psychological adaptation mechanisms. The analysis centers on factors such as students’ ability to adapt to socio-psychological changes, the process of self-awareness, and the expansion of cultural thinking through a multicultural literary environment.

Keywords: multiculturalism, psychological stability, linguistic-cultural competence, contextual approach, moral values, social adaptation, development of empathy.

Ingliz adabiyoti zamonaviy jamiyatda o‘quvchining psixologik va madaniy rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi kunda globalizatsiya jarayonlari jamiyatlar o‘rtasidagi chegaralarni mutlaqo yangilab, turli madaniyatlar, tillar va qadriyatlarning bir-biriga ta’sirini kuchaytirmoqda. Shu sababli, o‘quvchilarni madaniy va psixologik jihatdan rivojlantirishda ingliz

adabiyoti muhim o‘rin tutadi. Ingliz tilidagi asarlar, nafaqat tilni o‘rganishning vositasi bo‘lib, balki o‘quvchilarning madaniy tafakkurini kengaytirish, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy-psixologik jihatdan rivojlanishlariga katta hissa qo‘shadi.

Maqsadli auditoriya – yosh avlod, ayniqsa, global o‘zgarishlarga duch kelgan o‘quvchilar, o‘zlarining psixologik holati va madaniy identitetini shakllantirishda ingliz adabiyotini o‘rganish orqali ko‘plab ijtimoiy va axloqiy savodxonliklarni egallaydi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ingliz adabiyoti, nafaqat til o‘rganish vositasi, balki madaniyatlararo muloqotning o‘rganilishi, psixologik barqarorlik va shaxsiy o‘zlikni anglashda ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning madaniy va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda, ingliz adabiyoti universal g‘oyalari va axloqiy tamoyillarining roli o‘ta muhimdir. Ingliz adabiyoti, o‘zining murakkab va xilma-xil mazmuni orqali o‘quvchining psixologiyasiga, axloqiy qarashlari va madaniy tafakkuriga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Shu bilan birga, adabiyotning psixologik obrazlari, estetik talqinlari va madaniyatlararo muloqotga oid elementlari o‘quvchining empatiya, tolerantlik va madaniy ochiqlik kabi fazilatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Adabiy asarlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘z-o‘zini anglash, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy integratsiya jarayonlarida kuchli vosita sifatida ingliz tilidagi asarlarga tayanadi.Maqolada ingliz adabiyotining kontekstual yondashuv asosida ta’lim jarayoniga integratsiyasining o‘quvchining psixologik barqarorligi, ijtimoiy moslashuv va lingvomadaniy kompetensiyasining rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganiladi. O‘quvchilarning madaniy ongini shakllantirish, ularning psixologik holatiga ta’sir etish va shaxsiy o‘zlikni anglash jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun ingliz adabiyotining psixologik va madaniy rolini chuqur tahlil qilish zarur. Bunday yondashuv, o‘quvchilarning empatiya va tolerantlik kabi fazilatlarini rivojlantirishda, ularning madaniyatlararo muloqotga nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.Shu tariqa, ingliz adabiyotining o‘quvchi psixologiyasiga ta’siri multimadaniy yondashuv asosida chuqurroq tahlil qilinadi va uning o‘quvchilarni nafaqat til o‘rganish, balki madaniy va psixologik jihatdan rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Tadqiqotning dolzarbligi, aynan bugungi global davrda ingliz adabiyotining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga ta’sirini yanada chuqurroq anglashda yotadi.

Ingliz adabiyotining o‘quvchi psixologiyasiga ta’sirini, ayniqsa, uning multimadaniyatli kontekstda o‘rganishning ahamiyati, zamonaviy ta’lim tizimi doirasida tobora ortib bormoqda. Globalizatsiya jarayonlari davomida, yosh avlodning madaniy integratsiyasi va psixologik holatini shakllantirishda adabiyotning roli ortib borayotganligini ta’kidlash lozim. Ingliz adabiyoti nafaqat til o‘rganish vositasi sifatida, balki madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi,

axloqiy qadriyatlar, va shaxsiy o‘zlikni anglash jarayonlarida muhim psixologik va lingvomadaniy resurs sifatida faoliyat ko‘rsatadi.Tadqiqot davomida ingliz adabiyotining o‘quvchi psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri multimadaniyatli kontekstda o‘rganildi. O‘quvchilarning madaniy, psixologik va axloqiy rivojlanishida ingliz adabiyotining ta’siri juda muhimdir. Globalizatsiya jarayonlarining kuchayishi, turli madaniyatlar va xalqlar o‘rtasidagi muloqotning kengayishi o‘quvchilarni yangi sharoitda psixologik barqarorlikka erishishga undaydi. Ingliz adabiyoti o‘zining universal g‘oyalari, axloqiy qadriyatlari va psixologik obrazlari orqali o‘quvchilarga madaniyatlararo muloqotning samarali usullarini o‘rgatadi, shuningdek, ular o‘zgaruvchan dunyoqarashlar bilan moslashuvchanlikni rivojlantiradi.Ingliz adabiyotining ta’siri, uning o‘quvchilarda empatiya, tolerantlik va madaniy ochiqlik kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishda sezilarli ahamiyatga ega. Madaniy tafakkurning kengayishi, shuningdek, turli xalqlarning qadriyatlarini tushunish va qadrlash jarayoni, o‘quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bu jarayon, ayniqsa, o‘quvchilarning o‘ziga xosligini, dunyoqarashini shakllantirishda va ularni shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda yo‘naltirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.Ingliz adabiyoti, o‘quvchilarning psixologik barqarorligini saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar, ingliz adabiyotidagi axloqiy g‘oyalar va psixologik obrazlar orqali o‘zlarini va atrof-muhitni tushunishga, turli hissiyotlarni anglashga, shuningdek, o‘zlarining ruhiy holatlarini boshqarish uchun zarur bo‘lgan vositalarni egallashadi. Madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi esa o‘quvchilarning o‘zlariga nisbatan ishonch hosil qilishiga va global muhitda muvaffaqiyatli integratsiya qilishiga yordam beradi.Ingliz adabiyotining ta’siri nafaqat til o‘rganish, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish, axloqiy qadriyatlar va psixologik barqarorlikni shakllantirishda ham ko‘p qirrali vosita sifatida ko‘rsatiladi. Bu adabiyot orqali o‘quvchilar nafaqat til va madaniyatni o‘rganadi, balki o‘zining axloqiy va psixologik holatini shakllantiradi. Ingliz adabiyotining kontekstual yondashuv asosida o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi, o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirish va ular orasida ijtimoiy-psixologik moslashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ingliz adabiyoti o‘quvchilarga o‘zlikni anglashda, shaxsiy kamolotga erishishda va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishda katta yordam beradi.

Ingliz adabiyotining o‘quvchining psixologik rivojlanishiga ta’siri, uning o‘zini anglash va dunyoqarashini kengaytirishdagi roli, o‘quvchining jamiyatga nisbatan mas’uliyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Tadqiqot davomida, ingliz adabiyotining o‘quvchilarning madaniy tafakkurini shakllantirishda va ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida qanday katta rol o‘ynashini aniqlash muhim

ahamiyat kasb etdi. O‘quvchilarning madaniyatlararo muloqotdagi muvaffaqiyati, ularning ijtimoiy moslashuvi va axloqiy qarashlarini shakllantirish, ingliz adabiyotining asosiy funksiyalaridan biridir.Shuningdek, tadqiqotda ingliz adabiyotining ta’sirini o‘rganish orqali, o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasining rivojlanishiga, psixologik va madaniy integratsiyalashuv jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Ingliz tilidagi asarlarning o‘rganilishi, nafaqat madaniyatlararo muloqotning rivojlanishiga, balki o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Natijalar asosida shuni aytish mumkinki, ingliz adabiyotining o‘quvchilarga ta’siri zamonaviy ta’lim jarayonida ahamiyatli bo‘lib qolmoqda. Uning madaniy va psixologik ta’siri, o‘quvchilarning o‘zligini anglash, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda zarur vosita sifatida qaraladi. O‘quvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorligi, ularning tolerantlik, empatiya kabi fazilatlarining rivojlanishi, ingliz adabiyotining ta’siridan samarali foydalangan holda erishiladi.

Ingliz adabiyotining o‘quvchi psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’sirini multimadaniyatli kontekstda o‘rganish, nafaqat adabiyotning til o‘rganishga bo‘lgan ta’sirini, balki uning shaxsiy va madaniy rivojlanishdagi o‘rnini ham aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari, ingliz adabiyotining yosh avlodning psixologik barqarorligi, axloqiy qadriyatlari va madaniy identitetini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi. Adabiyot nafaqat lingvistik resurs, balki ijtimoiy va psixologik o‘sishning muhim omili sifatida xizmat qiladi. U o‘quvchilarga turli madaniyatlarni tushunishga, axloqiy va estetik qadriyatlarni anglashga yordam beradi, shuningdek, empatiya, tolerantlik, va madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi. Tadqiqot davomida ko‘rsatilganidek, ingliz adabiyotining kontekstual yondashuv asosida ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Madaniyatlararo tafakkur va psixologik moslashuvni kuchaytirish, shaxsiy o‘zlikni anglash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy aloqalar o‘rnatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu jarayonlarning amalga oshirilishi o‘quvchilarning turli madaniyatlar va ijtimoiy guruhlar bilan to‘g‘ri aloqalar o‘rnatishdagi qobiliyatlarini oshiradi, shuningdek, madaniy o‘zlikni qabul qilish va qadrlashni ta’minlaydi. Shu o‘rinda, ingliz adabiyotining ta’lim jarayoniga integratsiyasi nafaqat til va madaniyatni o‘rganish, balki axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ingliz adabiyotining o‘quvchi psixologiyasiga ta’siri shaxsiy va madaniy o‘sishning izchil jarayonini shakllantirishga imkon beradi, shuning uchun uni ta’lim tizimiga kengroq integratsiyalash zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahongir, A. Ingliz adabiyotida madaniyatlararo muloqot., Toshkent: Xalqaro nashriyot. 2020, 120-135 b.
2. Karimova, N. Psixologik barqarorlik va adabiyot: Teoretik yondashuvlar., “Ta’lim va rivojlanish” jurnali. 2019, 5-son, 45-50 b.
3. Mingazova, L. Lingvomadaniy kompetensiya: Ingliz adabiyoti va uning ta’limdagi o‘rni., Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2020, 98-105 b.
4. Shamsutdinova, Z. Kontekstual yondashuv asosida adabiy materiallarni o‘rganish., “O‘zbekiston Ta’limi” jurnali. 2020, 7-son, 58-64 b.
5. Baxramov, S. Madaniyatlararo tafakkur va adabiyot., “Madaniy meros va ijtimoiy rivojlanish” jurnali.2018, 2-son, 29-35 b.
6. Sirojiddinova, M. Ingliz adabiyotining ijtimoiy-psixologik ta’siri., “Yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirish” jurnali. 2019, 4-son, 21-28 b.
7. Muminov, O. Ingliz adabiyotining psixologik ta’siri va uning yosh avlodga o‘rganilishi., Toshkent: Ijtimoiy Fikr nashriyoti. 2021, 150-163 b.
8. Davronov, A. Adabiyot va madaniyatlararo muloqot: O‘quvchi ongining shakllanishi., “O‘zbekiston Pedagogikasi” jurnali. 2020, 6-son, 45-52 b.
9. Raxmatov, E. Ingliz tilini o‘rganish va madaniyatlarni o‘zaro tushunish., “Til va adabiyot” jurnali. 2018, 3-son, 58-64 b.
10. Mustafayev, B. Ingliz adabiyotining yoshlarning psixologiyasiga ta’siri., “O‘quvchi va jamiyat” jurnali. 2017, 5-son, 80-85 b.

NAVOIY IJODIDA INSON RUHIYATI VA ICHKI DUNYOSINING YUKSALISHI HAQIDAGI QARASHLAR.

Ashurova Gulru Oxunovna,
Qo‘qon universiteti Ta’lim fakulteti
Pedagogika-psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada A.Navoiy ijodidagi inson ruhiyatining rang-barangligi, ishq va muhabbat – inson ruhiyatining asosi, insonning ichki kurashi ya'ni qalbi va aqlining doimiy taranglikda bo‘lishi ham alohida o‘rin tutishini, falsafiy izlanishlar va insonning ma'naviy o‘sishi, hayot va o‘lim, insonning nihoyasiga bo‘lgan munosabati, inson va uning ichki dunyosi, axloq va fazilatlar, kamchiliklar, insonning ijtimoiy mas’uliyati nimalar asosida hosil bo‘lishi, hamda Navoiy insonning yuksalishiga nimalar salbiy ta’sir etishi ya’ni irsiyat va insonning tabiatidagi ikkiyuzlamachilik haqida, tarbiyaning roli va axloqiy meros, inson va uning ruhiyatining shakllanishi, irsiyat va insonni yuksaltirish, insonning ichki

dunyosini anglashi, ma'naviy yuksalish haqiqiy baxt ekanligi va ikki dunyo saodatiga erishish yo‘li , axloqiy fazilatlar va ichki dunyo hamda o‘lim va hayot falsafasi borasidagi qarashlari yoritildi.

Abstract

In this article, the diversity of the human psyche in the work of A.Navoi, love and romance are the basis of the human psyche, the internal struggle of a person, i.e., the constant tension of the heart and mind, has a special place, philosophical researches and the spiritual position of a person growth, life and death, a person's attitude towards the end, a person and his inner world, morals and virtues, shortcomings, on the basis of which a person's social responsibility is formed, and Navoi talks about the negative effects of human growth, that is, heredity and hypocrisy in human nature, the role of education and moral heritage, the formation of a person and his psyche, heredity and human development, understanding of the inner world of a person, spiritual growth is true happiness and two The path to worldly happiness, moral qualities and views on the inner world and the philosophy of life and death were highlighted.

Абстракт

В данной статье многообразие человеческой психики в творчестве А.Навои, любовь и романтика составляют основу человеческой психики, внутренняя борьба человека, т. е. постоянное напряжение сердца и разума, имеет особое значение. место, философские исследования и духовная позиция человека, рост, жизнь и смерть, отношение человека к цели, человек и его внутренний мир, нравственность и добродетели, недостатки, на основе которых формируется социальная ответственность человека, и Навои говорит о негативных последствиях человеческого роста, то есть о наследственности и лицемерии в человеческой природе, о роли воспитания и нравственного наследия, формировании человека и его психики, наследственности и развитии человека, понимании внутреннего мира человека. , духовный рост - истинное счастье и два. Освещались путь к мирскому счастью, нравственные качества и взгляды на внутренний мир и философия жизни и смерти.

Kalit so‘zlar: ma’naviy dunyo, axloq va ruhiyat, ruhiy kechinmalar, ichki dunyo, “Farhod va Shirin”, estetik tarbiya.

Key words: spiritual world, morality and spirituality, spiritual experiences, inner world, "Farhad and Shirin", aesthetic education.

Ключевые слова: духовный мир, нравственность и духовность, духовные переживания, внутренний мир, «Фархад и Ширин», эстетическое воспитание.

Alisher Navoiy — O‘rta Osiyo adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodi nafaqat zamonning o‘ziga xos ijtimoiy va madaniy muhitini chuqur aks ettiradi, balki insonning ruhiyati, psixologik holati, his-tuyg‘ulari va ichki dunyosiga oid murakkab va nozik tafakkurlarni ham o‘zida mujassam etgan. Navoiy asarlarida inson psixikasi va uning ichki ruhiy kechinmalari markaziy o‘rin tutadi, ularning chuqur va hayotiy tasvirlari orqali muallif inson qalbining eng sirli, ko‘pincha inson o‘zi ham anglamaydigan qatlamlarini yoritishga intiladi.[87]
Ilm, Navoiy senga maqsud bil, Emdiki, ilm o’ldi, amal aylagil.

Botinu zohiring ahvolini ko’rkim, qilmish Zoe’ ul birni xavotir, bu birisin ag’roz. (Badoe’ ul-vasat)
Navoiy ijodida insonning ma’naviy dunyosi, axloqiy qadriyatlari va xulq-atvori keng ko‘lamda o‘rganilgan va falsafiy-hayoliy tahlil qilingan. Uning asarlari inson ruhiyatining nozik qatlamlarini chuqur anglash va ichki dunyoni kashf etishda noyob ilmiy va badiiy ahamiyatga ega. Navoiy irsiyat masalasiga alohida e'tibor qaratib, insonning ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga ota-bobolardan meros bo‘lib qolgan an'ana, qadriyatlar va xulq-atvor elementlarining ta'sirini yoritadi.
Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o’zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi.

Uning asarlarida irsiyat — nafaqat biologik meros, balki ma'naviy va axloqiy qadriyatlar orqali uzluksiz uzatiladigan boy madaniy resurs sifatida talqin qilinadi. Navoiy o‘z asarlarida bu qadriyatlarning inson ruhiyatiga qanday ta'sir qilishi, shuningdek, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlar sistemasi haqida chuqur mulohazalar bildiradi. Shunday qilib, Alisher Navoiy ijodi nafaqat adabiyot, balki inson psixologiyasi va ma’naviyatining o‘zaro uyg‘unligidan kelib chiqadigan buyuk ilmiy va badiiy fenomen hisoblanadi.
Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlari va psixologik jarayonlari haqida chuqur tafakkur qilish imkonini beradi. Uning "Xamsa" asarida turli badiiy obrazlar orqali inson psixikasining murakkab jihatlari yoritiladi. Navoiy odamlarni ikki qutbda — ikkiyuzlama, xudbin, xayolparast yoki aksincha, daxlsiz, nozik va samimiy his-tuyg‘ularga ega shaxslar sifatida tasvirlab, ularning ichki kechinmalarini chuqur anglashga undaydi.
Navoiy inson ruhiyatining faqat qarama-qarshi qutblaridan iborat emasligini ko‘rsatib, uning murakkab va o‘zgaruvchan holatlarini ham puxta kuzatadi. Insonning ruhiy holati uning hayot yo‘li, qarorlari va qadr-qimmatini belgilaydi,

[87] Глубокова Е.Н.(доцент), Суворова С.А.(доцент), Ашурова Г.О.(ст.пр.) -Нравственное воспитание: актуализация задач педагогов в современных условиях.

shu sababli Navoiy badiiy asarlarida bu jihatlarni keng va tafsilotli yoritishga katta e'tibor qaratadi. Bu esa o‘quvchiga insonning o‘zini va atrofdagilarini yanada chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi.

Alisher Navoiy ijodida ishq va muhabbat markaziy o‘rin tutadi. U ishqni faqat jismoniy sevgi sifatida emas, balki insonning ruhiy va ma’naviy rivojlanishi, o‘zligini anglash va oliy maqsadlarga erishish yo‘lidagi kuchli ichki ehtiyoj sifatida tasvirlaydi. "Xamsa" asarida ishq – qalbning eng yuksak holati sifatida yuksak qadrlanib, inson ruhining poklanishi va o‘zgarishi uchun asosiy vosita sifatida ko‘rsatiladi. Bu muhabbat insonni o‘zgartirib, uni ma’naviy jihatdan yuksaltiradi, ruhiy tozalikka etaklaydi.

Navoiy ijodida qalb va aql o‘rtasidagi ichki kurash ham alohida ahamiyatga ega. U insonning ichki dunyosidagi qarama-qarshi his-tuyg‘ular – sevgi va nafrat, orzu va qo‘rquv, umid va umidsizlik – haqida chuqur tafakkur qiladi. "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning sevgi yo‘lida duch kelgan qiyinchiliklari va ichki kurashlari tasvirlanadi, bu esa insonning o‘z maqsadiga erishish yo‘lida ruhi chidamliligi, sabr-toqat va mukammallikka intilishini ifodalaydi. Shu tariqa, Navoiy asarlari insonning ruhiy-axloqiy rivojlanishida ishqning muhim o‘rni haqida chuqur va ma’nodor xulosalar beradi.[88]

Navoiy insonning psixologik holatlari ko‘pincha uning ma'naviy rivojlanishi bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. U insonning ruhiy o‘sishining eng muhim omillaridan biri sifatida, aql va qalbning uyg‘unlashishini ko‘rsatadi.

Navoiy asarlarida hayot va o‘limning psixologik tasviri ham muhim o‘rin tutadi. U o‘limni faqat inson hayotining oxiri sifatida ko‘rmasdan, balki uning ruhiy rivojlanishidagi bir bosqich sifatida tasvirlaydi. Navoiy, o‘limga nisbatan odamning qarashlarini, uning qalbida qanday o‘zgarishlar yuz berishini, ruhiy holatlarni o‘rgatadi. "Muhokamat al-lug‘a" kabi asarlarda, o‘lim va hayotning ma'nosi, insonning bu ikki holatga nisbatan psixologik munosabati chuqur tahlil qilinadi.

Navoiy insonni o‘rganishning asosiy yo‘nalishlaridan biri uning ichki dunyosi, ya’ni qalbi, niyati va o‘z-o‘zini anglashdir,degan g’oyani ilgari suradi. Shoirning "Xamsa" asarida, ayniqsa, "Farhod va Shirin" dostonida, insonning qalbi va hissiyotlari muhim o‘rin tutadi. Navoiy, inson qalbining yaxshilikka moyil bo‘lishini, biroq ba’zan yovuzlikka, past xulq-atvorlarga yo‘naltirilishini ham tan oladi. Bu holatlar, shoirning fikriga ko‘ra, insonning o‘zini anglash jarayonida yuzaga keladigan ichki kurashlarining natijasidir.

[88] Ashurova G.O.(kat.o’qit.), Alijonova R.(talaba)- Adabiyot va tilning shaxs psixologik va ma'naviy rivojiga ta'siri.

Navoiyning inson xulq-atvori haqidagi qarashlari uning axloqiy va ma’naviy qarashlarini to‘liq aks ettiradi. U yaxshi fazilatlarni rivojlantirishga chaqiradi. Yaxshilik, adolat, sabr-toqat, sadoqat, o‘zini tuta bilish va halollik Navoiy asarlarida keltirilgan asosiy axloqiy fazilatlardir. "Nasihatnoma" asarida Navoiy insonlarga o‘z axloqini to‘g‘rilash, yomon odatlardan voz kechish va har doim yaxshilik qilishga undaydi. Inson o‘z axloqini va niyatini to‘g‘rilash orqali nafaqat o‘zining, balki jamiyatning farovonligini ta’minlashiga ishonadi.

Navoiy, insonda nafaqat yaxshi fazilatlar, balki yomon xulq-atvorlar ham borligini tan oladi. U odamlarda hasad, g‘azab, tamakorlilik, jahldorlik kabi yomon his-tuyg‘ularni tahlil qiladi. Navoiy insonni ushbu yomon xulqlardan qaytarishga harakat qiladi va qalbini poklash, ma’naviyatini yuksaltirishga intilishga chaqiradi. Bu xulq-atvorlarning o‘zi insonning ichki kurashlarini va tashqi dunyo bilan bo‘lgan munosabatlarini shakllantiradi.

Navoiy asarlarida insonning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy mas’uliyatiga ham katta e’tibor berilgan. U insonning axloqiy burchlari nafaqat o‘ziga, balki jamiyatga ham bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. "Majolis un-nafois" asarida Navoiy, shaxsning o‘zini to‘g‘ri tarbiyalash va uning ijtimoiy mas’uliyatini anglash orqali jamiyatda yuksak axloqiy darajaga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy uchun insonning eng oliy maqsadi — o‘zini yaxshilash, ma’naviyatini yuksaltirish va haqiqiy baxtga erishishdir. U, insonni faqat materialistik qadriyatlar bilan emas, balki ma’naviy va axloqiy qadriyatlar bilan ham baholaydi. Navoiy nafaqat adolatli va halol bo‘lishni, balki insonni ma’naviy jihatdan to‘liq rivojlanishga erishishga chaqiradi.

Alisher Navoiy ijodida inson tabiati doimo ikki qarama-qarshi tomon — yuksak axloqiy va ruhiy idealarga intilish bilan birga, pastkashlik, xatolik va zaiflik kabi insoniy kamchiliklar o‘rtasida uzluksiz kurash olib boradi. Bu ikki tomon bir-birini to‘ldiruvchi va hamda qarama-qarshi holatlar sifatida Navoiy tomonidan chuqur falsafiy nazar bilan yoritiladi. U bu ichki ziddiyatlarni insonga irsiyat orqali kelgan xulqiy me'yorlar, odatlar va jamiyat an’analariga bog‘lab tushuntiradi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida insonning ikkiyuzlamachiligi, ya'ni go‘zal va olijanob xulqlar bilan birga, ko‘pincha ichki azoblar, g‘azab, hasad va pastkashlik kabi zaifliklarining bir vaqtda mavjud ekanligini aniq va jonli tasvirlaydi. Bu erda irsiyat – ota-bobolarimizdan meros qolgan ma’naviy qadriyatlar, tarbiya va ijtimoiy muhit – insonning bu ikki tomonlama ruhiy kurashiga asos bo‘ladi.

Navoiy ijodida odamning axloqiy qarashlari va ichki ruhiyatining shakllanishida nafaqat shaxsiy tajriba, balki jamiyatda mavjud bo‘lgan qadriyatlar va an’analar ham muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Shoirning "Xamsa" asaridagi qahramonlar hayot yo‘lini tanlashda har xil qarorlar qabul qilsa-da, ularning har birining ichki

dunyosida ota-bobolaridan qolgan ma’naviy merosning ta’siri sezilib turadi. Bu tarbiya nafaqat axloqiy, balki psixologik jihatdan ham qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy kurashlari va xarakter xususiyatlarini belgilaydi.

Irsiyat ta’siri, ayniqsa, vaqt o‘tishi bilan jamiyatning turli qatlamlari, ijtimoiy holatlar va shaxsiy tajribalar bilan chambarchas bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. Navoiy bunday murakkab jarayonlarni insonning shaxsiy tanlovi, iroda va taqdiriga bog‘lab, har bir inson o‘z irsiyatini qanday qabul qilishiga, unga qanday munosabatda bo‘lishiga qarab, ruhiy kamolot yoki buzilish sari yo‘l olishini ta’riflaydi. Shu bilan birga, u inson ruhiyati va axloqiy fazilatlarining shakllanishida tarbiya, ma’naviyat va ijtimoiy muhitning tutgan o‘rni naqadar muhim ekanligini chuqur his qiladi va badiiy asarlari orqali o‘quvchini ham bu masalalar ustida mulohaza yuritishga chorlaydi.

Shunday qilib, Navoiy ijodida insonning ikki tomonlama tabiati — yuksak ma’naviylik va pastkashlik, ulug‘ ideal va kichik zaifliklar — doimiy ravishda qarama-qarshi kuchlar sifatida ko‘rsatilib, ularning kurashi inson shaxsiyatining murakkab, lekin hayotiy muhim qismidir.[2] Bu kurashda irsiyat, ya'ni ota-bobolardan meros qolgan qadriyatlar va tarbiya, muhim rol o‘ynaydi va inson ruhining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega ekanligi Navoiy asarlarida o‘zining yorqin ifodasini topadi.

Navoiy ijodida odamning ruhiyatini shakllantiruvchi muhim omillardan biri — irsiyatdir. Uning ko‘plab asarlarida insonni to‘liq tushunish uchun uning qayerdan kelganini, ota-bobolari qanday hayot kechirganini, qanday tarixiy va madaniy sharoitlarda yashaganini bilish zarur. Insonni o‘rganishda uning tarixiy o‘tganini hisobga olish, uning ruhiyatini shakllantiruvchi omil sifatida irsiyatni ajratib ko‘rsatish mumkin. Navoiy bunday fikrlarini o‘zining "Mahbubul-qulub" va "Farhod va Shirin" kabi asarlarida hamda boshqa she'riy majmualarida kuzatish mumkin. Bu asarlarda qahramonlarning ruhiy holatlari, ular yashayotgan davr va ijtimoiy muhitga bog‘liq ravishda shakllanadi.

Alisher Navoiy insonni yuksaltirishda irsiyatning ta'sirini qadrlab, uni doimo ijobiy yo‘nalishga yo‘naltirishga harakat qiladi.

Navoiy o‘z asarlarida, ayniqsa "Xamsa"dagi dostonlarida inson qalbining ichki holatini tasvirlaydi. Insonning qalbi, uning dunyosi, uning ruhiyati va axloqi uning hayotidagi eng muhim omil bo‘lib, har bir kishi o‘z qalbini poklash, tozalash orqali haqiqiy baxtga erishishi mumkin. Navoiy qalbni ikki xil jihatdan tahlil qiladi: biri, u kishining ichki dunyosi bo‘lib, unda turli salbiy his-tuyg‘ular, jumladan, hasad, g‘azab, dushmanlik va o‘zimnigina o‘ylash kabi hislar mavjud. Ikkinchisi, bu qalbning o‘zini tozalash, nurini ko‘rish va haqiqiy baxtga erishish yo‘lida o‘zgarishlar qilishdir.[1] Navoiy bu jarayonni "ichki jang" sifatida

ko‘rsatadi, chunki inson o‘z ichki kurashida, ruhiy rivojlanishida, yuksalishida ko‘plab qiyinchiliklarni engishi kerak, deb hisoblaydi.

Navoiy axloqiy fazilatlarni insonning ichki dunyosini tuzatishning eng muhim vositasi sifatida ko‘rar edi. U insonning xulqini, axloqini tuzatishda fazilatli xislatlarning, masalan, sabr, mehr-oqibat, odillik, poklik, to‘g‘rilik va mehr-ushshoqning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shu orqali inson ichki ruhini tozalash, uning qalbini poklash mumkin. Navoiy "Saddi Iskandariy" kabi asarlarida axloqiy idealga erishishni insonning ma'naviy rivojlanishi bilan bog‘laydi. Inson faqat o‘z ichki dunyosini tozalab, ma'naviy yuksalishga erishsa, u haqiqiy baxt va farovonlikka erishadi.

Xulosa

Alisher Navoiy ijodida insonning ichki dunyosini tuzatish masalasi nafaqat axloqiy tozalikka erishish, balki insonning haqiqiy ma'naviy yuksalishiga erishish uchun muhim vosita sifatida qaraladi. Navoiy inson qalbining poklanishiga katta e'tibor beradi, chunki faqat ichki dunyosi toza va pok bo‘lgan inson haqiqiy baxtga erisha oladi. Uning asarlarida ichki tinchlik va ma'naviy tozalash insonning haqiqiy baxt va yuksaklikka erishish yo‘lida eng zaruriy omil sifatida ifodalanadi.

Alisher Navoiy ijodida inson psixikasi va ruhiyatiga oid fikrlar bir-birini to‘ldirib, bir butunlikni tashkil etadi. Navoiy, inson ruhiyatining rang-barangligini, uning ichki kurashlarini va ma'naviy izlanishlarini aks ettirgan holda, har bir asarida insonning qalbini, ruhini, va psixologik holatini o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi. Bu tafakkur, bizni faqat uning adabiy merosi bilan tanishtiribgina qolmay, balki inson sifatida o‘z ruhiy holatlarimizni anglash va o‘zimizni rivojlantirish yo‘lida ham g‘oyat muhim bo‘lishi mumkin.

Alisher Navoiy ijodida inson xulq-atvori haqidagi fikrlar adabiyotda axloqiy va ma’naviy qarashlarning o‘ziga xos ifodasi sifatida katta ahamiyatga ega. Uning asarlarida insonning ichki dunyosidagi kurashlar, uning axloqiy rivojlanishi va ijtimoiy mas’uliyatini anglash muhim o‘rin tutadi. Navoiy insonni har tomonlama yuksaltirishga chaqirib, uning yaxshi fazilatlar va to‘g‘ri xulq-atvor orqali hayotining ma’nosini topishga undaydi. U zot irsiyatning inson ruhiyatiga ta'siri ko‘plab jihatdan ko‘rinadi. Irsiyat — insonning o‘zining o‘tmishidagi qadriyatlar, tarbiya va jamiyatdagi an'analar orqali shakllanadigan ruhiy holatidir. Shoir asarlarida insonning ichki dunyosi, ruhiyatidagi ikkiyuzlamachilik va yuksalishga bo‘lgan intilish, shuningdek, axloqiy merosning o‘rni haqida chuqur fikr yuritiladi. Navoiy asarlarini o‘qish orqali irsiyatning inson ruhiyatiga ta'siri haqidagi muhim jihatlarni anglash mumkin, bu esa insonning o‘zini anglash va hayotdagi maqsadga erishishda muhim yo‘l-yo‘riq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Sharafiddinov. Alisher Navoiy. Kitobda: Tanlangan asarlar.-T.: Fan,1978:
2. Oybek. Navoiyning tarjimayi holi. Kitobda: „Navoiy gulshani“. -T.:1967;
3. S.G‘anieva. Alisher Navoiy. -T.:1968;
4. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. -T.: G‘. G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969;
5. V. Zohidov. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. -T.: O‘zbekiston, 1970;
6. A.Qayumov. Alisher Navoiy (ajoyib kishilar hayoti). -T.:1976;
7. S.Ayniy. Tanlangan ilmiy asarlar. — T.: Fan, 1978;

SHE’RIYATNING RUHIY SALOMATLIK VA EMOTSIONAL MUVOZANATGA TA’SIRI

Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna
Qo‘qon universiteti “Ta’lim” fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqola she’riyatning inson ruhiy salomatligi va emotsional muvozanatni tiklashdagi rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bugungi zamonaviy psixologik muammolar bo‘lmish stress, depressiya, tashvish va ichki bo‘shliq sharoitida biblio-terapiya, ya’ni adabiyot, xususan she’riyat orqali davolash usullarining ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada biblio-terapiya tushunchasining nazariy asoslari, tarixiy rivojlanishi, mashhur psixologlarning qarashlari va uning amaliy tatbiqi ko‘rib chiqildi. Xususan, o‘zbek she’riyati namunalari asosida biblio-terapevtik yondashuv tahlil qilindi. She’rlarning shaxsiy kechinmalarni ifoda etish, ichki muvozanatni tiklash, ruhiy engillik berishdagi roliga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, she’riyat inson ruhiyatiga estetik va emotsional ta’sir ko‘rsatib, terapevtik vosita sifatida samarali xizmat qilishi mumkinligi o‘z isbotini topmoqda.

Kalit so‘zlar: She’riyat, ruhiy salomatlik, emotsional muvozanat, biblio-terapiya, terapiya, adabiyot, psixologiya.

Аннотация

Данная научная статья посвящена изучению роли поэзии в восстановлении психического здоровья и эмоционального равновесия человека. В условиях современных психологических проблем - таких как стресс, депрессия, тревожность и внутренняя пустота - возрастает значимость методов терапии с использованием литературы, в частности, поэзии, то есть библиотерапии. В статье рассмотрены теоретические основы понятия «библиотерапия», её историческое развитие, взгляды известных психологов и практическое применение. Особое внимание уделено анализу узбекской

поэзии как средства библиотерапевтического подхода. Изучены возможности поэзии в выражении личных переживаний, восстановлении внутреннего равновесия и достижении душевного облегчения. Результаты исследования подтверждают, что поэзия оказывает эстетическое и эмоциональное влияние на психику человека и может эффективно использоваться как терапевтическое средство.

Ключевые слова: поэзия, психическое здоровье, эмоциональное равновесие, библиотерапия, терапия, литература, психология.

Abstract

This scientific article explores the role of poetry in restoring mental health and emotional balance. In the context of modern psychological challenges such as stress, depression, anxiety, and inner emptiness, the importance of bibliotherapy - healing through literature, particularly poetry - is increasing. The article examines the theoretical foundations of bibliotherapy, its historical development, the views of prominent psychologists, and its practical applications. Special attention is given to the analysis of Uzbek poetry as a tool for bibliotherapeutic intervention. The study highlights the role of poetry in expressing personal emotions, restoring inner harmony, and providing emotional relief. The findings confirm that poetry exerts aesthetic and emotional influence on the human psyche and can be effectively used as a therapeutic medium.

Keywords: poetry, mental health, emotional balance, bibliotherapy, therapy, literature, psychology

Kirish. Zamonaviy dunyoda inson hayotining murakkablashuvi, urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot, globallashuv, pandemiyalar va ijtimoiy tangliklar ta’sirida ruhiy salomatlik muammosi tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Bularning natijasi o‘laroq bugungi kunda insonlar orasida stress, depressiya, xavotir, yolg‘izlik, o‘zini qadrsiz his qilish kabi holatlar ko‘p uchramoqda. Ruhiy salomatlik nafaqat shaxsiy farovonlik, balki jamiyatdagi sog‘lom muhit va ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhim omildir [1].

Insoniyat azaldan o‘z ruhiy holatini ifodalash, anglash va engillashtirish uchun san’atning turli sohalariga, rassomchilik, musiqa, adabiyot, xususan she’riyatga ayniqsa ko‘proq murojaat qilib kelgan. Chunki, inson she’riyat orqali o‘z kechinmalarini ifoda etadi, o‘zini va o‘zgalarni tushunadi, ma’naviy taskin topadi. Aynan shu nuqtai nazardan, she’riyat nafaqat estetik zavq manbai, balki ruhiy terapiya vositasi sifatida ham qaralishi mumkin. Bu yondashuv ilmiy doiralarda biblio-terapiya nomi bilan tanilgan [2].

Ushbu maqolada she’riyatning shaxs ruhiyatiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri, biblio-terapiya vositasi sifatida ahamiyati, uning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishiga e’tibor qaratildi.

Asosiy qism. She’riyat inson ruhiyati bilan bevosita muloqotga kirishadigan, emotsiyalarni bexato va go‘zal tarzda ifoda etadigan san’at turidir. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, shaxsning ichki kechinmalarini ifoda etish imkoniga ega bo‘lishi uning emotsional engilligiga, o‘zini anglashiga va shaxsiy o‘sishiga xizmat qiladi [3].

Biblio-terapiya tushunchasi ilk bor 1916-yilda Samuel Kroters tomonidan “A Literary Clinic” (Adabiyot orqali davolash) maqolasida ilgari surilgan bo‘lib, u adabiy matnlar orqali ruhiy muammolarni engillashtirish mumkinligini ta’kidlagan [2]. Keyinchalik Karl Yung, Anna Rubin, Albert Ellis kabi mutaxassislar bu yondashuvni rivojlantirib, biblio-terapiyani psixoterapevtik uslub sifatida tavsiya qilganlar.

Biblio-terapiyaning identifikatsiya, katarsis, refleksiya, transformatsiya kabi turlari mavjud. Ya’ni identifikatsiya bu o‘quvchi she’r qahramoni yoki lirik qahramon bilan o‘zini bog‘laydi [1]. Katarsis esa his-tuyg‘ularni so‘z orqali chiqarish, engillik hissi [5]. Psixologiya sohasida o‘z ruhiy holatini anglash, u haqida fikrlash refleksiya, yangi anglashlar asosida ijobiy qarorlar qabul qilish esa transformatsiya deyiladi [1].

She’riyat ruhiy salomatlikni tiklashda emotsional ifoda vositasi, taskin va umid manbai, estetik ong orqali davolash vositasi, ijobiy monolog hamda kollektivlik tuyg‘usini shakllanishi kabi ijobiy funksiyalarni bajaradi. Masalan, ba’zi o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishda qiynaladigan insonlarning emotsional holatini ifoda etishda she’r asosiy yordamchi vosita hisoblanadi [1]. Taskin va umid manbai sifatida esa umidsizlik holatida ma’naviy kuch bag‘ishlaydi. Masalan: “Bora-bora tun ham o‘tadi, tong otadi” [6]. Turli adabiyotlar vositasida go‘zallikni idrok qilish jarayoni kishida ruhiy muvozanatni tiklashda yordam beradi. Buni esa zamonaviy psixologiyada estetik ong orqali davolash deyiladi [7].

“Ijobiy monolog shakllanishi” deganda shuni nazarda tutish mumkiki, inson har doim ichki dialog olib boradi, ya’ni o‘z-o‘ziga savol beradi, javob izlaydi, o‘zini tanqid qiladi yoki tasalli beradi. Bu jarayon psixologiyada “ichki monolog” yoki ayrim psixologik adabiyotlarda “ichki nutq” deb ataladi. Agar bu ichki suhbat salbiy ohangda bo‘lsa (“men hech narsaga yaramayman”, “menga hech kim kerak emas”), bu ruhiy tushkunlikka olib kelishi mumkin. She’r esa go‘zal, ilhomlantiruvchi, keng ma’naviy fikrlash imkonini beradi. Ko‘p she’r o‘qigan inson asta-sekin ichki nutqini o‘zgartiradi. Masalan, “Men bu qiyinchilikni enga olaman”, “Hayotda yashashdan ma’no bor”, “Men yolg‘iz emasman” kabi.

Bularning barchasi Bu ijobiy ichki nutq deb ataladi, ya’ni insonning ichki suhbatlari konstruktiv, umidli va hayotbaxsh tus oladi. She’riyat esa bu kabi ijobiy ichki nutqni shakllantirishda eng muhim vosita sanaladi, ayniqsa, tasalli beruvchi yoki ruhlantiruvchi she’rlar [3].

She’r orqali inson o‘zining yolg‘iz emasligini anglaydi, bu esa zamonaviy psixologiyada kollektivlik tuyg‘usi tushunchasi bilan mos keladi [1]. Inson tabiatan ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi bois ruhiy salomatlik faqat individual ichki muvozanat bilan emas, balki boshqa insonlar bilan aloqadorlik, tushunilganlik va qabul qilinganlik hissi bilan ham bog‘liq. Boshqalar bizga o‘xshash dardlarni boshdan kechirganini bilish, “men yolg‘iz emasman” degan tuyg‘uni beradi. Bu esa ruhiy sog‘liq uchun juda muhim. Aynan she’riyatda inson o‘zining dardini, xavotirini, sog‘inchini yoki quvonchini qandaydir obraz, misra yoki metafora orqali ko‘radi. Agar o‘quvchi o‘z kechinmasini she’rda topib, u bilan identifikatsiya qilsa, bu unga “boshqalar ham shunday holatni boshdan kechirgan ekan” degan xulosa beradi. Bu esa psixologiya fani sohasida ijtimoiy identifikatsiya va kollektiv tajriba tuyg‘usini ifodalaydi. Buning natijasida esa shaxs o‘zini jamiyatga daxldor his qiladi va yolg‘izlik hissi kamayadi. Ayniqsa, ruhiy tushkunlik, depressiya yoki ichki bo‘shliq holatlarida bu juda muhim psixoterapevtik omilga aylanadi. Masalan, Halima Xudoyberdiyevaning “Ko‘zlarimda turfa g‘am” kabi satrlari ko‘plab ayollar yoki dardmand o‘quvchilar qalbini titratadi, chunki bu jumlalarda ularning ichki og‘rig‘i ifoda etilgan. Bu esa o‘quvchiga “men yolg‘iz emas ekanman” degan ichki dalda bo‘ladi. Xullas, she’riyat - yolg‘izlik pardasini yorib o‘tadigan ko‘prikdir. U insonni boshqa insonlarning yurak ovozi bilan bog‘laydi.

Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya, Janubiy Koreya va Rossiyada biblio-terapiya psixoterapiyaning samarali turi sifatida qo‘llanilmoqda [1]. Xususan, maktab psixologiyasi, klinik psixologiya, art-terapiya va logoterapiyada adabiy matnlar orqali shaxsiy o‘sishga erishish usuli keng tarqalib bormoqda [8]. Masalan, depressiya yoki tashvishdan aziyat chekayotgan bemorlarga Erich Fromm yoki Rumiyning hissiy jihatdan ijobiy, umid uyg‘otuvchi ma’noli matnlari yoki she’rlarini o‘qish tavsiya etiladi. Keyin klinik psixolog bu matnlar asosida suhbat quradi: “Siz bu satrlardan nimani angladingiz?”, “Bu sizga qanday kuch berdi?”. Natijada bemor o‘z ichki holatini xavfsiz va erkin tarzda ifoda etadi hamda ruhiy engillikka erishadi. Viktor Frankl ta’kidlaganidek, “Inson azobdan qutulish uchun hayotda ma’no topishi kerak”. Bu borada ma’naviy-falsafiy she’rlar, masalan, Abdulla Oripov yoki Navoiy asarlari o‘qitiladi. “Bu hayotda qanday qilib sabr qilish kerak?”, “Bu she’r sizga qanday

ma’no anglatdi?” degan savollar bilan yo‘naltiriladi. Natijada inson o‘z og‘rig‘i ortida ma’no topishga harakat qiladi. Bu esa unga kuch beradi.

O‘zbek adabiyoti bu borada juda katta salohiyatga ega. Bunga yaqqol misol tariqasida Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva va Abdulla Oripov kabi mashhur shoirlarning ijodini aytish mumkin. Bu shoirlar ijodida ko‘plab biblio-terapevtik elementlarni ko‘rish mumkin. Erkin Vohidovning she’rlari insoniylik, umumbashariy g‘am va vatanparvarlik ruhini aks ettiradi [6]. Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida esa ruhiy chidam, ayollik tabiatining nozikligi, hayot og‘riqlari orqali sabr va irodaning yuksalishini ko‘rishimiz mumkin [7]. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she’rlarida falsafiy kechinmalar, hayot mazmuni, o‘zlikni anglash, haqiqat izlash jarayonlarini ko‘plab o‘rinlarda ifodalanganligining guvohi bo‘lamiz [6].

Biblio-terapiya amaliyotida bu she’rlar yordamida o‘zini qadrlash hissi oshiriladi, hissiy iztirobni ifoda qilishga yordam beriladi, ichki ziddiyatlarni engish uchun vosita taqdim etiladi, shaxsni ruhiy tiklanishga undaydi. Maktab amaliyotchi psixologi faoliyatida, universitet yoki terapiya seanslarida ushbu she’riy asarlar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, talabaga biror she’r beriladi, u o‘qib chiqqach, qanday hislar uyg‘onganini yozib beradi. So‘ng guruhiy muhokama orqali boshqa ishtirokchilar bu she’rni qanday qabul qilgani haqida fikr almashiladi [9].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, she’riyat - insoniyatning eng qadimiy ichki muloqot vositalaridan biri bo‘lib, bugungi zamonaviy hayotda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U inson qalbining yashirin qatlamlariga kirib boradi, ko‘zga ko‘rinmas, lekin yurakda og‘riqli bo‘lgan tuyg‘ularni ifoda etish, tan olish va ularni engib o‘tishga yordam beradi. Biblio-terapiya esa bu jarayonni ilmiy asosga solgan holda, adabiy matnlar orqali inson ruhiyatini davolovchi amaliy yo‘nalishga aylangan. Kelgusida bu yondashuv asosida terapevtik poeziya antologiyalarini yaratish, psixologlar va pedagoglar uchun qo‘llanmalar ishlab chiqish, maktab va universitetda biblio-terapiya asoslarini o‘qitish, yoshlar uchun ruhiy salomatlikka qaratilgan adabiy mashg‘ulotlar tashkil etish ishlari amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rubin, A. (1978). Bibliotherapy Sourcebook. New York: Oryx Press.
2. Crothers, S. (1916). A Literary Clinic. Atlantic Monthly.
3. Karimova, N. (2020). Psixoterapiyada adabiyotdan foydalanish: uslublar va imkoniyatlar. “Psixologiya va hayot” jurnali, 3(12).
4. Jung, C. G. (1964). Man and His Symbols. London: Aldus Books.

5. Ellis, A. (1962). Reason and Emotion in Psychotherapy. New York: Lyle Stuart.
6. Erkin Vohidov. “Tong nafasi”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1998.
7. Halima Xudoyberdiyeva. “Bu kunlarga etganlar bor”. Toshkent: Yozuvchi, 2000.
8. Qurbonova, S. (2022). Biblio-terapiya: O‘zbek adabiyoti misolida psixologik tahlil. Toshkent: Fan.
9. G‘aniyeva, Z. (2021). She’r va shaxs: emotsional uyg‘unlik yo‘lida. O‘zbekiston Milliy universiteti nashri.
10. G‘ulomov, D. (2023). Ma’naviy salomatlik asoslari. Toshkent: Ilm ziyo.
11. Abduqakhkhorovna E. G. The Impact Of Defense Mechanisms On Mental Health //American Journal of Advanced Scientific Research. – 2024. – T. 1. – №. 8. – C. 256-259.
12. Abduqaxxorovna E. G., Qaxramonovich M. M. TASHQI VA ICHKI MOTIVATSIYALARNING YOSHGA BOG‘LIQLIGI //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 369-371.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA INSON MA’NAVIY KAMOLOTINING BADIIY TALQINI

Ismoilova Fotima Baxriddinovna
tayanch doktorant
Sharof Rashodov nomidagi Samarqand davlat universiteti
fotimaismoilova813gmail.com

Annotatsiya

Alisher Navoiy ijodi, nafaqat mumtoz adabiyot, balki zamonaviy o‘zbek adabiyotining qirralarini ochib berishda o‘ziga xos xususiyatga ega. Ijodkor yaratgan asarlarning, ijodi mahsulining cheg-chegarasiz ma’no-mazmunga ega ekanligi, uni hattoki bugungi kun o‘quvchisi ham maroq bilan mutolaa qilishi o‘zgacha, takrorlanmas o‘ziga xos uslub yarata olganidan dalolat beradi. Bugungi XXI asr adabiyoti vakillari faqat bugungi zamonaviy hayot taqozo etayotgan mavzularda qalam tebratishdan tashqari, bevosita mumtoz adabiyotimizga, o‘rta asrlarda ijod qilgan mutafakkirlarimizga ham murojaat qilishmoqda, ularning nodir namunalaridan bugungi kun o‘quvchilari ham ko‘proq bahramand bo‘lishini istamoqda. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodi XXI asr adabiyotiga ta’siri ko‘p qirrali va dolzarb masala. Uning boy ma’naviy merosi nafaqat qadriyat sifatida,

balki zamonaviy adabiy tafakkur, estetik qarashlar, ma’naviy-axloqiy tamoyillar shakllanishida ham katta ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiy ijodi, uning ma’naviy-axloqiy g‘oyalari, insonparvarlik, adolat, ilm-fan va ijodga hurmat kabi qadriyatlar bugungi kun adiblariga ulkan ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirgi ijodkorlar ham Alisher Navoiy kabi jamiyatdagi axloqiy inqirozga qarshi turish, ruhiy poklik va odamiylik masalalarini ko‘tarishda undan “oziqlanmoqda”.

Bugungi kunda ko‘plab yozuvchi va shoirlar Alisher Navoiy shaxsi va ijodiga bevosita murojaat qilib, qalam tebratishmoqda. Muhammad Ali, Xurshid Davron, Usmon Azim, Abduvali Qutbiddin kabi zamonaviy shoirlar o‘z ijodlarida Navoiy ruhiyatini, uning poetikasini zamonaviy shaklda davom ettirmoqda. Yozuvchilardan esa Tohir Malik, Isajon Sulton kabi adiblar Navoiy ijodidan bahra olib, qalab tebratishmoqda. Ushbu maqolamizda Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani tahlilga tortilmoqda.

Kalit so‘zlar: “oziqlanmoq”, hamd, “Bo‘l”, “Xazoyin ul-ma’oniy”, “Qizil, sorig’, yashil...”, tarixiy davr, cho‘ng asar, ma’naviy-axloqiy g‘oyalar, ruhiy poklik, insonparvarlik, odamiylik, tasavvuf.

Annotation

Alisher Navoi’s works represent not only classical literature but also play a crucial role in uncovering the nuances of modern Uzbek literature. The uniqueness of the content and the artistic excellence of his works are so profound that even today’s readers are deeply interested in reading and analyzing them, despite the centuries that have passed. His ability to create a unique style and expression proves the timeless nature of his art. In today’s literary process, many contemporary writers refer directly to classical literature and the works of great thinkers from the medieval period, including Navoi, in order to find inspiration and benefit from their legacy.

Moreover, Alisher Navoi’s creativity remains a highly relevant and important topic in the 21st century. His spiritual heritage continues to serve as a source of inspiration. Today’s writers also turn to Navoi's ideas to address moral crises in society and to promote inner purity and humanity in their works.

Nowadays, many writers and poets are directly referring to Alisher Navoi’s personality and creativity in their writings. Muhammad Ali, Khurshid Davron, Usmon Azim, and Abduvali Qutbiddin are among the poets who continue Navoi’s poetic spirit and style in a modern way. Writers such as Tohir Malik and Isajon Sulton are also drawing inspiration from Navoi’s legacy. In our articles, we analyze Isajon Sulton's novel Alisher Navoi".

Key words: “to be nourished”, praise, “Be”, “Khazoyin ul-ma’ani”, “Red, ellow, green...”, historical period, masterpiece, moral and spiritual ideas, spiritual purity, humanism, human decency, sufism.

Аннотация

Творчество Алишера Навои представляет собой не только классическую литературу, но и играет важную роль в раскрытии грани современного узбекского литературного процесса. Произведения Навои отличаются глубиной содержания и художественным мастерством, что делает их актуальными даже сегодня — современный читатель с интересом изучает их, несмотря на прошедшие века. Уникальность стиля и выразительности Навои свидетельствует о его вневременности. Сегодняшние представители литературы часто обращаются к классическому наследию, в частности к творчеству средневековых мыслителей, включая Навои, чтобы черпать вдохновение и пользу.

Кроме того, творчество Алишера Навои в XXI веке остаётся актуальной и важной темой. Его духовное наследие продолжает служить источником вдохновения. Современные авторы, как и Навои, стремятся решать в своих произведениях моральные проблемы общества, призывают к духовной чистоте и человечности.

В наше время многие писатели и поэты непосредственно обращаются к личности и творчеству Алишера Навои. Среди них — Мухаммад Али, Хуршид Даврон, Усмон Азим, Абдували Кутбиддин, которые продолжают поэтический дух и стиль Навои в современном контексте. Также такие писатели, как Тохир Малик и Исажон Султон, вдохновляются наследием Навои. В наших статьях рассматривается роман Исажона Султона “Алишер Навои”.

Ключевые слова: “питаться”, похвала, “Буль”, “Хазойин ул-ма'ани”, “красный, жёлтый, зелёный...”, исторический период, выдающееся произведение, нравственно-духовные идеи, духовная чистота, гуманизм, человечность, суфизм.

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy va boshqa mutaffakirlarimiz ijodining bugungi kun zamonaviy adabiyoti shakllanishida ham ma’lum ma’noda hissasi bor deya olamiz. Bundan ko‘plab yozuvchi shoirlarimiz “oziqlana olgan”. Biroq bu oziqlanish, madad olish turli ijodkorlarda turlicha shakl va darajada voqe bo‘ladi, uni bir xil qolip va shakllar bilan belgilash qiyin. Masalan, ayrim

yozuvchilar ijodida juda yorqin ko‘rinib turadi. Bu xususiyat mohir yozuvchi Isajon Sulton ijodida ham o‘z aksini topdi.

Zamonaviy, mustaqillik davri yozuvchisi bo‘lmish Isajon Sulton o‘zining ko‘plab asarlari bilan kitobxonlarini topa olgan. Ana shunday sara namunalaridan biri “Alisher Navoiy” romanidir. Ijodkor tarixiy roman yozishni maqsad qilarkan, uning oldida ulkan bir mas’uliyat yotadi. Shoir yoki yozuvchi tarixiy mavzuda ijod qilishga bel bog‘larkan, tom-tom kitoblarni, sahifa-sahifa tadqiqot va arxiv materiallarini to‘playdi, ularni chuqur o‘rganadi.

Asqad Muxtor aytganidek, “Odissey arvohlarni o‘zi bilan suhbatlashishga ko‘ndirish uchun ularga o‘z qonidan berib tiriltiradi. Yozuvchi tarixiy shaxslar haqida yozganida shunday qilishi kerak” [1,htpps://kh-davron-uz].

Isajon Sultonning bu romanida muallif buyuk shoir hayotining eng muhim bosqichlarini badiiy talqin qilib ochiib beradi. Asarda faqatgina tarixiy-biografik faktlar emas, balki shoirning ichki ruhiy olami ham yoritiladi. Navoiy siymosida ma’naviy komillikka intilayotgan inson, doimo o‘zini poklashga, jamiyatga foydali bo‘lishga harakat qilayotgan shaxs tasvirlanadi.

Alisher Navoiy nafaqat o‘rta asrda yashab ijod etgan yashab o‘tgan bir mutafakkir, balki u har bir davr uchun zamon kishisidir. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanini o‘qib boshlarkanmiz, kitobning ilk sahifalaridanoq Alisher Navoiy uslubi kabi Allohga hamd bilan boshlanadi. Allohning yaratuvchilik qudrati, Yaratganga shukronalik hissi, birgina “Bo‘l” degan hukm bilan jamiki mavjudotlarning yaratganligi. Romanda Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan boy merosimiz yaratilish tarixi haqida ishonchli ma’lumotlar berib ketilgan. “Navoiyning Astrobodga surgun qilinishi” masalasiga ham oydinlik kiritadi. Oybek o‘zining Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida buni “markazdan uzoqlashtirish” deb ataydi. Isajon Sulton esa o‘z asarida Navoiyning Xuroson janubiga Astrobod viloyatiga hokim etib tayinlashida uni Hirotdan uzoqlashtirish, “surgun” qilish maqsadi bo‘lmaganini ko‘rsatib bergan. Ya’ni Husayn Bayqaro shu yo‘l bilan janubda tobora kuchayib kelayotgan safaviylarga qarshi munosib himoya o‘rnatishni, bunda Navoiyning mavqei, kuchli siyosatdonlik mahoratidan foydalanishni ko‘zlaydi. Romanning bu bobida Navoiyning naqadar o‘tkir siyosatchi, odil, tashabbuskor rahbar bo‘lgani ham ochib beriladi [2,№ 5].

Roman qurilishi Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni ichki strukturasiga mos 4 qismdan tashkil topgan: “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoe’ ul-vasat”, “Favoid ul-kibar”. Ya’ni asarda ayni shu qismlarida Navoiyning bolalik, yoshlik, ya’ni o‘smirlik, o‘rta yoshlik va keksalik davri voqealari boy mahorat bilan qalamga olingan.

Alisher Navoiy hayotida tasavvuf muhim o‘rin tutadi. Romanda shoirning Attor va Rumiy ijodidan ilhomlanishi, bu asarlar orqali qalban uyg‘onishga erishgani ko‘rsatiladi. Bu esa, shubhasiz, uni ma’naviy g‘oyalar targ‘ibotchisiga aylantiradi [3,91] .

Alisher Navoiy tasavvuf va tafakkur orqali insonning o‘z nafsini engish, qalbni poklash, adolatli va mehribon bo‘lish, donolik sari intilish kabi ma’naviy tamoyillarni ilgari suradi. “Xamsa” tarkibidagi “Hayrat ul-abror” dostonida ma’naviyat asoslari nazariy va badiiy tarzda bayon etilgan bo‘lib, bu orqali Navoiy jamiyatni ham, shaxsni ham, davlatni ham yuksaltirishni maqsad qilgan [4,112].

Shuningdek, yozuvchi romanida Navoiyni nafaqat davlat arbobi va shoir, balki doimiy ruhiy izlanishda bo‘lgan, kamolotga intilgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Asarda Navoiy yoshlikdan boshlab ruhiy poklik, donolik, sabr, tavoze, halollik, kabi qadriyatlarga sodiq inson qiyofasida gavdalanadi. Jumladan, romanda tasvirlanishicha, Navoiy madrasada o‘qib yurgan paytdagi mulohazalari orqali uning tafakkurida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar aks ettiriladi:

U bilim orttirar, ammo bu bilim faqat donolik emas, qalb pokligi uchun zarur ekanini tushunib borardi [5,37].

Asarda Navoiy ijodidagi muayyan bir asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy, ruhiy omillar ham ko‘rsatib beriladi. Romanda ko‘rishimiz mumkinki, juda ko‘p g‘azallarning yaratilishi va uning atrofidagi jarayonlar mahorat bilan tasvirlangan.

“Qizil, sorig‘, yashil...” radifli g’azali Alisher va Bayqaroning Mashhad safariga otlanganda yaraldi. “Taqdirning yana bir hadyasi mana shu safar chog‘ida zuhur etdi. Ko‘hsordan o‘tilgach, o‘ng tarafda uch xil tusdagi kichik tog‘lar namoyon bo‘ldi. Ularning biri qizil, biri sariq bo‘lib, har ikkisi ham yaydoq, ustida o‘t-o‘lan o‘smagan, uchinchisini esa yosh archalar qoplab olgan, yashilliklarga burkanib ko‘zga tashlanib turardi. Tangri taolo yaratgan qizil, sariq, yashil mo‘jizalarning bunday ajoyib silsilasi yigitcha ongida ajoyib larza paydo qildi [6, 93].

“Xamsa” dostoni tarkibidagi “Farhod va Shirin” dostoni yaratilishiga ham bu voqeada bir ishora bor. O‘smirlik chog‘ida Navoiy tog‘asi Kobuliy bilan lola sayliga chiqadi. U erda tosh kesayotgan sangtarosh bir yigitni uchratib qoladi. Yigit qoyatoshni yo‘nib, vodiyga suv chiqarish uchun mehnat qilayotgandi. U bilan suhbatda shu narsa ayon bo‘ladiki, yigitning ismi Xusrav bo‘lib, Navoiy Shirin ham bordir deb ishora qiladi. Yigit ham tasdiq ma’nosida ulus ichida bior Shirin ismli qiz ham borligini aytadi. Keyinchalik Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini yozayotganida shu voqeani yodga olgan va Farhod timsoliga o‘sha o‘zi ko‘rgan va suhbatda bo‘lgan Xusrav ismli yigitni kiritgani ma’lumotlarda aytib o‘tilgan.

Shuningdek, malik ul-kalom Lutfiy 10-12 ming forsiy va turkiy baytini almashmoqchi bo‘lgan mashxur baytni yodga olsak:

Orazin yopqach ko‘zimdin sochilur har lahza yosh

Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘och quyosh...

Shom kunduz bosimini ozaytirib, engillik ola keldi. Qizg‘ish yog‘dular zaiflashib g‘oyib bo‘lar ekan, nimtatir-ko‘kimtir tuslar qolganida, yulduzlar ko‘paya bordi. Qushlarning shom sayrog‘i tindi. Samo yulduzlari qaroqdan sizib chiqqan musaffo yosh tomchilar kabi bo‘lib qoldi va ushbu kun botishi, mehr quyoshi, qoramtir-ko‘kish samo va jimirlovchi yulduzlar unga ajoyib tashbeh hadya etishdi. Quyosh botgach, uni sog‘inib yig‘latguvchi bola ko‘zidan sochilgan yoshlar tasavvurda yulduzlarga aylangan.

Bu go‘zal o‘y endi she’rga aylanishi kerak edi [7,63].

Bu baytlar Alisher va uning oilasining Hirotdan Iroqqa ko‘chganida, Iroqdan qo‘nim topganida vujudga kelgan edi. Dastlab shu 2 misra yaratilgan bo‘lsa-da, bola Alisherning bu bu qadar so‘zlarni nozik ipga tergandek yaratgan misralari tahsinga sazovor. Har qanday bugungi kun o‘quvchisi uchun ilhom bo‘ib xizmat qila oladi.

Alisher Navoiyni Mir Alisher Navoiy darajasiga ko‘targan “Xamsa”ning tugallanishi, “Mukokamat ul-lug‘atayn” muhokamalari, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr”- bularning barchasi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida o‘z aksini topgan.

Adib Xayriddin Sulton roman uchun Isajon Sultonga minnatdorchilik sifatida maktub yozadi. Unda shunday so‘zlar qalamga olingan edi:

Bir paytlar rahmatli ustozlarimiz Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yaratgan betakror asarlardan so‘ng

adabiyotimizda uzoq vaqtdan buyon muayyan bo‘shliq vujudga kelgan va cho‘ng bir asarga ehtiyoj bor edi.

Boshqacha aytganda, bizning adabiy avlodimiz Alisher Navoiy haqida o‘z badiiy so‘zini aytishi ko‘pdan buyon kutilmoqda edi.

Siz ana shunday ulug‘vor va mas’uliyatli vazifani jasorat bilan zimmangizga olib, uni yorug‘ yuz ila ado etganingiz bilan chin qalbimdan tabriklayman

Yana romanga qaytadigan bo‘lsak, albatta, bunday ulkan, muazzam asarda juz’iy kamchiliklar bo‘lishi ham tabiiy. Zero yana ul hazrat ta’biri bilan aytganda, “yanglish va xato kishilik shartidir”.

Siz katta bilim va tajribaga, adabiy mahoratga ega adib sifatida yangi asaringizni butun bo‘y-basti bilan, fazilat va nuqsonlari bilan ko‘rib turibsiz deb o‘ylayman. Istardimki, qutlug‘ mavzudagi ushbu romanda hech qanday, hatto kichkina bo‘lsa-da, kamchilik uchramasa [8,509].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Mir Alisher Navoiy asrimizning etuk dahosi, uning boy lirik merosi avlodlarga qoldirilgan ulkan tuhfadir. Bu ulkan shoirimiz ijodi uzoq asrlar davomida adabiyot ixlosmandlari uchun dasturilamal vazifasini o‘tashi shubhasiz. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani orqali kitobxon nafaqat tarixiy shaxs haqida, balki inson ma’naviy komillikka qanday erishishi haqida ham chuqur tasavvurga ega bo‘ladi. Navoiy siymosi orqali badiiy asarda sabr, muhabbat, poklik, donolik kabi yuksak qadriyatlar ilgari suriladi. Bu asar o‘quvchini ruhiy boylik, axloqiy etuklik va tafakkur orqali “oziqlantiradi”.

Ulug‘bek Hamdam so‘zlari bilan yakunlaymiz: “Binoiydek bo‘lish oson, eplay olsangiz, Navoiydek bo‘ling”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar” - №5. 2021-y.
2. Sulton I. Alisher Navoiy.- Toshkent: Adabiyot, 2021.
3. Muxtor A. Tundaliklar. Uyqu qochganda, htpps://kh-davron-uz
4. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom// Yangi O‘zbekiston, 2021-yil 10-avgust.
5. Jo‘raqulov M. Alisher Navoiy va tasavvuf. Toshkent: Fan, 2015.
6. Yo‘ldoshev M. Navoiy asarlarida axloqiy g‘oyalar. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2013.
7. Qayumov A. Navoiy siymosi. Toshkent: O‘qituvchi, 1991

8. Abdug‘aniyev B. “Isajon Sultonning tarixiy romanlarida ruhiy olam talqini”, Adabiyotshunoslik masalalari, 4(12), 56-61, 2018.

URUSH YILLARI KO‘ZGUSIDA TARBIYA, SADOQAT VA XIYONAT

Vahobova Namunaxon Faridjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

O‘zbek adabiyotida urush, uning insoniyat taqdirida qoldirgan ayanchli oqibatlari haqida yuzdan ortiq asarlar yozilgan bo‘lib, ularni o‘qigan kitobxonni asar qahramonlarining turfa xil fojiali taqdiri befarq qoldirmaydi. Bu mavzuda yaratilgan asarlar orasida ayniqsa, o‘zbekning ikki zabardast adibi Said Ahmad hamda O‘tkir Hoshimov asarlarining alohida o‘rini bor. Mazkur maqolada Said Ahmadning “Ufq” va O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asaridagi urush davri voqealarining yoritilishi, har ikki asardagi obrazlar tabiati, qahramonlar psixologiyasi o‘zaro qiyoslanib tahlil qilindi. Asarlar o‘rtasidagi o‘zaro farqli va umumiy jihatlar ochib berildi.

Kalit so‘z: Urush, ma’naviyat, tarbiya, qahramon, mardlik, Ona, sadoqat, xiyonat, qochoq.

Аннотация

В узбекской литературе написано более ста произведений о войне и ее трагических последствиях для человечества, и читатель, читающий их, не может остаться равнодушным к многообразным трагическим судьбам героев произведений. Среди произведений, созданных на эту тему, особое место занимают произведения двух выдающихся узбекских писателей Саида Ахмада и Уткира Хошимова. В статье сравнивается и анализируется освещение военных событий в произведениях Саида Ахмада «Уфқ» и Уткира Хошимова «Икки эшик ораси», характеры персонажей обоих произведений, психология персонажей. Выявлены различия и сходства между произведениями.

Ключевые слова: Война, духовность, воспитание, герой, мужество, мать, верность, предательство, беглец.

Adabiyot hayotni aks ettiradi degan gap bejiz emas. Ba’zida birgina asar butun avlodning qalbini larzaga keltiradi, xalq tarixini tilsiz bayon etadi. Kitobxon dunyoqarashini kengaytirib, ma’naviy kamolotiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani va Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi aynan shunday asarlar sirasiga kiradi. G‘oyaviy-badiiy etuk bu asarlar orqali biz muayyan bir davr hayoti haqida keng va konkret ma’lumot olamiz, xulosa chiqaramiz. Men uchun bu ikki asar ikkita turli, ammo bir-birini to‘ldiruvchi oynadir.

Urush. Bemavrid boshlangan ikkinchi jahon urushi qanchadan qancha oilalarni baxtsizlikka mahkum etgan. Millonlab oilalar urush sababli ayriliq azobini tortgan. Urush haqida, uning o‘tkir tig‘i yaralagan kishilar taqdiri, begunoh to‘kilgan qonlar, alamli ko‘zyoshlar, bir so‘z bilan aytganda insoniyat boshiga yog’dirgan ofatlari haqida jahon adabiyotida qanchadan qancha asarlar bitilgan. O`zbek nasrida ham urush mavzusi juda ko`p yozuvchilarning asarlarida mavjud bo`lib, ular ijodkorning teran nigohi, davrni yaxshi his qilishi orqali har xil tusda badiiyatga ko`chadi. Bunday yozuvchilar adabiyotda butun boshli bir silsilani tashkil etadi.

“O`zbek prozasining rivojida yozuvchi Said Ahmadning xizmatlari alohidadir. O`zining o`nlab asarlarida urush davri bilan bog`liq voqealarga turli munosabatlar bilan murojaat etdi. Adib iste’dodining natijasi o`laroq o`zbek harbiy prozasi urushning inson uchun naqadar og`ir qismat ekanini hozirgi kitobxonga his qildirgan”. [1.108-b] Darhaqiqat, uning roman janrida yozilgan “Ufq” trilogiyasida, qolaversa, o`nlab hikoyalarida urushning eng chirkin, eng qora hodisalardan biri ekanligi, odamzodning boshiga tushgan musibatli ohanglari badiiy ifodalab berdi.

Ustozlar izidan borib samarali ijod qilgan iste’dodli adib, betakror so‘z san’atkori O‘tkir Hoshimov ham urush mavzusiga ko‘p murojaat etgan. Asarlaridagi hayot manzaralari,insonning nozik qalb kechinmalari tasviri o‘zining milliyligi, xalqchil va teranligi bilan adabiyot muxlislarining mehriga sazovor bo‘lgan. Adib “Ikki eshik orasi” romanida urush odam bolasining insoniyligini sinovdan o‘tkazadigan ulkan ma’naviy-ruhiy mezon, ulug‘ sinov bo‘lganligini hikoya qiladi. Qahramonlarning murakkab taqdiri, ruhiy kechinmalari, yashash tarzi, dard-alamlari kitobxonni o‘yga toldiradi.

Har ikki asar voqealari bir zamon va makonda bo‘lib o‘tganligi sababli qiyosiy tahlil uchun ob’ekt sifatida tanlab oldik. Dastlab e’tiborimizni mualliflarning tarixiy davr voqeligini tasvirlash holatlari jalb etdi. Asarlar yaratilgan vaqtga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “Ufq” trilogiyasi 1964-1974-yilarda yozib tugatilgan va 1976-yilda ilk bor nashr etilgan. Asarda 1939-yildan 1945-

yilgacha voqealar yoritilgan. „Ikki eshik orasi’’ romani ilk bor 1985-yilda nashr etiladi. „Ikki eshik orasi’’ romani voqealari trilogiyaga nisbatan biroz kengroq — 1933-yildan to 1978-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Men “Ikki eshik orasi’’ romanini „Ufq’’dan avvalroq o‘qiganman. Romanda urush va urushgacha yillar og’ir o‘tgani, insonlar och qolgani, hatto ochlikdan insonlar o‘lib ketgan holatlari tasvirlangan o‘rinlarni o‘qiganimda ancha vaqtgacha asar ta’siridan chiqib keta olmaganman. „ - Voydod! Nonim! Nonimni obqochdi! Qo‘rqib ketdim. Qarasam, to‘qqiz-o‘n yoshlardagi bola olomon orasidan otilib chiqib, shu tomonga yugurib kelyapti. Qo‘lida yarim buxanka non. Boshidagi yirtiq telpagi qiyshayib ketgan. Sarpoychan botinka kiygan oyog‘i sovuqdan qip-qizil go‘shtga aylangan. Joni boricha chopyapti-yu ikki qo‘llab nonni og‘ziga tiqadi. Paxtalik kiygan rangpar xotin bolaning ketidan etib kelib, elkasiga chang soldi.- Nonim! Yetimlarimning nasibasini o‘g‘irladi! - dedi chinqirib.Bolaning elkasidan tortib, quloq-chakkasiga tarsaki tushirgan edi, bola bukchayib qoldi. Xotin jon holatda nonga chang soldi. Bola nonni qo‘yib yubormadi. Chala- chulpa chaynab ochko‘zlik bilan yuta boshladi. Besh-olti kishi yordamga etib keldi. Gavdaliroq erkak bir musht tushirgan edi, bolaning telpagi boshidan uchib qorga tushdi. Bolapaqirni birpasda olomon qilib yuborishdi. Shuncha odam savalab yotibdi-yu, bola parvo qilmaydi. Qorga muk tushganicha non kavshaydi.’’ [2. 157-158-betlar.] Asarning bu qismi yurak-bag’rimni tilka-pora qilgandi.

“Ufq” ni o‘qiganimda Said Ahmad voqelikni o‘z davri talablari, san’at va adabiyotda hukm surgan sotsialistik realizm metodi mezonlariga muvofiq talqin qilganligiga duch keldim. Kanal qazilishidagi to‘kin-sochinliklar, Yozyovon cho‘lini ochishda tandir-tandir nonlar yopilgani tasvirlanadi. Masalan: „ Azizxon kabob to‘la tog’orani, dasturxondagi nonlarni so‘riga qoyib, bir qiyiq sovunatirlarni chayladagi karavotga sochib yubordi. Xotinlar qiy-chuv qilib talashib ketishdi.’’ yoki „ Zebixon nonlarni uzib tandirga g'o‘zapoya tashladi-da, Nizomjonga kulib qaradi.- Qani, nonga qarang.” [3. 118-bet, 289-bet.]

Shu o‘rinlarda “Ufq’’ dan ijtimoiy mafkuraning isi keladi. Ya’ni xalq siyosiy tuzumdan rozi va baxtiyor ko‘rinadi asarda. Katta Farg’ona kanalini qazilishidek og’ir va ma’suliyatli vazifani bajarishda duch kelingan asl qiyinchiliklar yoritilmagan deb o‘ylayman.

“Ikki eshik orasi’’ romani yozilgan vaqtda esa demokratiya shabadalari esa boshlagandi. Shuning uchun bo‘lsa kerak asar qisman erkin yozilgani seziladi. Romandagi ayrim o‘rinlarda ochiqchasiga tanqid qilsih, kinoyali holatlar uchraydi. Bunga Robiyaning otasi gazetada amaldorni tanqid qilgani uchun quloq qilinishi, Husan dyumaning aynan „dyuma’’ laqabini olishining sababi, majburiy mehnat, mansabni suiste’mol qilinishi, „O‘tkan kunlar’’ ni yashirinib o‘qilishi, xalq

dushmanining qizi sifatidaa Robiyaga qilingan munosabat kabilar misol bo‘la oladi.

Davr voqeligini yoritishdagi asarlardagi farqni hisobga olmaganda, har ikkala yozuvchi ham o‘z qahramonlari ruhiyatining iztirobli, tuyg‘ularning og‘riqli nuqtalarini birdek yuksak mahorat bilan yoritib berganlarini kuzatamiz. Ularni tom ma’noda inson ruhiyatining bilimdoni, psixolog-yozuvchi deb atashimiz mumkin. Barchamizga ma’lumki, badiiy asardagi mavzu va g‘oya, obraz va xarakter, syujet va kompozisiya, badiiy til va uslub, tur va janr kabi vositalar asarning mukammalligini, badiiyligini ta’minlashga xizmat qiladigan asosiy unsurlar sanaladi. Bunda muallifning mahorati, asarda nazarda tutilgan g‘oyaviy konsepsiyaning muhimligi, yozuvchi qo‘llayotgan uslub va badiiy mahorat borasidagi qarashlar ham ahamiyatli ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Kimsan va Tursunboy obrazlari ikki asardagi bir-birini inkor qiluvchi obrazlardir. Ya’ni biri qahramon, biri qochoq. Vaholanki, har ikkisi bir zamon va bir makonda katta bo‘lgan va bir xil og‘ir vaziyatga tushgan. Lekin nega ikki xil yo‘ldan borishdi? Tursunboyning qochqinlikni tanlashiga sabab qo‘rqoqlikmidi?

Asar nomi	UFQ. ”Qochoq”	“Ikki eshik orasi.
Muammo: Bemavrid boshlangan urush insonlarni nafaqt moddiy qiyinchiliklar, balki ma’naviy sinovlar bilan ham imtihon qildi. Kimlar bu imtihondan o‘tdi? Kimlar o‘tmadi? Sabab va oqibatlar haqida		
Qiyosga olingan qahramon	Tursunboy	Kimsan
2. Yo‘ldoshev Shohruhbek Zokirjon o‘g’li “Ta’limda axborot xavfsizligiga sun’iy intellektning ta’siri”.

3. Salohiddinov Muhammadumar Otabek o‘g’li “Sun’iy intellektning jamiyatga ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ta’siri”.

4. Olimova Feruza Karimjonovna “Ta’lim-tarbiya jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishning afvzalliklari va ahamiyati”.

5. Yo‘ldosheva Gulhayo Valiqulovna “Oliy ta’lim muassalarida sun’iy intellekt – uning ijobiy va salbiy jihatlari”.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY ASAR TILI VA BADIIY NUTQ USLUBI

Jo‘rayev Umid Raximjonovich,
“Time 180” NTM o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy asar tili va uslubi masalalari, badiiy nutq uslubi, asar tiliga munosabat, badiiy asarda syujetning yaratilishi, badiiy ifoda vositalari, asar tarkibidagi so’zlar hamda iboralar tasviri haqida bayon qilingan. Shu bilan bir qatorda, badiiy asar tilini ifodalashning o’ziga xos xususiyatlari hamda badiiy matnda tashqi tuyg’u va tasvirning ifodalanishi namoyon etilgan. Badiiy asar tlini o’rganishda muallif nutqi va personajlar nutqining o’zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolari tahlil qilingan. Kalit so’zlar: badiiy asar tili, badiiy nutq uslubi, janr va uslub, syujet.

LANGUAGE OF LITERATURE AND ARTISTIC SPEECH IN LITERATURE

ABSTRACT

The article describes the language and style of a work of literature, the style of artistic speech, attitude to language, creation of a plot in a work of art, means of artistic expression, the description of words and phrases in a work. At the same time, the features of the expression of the language of a work, as well as the expression of external feelings and images in a literary text are shown. The study of the language of the work analyzes the interrelationships between the author's

speech and the speech of the characters, the central problems of the style of artistic speech.

Keywords: the language of fiction, the style of artistic speech, the genre and style, the plot

KIRISH

Badiiy asar tiliga munosabat, uni badiiy-uslubiy jihatdan o’rganish uzoq tarixga ega. Biroq unga jiddiy e’tibor XX asrning 30-yillarida ancha kuchaydi. Jahon va rus adabiyotshinosligida, keyinroq o’zbek adabiyotshunosligida bajarilgan ko’pgina tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. Akademik V.Vinogradov: “Badiiy adabiyot tilini tadqiq qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslikka yaqin, biroq ularning har ikkisidan ajralib turuvchi maxsus filologik fanning tekshirish ob’yekti bo’lishi lozim”,-deb ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Umuman, adabiyotshunoslikda janr va uslub eng murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ana shu ma’noda badiiy asar tilining ta’sirchanligi, ohangdorligi masalasini o’rganish adabiyotshunioslik fanining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Badiiy asar tili bilan shug’ullanish XIX asrda boshlangan edi. Masalan, italyan tilshunosi Banedetto Krochening fikricha, estetik kategoriyalar individual bo’lganidek, badiiy asar tili bilan bog’liq lingvistik kategoriyalar ham individuallik kasb etadi. Chunki badiiy asar individual shaxs (yozuvchi, shoir yoki dramaturg)ning o’z nutqiy faoliyati mahsulidir. Badiiy asarda til o’zining insonlar orasida aloqa quroli vazifasini to’la saqlagan holda o’zining ekspressiv funksiyasini namoyon etadi. Badiiy til umumxalq tili va adabiy til bilan o’zaro munosabatda bo’lsa-da, farqli tomonlarga ham egadir.2 Til badiiy - adabiyotning birinchi elementi, obraz yaratishdagi asosiy quroli sanaladi. Badiiy asarda muallif nutqi va bayonchi nutqi o’ziga xos xususiyatlarga egadir. Personajlar nutqini tipiklashtirish va individuallashtirishning badiiy asarda o’ziga xos mezonlari va tamoyillari mavjud. Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so’zning shakl hamda ma’no munosabatiga ko’ra turlari badiiy asarlarda muhim uslubiy funkiyalarga egadir. Umuman olganda, adabiy til taraqqiyotida mashhur, talantli yozuvchilarning alohida o’rni bor. Badiiy asar tili va uslubi masalalari deb nomlangan tanlanma fanda ana shu muammolar xususida fikr yuritiladi, filolog talabalarga badiiy asar tili xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko’nikmalarini singdirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu tanlanma fan badiiy asarning g’oyaviy-estetik qiymatini belgilashda til vositalarining o’rni va ularni o’rganish usullari haqida talabalarga ixcham va asosli ma’lumotlar beradi. Shubhasiz, badiiy asarda kompozitsiya u yoki bu ijodiy ishning ketma-ketligini, mantiqiy davomiyligini

tartibga keltiruvchi asosiy belgilardan biridir. Kompozitsiya lotin tilidan olingan bo’lib, compositio ijod, asar degan ma’noga ega. Kompozitsia har qanday badiiy asarning asosiy qismlaridan biri bo’lib, ijod mahsuliga yagona birlik va umumiylikni taqdim etadi, uning elementlarini bir-biriga mos kelishini ta’minlaydi. Badiiy klassik adabiyotda eng ko’p tarqalgan kompozitsion tur bu rivojlanish (oshib borish, o’sish) kompozitsiasi hisoblanadi, u bir nechta murakkab jarayonlarni o’z ichiga oladigan komponentlardan iboratdir. Syujet (fransuzcha - sujet predmet, mazmun) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, aniq voqealar tizmasida namoyon bo`ladigan harakatlar tarixidir. Badiiy asar tarkibida so’zlar hamda iboralar sehrli va maftunkor raqqosalarga o’xshaydi, degan edi mashhur rus yozuvchisi M.Prishvin. So’zlar va iboralardagi ana shunday xususiyatni to’g’ri anglash va ularning estetik qimmatini haqqoniy izohlash maqsadida “Badiiy asar tili va uslubi masalalari” tanlanma fani oliy o’quv yurtlari o’zbek filologiyasi fakulteti o’quv dasturiga kiritilgan.3 Epistolyar adabiyotda so’z va gaplar obraz, manzara yaratishning o’ziga xos libosi, materialidir. Talantli yozuvchilarning qalami sehri ostida so’zlar hayotdagi narsa va hodisalarni inson ongida aniq tiklaydigan, gavdalantiradigan vositadir. Badiiy nutq faqat ko’chma ma’nodagi so’zlarning qo’llanilishidan iborat matn bo’lmay, majoziy vositalar badiiy nutqning o’ziga xos yordamchi vositasidir. Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalarning obrazlar xatti-harakatini, ularning boshqa obrazlar bilan munosabatini ko’rsatishdagi roli hisoblanadi . Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iborat matndir. Muallif nutqi va personajlar nutqining o’zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolaridan biridir. Ayniqsa, badiiy asar tilini o’rganishda va uni tahlil qilishda yozuvchining yoki maktub egasining so’zga munosabati, so’z tanlash, so’z qo’llashdagi mahorati muhim ekanligini, til vositalarini, so’zlarni ishlatishda uning o’ziga xos uslubi, mahorati namoyon bo’lishini akademik V.Vinogradov “Badiiy asar tilini tahlil qilish asar goyasi bilan bog’liq hissiy mazmunni ifoda etuvchi lingvistik vositalarni ko’rsatib berishdir”,–deyar ekan, u to’la haqlidir.

Badiiy asarda syujetning yaratilishini g’oyaviy mazmun boshqaradi, g’oyaviy mazmunning talabiga uyg’un holda xarakterlar namoyon bo’ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi. Voqealar silsilasi o’z navbatida asar g’oyasini badiiylashtiradi, uni tiriltiradi. Syujet obrazlarning o’zaro aloqalari, ular o’rtasidan qarama-qarshiliklar, simpatiyalar va antipatiyalar ekan, demak, u hayot ziddiyatlarini ham ixtiro qiladi, umumlashtiradi, kashf etadi. hayotiy ziddiyatlar asarga ifoda etilgan g’oyalar, tasvirlangan xarakterlar, kayfiyatlar kurashi tarzida ko’chadi va u konflikt deb yuritiladi. Badiiy

asar tili- obrazli til. Yozuvchi o’z asarida bir qancha yo’llar bilan tilning obrazligiga, tasiriyligiga erishadi. Shulardan biri maxsus badiiy tasviriy vositalarini, maxsus leksik pesurslarni, poetik figuralarni, so’z o’yinlarini mohirona qo’llash yo’li bilan asar tilining obrazliligiga erishishdir. Badiiy asar tilining poeyikligi, obrazliligi, tasviriyligi asar g’oyasini, shuningdek qahramon xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi.5 Badiiy asar tili ko’plab o’xshatish va tasviriy vositalarga boy bo’ladi va his tuyg’uga to’la bo’ladi, ilmiy asar tili esa teskarisi. Unda aytilayotgan fikr jo’n, sodda, hech qanday odamni to’lqinlantiradigan so’z tasviri ishlatilmaydi. Badiiy asar tilining asosiy maqsadi go’zallik qonuniyatlariga muvofiq dunyoni rivojlantirish, badiiy asar muallifining ham, o’quvchining ham estetik ehtiyojlarini qondirish, badiiy tasvirlar yordamida o’quvchiga estetik ta’sir ko’rsatishdir. Umuman badiiy adabiyot tilining xususiyatlari bir necha omillar bilan belgilanadi. U keng metafora bilan ajralib turadi, deyarli barcha darajadagi til birliklarining obrazliligi, barcha turdagi sinonimlardan foydalanish, polememiya, so’z boyligining turli uslublari kuzatiladi.

XULOSA

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlarning o’zi ham ko’rsatib turibtiki, badiiy asar tiliga munosabat, uni jiddiy o’rganish yoki epistolyar texnikaning badiiy xususiyatlarini tahlil etish olimlarning doim e’tiborida bo’lgan. Chunki badiiy adabiyotni, uning til xususiyatlarini o’rganmay turib asar g’oyasi va mazmunini yaxlit holda chuqur idrok etish mumkin emas. Badiiy asar tilini o’rganish va tahlil qilish rus va o’zbek tilshunosligida, shu jumladan, jahon tilshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilganligini ta’kidlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Виноградов В. О языке художественной литературы.-М.: Гостехиздат, 1957.-С.4

2. Yo'ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.88.

3. Doniyorov X, Yo’ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan. 1988. B.71.

4. Виноградов В. О теории художественной речи. –М., 1971. –С. 105-211.

ASHURALI ZOHIRIY PUBLISTISTIKASINING YETAKCHI MAVZULARI

Javharova Nilufar Odiljon qizi,
Qo‘qon universiteti mutaxassisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvari va publitsist Ashurali Zohiriyning publitsistik merosida yetakchi o‘rin tutgan mavzular tahlil qilinadi. Muallifning matbuotdagi chiqishlarida milliy ma’rifat, ta’lim-tarbiya, ona tili va imlo masalalari, milliy o‘zlikni anglash, jamiyat taraqqiyoti hamda yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq g‘oyalar yoritilgan. Shuningdek, Zohiriyning publitsistik faoliyati orqali xalq ongini uyg‘otish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan qarashlari ochib beriladi. Maqolada uning publitsistik asarlari pedagogik va ma’rifiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, bugungi ta’lim va tarbiya jarayonlari uchun ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Ashurali Zohiriy, publitsistika, jadidchilik, ma’rifat, ta’lim-tarbiya, ona tili, imlo, milliy o‘zlik, matbuot, pedagogik qarashlar.

Abstract. This article analyzes the leading themes reflected in the journalistic heritage of the Jadid enlightener and publicist Ashurali Zohiriy. Particular attention is paid to the ideas of national enlightenment, education and upbringing, native language and orthography, national identity, social development, and youth education presented in his journalistic writings. The study also reveals Zohiriy’s views aimed at raising public awareness and promoting the development of science and culture through his publicistic activities. His journalistic works are examined from pedagogical and educational perspectives, and their significance for contemporary educational and upbringing processes is substantiated.

Keywords: Ashurali Zohiriy, journalism, Jadidism, enlightenment, education and upbringing, native language, orthography, national identity, press, pedagogical views.

Ashurali Zohiriy publististikasida millatparvarlik va o‘zbek tili taqdiri masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Jumladan “Farg‘ona’’ gazetasining 1923-yildagi 7 ta sonida Turkistondagi vaqf ishlari, suv inshootlarining holati, maorif va xalq ta’limining ayanchli ahvoli haqida maqolalar e’lon qiladi. Xususan, “Farg‘ona’’ gazetasining 1923-yil 16-noyabrdagi 119-sonida Zohiriy “Biznikilar qachon vazifasini anglarlar’’ nomli maqolasini e’lon qiladi. Ushbu maqola gazetaning 1-sahifasida chop etiladi.

“Olti yilliq inqilob davri bizga ko‘p narsalarni o‘rgatdi, ko‘p tajribalar berdi, ko‘p kamchiliklarimizni ochib berib, u kamchiliklarni to‘ldirmoqqa yo‘llar ko‘rsatdi.

Lekin bizga nima sababdandur hech tebranmaymiz, kamchiliklarni to‘ldirmoqqa qimirlamaymiz. Borg‘on sari ilmiy madaniy ishlarimiz ora yo‘lda qolmoqda. Xalq uchun xudoyi (bepul) ishlash, kishi ishiga saratonda qo‘l sovutubdur, degandek hech kimning hayol va dimog‘ida yo‘q bir ikki marotaba nashri maorif jamiyati tuzuldi shu kuyicha qolib ketdi. Maskov, Peterburg, Toshkanddagi talabalardan “yordam” deb o‘tinchlar, murojaatnomalar kelmakda, ularning oh va dodini eshitib biror narsa yuborish uyoqda tursin, ko‘nglini ko‘tarish tuyg‘udek xat yozadurg‘on bir maxluq yo‘q.

Farg‘onada birdan bir chiqib turgan “Farg‘ona” gazetasiga ko‘zga ko‘rinib turgan ko‘p kishilarni vakil, muxbir tayin qildiq. Shundan ba’zi birlari vazifalarini o‘taganlari holda boshqalarining parvoyilariga ham kelmaydi. Mahallalarda mazkur turli turli voqea va hodisalar bo‘lib tursa ham “qo‘l sansabitka ichida, bosh bo‘lsa telpak ostida” degandek, jimjitgina turadur.

Bilmadik bu yurgan kishilar butun muassasalarda stol orqasida oldiga davot qalam qo‘yib o‘tirgan “musulmon ishchilari” olti soat ish vaqtini bitirganlaridan keyin nima qilar ekanlar.

Bizning xox mas’ul va g‘ayri mas’ul ishchilarimiz vax ox o‘z ishida yurgan ongligina yigitlarimiz barisi barisi o‘zi bilan ovora balki to‘g‘risini aytganda: ovoragina emas hissiz shu’ursizdurlar, xalq foydasi xalq xizmati va unga yordam degan gapni bilmaydur.

Bu nimadan?

Bu muhitning ta’siridan, ibtidoiy tarbiyaning yo‘qlig‘i, insoniyatparvarlik oliyjanoblikning yo‘qligidandur.

Biz mutlaqan bu odatimizni yuqotishimiz kerak yo‘q esa, ilmiy va madaniy ishlarimiz hech vaqtda ilgari ketmas. Yana sarsonlik, yana yillarcha ezilish, boshqalar ta’siri ostida yanchilish turgan gap.

Buni endi har nafas o‘ylab, shunga qarab harakat, shunga qarab talpinish kerak. Agar har kim o‘zining mahkamasidagi ishni, xususiy kishilar o‘zining ishinigina to‘g‘rilab yuraversa va boshqa ishga aralashmasa umumiy xalq jamoat ishlarini kim to‘g‘rilaydur?

Holbuki bundoq umumiy ishlarni har bir umumiy xalqni vatanini suygan kishi, o‘z ishidan muqaddam ko‘rish va undan ilgari qilishi lozimdur. Lekin bizning mas’ul ishchilarimiz xususan Qo‘qond ishchilarimizning (faqat “Farg‘ona” gazetasidan emas) gazeta olamidan hech xabarlari va hech aloqalari yo‘q desak

mumkin. Gazetani ta’qib etish, loqal shu gazeta matbuot vositasi bilanda ma’lumotlarining kengayishi aqllarin o‘sdirmoqni tilamaydurlar.

Gazetaning 100 ta sonida o‘rtoq Segizboyef tarafidan bir necha ma’lum kishilar gazeta mushtariyligiga chiqarilg‘on edi. Endi ikkiyarim oylar bo‘ldi. O‘sha kishilardan hech birisi idoraga qadam qo‘yg‘oni yo‘q.

Mana, boshqa ishlarga ham qarashlari shundoq! Endi, biznikilarga nima desa bo‘lur?’’[89]

Yuqorida keltirilgan maqolada Ashurali Zohiriyning millat va yurt qayg‘usi o‘z ifodasini topgan.

Beparvolik, loqaydlik tufayli jaholat botqog‘iga botgan Turkistonni faqat va faqat ilm, ma’rifat, mehnatkashlik ushbu botqoqdan chiqarishini aytib o‘tadi. Zamondoshlarining loqaydligi, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashmasligi Ashurali Zohiriy dilini abgor qiladi. Agar har bir inson, har bir turkistonlik o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashsa, o‘z ishini faqatgina o‘zi uchun emas millat uchun, xalq uchun qilsagina jamiyatda o‘zgarish, o‘sish kuzatiladi deb aytadi. 1917-yildan boshlab 1923-yil gacha bo‘lgan 6 yillik davr bizga ko‘p narsalarni o‘rgatdi deb aytadi. Bu o‘rinda Zohiriy faqatgina jamiyatdagi agor holatinigina emas, balki 6 yillik inqilob davri deb aytganda sobiq sovet tuzimining xalqqa nisbatan adolatsiz munosabatiga ham ishora qilib o‘tadi.

“Farg‘ona’’ gazetasining 1923-yildagi 10-mart 63-sonida Ashurali Zohiriyning “Turkistonda suv ishlari’’ nomli maqolasi chop etiladi. Ma’lumki Turkiston o‘lkasi aholisi qadimdan dehqonchilik, ziroatchilik hamda chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan. Bu o‘lkaning hayotida suv, suv inshootlari muhim o’rin tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xonliklarning o‘zaro ichki urushlari hamda boshboshdoqliklar natijasida sug‘orish inshootlari abgor ahvolga tushdi. Buning natijasida xalqning turmush sharoiti yanada og‘irlashib boradi. Ushbu manzaralarni o‘t ko‘zi bilan ko‘rgan Ashurali Zohiriy xalqning og‘ir hayotidan qayg‘uradi va hukumat vakillarini Turkistondagi suv inshootlarini tuzatishga chaqiradi.

“Turkistonning o‘lgan xo‘jalig‘ini tuzatmoq uchun “yosh bolag‘a sut” degan yeriga suv lozimdir. Turkistonning bosmachilig‘i bitganda, ish … yetarlik bo‘lg‘onda, qisqasi: dehqonchiliq uchun kerak bo‘lg‘on barcha sharoit bo‘lg‘anda va qiling‘onda suv bo‘lmasa barisi bekor ketadir.

Butun Russiyani to‘ydirib, ozig‘i yevrupo davlatlariga ham oziq berib butun Russiya tuprog‘i 21-yilda ochliqqa uchrab odam …. chiqdi.

U yerlar osmon suvi yomg‘ir bilan sug‘oriladirg‘on joylarda edi. Ariq suvi bilan sug‘oriladirgan Turkiston (Farg‘ona)da ham 17-yilda suvning bo‘lmaganidan

[89] Ashurali Zohiriy. Biznikilar vazifasini qachon anglarlar. Farg‘ona, 1923.

ochliqqa uchradi. Bu ochliqlar ilgarilari ham bo‘lib, hammasining sababi: suvsizliq, suv yeratlik darajada bo‘lmaganligidir.

Shuning uchun: “yer-suv” deb, so‘zi birga keltiriladir. Turkistonda yer sug‘orish ishi, Russiya arig‘i bilan. Yomg‘ir suvi bilan sug‘oriladirgan yerlari oz edi ham paxta ham meva hosiloti, albatta ariq suvi bo‘lishi, ham u mo‘l bo‘lishi kerak.

Turkistonning ko‘p yeri ariq suvi bilan sug‘oriladirgan bo‘lsa ham, ba’zi bir muzofotlar orasida katta farq bor. Aytaylik: Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona muzofotlarini.

Sirdaryo muzofoti Chichiq, Ohangaron ham Sirdaryi jilg‘alaridan sug‘oriladir. Samarqand muzofotining yerlari Zarafshon va uning tarmoqlaridan sug‘oriladir. Bu daryodan katta ariqlar bilan olib ketgan, bularda hamma vaqt suv mo‘l xatto, bor bo‘yicha bo‘shalmoq qurub yuborilsa, hamma yoqni suv bosib ketmasin deb, daryodan olg‘on tarmoqlarining boshini berkitib, to‘g‘onlab turadirlar. Shuning uchun u muzofotlar (Sirdaryo va Samarqand) suvga hamma vaqt mo‘l, hech vaqt suvsizliqga uchramagandir.

Farg‘ona muzofoti bo‘lsa butun boshqacha, bu muzofotning o‘rtasidan Sirdaryo yorib o‘tsa ham, eng pastlik oralig‘idan o‘tganidan Farg‘ona yerlari Sirdaryodan sug‘orilmaydur va undan foydalanmaydir.

Farg‘onaning ekinzor yerlarini, Farg‘onaning ikki yoqini (shimol va janubi) dan qizib olgan muz tog‘laridan ayirib tushgan muz va qor suvlari sug‘oriladir.

Bu tog‘lardan suv tushadirg‘on bir necha ulug‘ nahrlar bordir. U nahrlar tog‘ orasidan tekislikga chiqishi bilan o‘z rayoniga qarab: volost, jamoa ham qishloqlarg‘a katta, kichik ariqlar bilan bo‘linadir.

Daryo barobaridagi katta suv, yuqoridan pastga o‘ynog‘lab, nishabga chiqishi bilan katta, kichik mayda chuyda arig‘larg‘a indamay bo‘linib ketavermasdan arig‘i yo‘q bir tarafga yoki bir necha arig‘lari bitta qilinib bosin, ariq boshiga ishlangan taqsim qiladirgan quvirlarini qora va to‘g‘onlarini qaramasdan jinnilik bilan hammasini buzib, teptekis qilib bir yoqqa soldiradi-da ketadi.

Mana endi ushlab oling qaytarib oling! Osonliq bilan qaytmaydi. Osonli bilan sizning u bolalar o‘yini singari (shu qatoridagi yozuvni o‘qib bo‘lmadi) yangi, chunqayma, turong‘i, ko‘p do‘ppi va makzo qishlaringiz arig‘iga tushib ketavermaydi.

U tabiyatning eng zo‘r o‘rdusi joni. Uning bilan hazillashib bo‘lmaydi. Uni o‘z yo‘lingizga kirgizmoq uchun uning bilan jiddiy suratda so‘zlashish kerak.

Mana shundoq suv ishlari inqilob boshidan beri qaralmag‘on. Bir cho‘kulga aylanib ekinzor ko‘p yerlar cho‘lga aylanib ketadir. Shurolar hukumati Farg‘ona dehqonchilig‘ini avvalgi holiga qaytarib suv hollarini e’tiborga olib to‘ldirib,

paxtachilikni taraqqiy ettirmoq bo‘lg‘onidan va buning uchun lozim bo‘lg‘on narsalarning chorasiga kirishganda, hammasining boshlig‘i etib Farg‘onaning suv ishlarini tuzatishni oldinga surdi, ham suv ishlarini tuzatish uchun 11.220 so‘m pul belgilab, mundan hozirgi 6.000 so‘m pul tilla hisobi bilan berdi. Mahallarda ishlar boshlang‘on.

Farg‘ona paxtasi qancha ahamiyatga molik bo‘lsa, u paxtaning ozig‘i emadurg‘on suti bo‘lg‘on suvi ham shuncha ahamiyatga molikdir”[90].

Chindan ham 1917- yilda Turkistonda yuz berga ocharchilik oddiy xalq boshiga mislsiz kulfatlarni solgan edi. Bir tomondan Podsho Rossiyasining Birinchi jahon urushiga bor budini safarbar qilishi, ketma-ket mag‘lubiyatlari aholining shundoq ham og‘ir bo‘lgan ahvolini yanada murakkablashtirib yuborgan edi. Sovet hukumati mustamlaka o‘lkalardan faqatgina xomashyo talab qilishnigina bilgan, yetishtirilayotgan hosil uchun zarur bo‘lgan inshootlarning moddiy-texnik bazasi esa eski ahvolidagiligicha qolavergan. Insonlarning suv talashib janjal qilishlari, hattoki bir-birini o‘ldirishgacha borgan holatlari bo‘lgan. O‘z millatdoshlarining bunday ayanchli holatlariga guvoh bo‘lgan Ashurali Zohiriy hukumatni mazkur dolzarb masalaga e’tibor qaratishiga chaqiradi.

Jadid marifatchilari ilmning kuchiga alohida e’tibor berganlar. Ilm Turkistonni yuksaltiruvchi birdan-bir najot yo‘li ekanligini anglaganlar. Shuning uchun ham xalq ta’limiga, maorifga alohida e’tibor bilan qaraganlar. Jumladan, Turkistonda dastlabki jadid maktablari XIX asr oxirida shakllana boshladi. Birinchi jadid maktabi 1893- yil Buxoroda tashkil etilgan. Keyinchalik, 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, 1899-yilda Andijonda Mulla Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon Qori jadid maktablariga asos solgan. Keyinchalik Turkistonda rus-tuzem maktablari joriy qilindi. Jadid maktablari ko‘p hollarda mustabid tuzum tomonidan yopib qo‘yilar edi.

Mehnatkash xalq esa o‘z farzandini rus-tuzem maktabiga berishga qo‘rqar edilar. Ashurali Zohiriy vatandoshlariga qarata maktabning eski yoki yangi ko‘rinishda bo‘lishi muhim emas, maktabning bo‘lgani muhim deydi. Maqolalarida albatta bolalar o‘qishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Ma’lumki XX asr boshlarida Germaniya, Turkiya singari ilg‘or mamlakatlarga o‘qish uchun talaba-yoshlar yuborilgan. Jadid ma’rifatparvarlari xususan, Ashurali Zohiriy ana shu yoshlarga alohida bir najot bilan qaragan, ularni Turkistonni taraqqiy etgan millatlar qatoriga ko‘taruvchi yangi bilimlar egasi sifatida ko‘rgan. Ular ishlarni tugatib Turkistonga qaytgach, o‘rgangan sohalari bo‘yicha albatta yoshlarga saboq beradi, deb ishongan. Ularni o‘z uylaridan, onasining shirin so‘zlaridan kechib, mashaqqat bilan millat uchun olgan ta’limlari albatta xalq uchun xizmat qilishiga

[90] Ashurali Zohiriyning “Turkistonda suv ishlari’’. Farg‘ona. 1923

ishongan va bu to‘g‘risida “Farg‘ona’’ gazetasida alohida maqola e’lon qiladi. Mazkur maqola “Nashri madaniyat va maorif jamiyatlari’’ nomi bilan “Farg‘ona” gazetasining 1923-yil 17-maydagi 73-sonida bosilib chiqadi.

“Yaqindan buyoq Turkiston o‘lkasining butun muzofotlarinda, uyezdlarida “nashri maorif jamiyatlari” ochildi va ba’zi o‘rinlarda (Ho‘qandda) endigina ochilmoqda. Xatto bu to‘g‘rida bir vaqtlar ichki Russiya musulmonlari orasida bo‘lg‘on va ko‘p zamonlarg‘acha cho‘zilg‘on: “Maktabmi, ishkolami?” degan manzaralar singari munda ham “nashri maorifmi, ko‘makmi?” bo‘lsin degan munozaralar bo‘lmoqda.

Mayli qaysi bo‘lsa bo‘lsin. U to‘g‘ridagi fikrlarimizni aytmoqsan ilgari shuni aytmoqchimiz: albatta bundoq uyushmalaring bo‘lishi madaniyat asari bo‘lishi bilan barobar, yoki qadam qo‘ymoq harakatida bo‘lg‘on millatlar, mamlakatlar, o‘lkalarda bo‘lur. Yoxud madaniyatli mamlakatda bo‘lubda davlat byudjeti xalq maorifi va xalq madaniyatining musorifiga qoplaroq darajasida bo‘lmag‘onda bo‘lur.

Bizda ilgari ham mavjud. Bizning Russiya jamohir mathadasi va uning bir parchasi bo‘lg‘on Turkiston o‘lkasi madaniyatli mamlakatlarga qiyosan juda pastda va shu pastdaligi sababli (bavujud boshqalarg‘a qarag‘anda madaniyat va maorif zarur bo‘laturubda) xalq maorifini keragincha va turli yerlardagi bir ikki yuz talabalarimizni ta’min eta olmaymiz, hollarin yaxshilata olmaymiz.

Aslida gap unda ham emas. Ularning hollarin ta’min etsak ham etmasak ham ular o‘qishlarin davom etadurlar. Ular: suv bo‘lsa simirib, tosh bo‘lsa kemirib degandek o‘qurlar. Ular otasining issiq uylarin, onasining shirin shirin so‘zlarin tashlab faqat o‘qishga, maorifga berilib uzoqlarga ketgan umid yulduzlarimizdirlar. Lekin, omma ko‘pchilikni allalab yotgan xalq qorong‘ulikda, atroflarin oq boshli, ola choponli qarg‘alar ta’sib pardasi o‘rab olg‘on. Agar ularni shu ahvolicha qo‘yabersak, bu kungi keraklisi bilan ertagisini aytmasak, yoki ular qul bo‘lib yashamoqqa, mahkum bo‘lsa ham shu ketishdan berilmas va ayrilgusi ham kelmas, mana biz bularni o‘qitishimiz madaniyat bilan tanishtirishimiz, kishilik dunyosiga chiqarishimiz shuning bilan barobar yuqoridagi qahramon o‘qug‘uchilarimizning adadlarin kundan kun, oydan oy o‘stirishimiz kerak.

Shuning uchun bizga bir necha “ko‘mak” bir necha “nashri maorif” va shu yo‘lda tag‘in allanecha allanimalar bo‘lsa ham oz.

Shurolar hukumati oktyabr inqilobining boshida naq ilm morif va madaniyatga keng yo‘l ochdi. Mumkin qadar maktablar ochdi. Lekin bir daraja kengayib bormoqda bo‘lg‘on maktab va maorif ishlari, moliya ishlarining chig‘iridan chiqishi sababli yangi iqtisodiy siyosatning maydonga qo‘yilishi soyasida, yo‘lga qo‘yilib yetmagan mahalliy sarmoyaning ta’miniga ko‘p

narsaning bog‘lanishi va shu jumladan maktablar ta’mini ham unga bog‘lanishi orqasida gullab kelayotgan maktab va xalq maorifining sayog‘i so‘lidi.

Bu hol muvaqqat bir narsa, moliya ishlarimiz tuzalganicha, moliya ishlarimiz tuzalar. Mahalliy sarmoyaning kirim chiqimlari yo‘lga solinar. U vaqt maorif ishlarimiz ham inqilobning boshidagidek taraqqiylab ketadir. Ul vaqt “ko‘mak”ning ham boshqasining ham lozumi qolmas. Lekin biz ungacha bu jaholat, qorong‘uliq frontidan bo‘shatmasligimiz, pozitsiyamizni mahkamlashimiz kerak.

“Mahkamlashimiz kerak” degan so‘z “ko‘mak” “nashri maorif” “o‘qig‘uchilarimizg‘a yordam jamiyati” va boshqa shuningdek jamiyatlarimizning bo‘lishi demakdir.

So‘z kelganda shuni ham aytib o‘tmoq kerak: o‘tgan yil arkazning tasdiqi bilan “ko‘mak” ismida o‘qig‘uchilarg‘a yordam uyushmasi ochildi. U uyushma ismidan moziylari qorong‘u bir necha kishilar o‘llarig‘a mandate quvvati bilan Turkiston o‘lkasining butun past balandini aylanib, bir necha o‘n milliardgacha pul va mollar yig‘ildi. U yig‘ilgan narsalar to‘g‘ri yo‘l bilan sarf qiling‘on bo‘lsa edi. Musofaratda tahsilda bo‘lg‘on talabalarimiz xiligina ko‘kraklain ko‘tarib olar edilar. Lekin yaxshi niyat bilan barpo bo‘lga bu uyushmaning yig‘ilgan narsalari “yomon niyatlar”g‘a qurbon bo‘ldi.

U iyonalar ko‘p kishilarning savdogarchiligiga solib oyog‘in oltita va ko‘plarinikini to‘rtta qilib qo‘ydi. Ulardan hisob oladurg‘on hech bir zot yo‘q. u “zoti sharif”larning o‘zlari matbuot sahifalarida hisob bermoqqa vijdonan majbur bo‘lsalar ham, tanzil etmadilar.

Shu tariqa u iyonalar qumg‘a singigan suvdek bo‘ldida ketdi. Ishlarning bu kifida bo‘lishi yangi boshlanayotgan ezgu ko‘p ishlarimizning rivojlanmaslig‘ig‘a va xalqimizning undoq uyushma va jamiyatlarg‘a sovuq qarashiga sabab bo‘ladur.

Endi bir karra pishshiq bo‘ldik, bu ochlig‘on va ochiladurg‘on “nashri maorif jamiyatlarimizda” xalq tarafidan saylangan hay’at idora va taftish hay’atlari bo‘lur. Xalqning peshona terisi bilan topilib, yaxshi niyat bilan iyona qiling‘on aqchaning har bir tiyini bejo yerga ketmasligiga ishonamiz.’’[91]

Ma’lumki, yoshlarni chet davlatlarda o‘qitish uchun aholidan pul yig‘ilgan. Xalq yetuk mutaxassislarning Turkistonning o‘zidan yetishib chiqishi uchun bor kuchi bilan harakat qilgan. Ashurali Zohiriy ushbu o‘rinda ilmning naqadar muhim ekanligini ta’kidlash bilan bir qatorda, xorijga ketgan yoshlarga nasihat ham

[91] Ashurali Zohiriy “Farg‘ona” gazetasining 1923-yil 17-maydagi 73-soni

qilgandek bo‘ladi. Mashaqqat bilan topilgan xalq puli albatta ilmga safarbar etilishi va kelgusida o‘z natijasini ko‘rsatishi lozimligi aytib o‘tiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ashurali Zohiriyning milliy matbuotimiz hamda o‘zbek jurnalistikasi taraqqiyotidagi o‘rni beqiyosdir. Ashurali Zohiriy “Farg‘ona’’ gazetasining har bir sonida maqola bilan qatnashgan. Har bir maqolasida xalq turmushining eng mayda jabhalarigacha e’tibor qaratgan, imkon qadar oddiy xalq turmushini yengillashtiruvchi mavzularga murojaat qilgan. Uning maqolalaridagi erkinlik, ma’rifat, madaniyat, o‘z haqqini tanish, hurlik, ilm ahlini ulug‘lash singari g‘oyalar o‘z davrida millatni jaholatdan olib chiqishgda qanchalik muhim bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shu qadar ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashurali Zohiriy. Biznikilar vazifasini qachon anglarlar. Farg‘ona, 1923
2. Ashurali Zohiriyning “Turkistonda suv ishlari’’. Farg‘ona. 1923.
3. Ashurali Zohiriy “Farg‘ona” gazetasining 1923-yil 17-maydagi 73-soni.
4. Qo‘qon shahar O‘lkashunoslik muzeyi fondida saqlanayotgan “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining 1914-yil 3-soni
5. Zohiriy A. O‘tganlarga bir qarash, Farg;ona, 1923-yil, 100-son
6. “Farg‘ona’’ gazetasi, xizmat qahramoni, 1923-yil 100-son.
7. Ashurali Zohiriy. Biznikilar vazifasini qachon anglarlar. Farg‘ona, 1923.

MUHIDDIN OMON SHE’RIYATIDA ESTETIK IDEAL VA BAXT KONSEPSIYASINING BADIIY-FALSAFIY TALQINI

Gulnoza Ziyouddinova,
Mustaqil izlanuvchi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek shoiri Muhiddin Omon ijodida estetik idealning badiiy ifodasi hamda baxt konsepsiyasining falsafiy talqini tahlil qilinadi. Maqolada estetik ideal tushunchasining nazariy asoslari Aristotel, Platon, I.Vinkelman va G.Lessing qarashlari asosida yoritiladi. Shoirning “Har narsa foniydir, yo‘qlikning xasmi” va “Hayot hamma uchun chigal, murakkab” misralari bilan boshlanuvchi she’rlari misolida fano va baqo, umrning o‘tkinchiligi, haqiqatga sadoqat hamda baxtni o‘z qo‘li bilan yaratish g‘oyalari tahlil etiladi.Lirik qahramon obrazida estetik idealning namoyon bo‘lishi, falsafiy mushohada bilan badiiy tasvirning uyg‘unligi hamda fizik hodisalarning falsafiy talqinga aylanishidagi shoir mahorati ko‘rsatib berildi. Maqolada baxt nafaqat hayotiy hikmat, balki shaxsning faol ekzistensial pozitsiyasi va ongli tanlovi mahsuli sifatida ilmiy-falsafiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: estetik ideal, badiiy ideal, Muhiddin Omon, lirik qahramon, baxt konsepsiyasi, fano va baqo, falsafiy lirika, subyektiv farovonlik, haqiqat, introspeksiya.

Abstract. This article analyses the artistic expression of the aesthetic ideal and the philosophical interpretation of the concept of happiness in the work of the contemporary Uzbek poet Muhiddin Omon. The theoretical foundations of the aesthetic ideal are examined through the views of Aristotle, Plato, J.J. Winckelmann and G.E. Lessing. Drawing on the poems beginning with the lines “Everything is mortal, a companion of nothingness” and “Life is tangled and complex for everyone”, the study explores the ideas of mortality and eternity, the transience of life, fidelity to truth, and the notion of creating one’s own happiness. The author demonstrates how the aesthetic ideal is embodied in the image of the lyrical hero, how philosophical reflection merges with artistic depiction, and how physical phenomena are transformed into philosophical meaning. The article substantiates, from a scholarly-philosophical perspective, that happiness is not merely worldly wisdom but a product of the individual’s active existential position and conscious choice.

Keywords: aesthetic ideal, artistic ideal, Muhiddin Omon, lyrical hero, concept of happiness, mortality and eternity, philosophical lyrics, subjective well-being, truth, introspection.

Estetik ideal – insonning go‘zallik va komillik haqidagi orzu hamda mezonlarining badiiy-falsafiy ifodasi bo‘lib, u haqidagi ilk qarashlar Aristotel va Platon asarlarida o‘z ifodasini topadi. U atama sifatida dastlab nemis san’atshunosi I.Vinkelman asarlarida, keyinchalik esa G.Lessing ijodida qo‘llanadi[92]. Platon va Aristotel qarashlariga ko‘ra, ma’lum narsa-predmet yoki voqeani gavdalantirar ekan, ijodkor uni tasavvuridan ortiq tasvirlay olmaydi. Olimlarning fikricha, san’at asarida aks etayotgan reallik va ideallik o‘rtasida o‘zaro dialektik aloqa va shartlanganlik mavjud[93]. Unda reallik asosida yaratilayotgan obrazning ideal tasviri yuzaga keladi. Chunki badiiy ijod jarayonida ijodkor real obyektga o‘z qarashlarini ham singdiradi. Ya’ni aslida u qanday edi-yu, qanday bo‘lishi zarurligini aks ettiradi. Shu jihatdan, hayotdagi biz bilgan har qanday mukammallik go‘zallik bilan uzviy bog‘lanadi. Badiiy adabiyotdagi mukammallik esa estetik ideal bilan belgilanadi.

Badiiy adabiyot va san’atda estetik ideal ko‘pincha qahramon obrazi orqali o‘zini ko‘rsatadi. Misol uchun, antik davr adabiyoti va san’atida jismonan kuchli, baquvvat qahramon estetik ideal bo‘lgan bo‘lsa, jadid adabiyotida ma’rifatli, vatanparvar va zamonaviy fikrlovchi inson ideal obraz sifatida tasvirlangan. Muhiddin Omon ijodida esa hayotning har lahzasini g‘animat biluvchi, bena’f yashab o‘tishni insonlik sha’ni uchun isnod deb biluvchi qahramon obrazi estetik ideal darajasiga ko‘tariladi.

Inson umrining ma’lum qismini yashab o‘tar ekan, qilgan ishlaridan ko‘ngli to‘lishi, amalga oshirgan ishlarining kelajak avlodga nafi tegishidan huzurlanishi, eng asosiysi, hayotiy prinsiplariga sodiq qolishi eng katta baxtlardan biri. Aksariyat ijodkorlar asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, umr poyonida yozgan iqrorlarida katta yo‘lga chiqish oldidan qo‘ygan maqsadlariga sobit qololmaganidan, shaxs sifatida pozitsiyasida mahkam tura olmaganidan afsuslanish tasvirlangan o‘rinlarga ko‘zimiz tushadi. Ulardan farqli ravishda Muhiddin Omon hayotning har pallasini qadrli deb biladi, mehnatlari samarasidan quvonadi, amalga oshirgan ishlaridan lazzatlanadi. Xususan, uning “Har narsa foniydir, yo‘qlikning xasmi” misralari bilan boshlanuvchi she’rida[94] umr sarhisobini qilayotgan, dunyoning o‘tkinchiligini tobora teranroq anglayotgan va o‘zining ana shu foniy olamda qanday yashab o‘tganligini tafakkur mezonida o‘lchab ko‘rayotgan lirik qahramon tasviri chiziladi. She’rning birinchi bandida

[92]Vinkelman I.I. Yunon san’ati asarlariga taqlid haqida mulohazalar. - Drezden, 1755; Lessing G.E. Laokoon. - Berlin, 1766.

[93]Qarang: Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2005. - B. 120; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -Toshkent: Akademnashr, 2018. -B. 85.

[94]Muhiddin Omon. She’rlar. - Toshkent, 2021. - B. 24.

tabiat hodisalari lirik qahramonning falsafiy mushohadalari bilan omuxtalashib, hayotning o‘zgarmas haqiqatlaridan hikoya qilinadi:

Har narsa foniydir, yo‘qlikning xasmi,
Yam-yashil yaproqning qismati-xazon.
Gar bugun tilimda muhabbat vasfi,
Ertaga umrimda hokimdir hijron.

Lirik qahramon dunyoning o‘tkinchi ekanligini his qiladi, olamdagi mavjud narsalarning barchasini ontologik yo‘qlikning sherigi deb biladi. Bahorda mavj urgan yashil barglarning kuzga borib zarcha tusga kirishini umrga muqoyasa etadi. Garchi fasllarning umrga o‘xshatilishi, yashillikning yoshlikka, xazonning inson umrining nihoyasiga yaqinlashganligiga qiyoslanishi ko‘plab ijodkorlar asarlarida ta’kidlangan bo‘lsa-da, mazkur she’rda shoirning “muhabbat vasfi tilida bo‘lgan” va “hijron umrga hokimlik qilgan” shaklidagi o‘xshatishlari falsafiy mushohadaning yangicha tasvirlarda, yanada teranroq ifodalanishiga xizmat qilgan.

She’rning keyingi qismlarida lirik qahramon baqo va fano haqidagi mushohadalar masshtabini yanada kengaytiradi. Endi u o‘tkinchi insonlarning ajdodlar tomonidan bot-bot takrorlangan xulosalarini xotirlaydi; Umar Hayyom, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy singari buyuklar so‘zlagan haqiqat lirik qahramon xulosalarida qaytalanadi:

Kelganlar – ketajak, ketganlar – qaytmas,
Umr daryosining o‘zani nishab.
Ajabki, hech kimsa to‘ydim, deb aytmas,
Hattoki qo‘ysa-da, yuz yilni yashab...

U umr daryosining o‘zani yuqoridan pastga tomon oqishini ta’kidlar ekan, yillar insonni tobora yo‘qlik chuquri tomon tortqilashini, nishab holatdagi o‘zan manzilga yaqinlashgani sari suv oqimini tezlashtirgani kabi, hayotning ikkinchi yarmi ham tobora tezlashib borayotganligini ich-ichidan his qiladi. Bu o‘rinda shoirning fizik hodisalarning badiiy talqinidan falsafiy fikrni mahorat bilan tasvirlay olganligi ko‘rinadi. Chunki fizikadagi energiya saqlanish qonuniga binoan, nishab holdagi jismning yuqori qismidan oqizilgan suv potensial energiyaning kinetik energiyaga aylanishi oqibatida yuqori tezlanish oladi. Shu jihatdan, masofaning oxiriga yetgani sari jism ustida turganlik vaqti qisqaradi. Insonning umri ham shunday: vaqt qanchalik oz qolganligini anglagan sari belgilangan yumushlarga shunchalik kam ulgurayotganligingni tushunib yetasan.

She’rning keyingi misralarida lirik qahramon to‘la introspektiv kayfiyatga tushadi. U endi o‘z ichki dunyosi kengliklarida yolg‘iz qoladi. O‘z umrini daryoga

qiyoslagan qahramon hayotining bahorida toshib, kuzida vazminlik bilan oqayotganligini xotirlaydi:

Men ham bir daryodek oqib o‘tarman,
Bahorimda toshib, kuzlarda sokin.
Baxt so‘rab ko‘klarga boqib o‘tarman,
Kun kelib to‘ldirgum ajdodlar xokin...

She’rdagi falsafiy manzara qanchalik vazmin, o‘yga toldiruvchi bo‘lmasin, unda lirik qahramonning minnatdor kayfiyati seziladi. U baxt tomon talpinganini emas, talpinayotganligini; umidvor nigohlari osmonga qadalganini emas, qadalayotganini tasvirlash orqali hayotga muhabbatini, yashashga bo‘lgan ishtiyoqini to‘la namoyon etadi. “Ajdodlar xokini to‘ldirish” inson qismatidagi isbotsiz aksioma ekanligini anglagan qahramon tinglovchiga murojaat qiladi:

Balki kimdir yo‘qlar, kimdir so‘ragay:
“Qanday yashab o‘tdi Muhiddin Omon?”
Shunda aytavering xijolat bo‘lmay:
Uning har satrida umri namoyon…

Adabiyotshunos, yozuvchi va jurnalist Rahimjon Rahmat ijodkorlik haqida gapirar ekan, “Shoir ham, yozuvchi ham ikki xil bo‘ladi: birinchisi shoirlik yoki yozuvchilikni o‘zi tanlaydi. Ikkinchi tur ijodkorlarni adabiyot o‘zi tanlaydi”[95], — degan edi. Muhiddin Omon ana shunday adabiyot tanlagan shoir. U shoirlikni kasb emas, qismat deb biladi. Shu sababdan ham o‘quvchiga hech ikkilanmay uning umri va shaxsiyati haqida xulosa qilish uchun yozganlari bilan tanishish mumkinligini aytadi. Uning she’rlari yolg‘ondan yiroq, soxtakorliklardan ancha olisda. U nima yozmasin, avvalo, uni qalb qozonida obdon qaynatadi. Shundan keyingina o‘quvchiga tortiq qiladi. Shaxsiyati va qalbi, his qilganlari va qog‘ozga tushirganlari bir-biriga to‘la-to‘kis mos bo‘lgani uchun ham “satrlarim – bu o‘zim”, — deb ayta oladi. Kitobxon oldida yuzi yorug‘, vijdoni pok ekanligi uchun uchinchi tomondan berilgan savolga shoir aytganidek javob berishda “xijolat bo‘lmaslik”ka chaqiradi.

Muhiddin Omonda o‘ziga bino qo‘yish kayfiyati yo‘q. U “ideal inson”likka da’vo qilmaydi. Hayotini barcha insonlar qatori o‘tkazganligini aytar ekan, shoir:

Shoir ham biz kabi tug‘ildi, o‘sdi,
Unga ham insoniy barcha qusur xos,
Faqat HAQIQATning edi chin do‘sti,
Faqat U – Oshiqdek yashadi, xolos...

deydi.

[95]Rahmat R. Adabiyot va ijodkorlik haqida mulohazalar. -Toshkent, 2019. - B. 36.

Mazkur bandda ijodkor xato va kamchiliklarini inkor etmaydi. Bashar farzandlarining barchasi singari u ham xatolarga yo‘l qo‘yganligini tan oladi. Ammo bu o‘rinda bir narsani nazardan qochirmaslik kerakki, shoir o‘zining holatini bayon qilar ekan, atrofdagi insonlardan shikoyatini ham “kosa tagida nim kosa” shaklida berib ketadi. “Faqat HAQIQATning edi chin do‘sti” misrasida shoir ifodalamoqchi bo‘lgan yashirin ma’no zuhur etadi. Ha, shoir sirtdan boshqa insonlardan unchalik ham farq qilmaydi: tug‘ildi, yashadi, o‘sdi. Lekin uni atrofdagilardan ajratib turadigan bir xususiyat bor — u haqiqat bilan do‘st tutingan. Uning oshiq qalbi hech qanday soxtalikni tan olmaydi. She’rni o‘qir ekan, o‘quvchi haqiqatning do‘stlari tobora kamayib borayotgan zamonda shoirning hissiy holatini to‘la tushunadi va ijodkorning yolg‘onga bo‘lgan qarshiligiga xayrixohlik bildiradi. Bandda shoir “haqiqat”, “oshiq” so‘zlarini qo‘llar ekan, o‘quvchiga bu so‘zlarni istaganidek tushunish imkonini beradi. She’r mutolaasida oshiqlikni yorga ham, Haqqa ham nisbatan tushunish mumkin. Har ikki holatda ham tushunilayotgan fikr she’rda ifoda etilgan umumiy mazmunga mos keladi.

Bashariyat yaratilibdiki, u baxt tomon intilib yashaydi. Baxt tomon talpinadi, unga yetish ishtiyoqida yonadi. Kim uchundir baxt boylikda bo‘lsa, kimdir baxtni muhabbatda, yana kimdir oila bag‘rida ko‘radi. Inson hayotining asl mohiyatini belgilovchi eng asosiy kategoriyalardan biri ham baxt tushunchasidir. Bu mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda, bildirilgan falsafiy fikrlar-u yaratilgan badiiy asarlarda baxtga yetishishning turli yo‘llari haqida hikoya qilinadi. Tarixiy-falsafiy tafakkur, zamonaviy psixologik nazariyalar hamda badiiy adabiyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, baxt inson hayotiga tashqi muhit tomonidan tayyor holda beriladigan hodisa emas, balki shaxsning faol ekzistensial pozitsiyasi, ichki intilishlari, ongli tanlovi va ma’naviy amaliyoti mahsulidir. Shu bois “inson hayotdan nolib yashashi emas, balki baxtni o‘z qo‘li bilan yaratishi kerak” degan g‘oya nafaqat hayotiy hikmat, balki chuqur ilmiy-falsafiy asosga ega konseptual qarash sifatida talqin etilishi lozim. Muhiddin Omonning “Hayot hamma uchun chigal, murakkab” misralari bilan boshlanuvchi she’rida ham shoirning baxt haqidagi hayotiy xulosalari bayon qilinadi:

Hayot hamma uchun chigal, murakkab,
Lekin o‘z qo‘lingda taqdir jilovi.
Yashamaslik kerak taqdirni qarg‘ab,
Afsus va nolishlar – umr egovi...

Odamlar qandaydir qiyin vaziyat bilan yuzlashganda, dunyo faqatgina mashaqqatlardan iborat va mana shu mashaqqatli dunyoda eng qiyin ahvolga tushgan inson menman, degan fikrga kelib qoladi. Mavjud vaziyat unga ba’zi insonlar tortayotgan azoblar, tushgan qiyinchiliklar oldida bu sinovning kichik,

juda ham kichik ekanligini anglashga imkon bermaydi. Shu xususiyatdan kelib chiqib, lirik qahramon kitobxonga hayotning faqat u uchun emas, barcha uchun sinovlari borligini, butun bashar farzandi hayotning chigal masalalarini tartibga solish bilan ovora ekanligini aytadi. Shu bilan birgalikda, mana shu chalkashliklarni mardonavor yengib o‘tish, Yaratgan tomonidan in’om etilgan hayotni go‘zal yashab o‘tish faqatgina insonning o‘ziga bog‘liq ekanligini ham eslatadi. Chindan ham, atrofga nazar solgan pallada kimlarningdir shod-hurram, kimlarningdir g‘am-anduhlar iskanjasida yashayotganligiga guvoh bo‘lamiz. “Qisasi Rabg‘uziy” va boshqa ko‘plab islomiy adabiyotlarda keltirilishicha, Olloh insonni yaratar ekan, uning loyiga o‘ttiz to‘qqiz yil g‘ussa yomg‘irini, bir yil xursandchilik yomg‘irini yog‘diradi[96]. Shu jihatdan, barcha insonlarning hayoti dunyosida shodlik ham, g‘am ham bo‘lishi tabiiy. Ammo faqatgina taqdirning jilovini qo‘lida mahkam tuta olgan, kunlarini nolish va tushkunlikka emas, shukur va harakatga to‘ldirgan, pushaymonlar zanjirlarini uzib, maqsadlar vodiysi tomon intilishga o‘zida kuch topa olgan insonlargina baxt atalmish ne’matning lazzatidan bahramand bo‘ladilar. Shuning uchun ham lirik qahramon o‘quvchini “taqdirni qarg‘ab” yashashdan qaytaradi. Afsus va nolishlarni “umrning egovi”ga qiyoslar ekan, ularning nafaqat hayotning shu’lasiga putur yetkazishi, balki qimmatli umrning qisqarishiga ham sababchi bo‘lishiga ishora qiladi.

Falsafa tarixida baxt masalasi insonning borliqdagi o‘rni va vazifasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilingan. Aristotelning “Axloqi kabir” asarida baxt inson faoliyatining eng oliy maqsadi sifatida ko‘rsatiladi va u passiv holat emas, balki arete, ya’ni ma’naviy faoliyat orqali ro‘yobga chiqadigan jarayon deb baholanadi[97]. Bu qarashda insonning o‘z taqdiriga nisbatan mas’ul subyekt ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Zamonaviy psixologiyada baxt tushunchasi subyektiv farovonlik (subjective well-being) termini bilan ifodalanadi. E.Diner tomonidan asoslangan ushbu nazariyaga ko‘ra, baxt insonning o‘z hayotidan qoniqish darajasi, ijobiy emotsiyalarning ustunligi va salbiy kechinmalarning kamligi bilan o‘lchanadi[98]. Bu yondashuv ham, falsafiy qarashlar singari, baxtning insonning ichki holati, ongli tanlovi va faol hayotiy pozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi. Demak, Muhiddin Omon she’riyatida ilgari surilgan “baxtni o‘z qo‘li bilan yaratish” g‘oyasi ham klassik falsafiy, ham zamonaviy psixologik tafakkur bilan hamohangdir.

Xulosa

[96]Nosiriddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. - Toshkent: Yozuvchi, 1990. - B. 18.

[97]Aristotel. Axloqiy asarlar (Axloqi kabir). -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. - B. 45.

[98]Diener E. Subjective Well-Being // Psychological Bulletin, 1984. Vol. 95, No. 3. - P. 544.

Muhiddin Omon she’riyatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, shoir ijodida estetik ideal hayotning har lahzasini qadrlovchi, haqiqatga sodiq, baxtni o‘z mehnati va ongli tanlovi bilan yaratuvchi lirik qahramon obrazida mujassamlashadi. Shoir fano va baqo, umrning o‘tkinchiligi, inson va taqdir munosabati kabi azaliy falsafiy masalalarni yangicha badiiy tasvir vositalari — tabiat hodisalari va fizik qonuniyatlarning falsafiy talqini orqali ifodalaydi. Uning she’rlarida ilgari surilgan baxt konsepsiyasi Aristotelning arete ta’limotidan tortib zamonaviy subyektiv farovonlik nazariyasigacha bo‘lgan qarashlar bilan uyg‘unlashib, baxtni insonning faol ekzistensial pozitsiyasi mahsuli sifatida talqin etadi. Bu esa shoir ijodining nafaqat badiiy, balki falsafiy-estetik jihatdan ham teran va dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aristotel. Axloqiy asarlar (Axloqi kabir – Magna Moralia). -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
2. Platon. Davlat / Saylanma asarlar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
3. Winckelmann J.J. Gedanken über die Nachahmung der griechischen Werke in der Malerei und Bildhauerkunst (Yunon san’ati asarlariga taqlid haqida mulohazalar). Dresden, 1755.
4. Lessing G.E. Laokoon: rassomlik va she’riyat chegaralari haqida. - Berlin, 1766.
5. Nosiriddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. - Toshkent: Yozuvchi, 1990.
6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Akademnashr, 2018.
8. Diener E. Subjective Well-Being // Psychological Bulletin, 1984. Vol. 95, No. 3. - P. 542-575.
9. Muhiddin Omon. She’rlar. - Toshkent, 2021.
10. Rahmat R. Adabiyot va ijodkorlik haqida mulohazalar. - Toshkent, 2019.

O‘ZBEK ADABIY TILIDA ORFOEPIK ME’YORLAR SHAKLLANISHINING TARIXIY-LISONIY ASOSLARI

D.Sh.Egamnazarova,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiy tilida orfoepik me’yorlarning shakllanish tarixi, ularning taraqqiyot bosqichlari va bugungi kunda yuz berayotgan lisoniy o‘zgarishlar dinamikasi tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida jonli so‘zlashuv nutqi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida adabiy talaffuzda yuzaga kelayotgan transformatsiyalar tahlil qilingan. Til tizimidagi me’yorlarning barqarorligi va o‘zgaruvchanligi muammosi sotsiolingvistik hamda sinxron yondashuvlar asosida yoritib berilgan. Maqola so‘ngida o‘zbek tili orfoepiyasining rivojlanish tamoyillari umumlashtirilib, nutq madaniyatini yuksaltirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek adabiy tili, orfoepik me’yor, talaffuz dinamikasi, til evolyutsiyasi, nutq madaniyati, sotsiolingvistika, jonli nutq, transformatsiya.

Abstract. This article examines the history of the formation of orthoepic norms in the modern Uzbek literary language, the stages of their development, and the dynamics of linguistic changes occurring today. The research analyzes the transformations in literary pronunciation under the influence of spoken language, mass media, and social networks. The problem of stability and variability of norms in the language system is highlighted on the basis of sociolinguistic and synchronous approaches. At the end of the article, the principles of development of Uzbek orthoepy are summarized, and practical recommendations for improving speech culture are developed.

Keywords: Uzbek literary language, orthoepic norm, pronunciation dynamics, language evolution, speech culture, sociolinguistic, spoken language, transformation.

Kirish

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida adabiy til me’yorlari, xususan, orfoepik qonuniyatlar jamiyatning madaniy va ma’naviy darajasini belgilovchi bosh mezonlardan biri hisoblanadi. Har bir millatning o‘zligini, uning madaniy taraqqiyotini ko‘rsatuvchi eng oliy lisoniy ko‘rinish – bu shakllangan va tizimga solingan adabiy tildir. Til faqatgina muloqot vositasi bo‘lib qolmay, balki xalqning tarixi, tafakkuri va ijtimoiy hayotini o‘zida aks ettiruvchi tirik organizmdir. Bu

organizmning barqaror faoliyat ko‘rsatishi va jamiyat a’zolari o‘rtasida bir xil tushunilishini ta’minlash esa bevosita adabiy til me’yorlariga bog‘liq. Me’yorlar til tizimining ichki qonuniyatlarini himoya qiladi va uni tartibsiz o‘zgarishlardan asraydi.

Lisoniy me’yorlar orasida talaffuz, ya’ni orfoepik me’yorlar o‘ziga xos murakkab tabiati bilan ajralib turadi. Negaki, yozma nutq me’yorlari muayyan qonun-qoidalar, imlo lug‘atlari orqali qat’iy tartibga solinsa-da, og‘zaki nutq hamda jonli talaffuz doimo harakatda bo‘ladi. O‘zbek adabiy tilining talaffuz me’yorlari uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, u turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, madaniy yuksalishlar va xalqning lisoniy ehtiyojlari asosida shakllangan. Biroq har qanday til kabi o‘zbek tili ham sotsial va madaniy jarayonlar ta’sirida yangilanib, boyib boradi. Bu jarayon, shubhasiz, so‘zlarning talaffuzi va tovushlarning nutq oqimidagi o‘zgarishlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida adabiy talaffuz me’yorlarining o‘zgarish dinamikasi yanada jadallashdi. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari va jonli muloqot maydonlarining kengayishi natijasida adabiy til hamda shevalar, so‘zlashuv nutqi o‘rtasidagi chegara qaysidir ma’noda qisqarib bormoqda. Radio va televideniye boshlovchilari, blogerlar hamda jamoat arboblarining nutqida adabiy til me’yorlaridan chekinish, sheva elementlarini aralashtirish yoki xorijiy so‘zlarni o‘z qonuniyatlarimizga moslashtirmasdan talaffuz qilish holatlari kuzatilyapti. Bu esa adabiy tilning sofligini saqlash hamda uning amaldagi talaffuz me’yorlarini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini tug‘diradi.

Ushbu tadqiqot ishining dolzarbligi ham aynan mana shu lisoniy jarayonlarni sinxron va sotsiolingvistik jihatdan o‘rganish ehtiyoji bilan belgilanadi. Maqolada o‘zbek adabiy tili talaffuz me’yorlarining shakllanish asoslari ko‘rib chiqiladi, shu bilan birga, jonli nutq ta’sirida yuzaga kelayotgan zamonaviy o‘zgarishlar va ularning rivojlanish tamoyillari izchil tahlil qilinadi. Tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari hamda tashqi ijtimoiy omillarning orfoepiyaga ta’sirini aniqlash, milliy nutq madaniyatini yuksaltirish choralarini belgilash ushbu ilmiy izlanishning bosh maqsadi hisoblanadi.

Asosiy qism

Til siyosati va ongli boshqaruv tamoyili. 1989-yilgi «Davlat tili haqida»gi qonun va 2019-yilgi farmondan so‘ng o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi kengaydi, nutq madaniyatiga talab esa davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi [1]. Til siyosati talaffuzga bevosita buyruq bera olmasa-da, ta’lim, efir va ish yuritish sohalarida

namunaviy nutqqa ehtiyojni oshirib, kodifikatsiyaning yangi bosqichiga zamin tayyorlaydi.

1-jadval

O‘zbek adabiy talaffuz me’yorining shakllanish va o‘zgarish tamoyillari

Tamoyil	Harakat yo‘nalishi	Misol
Dialektal tayanch	Shakllantiruvchi	*bala → bola [bɔla]*
Tarixiy vorislik	Shakllantiruvchi	*she’r [ʃe:r]*
Grafik-orfografik muvofiqlik	Shakllantiruvchi	*kitob [kitɔp]*
Umumtushunarlilik	Shakllantiruvchi	*kevotti → kelyapti*
Institutsional kodifikatsiya	Barqarorlashtiruvchi	darslik, lug‘at, diktor nutqi
Variantlilik	O‘zgartiruvchi	*pabrika → fabrika*
Manba tilga yo‘nalish	O‘zgartiruvchi	*menejer [ʒ] ~ [dʒ]*
Grafikaning qayta ta’siri	O‘zgartiruvchi	*цемент → sement [s]*
Ommaviy nutq muhiti	O‘zgartiruvchi	*san’at [sanʔat] ~ [sanat]*
Tejamkorlik va aniqlik	O‘zgartiruvchi	*kitob [k(ı)tɔp]*
Til siyosati	Barqarorlashtiruvchi	normativ-huquqiy hujjatlar

O‘zbek adabiy tilining talaffuz me’yorlari uzoq asrlik tarixiy tadrijga ega bo‘lib, murakkab lisoniy jarayonlar zaminida yuzaga kelgan. Milliy tilimizning orfoepik asoslari, xususan, zamonaviy ko‘rinishdagi me’yorlar o‘tgan asrning yigirmanchi-oltmishinchi yillarida faol tartibga solina boshlandi [2, 42-bet]. O‘zbek orfoepiyasining poydevori sifatida asosan Toshkent-Farg‘ona shevalari tizimi hamda undagi qorluq lahjasiga xos xususiyatlar asos qilib olindi [3, 118-bet]. Bu tanlov adabiy tilning boshqa turkiy tillardan ajralib turuvchi o‘ziga xos vokalizm va konsonantizm tizimini shakllantirdi. Singarmonizm hodisasining kuchsizlanishi, unlilar tizimidagi o‘zgarishlar va portlovchi, sirg‘aluvchi tovushlarning talaffuz qonuniyatlari aynan shu davrlarda ilmiy jihatdan asoslandi hamda darsliklarga kiritildi.

Har qanday til tizimidagi talaffuz qoidalari yozuv va imlo bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Biroq yozuv grafik tizim sifatida grafik belgilar majmuyidan iborat bo‘lsa, talaffuz jonli jarayon bo‘lib, unda lisoniy tejamkorlik va nutq a’zolarining qulaylikka intilishi yetakchilik qiladi [4, 85-bet]. O‘zbek adabiy tilida ham uzoq yillar davomida shakllangan fonetik qonuniyatlar so‘z so‘zlash jarayonida tovushlarning bir-biriga moslashishi, ya’ni assimilyatsiya, dissimilyatsiya hamda eliziya kabi hodisalarni keltirib chiqargan. Ushbu

qonuniyatlar vaqt o‘tishi bilan nutqiy ko‘nikmaga aylanib, jamiyat tomonidan adabiy me’yor sifatida qabul qilingan [2, 57-bet].

Bugungi kunda o‘zbek adabiy tilining talaffuz me’yorlari barqarorlik va o‘zgaruvchanlik o‘rtasidagi dialektik munosabatni boshdan kechirmoqda. Lisoniy tizim bir joyda qotib qolmaydi, u jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotidagi har qanday evrilishlarga birinchilardan bo‘lib munosabat bildiradi [5, 14-bet]. Zamonaviy bosqichda talaffuz me’yorlarining o‘zgarishi, eng avvalo, og‘zaki nutqning ommaviy axborot vositalari orqali keng ko‘lamda tarqalishi bilan izohlanadi. Ilgari faqat diktorlar yoki sahna namoyandalari nutqi adabiy me’yor namunasi hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunda erkin mikrofon, jonli efirlar va ijtimoiy tarmoqlardagi audio va video kontentlar milliy nutq muhitiga bevosita ta’sir o‘tkazmoqda [6, 92-bet].

Ushbu jarayonda talaffuzning ikki xil tendensiyasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchisi, yozuvning talaffuzga ta’siridir. Ya’ni, yosh avlod vakillari va ko‘plab so‘zlovchilar so‘zlarni orfoepik qoidalarga ko‘ra emas, balki yozilganidek, harfma-harf talaffuz qilishga moyillik ko‘rsatmoqdalar [4, 99-bet]. Bu esa tilimizning tarixiy shakllangan ohangdorligi va jonli urg‘u tizimiga ma’lum ma’noda salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ikkinchi tendensiya esa, aksincha, jonli so‘zlashuv tilidagi qisqarishlar, tovushlarning tushib qolishi yoki bir-biriga qo‘shilib ketishi kabi hodisalarning adabiy nutq qatlamiga kirib kelishidir. Bu holat ko‘proq norasmiy muloqot maydonlarida erkinlikning ortishi va lisoniy tejamkorlik tamoyilining haddan tashqari faollashishi natijasida yuzaga kelmoqda [5, 33-bet].

Orfoepik me’yorlarning o‘zgarishida ijtimoiy omillar, aholining migratsiyasi va hududiy dialektlarning adabiy til muhiti bilan faol to‘qnashuvi muhim rol o‘ynaydi [3, 145-bet]. Yirik shaharlarda, madaniy va ilmiy markazlarda turli viloyat hamda sheva vakillarining doimiy muloqoti natijasida o‘ziga xos aralash nutq tiplari shakllanmoqda. Bu esa adabiy talaffuzda ayrim sheva elementlarining, xususan, unlilarni cho‘zish yoki undoshlarni qattiqroq aytish kabi mahalliy xususiyatlarning adabiy nutqqa sizib kirishiga zamin yaratadi [6, 104-bet].

Bundan tashqari, globallashuv va faol integratsiya jarayonlari sababli tilimizga kirib kelayotgan o‘zlashma so‘zlar ham talaffuz tizimini yangi muammolar qarshisiga qo‘ymoqda. G‘arbiy Yevropa va boshqa xorijiy tillardan o‘zlashayotgan terminologik qatlam o‘zbek tilining an’anaviy fonetik qonuniyatlariga har doim ham bo‘ysunavermaydi [7, 76-bet]. Natijada xalqaro so‘zlarni asl holaticha talaffuz qilishga intilish bilan birga, ularni o‘zbek tili artikulyatsiyasiga moslashtirish tendensiyasi o‘rtasida o‘zaro kurash ketmoqda. Bu kabi jarayonlar zamonaviy o‘zbek tilshunosligida orfoepiya me’yorlarini vaqti-vaqti bilan qayta ko‘rib chiqish, muayyan o‘zgarishlarni qonunlashtirish yoki

aksincha, adabiy til sofligini saqlash uchun qat’iy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi [2, 88-bet].

Xulosa

O‘zbek adabiy tilida talaffuz me’yorlarining shakllanishi va o‘zgarish tamoyillarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Adabiy til me’yorlari, xususan, orfoepik qonuniyatlar tilning ichki barqarorligini va jamiyatdagi muloqot tizimliligini ta’minlovchi dinamik hodisadir. O‘zbek orfoepiyasi o‘zining tarixiy taraqqiyot yo‘lida milliy o‘zlikni va jonli xalq tilining eng sara xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan holda mukammal tizim darajasiga ko‘tarildi. Biroq bugungi axborotlashgan jamiyat hayoti, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy integratsiya jarayonlari ushbu me’yorlarga o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazmoqda.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘zbek nutqida orfoepik me’yorlar ikki qarama-qarshi tendensiya — yozuv ta’sirida harfma-harf talaffuz qilishga intilish hamda jonli nutqiy tejamkorlik sababli so‘zlarni haddan tashqari qisqartirib yuborish jarayonlari orasida rivojlanmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi erkin muloqot muhiti adabiy tilga dialektal xususiyatlar hamda xorijiy o‘zlashmalarning tizimsiz kirib kelishini jadallashtirmoqda. Bu holat adabiy talaffuz me’yorlarining buzilishiga va nutq madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbek adabiy tilining sofligini saqlash va talaffuz madaniyatini yuksaltirish maqsadida quyidagi amaliy choralar va tavsiyalar ilgari suriladi:

Ommaviy axborot vositalari, radio, televideniye va internet platformalarida faoliyat yuritayotgan jurnalist hamda blogerlarning nutq madaniyatini, adabiy talaffuz malakasini oshirishga qaratilgan maxsus kurslar va media-loyihalarni yo‘lga qo‘yish zarur.

Ta’lim muassasalarida, xususan, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida orfoepiya qoidalarini o‘rgatishga ajratilgan soatlarni kengaytirish hamda o‘quvchilarda yoshligidanoq to‘g‘ri va chiroyli so‘zlash ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Zamonaviy lingvistik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, o‘zbek tili orfoepiyasining yangilangan va mukammal akademik lug‘atlarini, shuningdek, yoshlar uchun qulay bo‘lgan elektron audio-lug‘atlarni muntazam ravishda yaratish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Raqamli nutq muhitining kengayishi diktor nutqiga tayangan an’anaviy kodifikatsiya modelini zaiflashtirdi, shu bois zamonaviy orfoepik tadqiqot korpus ma’lumotlari va eksperimental-fonetik o‘lchovlarga tayanishi lozim. Amaliy jihatdan esa variantlarni «tavsiya etiladi», «yo‘l qo‘yiladi», «tavsiya etilmaydi»

belgilari bilan farqlovchi o‘zbek tilining orfoepik lug‘atini yaratish, lotin yozuviga to‘liq o‘tish bosqichida talaffuz va imlo munosabatini alohida me’yoriy hujjatda qayd etish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Zero, «egiluvchan barqarorlik» sharti bajarilgandagina adabiy talaffuz jamoa uchun ham tanish, ham zamonaviy namuna bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni. – Toshkent, 1989-yil 21-oktyabr.
2. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
3. To‘ychiyev U. O‘zbek adabiy tili orfoepiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1996.
4. Mahmudov N. Nutq madaniyati va davlat tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012.
5. Yo‘ldoshev M. Adabiy til me’yori va nutq madaniyati. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
6. Begmatov E. O‘zbek nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
7. Mengliyev B. Zamonaviy o‘zbek tili sotsiolingvistikasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2021.

IJTIMOIY ADOLATSIZLIKNING POETIK TABIATI

Jurayev Umidjon Rahimjonovich,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.
umidjones12@gmail.com
ORCID: 0009-0008-3518-0124

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek yoshlar she’riyatida ijtimoiy adolatsizlik, befarqlik, sukut, ma’naviy mas’uliyatsizlik va jamiyatdagi ziddiyatlarning badiiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida Suhrob Ziyo, Najmiddin Ermatov va Bobur Elmurod ijodidagi ijtimoiy ruhdagi she’rlar tanlandi. Yosh shoirlar voqelikni bevosita publitsistik bayon qilishdan ko‘ra ramz, kontrast, kinoya, dialogik murojaat, ichki monolog va keskin obrazlar orqali poetiklashtirishi ko‘rsatildi. Raymond Williamsning “structure of feeling”

konsepsiyasi avlodning tarixiy davrni hissiy idrok etish shakllarini, M. Baxtinning dialogizm qarashlari esa lirik subyektning jamiyat bilan bahsga kirishuvchi ovozini izohlash uchun metodologik asos sifatida qo‘llandi. Tahlil natijasida yoshlar she’riyatida ijtimoiy muammo faqat tashqi hodisa emas, balki lirik qahramonning axloqiy pozitsiyasi va vijdon sinovi sifatida badiiylashtirilishi aniqlandi. Sukut, qo‘rquv, loqaydlik va adolatsizlikka qarshi so‘z aytish ehtiyoji yangi avlod lirikasining muhim ijtimoiy-estetik belgilaridan biri ekani asoslandi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy o‘zbek she’riyati, yoshlar ijodi, ijtimoiy muammo, ijtimoiy adolatsizlik, sukut, fuqarolik pozitsiyasi, lirik qahramon, dialogizm, poetik obraz, Suhrob Ziyo, Najmiddin Ermatov, Bobur Elmurod

Abstract: This article examines the artistic interpretation of social injustice, indifference, silence, moral irresponsibility and social contradictions in contemporary Uzbek poetry by younger authors. Poems by Suhrob Ziyo, Najmiddin Ermatov and Bobur Elmurod constitute the main material. The study argues that young poets avoid reducing social experience to direct journalistic statement; instead, they transform it through symbols, contrast, irony, dialogic address and internal monologue. Raymond Williams’s concept of “structure of feeling” is used to interpret the emotional experience of a generation, while Mikhail Bakhtin’s dialogism helps explain the lyrical subject’s polemical relationship with society. The analysis demonstrates that social problems are represented not merely as external events but as ethical tests of the lyrical self. The need to speak against silence, fear, indifference and injustice emerges as an important socio-aesthetic feature of contemporary young Uzbek poetry.

Keywords: contemporary Uzbek poetry, young poets, social problem, social injustice, silence, civic position, lyrical subject, dialogism, poetic image.

Kirish. Bugungi o‘zbek she’riyatida ijtimoiy voqelikni badiiy idrok etish shakllari sezilarli darajada yangilandi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi avlod ijodida jamiyatning kundalik muammolari, adolat va haqiqat masalasi, insonning omma ichidagi mas’uliyati, sukut va befarqlikning axloqiy oqibatlari lirik tafakkurning muhim mavzularidan biriga aylandi. Yosh ijodkor voqelikni tayyor g‘oya yoki shior shaklida takrorlamaydi; u muammoni shaxsiy sezgi, ichki iztirob va individual poetik til orqali qayta yaratadi. Shu sabab yoshlar she’riyatidagi ijtimoiylikni faqat mavzu darajasida emas, balki poetik struktura, lirik subyekt pozitsiyasi va obrazlar tizimida kuzatish zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi Suhrob Ziyo, Najmiddin Ermatov va Bobur Elmurod she’rlari misolida zamonaviy yoshlar lirikasida ijtimoiy adolatsizlik va sukut muammosining badiiy ifoda mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda

adolatsizlikka munosabat, jamiyatning loqaydligi, shaxsning ichki noroziligi va fuqarolik mas’uliyati lirik kechinmaning tarkibiy qismlari sifatida o‘rganiladi.

Adabiyotlar sharhi. Yosh o‘zbek shoirlarining voqelikni idrok etish va uni badiiy ifodalash tendensiyalari so‘nggi tadqiqotlarda alohida masala sifatida ko‘rilmoqda. N. Saitova yosh ijodkorlar she’riyatida voqelik, inson tajribasi va jamiyat dinamikasining o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratadi [5]. Bunday yondashuv yoshlar lirikasini shunchaki avlod she’riyati emas, zamonaviy ijtimoiy sezgirlikning badiiy shakli sifatida tushunishga imkon beradi.

Raymond Williams “structure of feeling” tushunchasi orqali muayyan davrning hali qat’iy mafkuraviy formulaga aylanmagan, biroq san’atda jonli tarzda seziladigan hissiy-ijtimoiy tajribasini izohlaydi [1:128–135]. Yosh shoirlarning sukut, qo‘rquv, adolatsizlik va ichki norozilikni lirik obrazga aylantirishi mazkur nazariya bilan mushtarakdir. M. Baxtinning dialogizm konsepsiyasi esa poetik nutqning boshqa ovoz, ijtimoiy qarash va hukm bilan munosabatda shakllanishini anglashga yordam beradi [2]. Zamonaviy yoshlar she’rida “men” ko‘pincha jamiyat, tarix, omma yoki muayyan axloqiy muhit bilan bahslashuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda germenevtik, struktur-semantik, kontekstual va sotsiopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Germenevtik yondashuv lirik qahramonning ijtimoiy hodisaga bergan ma’naviy bahosini ochishga, struktur-semantik tahlil esa takror, kontrast, ramz, metafora va murojaatlarning matndagi vazifasini belgilashga xizmat qildi. Kontekstual metod she’rlardagi obrazlarni zamonaviy ijtimoiy tajriba bilan bog‘liq holda sharhlash imkonini berdi. Tadqiqot obyekti zamonaviy yosh o‘zbek shoirlarining ijtimoiy ruhdagi she’rlari, predmeti esa ularda adolatsizlik, sukut va fuqarolik pozitsiyasining poetik ifodalanish usullaridir.

Natijalar. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, yoshlar she’riyatida ijtimoiy adolatsizlik ko‘pincha uch xil poetik shaklda namoyon bo‘ladi. Birinchisi — ochiq fuqarolik murojaati. Suhrob Ziyoning “Ulkan xayollar” she’rida millat taqdiri, haqiqatning zulmga duch kelishi va xolis kishilarning sukutga mahkum bo‘lishi lirik “men”ning bezovta vijdoni orqali beriladi [7]. Shoir tarixiy xotira bilan bugungi holatni to‘qnash keltirib, sukutni oddiy jimlik emas, axloqiy mas’uliyatsizlik belgisi darajasiga ko‘taradi. Bunda lirik qahramon o‘zini tashqi kuzatuvchi emas, jamiyatning taqdiriga daxldor subyekt sifatida his qiladi.

Ikkinchi shakl — keskin ijtimoiy kontrast. Najmiddin Ermatovning “Bizga berilgan zamon” she’rida erkinlik orzusi bilan mutelik, mardlik bilan loqaydlik, shoirning og‘rig‘i bilan ommaning kulgisi qarama-qarshi qo‘yiladi [8]. Bunday tazod jamiyatdagi axloqiy nomutanosiblikni oshkor etadi. Lirik nutqdagi murojaat

shakli esa she’rni xususiy kechinmadan jamoaviy o‘z-o‘zini so‘roq qilish maydoniga aylantiradi. Natijada “zamon” tushunchasi vaqt o‘lchovi emas, avlodning axloqiy holatini belgilovchi badiiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi shakl — kundalik hayotning sokin manzarasi orqali ijtimoiy haqiqatni ochish. Bobur Elmurodning “Fotoapparat va men” she’rida kamera yaratgan chiroyli tasvir bilan lirik qahramon ko‘rayotgan qarilik, zaiflik va hayotning murosasiz haqiqati qarama-qarshi qo‘yiladi [6]. Fotoapparat obrazi shu tariqa zamonaviy jamiyatning “chiroyli ko‘rinish”ga moyilligini ifodalovchi ramzga aylanadi. Shoir tashqi tasvir va ichki haqiqat o‘rtasidagi masofani badiiy muammoga aylantiradi. Bu yerda ijtimoiy tanqid baland pafos bilan emas, yaqin insonlar taqdiriga qarash orqali kuchayadi.

Uch ijodkorda umumiy jihat shundaki, ijtimoiy muammo lirik subyektning axloqiy reaksiyasidan ajratilmaydi. Jamiyatdagi adolatsizlik, loqaydlik yoki sun’iylik qahramon ongida iztirob, norozilik, savol va qarshilik tug‘diradi. Demak, yangi avlod she’riyatidagi ijtimoiylik voqea bayonidan ko‘ra shaxsning voqelikka nisbatan ma’naviy pozitsiyasida yorqinroq namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy muammoning poetik ifodasida til va ohang ham alohida ahamiyatga ega. Yosh shoirlarda qisqa, zarbli jumlalar, keskin inkorlar va buyruq ohangidagi murojaatlar ko‘p uchraydi. Bunday sintaktik qurilish lirik matnni fikriy bahs maydoniga aylantiradi. O‘quvchi she’rni chetdan kuzatmaydi; u savolga javob berishga, o‘z pozitsiyasini belgilashga majbur bo‘ladi. Ayniqsa, tarixiy va ijtimoiy mazmundagi obrazlar bugungi kun bilan to‘qnashganda, poetik nutqning dramatizmi kuchayadi.

Yoshlar she’riyatidagi ijtimoiy tanqidning yana bir belgisi shundaki, unda “aybdor” doimo aniq bir shaxs yoki tizim ko‘rinishida berilmaydi. Muammo ko‘pincha umumiy ruhiy holat — loqaydlik, qo‘rquv, moslashuvchanlik, tashqi taassurotga berilish kabi xususiyatlar orqali ochiladi. Bu esa badiiy matnning publitsistik hukmdan farqini ta’minlaydi. Shoir tayyor xulosa bermaydi, balki o‘quvchini o‘z vijdoni bilan yuzlashtiradi. Shu jihatdan zamonaviy yoshlar she’riyatida ijtimoiylikning asosiy ko‘rsatkichi mavzuning “ijtimoiy” ekanida emas, balki shaxsiy kechinmaning jamoaviy mas’uliyat darajasiga ko‘tarilishidadir.

Muhokama. Yoshlar she’riyatida sukut ikki xil semantik vazifa bajaradi. Bir tomondan, u qo‘rquv, befarqlik va ijtimoiy murosaning belgisi; ikkinchi tomondan, aytilmagan norozilik va ichki qarshilikning poetik shaklidir. Shu sabab she’rdagi jimlik ham “gapiradi”. Lirik qahramonning ijtimoiy muhit bilan bahsi ko‘pincha ritorik savol, keskin murojaat, kinoya yoki qarama-qarshi obrazlar orqali amalga oshadi.

Raymond Williams nuqtayi nazaridan bunday she’rlar avlodning “his etilayotgan” tarixiy tajribasini qayd etadi: hali statistik ma’lumot yoki siyosiy formula sifatida emas, balki iztirob, uyat, g‘azab va umid tarzida [1:128–135]. Yosh shoirlarning badiiy yutug‘i ham shunda — ular ijtimoiy muammoni quruq deklaratsiyadan chiqarib, insoniy kechinmaga aylantiradi. Bu holat zamonaviy o‘zbek she’riyatida fuqarolik lirikasining yangi, individual va refleksiv ko‘rinishi shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa. Zamonaviy o‘zbek yoshlar she’riyatida ijtimoiy adolatsizlik va sukut muammosi yangi poetik sezgirlik asosida talqin qilinadi. Suhrob Ziyo ijtimoiy sukutni tarixiy va fuqarolik mas’uliyati bilan bog‘lasa, Najmiddin Ermatov zamonning axloqiy ziddiyatlarini keskin tazod va murojaat orqali ochadi. Bobur Elmurod esa kundalik hayot manzaralaridan kelib chiqib, tashqi ko‘rinish bilan ichki haqiqat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni fosh etadi. Ushbu asarlarda ijtimoiy muammo tashqi voqelikning nusxasi emas, balki lirik qahramon vijdonida qayta ishlangan badiiy-estetik hodisadir. Shuning uchun yoshlar lirikasining ijtimoiy mohiyatini baholashda mavzuning o‘zidan ko‘ra, uni poetiklashtiruvchi individual ovoz va axloqiy pozitsiya muhim mezon hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Williams R. Marxism and Literature. – Oxford: Oxford University Press, 1977. – P. 128–135.

2. Bakhtin M.M. The Dialogic Imagination: Four Essays. – Austin: University of Texas Press, 1981.

3. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000.

4. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007.

5. Saitova N. Yosh o‘zbek shoirlari: voqelikni idrok etish va uni badiiy ifodalash tendensiyalari // Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2024.

6. Bobur Elmurod. “Fotoapparat va men” // Xurshid Davron kutubxonasi. Yoshlar ijodi, 2017.

7. Suhrob Ziyo. “Ulkan xayollar” // So‘z loyihasi, 2025.

8. Najmiddin Ermatov. “Bizga berilgan zamon” // Xurshid Davron kutubxonasi, 2023.

9. Saidova R.B. Yangi davr o‘zbek adabiyotida she’r konsepti, shoir siymosi tasvir va talqinlari // Modern Science and Research. – 2024.

№	MUALLIF(LAR) VA MAQOLA NOMI	Sahifa raqami
1-SHO‘BA: TIL VA ADABIYOT – MILLIY G‘URUR, MADANIY MEROS VA MILLIY QADRYATLAR POYDEVORI		
1	**Solijonov Y., Mo‘minova M.** Normurod Norqobilov asarlarida inson va tabiat tasviri	4–9
2	**To‘xliyev B.** Shaxs ma’naviyatining shakllanishida adabiy manbalarning o‘rni	9–14
3	**Muminov S., Xolmatova D.** Til, ijtimoiy ekologiya va shaxs ma’naviyati	14–25
4	**Axmedova Sh.** Abdulla Oripovning adabiy o‘ylari va suhbatlari haqida	25–32
5	**Sabirdinov A.** Naim Karimov hikoyalarida qatag‘on davri voqeligi talqini	32–43
6	**Jabborov N.** Abdulla Qodiriyning milliy ruh tarbiyasiga doir konsepsiyasi	43–57
7	**Iskandarova Sh., Holdarova I.** O‘zbek tilidagi generonimlarda assotsiativ munosabat	57–65
8	**Asadov M.** Til va adabiyot – ma’naviy kamolot mezoni	65–70
9	**Rajabova M.** Matn va nashr muammolari (Nodira “devon”i misolida)	70–78
10	**Mirzayeva S., Ne’matullayeva S. Luqmon** Bo‘rixon ijodida umrboqiy an’analar va iste’dod jilosi	78–82
11	**Amonova Z.** Saif Zafari Buxoriyning “Durrul majolisi turkiy” asarida payg‘ambarlar talqini	82–88
12	**Kasimov A., Madaliyev Y.** Badiiy retsepsiya va A. Kamyu ijodi	88–93
13	**Tojiboyeva M.** Jadid she’riyatida an’anaviy badiiy san’atlar talqini	93–101
14	**Muxitdinova N.** Ibratdan ingan ma’rifat	101–105
15	**Hasanova Sh.** Hikoyat va rivoyatlarning insonning ma’naviy rivojlanishidagi ahamiyati	105–111
16	**Kobilova Z., Tursunova N.** Mumtoz adabiyotda badiiy obraz va obrazlilik (Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy lirikasi misolida)	111–119
17	**Odilov Y.** Til siyosati va milliy-madaniy masalalar	119–124
18	**Jafarov B.** Qadimiy qo‘lyozmalar taqvimlarining o‘ziga xos xususiyatlari	124–132
19	**Davlatov O.** Ma’naviy tarbiyada kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishning ahamiyati	132–139
20	**Karimova F.** Qo‘qon adabiy muhitida debochanavislik an’analari	139–146
21	**Nazarova Sh.** “Chig‘atoy gurungi”ning taqiqdan keyingi qadamlari	146–153
22	**Ibragimova E.** Ironiya va uning lingvistik tabiati	153–160
23	**Oripova G**. Aruz she’r tizimida ritm	160–166
24	**Axmadov A**. Adabiy muhit! Adabiy harakat! Adabiy hayot!	166–171
25	**Kobilova E., Teshaboyeva Z.** Adibning konflikt yaratish mahorati (Abduqayum Yo‘ldoshevning “Jadid” qissasi misolida)	171–175
26	**Safarova H.** Buxoro qo‘lyozmalar fondidagi noyob durdona	175–180
27	**Abdurashidov A.** Shashmaqom tizimini savt turkumining ritmik qoliplari haqida	181–189
28	**Sattorova G.** Umar Sayfiddin ijodida qadriyatlar falsafasi	189–197
29	**Jo‘raboyev O.** Mumtoz adabiyotda qadriyat va bag‘rikenglik g‘oyalari	198–203
30	**Eshanova Z**. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida afsona va rivoyatlar sintezi	204–213
31	**Hojiyeva Sh.** Cho‘lpon she’riyatida xalqona obraz va motivlar talqini	214–220
32	**Ahlilloyev T.** Komil inson tarbiyasi Ibn Sino antropologik qarashlarining yetakchi g‘oyasi	220–227
33	**Axmedov J.** Oybek uy-muzeyi: bebaho ilmiy-ma’naviy maskan	227–232
34	**Ӯрунова М.** Инсонгарой дар “Хирадномаи Искандарӣ” - Мавлоно Абдураҳмони Ҷомӣ	232–242
35	**Неъматзода М.** Аҳамияти тарбиявии зарбулмасал ва мақолҳои халқӣ	242–248

36	**Қаюмова Ф.** Тарбияи Худшиносӣ Аз Дидгоҳи Абдураҳмони Ҷомӣ	248–251
37	**Суюнов М.** Румийнинг бир муламмаъ ғазали ҳақида	252–255
38	**Файзуллоев Б.,** Бойматов Шавкат Мумтоз адабиётда ёшлар маънавияти масаласи (Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий ижоди мисолида)	255–264
39	**Muminov M.** G‘azal nafosati	264–271
40	**Мамаҷонов С.** Мавқеи Асарҳои Садриддин Айнӣ дар тарбияи Маънавии Ҷавонон	271–275
41	**Муҳаммадзода Ҷ.** «Бӯстон»-и Саъдии Шерозӣ дар адабиёти ўзбек	276–284
42	**Eshniyazova A.** Bolalikning sog‘inch kitobi	284–292
43	**Abdullayeva G.** Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi arxivida saqlanayotgan navoiyshunos olimlar arxivi haqida	292–299
44	**Abdurahmonova B.** Professor Inomjon Rasulovning ilmiy qarashlari	299–302
45	**Toshboltayeva T.** Gahi ko‘rdim falakdin notovonlig‘	302–307
46	**Yigitaliyev U.** Tilda “shaxs omili” tushunchasining ifodalanishi (lisoniy sathlar uyg‘unligi aspektida)	307–311
47	**Rahmonov G‘.** Matnning assotsiativ maydonini shakllantirish tartibi (A. Oripovning “Ayol” she’ri misolida)	311–318
48	**Saidakbarova M., Sobitova R**. Qatag‘on davri voqeliklarining Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” romanida aks ettirilishi	318–328
49	**Xasanova B.** Yozuvchi uslubida estetik idealning namoyon bo‘lishi	328–333
50	**Karimova Sh.** Vasliy ijodining XX asr boshlari Sharqiy Turkistondagi o‘rni va ahamiyati	333–338
51	**Abdurahmon Z.** “Qisasi Rabg‘uziy”da turkiylar va turk tili	338–342
52	**Darmonova M.** Jadid matbuotida til va shaxs ma’naviyati	342–349
53	**Asqarov D.** G‘oya, mavzu va ma’no mushtarakligi	349–359
54	**Ahmadaliyev L.** “O‘zbek adabiyoti namuna daftari” tazkirasining adabiy ahamiyati	359–366
55	**Umurzakov R.** “Shum bola” qissasida bola e’tiqodi	366–373
56	**Kurbanova F.** Isajon Sulton hikoyalarida folklorizmlarning o‘rni	373–380
57	**Jo‘rayeva R.** O‘zbek va tojik tillari o‘rtasidagi leksik-semantik o‘xshashliklar	380–388
58	**Azimova Z.** Alisher Navoiy asarlarida ruhiy holatlarning tasviri	388–394
59	**Usmonov S.** “Mahbubul qulub” asarida inson ma’naviyatiga doir qarashlar	394–402
60	**Raxmatullayev A.** Talaba-yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishning ijtimoiy-ma’naviy omillari	402–411
61	**Egamberdiyeva G.** “O‘zbek tili izohli lug‘ati”dagi sinonimik qatorlar	411–419
62	**Mirzakarimova M**. A. Qodiriy asarlarida tarixiylik va badiiylik uyg‘unligi	419–425
63	**Eshquvvatova M**. O‘zbek adabiyotida milliy qadriyatlar va ma’naviyat	425–433
64	**Qodirova D**. “Boburnoma”da tasviriy vositalarning ifoda kuchi	433–439
65	**Rustamova G**. Adabiy-estetik tafakkur va zamonaviylik	439–445
66	**Sodiqova R**. Alisher Navoiy asarlarida badiiy tafakkur va ma’naviy meros	445–452
67	**Islomova D**. She’riy tilda badiiylik mezonlari	452–459
68	**Ortiqova M**. Istiqlol davri o‘zbek nasrida ijtimoiy muammolar yoritilishi	459–467
69	**Haydarova Z**. Mumtoz adabiyotda inson fazilatlari talqini	467–473
70	**Salimova R**. O‘zbek maqol va matallarida axloqiy-etik qadriyatlar	473–478
71	**Mahmudova N.** Badiiy matnda shaxs ma’naviy olamining aks etishi	478–485
2-SHO‘BA. TIL VA ADABIYOT O‘QITISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR		
72	**Quronov M., Umarov R., Jumaboyev A**. Ona tili darslarida o‘smirlarning “o‘ziga ishonch” ko‘nikmasini o‘lchash va baholashning metodik talablari	486–499
73	**Mavlonova K., Sobirxonova Z.** 7-sinf o‘quvchilarida tinglab tushunishga oid interaktiv amaliy topshiriqlar	500–506

74	**Kobilova E**. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari	506–510
75	**Rahmonov G‘.** Talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi	510–515
76	**Muratova D**. Uzr nutqiy aktining lingvokulturologik tadqiqi	515–518
77	**Asqarov D**. Adabiyot fanini o‘qitishda STEAMni joriy etish	518–523
78	**Imomaliyeva M., Niyozova**. Bolalar nutqining rivojlanishiga multfilmlarning ta’siri	524–530
79	**Parpiyev O.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishning pragmatik usullari	530–538
80	**Негматова М., Мингбоева О.** Формирование культуры устной и письменной речи учащихся на уроках русского языка	538–544
81	**Негматова М., Негматова А**. Формирование толерантности у учащихся на уроках русского языка и литературы	544–549
82	**Sadriddinova Z., Akbaraliyeva N.** Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning innovatsion usullari	549–554
83	**Юлбарсов Ф.** Эвфемизмы в языке: искусство смягчения реальности	554–559
84	**Sunatov J., Zikrillayeva F., Husenova M., Sanayeva M.** Ingliz tilini o‘qitishdagi muammolar	559–566
85	**Ne’matov A.** Teaching English in Uzbekistan's Secondary Schools: A Decolonial Approach	567–575
86	**Eraliyeva Z., G‘ulomova D.** O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning rivojlanishi va istiqbollari	575–584
87	**Mirzaabdullayeva M**. Ingliz tilida konnotatsiyali birliklarni o‘rgatishning muammolari va samarali yondashuvlar	584–587
88	**Raxmatova M.** Xorijiy tillarni o‘qitishda aksiologik yondashuvning metodik asoslari	587–592
89	**Berdimuratova M.** Vizual-kinesik kommunikatsiya (frenologiya, fiziognomika, ekspressiv harakatlar, okuleksika yoki okulamantiya) ning ifodalanishi	592–597
90	**Azimov S.** Til va adabiyot o‘qitishda zamonaviy muammolar va innovatsion yechimlar	597–605
91	**Shabidinova Z.** Leksik kompetensiya	605–610
92	**Кудратова Г., Райимжонова С.** Современные подходы к изучению и консервации русских диалектов	610–617
93	**Buranova M.** Integrating language skills for effective language teaching	617–623
94	**Maqsudova Sh.** Teacher’s physical presence in class	623–628
95	**Shayxislamov N.** Adabiyotshunoslikda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati	628–633
96	**Zaripova Z., Sattarova D.** Sotsiolingvistik kompetensiyani anekdotlar orqali shakllantirish metodikasi	633–637
97	**Abdisharipova M., Sultanova D.** Til va adabiyot o‘qitishda muammo va yechimlar	637–644
98	**Abduolimova M., Mahmadaliyeva M.** Integrating innovative teaching technologies in foreign language education	645–651
99	**Ковалёва Н., Ковалёв А.** Использование дидактических приемов при работе с нейросетями	651–659
100	**Mirzaahmedova H**. Adabiy qahramonlar obrazini o‘rganishning didaktik asoslari	659–664
101	**Shaymardonov A., Mahmudova N.** Eshitishida nuqsoni bor bolalarga ingliz tili “vocabulary”sini o‘rgatish	664–667
102	**Muxammadova K., Abduolimova M.** The art of giving directions in a	667–671

	personal letter	
103	**Vohidova M., Abduolimova M.** Modern pedagogical technologies and their role in the educational process	671–676
104	**Xomidjonova G**. Understanding the communicative approach in English language teaching	676–680
105	**Maksimova Z**. Til va adabiyot o‘qitishda muammo va yechimlar	680–685
106	**Yusupov A.** Challenges and solutions in teaching language and literature	685–691
107	**Vohidov N.** Structure of conversation	691–697
108	**Sobirova I.** Shodmonqul Salom she’riyatida ishq talqini	697–701
109	**Yo‘ldasheva S.** Maktablarda fonetika va grafika o‘qitish usullari	701–707
110	**Shamsiddinova S.** Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashning zamonaviy usullari va soha rivojidagi ahamiyati	707–710
111	**Mamatqulova S.** Rahbarlar malakasini oshirishning ta’lim sifatini yaxshilashdagi o‘rni	710–714
112	**Muqimjonova N.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalar	715–722
3-SHO‘BA: SUN’IY INTELLEKT VA INSON IJODKORLIGI: RAQOBAT YOKI HAMKORLIK		
112	**Muqimjonova N.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalar	715–722
113	**Sulaymonov M., Xoldorova G.** “Navoiyshunoslik” sohasida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish	723–730
114	**Xasanov A.** Sun’iy intellektda kontrast va qarshilik modellari: antonimiyaning kognitiv aspekti	730–738
115	**Radjapov K., Erkayeva B.** Globallashuv sharoitida “komil inson”ni tarbiyalashda sun’iy intellekt va qadriyatlar mutanosibligi shaxs ijodkorligi mahsuli	739–745
116	**Nishonov S. J.** “Aql intellektuallashuv jarayonida raqobatbardosh zamonaviy sikl”	745–755
117	**Ковалёв А., Мамайко Д.** “Искусственный интеллект и человеческое творчество: Конкуренция или сотрудничество”	755–761
118	**Aripova K., Akramjonova M.** “The role of innovations in learning new languages”	761–769
119	**Satimboyeva X.** “Ta’limni boshqarishda sun’iy intellekt: Afzalliklari va kamchiliklari”	769–779
120	**Buzurukov A.** “Artificial intelligence and human creativity: Synergy or substitution?”	779–788
121	**Ergashev B**. “Tibbiy tarjimada sun’iy intellekt: Tarjimon insonlar bilan raqobatchimi yoki yordamchi?”	788–795
122	**Inoyatova D.** “Bolalar adabiyotida sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari: Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda raqobatmi yoki hamkorlik?”	795–805
123	**Sunatov J., Zikrillayeva F., Husenova M. M., Sanayeva M.** “Sun’iy intellekt va tilshunoslik”	805–812
124	**Murtozaqulova N., Abdullayev S.** “O‘zbek tilining raqamli texnologiyalardagi o‘rni va rivoji”	812–818
125	**Xayrullayeva N.** “O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish”	818–825
126	**Buzurukova K.** “How Generative AI Can Augment Human Creativity”	825–834
127	**Anvarova X.** “The impact of media literacy and information technology on english skills”	834–838
128	**Boynazarova K., Nabiyeva D**. “The Interplay of AI and Human Creativity:	838–844

	Problem of Competition or Symbiosis”	
129	**Baxarova A.** “Artificial intelligence and human creativity: Competition or collaboration?”	844–850
4-SHO‘BA. BADIIY VA ILMIY TARJIMA MASALALARI		
130	**Zokirov M., Zokirova S.** Dominant tillar ta’siri ostida milliy til ekologiyasi va leksik interferensiya	851–861
131	**Ochilov E.** Xurshidning tarjimonlik mahorati	861–873
132	**Nurulloyeva M.** Нақши “Илоҳинома” –и Аттор дар ташаккули ахлоқи ҷомеа (дар мисоли тарҷумаи ӯзбекии он)	873–881
133	**Karimov M.** Badiiy tarjimaning o‘ziga xos jihatlari va lingvistik xususiyatlari	881–886
134	**Karimov M.**, Mamatxoliqov B. “O‘tkan kunlar” romanidagi sinekdoxa tasviriy vositasining qo‘llanilishi va inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari	886–890
135	**Xabibullayeva F.** К вопросу об оценке качества перевода художественного произведения	890–899
136	**Qodirov A.** Tarjimashunoslikning dolzarb masalalari tadqiqi (Dilmurod Quronov ijodi misolida)	899–905
137	**Ergashev B.** Ilmiy tibbiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi lingvistik va terminologik muammolari	905–914
138	**Djurayev M**. “Devoni Foniy”ning Hakimo‘g‘lu Ali Poshsho kolleksiyasi nusxasi tavsifi	914–924
139	**Ergasheva S.** Tarixiy realiyalarni tarjimada qayta tiklash masalasi	924–934
140	**Abduxalilova D.** Nemis tilidan o‘zbek tiliga she'riy tarjima muammolari: ta’rif, tasnif, tahlil va taklif	934–939
141	**Alibekova D.** English romanticism and it's development	940–946
142	**Sheronov B.** Gap qurilmalarida semantik-sintaktik nomutanosiblikning ba’zi masalalari haqida	946–951
143	**Sobirova I.** Shodmonqul Salom she’riyatida tasavvufiy obrazlar	951–956
5-SHO‘BA: ADABIYOT VA TILNING SHAXS PSIXOLOGIK VA MA’NAVIY RIVOJIGA TA’SIRI		
144	**Aliyev B.** Jozef Nayning “Yumshoq kuch” konsepsiyasi va unga yondosh konsepsiyalarning siyosiy-ma’naviy va falsafiy jihatlari	957–960
145	**Jumanova Sh.** Badiiy matn va ma’naviy tarbiya: o‘quvchi-yoshlar kamolotiga ta’sir omili sifatida	960–968
146	**Mirzaaxmedova N**. Adabiyot va ma’naviy qadriyatlarning insonning ichki dunyosiga ta’siri	968–972
147	**Jalolova Sh., Ismoilova N.** Multimadaniyatli kontekstda ingliz adabiyotining o‘quvchi psixologiyasiga ta’siri	973–978
148	**Ashurova G.** Navoiy ijodida inson ruhiyati va ichki dunyosining yuksalishi haqidagi qarashlar	978–985
149	**Eshonqulova G**. She’riyatning ruhiy salomatlik va emotsional muvozanatga ta’siri	985–990
150	**Ismoilova F.** Alisher Navoiy asarlarida inson ma’naviy kamolotining badiiy talqini	990–997
151	**Vahobova N.** Urush yillari ko‘zgusida tarbiya, sadoqat va xiyonat	997–1005
152	**Tursunboyeva U.** Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bolaning psixologiyasiga ta’siri	1005–1012
153	**Muxtorova M.** Ta’lim sohasiga sun’iy intellektning salbiy va ijobiy ta’siri	1012-1018
154	**Jo‘rayev U.** Adabiyotshunoslikda badiiy asar tili va badiiy nutq uslubi	1018-1021
155	**Javharova N.** Ashurali Zohiriy publitsistikasining yetakchi mavzulari	1022-1029
156	**Ziyouddinova G.** Muhiddin Omon she’riyatida estetik ideal va baxt konsepsiyasining badiiy-falsafiy talqini	1030-1036

157	**Egamnazarova D.** O‘zbek adabiy tilida orfoepik me’yorlar shakllanishining tarixiy-lisoniy asoslari	1037-1042
158	**Jurayev U.** Ijtimoiy adolatsizlikning poetik tabiati	1042-1046